

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**A.M.TURSUNOV**

# **IQTISODIYOT**

O‘quv qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan  
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

**“ILM-ZIYO-ZAKOVAT”**

**TOSHKENT – 2021**

**UDK: 330.01(075)**  
**BBK 65.01.(5 Y)A73**  
**G604**

Tursunov A.M. / Iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. – T: “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2021, 414 bet.

O‘quv qo‘llanma iqtisodiyotning nazariy va amaliy jihatlarini o‘z ichiga oladi va talabalarga asosiy iqtisodiy tushunchalar va qonuniyatlarni o‘rganishga, iqtisodiy tahlil usullarini o‘zlashtirishga, nazariy, statistik, daliliy materiallarni mustaqil o‘rganish ko‘nikmalariga va bu borada tegishli xulosalar chiqarish qobiliyatini, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni obyektiv baholash, ularni hal qilishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini aniqlash, davlatning iqtisodiy siyosatini tahlil qilish imkoniyatini beradigan dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O‘quv qo‘llanma 5230100 - "Iqtisodiyot"(sohalar va tarmoqlar bo‘yicha) yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga mo‘ljallangan.

\*\*\*

Учебное пособие охватывает теоретические и практические аспекты экономики и поможет студентам изучить базовые экономические понятия, экономические законы, овладеть методами экономического анализа, навыками самостоятельного изучения теоретического, статистического, фактического материала и умением формулировать на этой основе адекватные выводы, сформировать мировоззрение, позволяющее студенту объективно оценивать социально-экономические проблемы, определять возможные пути их решения, анализировать экономическую политику государства. Учебное пособие рассчитан на студентов по специальности 5230100 - «Экономика» (по сферам и отраслям).

\*\*\*

The textbook covers theoretical and practical aspects of economics and will help students study basic economic concepts, economic laws, master the methods of economic analysis, the skills of independent study of theoretical, statistical, factual material and the ability to formulate adequate conclusions on this basis, form a worldview that allows the student to objectively assess socio-economic problems, determine possible ways to solve them, analyze the economic policy of the state. The textbook is designed for students of specialties 5230100 - "Economics" (by spheres and industries).

**UDK: 330.101.542 (075.3)**  
**BBK 65.012.1 YA73**

ISBN 978-9943- 895-7-5

Taqrizchilar:

Abulqosimov X.P. - i.f.d. prof. “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası professori (O‘zMU)  
Saidkarimova M.I.- i.f.n. dos. “Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti” kafedrası  
dotsenti (ToshDTU)

© Tursunov A.M. Iqtisodiyot. 2021 y.  
© “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2021 y.

## KIRISH

Iqtisodiyot fani cheklangan resurslar dunyosida moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida odamlarning xatti-harakatlarini, barcha insonlarga ta'sir qiladigan masalalarni o'rganadi. Iqtisodiy hayot sohasida barcha insonlar o'z manfaatlarini va maqsadlaridan kelib chiqib ishtirok etadilar. Har bir inson o'ziga ertami-kechmi ish haqim nimaga bog'liq, nima uchun narxlar oshishi natijasida inflyatsiya vujudga keladi, mamlakatda turmush darajasi boshqa mamlakatdagiga qaraganda farq qilishining sabablari nimada kabi savollarni beradi

Iqtisodiyot fani kishilik jamiyatida mavjud iqtisodiy muammolarning vujudga kelish sabablarini ochib berib, ushbu muammolarning yechimini topish yoki oqibatlarini yumshatish yo'llarini amaliyot bilan chambarchas bog'liq holda asoslab beradi. Iqtisodiyot fanini o'rganish talabalarga iqtisodiy nazariya sohasidan tayyor bilimlar beribgina qolmay, balki iqtisodiy fikrlash tarzini shakllantiradi, ularni jamiyat hayotida sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayon va hodisalarni tushunish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy tahlil usullari bilan tanishtiradi, natijada talaba jamiyatning iqtisodiy hayoti haqida yaxlit tasavvurga, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ushbu qo'llanmani yozishdan maqsad birinchidan, talabalarning o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirishiga yordam berish, ikkinchidan esa bitiruvchilarga ushbu bilimlarni kelajakdagi o'z ishlarida qo'llashga yordam berish

O'quv kursini qanday nomlanishidan qat'iy nazar (siyosiy iqtisod, iqtisodiyot nazariyasi yoki iqtisodiyot) ushbu tegishli kurslarning mazmunini jamiyatni iqtisodiy hayotining nazariy asoslari tashkil qiladi.

Barcha iqtisodiy fanlar iqtisodiy tizimning turli tomonlarini o'rganadi. Xususan, iqtisodiy fanlar qatorida "Iqtisodiyot"dan tashqari amaliy iqtisodiy fanlar mavjud. Ammo iqtisodiy nazariyadan farqli o'laroq, bu fanlar maxsus aniq iqtisodiy fanlardir. Iqtisodiyot fani esa ushbu amaliy fanlarning metodologik asosini tashkil qiladi.

O'quv qo'llanma iqtisodiyotning umumiy asoslari, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, jahon xo'jaligining mazmun mohiyatini ochib beruvchi 22 ta mavzudan iborat. O'quv qo'llanmaning uslubiy apparatini mavzular bo'yicha tegishli materiallar, asosiy atamalar va tushunchalar (glossariy), muhokama qilish uchun savollar tashkil qiladi, ularning javoblari o'rganilayotgan materialni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, qo'llanmada iqtisodiyot bo'yicha materiallar ixcham, ko'rgazmali hamda qulay shaklda va grafikalar, jadvallar yordamida yoritib berilgan, bu bo'lg'usi mutaxassislar uchun ayniqsa muhimdir.

O'quv qo'llanma talabalarga iqtisodiyot kursi bo'yicha mustaqil ishlashda yordam berishi kerak. Undagi nazariy material O'zbekistonda muayyan iqtisodiy

muammoning holatini tahlil qilish bilan uyg'unlashtirgan holda berilgan. Bu talabalarga O'zbekistonda oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlarini mohiyatini va milliy iqtisodiyotimizning rivojlanish istiqbollarini tushunish imkonini beradi.

Ushbu o'quv qo'llanma 5230100 - "Iqtisodiyot"(sohalar va tarmoqlar bo'yicha) yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, ularga o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish va kelgusi ishlarida qo'llay olishlariga yordam berish maqsadlariga xizmat qiladi deb umid qilamiz.

O'quv qo'llanma yuzasidan bildirilgan tanqidiy fikr-mulohazalarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz va keyingi ishlarimizda albatta ularni inobatga olamiz.

# 1. IQTISODIYOTGA KIRISH

## 1.1 Iqtisodiyot fani nimani o'rganadi?

Dunyoda iqtisodiyotdan holi, mustaqil bo'lgan birorta ham soha, birorta ham inson yo'q. Inson xohlaydimi yoki yo'qmi, lekin farovonlikda yashash uchun iqtisodiy qonunlarga bo'ysunishi kerak. Ushbu qonunlar inson kelajagini - unga qulay va uzoq umr ko'rishni ta'minlaydigan faoliyat turini tanlashga imkon beradi. Undan tashqari inson o'z hayoti mobaynida daromadlarni topish va ularni sarflash bilan bog'liq iqtisodiy muammolarni hal etishga harakat qiladi. Buning uchun esa inson oddiy iqtisodiy qoidalarni bilishi, shuningdek, iqtisodiyotning tuzilishi va unda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

**Fanning mavzusi - u yoki bu fanning nimani tadqiq etishi va o'rganishidir.** Masalan, biologiyada tirik tabiat, organik hayotning rivojlanish qonunlari o'rganiladi, falsafa tabiat, jamiyat va tafakkur rivojlanishining universal qonunlari haqidagi fandır. Biz iqtisodiyotni o'rganishni boshlaymiz. **"Iqtisodiyot" so'zining o'zi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, tom ma'noda "uy xo'jaligini yuritish qoidalari" ma'nosini anglatadi. ("oikos" - uy, maishiy, "nomos" - qoida, qonun).** Arab leksikonida «iqtisod» tejamkorlik ma'nosida tushunilgan, chunki islom diniga oid adabiyotlarda tejamkorlikka alohida e'tibor berilgan. Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot tushunchasi faqat uy xo'jaligini yuritish yoki tejamkorlik ma'nosi bilan cheklanmaydi. **Iqtisodiyot - bu jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlovchi xo'jalik yuritish tizimi.** Hozirgi davrda iqtisodiyot uy xo'jaligi, firmalar va davlat hamda ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlardan iborat bo'lgan juda murakkab organizm hisoblanadi.

**Iqtisodiyotning asosiy vazifasi - bu odamlarning hayoti uchun zarur bo'lgan va ularsiz jamiyat rivojlana olmaydigan ne'matlarni doimiy ravishda yaratishdir.** Iqtisodiyot cheklangan resurslar dunyosida inson ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Ushbu kursda "Iqtisodiyot" atamasi "Iqtisodiyot nazariyasi", "Iqtisodiyot fani" ma'nosida qo'llaniladi (sinonim so'zlardan bunday foydalanishga ko'plab misollar keltirish mumkin, masalan, matematika va matematik nazariya, biologiya va biologiya nazariyasi).

Iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, Iqtisodiyot nazariyasi odamlar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni hamda jamiyatdagi inson xatti-harakatlarini o'rganadi. Shu bilan birga, sotsiologiya va

falsafadan farqli o'laroq, faqatgina iqtisodiyot fani, **iqtisodiy** aloqalar va munosabatlarni va odamlarning **iqtisodiy** xatti-harakatlarini o'rganadi. Inson hayotida doimo "iqtisodiy muammolar" mavjud bo'ladi.

Masalan, oila a'zolari ko'paygandan so'ng, oilaning turar joyini kengaytirish zarurati vujudga keladi, biroq oilada turar joyni kengaytirish uchun mablag' yo'q. Oyoq kiyim ishlab chiqaradigan korxonada bankrot bo'lish arafasida, u yerda ishlab chiqarish hajmi shunchalik pasayganki, 1000 ishchi o'rniga 200 ishchi ishlamoqda, qolganlari ishsiz qoldi, biror mamlakatda devalvatsiya ro'y berdi, natijada yilning boshida import tovarlarning narxi 4-5 baravarga oshib ketdi. Talabaning bir oy yashashiga 2 mln. so'mi bor, bu mablag'ni talaba turlicha sarflashi mumkin. Ammo bu pul miqdori yetarli emas, shuning uchun u pulni sarflashning eng yaxshi oqilona usulini tanlashga harakat qilishi kerak. Qo'shimcha daromad izlash, ishsizlik va devalvatsiya va tanlov zarurati (pulni qanday sarflash kerak? Nima sotib olish kerak?) - bularning barchasi iqtisodiy muammolardir. Shuningdek, iqtisodiyot fani ijtimoiy munosabatlarni, ne'matlarni ishlab chiqarish taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida iqtisodiyotni tashkil etish va tartibga solish, narxlar va pul daromadlari, ishsizlik, inflyatsiya, qashshoqlik va tengsizlik, atrof-muhitning ifloslanishi kabi ko'plab muammo va masalalarni ko'rib chiqadi. Ushbu barcha muammolar ishlab chiqarish harajatlarining minimal miqdori bilan zarur miqdordagi tovarlarni yaratish muammosining aksi hisoblanadi. Haqiqat shundaki, inson ehtiyojlari cheksizdir, ammo ularni yaratish uchun zarur resurslar cheklangan. Demak, iqtisodchilarning diqqat markazida odamlar ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda cheklangan resurslardan samarali foydalanish yo'llarini izlash yotadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, iqtisodiy muammolar odamlar tomonidan, kishilik jamiyati doirasida hal qilinadi.

**Jamiyat** tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borliq bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yig'indisi, uning asosiy elementlari - insonlar, ularning birgalikdagi faoliyat shakllari, birinchi navbatda mehnat, mehnat mahsuli, turli mulkchilik shakllari, siyosat va davlat, turli institutlarning umumiyligi tushuniladi. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Jamiyatning hayoti iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalardan iborat bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, jamiyat bu murakkab tuzilma bo'lib, unda oila, axloq, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, siyosat,

mafкура, fan, din, milliy munosabatlar mavjud. Ijtimoiy tuzilmaning eng muhim qismi - bu ma'lum bir jamiyatning iqtisodiy tizimidir.

**Iqtisodiy tizim - bu ijtimoiy tizimning bir qismi bo'lib, unda mahsulotlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarini ishlab chiqarish, almashish, taqsimlash va iste'mol qilish amalga oshiriladi.**

Endi bayon etilgan mulohazalardan kelib chiqib Iqtisodiyot fanining predmeti nimani tadqiq etishi va o'rganishini aniqlab olamiz.

Iqtisodchi olim A.Marshalning fikricha? "Iqtisodiyot" fani "kishilik jamiyatining normal hayotiy faoliyatini tadqiq etadi. U individual va ijtimoiy xatti harakatlarning shunday sohasini o'rganadiki, bu farovonlikning moddiy asosini yaratish bilan chambarchas bog'liq.<sup>1</sup> A.Marshalning fikricha, bu fan aynan insonning iqtisodiy xatti- harakatlarini o'rganadi.

K. R. Makkonnell va S.L. Bryularning fikricha "Ekonomiks - bu cheklangan resurslar dunyosida moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida odamlarning xatti-harakatlarini o'rganadi"<sup>2</sup>. Iqtisodiyot nazariysi zamonaviy maktablarining aksariyati o'zlarining predmetini odamlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida cheklangan resurslardan foydalanishni o'rganish deb hisoblaydilar.

Iqtisodiyot fanining predmetiga angliyalik iqtisodchi L.Robbinson tomonidan berilgan ta'rif qisqa va aniqligi bilan ajralib turadi. "Iqtisodiyot - bu inson xulq-atvorini uning maqsadlari va cheklangan mablag'lari o'rtasidagi munosabatlarni, muqobil foydalanishga imkon berish nuqtayi nazaridan o'rganadigan fan."<sup>3</sup> Muqobil foydalanish bu tanlov muammosidir. Demak, resurslarning cheklanganligi va tanlash muaommosidan tashqari insonning iqtisodiy faoliyatidagi **ratsional xulqi** masalasiga ham etibor qaratish lozim. **Uning mohiyati xarajatlarni kamaytirish va foydani ko'paytirishdan iborat.** Foyda va xarajatlar nisbati bu samaradorlik ko'rsatkichidir. Shuning uchun bozor iqtisodiyotini tadqiq etganda, resurslar cheklangan sharoitda ishlab chiqarish harajatlardan iloji boricha ko'proq samara olish, ya'ni samaradorlik diqqat markazida bo'ladi.

Barcha iqtisodiy fanlar iqtisodiy tizimni turli tomonlardan o'rganadilar. Xususan, iqtisodiy fanlar qatorida iqtisodiy nazariyadan tashqari mehnat iqtisodiyoti, industrial iqtisodiyot, menejment, iqtisodiy statistika, xalqaro

---

<sup>1</sup> А.Маршал. Принципы экономической науки. М.: "Прогресс", 1993- С.5

<sup>2</sup> Макконнелл К. Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика -М.: ИФРА-М1999.-34 с.

<sup>3</sup> Коуз Р.Фирма,рынок и право- М.: "Дело" 1993- 4 с

iqtisodiy munosabatlar, korxonalar iqtisodiyoti- jami 19 ta amaliy iqtisodiy fanlar mavjud. Ammo iqtisodiy nazariyadan farqli o'laroq, bu barcha fanlar maxsus aniq iqtisodiy fanlardir. Iqtisodiyot nazariya boshqa barcha iqtisodiy fanlar uchun nazariy asos bo'lgan umumiy nazariy fan hisoblanadi.

Keltirilgan Iqtisodiyot fani predmetiga berilgan ta'riflarda «cheksiz ehtiyojlar», «cheklangan resurslar», «insonning xatti-harakati» tayanch so'zlardir. Endi biz ushbu tushunchalarni ko'rib chiqamiz.

## **1.2 Ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi.**

### **Ehtiyojlarning o'sib borish qonuni**

Iqtisodiy tizimdagi odamlarning xulq-atvori dastlab ularning ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bizning ehtiyojlarimizni qondirish bizga yashash, biron bir narsaga intilish, hayotdan zavq olish, ijod qilish imkoniyatini beradi. **Odamlarning ehtiyojlari deganda umumiy ko'rinishida yashash uchun zarur bo'lgan narsalar tushuniladi.**

**Ehtiyoj – bu shaxs yoki jamiyat rivojlanishini ta'minlab turish uchun kerak bo'lgan ne'matlarga bo'lgan zaruriyat yoki insonning qoniqmaganlik yoki muhtojlik holatidir.** Aynan insonlarning ehtiyojlari ularning hayotlari uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga, boshqa odamlar bilan ortiqcha narsalarni etishmayotgan narsalar bilan almashishga majbur qiladi. Odamlar cheklangan resurslarga taya'nib, o'z ehtiyojlarini qondirishga tayyorlana boshlagan paytdan boshlab, iqtisodiy faoliyat boshlanadi. Insonlarga zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qaratilgan **faoliyat iqtisodiy faoliyat** deb ataladi. Xuddi ana shu zaruriyat yoki qoniqmaganlik holati insonni iqtisodiy faoliyat olib borishga majbur qiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadilar. Aynan ularning resurslardan samarali foydalanib, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish asosida jamiyat ehtiyojlarini to'laroq qondirishga harakat qilishida iqtisodiy faoliyatning mazmuni namoyon bo'ladi. **Iqtisodiy faoliyat** insonlar tomonidan kishilik jamiyatining **iqtisodiy sohasida** amalga oshiriladi.

**Ehtiyojning tub xususiyati uning cheklanmaganligi yoki cheksiz ekanligidadir.** Ehtiyojlar ma'lum mezonlar asosida turkumlanadi.

**Subyektlariga ko'ra** individual, jamoaviy va umummilliy ehtiyojlar farqlanadi.



1. **Individual ehtiyojlar** alohida insonga xos bo'lgan ehtiyojni aks ettiradi. U insonni har taraflama kamol topish uchun zarur bo'lgan fiziologik, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarni o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, oziq-ovqat va kiyim-kechakka bo'lgan ehtiyojlar individual ravishda qondiriladi, bu individual ehtiyojlar.

2. **Jamoaviy ehtiyojlar** – bu oilaviy yoki insonlarning biron bir maqsad sari birlashgan jamoalarga (mehnat jamoasi, turli uyushmalar va h.k) xos bo'lgan ehtiyojlar. Shaharning chekkasida, kichkina ko'chada yashovchilar qorong'i ko'chani yoritishga muhtoj, bu guruhiiy ehtiyojdir.

3. **Umummilliy ehtiyojlar** – bu davlat miqyosida kishilarning bir butun bo'lib tarkib topgan ehtiyojlari. Jamiyatning yaxlit bir organizm bo'lib yashashi uchun zarur bo'lgan ehtiyojdir. Mamlakat mudofaasiga, jamoat tartibini saqlashga, yagona soliq tizimini yaratishga bo'lgan ehtiyojlar ijtimoiy ehtiyojlardir

#### **Obyektiga ko'ra ehtiyojlar quyidagi turlarga bo'linadi:**

1. **Moddiy ehtiyojlar**- ularni qondirish uchun moddiy buyum shaklidagi mahsulotlar mavjud bo'lishi kerak, masalan, oziq-ovqat va kiyim-kechak, transport va uy-joy uchun ehtiyoj.

2. **Nomoddiy ehtiyojlar** - bu moddiy bo'lmagan shaklda qondiriladigan ehtiyojlar, ya'ni ular ma'naviy, axloqiy, estetik ehtiyojlar, masalan, ijodkorlik, odamlarga muhabbat, bilim, tabiat bilan muloqot, go'zallik, o'tmishni bilish va kelajakni ko'rish.

3. **Sotsial (ijtimoiy) ehtiyojlar** - shaxsning ijtimoiy va jamoa faoliyatida qatnashishi bilan bog'liq ehtiyojlar. Ular ijtimoiy tavsifga ega bo'lib, insonlarning birgalikda yashash va hamkorlik qilish zarurligi bilan bog'liqdir.

#### **Iste'mol nuqtayi nazaridan ehtiyojlar quyidagi turlarga bo'linadi:**

1. **Shaxsiy ehtiyojlar**, ular iste'mol buyumlari va xizmatlarda qondiriladi, hamda u insonning bevosita ehtiyoji hisoblanadi.

2. **Ishlab chiqarish ehtiyojlari** ishlab chiqarish vositalarida qondiriladi va u insonning bilvosita ehtiyoji hisoblanadi.

Ehtiyojlarning qondirilish darajasi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Ishlab chiqarish qanchalik rivojlangan bo'lsa, tabiiyki, katta hajmda turli-tuman tovar xizmatlar ishlab chiqariladi va unga mos ehtiyojlar ko'proq qondiriladi.

Ne'matlar (tovar va xizmatlar) ehtiyojlarni qondirish manbaidir. Turli iqtisodchi olimlar ushbu tushunchani turlicha talqin etadilar. Ayrimlari ne'mat

deganda, buyum va ashyolarni, boshqalari esa, faqat mehnat mahsulini emas, balki tabiat in'omlarini tushunadilar.

Ne'matni har qanday ijobiy samara sifatida talqin etish hozirgi davrda keng tarqalgan. **Ne'mat bu – insonlarning ma'lum bir ehtiyojlarini qondiruvchi har qanday naflilik (ashyo, hodisa, mehnat mahsuli).**

Ne'matlar moddiy va nomoddiy, iqtisodiy va noiqtisodiy bo'lishi mumkin. **Moddiy ne'matlar bu:** tabiat in'omlari obi- havo, yer, havo; ishlab chiqarish mahsuloti – bino, mashina va oziq-ovqatlar.

**Nomoddiy ne'matlar-** inson qobiliyatlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar (sog'liqni saqlash, san'at, teatr, muzey, ta'lim va h.k). Ishlab chiqarish resurslardan foydalangan holatda tovar va xizmatlar ishlab chiqariladi.

**Iqtisodiy bo'lmagan ne'mat** insonga tabiat tomonidan taqdim qilinadi, ya'ni ularni yaratishda inson qatnashmaydi, o'z mehnatini sarflamaydi. Ushbu ne'mat turi ehtiyojlarga nisbatan cheksizdir (havo, suv, quyosh nuri). **Iqtisodiy ne'mat** - bu insonning mehnati mahsulidir, inson iqtisodiy faoliyatining obykti yoki natijasi hisoblanadi va u cheklangandir. Iqtisodiy ne'mat tovar va xizmat shaklida bo'ladi. Tovlar moddiy shaklga ega bo'ladi va ishlab chiqariladi, masalan televizor, shim, ruchka. Xizmat moddiy shaklga ega bo'lmaydi va u ishlab chiqarilmaydi, balki ko'rsatiladi, masalan yuridik, tibbiy, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, savdo, turizm. Odam uchun zarur bo'lgan ahamiyati o'sib borayotgan ne'matlar orasida xizmatlar alohida o'rin egallaydi. **Xizmatlar - bu insonning maqsadga muvofiq faoliyati bo'lib, uning natijasi insonning har qanday ehtiyojlarini qondiradigan foydali samarada namoyon bo'ladi. Xizmatning o'ziga xos xususiyati uning moddiy shaklga ega emasligi, foydali samaraga ega inson faoliyati (mehnat) natijasidir.**

Iqtisodiyotning vujudga kelishi va rivojlanishi insonlarning ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lum ehtiyojlarning qondirilishi o'z navbatida yanada yuqoriroq ehtiyojlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ehtiyojlarning o'sishi cheksizdir. Ishlab chiqarishning rivojlanishi ehtiyojlarning doimo o'sishi qonunini keltirib chiqaradi. **Ehtiyojlarning miqdoran ko'payib va sifat jihatidan esa takomillashib borishi, tarkiban doimo yangilanib turishiga ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni deyiladi.** Ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni birinchidan, ishlab chiqarish bilan ehtiyojlar o'rtasida aloqa bog'lanishlarning doimo mavjudligini ko'rsatadi, ikkinchidan esa, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarining rivojlanishi bilan inson ehtiyojlarining yuksalib borishini, uning miqdori o'sib, tarkiban yangilanib borishini

ifodalaydi. Ehtiyojlarning yuksalishi murakkab tarzda kechadi. Iqtisodiyotning davriy harakatida bir tomondan, ishlab chiqarishning erishgan darajasi, ikkinchi tarafdan, miqdor va sifat nuqtayi nazaridan o‘sgan jamiyat ehtiyojlari o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Ushbu ziddiyat iqtisodiyotning rivojlanishini o‘ziga xos harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Shunday qilib, ehtiyojlar kishilik jamiyati rivojlanishi bilan o‘zgarib boradi, ba’zi ehtiyojlar yo‘qoladi, boshqalari paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, ehtiyojlar ularni qondirish imkoniyatlariga nisbatan ham ancha tez o‘sib bormoqda. Ehtiyojlar cheksizdir. Ehtiyojlarni qondirish uchun resurslar, ishlab chiqarish omillari zarur.

### **1.3 Takror ishlab chiqarish va iqtisodiy resurslar**

Har qanday jamiyatning pirovard maqsadi o‘z a‘zolarining ehtiyojlarini ne‘matlarda (tovar va xizmatlarda) to‘laroq qondirishdan iborat. Tovar va xizmatlar real hayotda tayyor holatda mavjud emas, shu bois, jamiyat o‘z ixtiyoridagi resurslardan foydalangan holda, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi va mavjud ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy ne‘matlarni (tovar va xizmatlarni) ishlab chiqaradi. Bu jarayonning ro‘y berishini ta‘minlash uchun insonlar iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari shart.

Iqtisodiyot doirasida moddiy boyliklarni, ya‘ni jamiyat uchun zarur bo‘lgan ne‘matlarni (tovar va xizmatlarni) takror ishlab chiqarish jarayoni ro‘y beradi. Ishlab chiqarish bir marta ro‘y berib to‘xtab qolmaydi, balki doimo uzluksiz davom etadi. Aynan **ishlab chiqarish jarayonining doimo uzluksiz qaytarib turilishiga takror ishlab chiqarish jarayoni deyiladi**. Tovarlar, xizmatlar va resurslarning harakati bo‘yicha takror ishlab chiqarish - **ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste‘mol qilish jarayonlarining birligidan iboratdir**.

Insonlarni iqtisodiy faoliyatining boshlang‘ich nuqtasi **ishlab chiqarishdir**. **Ishlab chiqarish bu ne‘matlarni yaratish jarayonidir**. Biror bir ne‘matni ishlab chiqarish uchun resurslar, ya‘ni ishchi kuchi, ishlab chiqarish qurollari, xomashyo bo‘lishi zarur, ular texnologiyalar yordamida birikib ishlab chiqarish jarayoni ro‘y beradi, natijada esa ne‘matlar yaratiladi.

Takror ishlab chiqarish jarayonining **taqsimlash bosqichida** birinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish natijalari (mahsulot), ikkinchidan esa, resurslar yoki ishlab chiqarish omillari taqsimlanadi. Bozor iqtisodiyotida yaratilgan tovar va

xizmatlar individlarning daromadlariga qarab taqsimlanadi. Resurslarni taqsimlash esa, jamiyatda mavjud mulkchilik institutiga bog‘liqdir, chunki ishlab chiqarish omillari mulk egalariга tegishlidir. Bozor iqtisodiyotida resurslar narx mexanizmi yordamida taqsimlanadi.

**Ayirboshlash** ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchidan iste‘molchiga o‘tish narx mexanizmi yordamida ta‘minlanadi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ayrim kishilar guruhi ne‘matlarning ma‘lum bir turlarini ishlab chiqarish va yetkazib berishga ixtisoslashadilar. Ular yaratgan mahsulotlarini sotib, o‘zlariga kerakli tovar yoki xizmatlarni sotib oladilar, bunda ayirboshlash jarayoni ro‘y beradi.

Natijada turli xil yo‘nalishdagi ishlab chiqaruvchilar yoki xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida iqtisodiy aloqa — ayirboshlash, pul orqali oldi-sotdi jarayoni sodir bo‘ladi, natijada iste‘molchi ehtiyojini to‘laroq qondirish va jamiyat boyligini oshirishga erishiladi. Shu nuqtayi nazardan ayirboshlash jarayoni unumli tasnifga ega.

**Iste‘mol** ishlab chiqarilgan, taqsimlangan va nihoyat ayirboshlangan tovar va xizmatlarning pirovard natijada ehtiyojni qondirish yo‘lida ishlatilishidir. Ehtiyojlarni qondirish jarayonini ifodalovchi iste‘mol jarayonini **shaxsiy va ishlab chiqarish iste‘mol** turlariga ajratish mumkin. Iste‘mol buyumlarining ehtiyojlarni qondirish maqsadida pirovard ravishda iste‘mol qilinishiga **shaxsiy iste‘mol** deyiladi. Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish **unumli iste‘mol** deyiladi.

Shaxsiy ehtiyojlar bevosita iste‘mol buyumlarida qondiriladi. Ishlab chiqarish iste‘moli esa bilvosita ne‘matlardan yoki ishlab chiqarish vositalaridan foydalangan holda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Ushbu tahlil iqtisodiyotda tovar va xizmatlar, resurslar harakati doimo to‘xtovsiz takrorlanib turishini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy rivojlanishning barcha muammolari ehtiyojlarni qondirish uchun resurslarning oqilona sarf qilinishi bilan bog‘liqdir. Chunki har qanday jamiyatda ehtiyojlar cheksiz, ammo tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar cheklangan.

**Iqtisodiy resurslar bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladiga omillardir. Bu iqtisodiy resurslarga berilgan umumiy ta‘rifdir.**

Resurslar bu odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun mavjud bo‘lgan moddiy va nomoddiy imkoniyatlardir.

Resurslarni turkumlashda turli yondashuvlar mavjud. Iqtisodiy fanda mumtoz maktab namoyondalari resurslar mehnat, yer, kapitaldan iborat deb hisoblaganlar. Marjinlistik nazariya resurslar tarkibiga yer, mehnat, kapital va tadbirkorlik qobiliyatini kiritadi. Postindustrial jamiyat iqtisodiyot nazariyasida resurslar tarkibiga qo'shimcha ravishda axborot va ekologik omillar kiritilgan.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan yer tushunchasiga ishlab chiqarish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan tabiiy resurslar, ya'ni ekiladigan yerlar, o'rmonlar, mineral va foydali qazilmalar, suv resurslari kiradi. **Mehnat predmeti (ashyosi) - bu mehnat jarayonida inson ta'sir qiladigan tabiatning mahsuli. Inson ta'sir etgan, ammo keyinchalik qayta ishlashga mo'ljallangan mehnat predmeti xomashyo deb ataladi.** Masalan, kondagi ruda qatlami(mehnat predmeti), kondan ruda qazib olindi (xomashyo) va metall ishlab chiqarishda foydalanildi. Har qanday mehnat predmeti ham xomashyo emas, garchi har qanday xomashyo mehnat predmetidir. (masalan, shaxtadagi ko'mir qatlami mehnat predmeti hisoblanadi, ammo xomashyo emas, chunki unga inson ta'sir etmagan, ya'ni qazib olmagan.) Inson mehnat qurollari yordamida mehnat ashyosiga ta'sir etib, o'ziga zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Masalan, metallan (mehnat ashyosi), stanok (mehnat quroli) yordamida detal ishlab chiqariladi. **Mehnat ashyolari va mehnat qurollari birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi.** Ishlab chiqarish vositalari barcha moddiy resurslarni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan atamadir.

**Insonlar tomonidan yaratilgan foyda keltiradigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalari va pul jamg'armalariga kapital deyiladi.** Kapital - bu ishchi kuchi tomonidan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha narsalar, xususan mashinalar, uskunalar, asboblar, binolar va shu kabilar, ya'ni inson tomonidan yaratilgan ishlab chiqarish vositalaridir. Ishlab chiqarish vositalari mehnat predmetlarini (xomashyo) mahsulot ishlab chiqarish jarayonida o'zgartirish uchun ishlatiladi. Jismoniy shakldagi ishlab chiqarish vositalari **real kapital** deb ataladi. Real kapital iqtisodiy resurs, ishlab chiqarish omilidir. **Pul kapitali** – bu faqatgina real kapitalni sotib olish uchun zarur bo'lgan pul miqdori.

Ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan insonlarning jismoniy aqliy qobiliyatini ko'rsatish uchun mehnat tushunchasi qo'llaniladi. **Mehnat- bu**

**inson tomonidan o'zining jismoniy, aqliy va ma'naviy energiyasini sarflash jarayonidir. Insonlarni mehnat qila olish qobiliyati esa ish kuchi deyiladi.**

Mehnat - bu inson resurslari, ya'ni jamiyatda mavjud bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan ishchi kuchi. Ishchi kuchi (mehnat) ishlab chiqarish omili sifatida odamlarning mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ma'lum malaka, bilimlar, ko'nikmalar va tajribaga ega bo'lishlarini nazarda tutadi. Ishchi kuchi har qanday iqtisodiy tizimning asosiy resursi hisoblanadi. "Mehnat" atamasi tor ma'noda ishchi kuchi ma'nosida qo'llaniladi. Keng ma'noda esa mehnat insonlarni o'ziga zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ongli, maqsadga muvofiq harakati yoki ishchi kuchidan foydalanish jarayonini anglatadi.

**Tadbirkorlik layoqati deganda boshqa resurslarni samarali ishlata olish qobiliyatiga ega bo'lgan insoniy resurs tushuniladi.** Tadbirkorlik qobiliyati - ishlab chiqarishning barcha omillarini samarali birlashtirib, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, tavakkal qilish va yangi g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq eta olish qobiliyati.

**Iqtisodiy resurslar** yoki ishlab chiqarish omillari **noyob va cheklangan** hajmda bo'ladi. Bu noyoblik nisbiy xarakterga egadir, ya'ni resurslar mavjud iqtisodiy rivojlanish darajasida barcha ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan hajmdan kam bo'ladi yoki insonlarning jami moddiy ehtiyojlari barcha mavjud resurslarning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan oshiqdir. Demak, resurslarning cheklanganligi natijasida ishlab chiqarish hajmi ham cheklangan. Shu sabab mutloq mo'l- ko'lchilikka erishib bo'lmaydi. Ehtiyojlarimiz cheksiz, resurslar esa cheklanganligi sababli biz barcha ehtiyojlarni to'liq qondira olmaymiz.

Resurslarning cheklanganligi, bundan kelib chiqqan holda iste'mol uchun ishlab chiqaralayotgan mahsulotlarning cheklanganligi iqtisodiyot uchun fundamental ahamiyatga ega. Bu cheklanganlik iqtisodiy ma'nodadir, atrof muhitda, yer ostida, jahon okeanida, kosmosda cheklanmagan holda resurslar mavjud. Ammo, bizning ilmiy bilimlar darajamiz, texnika va texnologiya'ning rivojlanishi, ishlab chiqarish unumdorligi darajasiga ko'ra, biz har bir ma'lum vaqtda real cheklangan hajmdagi resurslarga ega bo'lamiz, buning natijasida esa, cheklangan miqdorda mahsulot ishlab chiqariladi. Resurslarning cheklanganligi ishlab chiqarish imkoniyatlarini ham cheklab qo'yadi. Natijada ehtiyojlarni to'liq qondirib bo'lmaydi. Biroq, ishlab chiqarish imkoniyatlar darajasi doimo bir xil

bo‘lib turmaydi, balki innovatsiyaviy texnika va texnologiyalarning yaratilishi va ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etilishi o‘z navbatida ishlab chiqarish imkoniyatlarini, uning chegaralarini kengaytiradi. Ya’ni ishlab chiqarilayotgan tovar hamda xizmatlarning sifati va miqdori oshadi, demak ehtiyojlarning qondirilish darajasi ham oshib boradi. Buning uchun esa innovatsiyaviy iqtisodiyotga o‘tish, ishlab chiqarish samaradorligini muttasil oshirib borish zarur.

#### **1.4. Iqtisodiyot fanini bilish usullari**

Iqtisodiyot fanining mavzusini ko‘rib chiqib, u ehtiyojlarning cheksizligi, resurslarning cheklangan sharoitida tovarlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste’mol qilish jarayonida odamlar va iqtisodiy tizimning yaxlit holdagi xatti-harakatlarini o‘rganishini aniqladik. Bunda aynan insonlarning ehtiyojlarini to‘laroq qondirish maqsadida cheklangan resurslarni samarali taqsimlash va ulardan foydalanish asosiy iqtisodiy muammo hisoblanadi.

Iqtisodiyot fanini o‘rganishdan maqsad, birinchidan, voqelikning ko‘pgina dalillarini tahlil qilish, tasniflash va tizimlashtirishdan iborat. Ikkinchidan, iqtisodiyot nazariyasi o‘zining tushunchalari va qonunlari bilan voqelikning real dalillarini izohlashga va tushuntirishga yordam beradi. Masalan, A. Smit tomonidan ishlab chiqilgan "ko‘rinmas qo‘l" qoidasi nima uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida har kim boshqalarning xohish-istaklari va rejalariga zid bo‘lgan shaxsiy manfaatlarini ko‘zlasa-da, jamiyatda muayyan tartib o‘rnatilishini tushuntiradi. Va nihoyat, iqtisodiyot nazariyasi yangi natijalarni bashorat qilishga yordam beradi va shu bilan kelajakdagi o‘zgarishlarni istiqbollashtiradi.

Iqtisodiyot ikki qisimga - **makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyotga** bo‘linadi. Agar mikroiqtisodiyot muayyan iqtisodiy birliklarning (firmalar, uy xo‘jaliklari, sanoat tarmoqlari, ma’lum bir mahsulot narxlari va boshqalar) xatti-harakatlarini o‘rgansa, makroiqtisodiyot esa umuman iqtisodiy tizimlarni (mamlakat yoki jahon iqtisodiyoti, iqtisodiyotning davlat sektori va boshqalar) o‘rganadi. Demak, iqtisodiy tahlil makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada olib borilishi mumkin.

**Tadqiqot usuli** fan mavzusiga bog‘liq. Astronomiyadan farqli o‘laroq, iqtisodiyot teleskop yoki spektral tadqiqot usullaridan foydalana olmasligi aniq. Bundan tashqari, iqtisodiyot fani haqiqatni topish uchun laboratoriya tajribalari o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan fan emas. Iqtisodiyot nazariysida qanday usul

qo'llaniladi? Masalan, bozor iqtisodiyoti harakatlanish tamoyillarini aniqlash uchun qanday usullardan foydalanish mumkin?

**Iqtisodiyot nazariyasi boshqa fanlar singari uning metodologiyasini tashkil etuvchi bilishning turli shakl va usullaridan foydalanadi.** Ular umumilmiy va xususiy usullardan iborat. Umumilmiy usullar - iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan umumiy falsafiy tamoyillar va yondashuvlar. Bunday umumiy yondashuvlar dialektik metod doirasida shakllanadi. Aynan **dialektika** usuli umumilmiy usullar sirasiga kiradi. Iqtisodiyotni o'rganayotganda, dialektik usuldan foydalangan holda iqtisodchilar quyidagi dialektik tamoyillarga asoslanadilar: barcha narsa rivojlanadi, shuning uchun har bir iqtisodiy hodisa rivojlanishda, doimiy harakatda ko'rib chiqiladi; iqtisodiy rivojlanishning ichki impulslari bu iqtisodiy tizim doirasida turli darajadagi ziddiyatlardir.

Iqtisodchilar dialektik usulga taya'nib, iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni xususiy usullar yordamida o'rganadilar. Bu asosan ma'lum bir fanda qo'llaniladigan tadqiqot usullari. Umuman olganda, iqtisodiy nazariyada xususiy tadqiqot usullari guruhini analitik usul sifatida tavsiflash mumkin.

Ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, pozitiv va normativ, makroiqtisodiy va mikroiktisodiy tahlil xususiy usullardan iborat.

**Ilmiy abstraksiya** - (lotincha «abstractio» - diqqatni chetga tortish, bo'lish, chalg'itish) tahlil jarayonida ikkilamchi, ahamiyatsiz narsalardan diqqatni tortish, iqtisodiyotdagi eng muhim faktlar va munosabatlarni ajratib olib, tahlil etish, umumlashtirish va tegishli xulosalarni chiqarish.

**Abstraksiyalashda taxminga yo'l qo'yiladi, ma'lum shart-sharoit bo'lganda nima yuz berishi taxmin qilinadi.** Bu faqat tadqiq qilinayotgan hodisalar va munosabatlar o'zgaradi, qolgan barcha hodisalar va munosabatlar esa o'zgarmas deb hisoblanishini anglatadi. Masalan, narxning talabga ta'sirini bilish uchun, talabga narx omilining ta'siri tadqiq etiladi, talabga ta'sir etuvchi boshqa omillar esa o'zgarmay turibdi deb taxmin qilinadi.

Ilmiy abstraksiya usuli yordamida iqtisodiy hodisalarning mohiyatini tushunib olish va uni yanada chuqurroq ifoda etuvchi tushuncha va qonunlarni shakllantirish mumkin.

**Analiz bilish usullaridan biri sifatida o'rganilayotgan hodisani (butunni) aqliy jihatdan tarkibiy qismlarga ajratishning ko'p bosqichli jarayoniga asoslangan.** Tarkibiy qismlarning har biri alohida o'rganiladi. Masalan, mahsulot tannarxini uni tashkil etuvchi elementlar (xomashyo,



materiallar, energiya, ish haqi va shu kabilar) bo'yicha analiz qilish. O'z navbatida **sintez - bilishning shunday usuli, uning yordamida tarkibiy qismlarni bir butunga birlashtirish mumkin.** Masalan, mahsulot tannarxi barcha elementlar summasi sifatida aniqlanadi. Demak, aslida olganda **analiz va sintez-** bu bir jarayonning ikki tarafi hisoblanadi, shuning uchun ular iqtisodiyot fanida birgalikda qo'llaniladi. Analiz va sintez usuli yordamida iqtisodiy jarayonlar va hodisalar o'rtasida sabab-oqibat aloqalari o'rnatiladi va ularning qonuniyatlari ochib beriladi.

**Induksiya usuli yakka dalillarni o'rganishdan umumiy takliflar va xulosalarga o'tishni ta'minlaydigan xususiydan umumiylikkacha bo'lgan natijalarga asoslanadi.** Induktiv usul birinchi faktlarni tahlil etish va undan so'ng unga asoslanib gipotezani ilgari surishni nazarda tutadi. Masalan, 2019 yilda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishini aks ettiruvchi materiallar va ko'rsatkichlar tahlil etilib, umumlashtiriladi, so'ngra ushbu tarmoq tahlil qilingan davrda samarali rivojlanganligi to'g'risida faraz ilgari suriladi.

O'z navbatida **deduksiya usuli aksincha umumiy xulosalardan xususiylarga o'tishga imkon beruvchi umumiylikdan xususiylikkacha bo'lgan natijalarga asoslanadi.** Deduktiv usul gipotezani (farazni) ilgari surish, keyin uni faktlar bilan asoslashni nazarda tutadi. Bu yerda avval 2019 yilda oziq-ovqat sanoati samarali rivojlangan degan faraz ilgari surilib, keyin esa u tahlil natijasida asoslab beriladi.

Iqtisodiyot fanida bilish usullari sirasida **tarixiy va mantiqiy usul** alohida o'rin tutadi. Ushbu usullar analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullar kabi birgalikda qo'llanadi va bir biriga qarama-qarshi qo'yilmaydi. **Tarixiy usul iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni, iqtisodiy g'oyalar va konsepsiyalarni ular paydo bo'lgan, rivojlangan va almashgan ketma-ketlikda o'rganishga imkon beradi.** Tarixiy usul mantiqiy usul bilan chambarchas bog'liq. **Mantiqiy usul yordamida iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning o'zaro bog'lanishi, ularning umumiyliigi va farqlari, kelib chiqish sabablari va oqibatlari aniqlab olinadi.** Mantiqiy va tarixiy usullarning birligi prinsipi shundaki, iqtisodiy hodisalarni nazariy tahlil qilish ushbu hodisalarning paydo bo'lishi va rivojlanishining haqiqiy tarixiy jarayonini aks ettirishi kerak. Nazariya tarixga, amaliyotga mos kelishi kerak, ularning mohiyatini tasodifiy, hodisa va faktlarsiz ochib berish uchun albatta.

**Pozitiv va normativ usullar. Pozitiv usul bu iqtisodiy voqelikni "qanday bo'lsa shundayligicha ko'rib chiqadi».** Masalan, "tovar narxining

oshishi unga bo‘lgan talabni pasaytiradi” , ushbu fikrda normativ, ya’ni baholovchi mulohazalar yo‘q, faqat fakt qayd qilinmoqda. Bu adolatlami, yaxshimi yoki yomonmi, bu to‘g‘risida gapirilayotgani yo‘q. **Normativ usul esa iqtisodiy voqelikning amalda «qanday bo‘lishi kerak»ligini va buning uchun nima qilish zarurligi xususida tavsiya berishdir. Bu usulda endi hodisaga baho beriladi: adolatlami yoki yo‘qmi yaxshimi yoki yomon.** Masalan, «bozor tizimida daromadlarning notekis taqsimlanishi adolatli emas". Bu fikrda bozor tizimida daromadlarning taqsimlanishga baho berilmoqda, u adolatli emas, deyilmoqda.

Demak normativ va pozitiv yondashuvlar o‘rtasidagi farq shundaki, pozitiv yondashuvni qo‘llaydigan tadqiqotchi iqtisodiy voqelikni "qanday bo‘lsa shundayligicha ko‘rib chiqadi», normativ yondashuvda «qanday bo‘lishi kerak»ligi nuqtayi nazaridan yndashadi. Shuning uchun, bunday tadqiqotlarda real iqtisodiyotni ideal daraja (norma)gacha ko‘tarish bo‘yicha tavsiyalar katta o‘rin egallaydi.

**Iqtisodiy - matematik modellashtirish usuli** matematik apparatga asoslanadi hamda ma’lum sharoitlar va iqtisodiy tizim elementlarining xulq-atvor mantiq‘iga asoslanib, o‘rganilayotgan jarayonlarning miqdoriy tomonlarini va ularning sifat jihatdan yangilanishini, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarish sabablarini va umuman rivojlanishini bashorat qilishga va mumkin bo‘lgan natijani baholashga imkon beradi. Modellar shakli og‘zaki, grafik yoki matematik bo‘lishi mumkin.

### **1.5. Iqtisodiy kategoriya va qonunlar, ularning tasnifi**

Yuqorida zikr etilgan uslublardan foydalanish iqtisodiy tushunchalar – kategoriyalarni aniqlashga imkon beradi.

**Iqtisodiy kategoriyalar - jamiyatning iqtisodiy hayot sharoitini umumlashtirib aks ettiruvchi mantiqiy tushunchalar bo‘lib, ular real iqtisodiy voqelikning in‘ikosi ifodasidir.** Nazariy kategoriyalar ilmiy fikrlash mahsulidir. Masalan, kundalik hayotda bozor deganda ko‘pchilik yig‘ilib savdo qiladigan joy tushuniladi. Iqtisodiyot fanida esa bozor deganda joy emas, pul yordamida ayirboshlash, ya’ni kishilar o‘rtasidagi oldi-sotdi munosabatlari tushuniladi.

Iqtisodiy kategoriyalar obyektiv xarakterga ega, ular konkret ishlab chiqarish munosabatlarni aks ettiradi va tarixiy tavsifga ega. Iqtisodiy

kategoriyalar bir tarafdin ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini anglash natijasidir, ikkinchi tarafdin esa uning vositasidir.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy kategoriyalar ikki guruhga bo'linadi:

**1. Umumiy iqtisodiy kategoriyalar** – iqtisodiy hayotning hamma bosqichlariga xos bo'lgan, masalan, ishlab chiqarish, mulk, mehnat jarayoni, ish vaqti, mehnat taqsimoti, ehtiyoj kabi tushunchalar. Ular iqtisodiyotning umumiy jihatlarini izohlaydi va har qanday iqtisodiy tizimga nisbatan qo'llaniladi.

**1. Ayrim ijtimoiy-iqtisodiy tizimga xos kategoriyalar.** Bu kategoriyalar bitta aniq iqtisodiy tizimga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, tovar, pul, taklif, talab kabi tushunchalar bozor tizimiga xosdir.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy hodisa va jarayonlarni umumlashtirish asosida qonunlar asoslab beriladi.

**Iqtisodiy qonunlar iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning o'zaro bog'likligini ifodalaydi.**

Iqtisodiy qonunlarni o'ziga xos jihatlar bilan tavsiflanadi, jumladan:

- iqtisodiy qonunlar inson ongi va irodasiga bog'liq emas, ya'ni obyektiv xarakterga ega;

- iqtisodiy qonunlar faqat jamiyat a'zolarining mehnat va ishlab chiqarish jarayoni orqali o'zini namoyon etadi, shunisi bilan tabiat qonunlaridan farq qiladi;

- iqtisodiy qonunlar tarixiy xarakterga ega, ularning namoyon bo'lishi, mazmuni, harakat qilish usullari ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga bog'liq;

- insonlar iqtisodiy qonunlarni tatbiq etish yoki bekor qilolmaydilar, insonlar ulardan foydalanishi mumkin.

Iqtisodiy qonunlar o'rganilganda ularning sifat va miqdoriy jihatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Sifat jihatida ko'rilganda ular muntazam takrorlanib turuvchi iqtisodiy hodisalar o'rtasida bog'liqliklar, miqdoriy jihatida esa muayyan qonunning amal qilishini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkichlar tahlil etiladi.

Iqtisodiy qonunlar ularning mazmuniga mos harakat qilish mexanizmiga ega. U genetik-sabab va funksional aloqalardan iborat. Aloqalarning birinchi turi qonuniyat mazmunini shakllantiradi, ikkinchisi esa iqtisodiy qonunlarning

o‘zaro harakatini aks ettiradi. Ushbu jarayonda iqtisodiy qonunlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- iqtisodiyotni tartibga solish vazifasi;
- me‘yor (foйда me‘yori) vazifasi;
- rivojlanish vazifasi;
- istiqbollashtirish vazifasi;
- ijtimoiy vazifasi.<sup>4</sup>

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi iqtisodiy qonunlar asosida ro‘y beradi. Chunki ijtimoiy ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, insonlarning xo‘jalik yuritish qonunlarini anglashi va ulardan o‘z manfaatlari yo‘lida ratsional foydalanishni nazarda tutadi. Iqtisodiy qonunlar ikki guruhga bo‘linadi:

**1.Umumiqtisodiy qonunlar** jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida iqtisodiyotning aniq ijtimoiy shaklidan qat’i nazar amal qiluvchi qonunlardir. Bular jumlasiga mehnat taqsimoti, jamg‘arish, mehnat unumdorligining o‘sib borishi, ehtiyojlarning yuksalishi, mehnat turlarining o‘rin almashinuvi kabi qonunlar kiradi.

**1.Ayrim iqtisodiy tizimlarga xos qonunlar** maxsus qonunlardir. Ular faqat muayyan sotsial-iqtisodiy tizim doirasida amal qiladi. Masalan, talab qonuni, taklif qonuni, me‘yoriy naflilik qonuni va shu kabilar.

Barcha iqtisodiy qonunlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq, bir-biriga ta’sir etadigan harakat bo‘lib ma’lum ishlab chiqarish munosabatlarining mohiyatini va taraqqiyotini to‘laroq ifodalaydi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiyot tushunchasining mazmuni nimadan iborat?
2. Nima uchun inson har doim iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi kerak?
3. Iqtisodiy ta’limotlarning doimo yangilanib borishi sababi nimadan iborat?
4. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va obykti nimadan iborat?
5. Iqtisodiy jarayon va hodisalar qanday usullar yordamida tahlil qilinadi?
6. Iqtisodiy qonunlar nima va ularning qanday turlari mavjud?

---

<sup>4</sup> Вечканов Г.С. Экономическая теория 2-е изд.- СПб.: Питер, 2009 – 47с

7. Iqtisodiy qonunlarning iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimada namoyon bo‘ladi?

8. Iqtisodiy qonunlar “ obyektiv xarakterga ega” degan tezisni qanday tushunasiz?

9. Ehtiyojlarni to‘xtovsiz o‘shish qonunining mazmunini ochib bering.

10. Makroiqtisodiy tahlil bilan mikroiqtisodiy tahlil o‘rtasidagi farq nimadan iborat?

## 2. IQTISODIY TIZIM TURLARI

### 2.1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning modellari

"Iqtisodiy tizim" boshqa har qanday turdagi tizimlar singari, elementlarining yaxlitligi va birligi bilan tavsiflanadigan ko'p o'lchovli majmuadir. **Iqtisodiy tizim – bu o'zaro bog'liq va tartibga solingan iqtisodiyot tarkibiy qismlarining majmui; ma'lum bir yaxlitlikni, jamiyatning iqtisodiy tuzilishini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq iqtisodiy elementlar majmui.**

Iqtisodiy tizim elementlari o'zaro bog'liq, bir-birlarini taqozo etadi, aloqadorlikda bo'ladi va birgalikda harakat qiladi. Iqtisodiy tizim jamiyatdagi turli xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar, aloqalar, jarayonlarning bir butun holda, muayyan tarzda tarkib topishi va tartibga solinishini ifodalaydi.

Har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi. Iqtisodiyot nazariyasida ko'pincha iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan bog'lab turkumlashga harakat qilinadi.<sup>5</sup>

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar – ishlab chiqarish vositalari va ularni harakatga keltiruvchi ishchi kuchining birligidan iborat.** Tabiat resurslari inson xizmatiga jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari orqali qo'yiladi. U o'zining tarkibi (mehnat qila olish layoqatiga ega insonlar, ishlab chiqarish vositalari) va vazifalari (insonlarning ehtiyojlarini qondirish) nuqtayi nazaridan barcha iqtisodiy tizimlarda bir xil, rivojlanish darajasi jihatidan esa farq qiladi. **Inson ishlab chiqarish jarayonida faqat tabiat bilan emas, balki insonlar bilan ham munosabatga kirishadi bunday munosabatlar iqtisodiy munosabatlar deyiladi.**

Iqtisodiy tizim o'zining asosiy elementlari - ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlaridan tashqari, tabiat, siyosat, huquq, madaniyatni ham o'z ichiga qamrab oladi, bular iqtisodiy tizimning asosiy elementlari bilan o'zaro birgalikda harakat qiladilar.<sup>6</sup>

**Iqtisodiy mexanizm** - bu iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi va bir-birini taqozo etuvchi vositalar bo'lib, unga iqtisodiy stimullar (rag'bat beruvchi

---

<sup>5</sup> Y. Xodiyev, Sh.Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi.(Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 89-b.

<sup>6</sup> Вечкнов Г.С. Экономическая теория. 2- изд.- СПб.: Питер, 2009.-52с.

kuchlar), ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'molni tashkil etish, iqtisodiy faoliyatning ixtisoslashuvi, iqtisodiy faoliyat kooperatsiyasi va xo'jalik aloqalarini o'rnatish usullari kiradi.

Iqtisodiy tizimlar ma'lum davrlarda vujudga keladi, rivojlanadi, boyiydi va yangi nisbatan rivojlangan iqtisodiy tizim bilan almashinadi. Iqtisodiy tizim asosan ishlab chiqarish vositalaridan mulkchilik shakli hamda iqtisodiy faoliyatni boshqarish va muvofiqlashtirish usuli bilan farqlanadi. Shunga qarab iqtisodiy tizimlarning **an'anaviy, bozor va ma'muriy -buyruqbozlik turlari farqlanadi.**

Sust rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda **an'anaviy iqtisodiy tizim** mavjud. Unda ishlab chiqarish, daromadlarni taqsimlash avloddan avlodga o'tib boradigan an'analarga asoslanadi. Texnika taraqqiyoti va yangiliklarni tatbiq etish cheklangan, chunki ular an'analar bilan to'qnashib, ijtimoiy qurilmaning barqarorligiga xavf soladi. Diniy va madaniy qadriyatlar iqtisodiy faoliyatga nisbatan birlamchi bo'lib hisoblanadi. Jamiyat oldida turuvchi muammolar o'sha an'analar va urf - odatlar asosida hal etiladi. Bu tizimni o'z davrida deyarli barcha mamlakatlar bosib o'tgan. Zamonaviy mamlakatlarning aksariyati an'anaviy iqtisodiyotning hukmronlik davrini allaqachon bosib o'tganlar. Hozirgi vaqtda Janubiy-Sharqiy Osiyo va Afrikadagi ayrim mamlakatlarda ushbu turdagi iqtisodiy tizim saqlanib qolgan juda kam sonli davlatlarni kuzatish mumkin. Ushbu mamlakatlar mehnat unumdorligi va texnologiyalarning rivojlanish darajasi pastligi bilan tavsiflanadi. Biroq, u yerda ham zamonaviy texnologiyalar va globallashtirish jarayonining ta'siri an'anaviy iqtisodiyot davrining tugashiga tahdid solmoqda. Tarixiy jihatdan olganda mamlakatlar an'anaviy iqtisodiy tizimdan bozor iqtisodiy tizimiga o'tganlar. Bozor iqtisodiyoti ko'plab asrlar davomida tarkib topib, shakllanib, takomillashib, hozirgi davrdagi madaniylashgan shaklni olib ko'pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi natijasida ishlab chiqaruvchilarning alohidalashuvi va ijtimoiy mehnat taqsimotining ro'y berishi natijasida tovar xo'jaligi vujudga kelgan. Bu jarayon ibtidoiy jamoa tizimining yemirilishi davrda ro'y bergan. Aslini olganda shu davrdan boshlab bozor iqtisodiyoti kurtaklari shakllangan.

"Ishchi kuchi" tovarga aylangandan so'ng bozor umumiy xarakterga ega bo'ladi. Yigirmanchi asrga qadar bozor erkin edi. O'zini- o'zi tartibga soluvchi mexanizmga ega, erkin raqobatga va davlatni iqtisodiyotni tartibga solishga aralashmasligiga asoslangan edi.

**Bozor iqtisodiyoti - bu erkin tadbirkorlik tamoyillari, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishning xilma-xilligi, bozor narxlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar, subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga davlatning cheklangan aralashuvi tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tizim.**

Bozor iqtisodiyotining tarixiy jihatdan tarkib topgan ikki, ya’ni **klassik va hozirgi zamon** turlari farqlanadi.

Klassik bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda XVIII asrdan XIX asrning oxirlarigacha qadar mavjud bo‘lgan. Bozor iqtisodiyotining ushbu bosqichi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- iqtisodiy resurslarga xususiy mulkchilik;
- bozorga to‘siqsiz kirishni, iqtisodiyotning bir tarmog‘idan ikkinchisiga kapital oqimini ta‘minlovchi erkin raqobatning mavjudligi;
- ko‘p sonli mustaqil ishlab chiqaruvchilarning mavjudligi, ular qanday mahsulotni qancha miqdorda, qanday texnologiyalar yordamida va kimga sotishni mustaqil ravishda belgilashlari;
- qanday mahsulotlarni qaysi ishlab chiqaruvchilardan sotib olishni mustaqil hal qiladigan ko‘plab iste‘molchilarning mavjudligi;
- tadbirkorga biznes sohasini, xodimga esa uning mehnat bozorida erkin harakatlanishiga imkon beradigan bozorning barcha ishtirokchilarining (shu jumladan ishchi kuchining) shaxsiy erkinligi;
- bozorda talab va taklif ta‘sirida narxlarning stixiyali shakllanishi;
- mahsulotlarning qiymati bo‘yicha ekvivalent almashinuv;
- tadbirkorlarni resurslarni tejashga, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishchi kuchini normal holatda qo‘llab quvvatlashni talab qilinadigan yaxshi holatda saqlashga majbur qiladigan foydani ko‘paytirishga yo‘naltirish.

Shunday qilib, klassik bozor iqtisodiyoti xususiy mulkka, o‘zini o‘zi tartibga soluvchi mexanizmga ega, erkin raqobatga va davlat iqtisodiyotni tartibga solishga aralashmasligiga asoslangan edi. Klassik bozor iqtisodiyoti bozor rivojlanishining dastlabki bosqichlarida ishlab chiqarish omillarining sezilarli rivojlanishini ta‘minladi. Biroq, XX-asrning boshlarida bunday iqtisodiy mexanizm jamiyatning o‘sgan ehtiyojlariga javob bermay qoldi.

Bozor iqtisodiyotining ikkinchi ko‘rinishi **hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti** deb atalib, XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridan buyon amal qiladi. Xo‘sh, XX-asrning oxirlarida qanday jarayonlar natijasida hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti shakllangan?



XIX - asrning oxiri va XX-asrning boshlarida ahvol birmuncha o'zgardi, yirik korxonalar bozorda hukmron mavqeni egallay boshladilar. XIX - asrning oxirida ilmiy kashfiyotlar natijasida sanoat to'ntarilishi ro'y berdi. Xususan po'lat eritishda marten usuli, dinamo mashinasi, ichki yonuv dvigateli, bug' trubinasi ixtiro qilindi. Ishlab chiqarishda bug' ishlatishdan elektr energiyadan foydalanishga o'tildi. Bularning barchasi sanoat ishlab chiqarishida tub o'zgarishlarga olib keldi. Fan va texnika taraqqiyoti yangiliklari ta'siri ostida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi yirik korxonalarining vujudga kelishiga, ishlab chiqarishning to'planuviga, kapitalning esa markzlashuviga olib keldi. Natijada, yirik monopol korxonalar vujudga keldi. Endi erkin (mukammal) raqobatning o'rniga mukammal bo'lmagan raqobat vujudga keldi. Endi raqobat erkin emas, balki ma'lum darajada cheklangan holatda harakat qila boshladi. Monopol korxonalarining bozor mexanzimiga ta'sir etishi, ya'ni narxlarga va raqobatga ta'siri va uni izdan chiqarishi natijasida birinchi jahon iqtisodiy inqirozi vujudga keldi. Bu inqirozdan chiqish davlatning iqtisodiyotga aralashuvi natijasida ro'y bergi. Shu davrdan boshlab endi iqtisodiyot bozor mexanizmi va davlat tomonidan tartiblanadigan bodi. Tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga bozor mexanizmini kuchaytirishda, monopoliyaga qarshi siyosatni olib borishda, bozorning barcha ishtirokchilari uchun umumiy "o'yin qoidalari" ni o'rnatishda davlatning faol rol o'ynashi xosdir.

Hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

a) iqtisodiy resurslarga mulkchilikning turli shakllarining mavjudligi, ya'ni xususiy, davlat, jamoa, aralash va boshqa mulk, mulkchilikning turli shakllarida xususiy mulkning yetakchi rolining saqlab qolinishi;

b) kapital va ishlab chiqarishning yuqori darajada umumlashganligi sababli yirik monopolistik korxonalarini vujudga kelishi bilan raqobatning cheklanishi, nomukammal raqobat bozor strukturasi vujudga kelishi.

d) iqtisodiyot ikki vosita, ya'ni bozor mexanizmi va davlat tomonidan tartibga solinishi. Davlat bozor mexanizmining samarali harakatlanishi uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarni yaratadi va bozor mexanizmi hal qila olmaydiga (inflyatsiya, ishsizlik, aholini ijtimoiy himoyalash va h.k) muammolarni xal qilishni zimmasiga oladi, shuningdek, innovatsiyaviy rivojlanish, ekologik va shu kabi omillarni inobatga olgan holda, turli iqtisodiy tadbirlarni, rivojlanish istiqbolini aniqlash, turli sohalar va tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni tartibga solish chora-tadbirlarini belgilash vazifalarini bajaradi;

e) makroiqtisodiy darajada dasturlash, mikroiqtisodiy darajada esa xo‘jaliklarni yuritishda reja usulidan foydalanishning kuchayishi (biznes rejasi, marketing tizimi orqali boshqarish). Makroiqtisodiy dasturlash- mavjud iqtisodiy sharoitlar, oldiga qo‘yilgan iqtisodiy maqsadlar va unga erishishning vositalari. Makroiqtisodiy dasturlash bu iqtisodiy rivojlanishning analitik oriyentiri yoki vujudga kelgan muammolarning yechimini topish orqali tuzatishni nazarda tutadi. Qo‘yilgan maqsad nuqtayi nazaridan, joriy, barqarorlashtiruvchi va uzoq muddatli dasturlar farqlanadi.

f) ilmiy va texnologik inqilobning rivojlanishiga asoslangan kuchli (ham sanoat, ham ijtimoiy) infratuzilmaning jadal shakllantirilishi.

g) iqtisodiyot xususiy va davlat sektorlarining o‘zaro aloqasiga asoslanadi.

h) ijtimoiy sohani rivojlantirish ustidan davlat nazorati;

i) ijtimoiy himoya’ning kuchayishi.

Hozirgi zamon va klassik bozor iqtisodiyotining umumiy tarafi shundan iboratki, birinchidan, ularning har ikkalasi umume’tirof etilgan bozor tamoyillariga asoslanadi: erkin tadbirkorlik, turli mulk shakllari, raqobat, erkin narxlar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi shartnoma munosabatlari. Ikkinchidan esa, iqtisodiyotni tartibga solish bozor mexanizmi (talab, taklif, narx, raqobat) orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi zamon va klassik bozor iqtisodiyoti o‘rtasidagi farq qiluvchi taraflar quyidagilardan iborat:

-klassik bozor iqtisodiyotida davlat iqtisodiyotni tartibga solishga aralashmaydi, hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida aksincha davlat iqtisodiyotni tartibga solishga faol aralashadi;

-hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti bozor mexanizmi va davlat tomonidan, klassik bozor iqtisodiyoti esa faqat bozor mexanizmi orqali tartibga solinadi;

-klassik bozor iqtisodiyotida raqobat cheklanmagan, narxlar esa bozorda talab va taklif qonunlari asosida erkin shakllanadi, hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida raqobat cheklanganligi sababli narxlarning shakllanishiga monopoliyalar ta’sir eta oladilar;

-hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida xususiy va davlat sektorlarining o‘zaro aloqasiga asoslanadi, klassik bozor iqtisodiyoti esa faqat xususiy sektorga asoslanadi;

-hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida ijtimoiy muammolarni hal qilish davlat zimmasida, klassik bozor iqtisodiyotida esa davlat zimmasida emas. Iqtisodiyotga ta’sirning intensivligi darajasi hamda davlat tomonidan hal

etiluvchi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda, zamonaviy bozor iqtisodiyotining modellari farqlanadi.

**Buyruqbozlik iqtisodiy tizimida mavjud** iqtisodiy muammolar yechimlari bo'yicha davlat qaror qabul qiladi. Barcha resurslar davlat mulki hisoblanadi. Iqtisodiy faoliyat esa markazlashtirilgan rejalashtirish vositasida boshqariladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti **aralash iqtisodiyot** deyiladi. U asosan resurslarga, turli xil mulkchilikka asoslanadi, iqtisodiy faoliyat esa qisman bozor, qisman davlat orqali tartibga solinadi. Bunday iqtisodiyot hozirda barcha rivojlangan mamlakatlarda mavjud. Xususan, **Shvetsiya iqtisodiyoti modelini olsak**, unda iqtisodiy barqarorlik va daromadlarni qayta taqsimlashda davlat faol qatnashadi. Ushbu tizimning asosini ijtimoiy siyosat tashkil etadi. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida yuqori soliq stavkalari belgilangan. Soliqlar yalpi milliy mahsulotning 50 % ini tashkil etadi. Buning natijasida bu mamlakat aholisining yashash darajasi va iqtisodiy o'sish sur'atlari ham yuqoridir.

**AQSH iqtisodiyotida** davlat "iqtisodiy o'yin" tartiblarini, ma'orif sohasini rivojlantirishda, biznesni tartibga solishda muhim o'rin tutadi. Ammo iqtisodiy faoliyatga tegishli bo'lgan ko'pchilik qarorlar bozordagi ahvol unda narxning shakllanishidan kelib chiqqan holda qabul qilinadi.

Aralash iqtisodiyotning ustun tarafi shundan iboratki, u resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligini ta'minlaydi.

Shuni ham ta'kidlamoq zarurki, iqtisodiy muammolarni hal etishning hamma tarafdin e'tirof etilgan yo'li mavjud emas. Shuning uchun har bir davlat o'zining rivojlanish darajasi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda resurslardan samarali foydalanish usullarini topishga harakat qiladi.

## **2.2. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari**

Har qanday iqtisodiyotning maqsadi cheklangan resurslardan oqilona foydalanish muammosiga duch kelgan odamning turli ehtiyojlarini to'laroq qondirishdir. Ehtiyojlar cheksiz, resurslar cheklanganligi sababli ishlab chiqaruvchilar har doim tanlash oldida turadi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish? Qaysi tovar va xizmatlarni va qanday hajmda ishlab chiqarilishi, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning qaysi usullari, qanday texnologiyalar qo'llanilishi, qaysi resurslardan foydalanish maksimal iqtisodiy,

ijtimoiy samara berishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va daromadlar qanday taqsimlanishi, jamiyatning barcha a'zolari, shu jumladan nogironlar, kambag'allar va ishsizlar qanday ta'minlanishi kerakligi aniqlanishi kerak.

Ushbu murakkab va ko'p qirrali muammolarni hal qilishda iqtisodiyot o'z oldiga barqaror iqtisodiy o'sishni, to'liq bandlikni, narxlar barqarorligini, iqtisodiy erkinlikni, daromadlarni teng taqsimlashni, keksalar, kasallar va kam ta'minlanganlar uchun ijtimoiy kafolatlar berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

**Bozor iqtisodiyoti - bu takror ishlab chiqarishning tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.** Bozor iqtisodiyoti deganda odatda iqtisodiy qarorlar markazlashtirilmagan shaklda qabul qilinadigan iqtisodiyot tushuniladi. Bozor iqtisodiyotining asosini bozor munosabatlari tashkil qiladi. Bozorning ko'plab ta'riflari mavjud, ammo ularning barchasi, mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro bog'liqlik shakli ekanligidan kelib chiqadi. Bozor iqtisodiyotida bozor aloqalari butun tizimni, uning barcha bosqichlarini: ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlarini hamda iqtisodiy munosabatlarning barcha subyektlarini qamrab oladi. Uy xo'jaliklari, biznes (tadbirkorlar) va davlat bozor iqtisodiyotining asosiy subyektlaridir.

**Uy xo'jaliklari** - bir yoki bir necha shaxsdan iborat iqtisodiyotning iste'mol sohasida faoliyat yurituvchi asosiy tarkibiy birlik. Uning doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, yaratilgan pirovard tovar va xizmatlar iste'mol qilinadi. Uy xo'jaliklari resurslarning egasi hamda ularni yetkazib beruvchi hisoblanadi. Ayni paytda yaratilgan tovar va xizmatlarning iste'molchisi hisoblanadi. Chunki, uy xo'jaliklari resurslarini sotishi natijasida olgan daromadlariga tovar va xizmatlarni xarid qiladilar.

**Biznes ( tadbirkorlar)** - mustaqil qaror qabul qilish asosida, bozorda sotish maqsadida mavjud resurslardan foydalanib, mahsulot ishlab chiqaruvchi, har doim foydasini ko'paytirishga harakat qiluvchi korxonalar (firma). Korxonani tashkil qilish tadbirkor tomonidan o'z kapitali yoki qarzga olingan kapitalni avanslashni taqozo etadi, bu kapitaldan olingan daromad oddiygina shaxsiy ehtiyojga emas, balki ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun ham sarflanadi.

**Hukumat (davlat)** - foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan har xil byudjet tashkilotlari va muassasalari sifatida namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotning barcha subyektlari bozor obyektlariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish yuzasidan iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar. Tovar va xizmatlar, ishlab chiqarish omillari (mehnat, yer, ishlab chiqarish vositalari), pullar, qimmatli qog'ozlar, subsidiyalar, ijtimoiy to'lovlar va shu kabilar **bozorning obyektlaridir**.

Bozor iqtisodiyoti mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri **erkin tadbirkorlikdir**. Tadbirkorlar erkin va mustaqil ravishda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni tashkil etadilar, o'z xohishlariga binoan mahsulot va xizmatlarini sotish, sotuvchi va xaridorlar tanlash imkoniyatiga egadirlar, ularning o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar ixtiyoriylik asosida quriladi.

Bozor subyektlarining iqtisodiy mustaqilligi **turli mulk shakllarining mavjud bo'lishi** negizida ularning mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va uning natijalarini mustaqil tasarruf etishi huquqi tashkil qiladi, ikkinchidan esa raqobat mavjud bo'lishi uchun mulkning xilma-xil tur va shakllari bo'lishi kerak va ularning barchasining bir xil sharoitda harakatlanishi ta'minlanishi kerak.

**Tanlash erkinligi** har kimning pul daromadlarini ishlab topish va ko'paytirish istagida amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida bozorning asosiy belgisi sifatida raqobat uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bozorda resurs yoki mahsulot va xizmatlarga xaridor hamda sotuvchilarning ko'pligi, ularning bozorga kirish va tark etish erkinligi raqobatning farqlovchi xususiyatlaridir. Bozor **iqtisodiyotida raqobat orqali** resurslarini tarmoqlar va korxonalariga samarali taqsimlash va mahsulot ishlab chiqarish hajmini bozor talabiga moslashtirish amalga oshiriladi.

**Narx bozorning** o'zini-o'zi tartibga solish tizimida asosiy bo'g'in hisoblanadi. Yakuniy narx darajasining shakllanishi ishlab chiqarish sohasida emas, balki muomala sohasida, ya'ni bozorda ro'y beradi. Shuning uchun narx har doim bozor kattaligi hisoblanadi. Mahsulotlar, tovarlar, xizmatlarning narxlari mulkdorlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan belgilanadi, buning natijasida ishlab chiqaruvchilarni mehnat natijalaridan ajratib bo'lmaydi. Narxlar taklif (ishlab chiqarish) va talab (iste'mol) o'rtasidagi nomutanosiblikni aniqlaydi va bir zumda javob beradi - bozor narxlari mexanizmi yordamida talab va taklif muvozanatlashtiriladi. Narx

raqobatbardoshlik xususiyatiga ega, raqobat kurashi, resurslarni qayta taqsimlash, kapitalning bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa o'tib turishining vositasidir. Umuman olganda, bozor iqtisodiyotining asosini talab hamda taklif, raqobat va narxdan iborat mexanizm tashkil qiladi. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti faqat erkin raqobatbardosh narxlarda samarali ishlashga qodir va bu har bir tadbirkorni narxlarning moslashuvchan usullaridan foydalanishga majbur qiladi.


**Demak, bozor iqtisodiyoti erkin tadbirkorlik, ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikning turli shakllari, bozor narxlari, va raqobat, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi shartnoma munosabatlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga cheklangan davlat aralashuviga asoslangan iqtisodiy tizim.**

Bozor tizimining o'z- o'zini tartibga soluvchi mexanizmi mavjud. Bozorning o'zini o'zi boshqarish mexanizmi tovarlar taklifi va bozor talabi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri va teskari iqtisodiy aloqalarni o'z ichiga oladi. To'g'ridan-to'g'ri aloqa tovarlarni ishlab chiqarishda (taklif) talabni oldindan belgilab qo'yishi bilan izohlanadi. Barcha ishlab chiqaruvchilar mijozlarning ehtiyojlari (talablari) bilan bog'liq muammolarni (nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish?) mustaqil ravishda hal qiladilar. Biroq, erkin bozor sharoitida, yakka tartibdagi tadbirkorlar bozor narxlariga ta'sir qila olmaydilar, xaridorlar va ularning ehtiyojlarini bilmagan holda harakat qiladilar. Shuning uchun ishlab chiqarish (taklif) va talab o'rtasidagi o'z-o'zidan rivojlanib boradigan bog'liqlik to'g'ridan-to'g'ri belgilangan maqsadga erishmasdan talab va taklif o'rtasida nomutanosiblik vujudga keladi. Bunday holatda barcha ishlab chiqaruvchilarda bozor bilan ishlab chiqarishni bog'laydigan teskari aloqalar yordam beradi. Bozorda mahsulot va xizmatlarga narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalangan holda tadbirkor mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini bozor talabiga qarab o'zgartirishga imkon beradi. Shuning uchun bozor munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichida davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvi mutlaqo keraksiz bo'lgan.

### **2.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslar, mahsulotlar va daromadlarning aylanishi**

Bozor tizimi to'qnash keladigan muammolarni tushunish uchun avvalo unda resurslar va daromadlarning doiraviy aylanish modelini kurib chiqamiz (2.1- rasm ) Bozor iqtisodiyotida uy xo'jaliklari xususiy sektorni, davlat esa

davlat sektorini tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyotining barcha subyektlari iste'mol tovarlari va xizmatlari, resurslar va moliyaviy bozorlarda o'zaro aloqadorlikda harakat qiladilar va o'zaro bog'liq xarajatlar va daromadlar oqimlarini tashkil qiladilar. Uy xo'jaligi iqtisodiy resurslarga, ishlab chiqarish omillariga egalik qiladi va ularni tadbirkorlarga resurslar bozori orqali taklif etadilar, ayni paytda bu resurslarni tadbirkorlar talab etadi. Uy xo'jaligi esa taklif etadi.



## 2.2-rasm. Resurslar va daromadlarning doiraviy aylanish modeli.

Resurslarga bo'lgan talab va taklif narxni shakllantiradi. Tadbirkorlar resurslarning xarid sarflari ularning harajatlarini tashkil etadi, bir vaqtning o'zida uy xo'jaligining daromadlar oqimini tashkil etadi.

Diagrammainng pastki qismiga qaraymiz, uy xo'jaligi pul daromadlarini tovar va xizmatlarni sotib olishga sarf etadi. Ayni paytda tadbirkorlar (korxonalar) resurslardan foydalanib tovar va xizmatlarni ishlab chiqaradi va taklif qiladi, natijada narx shakllanadi. Korxonalar nuqtayi nazaridan uy xo'jaligining iste'mol sarflari ularning daromadlarini tashkil etadi. Bunda uy xo'jaliklari tovar va xizmatlarni sotib olishga daromadlarining barchasini sarf qilmaydilar, balki bir qismini davlatga soliqlarni to'lashga sarf qiladilar va jamg'aradilar. Tadbirkorlar ham shu yo'sinda ish tutadilar, ishlab chiqargan

tovar xizmatlarni sotishdan olgan tushumlaridan soliqlar to'laydilar va investitsiyalarni amalga oshiradilar.

Ushbu model - iqtisodiy faoliyat jarayoni murakkab va bir-biri bilan bog'liq chirmashib ketgan jarayon ekanligini ko'rsatadi. Demak, uy xo'jaligi resurslar egasi sifatida ularni korxonalariga sotadi, undan olingan pul daromadlariga iste'molchi sifatida tovar va xizmatlarni sotib oladi. Tovarlarni ishlab chiqarish uchun korxonalar resurslarni sotib olishlari kerak. Ularning tovar mahsuloti esa uy xo'jaligiga ularning iste'mol sarflari o'rniga sotiladi. Pirovard natijada iqtisodiy resurslar soat miliga qarama – qarshi, pul daromadlari va iste'mol harajatlari esa soat mili bo'yicha harakatlanadi. Ushbu oqimlar bir vaqtning o'zida uzluksiz harakatda bo'ladilar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, davlat resurslar va daromadlarning doiraviy aylanishiga ta'sir etadi: soliqlarni undiradi, tadbirkorlardan tovarlarni xarid qiladi, firmalarga soliq imtiyozlarini beradi. Hozirgi bozorda davlat muhim o'rin tutadi, davlat ishchi kuchini sotib oladi va ish haqini to'laydi, transfer to'lovlarni amalga oshiradi, mehnatga layoqatsizligi va ishsizligi uchun nafaqalar, yosh bo'yicha nafaqalar, aholidan to'g'ri va egri soliqlarni undirib oladi.

Har qanday iqtisodiy tizim singari bozor iqtisodiyoti oldida bir qator muammolarni turadi. Bozor tizimida narx va raqobat muvofiqlashtiruvchi va tashkil etuvchi mexanizm hisoblanadi. Aynan shu mexanizm yordamida ushbu muammolarning yechimi topiladi. Bunda ikki narsaga e'tibor berish lozim. Birinchidan bozor tizimi o'z harakati davomida ushbu muammolarga to'qnash keladi va ularning yechimlarini topishga majbur bo'ladi, ikkinchidan bu muammolar ehtiyojlarining cheksizligi va resurslarning cheklanganligidan kelib chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti oldida turgan asosiy iqtisodiy muammolar va ularning qay tarzda hal etilishi:

**1. Ehtiyojlarni to'liq qondirish uchun qanday tovar va xizmatlarni qanday hajmda ishlab chiqarish zarur? Mavjud resurslarning qanday qismini ishlab chiqarish jarayoniga tortmoq lozim?**

Ishlab chiqaruvchiga foyda keltiradigan mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi kerak. Bozorda mahsulotga talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va bozorda sotish orqali foyda olish mumkin bo'ladi. Aynan mahsulotlariga yuqori darajada talab bo'lgan, natijada foyda olayotgan



tarmoqlarga resurslar ajratiladi, mahsulotiga talab bo'lmagan, natijada zarar ko'radigan tarmoqlar resurslardan mahrum qilinadi.

## **2. Qaysi korxonalar ishlab chiqarishda qatnashmoqlari va ishlab chiqarishlarini qay yo'sinda tashkil etishlari lozim. Mahsulotlarni qanday ishlab chiqarish lozim?**

Iqtisodiy nuqtayi nazaridan yuqori samara beradigan texnologiyalarni qo'llashni xohlaydigan va bunga qodir bo'lgan firmalar ishlab chiqarishni amalga oshirishlari kerak. Ma'lumki, iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish omillariga va ularga bo'lgan narxlarga bog'liqdir. Faraz qilamiz, qiymati 100 ming so'm bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish imkonini beruvchi ikki turdagi texnologiyalar mavjud. Birinchi turdagi texnologiya'ni qo'llaganda ishlab chiqarish harajatlari 70 ming so'mga ikkinchi texnologiya'ni qo'llaganda 90 ming so'mga teng bo'ladi. Bunda birinchi turdagi texnologiya'ni tadbirkor tanlaydi, chunki korxonalar katta hajmda foydani ta'minlab beruvchi samarali texnologiya'ni qo'llashga harakat qiladilar. Tadbirkor unumliroq va arzonroq texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga qo'llashga harakat qiladi.

## **3. Ishlab chiqarilgan mahsulot qanday qilib iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishi kerak?**

Ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlash muammosida bozor tizimi ikki yoqlama o'rin tutadi. Umuman olganda har qanday mahsulot iste'molchilar o'rtasida ularning daromadlari, to'lash qobiliyatidan kelib chiqqan holda taqsimlanadi. Masalan, mahsulot 200 ming so'm turadi, uni to'lay olgan inson mahsulotni iste'mol qilishga sotib oladi, puli yo'q yoki yetmagan inson u mahsulotni sotib ololmaydi. Insonni to'lash qobiliyati uning olgan daromadiga bog'liqdir. O'z navbatida pul daromadi ularning resurslar bozoriga yetkazib bergan resurslar miqdori va narxiga bog'liq. Shunday qilib, bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar insonlarning daromadlariga qarab taqsimlanadi.

Uy xo'jaliklarining daromadlarini shakllanishida resurslarga narx asosiy o'rin tutadi. Iste'molchi o'zining daromadi doirasida mahsulot va xizmatlarni sotib oladi. Biroq, xarid qilish jarayonida u mahsulot va xizmatlarni bir-biriga solishtiradi va sifatli, ammo narxi pastroq bo'lganlarini sotib oladi. Demak, mahsulot narxi iste'molchilarning xarajatlar tarkibini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi.

#### **4. Bozor iqtisodiyotining yana bir muammosi: qanday qilib bozor tizimi iqtisodiyotni ishlab chiqarish vositalari, ya'ni kapital bilan ta'minlaydi?**

Bozor tizimi texnik taraqqiyotning rivojlanishini, uning natijalarini, ya'ni innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishni rag'batlantirib turadi. Tadbirkor raqobatni sharoitida korxonasini yangi, samarador texnika va texnologiya bilan jihozlashga, shunga yarasha yuqori malakali ishchi va xodimlarni yollashga, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga harakat qiladi. Maqsad- yuqori foyda olish va raqobatda yutish. Ammo texnika taraqqiyoti oqibatida ishlab chiqarish vositalari miqdori oshib boradi. Bunga kapitalni jamg'arish orqali erishiladi. Texnika taraqqiyoti xarajatni talab etadi, ikkinchi tarafdan xuddi xarajatlarni tadbirkorga foyda keltiradi. Boshqacharoq aytganda kapital doimo harakatda bo'ladi. Tadbirkor olgan foydasini ikki bo'lib ishlatadi. Birinchi qismi iste'molga, ikkinchisi jamg'arishga. Jamg'arishga mo'ljallangan qismini tadbirkor ishlab chiqarishni kengaytirish, modernizatsiya qilishga sarf etadi. Masalan, tadbirkor ishlab chiqarishga 500 ming dollar avnsladi, ishlab chiqarish vositalarini (IV) sotib olishga 400 ming dollar va ishchi kuchini (IK) sotib olishga 100 ming sarf etdi. Bu sarflar natijasida 100 ming dollarli foyda oldi. Olingan foydaning 50 ming dollarini iste'molga, 50 ming dollarini jamg'arishga sarf etadi. Bunda foydaning jamg'arishga mo'ljallangan qismining 40 ming dollarini ishlab chiqarish vositalarini sotib olishga 10 ming dollarini esa ishchi kuchini sotib olishga sarf etiladi. Natijada ikkinchi yilda barcha kapital summasi 550.000 dollarga teng bo'ladi, 440.000 (IV)+110.000 (IK). Agar ishlab chiqarish sharoitlari oldingiday bo'lsa, unda foyda massasi 10% oshib, 110.000 dollarni tashkil qiladi.

Bozor iqtisodiyotida raqobat nazorat qilish mexanizmi sifatida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni muvofiqlashtiradi, jamiyatning chegaralangan resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish maqsadida korxonalar va resurslarni yetkazib beruvchilarni boshqarib turadi. Bozor tizimi har doim ham yuqorida qayd qilingan muammolarni eng maqbul tarzda hal qiladi deb bo'lmaydi. Chunki bozor tizimining ustun va kamchilik taraflari ham mavjud.

#### **2. 4. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari**

Bozor iqtisodiyotining samarali va barqaror iqtisodiy tizim sifatida amal qilishi va rivojlanishi uning afzalliklari bilan bog'liqdir.

**Bozor resurslarni samarali taqsimlab, jamiyat uchun zarur bo'lgan mahsulot va hizmatlarni ishlab chiqarishga yo'naltiradi. Bozor iqtisodiyoti resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi.** Raqobatli bozor tizimi resurslarni jamiyat ko'proq muhtoj bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltiradi. Bu ishlab chiqarish uchun resurslarni oqilona kombinatsiyalashning eng samarali usullaridan foydalanishni talab qiladi va yangi samarali ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish hamda ishlab chiqarish jarayoniga joriy etishga yordam beradi. Shunday qilib, bozorning "ko'rinmas qo'li" mavjud resurslardan eng ko'p zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishni nazorat qiladi. Bu esa bozorning maksimal samaradorligini nazarda tutadi.

**Iste'molchilar va tadbirkorlar uchun tanlash va harakat qilish erkinligi.**

Bozor tizimi tadbirkorlik va tanlov erkinligining muhimligini aniq belgilab beradi. Iste'molchilar o'zlari xohlagan narsalarni sotib olishlari mumkin, o'z navbatida korxonalar- kerak deb topgan narsalarni ishlab chiqarish va sotishlari mumkin va nihoyat resurslarni yetkazib beruvchilar, qo'llaridagi material va ishchi kuchi resurslarini o'z xohishlariga ko'ra joylashtirishlari mumkin. Bundan ko'rinadiki, iste'molchilar bir narsani talab qilganda, korxonalar butunlay boshqa narsani ishlab chiqarishni tanlashadi. Unda nima uchun iqtisodiyot bunday holatda to'liq betartiblik holatiga tushmaydi, degan savol tug'iladi. Chunki, iqtisodiy jarayonlar raqobatli narx mexanizmi yordamida muvofiqlashtiriladi va tartibga solinadi. Korxonalar o'zi istagan tovarlarni ishlab chiqara olmaydi, bu nuqtayi nazardan ular "erkin" emaslar. Iste'molchilarning qarorlari ba'zi mahsulotlarni daromadli qiladi, boshqalarini esa aksincha ishlab chiqarishda zarar ko'radigan holga keltiradi, qanday mahsulotni ishlab chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishda firmaning tanlash erkinligi cheklangan bo'ladi. Korxonalar ishlab chiqarish uchun tanlagan mahsulot xususidagi qarorlarini iste'molchilar tanlovi bilan kelishtirishlari lozim aks holda zarar ko'rishlari hatto bankrot bo'lishlari mumkin.

**Turli ehtiyojlarni qondirish, tovarlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, narxlarni pasaytirish qobiliyati.** O'z mahsulotlarining yuqori rentabelligi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun firmalar o'z mahsulotlari assortimentini ko'paytirishga va sifatini oshirishga intiladilar. Jamiyatning tobora o'sib va o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun tadbirkorlar tobora ko'proq yangi usullarni topishlari kerak bo'ladi albatta. Ushbu poygada

tadbirkorlar tomonidan o'zgartirilgan va takomillashtirilgan mahsulotlar bozorga chiqariladi, mutlaqo yangi iste'mol buyumlari va xizmatlar yaratiladi. Shu bilan birga, yaroqliligi yoki foydaliligi iste'molchilarni qoniqtirmay qo'ygan eskirgan mahsulotlar va xizmatlar raqobat maydonidan, ya'ni bozordan chiqariladi. Shunga ko'ra, ilgari ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yaratishda ishtirok etgan resurslar yangilangan modellarni olish uchun ishlatiladi. Mahsulotlarning yangilangan modellariga e'tibor qaratish bilan bir qatorda, ishlab chiqaruvchilar iste'molchilarni jalb qilishda mahsulot sifatini yaxshilash va narxini pasaytirish vositasidan foydalanadi. Tabiiyki, raqobatdosh firmalar tomonidan taklif etilayotgan shunga o'xshash bir qator mahsulotlardan iste'molchi eng yuqori sifatli va arzon variantni tanlashga intiladi. Narxlarning pasayishi ishlab chiqaruvchilarning mavjud resurslardan unumli foydalanishga doimiy intilishlariga asoslanadi. Texnologiya yaxshilanishi va ishlab chiqarish tannarxi pasayishi bilan tovarlar narxini pasaytirish mumkin bo'ladi.

**O'zgaruvchan sharoitlarga yuqori darajada moslashuvchanlik qobiliyati.** Hozirgi jamiyatda iste'molchilarning xohish-istaklari, ishlab chiqarish texnologiyalari va yetkazib berilgan resurslar tarkibi tezda o'zgaradi. Bozor iqtisodiyoti bu o'zgarishlarga o'z mexanizmi yordamida moslasha oladi. Bozor iqtisodiyoti o'z mexanizmi (raqobat va narx) yordamida iste'molchilar didining o'zgarishi natijasida talabdagi o'zgarishlarga ishlab chiqarishni (taklifni) moslashtira oladi. Shunga yarasha resurslar ham qayta taqsimlanadi.

**Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijalaridan maqbul foydalanish.** Bozor tizimi texnologiyalarni takomillashtirish va kapitalni jamg'arish, ya'ni unumdorlikning oshishiga va jamiyatni yanada yuqoriroq moddiy faravonlik darajasiga olib keladigan o'zaro bog'liq o'zgarishlar bilan mos keladi. Bozor tizimi texnologik taraqqiyotni rag'batlantiradi. Ilg'or texnologiyalardan foydalanish innovatsion firmaga raqiblariga nisbatan vaqtincha ustunlik beradi. Ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish ushbu firma uchun iqtisodiy foyda olishni anglatadi. Bu esa innovatsion firmaga narxlarni pasaytirish hisobiga mahsulotlarini sotishni sezilarli o'stirishga va yuqori iqtisodiy daromadga erishishga imkon beradi. Boz ustiga, raqobatli bozor tizimi yangi texnologiyalarning tez tarqalishiga sharoit yaratadi. Raqobatchilar eng ilg'or innovatsion firmaga yetib olishga harakat qilishlari kerak. Ta'kidlash kerakki, texnologik taraqqiyot natijasida mahsulot narxining pasayishi innovatsion tarmoqni kengaytiradi. Bu kengayish mavjud firmalarning mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishlari yoki yangi firmalar texnologik taraqqiyot

natijasida ko‘proq foyda olish maqsadida innovatsion tarmoqqa kirishlari natijasida ro‘y berishi mumkin. Tarmoqning kengayishi, ya’ni resurslarning texnik jihatdan sust rivojlangan ishlab chiqarishdan progressiv, innovatsion ishlab chiqarishga o‘tishi mutlaqo tabiiy holdir. Bunda cheklangan resurslar ham ishlab chiqarishlar bo‘yicha qayta taqsimlashni talab qiladi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy kamchiliklaridan biri uni raqobatning kuchsizlanishiga yo‘l qo‘yish va uni rag‘batlantirish. Raqobat kuchsizlanishining ikkita asosiy manbai mavjud:

1. Bozor iqtisodiyotidagi erkin muhitda tadbirkorlar foyda ketidan quvib va o‘z iqtisodiy mavqeini yaxshilashga intilib, raqobatning cheklangan yo‘lidan ozod bo‘lishga harakat qiladilar. Firmalarning qo‘shilib ketishi, kompaniyalarning xufyona kelishuvi, shafqatsiz raqobat – bularning barchasi raqobatning kuchsizlanishi va uning tartibga soluvchilik ta’sirining pasayib borishiga olib keladi;

2. Bozor tizimi rag‘batlantiradigan texnika taraqqiyoti ham raqobatning zaiflashishiga olib keladi. Eng yangi texnologiya, odatda: a) juda katta miqdordagi real kapitaldan foydalanishni; b) yirik bozorlar bo‘lishini; d) markazlashgan va qat’iyan bir butun bo‘lib birlashgan bozorning tarkib topishini; e) boy va ishonchli xomashyo manbalarini talab qiladi. Bunday texnologiya bozorning hajmiga nisbatan keng miqyosdagi ishlab chiqaruvchilar mavjud bo‘lishi zarurligini bildiradi. Boshqacha aytganda, eng yangi texnologiya’ni qo‘llash asosida ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligiga erishish, aksariyat hollarda ko‘p miqdordagi mayda firmalar emas, uncha ko‘p bo‘lmagan yirik ishlab chiqaruvchilar mavjud bo‘lishini taqozo qiladi.

Bozor tizimi jamiyatni ehtiyoji yuqori bo‘lgan tovarlar bilan ta’minlashiga ham kafolat bermaydi. Raqobatning kuchsizlanib borishi iste’molchining erkinligiga ham putur yetkazadi. Bozor tizimi o‘zining iste’molchining xohishiga ancha mos keluvchi resurslarni taqsimlash layoqatini ham yo‘qotib borishi mumkin.<sup>7</sup>

**Daromadlarning notekis taqsimlanishi.** Bozor ijtimoiy zarur tovarlarni ishlab chiqarishga emas, balki pulga ega bo‘lganlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bozor tizimi eng qobiliyatli yoki chaqqon

---

<sup>7</sup> SHodmonov SH.SH., Gofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010, 144- b.

tadbirkorlarga katta miqdordagi moddiy resurslarni to'plashga imkon beradi va meros huquqi esa vaqt o'tishi bilan ushbu jarayonni kuchaytiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy resurslarni to'plash jarayoni, uy xo'jaliklari tomonidan yetkaziladigan inson resurslarining miqdoriy va sifatii tafovutlariga qo'shimcha ravishda, pul daromadlarining mutlaqo notekis taqsimlanishiga olib keladi. Natijada, oilalar bozorda o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatlari bilan keskin farq qiladilar. Shunday qilib, bozor tizimi boylar uchun zebu ziynat mahsulotlar ishlab chiqarish uchun resurslarni, kambag'allar uchun birinchi galda zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan resurslar hisobidan ishlab chiqariladi degan xulosani chiqarish mumkin.

**Nosamarador ishlab chiqarish, rivojlanishning beqarorligi.** Bozor tizimi ma'lum tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha naf va xarajatlarni hisobga ololmasligi mumkin. Gap shundaki, ba'zi naf va xarajatlar bozorga nisbatan tashqi bo'lib ko'rinadi, ya'ni ular to'g'ridan-to'g'ri xaridor va sotuvchi bo'lmagan boshqa iqtisodiy agentlarning hissasiga tushadi. Ularni tashqi naf va xarajatlar deb ataladi. Masalan, bozor tomonidan hisobga olinadigan iste'molchilar talabi faqat tovarlar va xizmatlarni sotib oladigan individual iste'molchilarning qoniqishlarini bildiradi; bu emlashlar (tibbiy) va ta'lim kabi xizmatlarni sotib olish butun jamiyat uchun naf yoki qoniqish keltirishini aks ettirmaydi. Xuddi shunday, ishlab chiqaruvchilar mahsulot ishlab chiqarish to'g'risida faqat bozor talab qiladigan xarajatlarni hisobga olgan holda qaror qabul qiladilar, tashqi xarajatlarni, ya'ni butun jamiyatning ulushiga tushadigan xarajatlarni, masalan, atrof-muhit ifloslanishining turli shakllarini aks ettirmaydilar. Demak, muammo qayerda talab va taklif ishlab chiqarishning barcha naflari va harajatlarini aniq aks ettira olmasa, ya'ni qayerda tashqi naf va xarajatlar mavjud bo'lsa, bozor tizimi jamiyat ehtiyojlarini eng yaxshi tarzda qondiradigan qilib resurslarni taqsimlashni ta'minlay ololmasligi bilan bog'liq.

Bozor orqali alohida individium tomonidan moliyalashtirish mumkin bo'lmagan juda ko'plab tovarlar va xizmatlarga juda katta ehtiyoj mavjud. Masalan, avtomagistrallar, suv toshqini bilan kurashish, milliy mudofaa kabi tovarlar va xizmatlarni istalgan miqdordagi uy xo'jaliklari sotib ololmaydi. Bozor tizimi bunday ijtimoiy yoki jamoaviy ehtiyojlarni qondirishga qodir emas. Bundan kelib chiqadiki, bozor iqtisodiyoti takror ishlab chiqarib bo'lmaydigan resurslarni saqlashga hissa qo'shmaydi, atrof-muhitni himoya qilishning iqtisodiy mexanizmiga ega emas. Faqatgina qonun hujjatlari

tadbirkorlarni ekologik toza ishlab chiqarishlarga sarmoya kiritishga, butun insoniyatga tegishli resurslardan, masalan, okean baliqlari resurslaridan foydalanishni tartibga solishga majbur qilishi mumkin. Va nihoyat, ko'plab iqtisodchilar bozor tizimi bandlik va narxlarning barqaror darajasini ta'minlash uchun nomukammal mexanizm deb hisoblaydilar.

Umuman olganda bozor iqtisodiyoti o'zining mohiyatiga ko'ra **barqaror bo'la olmaydi, shuning uchun unga davriy rivojlanish, ishsizlik, inflyatsiya, insonlar tumush darajalarining pasayishi kabilar xos.** Ideal iqtisodiyotda YaMM tez, barqaror sur'atlarda o'sadi. Bundan tashqari, narx darajasi o'zgarmasdan qoladi yoki juda sekin oshadi. Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, to'liq bandlik va narx barqarorligiga avtomatik ravishda erishilmaydi.

Iqtisodiy o'sish davriyligi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy o'sish beqarorlik davrlari bilan almashib turadi. Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish va bandlik darajalarini bevosita belgilovchi omil bu xarajatlarning umumiy darajasi. Sodda qilib aytganda, agar umumiy xarajatlar past bo'lsa, ko'pgina korxonalar ko'p miqdorda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishi foyda keltirmaydi. Bundan kelib chiqib ishlab chiqarish, bandlik va daromadning past darajasi mavjud bo'ladi.

**Fanda fundamental tadqiqotlarni ta'minlamaydi.** Tadbirkorlarning mavjud texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish, resurslardan tejamli foydalanishni ta'minlashga harakat qilganda, tadbirkorlar o'z resurslarini fundamental tadqiqotlar o'tkazish uchun yo'naltirishga qodir emaslar. Ushbu tadqiqotdan iqtisodiy foyda olishning uzoq va noaniq istiqboli, resurslarni boshqa sohalarda tez va ishonchli foyda olish imkoniyatlari foydasiga taqsimlanishiga olib keladi.

Bozor iqtisodiyotining salbiy va ijobiy tomonlari "cheksiz ehtiyojlar – cheklangan resurslar" ziddiyatiga asoslanadi. Bozor iqtisodiyoti ushbu ziddiyatni yumshatish mexanzimlariga ega. Undan tashqari hozirgi davrgacha bozor iqtisodiy tizimidan samarali tizim kashf etilmagan. Demak hozirda bozor iqtisodiyoti samarali tizim hisoblanadi.

## **2.5. Bozor tushunchasi, vazifalari va turlari**

**Bozor ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida pul orqali ayirboshlash (oldi-sotdi) jarayonida bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.**

Bunda bozorning moddiy asosini joy emas, balki tovar va pulning harakati tashkil etadi, bozor tushunchasi faqat ayirboshlash jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Bozorning mohiyati uning vazifalarida namoyon bo‘ladi. Bozor quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bozor orqali ijtimoiy ishlab chiqarish tartibga solinadi, ya’ni nima va qancha miqdorda ishlab chiqarish? Qanday texnika va texnologiya bilan ishlab chiqarish? Kimga ishlab chiqarish kabi muammolar hal etiladi;

- bozor orqali ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida aloqalar o‘rnatiladi. Har bir bozor ishtirokchisi bir vaqtning o‘zida ham xaridor, ham sotuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular o‘z hayoti yoki ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan tovarlarni xarid qiladilar, ishlab chiqargan mahsulotlari yoki ishchi kuchlarini sotadilar.

- bozor orqali mahsulot ishlab chiqarishga xarajatlar hisobi amalga oshiriladi. Agar xarajatlar yuqori bo‘lsa, mahsulot xarid qilinmaydi, keyinchalik ushbu mahsulot ishlab chiqarilmaydi. Binobarin, bozorga faqat xarajatlarni qoplaydigan narxlarda sotiladigan mahsulotlar keltiriladi.

- narxlarni o‘rnatish bozorning asosiy muhim vazifasi hisoblanadi. Narx talab va taklif ta’sirida o‘zgarib turadi. Agar bozorda biror bir mahsulot miqdori talabdan oshib ketsa narx pasayadi, demak uni ishlab chiqarish va taklifi ham qisqaradi. Yuqori narxlar esa aksincha, mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, mahsulot ishlab chiqarish talab va taklif muvozanatga kelguncha, ya’ni muvozanat narxi o‘rnatilishigacha davom etadi.

- bozor ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtiradi. Raqobat sharoitida mahsulot ishlab chiqarish harajatlari, bozor narxidan past bo‘lgan firmalar hayot kechirish huquqiga egadirlar. Bu holatda firma foyda oladi. Aks holatda firma zarar ko‘radi.

**Bozor tuzulishi-bu uning alohida elementlarining ichki tarkibi. Sotiladigan va sotib olinadigan tovar, xizmat turiga ko‘ra** bozorlar quyidagi turlarga bo‘linadi: iste’mol tovarlari va xizmatlari bozori, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi (resurslar) bozori, valyuta bozori va fond birjalari, ilmiy texnika kashfiyoti va ishlanmalar bozori.

Bozor **hududiy jihatdan** quyidagi turlarga bo‘linadi: mahalliy **bozorlar** (Samarqand bozori, Urgut bozori, London bozori, Pekin bozori); **milliy bozorlar** (O‘zbekiston bozori, Rossiya bozori); **xududiy bozorlar** (Markaziy Osiyo, G‘arbiy Yevropa bozori) va **jahon bozori**.



Mahsulotni sotish tavsifiga ko'ra **bozor ulgurji va chakana** turdagi bozorlarga bo'linadi. Ulgurji bozorda tovarlar ko'tarasiga sotiladi, savdo to'g'risida gap yuritiladi. Chakana savdoda asosan sotib olingan tovarlar fuqarolarga sotiladi.

**Tarmoqlar bo'yicha** avtomobil, kompyuter, bug'doy, paxta va shu kabi bozorlar farqlanadi.

Industrial jamiyatda iste'molchilar talablari, texnologiyalar va resurslarning tarkibi juda o'zgaruvchidir. Bozor iqtisodiyoti bu o'zgarishlaraga moslasha oladimi? Ha moslasha oladi, raqobatli narx mexanizmi yordamida. Insonlar didlarining o'zgarishi mahsulotlarga bo'lgan talabning o'zgarishiga olib keladi. Talab oshgan mahsulotga narx ko'tariladi, talab pasaygan mahsulotga narx pasayadi. Aynan narx orqali ishlab chiqarishga (firmalarga) bozordagi ahvol xususida axborat yetkaziladi. Narxi pasaygan tovarlarni ishlab chiqarish miqdori kamaytiriladi, chunki ularga talab pasaygan, narxi ko'tarilgan tovarlarni ishlab chiqarish miqdori ko'paytiriladi, chunki ularga talab oshgan. Raqobat esa bu jarayonda doimo mavjud bo'lib, ishlab chiqaruvchilar o'z manfaatlaridan kelib chiqib yuqori foyda va naf olish maqsadida tovar ishlab chiqarish, sotish va xarid qilish uchun qulay mavqeni egallash uchun kurashadilar. Demak, narx va raqobat bozorni tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi mexanzimdir. Shu bois bozor moslanuvchanlik, samaradorlik va muvozanatga intilish kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

## **2.6. Bozor infratuzilmasi va uning elementlari**

**Bozor infratuzilmasi - bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimidir.**

Bozorning miqyosi, undagi tovarlarninig tarkibi ayirboshlash tavsifiga qarab infratuzilma bo'g'inlarining quyidagi turlariga bo'linadi:

1. Barcha bozor aloqalariga xizmat qiluvchi infratuzilma. Bu barcha bozorlarga xos infratuzilmadir. Bunga sug'urta, savdo- sotiq, sherik topish, pulni undirish kabi xizmatlarni ko'rsatuvchi muassasalar kiradi. Xususan bank muassasalari, kreditlash idoralari, sug'urta va moliya kompaniyalari, soliq idoralari va shu kabilar.

2. Maxsus bozorlarda xizmat ko'rsatuvchi inistitutlar. Bular jumlasiga birjalar, auksionlar, savdo uylari, savdo-sotiq idoralari va agentliklari, reklama kompaniyalarini kiritish mumkin.

Bozor infratuzilmasining bu unsurlari ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq, moliya-kredit ishlariga, sherik topishiga, ish kuchini yollashiga ko'maklashadi, davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi tadbirlarini amalga oshiradi, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam beradi. Ularning bir qismi davlat mulkchiligida faoliyat ko'rsatsa, boshqalari mustaqil muassasa va uyushmalardan iborat bo'lib, ko'rsatgan xizmatlari uchun haq oladi.

Tovar, moliya va ishchi kuchi bozorlari infrastrukturasi farqlanadi. Tovar bozori infratuzilmasi tovar birjalari, chakana va ulgurji savdo korxonalarini, auksion, yarmarka, birjadan tashqari tasnifidagi vositachilik firmalaridan iborat, tovar (xizmat)lar muomalasiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar muhim o'rin tutadi.

Moliya bozori infratuzilmasi o'z ichiga fond va valyuta birjalar, banklar, sug'urta kompaniyalar va fondlarni qamrab olgan.

Ishchi kuchi bozori infratuzilmasiga esa mehnat birjalari, bandlik va qayta o'qitish, migratsiya'ni tartibga soluvchi xizmatlar kiradi.

**Birja - namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasalaridir.**

**Tovar birjalari** - bu moddiy va buyumlashgan obyektlarning (xomashyo, dastgohlar, bug'doy, metall) tashkil etilgan bozori. Bunday birjalar ixtisoslashgan. Turli tovarlar bilan savdo sotiq qilinadigan birjalar esa universal birjalar deyiladi.

**Fond birjalari** - bu o'rnatilgan narx asosida oldi sotdi bitimlari tuziladigan qimmatli qog'ozlar bozori. Fond birjalarida qimmatli qog'ozlarning bozor narxi, ya'ni birja kursi shakllanadi. Birja kursi aksiya, obligatsiya ya'ni bozor narxini uning nominal qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi.

**Valyuta bozorida** yirik miqdorda valyuta savdosi amalga oshiriladi. Valyuta bozori fond bozori tarkibiga kiradi.

**Mehnat birjalari** o'ziga xos tovar sifatida ishchi kuchining oldi- sotdi jarayonini tashkil etishga ixtisoslashadi. Ular ishga yollanayotgan va ish beruvchilar o'rtasida vositachilik qiladilar. Ishsizlar va bo'sh ish joylarini hisobga olish, ishsizlarga moddiy yordam ko'rsatish, xodimlarni qayta o'qitish ularning vazifalari hisoblanadi.

Birjaning barcha shakllarida kelishuvning o'ziga xos belgisi bu tovar, aksiya va valyuta kurslariga, narxning tebranib turishiga chayqov yo'li bilan ta'sir qilishdir.

Birjada uning qatnashchilari ayirboshlash to'g'risida bitim tuzadi, lekin tovarni yetkazib berish va uning haqini to'lash birjadan tashqarida yuz beradi. Bunda tovar egasi va xaridorlar qatnashishi shart emas. Ular nomidan ishni broker (dallol)lar yuritadi. **Broker (makler)lar - bu tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma.** Ular odatda mijozlar topshirig'iga ko'ra va uning hisobiga ish yuritadi, kafolat beruvchi hisobiga o'z nomidan savdo bitimlari tuzishi ham mumkin. **Auksionlar - alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasasi.** Auksionda savdo tovarlarning nisbatan cheklangan ro'yxati bo'yicha, ommaviy sotuvga qo'yish yo'li bilan o'tkaziladi. Auksion e'lon qilingan vaqtda va ma'lum davrda o'tkaziladi. Bunda tovarlarning bozorga kelib tushish mavsumi va hajmi hisobga olinadi. Auksion savdosida namuna tovarlar ro'yxatda ko'rsatilgan tartibda savdoga qo'yiladi, xaridorlar orasida eng yuqori narxni taklif qilgan kishi tovarni sotib oladi.

**Savdo uylari - savdo muassasasining maxsus turi.** U ixtisoslashgan yoki universal bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan savdo uyi ayrim tovarlar bilan (kiyim-kechak, oyoq kiyim, gazlama va h.k.) universal savdo uyi har xil tovarlar bilan savdo qiladi.

**Ulgurji savdo firmalari - ulgurji holda (katta partiyalarda) tovarlarni o'z mulkiga sotib olib, iste'molchilarga sotuvchi savdo tashkilotlari. Chakana savdo firmalari - tovarlarni so'nggi iste'molchilari sotuvchi savdo muassasalari.** Ular mustaqil do'konlar, maxsus do'konlar va supermarketlardan iborat bo'ladi.

**Supermarket - bu xaridorning o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatishga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi.** U tovarlarning deyarli hamma turlari bilan savdo qiladi. Supermarket xaridorlarga bepul maslahatlar beradi, tovarlarni buyurtma bo'yicha xaridor uyiga yetkazadi, ularga madaniy maishiy xizmat ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti subyektlarini moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash bozor infratuzilmasining axborot xizmati idoralari, shu jumladan auditorlik firmalari zimmasiga tushadi. **Auditor firmalar - korxonalar, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib boruvchi, ular hisobotini ekspertizadan o'tkazuvchi idora.** Ular odatda aksioner jamiyat yoki kooperativ shaklda faoliyat ko'rsatadi va to'liq mustaqillikga ega bo'ladi. Auditor firmalar o'z ishini har bir mamlakatda yoki xalqaro miqyosda qabul

qilingan hisob-kitob va taftish qoidalariga binoan olib boradi. Auditor firma ishida qatnashuvchi taftishchilar audigorlar deb ataladi.

Shunday qilib, bozor infratuzilmasi mamlakatda barcha bozor turlarining faoliyat ko'rsatishiga xizmat qiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlarini va farqlarini tushuntirib bering.
3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari kimlar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar qay tarzda kechadi?
5. Bozor tushunchasining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.
6. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko'rsating.
7. Yetuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?
8. Bozor infratuzilmasi nima? Uning tarkibiy qismlari va asosiy unsurlariga ta'rif bering.

## **3. TALAB VA TAKLIF, BOZOR MUVOZANATI**

### **3.1. Talab tushunchasi. Talab qonuni.**


#### **Talab miqdoriga ta'sir etuvchi omillar**

Talab to'lovga qobil ehtiyojdir. U bozorga chiqqan va kerakli miqdordagi pul bilan ta'minlangan ehtiyojni ifoda etadi. Talab ehtiyojdan kelib chiqadi, xaridga ajratilgan pul shaklida ifoda etiladi. Masalan, kimdir avtomobil sotib olmoqchi bo'lsayu, ammo puli bo'lmasa bunday ehtiyoj talab emas. Demak, talab shunchaki ehtiyoj emas, balki to'lovga qobil, pul bilan ta'minlangan ehtiyojning bir qismi.

**Talab (ingl. *demand*)** — bu ma'lum vaqt ichida xaridor bozorda mavjud bo'lgan narxda sotib olishlari mumkin bo'lgan tovarlar miqdori. Talab hajmi ushbu mahsulot narxiga, boshqa mahsulotlar (o'rnini bosuvchi mahsulotlar) narxiga, xaridorlarning daromadlariga va ularning didiga bog'liq.

Narx (P) va tovarlar miqdori (Q) o'rtasidagi bog'liqlik grafik shaklida taqdim etilishi mumkin (3.1-rasm). **Mahsulot narxi va talab hajmi**

**o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi chiziq talab egri chizig‘i (DD) deyiladi.**



**3.1 - rasm. Talab egri chizig‘i**

Grafikdagi DD chiziq narx va talab hajmi o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikni aks ettiradi. Grafikdagi har bir nuqta tovarning aniq narxi va iste‘molchi shu narxda sotib olishi mumkin bo‘lgan tovar miqdorini ko‘rsatadi.

Agarda narx darajasi 35mln. so‘mdan 50 mln. so‘mgacha pasaysa, unda talab hajmi 1 tonnadan 6 tonnagacha ko‘paymoqda. Agar mahsulot narxi 50mln. so‘mdan 350 mln. so‘mgacha oshib borsa, unda talab hajmi 6 tonnadan 1 tonnagacha kamayib boradi. Demak, talabning egri chizig‘ida bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga harakati, bir o‘zgaruvchan narxning o‘zgarishi, boshqa o‘zgaruvchan sotish hajmining qarama - qarshi tarafga harakat qilishini ko‘rsatadi. Agarda DD egri chiziq o‘zgarmaydi deyidigan bo‘lsak unda talab o‘zgarmagan bo‘ladi. Narxning o‘zgarishi faqatgina sotish hajmini o‘zgartiradi.

Talabning tub xususiyati quyidagicha: narxning pasayishi talab miqdorining ko‘payishiga olib keladi va aksincha, narx oshsa, talab miqdori kamayadi. Demak, narx bilan talab o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud. Ana shu bog‘liqlikka talab qonuni deyiladi. Binobarin, **talab qonuniga binoan boshqa sharoitlar o‘zgarmas bo‘lganda tovarlarga talab ular narxiga teskari mutanosiblikda bo‘ladi.**

Bu qonunga muvofiq, bozorda sotib olinayotgan tovarlar va xizmatlarning miqdori narxlar darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, biror bir mahsulotning narxi yuqori bo‘lsa unda bu mahsulot kamroq xarid etiladi. Endi faraz qilamizki, ushbu tovarning narxi pasaymoqda, unda bu mahsulot ko‘proq sotib olinadi.

Narx oshishi bilan talab hajmining pasayishi sabablari quyidagilardan iborat:

1. **Almashtirish samarasi.** Ne'matning narxi oshganda xaridor uni boshqa o'xshash tovarga almashtirishga harakat qiladi. Masalan, saryog'ga narx oshsa, unda xaridor margarin sotib oladi.

2. **Daromad samarasi.** Agar ne'matga narx oshsa, iste'molchi oldinga nisbatan kambag'alroq bo'lganini his qiladi. Masalan, agarda go'sht narxi ikki baravarga oshsa, iste'molchi kamroq real daromadga ega bo'ladi, natijada go'shtning, umuman boshqa tovarlarning iste'moli kamayadi.

3. **Me'yoriy unumdorlikning pasayish qonuni.** Inson mahsulot birligini sotib olgan sari ushbu mahsulot unga kamroq naf, qoniqish beradi. Shuning uchun xaridor ushbu tovarni faqat uning narxi pasaygandagina sotib oladi.

Demak, **talab qonuniga binoan narx yuqori bo'lganga nisbatan narx past bo'lgan sharoitda insonlar ko'proq mahsulot sotib oladilar va u grafikda talab egri chizig'ida yuqoridan pastga yo'nalishda o'z aksini topadi.**

Alohida xaridor talabi **individual talab**, muayyan tovarlarga barcha xaridorlarning talabi esa **bozor talabi** deb ataladi. Demak bozor talabi, individual talablar jami, ularning hosilasi. Masalan, xaridor bozorda 2 kg kartoshkaning har kilosini ming so'mdan jami 2 ming so'mga sotib oldi. Bu alohida iste'molchining individual talabi. Kartoshka bozoriga murojat etgan jami xaridorlar 1200 kg kartoshka kilosi ming so'mdan sotib oldi (1 mln. 200 ming). Mana bu bozor talabidir.

**Talabning o'zgarishi.** Iqtisodiy hayot doimiy ravishda o'zgarib borishi natijasida talab ham o'zgarib boradi. Nima uchun talab egri chizig'i grafikda siljiydi? Chunki unga faqar narx emas balki narxdan tashqari omillar ham ta'sir etadi. Ushbu narxdan tashqari omillar quyidagilardir:

1. **Iste'molchilar didlarining o'zgarishi.** Masalan, jismoniy sog'lom bo'lish keng yoyilsa, bunda sport anjomlariga talab oshadi.


2. **Xaridorlar sonining o'zgarishi.** Masalan, aholining kamayishi xaridorlarning kamayishiga olib keladi, buning natijasida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab kamayadi.

3. **Daromadlarning o'zgarishi.** Daromadlarning o'sishi insonlarning sotib olish imkoniyatlarini oshiradi, bu esa talabning o'sishiga olib keladi va aksincha.

4. **Bir-biriga bog‘liq tovarlarga narxlarning o‘zgarishi.** Masalan, videomagnitafon narxining pasayishi videokassetalarga bo‘lgan talabni oshiradi.

5. **Iste‘molchilarning kutishidagi o‘zgarishlar.** Masalan, biron davlatda iqtisodiyot keyingi yilda tanazzulga yuz tutishi kutilmoqda, bu esa inflyatsiya‘ning o‘sishi demakdir. Buning natijasida insonlarning ko‘chmas mulk, uzoq muddat ishlatiladigan uy- ro‘zg‘or anjomlariga bo‘lgan joriy talabi oshadi.

Bunday holda talab egri chizig‘ida qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi? Egri chiziq siljiydi, narx o‘zgarmagan holda sotish hajmi o‘zgaradi.



### 3.2-rasm. Tovarlariga bo‘lgan talabning g‘ayribaho omillari ta‘sirida o‘zgarishi.

3.2- rasmda egri chiziq yuqoriga, yoki D dan D1ga siljimoqda, bunda talab narxdan tashqari omillari ta‘sirida oshmoqda, narx o‘zgarishsiz qolmoqda (R1) sotish hajmi esa Q dan Q1 ga o‘zgarimoqda, ya‘ni ortmoqda. Egri chiziq pastga chapga, yoki D dan D2 ga siljiganda esa talab narxdan tashqari omillari ta‘sirida kamaymoqda, narx o‘zgarishsiz qolmoqda (R1), sotish hajmi esa Q dan Q2 ga o‘zgarimoqda, ya‘ni kamaymoqda.

Talab qonunidan "**Giffen paradoksi**" deb nomlanadigan istisno mavjud. "**Giffen paradoksi**"ga ko‘ra tovarlarning ayrim turlariga (asosan muhim tovarlarga) narxlar ko‘tarilganda, boshqa tovarlarni tejash hisobiga ularning iste‘moli oshadi.

**Giffen mahsuloti** - bu narx oshganda iste‘moli ko‘payib, narx pasayganda kamayadigan mahsulot. Buning sababi, odatda narxning o‘zgarishi natijasida ayirboshlash samarasi daromad samarasining ta‘siridan ustunroq ekanligidadir. Ma‘lum shart sharoitlar mavjud bo‘lganda (ayniqsa barqaror daromad darajasi),

Giffen tovarlarini iste'mol qilish talab egri chizig'ining ijobiy qiyligini aks ettiradi.

Aksariyat tovarlar uchun narx ko'tarilganda uning iste'moli kamayadi: go'sht narxi ko'tarilganda aholi go'shtni kamroq sotib oladi va uning o'rnini masalan baliq bilan almashtiradi va hokazo.

Giffen tovarlari uchun buning aksi - kartoshka narxi ko'tarilganda odamlar ko'proq kartoshka sotib olishni boshlaydilar, ammo makaronni esa kamroq. Giffenning barcha tovarlari iste'mol byudjetida muhim o'rin tutadigan va unga teng keladigan, o'rnini bosadigan mahsulot mavjud bo'lmagan past qiymatli tovarlardir. Giffenning qimmatbaho mollari yo'q. Masalan, Rossiyada Giffenning tovarlari choy, non va boshqalar, Xitoyda esa guruch va makaron. **Daromadlar o'zgarishi bilan talab miqdori teskari bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar past toifali tovarlar deyiladi.**

Iste'molchilar daromadi va ular tomonidan sotib olinadigan tovarlar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik nemis iqtisodchisi Ernst Engel (1821-1896) tomonidan tadqiq etilgan. **Engel qonuni - oilaviy xarajatlar tarkibining uning daromadlarining o'zgarishiga bog'liqligini ifodalaydi.** Ushbu qonunga muvofiq, oilaning daromadi o'sishi bilan oziq-ovqatga qilinadigan xarajatlar salmog'i pasayadi, kiyim-kechak, uy-joy, kommunal xizmatlar harajatlari nisbatan kam o'zgaradi, madaniy ehtiyojlarni (sayohat, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlari, internetdan faol foydalanish, kitoblar, jurnallar va boshqa ma'lumot manbalarini sotib olish) qondirish harajatlari hissasi esa ortadi, mablag'larning bir qismini kapital sifatida ishlatish mumkin bo'ladi (bank depozitlarida saqlash, aksiyalar, obligatsiyalar sotib olish va boshqalar). Misol uchun, bir kishi, masalan, 2 mln so'm ishlab topsa, daromadning 50 foizini oziq-ovqatga sarflashni anglatadi, 4mln so'm ishlab topadigan boshqa odam birinchisiga nisbatan oziq – ovqat mahsulotlariga kamroq sarf etadi, ikkinchi tarafdan uning boshqa turdagi ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari birinchisining nisbatan yuqoriroq bo'ladi.


Engel qonuniga binoan oilalar kambag'al va o'ta kambag'al ( qashshoq) deb tasniflanadi, agar ularning oziq-ovqat harajatlari oilaviy byudjetning 80-100% bo'lsa, o'rtacha ta'minlangan oilalarda bu xarajatlar 40 dan 80% gacha, boy va o'ta boy oilalarda bu ko'rsatkich 40% gachani tashkil etadi. Ushbu mezon dunyoda (70: 20: 10) tashkil etadi. Engel qonunining asosiy g'oyasi milliy daromadning oziqovqat mahsulotlari uchun sarflangan hissasi



farvonlikning bevosita indikatorini ekanligini ko'rsatishdan iborat. Bu hissaning past bo'lishi farovonlikning yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Bu qonunning amal qilishini Engel egri chizig'i orqali ifodalash mumkin (3.3 - rasm). Oliy toifali yoki normal tovarlar uchun Engel egri chizig'i o'suvchan ko'rinishida bo'ladi. Haqiqatan ham, aholi daromadlari o'sib borishi bilan bu turdagi tovarlar ko'proq xarid qilinadi. Past toifali tovarlar uchun Engel egri chizig'i pasayuvchan ko'rinishda bo'lib, daromadlar oshib borishi bilan iste'molchilar ularni kamroq miqdorda sotib oladilar. Agar tovarning iste'moli daromad darajasiga bog'liq bo'lmasa, u holda Engel egri chizig'i tik holda bo'ladi.

Chizmadan ko'rinadiki, iste'molchining bir oylik daromadi 10 ming so'mdan 20 ming so'mga oshganda, u sotib olgan maqsulot miqdori 1 donadan 2 donaga, 20 ming so'mdan 30 ming so'mga oshganda 2 donadan 4 donaga oshmoqda. Daromadlarning keyingi o'sishi bilan tovarlar sotib olish hajmining o'sishi sekinlamoqda: 30 ming so'mdan 40 ming so'mgacha - 4 donadan 6 donagacha, 40 ming so'mdan 50 ming so'mgacha - 6 donadan 7 donagacha. Daromadning bundan yuqori darajalarida esa sotib olish hajmining o'sishi butunlay to'xtagan (daromadning 60 ming so'm va undan yuqori darajalarida mazkur tovarning 7 donasi sotib olinmoqda) iste'molchilar pul daromadlari o'zgarishining talabga qanday ta'sir qilishi to'g'risida axborot beradi.



### 3.3 - rasm. Engel egri chizig'i

Bu axborot tovar ishlab chiqaruvchilar uchun o'z tovarlarining mumkin bo'lgan sotish hajmi va bozor konyunkturasini baholashda muxim ahamiyat kasb etadi.

### **3.2. Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif miqdoriga ta'sir etuvchi omillar.**

**Taklif (inglizcha *supply*)** - bu tovar ishlab chiqaruvchisining bozordagi xatti-harakatini, uning ma'lum sharoit, vaqt davomida va miqdordagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga (taklif qilishga) tayyorligini aks ettiruvchi tushuncha.


**Taklif hajmi (ishlab chiqarish hajmi)** - bu tovar ishlab chiqaruvchisi (korxonasi, firma) ma'lum vaqt davomida ma'lum narxda taklif qilishga tayyor bo'lgan tovarlar miqdori.

**Taklif miqdori** - ma'lum bir vaqtda sotiladigan tovar yoki xizmatlar miqdori. Demak, taklif hajmi sotish uchun ishlab chiqarilgan mo'ljallangan tovarlar hajmini aks ettiradi, taklif miqdori **muayyan paytda bozorda sotiladigan tovarlar miqdoridir**. Taklif individual va umumiy bo'lishi mumkin. **Individual taklif** bu ma'lum bir sotuvchining, umumiy taklif esa bozorda mavjud barcha sotuvchilarning tovar va xizmatlarining taklif miqdori. Albatta bu ko'rsatkichlar bir biri bilan bog'liq chunki individual takliflarni jamlash asosida umumiy taklif miqdori aniqlanadi.

Taklifga avvalo narx ta'sir ko'rsatadi. Ular bir xil yo'nalishda o'zgaradi. Narxning o'sishi tovarlar taklifining ortishiga olib keladi va aksincha, narxning pasayishi tovarlar taklifining kamayishiga olib keladi. Demak, narx taklifga ta'sir etuvchi asosiy omildir. Narx qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu mahsulot bozorda ko'proq hajmda taklif etiladi, narx qanchalik past bo'lsa, taklif kamayadi. Buni biz taklif egri chizig'ida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Quyidagi holatda agarda mahsulotning birligi narxi 50 ming so'mdan 350 ming so'mgacha oshadigan bo'lsa, unda taklif miqdori ham 1 tonnadan 6 tonnagacha oshmoqda, agarda narx 350 ming so'mdan 50 ming so'mgacha pasaysa, unda taklif miqdori 6 tonnadan 1 tonnagacha kamaymoqda.

Taklif egri chizig'i o'zida **taklif qonunini** aks ettirmoqda. **Unga muvofiq tovarning narxi qanchalik yuqori (past) bo'lsa, shunchalik ko'p (kam) tovar ishlab chiqariladi va bozorda sotish uchun taklif etiladi**. Narxlarning o'sishi qo'shimcha foyda olishga olib keladi, bu esa ularga ishlab chiqarishlarini kengaytirishga imkon beradi, shuningdek bozorga yangi ishlab chiqaruvchilarni jalb qilish imkonini beradi. Ishlab chiqaruvchi qanday narxda qancha mahsulot ishlab chiqarish muammosini, narx qancha yuqori bo'lsa, taklif miqdori shunchalik ko'p bo'lishini, narx qancha past bo'lsa, taklif

miqdori shunchalik kam bo'lishini anglagan holda yechimini topishga harakat qiladi.



### 3.4- rasm. Taklif egri chizig'i

Shu bilan birga narx o'zgarimagan sharoitda taklif narxdan tashqari omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Ushbu omillar quyidagilardan iborat:

1. **Resurslar narxlarinig o'zgarishi.** Masalan, mineral o'g'itlarga bo'lgan narxning pasayishi paxtaning taklifini oshiradi.


2. **Texnologiyadagi o'zgarishlar.** Masalan, paxta viltiga qarshi samarali vositani yaratish paxta taklifini oshiradi.

3. **Dotatsiya va soliqlardagi o'zgarishlar.** Masalan, sigaretalarga aksiz soliqlarining ortishi uning taklifini kamaytiradi. Universitetlarga beriladigan dotatsiyalar kamayishi oliy ma'lumotli mutaxassislar taklifini kamaytiradi.

4. **Boshqa tovarlarga bo'lgan narxning o'zgarishi.** Masalan, mol go'shtiga bo'lgan narxning ko'tarilishi qo'y go'shtining taklifini oshiradi.

5. **Kutishdagi o'zgarishlar.** Masalan, kelgusida neftga bo'lgan narxning pasayishi neft kompaniyalarini uning joriy taklifini ko'paytirishlariga majbur qiladi.

6. **Tovar ishlab chiqaruvchilar sonining o'zgarishi.** Masalan, holodilniklarni ishlab chiqaruvchi firmalar sonining o'sishi uning taklifini ortishiga olib keladi



### 3.5-rasm. Tovarlar taklifining g‘ayribaho omillar ta’sirida o‘zgarishi

3.5-rasm taklifning  $S$  egri chizig‘i  $S_1$  dan  $S_2$  ga siljiganda narx o‘zgarmagan holda tovarlarning taklifi  $Q$  dan  $Q_1$  ga kamaymoqda. Agarda taklifning  $S$  egri egri chiziq  $S$  dan  $S_2$  ga siljiganda narx o‘zgarmagan holda tovarlarning taklifi  $Q$  dan  $Q_2$  ga ortmoqda. Taklifdagi bu o‘zgarishlar g‘ayribaho omillar ta’sirida yuz bermoqda.

### 3.3. Bozor muvozanati.

#### Bozor narxlarining davlat tomonidan tartibga solinishi

Talab va taklifni ko‘rib chiqqandan so‘ng, biz ularni birlashtirib, bozorda mahsulotning qancha qismi xarid qilinishi va sotilishini aniqlay olamiz. Biz mukammal raqobatli bozorda mahsulotga xaridorlarni ham, sotuvchilarni ham qondiradigan narx qanday qilib shakllanadi degan savolga javob topishimiz zarur. Bozorda shartnoma asosida sotiladigan tovarning real narxi tovarga talaba va taklifning o‘zaro ta’siri natijasida aniqlanadi.

Agar narx past darajada belgilangan bo‘lsa, unda xaridorlar sotib olmoqchi bo‘lgan tovarlarni kerakli miqdorda topa olmaydilar. Bozor sharoitida bunday holat uzoq vaqt saqlanib turishi mumkin emas. Darhaqiqat, firmalar uy xo‘jaliklari ko‘proq tovarlarni talab qilayotganliklarini ko‘rishadi. Bu ishlab chiqaruvchilarni qo‘shimcha ishlab chiqarish resurslarini yollashga va ishlab chiqarishni kengaytirishga undaydi, chunki har bir qo‘shimcha sotilgan tovar birligi ularga foyda keltiradi. Shuni esda tutish kerakki, bozorda qisqa muddatli

davrda ishlab chiqarishning kengayishi mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlarning ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lib, natijada mahsulot narxi oshadi. Shunday qilib, ortiqcha talab va tovarlarning yetishmasligi ishlab chiqarishni kengaytirishni rag‘batlantiradi. Bozorda tovar tanqisligini keltirib chiqaradigan **ortiqcha talab** narxlarga "pastdan" bosim o‘tkazadi, ularni yuqoriga «itaradi», ya’ni ko‘tarilishiga majbur qiladi.

Bozor muvozanati sharoitida firmalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish uchun rag‘bat yo‘qoladi. Darhaqiqat, ishlab chiqarish hajmining yanada o‘sishi tovarlarga narxlarning oshishi va bu borada talab mavjud bo‘lgan tovarlar miqdorining kamayishi bilan birga keladi, ya’ni haddan tashqari taklif talabdan oshib ketadi. Sotilmagan mahsulotlar omborga tushadi va natijada ishlab chiqaruvchilarni yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu holat uzoq vaqt saqlanib turolmaydi. Bozorda ortiqcha mahsulotni vujudga keltiruvchi ortiqcha talab narxlarga "yuqoridan" bosim o‘tkazib, ularni yuqoriga «itaradi» va pasayishga majbur qiladi.


Bunday vaziyatda ishlab chiqaruvchilar bozorda muvozanatli narx o‘rnatilgunga qadar ishlab chiqarishni qisqartirishni boshlaydilar. Ushbu narx **muvozanatlashgan narx deb ataladi - bu talabga javob beradigan tovarlar miqdori firmalar tomonidan sotuvga qo‘yiladigan tovarlar miqdoriga teng. Boshqa barcha narxlar muvozanatlashgan emas.**

### 3.1- jadval

#### Go‘sh-tga bo‘lgan talab va taklif.

1 kg go'shtning bahosi (ming so'm)	Go'shtga talab (kg)	Go'shtning taklifi (kg)	Ortiqcha (+) Kam (-)
20	1000	50	+950
25	700	300	+400
30	425	425	=
40	250	500	-250
50	125	550	-425


Endi biz xuddi shu raqamlarni grafikka ko‘chiramiz. Grafikda narxi 30 ming so‘mga teng bo‘lganda talab va taklif egri chizig‘i K nuqtada kesishmoqda. Xuddi shu bahoda talab va taklif miqdori teng bo‘lmoqda va bu narx (30 ming so‘m) muvozanatlashgan yoki bozor narxi deyiladi.



### 3.6- rasm. Bozor muvozanati

Bozor (**muvozanatlashgan**) narxni jadvaldan ko'rish mumkin. Jadvaldan go'shtning 1 kg narxi 30 ming so'm bo'lganda bozorda go'shtning taklifi va unga bo'lgan talab ( $425=425$ ) tengligini ko'rish mumkin. Go'shtning narxi 20 va 25 ming so'm bo'lganda bunday tenglik yo'q. Bu bozorda go'shtning narxi 20 ming so'm bo'lganda 950 kg va 25 so'm bo'lganda 400 kg miqdorda iste'molchilarning talabi qondirilmayotganligini ko'rsatmoqda. Go'shtning bahosi 40 va 50 so'm bo'lganda esa 250 va 425 kg go'sht sotilmay qolayotganini ko'rishimiz mumkin.

Talab va taklif o'zgarishining muvozanat narxiga ta'siri masalasini ko'rib chiqmasak, bizning tahlilimiz to'liq bo'lmaydi.



a)


b)

### 3.7-rasm Muvozanatlashgan bozor narxini o'zgarishi

Keling, taklif o'zgarmas deb taxmin qilib, talab o'zgarishining oqibatlarini tahlil qilaylik. Deylik, talab ortib bormoqda. Narx qanday o'zgaradi? Yangi kesishish nuqtasi dastlabki muvozanatlashgan narxdan yuqori bo'lishini

ta'kidlab, shuni aytishimiz mumkinki, boshqa sharoitlar mavjud bo'lganda, talabning oshishi narxlarning o'sishi va mahsulot miqdori oshishiga olib keladi (3.7 a -rasm). Agar talab kamaysa, bu narxlarning pasayishi va mahsulotlar miqdorining kamayishga olib keladi (3.7 b -rasm) Ya'ni bu yerda talabning o'zgarishi, mahsulotning muvozanatlashgan narxi va miqdorining o'zgarishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud deyishimiz mumkin.

Endi talab o'zgarimas deb taxmin qilib, taklifning o'zgarishini narxga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Taklif oshganda, taklif egri chizig'i o'ng tomonga siljiydi va muvozanatlashgan bozor narxi pasayadi, ammo ishlab chiqarishning muvozanat hajmi oshadi (3.8 a -rasm ).



**3.8-rasm. Muvozanatlashgan bozor narxining o'zgarishi**

Boshqa tomondan, taklif kamayganda bozor narxi ko'tariladi va ishlab chiqarishning muvozanatlashgan hajmi kamayadi. (3.8 b-rasm ). Bu erda taklif o'zgarishi va ishlab chiqarish hajmi bilan muvozanat narxi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud deyishimiz mumkin.

Yana bir holat: taklif kamayadi, ammo talab ortadi. Bu yerda narx oshishi alohida olingan omilning o'zgarishidan narxni oshishiga nisbatan balandroq bo'ladi. Muvozanat miqdoriga ta'sir ham ko'p yo'nalishli bo'lib, talab va taklif o'zgarishi nisbiy parametrlarga bog'liq. Agar taklifning pasayishi talabning o'sishidan nisbatan kattaroq bo'lsa, muvozanatlashgan mahsulot hajmi dastlabki qiymatdan kamroq bo'ladi. Ammo, agar taklifning pasayishi talabning o'sishidan nisbatan kamroq bo'lsa, unda ishlab chiqarishning muvozanat miqdori ortadi.

Talab va taklif qarama-qarshi yo'nalishda o'zgarganda ham murakkab holatlar kuzatilishi mumkin. Birinchidan, taklif oshib, talab kamayadi deylik. Natijada narxlar pasayishini ikkita ta'siri birlashadi va bu omillardan birining o'zgarishi natijasida narxlarning pasayishiga qaraganda ko'proq pasayadi.

Talab va taklifning o'zgarishi oqibatlarini ko'p yo'nalishli bo'ladi: taklifning ko'payishi ishlab chiqarish hajmini oshiradi, talabning pasayishi esa kamaytiradi. Pirovardida mahsulot miqdorining o'zgarishi yo'nalishi talab va taklif o'zgarishining nisbiy parametrlariga bog'liq bo'ladi. Agar taklif talabning pasayishidan nisbatan kattaroq bo'lsa, unda muvozanat hajmi boshlang'ichidan kattaroq bo'ladi. Agar talabning pasayishi taklifning o'sishidan nisbatan kattaroq bo'lsa, unda muvozanat hajmi kamayadi.

Talab va taklif bir xil yo'nalishda o'zgarganda nima bo'ladi? Birinchidan, ham talab, ham taklif ortadi deylik. Bu yerda biz narxga qarama-qarshi ikkita ta'sirni taqqoslashimiz kerak - taklifning oshishi natijasida narxning pasayishi ta'siri va talabning pasayishi tufayli narxning oshishi ta'siri. Agar taklifning o'sish ko'lami talabning o'sishidan kattaroq bo'lsa, unda muvozanatlashgan narx oxir-oqibat pasayadi. Agar buning aksi bo'lsa, muvozanatlashgan narx ko'tariladi. Ishlab chiqarishning muvozanatlashgan hajmi boshlang'ichga nisbatan ortadi.

Xuddi shu tahlilni talab ham, taklif ham kamaygan holatida o'tkazish mumkin. Qachon taklifning pasayishi ko'lami talabning pasayishi miqyosidan kattaroq bo'lsa, unda muvozanatlashgan narx oshadi, aks vaziyatda narx pasayadi. Ammo, talabning ham, taklifning ham bir vaqtning o'zida pasayishi ishlab chiqarishning muvozanat hajmini pasaytiradi. Shuningdek, maxsus holatlar vujudga kelishi mumkin, bir tomondan talabning oshishi va taklifning ko'payishi va ikkinchi tomondan talab va taklifning pasayishi bir-birini to'liq neytrallashtiradi. Ikkala holatda ham muvozanatli bozor narxiga yakuniy ta'sir nolga teng va u o'zgarmaydi.

Vaqti-vaqti bilan keng jamoatchilik yoki hukumat talab va taklif mexanizmi xaridorlar uchun nohaq yuqori yoki sotuvchilar uchun nohaq past narxlarni yaratadi degan fikrda bo'ladi. Bunday hollarda hukumat qonuniy ravishda narxlarning ko'tarilishi yoki pasayishi chegaralarini belgilashi mumkin.

Keling, bozor narxlari mexanizmi yo'q va narxlar sun'iy ravishda, davlat tomonidan ma'muriy vositalar bilan belgilanadigan holatni ko'rib chiqamiz. Bu yerda ikkita variant mavjud:

- narxlarning yuqori chegarasini belgilash, birinchidan, undan yuqori narxlarda tovar va xizmatlarni sotish taqiqlanadi, ikkinchidan o'rnatilgan chegaradagi narx bozor narxidan past bo'ladi. Bunday choralar tovarlarning keskin tanqisligi davrida, aksariyat aholining erkin bozor narxlari ko'tarib bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lganida qo'llanadi. Natijada, salbiy oqibatlarning zanjiri vujudga keladi: bozorning o'zini o'zi tartibga solishining



buzilishi tovarlarning doimiy tanqisligini va tanqis mahsulotlarni iste'molchilar uchun davlat tomonidan me'yorlash (masalan, kartochna tizimi orqali) zarurligini keltirib chiqaradi

- hukumat ma'lum ishlab chiqaruvchilar uchun daromadning yetarli darajasini ta'minlashni xohlaganda narxlarning past chegarasini belgilaydi. Bunday holda, hukumat tomonidan belgilangan minimal narx, aksincha, muvozanat narxidan yuqori bo'ladi. Bu fermerlarni qo'llab-quvvatlaydi (past muvozanat narxi ularni xonavayron qiladi).

Bozorning o'zini o'zi tartibga solishini cheklash yoki to'xtatib qo'yish muqarrar ravishda barqaror ortiqcha mahsulot miqdorining vujudga kelishiga olib keladi (yuqori narx taklifni rag'batlantiradi, shu bilan birga talabni kamaytiradi). Davlat ishlab chiqarishni cheklashga (masalan, ekilgan maydonlarning chegaralarini belgilash yoki ortiqcha mahsulotlarni sotib olishga (shu bilan dehqonlarga subsidiya berishga) majbur bo'ladi. Bu sotib olingan ortiqcha mahsulotlarni saqlash, ishlatish yoki yo'q qilish muammosini tug'diradi. Shunday qilib, narxlarning ma'muriy belgilanishi uning har qanday variantida bozorning o'zini o'zi boshqarish mexanizmini to'xtatib qo'yadi. Agar erkin shakllanadigan narxlar talab va taklifga avtomatik ravishda mos keladigan bo'lsa, unda tartibga solinadigan narxlar mos kelmaydi. Mahsulotlarning yetishmasligi yoki ortiqcha qismi shakllanadi va jamiyat ular tug'diradigan muammolarni yengishiga to'g'ri keladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri o'zgarsa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarish ro'y beradi?
2. Talabning miqdori va talabning o'zini o'zgarishi deganda nimani tushunasiz?
3. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri o'zgarsa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarish ro'y beradi?
4. Taklifning miqdori va taklifning o'zini o'zgarishi deganda nimani tushunasiz?
5. Bozor narxi shakllanishining asosiy shartlarini aytib bering
6. Talab va taklifning quyidagi o'zgarishlarining har biri raqobatli bozorda muvozanatli narx va mahsulotlarning muvozanatli miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatadi? Javoblaringizning to'g'riligini tekshirish uchun talab va taklif diagrammasidan foydalaning.

## 4. ELASTIKLIK

### 4.1. Elastiklik tushunchasi va uni iqtisodiyot fanida qo'llanishining o'ziga xosligi

Talab va taklifni tahlil qilish narx va narxdan tashqari omillar ta'sirida talab va taklif o'zgarishlarining umumiy yo'nalishlarini aniqlashga va asosiy qonun - talab va taklif qonunining kashf etilishiga imkon berdi. Biroq, narxlarning oshishi mahsulotga bo'lgan talab hajmining pasayishiga olib kelishini bilish yetarli emas, unga aniqroq miqdoriy baho berish kerak, chunki narxning pasayishi tez yoki sekin, kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Demak, talab va taklif qonunlarining miqdoran o'zgarib borishi talab va taklif elastikligini ifoda etadi. Shunga qarab narxning o'zgarishiga javoban talab yoki taklif naqadar o'zgarganligini bilish mumkin. Talab va taklifni o'lchash iqtisodiy tahlilning muhim vositasidir. Zero, u tovarlarni sotish natijasida olinadigan tushumga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida qayd qilganimizdek, narxning oshishi tovarlarni sotish hajmining pasayishiga olib keladi va aksincha. Bunday ta'sirning intensivligi bir xilda bo'lmasligi mumkin, har bir o'zgaruvchi (narx va mahsulotni sotish hajmi) o'lchovdosh bo'lmasligi mumkin.

“Elastiklik” bir - birini taqozo etuvchi o'zgaruvchilarni, ya'ni narx va mahsulotni sotish hajmi o'rtasidagi nisbatni o'lchashda foydalaniladi.

**Elastiklikning eng umumiy ta'rifi - bu funksiya'ning nisbiy o'sishining mustaqil o'zgaruvchining nisbiy o'sishiga nisbati.**

Biz ko'rib chiqayotgan talab va taklif funksiyalari uchun bunday mustaqil o'zgaruvchilar, tovarlarning narxi, daromad darajasi, xarajatlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Demak, bozorning narxlar, daromadlar yoki boshqa har qanday boshqa bozor ko'rsatkichlari o'zgarishiga sezgirliги elastiklik ko'rsatkichida aks etadi, bu maxsus koeffitsiyent bilan tavsiflanishi mumkin.

**Iqtisodiyot fanida elastiklik (ingl. elasticity) - bu ko'rsatkichlardan biri (masalan, narx, daromad) 1% ga o'zgarganda, boshqa ko'rsatkichlar (masalan, talab yoki taklif) necha foiz o'zgarishini ko'rsatadigan o'lchovdir**

Iqtisodiyot faniga elastiklik konsepsiyasi fizika fanidan nisbatan kechroq kirib kelgan, ammo juda tez orada asosiy konsepsiyalardan biriga aylandi. Elastiklikning iqtisodiy ta'rifi birinchi marta 1885 yilda Alfred Marshall

tomonidan berilgan edi. Mashhur ingliz olimi bu konsepsiya'ni birinchi bo'lib tadqiq qilmagan, ammo iqtisodiy nazariyada ingliz klassiklari (Adam Smit va David Rikardo) matematika maktabining yutuqlaridan foydalanib, **talabning narx elastikligi koeffitsiyentini aniqlagan.**

Iqtisodiy tahlilga elastiklikni kiritish katta ahamiyatga ega. Talabning narx elastikligini bilishdan ko'pqina bozor subyektlari manfaatdorlar. Masalan, firmalar ishlab chiqargan mahsulotlariga narxlarning o'zgarishiga iste'molchilarning munosabatini baholashlari uchun aynan o'z mahsulotlariga bo'lgan talabning narx bo'yicha elastligini hisoblashlari kerak. Bu firmalarning iste'molchilarning talablariga moslashishiga, o'z mahsulotlarini bozorda muammolarga duch kelmasdan to'liq sotilishiga imkon yaratadi. Shuning uchun firmalar iste'molchilarning ayrim mahsulot guruhlari bo'lgan munosabatini aniqlash uchun maxsus tadqiqotlar o'tkazadilar. Xususan, elastiklik koeffitsiyenti statistik o'lchov vositasi bo'lib, marketing tadqiqotlarida faol foydalaniladi (AQSHdagi konsalting kompaniyalari xususiy firmalar uchun elastiklikni hisoblash uchun 50000 dan 75000 dollargacha haq oladi). Shuningdek, davlat ham ayrim tovar yoki xizmatlar guruhlari uchun soliqlar yoki subsidiyalarni kiritmoqchi yoki kamaytirmoqchi bo'lsa, albatta bunga iste'molchilarning javobni bilishi kerak, buning uchun esa hukumat talabning narx elastikligini bilishdan manfaatdor hisoblanadi.

Elastiklik tushunchasi iqtisodiy tahlil uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki uni o'lchash yetarli emas, shuningdek olingan natijani tushuntirib bera olish zarur.

Bugungi kunda talab va taklifni tahlil qilish, firma nazariyasi, iqtisodiy sikllar nazariyasi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda elastiklik konsepsiyasi qo'llaniladi, ya'ni elastiklik konsepsiyasi qo'llanilmaydigan biron bir iqtisodiyot sohasi mavjud emas deyishimiz mumkin.

## **4.2 Talab elastikligi va uning turlari**

**Talabning narxga bog'liq elastikligi (ingl. price elasticity of demand) bu narxning o'zgarishiga javoban talabning naqadar o'zgarganligini bildiradi.** Masalan, agarda mebelning narxi 15% o'zgarsa, ma'lum vaqt ichida ularni sotish hajmi qanday o'zgaradi? Yoki, agarda aholi daromadlari 10% o'zgarsa, tovarga bo'lgan talab qanday o'zgaradi. "O'zgaruvchanlik"ni hisoblash birligi qilib "foiz" qabul qilingan. Chunki, foiz har qanday o'zgaruvchining xoh u tonnada, xoh metrda va boshqa birliklarda o'lchangan

taqdirda ham, o'zgarish darajasini ko'rsatib berish qobiliyatiga ega. Agar narxga javoban talab jiddiy o'zgarsa, talab elastik hisoblanadi, agar bu o'zgarish sust bo'lsa, noelastik talab majud bo'ladi. Talabning elastikligini odatda 5 ta omil yuzaga keltiradi:

**Birinchi omil, mahsulotning iste'mol xususiyatlari.** Ma'lumki tovarlar 2 xil bo'ladi:

-iqtisodiyotda iste'molchiga eng kerakli va tez tez ishlatiladigan, odatda, daromad o'zgarganda iste'mol darajasi sezilarli darajada o'zgarmaydigan mahsulotlar **birinchi gald zarur tovarlar** deb ataladi. Ya'ni, ushbu tovarlarni inson inkor eta olmaydi. Masalan non, don va shu kabi mahsulotlar;

- **zebu ziynat (hashamatli) tovarlariga** xorijda ishlab chiqarilgan qimmatbaho mashinalar (Rolls-Royce, Mercedes, Bentley, Ferrari), dala-hovli va kottejlar misol bo'la oladi. Bu tovarlarni aholining barchasi emas, balki ma'lum xaridorlar iste'mol qiladi, ular odatda puldorlar yoki ayrim tovar havasmandlari bo'ladi. Ushbu mahsulotlar yuqori narxga ega va oz miqdorda sotiladi. Ular yordamida odamlar hayotdagi muvaffaqiyatlarini namoyish etishadi.

Kundalik tovarlarga talabning elastikligi past bo'ladi, chunki narxning o'zgarishiga javoban ularga talab kamroq o'zgaradi yoki shunday tovarlar borki, ular narxining o'zgarishi talab elastikligini vujudga keltirmaydi. Masalan; non, tuz, elektr energiya va boshqa har kungi zarur bo'lgan tovarlar. Bularni iste'mol qilmaslikning iloji yo'q, shu sababli ularga narxlarning oshishi iste'molning sezilarli kamayashiga olib kelmaydi. Operatsiya'ning narxi oshganligiga qaramasdan hech kim yalg'illangan appendiksni oldirib tashlashdan voz kechmaydi. Ammo billur, zargarlik buyumlari va shunga o'xshash hashamatli tovarlarga narxlarning o'sishi ushbu mahsulotlarning insonlar iste'molidan osonlikcha chiqarib yuborilishiga olib kelishi mumkin.

Tuzga bo'lgan talab mutlaqo noelastikdir, chunki birinchidan tuz oila byudjetida juda kam ulushni egallaydi, ikkinchidan esa, tuzning o'rnini bosadigan tovarning deyarli o'zi yo'q, hech kim ta'msiz tuzsiz ovqat iste'mol qilmaydi.

**Ikkinchi omil. Bozorda o'rinbosar tovarlarning mavjudligi.** Bunday sharoitda narx oshganda talab narxi o'zgarmagan boshqa tovarga ortadi, chunki, bu tovarlar o'rinbosar bo'lib, ehtiyojni bir xil qondiradi. Masalan, o'rinbosar mahsulotlar - grechka va guruch, mol go'shti va qo'y go'shti,

sariyog‘ va margarin. Agar o‘rnini bosadigan tovarlar bo‘lmasa , unda talab elastik emas (insulin, tuz).

**Uchunchi omil- bozorning tavsifi.** Agar bir tarafdin, bozor tor bo‘lsa, narx o‘zgarishi u erdagi ma‘lum tovarga bo‘lgan talabni elastik qiladi, ikkinchi tarafdin, bozor kengroq bo‘lsa o‘rinbosar tovarlarni topish mumkin, bu yerda bir tovarga narxning o‘zgarishi unga talabni elastik qilmasdan boshqa tovarga ko‘chirib, uning talabini elastik qiladi.

**To‘rtinchi omil- tovar qiymatining iste‘molchining daromadidagi salmog‘i.** Mahsulot iste‘molchi byudjetidan qanchalik katta joy egallasa, unga bo‘lgan talab shunchalik elastik bo‘ladi. Odatda, asosiy ehtiyojlarga bo‘lgan talab elastik emas, chunki, masalan, qalam yoki saqich narxining ozgina oshishi xaridlar sonini minimal o‘zgartirishi mumkin. Shu bilan birga, turar-joy binosi, ozgina foizga oshishi talabning keskin pasayishiga olib keladi, chunki olingan mablag‘ oilaviy byudjetning katta qismini tashkil qiladi, shuning uchun ushbu mahsulotlarga talab kamayadi.

**Beshinchi omil – vaqt omili yoki talabning qanday vaqt oralig‘ida o‘zgarishi.** Iste‘molchining qaror qabul qilish muddati qancha ko‘p bo‘lsa, talab shunchalik elastik bo‘ladi. Buning sababi shundaki, ko‘plab iste‘molchilar iste‘mol qilishga odatlanib qolgan mahsulot narxining biroz oshishi darhol talabning o‘zgarishiga olib kelmaydi, biroq birmuncha vaqt o‘tgach, ular o‘zlarining didlarini o‘zgartirishi mumkin. Masalan yengil avtomobil qimmatlashdi deb faraz qilamiz, bu mashinaga bo‘lgan talabning darhol elastik bo‘lishiga olib kelmaydi, chunki insonlar avtomobilda kam yurishadi, uni kam sotib olishadi, so‘ngra avtomobil o‘rniga metro, avtobus va shu kabilardan foydalanadilar.

**Talabning narxga bog‘liq elastikligi koeffitsienti bu talab hajmi o‘zgarishining narxning o‘zgarishiga nisbati.** U narxning 1 % o‘zgarganda sotish hajmi qancha foizga o‘zgarganligini aniqlashga imkon beradi, va u quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$E_t = \Delta Q\% / \Delta R\%$$

Bu yerda:  $E_t$  – bu talabning narxga bog‘liq elastiklik koeffitsienti koeffitsienti;

$\Delta Q\%$  - bu talab miqdorining foizli o‘zgarishi;

$\Delta R\%$ - bu narxning foizli o‘zgarishi

Masalan, X tovarning narxi 20000 dan 24000 soʻmga etdi. Bunga javoban X tovarni xaridi 24 donadan 18 donaga tushib qoldi. Demak, narx 20%ga oshdi yaʼni:

$$(24000-20000)/2000 \cdot 100=20\%$$

Talab hajmi esa 25% qisqardi, yaʼni:

$$(24-18)/24 \cdot 100=25\%$$


Endi bu koʻrsatkichlarni formulaga qoʻyib hisoblasak

$$Et = 25/20 = 1,25 \text{ yaʼni } Et > 1.$$

Bunda narxga nisbatan talab hajmi tezroq oʻzgardi. Demak, bu holatda talab narx boʻyicha elastik boʻladi.

Talabning oʻzgaruvchanligining quyidagi variantlari mavjud:

a) **mutloq elastik talab ( $E_K = \infty$ )** Talab toʻliq elastik boʻladi. Narxlarning ozgina oshishi talabning cheksiz katta pasayishiga olib keladi va narxning ozgina pasayishi talab hajmining cheksiz katta oshishiga olib keladi. Grafikda talab egri chizigʻi gorizontaal chiziq koʻrinishida boʻladi yoki u talab chizigʻining narx oʻqi bilan kesishish nuqtasi koʻrinishida boʻladi (4.1- rasm).




#### 4.1 –rasm. Talabning mutloq elastik, mutloq noelastik, birga teng elastikligi grafigi

b) **mutloq noelastik talab ( $E_K = 0$ )** bunda narxga javoban talabda hech qanday oʻzgarish yuz bermaydi. Talab egri chizigʻi vertikal chiziqqa yoki talab chizigʻining tovar miqdori oʻqi bilan kesishish nuqtasi koʻrinishida boʻladi (4.1- rasm).


d) **talabning birga teng elastikligi ( $E = 1$ ).** Narxning 1% ga pasayishi mahsulot sotishning 1% ga oʻsishiga imkon beradi. Talabning birga teng elastikligida koeffitsiyent birdan iborat boʻladi. Talab egri chizigʻi teng yonli giperbolaning shakliga ega boʻladi (4.1- rasm).

e)  **$E < 1$  talab elastik.** Narxning 1% ga pasayishi mahsulotning 1% dan ko‘proq sotilishiga imkon beradi (4.2-rasm) Talabning narx bo‘yicha elastikligi savdo hajmi va sotuvchining oladigan tushumi miqdori va moliyaviy holatiga ta’sir qiladi. Daromad miqdori bu  $P \times Q$  yoki to‘rtburchakning maydoni, uning bir tomoni mahsulot narxiga, ikkinchisi esa shu narxda sotilgan mahsulotning miqdoriga teng. Elastik talabda narxning pasayishi tovarlarni ko‘paytiradi, bu esa umumiy daromadni oshiradi (past narxga to‘g‘ri keladigan to‘rtburchakning maydoni yuqori narxga to‘g‘ri keladigan to‘rtburchakning maydoniga nisbatan kattaroq).



**4.2- rasm. Elastik talab egri chizig‘i.**

d)  **$E > 1$  bo‘lganda talab elastik emas.** Narxning pasayishi mahsulotning 1% dan kam sotilishga imkon beradi (4.3.- rasm). Noelastik talabda narxning pasayishi savdo hajmining shunchalik kichik o‘rishiga olib keladiki, natijada yalpi daromad miqdori kamayadi (past narxga to‘g‘ri keladigan to‘rtburchakning maydoni yuqori narxga mos keladigan to‘rtburchakning maydonidan kichik).



**4.3 - rasm. Noelastik talab egri chizig‘i**

Agar biz elastik va noelastik talab egri chiziqlarini solishtirsak, unda noelastik talab egri chizig'i elastik talab egri chizig'iga nisbatan tikroq ekanligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni elastiklik sharoitida talab egri chiziq yotiq bo'lsa, noelastik sharoitida bu chiziq tikkaroq ekanligi bilan ajralib turadi.

**Elastik talab tovarlari - bu talab miqdori ushbu tovar narxining oshishidan ko'proq kamayadigan tovarlar.** Masalan, agar narx 5% ga ko'tarilsa, unda talab 10% ga kamayadi. Bunga hashamatli tovarlar yoki kino chiptalari misol bo'la oladi. Ular uchun narxlarning oshishi umumiy daromadning o'sishiga emas, balki pasayishiga olib kelishi mumkin, chunki odamlar ularsiz kun ko'rishlari yoki ushbu tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlarni topishlari mumkin. Kinoga borish o'rniga, odamlar televizorda film tomosha qilishlari yoki umuman film ko'rmasliklari mumkin.

**Elastik bo'lmagan talab tovarlari - bu talab miqdori ushbu tovar narxining o'sishidan kamroq kamayadigan tovarlardir.** Masalan, agar narx 5% ga oshsa, unda talab atigi 3% ga kamayadi. Masalan, insonga birinchi galda zarur bo'lgan tovarlar. Ular narxining oshishi har doim umumiy savdo daromadlarining ko'payishiga olib keladi. Masalan, O'zbekistonda non narxi oshsa ham, odamlar uni har qanday narxda sotib olishadi. Odamlar yashash darajasi past bo'lgan davrda past toifadagi tovarlarga talab normal tovarga bo'lgan talabga o'xshab shakllanadi. Faqat iste'molchining turmush darajasi oshib borgan sari normal va past toifadagi tovarlar o'rtasidagi chegara ko'rina boshlaydi.

**Talabning daromadga bog'liq elastligi (ingl. income elasticity of demand) daromadning o'zgarishiga javoban talabning naqadar o'zgarganligini bildiradi.** Bu o'zgarishlar tegishli koeffitsiyentlar yordamida hisoblanadi.

**Talabning daromad bo'yicha elastligi koeffitsiyenti - bu talab qilinadigan tovarlar va xizmatlar narxlarining o'zgarishiga javoban ularning miqdorini o'zgartirish darajasini aks ettiruvchi raqamli ko'rsatkich.** Talabning daromad bo'yicha elastligi koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$E_t = \Delta Q\% / \Delta D\%$$

Bu yerda: EK – bu elastiklik koeffitsiyenti;

$\Delta Q\%$  - bu talab miqdorining foizli o'zgarishi;

$\Delta D\%$  - bu daromadning foizli o'zgarishi.



Talabning daromadga bog'liq elastligining kattaligi va uning daromad darajasiga bog'liqligi tovar turiga bog'liq. Daromad miqdoriga bog'liqligi jihatidan quyidagi mahsulot turlari farqlanadi: **oddiy va past toifadagi tovarlar**.

**Oddiy (normal) tovarlar** - aholi daromadlarining oshishi bilan talab oshib boradigan tovarlar. Tovarlarning asosiy massasi ushbu toifaga kiradi. Masalan, avtomobillar, turizm xizmatlari. Oddiy tovarlarning tarkibida birinchi galda zarur va zebu ziynat tovarlarini ajratish mumkin.

**Past toifadagi tovarlar** - sifati past tovarlar, daromad oshib borishi bilan ularga talab pasayib boradi. Chunki iste'molchilar ularni sifatli mahsulotlarga almashtirishni boshlaydilar. Ushbu toifaga, masalan, ikkinchi qo'l kiyim, ikkinchi sortli oziq-ovqat va boshqalar kiradi. Ushbu tovarlar odamlarning oddiy hayot kechirishi uchun zarurdir, ammo daromad ko'payganda odamlar qimmatroq, sifatli va foydali tovarlarni - mevalar, go'sht, pishloq va boshqalarni iste'mol qilishga o'tadilar.

**Talabning daromad bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti manfiy bo'lsa ( $K_e < 0$ )**, u holda mahsulot yoki xizmat past sifatli deb nomlanadi va unga talabning pasayishi iste'molchilar daromadining oshishi bilan belgilanadi. Ya'ni iste'molchi daromad miqdorining o'sishi unga ko'proq va sifatliroq mahsulotlarni sotib olishga imkon beradi. Bunday tovarlarga talabning daromad elastikligi koeffitsiyenti dastlab ijobiy, keyin esa ma'lum bir daromad darajasiga yetganida u nolga tushadi va undan keyin salbiy qiymatlarga yetadi.

**Talabning daromad bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti nolga teng bo'lsa ( $E_K = 0$ )** unda mahsulot yoki xizmat **neytral deb** nomlanadi va ushbu mahsulot yoki xizmatga talabning o'sishi daromadning o'sishi bilan belgilanmaydi. Ushbu tovar iste'moli va iste'molchilar daromadlarining o'zgarishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud emas.

**Talabning daromad bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti ijobiy bo'lsa-da, ( $0 < E_K < 1$ ) lekin, birdan kichik bo'lsa**, unda mahsulot yoki xizmat birinchi galda zarur tovar deb ataladi va ushbu mahsulotga talab daromad oshishiga qaraganda sekinroq o'sib boradi va to'yinganlik chegarasiga ega. Masalan, tish pastasini olaylik. Odamlarga tish pastasi iste'mol qilishning miqdoriy chegarasi bor, undan ortig'i insonlarga kerak emas, chunki ular uni iste'mol qila olmaydi. Ushbu darajaga yaqinlashganda, talabning daromad bo'yicha elastikligi nolga intiladi: daromadni qanday oshirmasligimizdan qat'i nazar, tish pastasiga talab oshmaydi. Bunda talab hajmi daromaddan kichikroq foizga o'zgaradi. Birinchi

galda zarur tovarlarga nisbatan talabning daromadga nisbatan elastligi past bo'ladi.

**Talabning daromad bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti ijobiy bo'lib, birdan katta bo'lsa ( $0 < EK > 1$ ), u holda mahsulot yoki xizmat zebu ziynat tovarlar deb ataladi.** Bunday tovarlarga talabning daromad bo'yicha elastikligi miqdori birdan kattaroqdir, chunki daromadning oshishi bilan zebu ziynat tovarlarining iste'moldagi ulushi oshadi, birinchi galda zarur tovarlarning ulushi esa kamayadi. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, bunday tovarlarga talab ma'lum miqdordagi daromadga erishilganda paydo bo'ladi, eng muhim tovarlarga bo'lgan talab esa daromadning eng past darajasida ham ijobiy bo'ladi. Buning sababi shundaki, odamlar avvalo o'zlarining yashashlari bilan bog'liq bo'lgan birinchi galda zarur asosiy ehtiyojlarini qondirishga intilishadi va shundan keyingina zebu ziynat buyumlari haqida o'ylashni boshlaydilar. Zebu ziynat tovarlarga talabning daromad bo'yicha elastligi yuqori bo'ladi. Talabning daromad bo'yicha elastikligi quyidagi omillarga bog'liq:

---

- mahsulot yoki xizmatning oilaviy byudjet uchun ahamiyati, qanchalik mahsulotga oila ehtiyojlari yuqori bo'lsa, shunchalik uning elastikligi past bo'ladi;

- daromadlari har xil bo'lgan iste'molchilar uchun bir xil tovar va xizmatlar zebu ziynat tovarlar yoki zarur mollarga aylanishi mumkin bo'lgan mahsulot yoki xizmatga ehtiyoj;

K.R.Makkonnell va S.L.Bryu fikriga ko'ra daromad bo'yicha yuqori ijobiy elastligiga ega bo'lgan tarmoqlar iqtisodiyot tarkibidagi ulushidan ko'ra ko'proq iqtisodiyotga o'z hissalarini qo'shadilar. Daromad bo'yicha talab elastiklik darajasi kichik, ijobiy yoki salbiy elastiklikga ega bo'lgan tarmoqlar esa qiyinchiliklarga duch kelishi va ishlab chiqarishni kamaytirishi mumkin.<sup>8</sup> Talabning daromadlar bo'yicha elastiklik koeffitsiyentlari kelajakdagi soliq solishdan olinadigan soliq tushumini baholash vositasidir. Soliq (yoki aksiz solig'i) o'sishining tovarlarga yoki xizmatlarga ta'sirini baholashda, soliq solinadigan bazaning o'zgartirilishida ushbu tovarlarga yoki xizmatlarga bo'lgan talabning egiluvchanligi qiymati hisobga olinadi.<sup>9</sup>

---

<sup>8</sup> Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономика: Принципы, проблемы и политика. В 2 т. — М.: Республика, 1992. — Т. 2. — С. 29.

<sup>9</sup> Гальперин В. М., Игнатьев С. М., Моргунов В. И. Микроэкономика. В 3 томах. — СПб.: Омега-Л, Экономика, 2010. — Т. 1. — 1026 с.

**Chorrahaviy elastiklik-** bu boshqa mahsulot narxining o'zgarishiga javoban sotib olingan mahsulot miqdoridagi foizli o'zgarish ko'rsatkichi. Talabning narx bo'yicha chorrahaviy elastikligi ( $ED_{XY}$ ) X tovar narxi 1% ga o'zgarganda Y tovarga bo'lgan talabning necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi.

Talabning narx bo'yicha chorrahaviy elastikligi quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:


$ED_{XY} = Y \text{ tovarga talabning o'zgarishi (\%)} / X \text{ tovar narxining o'zgarishi (\%)}$

Bu yerda: D- talab; Q- sotib olingan tovarlar miqdori; P- tovarlarning narxi.

**Talabning chorrahaviy elastiklik koeffitsiyenti formulasi boshqa tovar narxining o'zgarishiga javoban tovarga bo'lgan talabning o'zgarishini ko'rsatadi.**

Talabning chorrahaviy elastiklik koeffitsiyenti o'rnini bosuvchi (subtit) ikkita tovar bo'lganda ijobiy bo'ladi ( $ED_{XY} > 0$ ) chunki Y tovar narxi ko'tariladi va X tovarga talab oshadi (4.4 a- rasm). Iste'molchilar X tovar iste'molini Y tovarni iste'mol qilish bilan almashtirishlari mumkin. Ikkita tovarning o'rnini bosuvchanligi qanchalik katta bo'lsa, koeffitsiyentning qiymati shunchalik yuqori bo'ladi. Masalan, ikkita markali avtomobillar, ikkita markali ichimliklar va boshqalar.

Bir birini to'ldiruvchi (komplementar) ikkita tovar bo'lganda talabning **chorrahaviy elastiklik** koeffitsiyenti salbiy bo'ladi ( $ED_{XY} < 0$ ). Iste'molchilar qisqa muddatda X tovar iste'molini Y tovar iste'moli tomoniga o'zgartira olmaydi, ya'ni Y tovar narxi ko'tarilib, X ga talab pasayadi (4.4 b- rasm). Tovarlarining bir-birini to'ldirishi qanchalik yuqori bo'lsa, koeffitsiyent shunchalik katta bo'ladi. Bundan tashqari, X va Y tovarlar va bir-biri bilan komplektda kelish mumkin.



**4.4- rasm. Talabning chorrahaviy elastikligi**

**Ikkala tovar o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan holda talabning chorrahaviy elastiklik koeffitsiyenti nolga teng ( $ED_{XY}=0$ )** chunki Y tovar narxi ko‘tariladi, X tovarga talab doimiy bo‘lib qoladi( 4.4 v- rasm). Bitta mahsulotni iste‘mol qilish boshqasining narxiga bog‘liq emas. Masalan, kompyuter va muzqaymoq.

Tovarlarning yoki xizmatlarning tabiiy xususiyatlari, ularning iste‘molda bir-birining o‘rnini bosa olish qobiliyati talabning chorrahaviy elastiklik koeffitsiyentini belgilaydigan omillardir.

### 4.3. Taklif elastikligi


**Taklifning narxga bog‘liq elastikligi (EK) taklifning narxga nisbatan naqadar o‘zgarishini bildiradi.** U taklifning narxlarning o‘zgarishiga javobini ko‘rsatadi va quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$EK = Q_{tf} \% / R\%$$

Bu yerda:  $Q_{tf} \%$  - bu taklifning foiz hisobida o‘zgarishi;

$R \%$  - narxning foiz hisobida o‘zgarishi

Tovarlarning taklifining elastligi tovarlarning narxi va ularni sotish hajmining nisbiy o‘zgarishini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlarning intensivligi ham har xildir.



### 4.5- rasm. Taklif elastligi

**Agar narx bo‘yicha taklifning elastiklik koeffitsiyenti nolga teng bo‘lsa ( $E=0$ ),** bunda narx o‘zgarganda tovar taklifi o‘zgarmaydi, bu mutlaqo noelastik taklifdir. Koeffitsiyentning bu kattaligi joriy davrning taklif egri chizig‘i uchun odatiy bo‘lib, taklif egri chizig‘i qat‘iy vertikal shaklga ega bo‘ladi (4.5- rasm).

**Agar narx bo‘yicha taklifning elastik koeffitsiyenti birdan kam bo‘lsa ( $E<1$ ),** unda bu taklifning kattaligi narxdan past foizga o‘zgarganda, bu elastik

bo'lmagan taklifdir. Koeffitsiyentning bu qiymati qisqa muddatli taklif egri chizig'i uchun xosdir. Barcha narxlarga taklif egri chizig'i mahsulot hajmini kesib o'tgan egri chiziqning barcha nuqtalari uchun elastik bo'lmaydi.

**Agar narx bo'yicha taklifning elastlik koeffitsiyenti biriga teng bo'lsa ( $E=1$ ), bir marotabalik taklif elastligi kuzatiladi.**

**Agar narx bo'yicha taklifning elastlik koeffitsiyenti birdan katta bo'lsa ( $E_k > 1$ ),** unda taklif kattaligi narx darajasiga nisbatan katta foizga o'zgarganda bu esa elastik taklifdir. Bunday taklif elastligi koeffitsiyenti uzoq muddatli taklif egri chizig'i uchun xosdir. Barcha narxlar uchun narxlar o'qini kesib o'tuvchi taklif egri chizig'i elastik bo'ladi.

**Agar narx bo'yicha taklifning elastlik koeffitsiyenti cheksizlikka teng bo'lsa ( $E_k = \infty$ ),** unda narxning ozgina o'zgarishi bilan taklif qiymati cheksiz o'zgaradi, bu mutlaqo elastik taklifdir va u uzoq muddatli davrga xos bo'lib, taklif egri chizig'i qat'iy gorizontallik shaklga ega (4.5- rasm).

**Taklif narxlarining elastikligi bir qator omillar bilan belgilanadi, ularning eng muhimlari quyidagilar:**

1. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tovar taklifi shunchalik yuqori bo'ladi.

2. Tarmoqda shakllangan xarajatlar darajasi. Agar korxonada harajatlari o'rtacha tarmoq qiymatidan past bo'lsa, korxonada o'z taklifini kengaytirishi mumkin.

3. Ichki resurslarning mavjudligi. Bunday holatda korxonada mahsulot hajmini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. Takliflarning elastikligi qanchalik yuqori bo'lsa, tovarlarni uzoq muddat davomida saqlash imkoniyati shunchalik katta bo'ladi va uni saqlash harajatlari kam bo'ladi.

5. Agar ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqaruvchiga o'z mahsulotining bozor narxi oshgan taqdirda mahsulot hajmini tezda ko'paytirishga yoki bozor holati yomonlashganda narxning pasayishi holatida boshqa biron bir mahsulotni ishlab chiqarishga yo'naltirishga imkon bersa, taklif elastik bo'ladi.

6. Vaqt omili: ishlab chiqaruvchi narx o'zgarishi bilan bog'liq yangi bozor sharoitlariga "moslashishi"ga qanchalik vaqt ko'p bo'lsa, taklif shunchalik elastik bo'ladi. Tadbirkorlarning ishlab chiqarishni o'zgartirishi kerak bo'lgan vaqt qancha ko'p bo'lsa, taklif shunchalik yuqori bo'ladi.

Narx bo'yicha taklifning elastikligini tahlil qilishda quyidagi vaqt oraliqlari farqlanadi:

- tezkor (eng qisqa);
- qisqa muddat;
- uzoq muddat.

**Birinchi (eng qisqa ) intervalda** ishlab chiqaruvchi tovar taklifini ko'paytira olmaydi. Talab oshib bormoqda, narx oshmoqda, tovarlar tez sotilmoqda. Savdoning bir kuni ushbu vaqt oralig'iga misol bo'lishi mumkin.

**Ikkinchi (qisqa muddatli) intervalda** ishlab chiqaruvchi qo'shimcha resurslarni jalb qilgan holda mavjud imkoniyatlardan foydalanadi (masalan ishni 3 smenada tashkil qilish). Bu tovarlar taklifini ko'paytirish va yuqori narxlar va mahsulotni sotish hajmlarning oshishi tufayli qo'shimcha foyda olish imkoniyatini beradi. Bir hafta ushbu vaqt oralig'iga misol bo'lishi mumkin

**Uzoq muddatli** istiqbolda ishlab chiqaruvchi kapital hajmini oshirishi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishi, yangi sex yoki korxonalar qurishi mumkin. Ushbu vaqt oralig'iga bir oy, bir yil yoki bir necha yil misol bo'lishi mumkin (kapital qo'yilmalar miqdoriga qarab).

Demak, vaqt omili umumiy xarajatlarning o'sishiga olib keladigan siljishlar, resurslar harakati va investitsiyalar bilan bog'liqdir. Ushbu siljishlar xarajatlari va taklifning doimiy bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Agar bir tarafdin ushbu jarayonlar sodir bo'lmaganda, unda talabning oshishi mahsulotning emas, narxlarning o'sishiga olib keladi, ikkinchi tarafdin ushbu jarayonlar sodir bo'lganda, talabning oshishi taklif hajmini ko'paytiradi, talabni to'ydiradi va narxlarning oshishidan saqlaydi.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiyot faniga nima sababdan elastiklik tushunchasi kiritilgan?
2. Talab va taklif elastikligini hisoblashning amaliy ahamiyati nimada?
3. Talabning elastiklik darajasini tushumga ta'siri qanday?
4. Taklifning elastiklik darajasini aniqlovchi omillarni aytib bering.
5. Taklifning narx bo'yicha elastikligi darajasi tushumga qanday ta'sir etadi?
6. Talabning elastiklik darajasini belgilovchi omillar qaysilar?
7. Talabning daromadlar bo'yicha elastigligiga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?
8. Taklifning narx bo'yicha elastikligiga vaqt omili ta'sirining muhimligi qanday holatlarda namoyon bo'ladi?

## **5. ISTE'MOLCHILAR TANLOVI NAZARIYASI**

### **5.1 Iste'molchining afzal ko'rishi va naflilik**

Bozor iqtisodiyotida iste'molchi mahsulotga bo'lgan talabni shakllantiruvchi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi iste'molchidan qanday mahsulotlarni qancha miqdorda ishlab chiqarish to'g'risida ma'lumotni bozordan, narx signallari orqali oladi. O'z navbatida iste'molchilar mahsulot

sotib olish yoki uni rad etish orqali ishlab chiqaruvchining ishini baholaydilar. Demak, iste'molchi bozorda ne'matni afzal ko'rish asosida o'zlariga maksimal naf keltiradigan qilib tanlaydilar.

**Iste'molchilar tanlovi nazariyasiga ko'ra ne'mat – bu iste'molchiga ma'lum darajada qoniqish beruvchi har qanday iste'mol obyektidir.** Ne'matlar ma'lum to'plamlarda iste'mol qilinadi. O'z navbatida **ne'matlar to'plami deganda ma'lum vaqt oralig'ida iste'mol qilinadigan, ma'lum hajmlardagi aniq ne'matlar to'plami tushuniladi.** Masalan ne'matlarning A to'plami 5 kg olma va 1 kg konfetdan, B to'plami esa 4 kg olma va 2kg konfetdan iborat.

Har bir shaxs o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun qandaydir mahsulotdan qanchadir miqdorda sotib olishi kerak, o'z navbatida mahsulotni xarid qilish uchun ma'lum miqdorda mablag'i bo'lishi kerak. Bunda iste'molchining mablag'i chegaralanganligi sababli u har doim tanlov oldida turadi, ya'ni qaysi mahsulotdan qancha olishi kerak? Iste'molchi qaror qabul qilishda, mavjud imkoniyat doirasida o'z ehtiyojini maksimal darajada qondirishga, turmush farovonligining darajasini oshirishga harakat qiladi. **Ushbu ehtiyojni qondirish darajasi yoki turmush farovonligi darajasi naflilik deyiladi.**

**Iste'molchining tanlovi - iste'molchining ma'lum tovar yoki xizmatlarni sotib olish to'g'risidagi qarori yoki uni iste'mol qilish usuli.** Iste'molchilar tanlovi nazariyasi me'yoriy (marjinal) naflilik nazariyasiga asoslanadi. G'arb iqtisodchilarining fikriga ko'ra iste'molchilarning iste'mol bozoridagi xatti-harakatlari ular uchun u yoki bu mahsulot (xizmat) ning naflliligiga bog'liq.

**Iste'molchilarning xatti harakati - bu turli xil tovar va xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabini shakllantirish jarayoni.** Yalpi talabni alohida xaridorlarning xatti-harakatlari shakllantiradi, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini va bozorlarda ularning taklifini belgilaydi.

Iste'molchilarning afzalliklari, ularning daromadlari (byudjetlari) va tovarlar (xizmatlar) narxlari iste'molchilarning xatti-harakatlarini belgilovchi omillardir.

**Iste'molchilarning afzal ko'rishi - bu iste'molchi tomonidan iste'mol tovarlari va xizmatlarining ma'lum assortimentini ularning naflliligi bo'yicha taqqoslash asosida baholash jarayoni.** Bunda har bir iste'molchi bozorda oqilona xatti-harakat qiladi deb hisoblanadi. Bu har bir iste'molchi

individual afzalliklari shkalasiga (o'lchoviga) ega ekanligini anglatadi. Iste'molchi unga rioya qilish bilan, shuningdek, o'zining cheklangan daromadlarini (byudjetini) hisobga olgan holda, maksimal darajada qoniqish darajasiga (naflilik) erishishga intiladi. Iste'molchilarning afzal ko'rishi-alohida iste'molchilarning aniq ne'matlarni tanlashiga ta'sir etuvchi omillardan biridir.

Iste'molchi xarid qilish maqsadida ne'matlarni tanlashda mavjud imkoniyatlari doirasida eng ko'p naflilikga erishishdan kelib chiqadi. O'z navbatida naflilik inson ehtiyojlarini qondirish mezoni hisoblanadi.

Xaridor sotib oladigan ne'matlarni tanlashda afzal ko'rishdan foydalanadi, biroq ularni iste'molni qondirishda xaridor byudjeti miqdori bilan cheklangan bo'ladi. Bunday sharoitda xaridor nima qiladi, qaysi tanlov unga maksimal naflilikni ta'minlab beradi?

Quyidagi aksiomalar iste'molchi tanlovi nazariyasining zaminlari bo'lib hisoblanadi.

### **1. Iste'molchilarning afzal ko'rishlarining to'liq tartiblanganligi aksiomasi.**

Bu aksioma iste'molchining o'zi nema'tni iste'mol qilish va uni amalga oshirish xususida qaror qabul qilishi kerakligini nazarda tutadi. Bunda xaridor ikki tovar to'plamidan qaysi biri yaxshi yoki bir xilligini ko'rsatishi kerak. Demak, gap aniq iste'molchi uchun turli ne'matlar to'plamlarining taqqoslanishi to'g'risida barmoqda. Iste'molchi bu taqqoslashni amalga oshira oladi. Bu har qanday ne'matlarni A va B juftlik to'plamiga, iste'molchi A tovar V tovarga nisbatan afzalroq ya'ni  $A > V$ , V tovar A tovarga nisbatan afzalroq, ya'ni  $V > A$  yoki A va V tovarlar to'plamlari bir xil naflilikga ega, ya'ni  $A = V$

**2. Iste'molchilar afzal ko'rishlari (xohishlari) tranzitivdir.** Iste'molchi qaror qabul qilish va uni amalga oshirish uchun xohishlarini bir ne'mat va uning to'plamlaridan boshqalariga izchilik bilan o'tkazishlari kerak. Tranzitivlik, agar iste'molchi V ne'matlar to'plamiga nisbatan A ne'matlar to'plamini afzal ko'rsa, S ne'matlar to'plamiga nisbatan V ne'matlar to'plamini afzal ko'rsa, unda iste'molchi S to'plamga nisbatan A to'plamini afzal ko'rishini aglatadi. Boshqacha aytganda agar  $A > V$  va  $V > S$  bo'lsa, unda doim  $A > S$  bo'ladi, agar  $A = V$  va  $V = S$  bo'lsa, unda har doim  $A = S$  bo'ladi. Tranzitivlik to'g'risida bunday faraz afzal ko'rishlarning ratsionalligini kafolatlaydi. Boshqa holatda iste'molchini xatti-harakati ziddiyatlidir. Bunday holatda iste'molchining didi o'zgargan bo'ladi.



**3. Ehtiyojlarning to‘yinganligi to‘g‘risidagi aksioma.** Unga binoan iste‘molchilar har doim ne‘matning kichikroq qismidan ko‘ra ko‘proq qismini afzal ko‘radi. Masalan iste‘molchi bitta mashinaning o‘rniga ikkita mashinani afzal ko‘radi. Ushbu aksiomaga nafliligi manfiy bo‘lgan tovarlar misol qilinishi mumkin, chunki ular iste‘molchining farovonlik darajasini pasaytiradi. Xususan, havoning ifloslanishi, shovqin iste‘molchi uchun naflilik darajasini pasaytiradi.

Ushbu 3 ta aksioma (zaminlar) naflilikning funksiyasini aniqlash uchun zarur. Bu aksiomalar iste‘molchining afzal ko‘rishini tushuntirmaydi, balki aks ettiradi. Har bir iste‘molchiga afzal ko‘rishini o‘ziga xos xususiyatlarini befarqlik egri chiziqlari yordamida ko‘rsatish mumkin.

**Naflilik funksiyasi - iste‘mol jarayonida erishiladigan iste‘mol hajmlari bilan naflilik o‘rtasida nisbat.** Naflilik funksiyasi xaridorning afzal ko‘rishlarini (xohishlarini) ko‘rsatadi. Naflilik funksiyasi ma‘lum miqdordagi tovarlarga boshqa bir miqdordagi tovarlarni taqqoslashni bildiradi.

Naflilik funksiyasi - ehtiyojlarning qondirilishi darajasigacha, iste‘molchi tomonidan tanlangan tovarlar to‘plamini tartiblashda (ketma ket joylashuvi) iste‘molchining tanlovi bo‘yicha harakatlarning maqsadli funksiyasi. Naflilik funksiyasi iste‘mol qilinayotgan tovarlar (X,Y)dan olinayotgan naflilikni hosilasini ifodalaydi.

$$U(X,Y) = XY$$

**Naflilik - bu iste‘molchilar ma‘lum bir mahsulot (xizmat) ni iste‘mol qilishdan oladigan qoniqishdir.** Naflilik subyektning ne‘matni iste‘mol qilish yoki qandaydir harakatlarni bajarishdan oladigan qoniqishining o‘lchovidir.

Naflilik faqat individual tushuncha, chunki bir odamga nafl bo‘lgan narsa boshqasiga nafsiz bo‘lishi mumkin.

Naflilik tovarning iste‘mol xususiyatlariga va iste‘mol jarayonining o‘ziga, ularning kimning ehtiyojini va qanday qondirishiga bog‘liq. Naflilikning o‘zi ma‘lum bir aniq tovarning ko‘payishi yoki kamayishi bilan o‘zgaradi. Birinchi holda, u kamayadi, ikkinchisida esa ko‘payadi.

Naflilik tartib o‘lchov xususiyatiga ega, bunda muqobillar tartiblangan (ketma ket joylangan) bo‘lishi mumkin, ammo miqdoriy o‘lchov xususiyatiga emas.

Umumiy va me‘yoriy naflilik farqlanadi.

**Umumiy naflilik (TU) - ma‘lum bir mahsulot (xizmat) turini iste‘mol qilish bilan bog‘liq qoniqish.**

**Me'yoriy naflilik (MU) - bu ma'lum bir turdagi tovar (xizmat) ning qo'shimcha birligini sotib olish natijasida umumiy naflilikning oshishi yoki muayyan ne'matning navbatdagi birligini iste'mol qilishdan olingan qo'shimcha naflilik.**

Umumiy naflilik bilan me'yoriy naflilik o'rtasida bog'liqlik mavjud. Umumiy naflilik boshidan qo'shilgan barcha me'yoriy nafliliklar yig'indisiga teng.

Iqtisodiyot fanida naflilikni o'lchash muammosining yechimi miqdoriy (kardinalistik) va tartibli( ordinalistik ) naflilikni asoslash orqali topishga harakat qilingan.

## **5.2. Naflilikni o'lchash. Miqdoriy (kardinalistik) va tartibli ( ordinalistik ) naflilik**

Umuman olganda naflilikni o'lchash masalasiga ikki miqdoriy (kardinalistik) va tartibli( ordinalistik ) yondashuv mavjud.

**Naflilikning kardinalistik (miqdoriy) nazariyasi (Cardinal utility theory)** - bu inson ehtiyojlarining iqtisodiy tahlilini o'rganadigan mikroiqtisodiy nazariya. Kardinalistlar ne'mat birligining qiymatini mehnat sarflari tashkil etishi kerak va bu birlik yordamida qondiriladigan ehtiyojning ahamiyati darajasi bilan belgilanadi deb hisoblaganlar.

**Miqdoriy (kardinalistik) naflilik – mutloq kattaliklarda o'lchangan, iste'molchining ne'matlarni iste'mol qilishdan oladigan subyektiv naflilik yoki qoniqish.** Demak, iste'molchi ne'matlarni iste'mol qilishdan oladigan nafni o'lchash mumkinligi nazarda tutilmoqda. Naflilikning kardinalistik (miqdoriy) nazariyasi tarafdorlari naflilikni shartli o'lchov yutillarda o'lchash mumkin deb hisoblaganlar. Masalan shokolad plitkasi 4 yutilga teng, 1 kg go'sht esa 6 yutilga teng naf keltiradi. Kechroq naflilikni o'lchaydigan o'lchovni yaratish mumkin emasligi isbotlandi. Chunki bir xil ne'mat bitta iste'molchi uchun katta qimmatga, boshqasi uchun esa hech qanday qimmatini yo'q bo'lishi mumkin.


Me'yoriy (so'nggi qo'shilgan naflilik) umumiy naflilikning o'sgan qismidan iborat ekan, u naflilik funksiyasining hosilasi hisoblanadi. Gossenning birinchi qonuni- ehtiyojlarni qondirish qonuni. Ushbu qonunga binoan inson ehtiyojining to'yinish darajasi oshib borishi bilan iste'moldan bo'lgan qoniqish pasayib boradi yoki iste'mol qilinadigan tovar miqdori ko'payib borishi bilan uning nafliligi kamayib boradi. Izchil (ketma - ket) iste'mol qilish bilan ne'matning har bir keyingi birligining nafliligi

avvalgisidan past bo‘ladi. Ne‘matlarning cheklangan miqdori sharoitida esa doimo ehtiyojni eng kam darajada qondiruvchi «so‘nggi nusxasi» mavjud bo‘ladi. Masalan, agar inson ikkita muzqaymoqdan keyin uchinchisini yesa, unda muzqaymoqning umumiy nafililigi oshadi, agar u to‘rtinchisini ham iste‘mol qilsa, umumiy naflilik oshib boradi, biroq muzqaymoqni to‘rtinchi ekzemplarining me‘yoriy nafililigi uchinchi muzqaymoqning me‘yoriy nafiligidan past bo‘ladi.


Umumiy va me‘yoriy naflilik o‘rtasida bog‘liqlik mavjud (5.1-jadval, 5.1-rasm, 5.2-rasm ). Umumiy naflilik (TU) har bir mahsulot birligi bilan ortib boradi, lekin cheksiz emas, balki ma‘lum bir chegaraga qadar, chunki to‘yinganlik chegarasiga erishildi. Me‘yoriy naflilik (MU), aksincha, mahsulotning har bir qo‘shimcha birligi bilan kamayadi, chunki u ma‘lum bir mahsulot birligining umumiy nafililigi bilan keyingisi o‘rtasidagi farqning ko‘payishini ko‘rsatadi (esda tuting: me‘yoriy naflilik umumiy naflilikning birinchi hosilasi hisoblanadi).

5.1-jadval

<b>Q</b>	<b>TU</b>	<b>MU</b>
0	0	-
1	10	10
2	13	3
3	15	2
4	16	1
5	16	0



5.1-rasm. Umumiy naflilik



5.2-rasm. Me'yoriy naflilik

Bundan istisnolar bo'lishi mumkin: kolleksioner uchun har bir keyingi rasm avvalgisiga qaraganda qimmatroq bo'ladi, chunki u kolleksionerni to'liq to'plamli kolleksiyaga yaqinlashtiradi.

Demak, birinchidan, miqdoriy nazariya yordamida faqat umumiy naflilikni balki me'yoriy naflilikni va ular o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish mumkin, ikkinchidan esa me'yoriy naflilikni kamayish qonuniga binoan talab qondirilgani sari qo'shimcha xarid etiladigan so'nggi tovarlarning naflligi pasayishga moyil bo'ladi. Bu me'yoriy naflilikning kamayib borish qonunidir, uni **Gossenning birinchi** qonuni deb ham ataydilar.

**Gossenning ikkinchi qonuni – me'yoriy nafliklarni tenglashtirish qonuni.** Ushbu qonunga binoan ayirboshlashning har bir ishtirokchisi o'z mablag'larini turli xil xaridlar o'rtasida taqsimlash orqali maksimal naf olishga intiladi. Xarid qilingan har bir tovar uchun sarflangan pul miqdordan teng darajada qoniqish olishni nazarda tutadi.

Haqiqatan ham, biz do'konda olma va apelsin sotib olayotganimizni tasavvur qilaylik. Agar olmani 1000 so'mga to'g'ri keladigan me'yoriy naflligi apelsinning me'yoriy naflligidan yuqori bo'lsa, sotib olingan tovarlar to'plamini olma foydasiga qayta taqsimlash o'rinli bo'ladi. Agar ikkala mahsulotning me'yoriy naflligi teng bo'lsa, unda mahsulotlar to'plami "muvozanatlashgan" bo'ladi va ne'matlarni qayta taqsimlash zarurati yo'qoladi.

Gossenning ikkinchi qonuni faqat mavhum ahamiyatga ega emas, balkim a'lum darajada amaliy ahamiyatga ega. Masalan, ushbu qonun aholining kambag'al bo'lgan qatlamlariga yordamni maksimal naf olish nuqtayi nazaridan, bepul tovarlar va xizmatlar bilan emas, balki pul bilan berilishi kerakligini tushuntiradi. Bunday usulda kambag'allarga yordam berish

ne'matlarni nisbatan optimalroq bo'lgan to'plamini olish uchun soliq to'lovchilar tomonidan odamlarga berilgan pulni ular tomonidan mustaqil ravishda qayta taqsimlash imkoniyatini bermaydi.

Aytgancha, Gossen postulatlarini odamning ishlashga va dam olishga qancha vaqt ajratish to'g'risida qaror qabul qilishini tahlil qilishda qo'llanilishi mumkin. Mehnat va bo'sh vaqt me'yoriy naflilikning kamayishi qonuniga bo'ysunadigan ne'matlardir. Bu shuni anglatadiki, odamlar ish va dam olishning optimal nisbatlarini aniqlayotganligida, o'z vaqtlarining har bir birligidan oladigan me'yoriy naflilikni tenglashtirishga harakat qiladilar.

**Naflilikning ordinalistik (tartibli) nazariyasi (Ordinal utility theory)** me'yoriy naflilik nazariyasiga muqobil nazariya hisoblanadi.

**Ordinalistik (tartibli) naf** - subyektiv naf yoki iste'molchi o'zi iste'mol qilgan tovarlardan oladigan va tartibli shkalada o'lchanadigan qoniqish.

Ordinalistik nazariyaga ko'ra, me'yoriy nafni o'lchab bo'lmaydi. Iste'molchi alohida tovarlarning nafliligini emas, balki tovarlar to'plamining nafliligini o'lchaydi. Faqat tovarlar to'plamining afzal ko'rish tartibi o'lchanadi.

**Naflilikning ordinalistik (tartibli) nazariyasi** mezoni iste'molchining ne'matga nisbatan o'zlarining afzal ko'rishlarini (xohishlarini) tartibga solishlarini nazarda tutadi. Iste'molchi qoniqish darajasiga qarab tovarlar to'plamini tanlashni tizimlashtiradi. Masalan, tovarlarning 1- to'plami unga eng katta qoniqish baxsh etadi, 2 - to'plam - kamroq qoniqish, 3 - to'plam - undan ham kam qoniqish va h.k. Binobarin, bunday tizimlashtirish iste'molchilarning tovarlar to'plamiga (majmuasiga) nisbatan afzal ko'rishlari to'g'risida tasavvur beradi. Biroq, bu tovarlar to'plamidan qoniqishdagi farqlar haqida tasavvur bermaydi. Boshqacha qilib aytganda, amaliy nuqtayi nazardan, iste'molchi qaysi to'plamni boshqasidan afzal ko'rishini ayta oladi, lekin bir to'plam boshqasidan qanchalik yaxshi ekanligini aniqlay olmaydi. Grafik ko'rinishda iste'molchining afzal ko'rish tizimi befarqlik egri chiziqlari yordamida aks ettiriladi.

### **5.3 Naflilikni maksimallashtirish qoidasi. Befarqlik egri chizig'i.**

#### **Befarqlik kartasi**

Iste'molchi tovarlarning turli to'plamini xarid qilishda doimo naflilikni maksimallashtirish qoidasiga asoslanadi. Bu qoidaning mazmuni quyidagicha: iste'molchining daromadi shunday taqsimlanishi kerakki, har bir tovar yoki xizmatga sarflangan oxirgi pul birligi teng me'yoriy naf keltirsin, narxga

bo'lingan har bir tovar yoki xizmatning me'yoriy nafliligi barcha mahsulotlar uchun bir xil bo'lishi kerak.

Naflilikni maksimallashtirish qoidasini quyidagicha ifoda etish mumkin:

$A \text{ mahsulot MU} / A \text{ mahsulot narxi} = B \text{ mahsulot MU} / B \text{ mahsulot narxi}$


Bu yerda: MU- me'yoriy naflilik

Naflilikni maksimallashtirish qoidasi ushbu nisbatlarning teng bo'lishi va daromad to'liq sarflanishini talab etadi. Masalan, iste'molchi 12 dollarga ega. Bunda oltita A tovarning (1,5 dollar) va uch birlik B tovarning (1 dollar) kombinatsiyasi me'yoriy naflilikni maksimal darajaga ko'tarish talablariga javob beradi. Natijada iste'molchining 12 dollarlik daromadi to'liq sarflanadi. Bu qoida iste'molchining muvozanatlashgan holatini ifodalaydi. Iste'molchi o'zining didi va ruhiyatiga ko'ra turli xil tovarlar to'plamini ma'qul ko'rish mumkin. Bunda u tovarlarning ma'lum bir to'plamini boshqa biriga taqqoslab ko'radi. Iste'molchi tanlovini tushuntirishda befarqlik egri chizig'i muhim rol o'ynaydi.

Iste'molchi tanlovini tushuntirishda befarqlik egri chizig'i muhim rol o'ynaydi. **Befarqlik egri chizig'i - har biri bir xil naf yoki qoniqish keltiradigan ikkita tovarning muqobil to'plamlarini ifodalaydigan egri chiziq** (5.3-rasm). Befarqlik egri chizig'ida joylashgan tovarlar to'plamini tanlashda iste'molchi uchun farq mavjud bo'lmaydi. Befarqlik egri chizig'i pasayib boruvchi ko'rinishda bo'ladi. Befarqlik egri chizig'ining pasayib borishi shu bilan izohlanadiki, tanlanishi lozim bo'lgan har ikkala tovar ham iste'molchi uchun nafliligi hisoblanadi.

Shunga ko'ra, bir tovarlar to'plami (masalan, A) dan boshqa bir tovarlar to'plami (masalan, V ga) tomon harakat qilib, iste'molchi naflilik miqdorini oshiradi. Biroq, ayni paytda xuddi shuncha miqdordagi naflilikka ega bo'lgan A tovardan voz kechadi. Qisqasi, V tovar qanchalik ko'p bo'lsa, A tovar shunchalik oz bo'ladi, chunki A va V tovarlar o'rtasida teskari aloqa mavjud. O'zgaruvchilari o'rtasida teskari aloqa mavjud bo'lgan har qanday egri chiziq esa pasayib boruvchi ko'rinishda bo'ladi.

Befarqlik egri chiziqlari byudjet chiziqlari bilan birgalikda iste'molchining ikkita tovarni sotib olayotganda muvozanatini aniqlashda va talabga qarab ushbu ikki tovarning nisbiy narxlarida o'zgarishlarning oqibatlarini tahlil qilishda ishlatiladi.



### 5.3 - rasm. Befarqlikning egri chizig‘i.

Iste‘molchiga X ne‘matning  $OA$  birlik to‘plami va  $Y$  ne‘matning  $OV$  birlik to‘plami keltiradigan nafni X ne‘matning  $OS$  birlik to‘plami va  $Y$  ne‘matning  $OD$  birlik to‘plami ham beradi. Befarqlik egri chiziqlari har doim salbiy nishabga ega, chunki ratsional harakat qiladigan iste‘molchilar har doim ikkala ne‘matdan ko‘proq iste‘mol qilishni afzal ko‘rishadi. Shuning uchun tovarlarning ikki to‘plami, ikkala tovar ko‘p bo‘lgan to‘plam, ikkinchi to‘plamga nisbatan ko‘proq naf keltirdi, ya‘ni bu ikki to‘plam iste‘molchi nazarida bir xil bo‘lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, iste‘molchilar, bir ne‘mat iste‘molining ma‘lum bir qismidan voz kechishlari mumkin, qachonki ular boshqa ne‘matdan ko‘proq miqdorda naf olsalar.

Shunday qilib, ular biron bir to‘plamga ustunlik bermaydilar: na ko‘p miqdordagi X tovar va oz miqdordagi Y tovarni o‘z ichiga olgan  $E$  to‘plam, na ko‘p miqdordagi Y va kamroq miqdorda X tovarni o‘z ichiga olgan  $E$  to‘plam ham.

Ikki tovar makonidagi befarqlik egri chiziqlarining barchasi befarqlik xaritasini hosil qiladi.

Befarqlik xaritasi iste‘molchilarning afzal ko‘rishlarini aniq ifodalaydi va ularning har xil tovarlarining har qanday ikkita kombinatsiyasiga bo‘lgan munosabatini taxmin qilishga imkon beradi.

Keling, buni bir misol bilan tushuntiraylik. Kimdir 10 ta olma va 20 ta shirinlik sotib olishga qaror qilsin. Iste‘molchi nuqtayi nazaridan olma va shirinliklarning yana qaysi to‘plamlari (kombinatsiyalari) ushbu dastlabki to‘plamning nafliligiga teng bo‘lgan umumiy naflilikga ega ekanligini aniqlashga harakat qilaylik. Boshqacha qilib aytganda, iste‘molchi ushbu to‘plamlardan qaysi birini tanlashiga ahamiyat bermaydi (bundan tashqari, u narxlarga emas, didga nisbatan befarq). Olingan ma‘lumotlarni jadvalda taqdim etamiz (5.2.-jadval).


**Iste'molchi uchun umumiy bir xil naflilikka ega olma va shirinliklar to'plamlari**

<b>To'plam</b>	<b>Olma</b>	<b>Konfetlar</b>
A	30	5
B	18	10
C	13	15
D	10	20
E	8	25
F	7	30

Endi jadvaldagi ma'lumotlarni grafikka ko'chiramiz (5.4. - rasm) Biz vertikal o'qda olma sonini va gorizontaal o'qda shirinliklar sonini shu ikkita mahsulotning har bir to'plami grafik "mahsulot makoni" dagi nuqtaga to'g'ri keladigan qilib chizamiz. Keyin esa A-F to'plamlariga mos keladigan nuqtalarni grafikda belgilaymiz. Egri chiziqda joylashgan barcha nuqtalar iste'molchi uchun umumiy nafliligi teng bo'lgan tovarlarning kombinatsiyalarini tavsiflaydi (ya'ni iste'molchi ushbu kombinatsiyalarning qaysi birini tanlashiga ahamiyat bermaydi) deb taxmin qilinadi. Shuning uchun ii chiziq befarqlik egri chizig'i deb ataladi.

Befarqlik egri chizig'i ustida joylashgan har qanday nuqta iste'molchi uchun befarqlik egri chizig'idagi nuqtalardan ko'ra afzalroq bo'ladi. Boshqa tomondan, befarqlik egri chizig'i ostidagi har qanday nuqta (masalan, rasmdagi N nuqtasi) iste'molchiga befarqlik egri chizig'idagi nuqtalarga qaraganda kamroq qoniqish baxsh etadi.






**5.4 - rasm. Befarqlikning egri chizig'i**

Befarqlik egri chizig'ining umumiy xususiyatlari mavjud, avvalo tovarlar grafigining istalgan nuqtasi orqali tegishli befarqlik egri chizig'i chizilishi mumkin, ya'ni tovarlarning har qanday kombinatsiyasi (olma va shirinliklar) iste'molchi uchun bir xil umumiy naflilikga ega bo'lgan boshqa kombinatsiyalarni topish mumkin.

Befarqlik egri chiziqlari bir-biri bilan kesishmaydi. Befarqlik egri chiziqlari qanchalik o'ngda va tepada joylashgan bo'lsa, unga to'g'ri keladigan naflilik shuncha yuqori bo'ladi. Ushbuga asoslanib, iste'molchilarning befarqligi xaritasini tuzish mumkin (5.5-rasm). Agar iste'molchining A va V tovarlarning barcha to'plamlari bo'yicha afzal ko'rishlarini egri chiziqlar orqali tasvirlansa, **befarqlik kartasi** hosil bo'ladi.



**5.5- rasm Befarqlik xaritasi**

Har bir befarqlik egri chizig‘i iste‘molchi har biriga bir xilda qaraydigan tovarlar to‘plamini ifodalaydi. Befarqlik kartasining bir qismini aks ettiruvchi to‘rtta befarqlik egri chizigi tasvirlangan. i4 befarqlik egri chizigi ehtiyojlarni qondirilishining eng yuqori darajasini aks ettiradi. Ehtiyojlarning har bir darajasiga ko‘ra cheksiz befarqlik egrichizig‘i mavjud bo‘lishi mumkin. Biz sodda ko‘rinishda faqat 4 ta egri chiziqni ifodaladik. Bu 4ta egri chiziq tovarlar to‘plamining ranjirovkasini (tartibini) ta‘minlaydi. Tartiblash to‘plamlarini afzallikning eng yuqori darajasidan eng kam tomonga yo‘naltirilgan tartibda qo‘yib chiqilgan. Biroq, bu tartib bir to‘plamning boshqa biridan nechog‘lik afzalligini ko‘rsatib bera olmaydi.

Befarqlik egri chiziqlari salbiy nishabga ega, chunki tovar to‘plamining umumiy nafliligini saqlab qolish uchun bitta tovar miqdorining kamayishi boshqa tovar miqdorining ko‘payishi bilan almashtirilishi (o‘rnini bosish) kerak. Biz foydalanadigan befarqlik egri chiziqlari (5.5-rasm) aniq belgilangan shaklga ega - ularning barchasi koordinataga nisbatan qavariqdir (gorizontal o‘qi bo‘ylab o‘ngga siljish paytida befarqlik egri chiziqlarining qiyaligi pasayadi).

Ordinalistik nazariyada befarqlik egri chizig‘ining qiyaligi iste‘molchining har bir ne‘matning nafliligi xususidagi bahosini aks ettiradi va almashtirish (o‘rnini bosish)ning marjinal (me‘yoriy, qo‘shimcha) normasi MRS (angl. – marginal rate of substitution) deyiladi.

MRS umumiy naflilik darajasini o‘zgartirmagan holda iste‘molchi bir ne‘matni (Y) qancha birligidan ikkinchi ne‘matning (X) qo‘shimcha birligini sotib olish uchun voz kechishi mumkinligini ko‘rsatadi. Demak, kiyimni oziq - ovqat bilan almashtirishning me‘yoriy normasi  $MRS_{xu}=f(Q_x, Q_u)$ , iste‘mol savatining umumiy nafliligini o‘zgartirmagan holda, biror bir ne‘matning (kiyim) qanday miqdoridan, boshqa tovarni ( oziq ovqat ) qo‘shimcha birligi bilan almashtirilishini ko‘rsatadi. MRS har doim manfiy bo‘ladi, chunki bir ne‘matning qo‘shimcha birligini sotib olish ikkinchi ne‘matning birliklaridan voz kechishini talab etadi.

Keling, bu holatni misolda ko‘rib chiqamiz (5.3-jadval). A to‘plamidan B to‘plamga, B to‘plamdan S to‘plamga va h.k. o‘tganda xaridor har safar beshta qo‘shimcha konfet olayotganini ko‘rish oson, ammo bu holda u yo‘qotadigan olma soni doimo kamayadi 12 (A dan B ga o‘tishda) birigacha (E dan F ga o‘tishda). Bunday holda, insonning MRS darajasining pasayib borishini ko‘rish mumkin. Bitta mahsulot ikkinchisiga almashtirishning me‘yoriy

normasi - bu iste'molchi bitta qo'shimcha konfet olish uchun yo'qotishga tayyor bo'lgan olmalar soni (tovarlar kombinatsiyalarining umumiy nafilligi bir xilligi sharoitida).


Almashtirishning me'yoriy normasi (MRS) =  $-\Delta Y / -\Delta X$ .

### 5.3-jadval

#### MRSni pasayishi.

O'tish	Olma sonining o'zgarishi $-\Delta Y$	Shirinliklar sonining o'zgarishi ( $\Delta X$ )	Almashtirishni me'yoriy normasi
A to'plamdan B to'plamga	-12	+5	12/5=2,4
B to'plamdan C to'plamga	-5	+5	5/5=1
C to'plamdan D to'plamga	-3	+5	3/5=0,6
D to'plamdan E to'plamga	-1	+5	2/5=0,4
E to'plamdan F to'plamga	-1	+5	1/5=0,2

5.3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, befarqlik egri chizig'idagi MRS 2,4 dan 0,2 gacha kamayadi. Ushbu pasayishni mantiqiy tushuntirish oson. A nuqtasida iste'molchi nisbatan ko'p olma va nisbatan kam shirinliklarga ega. Befarqlik egri chizig'i bo'ylab A nuqtadan o'ngga qarab harakatlanayotganda olma soni




#### 5.6-rasm. Almashtirishning me'yoriy normasining kamayishi.

kamayadi, shirinliklar soni esa ko'payadi. Shubhasiz, iste'molchida qanchalik ko'p konfet bo'lsa, u shunchalik defitsitligi oshib borayotgan olma miqdoridan kamroq miqdorda qo'shimcha konfet olishdan uchun voz kechishga tayyor bo'ladi.

5.6-rasmda me'yoriy almashtirish normasi grafik jihatdan befarqlik egri chizig'ining og'ishi bilan tavsiflanganligini ko'rish mumkin. Befarqlik egri chiziqlari iste'molchilarning afzal ko'rishlarini aks ettirganligi uchun, iste'molchi tanlovining tahlilida iste'molchi byudjetining cheklanganligiga ya'ni byudjet cheklovlarga e'tibor qaratish kerak.

#### 5.4 Iste'molchi byudjeti. Iste'molchini optimal tanlovi.

Iste'molchi hatti-harakatini tushunishda iste'molchi byudjetining cheklanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Byudjet cheklanganligi iste'molchining muayyan pul daromadlariga egaligi sharoitida narxlarning muayyan darajasida u yoki bu turdagi tovarlarning ma'lum cheklangan miqdorini sotib olish imkoniyati orqali ifodalanadi.




#### 5.7- rasm. Daromad o'zgarishining byudjet chizig'iga ta'siri

Iste'molchi byudjetining cheklanganligini grafikda ikki turdagi tovarni sotib olishning turli kombinatsiyalarini ko'rsatuvchi **byudjet chizig'i** shaklida ham aks ettirish mumkin. Iste'molchi byudjeti chizig'ining holatiga uning daromadlari va tovarlar narxining o'zgarishi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, iste'molchi daromadining muayyan miqdorida 20 birlik A tovar yoki 10 birlik V tovarsotib olish mumkin bo'lsin. Birdaniga sotib olinishi mumkin bo'lgan har ikkala tovarning turli kombinatsiyalari G byudjet chizig'ida joylashadi. Agar iste'molchining daromadi 2 baravar oshsa, u holda uning byudjet chizig'i ham tegishli ravishda G<sub>1</sub> holatiga siljiydi. Aksincha, daromadning kamayishi byudjet chizig'ining ham qisqarishiga va G<sub>2</sub> holatiga siljishiga olib keladi (5.7-rasm).


Daromaddan tashqari narxning o'zgarishi ham byudjet chizig'iga ta'sir etadi (5.8.-rasm) V tovar narxining pasayishi byudjet chizig'i burchagining o'zgargan holda yangi chiziq hosil bo'lishiga olib keladi (M chiziq). V tovar narxining oshishi byudjet chizig'i burchagining o'zgargan holda yangi chiziq, hosil bo'lishiga olib keladi (N chiziq). A va V tovarlar narxi ilgari

nisbat saqlangan holda oshsa, u holda eski chiziqqa parallel bo'lgan yangi chiziq hosil bo'ladi (L chiziq).



### 5.8.- rasm. Narx o'zgarishining byudjet chizig'iga ta'siri

Optimal tanlov ham quyidagi shartlarni keltirib chiqaradi: birinchidan, tanlov nuqtasining byudjet chizig'ida yotishi. Iste'molchi amalda barcha daromadini iste'molga sarflamay, ma'lum qismini kelgusidagi iste'molga qoldirsada, nazariy jihatdan biz uning barchasi sarflanadi, deb faraz qilamiz. Agar nuqta byudjet chizig'idan chapda yotsa — uning to'liq sarflanmaganligini, o'ngda yotsa — imkoniyat darajasidan chetda ekanligini ko'rishimiz mumkin; ikkinchidan, tanlangan iste'mol tovarlari to'plami eng ma'qul ko'rilgan kombinatsiyada bo'lishi lozim. Bunda 3 ta befarqlik egri chizig'i ifodalangan bo'lib, ular iste'molchiga turli darajada qoniqish beradi:  $I_3$  — eng yuqori darajadagi qoniqish;  $I_2$  - o'rtacha qoniqish;  $I_1$  — eng kam qoniqish. Har bir egri chiziqda iste'molchi tanlovini ifodalovchi bittadan nuqta joylashgan:  $I_1$  da - S;  $I_2$  da - D;  $I_3$  da - F nuqtalar. Iste'molchining S nuqtani tanlashi oqilona emas, chunki D nuqta unga nisbatan ko'proq ehtiyojni qondiradi; F nuqta eng ko'p ehtiyojni qondirishi mumkin, biroq u byudjet imkoniyatidan tashqarida hisoblanadi.



### 5.9.- rasm. Iste'molchining optimal tanlovi

D nuqtada iste'molchi ehtiyojlarining qondirilishi maksimumlashadi. Chunki, bu nuqta ehtiyojlarning maksimal qondirilishini ta'minlovchi tovar va xizmatlar tuplami eng katta qoniqish beruvchi befarqlik egri chizig'ining byudjet chizish bilan kesishgan joyida yotadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iste'molchining tanlovini bozor sharoitida qaysi omillar belgilaydi?
2. Iste'molchining afzal ko'rishi va naflilik tushunchilarning mazmunini ochib bering.
3. Gossenning birinchi qonunini tushuntirib bering.
4. Gossenning ikkinchi qonunining mohiyatini ochib bering, tushuntirib bering
5. Naflilikni maksimumlashtirish qoidasini tushuntirib bering.
6. Befarqlik egri chizig'i nimani ifodalaydi?
7. Almashtirish me'yoriy normasini pasayishining sabablari?
8. Iste'molchining optimal tanloviga qanday omillar ta'sir etadi?

## **6. ISHLAB CHIQRISH VA XARAJATLAR**

### **6.1 Ishlab chiqarish omillari: tavsifi, o'zaro bog'liqligi**

Kishilarning ehtiyojlarni qondirish uchun ularga zarur bo'lgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoni ishlab chiqarish omillarining tegishli texnologiyalar yordamida birikishi orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun insonlar iqtisodiy faoliyatining bosh jihati turli omillarning o'zaro bog'liq holatda harakat qilishini nazarda tutishidir.

**Ishlab chiqarish - bu insonlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatdir. Ishlab chiqarish jarayonida qo'llanayotgan barcha resurslar ishlab chiqarish omillaridir.** Iqtisodiyot nazariyasida «ishlab chiqarish resurslari" tushunchasi bilan bir qatorda "ishlab chiqarish omillari" tushunchasi ham mavjud. Ularning farqi nimada? Biz ta'kidladikki, resurslar ishlab chiqarishga jalb etilishi mumkin bo'lgan moddiy, tabiiy va ijtimoiy resurslar. Ishlab chiqarish omillari esa ishlab chiqarish jarayoniga real jalb qilingan va qo'llanayotgan resurslarni anglatadi. Shuning uchun" ishlab chiqarish resurslari "ishlab chiqarish omillari"ga nisbatan kengroq tushunchadir. Boshqacha aytganda, ishlab chiqarish omillari ishlab chiqaruvchi

resurslardir. Ishlab chiqarishda qatnashmay bekor yotgan resurslar ishlab chiqarish omili bo'la olmaydi. Masalan, ishlatilmay zanglab yotgan stanok, mehnat qilish qobiliyatiga ega, biroq ishlamayotgan inson, bular resurs hisoblansa-da, biroq ishlab chiqarish omili emas. Demak ishlab chiqarish jarayoniga real jalb qilingan va qo'llanayotgan resurslar ishlab chiqarish omillaridir.

Ishlab chiqarish omillarining turkumlanishiga turlicha yondashuvlar mavjud. Klassik maktab namoyondalari mehnat, yer, kapitalni ishlab chiqarish omillari deb hisoblaganlar.

Marjinalistik nazariyaga binoan yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik qobiliyati ishlab chiqarish omillaridir. Postindustrial jamiyat iqtisodiyot nazariyasida resurslar sirasiga qo'shimcha **axborot va ekologik omillar** kiritilgan. Biroq, mehnat, yer, kapital tizim tashkil etuvchi omillar bo'lib hisoblanadi.

Resurslardan farqli o'laroq, ishlab chiqarish omillari alohida o'zlari mahsulot ishlab chiqara ololmaydilar. **Ishlab chiqarish jarayoni ana shu barcha omillarning o'zaro harakati natijasida ro'y byerishi mumkin. Har bir tadbirkor ana shu ishlab chiqarish omillari o'rtasida oqilona nisbatni topishi zarurdir.** Masalan, paxta yetishtirish bo'yicha maksimal hosil olish uchun, ekiladigan maydonlar, ishlab chiqarish vositalari va mehnat harajatlari o'rtasida, ularni kamaytirish yoki ko'paytirish yordamida oqilona nisbatni ta'minlash lozim bo'ladi.

Ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi bog'liqlikni matematik quyidagi formula bilan ifodalash mumkin,

$$Y = f(a_1, a_2, \dots, a_n)$$

Bu yerda: Y - ishlab chiqarilgan mahsulot soni;

f- funksiya;

$a_1, a_2, \dots, a_n$  - ishlab chiqarish omillari.

Ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori foydalanilgan omillar va ular o'rtasidagi kombinatsiyalarga bog'liqdir. Agarda ishlab chiqarish omillari o'rtasida turli kombinatsiyalarni amalga oshirish mumkin bo'lsa, demak, ularning ichida maksimal darajada mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan oqilona kombinatsiya mavjud deyishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish jarayoni jismoniy (yakka tadbirkorlik) va yuridik shaxslar (korxonalar) tomonidan tashkil etilib, yuritiladi. Masalan, kasanachi yoki hunarmand individual mehnat, korxonalarda esa, mehnat jamoasi, kollektiv mehnati natijasida tovar va xizmatlar yaratadi. Korxonalar va xo'jaliklar ishlab

chiqarish sektorlarini, sektorlar esa milliy iqtisodiyotni mamlakat miqyosida ishlab chiqarishni tashkil etadi.

Milliy ishlab chiqarish strukturasi quyidagicha tasvirlash mumkin:

1. Industrial sektor ( sanoat, qurilish va kommunikatsiya, transport va aloqa);
2. Agrar sektor (qishloq xo'jaligi, o'rmon ho'jaligi);
3. Xizmat ko'rsatish sektori (aholiga, korxonalar, muassasalarga xizmat ko'rsatuvchi sohalar).

Ushbu sektorlar birinchidan, bir birlari bilan bog'liq, ikkinchidan esa, ishlab chiqarishda turlicha rol o'ynaydi. Iqtisodiyot rivojlangan sari birinchi va uchinchi sektorlar ahamiyati oshib boradi.

Mahsulot sotilgandan so'ng tovarga aylanadi. Mahsulot pirovard natijada ishlatilishiga ko'ra **iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish** (iste'mol buyumlari, maishiy texnika, turli ijtimoiy ne'matlar) va **moddiy resurslarni ishlab chiqarishga** (mehnat qurollari, xomashyo va h.k.) bo'linadi. Ushbu moddiy resurslardan foydalanish ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi Yaratilgan milliy mahsulot ishlab chiqarishning natijasi hisoblanadi.

## 6.2. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari

**Ishlab chiqarishning pirovard natijasi bo'lib ishlab chiqarish sohasidagi o'z harakatini tugatgan, jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirishga tayyor mahsulot hisoblanadi, ya'ni** bu mikroiqtisodiy darajada korxonalar yaratgan mahsulot, makroiqtisodiy darajada yalpi milliy mahsulot.

**Yalpi milliy mahsulot - bu ma'lum vaqt davomida, masalan, bir yilda yaratilgan va bevosita iste'molchilarga borib yetadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor narxida hisoblangan qiymati.** Milliy mahsulot moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari yillik faoliyatining umumiy natijasi hisoblanadi. Yaratilgan mahsulot qiymat jihatdan ham uch qismdan iborat bo'ladi, ya'ni:

- 1) ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan **ishlab chiqarish vositalar qiymatining mahsulotga o'tgan qismi (s);**
- 2) yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning bir qismi, ya'ni ishchilarga tegishli qismi – **zaruriy mahsulot qiymati (v);**



3) yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning mulkdorlar, tadbirkorlar va jamiyat uchun ishlab chiqarilgan **qo‘shimcha mahsulot qiymati** (m)dan iboratdir.

**Yaratilgan mahsulotdan iste‘mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati chegirib tashlansa, qolgan qismi sof mahsulot deyiladi.**

**Tayyor (pirovard) mahsulotlar** bular iste‘molchilar tomonidan yakuniy foydalanish (iste‘mol) uchun sotib olinadigan, shaxsiy yoki jamoat iste‘moliga kiradigan va qayta sotish uchun sotib olinmaydigan tovarlar va xizmatlar. Shuningdek, qayta ishlashga yoki qayta sotishga mo‘ljallangan **mahsulot oraliq mahsulot** deyiladi. Keyingi qayta ishlash jarayonida ko‘plab ishlab chiqarilgan mahsulotlar boshqa mahsulotlar narxiga ham kiritiladi. Masalan, mamlakatda 4 milliard so‘m miqdorida metall ishlab chiqariladi. Keyin ushbu metallardan umumiy qiymati 10 milliard so‘m bo‘lgan avtomobillar ishlab chiqarildi. Barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qiymati (metall + mashinalar) 14 milliard so‘mni tashkil qiladi. Biroq, metallning narxi ushbu yalpi mahsulot qiymatida ikki marta hisobga olinadi. Haqiqiy yalpi mahsulot qayta hisoblash summasiga, ya‘ni 4 milliard so‘mga kamroq bo‘ladi, bu avtomobillar ishlab chiqarishda ishlatiladigan metall narxini tashkil etadi. Yalpi mahsulotning haqiqiy qiymati 14 milliard emas balki 10 milliard so‘mga teng ( $4 + 6 = 10$ ).

Xuddi shu tarzda, qayta hisoblash muammosi millionlab turdagi tovarlar va xizmatlar turlaridan iborat bo‘lgan YaIMni hisoblashda hal qilinadi. Umuman olganda, qayta hisob-kitob qilinmaslik uchun ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan foydalanilgan mehnat ashyolarining qiymati, ya‘ni oraliq mahsulot (bizning misolimizda 4 milliard so‘m metall) qiymati ayirib tashlanadi. Natijada, yakuniy mahsulotning narxi qoladi. Bu yalpi ichki mahsulotning qiymatiga teng. Yalpi ichki mahsulot(YaIM) qiymatidan iste‘mol qilingan amortizatsiya summasini ayirib tashlasak, sof milliy (SMM) mahsulot qiymati qoladi. YaIM, SMM ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan turli xil resurslar sarfini birdaniga yoki ularning ayrim turlarini ko‘paytirish yo‘li bilan mahsulot hajmini oshirish mumkin. Biroq, boshqa omillar va sharoitlar teng bo‘lgani holda ayrim omillar sarfini oshirish yo‘li bilan mahsulotni cheksiz ko‘paytirib bo‘lmaydi. Masalan, firmada ishlab chiqarish binolari, mashina, stanok va boshqa asbob -uskunalar soni va sifati o‘zgarmagan holda ishchilar sonini

va xomashyo miqdorini ko'paytirish yo'li bilan mahsulotni ma'lum hajmda oshirib borish mumkin. Bunda bino va asbob - uskunalar to'xtovsiz ishlatiladi, ilgari bir smenada ishlayotgan bo'lsa, endi ikki yoki uch smenada ishlatishga yerishiladi. Ammo ma'lum darajaga borgandan keyin qo'shimcha jalb qilingan ishchi kuchi yoki xomashyolar samarasi kamayadi. Undan tashqari ishlab turgan ishchilar soni o'zgarmagan holda ularni yangi texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish, ya'ni har bir ishchiga to'g'ri keladigan kapital miqdorini oshirish hisobiga ham mahsulotni ko'paytirishga yerishish mumkin. Lekin, bu jarayon ham cheksiz emas. **Bunda omillardan foydalanish va ularning miqdorini oshirish evaziga olingan mahsulotni uch xil o'lchamda aniqlash mumkin: umumiy mahsulot, o'rtacha mahsulot va qo'shilgan mahsulot.**

**Umumiy mahsulot (TP, ingl. — total product)** - korxonaning umumiy ishlab chiqarish hajmiga teng. TP ko'rsatkichi iqtisodiyotda firmaning harajatlari va daromadlarini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Umumiy mahsulotdan korxonaning yana ikkita muhim tavsifi kelib chiqadi - **o'rtacha mahsulot** va marjinal (qo'shilgan) mahsulot

**O'rtacha mahsulot (AP, ingl. average product)** esa jalb qilingan har bir ishchi kuchi yoki kapitalning birligiga to'g'ri keladigan mahsulotga aytiladi. Bu esa umumiy mahsulot miqdorini TP umumiy omil, ishchi kuchi (L) yoki kapital miqdoriga (K) bo'lish orqali aniqlanadi.

$$AP = TP / L \text{ yoki } AP = TP / K.$$

O'rtacha mahsulot ishlab chiqarish omillarining unumdorligini tavsiflaydi.

**Marjinal (qo'shilgan) mahsulot (MP) (MP- marginal product)** deb eng so'nggi qo'shilgan omil kapital yoki ishchi kuchi evaziga olingan mahsulotga aytiladi.

Masalan, o'tgan yili 200 nafar ishchi kuchi yordamida 200 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu yil esa 220 ishchi kuchi ishlab, 230 ming so'mlik mahsulot olinsa, 20 nafar qo'shilgan ishchi, 30 ming so'mlik qo'shilgan mahsulot ishlab chiqarilgan bo'ladi.

Qo'shilgan mahsulot miqdorini (MP) so'nggi qo'shilgan (o'sgan) ishchi kuchi ( $\Delta L$ ) yoki kapital miqdoriga ( $\Delta K$ ) bo'lish yo'li bilan qo'shilgan omil, ya'ni qo'shilgan kapital yoki qo'shilgan ishchi kuchi unumdorligi aniqlanadi. Ya'ni,  $MP = \Delta Q / \Delta L$  yoki  $MP = \Delta Q / \Delta K$

Har bir qo'shilgan omil evaziga olingan qo'shilgan mahsulot esa **me'yoriy (qo'shilgan, marjinal) omil unumdorligi** deb aytiladi.

G'arb adabiyotlarida qo'shilgan mahsulotni aniqlash uchun barcha omillar emas, balki alohida omil olinadi. Masalan, boshqa sharoitlar teng bo'lganda xomashyo yoki ishchi kuchining o'sganligi nazarga olinib, uning evaziga olingan, ya'ni qo'shilgan mahsulot aniqlanadi.

Alohida olingan omil evaziga qo'shilgan mahsulot ma'lum darajaga borgandan keyin kamaya boshlaydi. Bu kamayish ayniqsa uning har birligi evaziga qo'shilgan mahsulotda aniq seziladi. Mana shu qo'shilgan omil unumdorligining pasayishiga qarab, marjinalistlarning vakillari **me'yoriy unumdorlikning kamayib borish qonuni** degan qonunni kashf etganlar.

**Ularning g'oyasi bo'yicha qisqa davrda ma'lum bir vaqtdan boshlab har bir keyingi omil oldingisiga qaraganda kam samara beradi va oqibatda umumiy o'rtacha mahsulot ham pasayib boradi.**

Shunday qilib, bir ishlab chiqarish omilining boshqa omillar o'zgarmagan holda ortib borishi natijasida shunday holat yuzaga keladiki, bunda aytilgan omildan qo'shimcha tarzda foydalanish mahsulot ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Aytaylik, bizda bitta ishlab chiqarish korxonasida barcha operatsiyalarni bajaradigan bitta ishchi bor edi. Uning mehnat unumdorligi past edi. Unga yordamchi yollangandan so'ng, mehnat unumdorligi oshdi, chunki mehnatning ixtisoslashuvi vujudga keladi. Uchinchi ishchini yollash, ehtimol, mehnat unumdorligining yanada oshishiga olib keladi. Agar biz ishchilarni yollashni davom ettirsak, ularga ixtisoslashuv imkoniyatlari yetmaydi, mehnat unumdorligi o'sishi to'xtaydi.

### **6.3 Ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirish omillari**

Jamiyat cheklangan resurslardan samarali foydalanishga intilib, maksimal miqdordagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga harakat qiladi. Buning uchun esa u to'liq ishlab chiqarish hajmi va to'liq bandlikni ta'minlamog'i zarurdir.

**To'liq bandlik deganda ishlab chiqarish uchun yaroqli bo'lgan barcha resurslardan foydalanishni tushunamiz.** Iqtisodiyot, ishlashni xohlovchi va bunga qodirlarni ish bilan ta'minlashi, ekiladigan barcha yerlar va ishlab chiqarish vositalarini ishlatishi zarur.

**Ishlab chiqarishning to'liq hajmi deganda resurslarni samarali taqsimlash tushuniladi,** ya'ni qo'llanilayotgan resurslardan shunday foydalanish kerakki, bunda mahsulotning hajmi ortib borsin.

Resurslarning cheklanganligi jamiyat oldiga iqtisodiy nuqtayi nazaridan eng maqbul miqdorda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish muammosining echimini topishni talab etadi. Jamiyat qaysi mahsulotlarni qanday miqdorda ishlab chiqarishi, demak qaysi tarmoqlar qanday sur'atlarda rivojlanishi zarurligini aniqlab olishi kerak.

Iqtisodiyotda texnologik tanlashni yoritish uchun iqtisodiy tizimning eng sodda modelidan, ya'ni **ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'idan** foydalaniladi. Ushbu modelda ikki cheklanish mavjud:

1. Iqtisodiyotda faqat ikkita ne'mat ishlab chiqariladi.
2. Mavjud resurslar doimiy texnologiyalar yordamida to'liq foydalaniladi.

Resurslarning cheklanganligi ishlab chiqarish imkoniyatlarini ham cheklaydi. **Ishlab chiqarish imkoniyati deb mavjud iqtisodiy resurslardan to'laroq foydalanish evaziga eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish.** U ishlab chiqarish imkoniyati chegarasini ifodalaydi.

Faraz qilaylik, mamlakat iqtisodiyoti X va Y mahsulot ishlab chiqaradi. Birinchi variant bo'yicha resurslardan 4 ming dona X tovarni ishlab chiqarish, ikkinchi variant bo'yicha esa 14 ming kg Y tovarni ishlab chiqarish mumkin.


6.1-jadval

Mahsulot turi	Ishlab chiqarish imkoniyatlari				
	A	B	D	E	F
X tovar, mln. dona	0	1	2	3	4
U tovar, ming.kg	14	12	9	5	0

Jadvalga asoslanib ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ini chizamiz. Egri chiziq resurslarni to'liq qo'llash chegarasini ko'rsatadi.

Keltirilgan misol shundan dalolat berayaptiki, to'liq bandlik iqtisodiyoti har doim altyernativdir, u har doim resurslarni qayta taqsimlash yo'li bilan ishlab chiqarish turlari o'rtasida tanlash lozim ekanligini ko'rsatadi.

To'la bandlik iqtisodiyoti sharoitida Y va X mahsulotlarni yaratish mumkin bo'lgan kombinatsiyalar nuqtalari (A,B,V,G,D) ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ida yotadi. Egri chiziqda yotuvchi nuqtalar altyernativ mahsulotlar ishlab chiqarishning mumkin bo'lgan nisbatlarini aks ettiradi.



**6.1-rasm. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i**

Jamiyat zarur resurslarning yo‘qligi sababli bir vaqtning o‘zida Y va X mahsulotlarni ishlab chiqarishni oshirib egri chiziq tashqarisidagi N nuqtaga o‘ta ololmaydi. Ishlab chiqarish quvvatlari to‘liq yuklanmaganligi yoki ishsizlik sharoitida Y va X mahsulotlarni ishlab chiqarishning har xil kombinatsiyalari egri chiziqda emas balki uning ichida, masalan S nuqtada bo‘ladi. Bu nuqta qo‘shimcha resurslardan foydalanish orqali mamlakatdagi ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i bir vaqtning o‘zida mumkin bo‘lgan va istalgan mahsulotni ishlab chiqarish miqdorini ham ko‘rsatadi. Grafikdan shuni ko‘rish mumkinki, ming dona X tovarni ishlab chiqarish uchun ikki ming kg Y mahsulotni ishlab chiqarishdan voz kechish lozim. (ularni ishlab chiqarishni 14 ming kg dan 12 ming kg gacha kamaytirish lozim) Endi X tovarni bir ming donadan 2 ming donagacha oshirish uchun Y tovarni ishlab chiqarishni 5 ming kg ga kamaytirish lozim (14 dan 9 gacha), keyingi holda X tovarni uch ming donaga ko‘paytirish uchun Y tovarni ishlab chiqarishni 9 ming kgga kamaytirish lozim.

**Iqtisodchilar bir mahsulot hajmini ishlab chiqarish uchun voz kechilgan ikkinchi mahsulot hajmini altyernativ xarajatlar ishlab chiqarish deb ataydilar.** Bizning misolimizda X tovar uchun Y tovar qisqartirilgan hajmlari (2,5,9, ming dona) **altyernativ xarajatlardir.** Xuddi shu holat X tovarni kamaytirish hisobiga Y tovarni ishlab chiqarishni ko‘paytirishda ham kuzatiladi. Misolimizda altyernativ xarajatlarning oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda X tovarni ishlab chiqarish

uchun Y tovarni ishlab chiqarishni kamaytirish yoki Y tovarni ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun X tovarni ishlab chiqarishni qisqartirish shart ekanligini ko'rish mumkin.

Demak X va Y mahsulotlarni ishlab chiqarishning muqobil harajatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu tovarlardan birining ishlab chiqarish hajmini xar gal oshirish ikkinchi tovarni ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga majbur qiladi. Bu holat **iqtisodiyotda muqobil xarajatlarni oshib borish qonuni** amal qiladi degan xulosaga kelishga imkon beradi: bitta mahsulot guruhining ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan boshqa mahsulot guruhida ifodalangan mahsulot birligiga xarajatlarning o'sishi muqarrardir.

Ushbu qonunning amal qilishining asosiy sababi - bu resurslarning (ishchilarning turli xil mutaxassisliklari, turli xil texnologiyalar va ishlab chiqarish vositalari va boshqalar) bir-birining o'rnini to'liq bosa olish xususiyatiga ega emasligidadir, shuning uchun ishlab chiqarishni bir mahsulotdan boshqasiga o'tkazish mavjud resurslarni iste'mol qilishni ko'paytirishni talab qiladi va ishlab chiqarishning umumiy rentabelligini pasaytiradi. Bu ishlab chiqarish egri chizig'ining do'ngligida namoyon bo'ladi. Agar resurslar bir-birining o'rnini bosa olganda ya'ni resurslar bir birini almashtirsa, muqobil xarajatlar doimiy bo'lib qolavyerar edi, ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i to'g'ri shaklda bo'lar edi.

Keltirilgan misol shundan dalolat byerayaptiki, to'liq bandlik iqtisodiyoti har doim altyernativdir, u har doim resurslarni qayta taqsimlash yo'li bilan ishlab chiqarish turlari o'rtasida tanlash lozim ekanligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish hajmi iborasi uning ko'lami bo'lib, yaratilgan mahsulot va xizmatlar hajmini bildiradi. Iqtisodiyotda ko'lam samaradorligi mahsulot ishlab chiqarish qulay bo'lishini bildiradi. Bir yerda yirik ishlab chiqarish samarali bo'lsa, bir yerda kichik ishlab chiqarish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aholi ko'p joyda supyermarket samarali bo'lsa, aholi kam bo'lgan joyda kichik do'kon samarali bo'ladi. **Ko'lam samarasi bu muayyan ko'lam sharoitida eng yaxshi natijaga yerishish hisoblanadi. Ko'lam – bu ishlab chiqarish hajmi bo'lib, ishlab chiqarish omillaridan naqadar unumli foydalanilganlikni ko'rsatadi.**<sup>10</sup>

---

<sup>10</sup> Ulmasov A., Vaxobov A.B. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya" 2014. — 51-bet.

2017- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va libyerashtirishning ustuvor yo‘nalishlari» deb nomlangan uchinchi yo‘nalishida tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modyernizatsiya va divyersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishida yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modyernizatsiya va divyersifikatsiya qilish vazifasi qo‘yilgan. Bu vazifani bajarish eng avvalo mablag‘ talab etadi. Buning uchun esa ishlab chiqarishni modyernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishni talab etadi. Bu esa mamlakatimizda ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Natijada aholining turli tovar va xizmatlardagi ehtiyoji to‘laroq qondiriladi, daromadlari va turmush darajasi oshib boradi.

Samaradorlik muammosi iqtisodiyot nazariyasida asosiy muammo bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy nazariya jamiyatda mavjud aholining cheklanmagan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish maqsadida cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yo‘llarini tadqiq etadi. **Samaradorlik** ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan resurslar miqdori birligi va bu jarayondan olinadigan mahsulot hajmini harakterlaydi, ya’ni **“xarajat va ishlab chiqarish”** muammosini qamrab oladi.<sup>11</sup>

**Umumiy holda ishlab chiqarish samaradorligini ishlab chiqarish natijalarini (mahsulot hajmi) unga yerishishga qilingan xarajatlar miqdori nisbati orqali ifodalash mumkin.** Qanchalik xarajatlar miqdori kam va ayni paytda ishlab chiqarish natijasi ko‘p bo‘lsa, shunchalik ishlab chiqarish samaradorligi yuqori bo‘ladi. Samaradorlik nisbiy ko‘rsatkichdir. Samaradorlik (S) aniqlaganda yaratilgan mahsulot va xizmatlar qiymat (Mq) resurslarining qiymati (Rs) taqqoslanadi:

$$S = Mq / Rs$$

---

<sup>11</sup> McConnel, Brue. Economics 17<sup>th</sup> edition. McGraw-hill/Irwin, USA, 2009.

Samaradorlik sarflangan resurs birligiga qancha natija olinganligi aniqlanadi. Samaradorlik mehnat unumdorligining hosilasidir. Resurslar cheklanganligi sababli jamiyat mehnat unumdorligini oshirish yo‘lidan boradi.

**Mehnat unumdorligi vaqt birligida yaratilgan mahsulot va xizmatlar miqdori yoki mahsulot va xizmatlar birligini yaratish uchun sarflangan ish vaqtidir.** Masalan ish vaqti 8 soat, ishchi 16 detal ishlab chiqardi, deb faraz qilamiz, bunda ishchining mehnat unumdorligi 2 ta detalni tashkil qiladi. (16: 8= 2)

Ilmiy texnika revolyutsiyasi mehnatning tasnifini ham o‘zgartirdi. Yuqori malakali xodimlarga talab oshdi. Jismoniy mehnatning ahamiyati pasaydi. Mehnat murakkablashib boradi. Mehnat unumdorligiga fan va texnika taraqqiyoti ta’sir etadi. Ushbu ta’sir ikki yo‘nalishga ega. Mehnat jarayoniga yangi unumli texnika va texnologiyalar tatbiq etiladi. Jismoniy mehnatning ahamiyati pasayib, malakali ishchi kuchga talab oshadi. Masalan, XX asrning boshlarida ishlab chiqarishga konveyerning tatbiq etilishi mehnat unumdorligining tezda oshishiga olib kelgan. 50-yillarda esa konveyerning o‘rniga boshqaruv qurilmasiga ega mashinalar keldi. Masalan, Shu davrda Ford zavodida silindrlarni quyish 24 soatdan 15 minutga kamaytirildi. Keyinchalik moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari ishlab chiqishga tatbiq etiladi.

#### **6.4 Firma (korxon) va uning turlari**

**Firma (korxon) – bu alohidalashgan, xo‘jalik mustaqilligiga ega ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiy sub’ekt.**

Korxon muayyan mulkka oid va iqtisodiy jihatdan mustaqildir. Korxonaning iqtisodiy alohidalik ishlab chiqarish shaklining yakunlanganligi, korxon ixtiyoridagi resurslarning alohidaligi, o‘z harajatlarini o‘z mablag‘laridan qoplashi va olgan foydasini mustaqil tasarruf qilishida namoyon bo‘ladi. Korxonaning iqtisodiy mustaqilligi o‘zining iqtisodiy faoliyatini tashkil etishda o‘z aksini topadi. Iqtisodiy samaradorlik iqtisodiy mustaqillikning mezoni bo‘lib hisoblanadi. Undan tashqari tegishli iqtisodiy qonunlarda o‘z aksini topgan bo‘lishi lozim. Ya’ni huquqiy shaxs bo‘lmog‘i, o‘zining nizomi, mustaqil daromadlar va balansi, bankda o‘z hisobi, shartnoma tuzish huquqiga ega bo‘lmog‘i zarur.

Firma faoliyatining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mehnat unumdorligini muttasil oshirib borish;



➤ ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash va raqobatbardoshligini oshirish hisobiga talabni kengaytirish;

➤ ishlab chiqarishni divyersifikatsiyalash, ya'ni mahsulot nomenklaturasini (turlarini) ko'paytirish.

Ushbu maqsadlarga erishganda, firma o'z faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi va bosh maqsadga–foyda miqdorini maksimallashtirishga yerishadi.

Korxonalar bir qator mezonlar asosida tasniflanadi:

➤ mulkchilik shakliga ko'ra korxonalar: **xususiy va davlat korxonalariga** bo'linadi;

➤ xo'jalik yuritish shakli va amalga oshiriladigan operatsiyalarga ko'ra: **sanoat, transport, sug'urta, ilmiy-tadqiqot, turli xizmatlarni ko'rsatuvchi (aloqa, maishiy xizmat) korxonalar** farqlanadi;

➤ tarmoq bo'yicha: **monotarmoqli va ko'p tarmoqli korxonalar** farqlanadi.

**Monotarmoqli korxonalar bir** tarmoqda faoliyat yuritadilar. Ko'p tarmoqli korxonalar esa turli sohalarda faoliyat yuritadilar. O'z navbatida ko'p tarmoqli korxonalar ustun tarmoqqa ega va ega bo'lmagan turlarga bo'linadi. Masalan, "Djillet" firmasi asosiy ustun tarmog'i yoki ixtisoslashuvi lezviya va britvalarni ishlab chiqarish, undan tashqari esa tyeri galantyeriyasi ko'zoynaklar, zanjigalkalar ishlab chiqaradi. Bu turdagi firmalar faoliyati samaradorlik bilan ajralib turadi. Ko'p tarmoqli korxonalarining ikkinchi turida asosiy yoki ustun ishlab chiqarish mavjud bo'lmaydi.

Ular turli xo'jalik yuritish faoliyatlarini o'zida birlashtiradi:

➤ kapitalni milliy mansubligi nuqtayi nazaridan: milliy va transmilliy korxonalar farqlanadi. Milliy korxonalar ma'lum bir davlat doirasida faoliyat yuritadi. Transmilliy korporatsiyalar esa – yirik konsyernlar bo'lib ularga faoliyatining xalqaro difyersifikatsiyasi xosdir;

➤ ishlab chiqarishning to'planuv darajasiga ko'ra korxonalar yirik, o'rta va kichik korxonalarga bo'linadi; Ushbu mezon ma'lum darajada shartli bo'lib, turli mamlakatlarda turlicha tabaqalashtiriladi. Masalan, AQSH da 500 kishiga-kichik, 500-1000 o'rta; Yevropada 50 kishigacha –kichik, 50-500 o'rta; Yaponiyada 30-300 o'rta.

Yirik firmalarning ustun taraflari:

➤ katta miqdorda resurslar va daromadlarga egaligi sababli ular barqaror rivojlanishga yerishadilar, shuning uchun bozor konyukturasidagi o'zgarishlarga munosib tarzda javob byera oladilar;

➤ ko'pchilikka mo'ljallangan ommabop ishlab chiqarishni tashkil etish orqali tegishli bozorlarni tovar va xizmatlar bilan to'ldira olishi (AQSH da 1.4% yirik firmalar 32% qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, 34% kichik korxonalar esa atigi 3.2% miqdorda mahsulot ishlab chiqaradi).

➤ yirik miqdorda moddiy, moliyaviy va mehnat resurslariga ega bo'lib, keng ko'lamlarda ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarni olib borishi, yangi qimmat turdagi texnologiyalarni qo'llash imkoniyatiga egaligi;

Amaliyotda yirik kapital talab etilmaydigan sohalarda kichik korxonalar faoliyat yuritadilar. Ayniqsa, ilmiy ko'p talab etadigan hamda iste'mol tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda.

Kichik biznesning samarali rivojlanish imkoniyatiga ega ekanligi uning yirik biznesga nisbatan quyidagi ustunliklari borligi bilan izohlash mumkin: kichik biznesni rivojlanishiga ishlab chiqarish va shaxsiy iste'mol sohalarda talabning tabaqalashishi va individuallashtirishi ham sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida amaliyotdagi qonunchilikka asosan quyidagi kichik biznes korxonalari faoliyat yuritadilar:

➤ mikrofirmalar, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyekti. Tarmoqlar bo'yicha ishlaydigan xodimlarning o'rtacha yillik soni quyidagicha tasniflanadi: ishlab chiqarish sohasida - 20 kishidan, xizmat ko'rsatish va boshqa nomoddiy tarmoqlarda – 10 kishidan, ulgurchi va chakana savdoda va umumiy ovqatlanishda – 5 kishidan oshmasligi kerak.

➤ kichik korxonalar, yuridik shaxs maqomiga ega tadbirkorlik subyekti. Tarmoq va sohalarda bo'yicha ishlaydigan xodimlarning o'rtacha yillik soni quyidagicha tasniflanadi: yengil va oziq-ovqat, metallni qayta ishlash va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel va qurilish materyallari sanoatlarida – 100 kishidan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i – enyergetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat ishlab chiqarish sohasida - 50 kishidan, fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi, savdo va umumiy ovqatlanish va boshqa nomoddiy sohalarda -25 kishidan oshmasligi kerak.

Undan tashqari mamlakatimizda yirik korxonalar va kompaniyalar faoliyat yuritadilar. Har qanday iqtisodiyotda kichik, o'rta va yirik firmalar faoliyat yuritadi.

## **6.5 Ishlab chiqarish harajatlari tushunchasi va uning turlari**

Har qanday firma uchun foyda olish iqtisodiy faoliyatining zaruriy sharti va ayni paytda asosiy maqsadi hisoblanadi. Chunki firmaning rivojlanishi yertangi kunga ishonchi, olayotgan foyda miqdoriga bog'liqdir. Biroq korxonaning foyda olish va olmasligi uning miqdori ko'pgina omillarga bog'liqdir. Ularning orasidagi yetakchi omillardan biri korxonaning ishlab chiqarish harajatlaridir. Chunki, xarajatlar foydaning asosiy chegaralovchisi va bir vaqtning o'zida taklif miqdoriga ta'sir etuvchi asosiy omildir.

Xarajatlar, ularning joriy va kelajakdagi miqdorining tahlili natijalariga asoslanib korxonada rahbariyati o'z qarorlarini qabul qiladilar.

**Xarajatlar – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish resurslariga pul shaklidagi to'lovlardir.**

Ishlab chiqarish harajatlari birinchidan korxonada uchun mahsulotning asl qiymatini aks ettiradi. Ikkinchidan esa ishlab chiqarilgan mahsulotning boshlang'ich narxini (taklif narxi) aniqlashning asosi hisoblanadi.

Turli mezonlar asosida xarajatlar turlarga bo'linadi.

**Buxgaltyeriya harajatlari** korxonaning tovar ishlab chiqarishiga pul harajatlari bo'lib, ular buxgaltyeriya hisoblarida aks ettiriladi. Uni mahsulot tannarxi deyish mumkin.

Buxgaltyeriya harajatlari sarflangan ishlab chiqarish resurslarining turlari bo'yicha quyidagi moddalar orqali ifodalash mumkin:

- materiallar va butlovchilarga xarajatlar (chetdan olingan xomashyo, yordamchi materiallar, yarim fabrikatlar);

- ish haqiga sarflar-yollanma xodimlarga ish haqi, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan to'lovlar;

- ijtimoiy ajratmalar- ijtimoiy sug'urta fondi, nafaqa fondi;

- amortizatsiya ajratmalar - bino va asbob– uskunalarning moddiy (jismoniy) eskirishini aks ettiradi;

- boshqa sarflar– reklama, transport, xodimlarni boshqarish, kreditorlarga to'lovlar va h.k.

Xarajatlarni buxgaltyeriya usulida hisobga olish uni qiymat (pul) shaklida hisoblashga imkon beradi.

Buxgaltyeriya harajatlari bozor iqtisodiyotida resurslarning cheklanganligini inobatga olmaydi. Shuning uchun muqobil (iqtisodiy) xarajatlar tushunchasi ishlatiladi.

**Muqobil xarajatlar deganda, resurslarni eng oqilona ishlatishda boy byerilgan imkoniyatlar bilan bog‘liq pul sarflari tushuniladi.**

Muqobil xarajatlar bir tarafdin resurslarning cheklanganligini, ikkinchi tomondan esa har bir resurslardan foydalanishning bir necha varianti borligini hisobga oladi.

Mablag‘larning kelib tushishi nuqtayi nazaridan ishlab chiqarish harajatlari ichki va tashqi turlarga bo‘linadi.

**Tashqi xarajatlar** – bu korxonaga egalari bo‘lmagan, ishlab chiqarish resurslarini yetkazib beruvchilariga pul to‘lovlaridir.

Tashqi xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- ishchi–xizmatchilarning ish haqi;
- xomashyo va matyeriallarga, savdo firmalariga byeriladigan komission mukofoti (ustama haqi);
- banklar va boshqa moliyaviy muassasalarga to‘lanadigan badallar;
- yuridik xizmatlarga to‘lovlar;
- transport xizmatlari va boshqalar.

Qaytarib bo‘lmaydigan xarajatlar, tadbirkor tomonidan bir marta sarflanadigan va katta korxonaga yopiladigan bo‘lgan taqdirda ham qaytarib olish mumkin bo‘lmagan xarajatlardir. Ular korxonaning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq joriy xarajatlarga kiritilmaydi. Masalan, faraz qilamizki, korxonaga birlamchi maqsadda foydalaniladigan, keyinchalik altyernativ foydalanish uchun o‘zgartirib bo‘lmaydigan yoki boshqa korxonalariga sotib bo‘lmaydigan uskunalarni sotib oldi. Bu uskunalarni sotib olishga sarflanadigan xarajatlar korxonaga uchun qaytarib bo‘lmaydigan xarajatlar hisoblanadi.

**Ichki xarajatlar** - bu korxonaga tomonidan o‘ziga tegishli va mustaqil ishlatadigan ishlab chiqarish resurslarga sarflardir. Masalan, korxonaga o‘zining binosidan foydalanadi va ijara to‘lov shaklida tashqi xarajatlarga sarf qilmaydi. Biroq, ayni paytda binoni ijaraga berib, to‘lov olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Demak, ichki harajatlar buxgaltyeriya hisoblarida aks ettirilmasa ham real hisoblanadi.

**Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga (qisqarishi yoki ortishiga) ta’sir qilmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi.**

Doimiy xarajatlar (FC) ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga bevosita ta’sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinchida ham mavjud bo‘ladi. Bunga korxonaning to‘lov majburiyatlari (zayomlar bo‘yicha foiz va boshqa), soliqlar (ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmagan turlari),

amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo‘riqlash xizmatiga to‘lov, uskunalarga xizmat ko‘rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

**O‘zgaruvchi xarajatlar (VC) deb ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga ta’sir qiladigan xarajatlarga aytiladi. Unga xomashyo, matyerial, yonilg‘i-transport xizmati, ishchilar ish haqi va shu kabilarga qilinadigan sarflar kiradi.**

**Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar yig‘indisi umumiy yoki yalpi xarajatlar (TS)ni tashkil qiladi.**

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf-xarajatlarni hisoblash uchun o‘rtacha umumiy, o‘rtacha doimiy va o‘rtacha o‘zgaruvchi xarajatlar tushunchalaridan foydalaniladi. **O‘rtacha umumiy xarajatlar yalpi (umumiy) xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori nisbatiga teng:**

$$AC = \frac{TC}{Q};$$

bu yerda: AC – o‘rtacha umumiy xarajatlar;

TS – yalpi (umumiy) xarajatlar;

Q – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

**O‘rtacha doimiy xarajatlar doimiy xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:**

$$AFC = \frac{TFC}{Q};$$

bu yerda: AFC – o‘rtacha doimiy xarajatlar;

TFC – doimiy xarajatlar summasi.

**O‘rtacha o‘zgaruvchi xarajatlar o‘zgaruvchi xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:**

$$AVC = \frac{TVC}{Q};$$

bu yerda: AVC – o‘rtacha o‘zgaruvchi xarajatlar;

TVC – o‘zgaruvchi xarajatlar summasi.

**Shuningdek, o‘rtacha umumiy xarajatlarni o‘rtacha doimiy va o‘rtacha o‘zgaruvchi xarajatlarning yig‘indisi sifatida ham ifodalash mumkin:**

$$AC = AFC + AVC.$$

Bu o‘rtacha umumiy, doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlarning egri chiziqlari quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

Eng yuqori darajada foyda olishga yerishish uchun tovar ishlab chiqarishning zarur miqdorini aniqlash zarur. Bunda iqtisodiy tahlil vositasi bo‘lib so‘nggi qo‘shilgan xarajat tushunchasi xizmat qiladi. Avvalo **me‘yoriy (so‘nggi qo‘shilgan) xarajat deb mahsulotning navbatdagi birligini ishlab chiqarish bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarga aytiladi:**

$$MC = \frac{\Delta TC}{\Delta Q};$$

bu yerda: MS – me‘yoriy (so‘nggi qo‘shilgan xarajat);

$\Delta TS$  – umumiy xarajatlarning o‘zgarishi;


$\Delta Q$  - mahsulot miqdorining o‘zgarishi.

Me‘yoriy xarajatlarni har bir navbatdagi qo‘shilgan mahsulot birligi uchun aniqlash mumkin. **Tovar yoki xizmatlarning qo‘shilgan birligini ishlab chiqarishga to‘g‘ri keladigan xarajatlarni me‘yoriy xarajatlarni deyiladi.**

Agar rasmdagi grafikda absissa o‘qi  $Q$  ishlab chiqarish hajmini va ordinat o‘qi esa xarajatlarni  $C$  ifodalasa unda  $FC$  doimiy xarajatlarni absissa o‘qiga parallel bo‘lgan to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘ladi (6.2-rasm).

O‘zgaruvchan xarajatlarni ishlab chiqarish hajmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Ular xomashyo va ishchi kuchini sotib olish xarajatlari bilan bog‘liq. O‘zgaruvchan xarajatlarni dinamikasi ( $VC$ ) notekis: noldan boshlab, ishlab chiqarish o‘shishi bilan ular dastlab juda tez o‘sadi; keyinchalik, ishlab chiqarish hajmining yanada oshishi bilan, ommaviy ishlab chiqarishda tejamkorlik omili shakllana boshlaydi va o‘zgaruvchan xarajatlarning o‘shishi ishlab chiqarishning o‘shishiga qaraganda sekinroq bo‘ladi. Ammo kelajakda unumdorlikning pasayishi qonuni kuchga kirgandan so‘ng, o‘zgaruvchan xarajatlarni yana ishlab chiqarish o‘shishini quvib o‘tadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga ajratish faqat firma faoliyatining qisqa muddatli davriga xos. Boshqacha qilib aytganda, xarajatlarni turlari va ularning dinamikasini tahlil qilish asosida biz firma faoliyatining qisqa va uzoq muddatli davrlarini farqlashimiz mumkin.




**6.2-rasm. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy (yalpi) xarajatlar**

Qisqa muddatda doimiy xarajatlar o'zgarmaydi va firma mahsulot hajmini faqat o'zgaruvchan xarajatlar qiymatini o'zgartiribgina o'zgartirishi mumkin. Uzoq muddatda barcha xarajatlar o'zgaruvchan bo'ladi, firma o'zining ishlab chiqarish quvvatlarini o'zgartirish uchun yetarli uzoq vaqt oralig'iga ega bo'ladi.

**Yalpi (umumiy) xarajatlar (TS)** - bu ishlab chiqarishning har bir aniq darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisi. Grafikda (6.2-rasm) VC va FC yig'indisi VC chizig'ining OF qiymatga ordinata o'qi bo'ylab yuqoriga siljishini anglatadi.

Yalpi xarajatlarning notekis o'zgarishi, ishlab chiqarish hajmi o'sishi va mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar yoki o'rtacha xarajatlar o'zgarishiga olib keladi. Bunda o'rtacha xarajatlar yalpi xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lganga teng bo'ladi ( $AC = TC / Q$ ). Bozor muvozanatini tushunish uchun ushbu turdagi AC xarajatlar alohida ahamiyatga ega, chunki tadbirkor ularni minimallashtirishga intiladi. O'rtacha xarajatlar egri chizig'i odatda U shaklida bo'ladi ( 6.3 - rasm ).



**6.3 - rasm. O'rtacha xarajatlarning egri chiziqlari.**

Avvaliga o'rtacha xarajatlar juda yuqori. Buning sababi shundaki, katta miqdordagi doimiy xarajatlar kichik hajmdagi mahsulotlarga taqsimlanadi.

Ishlab chiqarish o'sishi bilan doimiy xarajatlar tobora ko'payib borayotgan mahsulot birligiga to'g'ri keladi va o'rtacha xarajatlar tezda pasayib, M nuqtada minimal darajaga yetadi. Ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan o'rtacha xarajatlar qiymatiga doimiy emas, balki o'zgaruvchan xarajatlar ta'sir etadi. Shuning uchun daromadlilikning kamayishi qonuni tufayli egri chiziq yuqoriga ko'tarila boshlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'rtacha xarajatlar egri chizig'i to'g'ridan-to'g'ri o'rtacha doimiy xarajatlar (AFC) va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar (AVC) egri chiziqlariga bog'liq. Doimiy xarajatlar qisqa muddatli davrda o'zgarishsiz qoladi, shuning uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori ortishi bilan o'rtacha doimiy xarajatlar qiymati kamayadi. O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlarga kelsak, ular dastlab o'rtacha doimiy xarajatlardan pastroq, ammo keyinchalik o'rtacha yalpi xarajatlarga yaqinlashib o'sishni boshlaydi.  $TC = FC + VC$  bo'lgani uchun, bu tenglamaning ikkala tomonini Q ga bo'lsak, quyidagilarga yerishamiz:

$$AC = AFC + AVC.$$

Boshqacha qilib aytganda, AC egri chizig'ini AFC va AVC egri chiziqlarini qo'shganda olish mumkin. O'rtacha xarajatlar egri chizig'i tadbirkor uchun katta ahamiyatga ega, chunki bu mahsulotning qaysi hajmida mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar minimal bo'lishini aniqlashga imkon beradi.

## **6.6. Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish harajatlari**

Ishlab chiqarish harajatlarini hisobga olishda vaqt omili, ya'ni xarajat qilingandan pirovard natija olinguncha o'tgan davr sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli vaqt omilidan kelib chiqib, ishlab chiqarish harajatlarini qisqa va uzoq muddatli davrda alohida tahlil qilinadi.

Korxonada ishlab chiqarish hajmini o'stirish uchun qisqa davrda faqat o'zining o'zgaruvchi harajatlari miqdorini o'zgartirishi mumkin. Bu qisqa muddatli xarajatlardir. Ishlab chiqarish quvvatlari esa (ishlab chiqarish bino va inshootlari maydoni, mashina va uskunalarning miqdori) doimiy bo'lib qoladi hamda bu davr faqat ulardan foydalanish darajasini o'zgartirish uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Qisqa muddatli vaqt davomida korxonada o'zining doimiy (qayd qilingan) quvvatlariga o'zgaruvchi resurslar miqdorini qo'shib borish yo'li bilan ishlab chiqarish hajmini o'zgartirishi mumkin. Biroq ishlab chiqarish quvvatlariga



(doimiy resurslarga) qo‘shilgan o‘zgaruvchi resurslar ma’lum vaqtdan so‘ng kamayib boruvchi natija (mahsulot) beradi.

Bu holat marjinalistlar tomonidan **ishlab chiqilgan samaraning kamayib borishi qonuni** orqali izohlab byeriladi. Unga ko‘ra, ma’lum davrdan boshlab korxonaning ishlab chiqarish quvvatlariga (masalan kapital yoki yerga) o‘zgaruvchi resurslar birligi (masalan, jonli mehnat)ni ketma-ket qo‘shib borish har bir keyingi o‘zgaruvchi resurs birligi qiymatiga kamayib boruvchi qo‘shimcha mahsulot beradi.

Bu yerda shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, samaraning kamayib borish qonuni, o‘zgaruvchi resurslarning barcha birligi (masalan barcha ishchilar) sifat jihatidan bir xil degan farazga asoslanadi. Ya’ni, har bir qo‘shimcha ravishda jalb qilingan ishchi bir xil aqliy layoqatga, bilimga, malakaga, harakat tezligi va shu kabilarga ega deb hisoblanadi.

Demak, qo‘shilgan mahsulot keyingi jalb qilingan ishchi kam malakaga ega bo‘lgani uchun emas, balki kapital (fondlar)ning mavjud miqdoriga nisbatan ko‘p miqdorda ishchilarni band qilish sababli kamayib boradi. Bu yerda ishlab chiqarish omillari o‘rtasidagi nisbat, mutanosiblik buzilishi sodir bo‘ladi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, samaraning pasayib borishi degan qonun tabiiy ravishda o‘zidan o‘zi emas, balki omillarning boshqasi o‘zgarmagani holda ayrimlarini ko‘r-ko‘rona ko‘paytirib, ular o‘rtasidagi mutanosiblik buzilganda sodir bo‘ladi.

**Uzoq muddatli davr – bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini va barcha band bo‘lgan resurslari miqdorini o‘zgartirish uchun yetarli bo‘lgan davrdir.**

Bu yerda shuni ta’kidlash lozimki, ishlab chiqarish quvvatlarining o‘zgarishini taqozo qiladigan davr davomiyligi ayrim tarmoq va korxonaga xususiyatidan kelib chiqib farqlanishi mumkin.

Qulay iqtisodiy muhit tufayli, ishlab chiqarish quvvatlarining to‘xtovsiz kengayib borishi natijasida korxonaga o‘rtacha umumiy (yalpi) harajatlarida qanday o‘zgarish ro‘y beradi? Dastlab qandaydir vaqt oralig‘ida ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi o‘rtacha umumiy xarajatlarning pasayishi bilan birga boradi. Ammo oxir oqibatda ko‘proq va yanada ko‘proq quvvatlarni ishga tushirish o‘rtacha umumiy xarajatlarning o‘sishiga olib keladi. Bunday hollarni samaraning kamayib borish qonuni tushuntirib byerolmaydi, chunki uning amal qilish shart-sharoiti ishlab chiqarishda foydalanadigan resurslardan

bittasi miqdorining o'zgarmasligi hisoblanadi. Uzoq muddatli davrda barcha resurslar miqdori o'zgaradi. Bundan tashqari biz tahlilda barcha resurslar narxini doimiy deb faraz qilamiz. Shu sababli uzoq muddatli davrda o'rtacha xarajatlarning o'zgarishi tamoyilini ishlab chiqarish miqyosi o'sishining ijobiy va salbiy samarasi yordamida tushuntirish mumkin.

**Ishlab chiqarish miqyosining ijobiy samarasi shunda namoyon bo'ladiki, korxonada ishlab chiqarish hajmi o'sib borishi bilan bir qator omillar ishlab chiqarish o'rtacha harajatlarining pasayishiga ta'sir ko'rsata boshlaydi.** Bu omillar quyidagilar: 1) mehnatning ixtisoslashuvi; 2) boshqaruv xodimlarining ixtisoslashuvi; 3) kapitaldan samarali foydalanish; 4) qo'shimcha turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarilishi.

Ishlab chiqarish miqyosining kengayib borishi chuqur ixtisoslashuv tufayli boshqarish bo'yicha mutaxassislar mehnatidan ancha yaxshi foydalanish imkoniyatini beradi. Bu oxir oqibatda samaradorlikning oshishi va mahsulot birligiga, ishlab chiqarish harajatlarining kamayishiga olib keladi.

Korxonada faoliyatining asosiy maqsadi foydani ko'paytirishdan iborat bo'lsa, unda mahsulotning hajmini ham hisoblashi zarur, bu hol esa o'z navbatida me'yoriy xarajatlarni tushunchasini qo'llashga sabab bo'ladi.

**Me'yoriy xarajatlarni** ishlab chiqarish hajmiga nisbatan har bir qo'shimcha mahsulotga qilingan xarajatlardir.

Qisqa muddatli davrda qaror qilishida firma uchun mahsulot birligiga xarajatlarni pasayadi, chunki ularning absolyut miqdori o'zgarmasdir. O'zgarmas xarajatlarni boshlang'ich davrda, ishlab chiqarish ko'lamlarining kengayishi sababli kamayib boradi. Undan so'ng esa ko'lam samarasining ustidan kamayib boruvchi samara qonuni ustun kelishi natijasida mahsulot birligiga o'zgaruvchan xarajatlarni o'sib boradi. Masalan, ip yigiradigan fabrikada dastgohlarni uch smena ishlatish ularning ishlash samarasining pasayishiga olib keladi, chunki uchinchi smenada ishlash dastgohlarni profilaktika qilishga imkon bermaydi, yalpi xarajatlarni esa uni tashkil etuvchi (DX va O'X)larga nisbatan tezroq pasayib boradi, bu esa tabiiydir.

Iqtisodiy nuqtayi nazaridan qisqa va uzoq davrlar uning o'rtasidagi farq ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib bo'lmaydi, ammo ularni ishlatish darajasini oshirishi mumkin. Uzoq muddatli davrda esa yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tushirish mumkin. Shunga ham e'tibor berish kerakki, ushbu davrlarning chegarasi har xil tarmoqlarda turlichadir. Qisqa va uzoq davrni

farqlash firmaning foydasini ko'paytirish strategiyasi va taktikasini aniqlashda muhimdir.

Endi uzoq muddatli davrda firma siyosatini ko'rib chiqamiz. Uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish quvvatlarini o'zgartirish mumkin. Firma bu davrda yangi sexlarni qurish va yangi dastgohlarni o'rnatishi mumkin.

Uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish quvvatlari o'zgaradi, unga mos holda ishchilarning soni ham o'zgarib boradi, demak uzoq muddatli davrda hamma xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlar sifatida maydonga chiqadi. Firmani kengaytirish davrida yalpi xarajatlar o'zgaradi. Boshida ko'lam (masshtab) samarasi hisobiga kamayadi. Undan keyin ko'lam samarasi ta'siri tamom bo'lganidan ishlab chiqarish minimumga yetadi. Shundan so'ng yalpi xarajatlarning ko'payishi jarayoni boshlanadi.

Ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat: fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirib borish va shu kabilardir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Ishlab chiqarish omillari va resurslar tushunchalari o'rtasidagi umumiy va farq qiluvchi jihatlarini tushuntirib bering.
2. Iqtisodiy samaradorlik nima?
3. Ishlab chiqarish imkoniyatlariga ta'rif bering
4. Muqobil xarajatlarni kamayib borish qonuni qanday bog'liqlikni aks ettiradi?
5. Iqtisodiyotda texnologik tanlash muammosini siz qanday tushunasiz?
6. Ishlab chiqarish ko'lami va ko'lam samarasi tushunchalarni yoritib bering
7. Ishlab chiqarish sarf-harajatlarining mohiyati va tarkibini tushuntiring.
8. Qisqa uzoq muddatli davrdagi ishlab chiqarish harajatlari o'rtasida farqlar nimalardan iborat?

## **7. MUKAMMAL BOZOR VA MONOPOLIYA**

### **7.1. Bozor tuzilmasi. Mukammal raqobat: tavsifi va asosiy belgilari**

**Bozor raqobati va boshqa bir qator jarayonlar amalga oshadigan sharoit bozor tuzilmasi deyiladi.** Bozor tuzilmasi bir qator xususiyatlarga ega. Xususan:

- korxonalarining soni va miqyosi;
- taklif etilayotgan tovarlarning turlari;
- narxlar ustidan nazorat qilish darajasi;
- tarmoqqa kirish va chiqish sharoitlari va boshqalar.

Bozor tuzilmalarining xilma-xilligiga qaramasdan odatda uning to'rtta turi (bozor modeli) ajratiladi (7.1-jadval). Bular: 1) sof raqobat yoki mukammal raqobat; 2) monopolistik raqobat; 3) oligopoliya; 4) sof monopoliya.

Bu tuzilmalarning har biri avvalo korxonalarining bozor narxiga ta'sir eta olishi bilan farqlanadi. Qanchalik bu ta'sir kam bo'lsa, shunchalik bozor raqobatli hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor modellarini real voqelik bilan solishtirilganda, sof (mukammal) raqobat va monopoliya juda kam hollarda uchraydi, monopolistik raqobat va oligopoliya hayotda ko'proq uchraydi. **Mukammal yoki sof raqobat - bu bozor tuzilmasi bo'lib, bunda individual xaridorlar va sotuvchilar yakka o'zi bozor narxiga ta'sir qilolmaydilar, balki uni bozor talabi va bozor taklifiga qo'shgan umumiy hissalar bilan shakllantiradilar.**

Boshqacha qilib aytganda, bu xaridor va sotuvchilarning bozordagi xatti-harakatlari mavjud bozor sharoitlariga moslashish uchun mo'ljallangan bozor tuzilishining bir turi.

Mukammal raqobat uchun quyidagi belgilar xos (7.1-jadval):

- ko'plab kichik korxonalar (sotuvchilar) va xaridorlarning mavjudligi - mahsulotning bir xilligi (standartlashtirilgan mahsulot), ya'ni raqobatlashayotgan firmalar tomonidan taqdim etiladigan mahsulotlar bir xil va bir-birining o'rnini bosa oladi.

7.1- jadval<sup>12</sup>

### Bozor tuzilmalari

<b>Bozor tuzilmasi</b>	<b>Mukammal raqobat</b>	<b>Mukammal bo'lmagan raqobat</b>		
		<b>Sof monopoliya</b>	<b>Oligopoliya</b>	<b>Monopolistik raqobat</b>
<b>Belgilar</b>				

<sup>12</sup> Усманова Р.М. Саидкаримова М.Э. Экономическая теория .Учебное пособия.- Т.: «Fan va texnologiya», 2018, с. 95

Firmalar soni	Juda ko'p	Bitta korxonalar (tarmoq)	Bir nechta	Ko'p
Mahsulot	Standartlashtirilgan	Noyob (o'rnini bosadigan mahsulot yo'q)	Standartlashtirilgan va tabaqalashtirilgan	Tabaqalashtirilgan
Narx ustidan nazorat	Mavjud emas	Narx ustidan nazorat (absolyut emas)	Umumiy bog'liqlik	Uncha emas
Tarmoqqa kirish to'siqlar	Mavjud emas	To'silgan	To'siqlar mavjud (huquqiy, yuridik texnologik va h.k.)	Nisbatan yengil
Misollar	Qishloq xo'jaligi mahsulotlar bozori	Elektr ishlab chiqarish	Uyali telefon operatorlari	YOTSH

**Standartlashtirilgan mahsulot** - bu turli xil korxonalar tomonidan taqdim etiladigan, ammo xaridorlar tomonidan barcha holatlarda bir xil deb qabul qilingan mahsulotdir. Masalan, sut, sariyog', bir xil nav va sifatdagi don kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlari. Shuningdek, birjalarda sotiladigan tovarlar, masalan, kofe, paxta, metallar, qimmatli qog'ozlar va valyutalar ham standartlashtirilgan mahsulotlar sirasiga kiradi;

- bozorga yerkin kirish va chiqish (mavjud firmalar uchun bozorga kirish yoki chiqish uchun to'siqlar yo'q);
- sotuvchilar va xaridorlarning bozor holati to'g'risida xabardorligi, axborot bozor subyekti orasida bir zumda tarqaladi va hech qanday xarajat talab qilmaydi;
- sotuvchilar va xaridorlar narxlarga ta'sir qila olmaydi;
- resurslarning harakatchanligi;

Mukammal raqobat - bu ilmiy abstraksiya, ideal bozor tuzilmasi hisoblanib, boshqa turdagi bozor tuzilmalari bilan taqqoslash uchun etalon vazifasini bajaradi. Mukammal raqobat o'zining mavhumligiga qaramay, metodologik va amaliy ahamiyatga ega. Uslubiy ma'noda bu korxonalar harakatlari mantiqini tushunishga imkon beradi. Amaliy jihatdan mukammal raqobat modeli kichik korxonalarining harakat qilish tamoyillarini baholashga imkon beradi.

Mukammal raqobatning afzalliklariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish texnologik jihatdan samaraliroq amalga oshiriladi;

- resurslarni taqsimlash optimal tarzda amalga oshiriladi;
- korxonalarining zararsizligi va barqarorligi.

Mukammal raqobatning kamchiliklari:

- unumdorligi yuqori uskunalardan foydalaish qobiliyatiga ega emasligi, chunki, mukammal raqobat bozorida yirik kapitalga ega bo'lmagan ko'plab kichik korxonalar harakat qiladi;

- ilmiy-texnik taraqqiyotni rag'batlantirish qobiliyatiga ega emasligi, chunki uzoq muddatli istiqbolda ITTLI katta kapitalni talab qiladi, kichik korxonalar esa bunday hajmda kapitalga ega emaslar;

- ijtimoiy tovarlarni ishlab chiqarish qobiliyatiga ega emasligi.

## 7.2. Mukammal bozor mexanizmi va uning harakatlanishi

Har qanday bozor uning har qanday shakli - talab va taklif, narx, raqobatdan iborat mexanizmiga asoslanadi. Aslida ushbu mexanizim yordamida bozor o'zini o'zi tartibga soladi. **Bozor mexanizmi - bu bozorning asosiy elementlari: talab, taklif, narxlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sir mexanizmidir.** Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, sotuvchilar va xaridorlarning iqtisodiy mavqei bozor konyunkturasiga bog'liq. **Bozor konyunkturasi—muayyan davrdagi bozor holati, u bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan xarakterlanadi.** Bozor konyunkturasi ijobiy yoki salbiy, qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Bozor konyunkturasi talabning oshishi bilan tavsiflansa, sotuvchi uchun qulay, chunki u tovarini qimmatga sotib, ortiqcha daromad ko'radi. Agar bozorda taklif oshib ketsa, konyunktura xaridor uchun qulay bo'ladi — tovarni arzonga olib, naf ko'radi. Bozor mexanizmi qiymat, va naflilik qonunlariga asoslanadi.

**Narx - bu bozor tili, uning signal tizimi.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlar tizimi asosiy tashkilotchi kuch rolini o'ynaydi. Narx sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) va xaridor (iste'molchi) uchun asosiy mezondir. Narxning oshishi - bu ishlab chiqarishni kengaytirish uchun signal, narxning pasayishi narx esa - bu ishlab chiqarishni kamaytirish uchun signaldir. Tadbirkorlarning paydo bo'lgan stixiyali harakati ozmi-ko'pmi maqbul iqtisodiy mutanosibliklarning o'rnatilishiga olib keladi. Bozorni tartibga solish funksiyasi eng muhim hisoblanadi. Bu bozorning iqtisodiyotning barcha sohalariga ta'siri bilan bog'liq.

**Raqobat - bu tovarlarni ishlab chiqarish, sotib olish va sotish uchun, eng yaxshi sharoitlar uchun bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari o'rtasidagi raqobat.** U talab va taklifning o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan, bozor narxlarini muvozanatlashtiradigan kuch sifatida maydonga chiqadi. U o'z mahsulotini yuqori narxda sotmoqchi bo'lgan sotuvchilar orasida yuz beradi. **Bozor mexanizmining o'ziga xos xususiyati shundaki, uning har bir elementi narx bilan chambarchas bog'liq bo'lib, talab va taklifga ta'sir qiluvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.** Xususan, talab narx bilan teskari, taklif bilan to'g'ri bog'liq. Mahsulot narxining oshishi bilan unga talab kamayadi va aksincha. Narxning oshishi esa mahsulot taklifini oshiradi va aksincha.

Narxlar orqali talab va taklif bir-biriga va to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi, ya'ni talab taklif uchun, taklif esa talab uchundir. Masalan, bozorga yangi yuqori sifatli tovarlarni yetkazib berish har doim ularga bo'lgan talabni rag'batlantiradi va ayrim tovarlarga bo'lgan talabning o'sishi pirovardida ushbu tovarlarga taklifning oshishini talab qiladi.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'zlarining iqtisodiy faoliyatida bozor parametrlarini boshqaradilar, ulardan eng muhimi talab, taklif, muvozanat narxidir. Bu bozor munosabatlarining yadrosi, bozorning asosiy qismidir.

Ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, sotuvchilar va xaridorlarning iqtisodiy mavqei ko'plab omillar ta'sirida o'zgarib turadigan bozor sharoitlariga bog'liq. Bunday holda, talab va taklif o'rtasidagi ma'lum nisbat juda muhim rol o'ynaydi. Chunki bu ko'pincha sotuvchilar va xaridorlarning taqdirini oldindan belgilab beradi.

Endi biz narx va raqobat tushunchalarni kengroq ko'rib chiqamiz. **Narx - bu evaziga sotuvchi tovar birligini o'tkazishga (sotishga) tayyor bo'lgan pul miqdori. Aslida narx - bu ma'lum bir tovarni pulga almashtirish koeffitsiyenti. Narx - bu asosiy iqtisodiy kategoriya.** Ixtiyoriy ravishda tovar ayirboshlashda nisbatlar (nisbat) qiymati deb ataladi. SHuning uchun narx - bu tovar birligining pul bilan ifodalangan qiymatidir. Narxning mohiyati uning vazifalarida namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx bir qator vazifalarni bajaradi:

**1. Bozor muvozanatini ta'minlash.** Bunda narx bozordagi talab va taklifga ta'sir ko'rsatish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi. Bozor narxi-bu muvozanatli narx bo'lib, u bozorda talab va taklif miqdori teng bo'lgan holatda shakllanadi.

**2. Iqtisodiy regulyatorlik funksiyasi.** Narx bozor mexanizmining elementidir. Narx bozor talabi va taklifidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish hajmini tartibga soladi

**3. Raqobat vositasi funksiyasi.** Raqobat bozor mexanizmining elementidir. Narx yordamida kurash raqobatning asosiy usulidir. Narxni pasaytirish orqali bu kurashda yutib chiqish mumkin.

**4. Hisob – kitob funksiyasi.** Tovarni ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, ko‘rilgan foyda-zarar uning nafliligi, bajarilgan ish hajmining barchasi ma’lum narxlar asosida hisob –kitob qilinadi.

Narx turli omillar ta’sirida shakllanadi:

**1. Ishlab chiqarish harajatlari** qanchalik kam bo‘lsa narx shunchalik past bo‘ladi, agarda ishlab chiqarish harajatlari miqdori ko‘p bo‘lsa narx shunchalik yuqori bo‘ladi. Tovarni ishlab chiqaruvchi taklif qilgan narxda (xarajat+foyda) sotilishi unga qilgan xarajatlarning jamiyat tomonidan tan olinganligini bildiradi.

**2. Tovar nafliligining** yuqori ekanligi uning iste’molchilarning ehtiyojlarini yuqori darajada qondira olishidan dalolat beradi. Iste’molchilar ehtiyojlarining qondirilish darajasi yuqori bo‘lsa, iste’molchi yuqori narx to‘lashga rozi bo‘ladi.

**3. Talab bilan taklif o‘rtasidagi nisbat.** Agar biror bir tovarga talab miqdori, uning taklifi kam bo‘lsa, narx yuqori, aksincha yuqori bo‘lsa, narx past bo‘ladi.

**4. Raqobat taklif orqali narxga ta’sir qiladi.** Agar raqobatchilar soni ko‘p bo‘lsa narx pasayadi, agar oz bo‘lsa, o‘zaro til biriktirib olsalar, narx baland bo‘ladi. Bunda gap tovar oz-ko‘p bo‘lganida emas, balki tovarni necha kishi taklif etishidadir.

**Iqtisodiy mazmuniga ko‘ra narxlar quyidagi turlarga ajratiladi:**

**Ulgurji narxda** tovarlar katta miqdorda, ko‘tarasiga sotiladi. Ulgurji narxlar tarkibiga ishlab chiqarish harajatlari va ulgurji-savdo tashkilotlari harajatlari hamda foydasi kiradi.

**Chakana narxlarda** tovarlar bevosita iste’molchilarga sotiladi. Chakana narx tarkibiga tovarning ulgurji narxi va chakana savdo tashkilotlari harajatlari hamda foydasi kiradi. Shu bilan birga, aholining talabi faqat tovarlarning chakana narxlariga bog‘liq bo‘lib, ulgurji yoki sotib olish narxlarining o‘zgarishi chakana narxlar o‘zgarguncha to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholi talabiga ta’sir



qilmaydi. Ulgurji narxlarning o'zgarishi korxonalarining ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talabiga ta'sir qiladi.

**Xarid narxi** davlat buyurtmasi bo'yicha ishlab chiqarilgan tovarlarga belgilanadi.

**Dotatsion narx** davlat byudjeti hisobidan arzonlashtirilgan narxlardir.

**Demping narxlarda** ishlab chiqaruvchilar bozordagi mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarishda foydalanadi.

**Tartibga solinishi darajasiga ko'ra narxining quyidagi turlari mavjud:**

**Qat'iy belgilangan narxlar.** Bozor kuchlari ta'sir ko'rsatmaydigan, muayyan vaqt oralig'ida doimiy bo'lgan, ma'muriy tarzda o'rnatiladigan narx.

**Yerkin narx.** Talab va taklifni muvozanatga kelishi oqibatida vujudga keladigan bozor narxi.

**Tartibga solinadigan narxlar.** Davlat ayrim tovarlarga narxlarning yuqori (iste'molchi manfaatini ko'zlab) va quyi (ishlab chiqaruvchi manfaatini ko'zlab) chegarasini belgilaganda hamda moliyaviy va kreditli dastaklardan foydalanib, narxga ta'sir ko'rsatganda belgilanadigan narxlar.

**Shartnoma narxlari bitim tuzayotgan tomonlar (shaxslar) tomonidan** shartnomada qayd qilingan narxlardir.

**Hududiy narx** faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'siridan hosil bo'ladi.

**Milliy bozor narxi** bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxlardir. Milliy narx mamlakat doirasidagi ijtimoiy sarf-xarajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafliligini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga oladi.

**Jahon bozori narxi** muayyan tovarga ketgan baynalminal xarajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi.

Narx xilma-xil turlardan iborat bo'lsada, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi. Iqtisodiyot nazariyasida narx nisbati degan tushuncha bor, u **narx pariteti** deb ham yuritiladi. Iqtisodiyot va undagi jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lganidan narxlar bir-birini yuzaga chiqaradi.

**Raqobat - bozor iqtisodiyoti subektlari o'rtasida o'z manfaatlaridan kelib chiqib yuqori foyda va naf olish maqsadida tovar ishlab chiqarish, sotish va xarid qilish uchun qulay mavqeni egallash uchun kurashdir.** Raqobat bozor iqtisodiyotining belgisi bozor mexanizmining muhim va

zarur elementi hisoblanadi, iqtisodiy taraqqiyotning omilidir. Biroq, uning xaraktyeri va shakllari turli bozorlarda har xil bo'ladi. Bu esa bozor subyektlarini mahsulot narxi ishlab chiqarish hajmi va boshqa masalalar xususida qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadi.

**Raqobat bozor ishtirokchilari o'rtasida yuz beradi.** Iqtisodiyot ishtirokchilarining mulkdor bo'lishi ularni alohidalashtiradi va manfaatlarini farqlantiradi. Mulk egasining o'z manfaati mavjud, o'z navbatida ushbu manfaat aniq iqtisodiy maqsadga aylanadi, ular shu manfaatga yerishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalardagi faoliyati shu maqsadga bo'ysundirilgan bo'ladi. Raqobat aynan manfaatlar to'qnash kelgan holatda yuz beradi. Tabiiyki, bozor ishtirokchilari manfaatlari uyg'unlashgan joyda ular o'rtasida shyerikchilik munosabatlari vujudga keladi. Demak **ishlab chiqaruvchilar, resurs egalari va iste'molchilarning tadbirkor, mulk va daromad egasi sifatida yerkin hamda mustaqil bo'lishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etadi.**

Raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha subektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Tovlar ishlab chiqaruvchilar, resurs egalari, xaridorlar raqobat ishtirokchilaridir. Raqobatlashish maydoni – bozordir. Unda mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar), resurslarni yetkazib beruvchilar, iste'molchilar manfaatlari to'qnashadi.

**Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar)** o'rtasidagi raqobat tovarlarni kam xarajatlar bilan samarali ishlab chiqarish va maksimum foyda keltiradigan narxda sotish, umuman tegishli bozorda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular o'zlariga zarur bo'lgan resurslarni qulay sharoitlarda xarid etish uchun ham kurashadi. Mustaqil ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat pirovard natijada iste'molchilar uchun kurashdir.

**Resurslarni yetkazib beruvchilar** o'zlariga tegishli iqtisodiy resurslarni yuqori narxlarda sotish maqsadida raqobat qiladilar. Masalan, xodim ishga yollanayotgan davrda yuqoriroq ish haqi olishga harakat qiladi.

Raqobatning mohiyati uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Raqobatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) **Raqobatning tartibga solish vazifasi** taklifga ta'sir o'tkazish orqali ishlab chiqarishni talab (iste'mol)ga muvofiqlashtirish bilan ishlab chiqarish tarkibi va hajmini mavjud ehtiyojlarga muvofiqlashtirishga yerishiladi, natijada iqtisodiyotning har xil darajalarida muvazanat holatiga yerishiladi;

2) **Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi** ishlab chiqarish omillarini eng ko'p samara beradigan korxonalar, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi. Bu jarayon kapitalni torayuvchi tarmoqlardan kengayuvchi tarmoqlarga oqib o'tishi natijasida ro'y beradi;

3) Raqobatning xo'jalik yurituvchi subyektlarni doimiy ravishda ishlab chiqarishlariga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi ilg'or texnika va texnologiyalarni tatbiq etishga undab turishida uning **innovatsion vazifasi** namoyon bo'ladi;

4) Raqobatning **moslashtirish vazifasi** firmalarning ichki va tashqi muhit sharoitlariga muvofiq tarzda moslashishiga qaratilgan bo'lib, ularning shunchaki bozorda o'zlarining mavqelarini saqlash va o'zlarining xo'jalik yuritish faoliyatlarini kengaytirishga o'tishini bildiradi.

5) Raqobatning mamlakatda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotni iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishiga ta'sir etishida uning **taqsimlash vazifasi** o'z aksini topadi.;

6) Raqobatning **nazorat qilish vazifasi** bozor ishtirokchilari ustidan monopolistik hukmronlik o'rnatishiga yo'l qo'ymaslikda namoyon bo'ladi.

**Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.**

Ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlari narxlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarnikiga nisbatan pasaytirish yo'li bilan **narx vositasida raqobatlashuv jarayoni ro'y beradi.**

Bu usulni qo'llash uchun tadbirkor boshqa raqiblariga qaraganda unumliroq texnika va texnologiya'ni ishlab chiqarish jarayoniga kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni samarali tashkil qilishi zarur. Faqat ana shu holatda tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini tushirish imkoniyatini beradi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – demping narxlarni qo'llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlar bo'yicha eksport qiladi. Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga yerishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni bartaraf etish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga xarakat qiladi.

Hozirgi davrda ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsulotiga narxni pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday harakat qilishini taqozo

qiladi. Bu bozorda firmalarning mavqeini o'zgartirmaydi, faqat tarmoq bo'yicha foydani kamaytiradi. Shu bois bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda narx yordamida raqobat qilish ustuvor hisoblanmaydi.

**Narxsiz raqobatda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, syervis (xizmat ko'rsatish), ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.**

Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotlarning ko'payishi ularning sotishni rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika muhrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste'molchilik bozorida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda.

Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman iste'mol xossalari ega bo'lishi mumkin.

Narxsiz raqobat usullari ichida marketing muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabni yaxshi o'rgangan va iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan korxonalar har doim raqobat kurashida yutib chiqadi. Amerikalik iqtisodchi professorlar Kempbell R.Makkonnell va Stenli L.Bryu "raqobatning mohiyati iqtisodiyotning ikkita asosiy subyektlari - korxonalar va uy xo'jaliklari doirasida iqtisodiy qudratni keng taqsimlanishida. Ko'plab xaridorlar va sotuvchilar mavjud bo'lganda ma'lum bir bozorda biron bir xaridor yoki sotuvchi bunday miqdordagi mahsulotga talab yoki taklifni taqdim eta olmaydi, bu narxga sezilarli ta'sir ko'rsatishi uchun yetarli bo'ladi"<sup>13</sup> deb hisoblaydilar.

### **7.3 Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanishi va ishlab chiqarish hajmini aniqlash**

**Turli xil bozor tuzilmalarida narxlar har xil tarzda shakllanadi. Xo'sh mukammal (sof) raqobat sharoitida narx qanday shakllanadi?**

Amalda mukammal raqobat sof holda kam uchraydigan hodisadir. Ammo bir qator tarmoq bozorlari mavjud bo'lib, ular nisbatan shunday strukturaga egadir. Raqobatlashuvchilar bir turdagi tovarni bozorga taklif etadilar, shu bois ular xaridor uchun kurashadilar. Masalan, non bozorida sotuvchilar faqat nonni

---

<sup>13</sup>Макконнелл К.Р., Брю С.Л.Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник: Пер. с англ. М.: ИНФРА-М, 1999. - 504 с.

taklif etadilar, ularning xaridori ham bir xil, shu sababli nonni turli xaridorga ko‘proq sotish uchun kurashadilar.

Masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori. Bu bozorda mustaqil ko‘p sonli sotuvchilar standartizatsiya qilingan mahsulotni taklif etadilar, bunda narx talab va taklif o‘rtasidagi nisbat orqali tarkib topadi. Ko‘pgina bozorlarda mahsulotning ko‘p ulushi kam sonli firmalar tomonidan taklif etiladi. Bunday hollarda yirik firmalar bozorda hukmron mavqega ega bo‘ladilar va mahsulotlarning sotish shartlariga ta’sir eta oladilar. Buning natijasida bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat ham o‘zgaradi. Mukammal raqobat iqtisodiy yutuqdan ham ishlab chiqaruvchini, ham iste’molchini bahramand qiladi. Ishlab chiqaruvchi yutug‘ini foyda tashkil etadi. Iste’molchi yutug‘ini esa u mo‘ljallagan narx bilan tovarning amalda sotib olingan narxi o‘rtasidagi farq tashkil etadi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchi foydasini narxni o‘zgartirish hisobiga emas, balki yalpi daromad bilan yalpi ishlab chiqarish harajatlari o‘rtasidagi farqni ko‘paytirish hisobiga oladi. Yerkin raqobat bor joydagi amaliy narx xaridor narxi bilan sotuvchi narxi oralig‘ida bo‘ladi, bu esa ikki tomon manfaatlarining uyg‘unlashuvi natijasi hisoblanadi.

**Xaridor narxi, sotuvchi narxi - bozor ishtirokchilari bitim paytida mahsulot uchun taklif qiladigan narxlar**

**Xaridor narxi - xaridor tovarni sotib olishga rozi bo‘lgan narx.** Xaridor narxi xaridorlar mahsulot haqida qanday fikrda bo‘lishiga bog‘liq: mahsulot qanchalik zarur, modaga javob beradimi yoki yo‘qmi, naflimi yoki unchalik emas. Xaridorning narxi mahsulotga bo‘lgan talabni aks ettiradi. Agar taklif talabdan yuqori bo‘lsa, unda mahsulot xaridor narxida sotiladi. Masalan, jun paypoqlarni har qanday do‘konda topish mumkin va xaridor ular uchun maksimal 10 ming so‘m to‘lashga tayyor. Sotuvchi bir juft paypoqni 15 ming sotganda xursand bo‘lar edi, lekin u bozorga moslashadi, aks holda u hech narsa sotmaydi, ya’ni mahsulotini 10 ming so‘mdan sotadi.

**Sotuvchining narxi bu ishlab chiqarish harajatlari va muqobil tovarlarning narxlarini hisobga olgan holda foyda olish istagiga asoslangan sotuvchi uchun qulay narx.** Sotuvchining narxi ishlab chiqaruvchining narxini aks ettiradi, chunki sotuvchi uni xaridorga taklif qiladigan tovarlarning narxini aynan ishlab chiqaruvchi shakllantiriladi.

Bozorda ishlab chiqaruvchi o‘zining ishlab chiqarish harajatlari va muqobil tovarlarning narxlarini, shuningdek olmoqchi bo‘lgan foyda miqdoridan kelib chiqib narxni belgilaydi va tovarini bozorga olib chiqadi va


sotuvchi narxida taklif etadi. So'ng turli omillar ta'sirida bozor narxi shakllanadi.

Mukammal raqobatda qatnashuvchi firmalar o'z foydasini maksimumlashtirishga intiladi. Biroq foydani oshirish uchun firma mavjud narxni nazarda tutib bozorga shunday miqdorda tovarni chiqarishi kerakki, uni bozor ma'qul topishi zarur. Yerkini bozor iqtisodiyotida narx asosan talab va taklif asosida vujudga keladi. Demak, bozorda tovar va xizmatlarning narxi, talab va taklif, ishlab chiqarish harajatlari va naflilik asosida shakllanadi. Bu holat esa tadbirkorlarni ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish, tovarning sifatini yaxshilashga undaydi. Bu esa o'z navbatida ularga raqobatda yutib chiqishga, aholini esa sifatli tovarlar bilan ta'minlashga sharoit yaratib beradi.

Mukammal raqobat bozor sharoitida ishlab chiqaruvchilarning soni ko'p bo'lganligi sababli ular bozor narxiga ta'sir ko'rsata olmaydilar, ya'ni narx darajasi obyektiv holda bozor tomonidan shakllanadi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchi foydasini narxni o'zgartirish hisobiga emas, balki yalpi daromad bilan yalpi ishlab chiqarish harajatlari o'rtasidagi farqni ko'paytirish hisobiga oladi.

Mukammal raqobat sharoitida har qanday narx darajasida ishlab chiqaruvchilar ma'lum bir sohaga kiradigan yoki undan tashqariga chiqadigan "tashqi chegara" mavjud, bunda ishlab chiqaruvchi tarmoqqa kiradi yoki undan siqib chiqariladi. Narxlarning ko'tarilishi yangi firmalar paydo bo'lishiga va eskilarining saqlanib qolishiga olib keladi. Narxlarning pasayishi yuqori darajadagi xarajatlarga ega korxonalar foydasiz bo'lib qolishiga va bu sohani tark etishlariga olib keladi.

7.1- rasmda bozorda firma holatining mumkin bo'lgan uchta variantlari ko'rsatilgan. Agar  $P$  narx chizig'i,  $AC$  faqat o'rtacha xarajatlar egri chizig'iga  $M$  nuqtada tegsa (7.1. a-rasm), unda firma o'zining minimal harajatlarini qoplashga qodir.  $M$  nuqta bu holda nol foyda nuqtasi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu holatda korxonalar iqtisodiy foyda ko'rmaydi, ammo doimiy xarajatlarga qo'shiladigan normal foydani esa oladi. Agar o'rtacha xarajatlar narxdan pastroq bo'lsa (7.1. b-rasm), u holda firma ma'lum ishlab chiqarish hajmlari uchun ( $Q_2$  dan  $Q$  gacha) o'rtacha foydadan yuqori foydani, ya'ni qo'shimcha foydani oladi. Nihoyat, agar o'rtacha xarajatlar ishlab chiqarishning har qanday hajmi bozor narxidan yuqori bo'lgan firma esa (7.1.d -rasm) zarar ko'radi va bozorni tark etadi.




**7.1- rasm. Bozorda firma holati**

Ma'lumki, har qanday korxonaning maqsadi foydani ko'paytirish yoki zararni minimallashtirishdir. Qisqa muddatli davrda ushbu maqsadga yerishish uchun me'yoriy daromad (MR) ni me'yoriy xarajat (MC) bilan taqqoslash zarur.

Bunday taqqoslash mumkin bo'lgan narx darajasida maksimal foyda massasiga yerishgan holda firmaning muvozanat nuqtasini yoki uning ishlab chiqarishni to'xtatadigan nuqtasini aniqroq aniqlashimiz mumkin. Shubhasiz, kompaniya ishlab chiqarilgan har bir qo'shimcha mahsulot birligiga qo'shimcha foyda olsa ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi. Boshqacha qilib aytganda, me'yoriy xarajat me'yoriy daromaddan kam bo'lsa ( $MC < MR$ ) firma ishlab chiqarishni kengaytirishi mumkin. Agar me'yoriy xarajatlar me'yoriy daromaddan oshib keta boshlasa ( $MC > MR$ ), firma zarar ko'radi.

7.2- rasmda ishlab chiqarishning ko'payishi bilan me'yoriy xarajatlar egri chizig'i (MC) ko'tarilib, Q ishlab chiqarish hajmiga mos keladigan M nuqtadagi R1 bozor narxiga teng me'yoriy daromadning gorizontol chizig'ini kesib o'tishi ko'rsatilgan.



**7.2 - rasm. Mukammal raqobat sharoitida narx darajasi va ishlab chiqarish hajmining muvozanati**

Ushbu nuqtadan har qanday og'ish korxonaga uchun katta hajmdagi mahsulot hajmi bilan to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'rishga, yoki ishlab chiqarish hajmining pasayishi bilan foyda massasining kamayishi

**natijasida yo'qotishlarga olib keladi.** Shunday qilib, firmaning muvozanat holati quyidagicha shakllantirilishi mumkin:  $MC = MR$ . Foyda olishni istagan har qanday firma ushbu muvozanat sharti bajariladigan ishlab chiqarish hajmini tanlashga intiladi. Mukammal raqobat bozorida me'yoriy daromad har doim narxga teng bo'ladi, shuning uchun firmaning muvozanat holati  $MR = R$  ko'rinishini oladi.

Me'yoriy xarajatlar va me'yoriy daromadlar nisbati tadbirkorni ishlab chiqarishni optimal hajmiga yerishilganmi yoki foydani oshib borishini kutish mumkinligi to'g'risida tadbirkorga xabar (signal) beradigan tizimining bir turi. Shunday qilib biz mukammal raqobat sharoitida narx va ishlab chiqarish xajmining shakllanishini ko'rib chiqdik.

#### **7.4 Monopoliya sharoitida narx va ishlab chiqarish hajmini shakllanishi**

**Monopoliya** (ya'ni, grekcha «monoc» - yagona, bitta va «poleo» - sotaman) atamasini ikki ma'noda tushunish mumkin:

1. Iqtisodiyotni biron-bir sohasida tanho hukumronlik ;
2. Tadbirkorlar o'rtasida tuzilgan uyushma, birlashma.

Haqiqatda, bozorda o'rnini bosuvchi bo'lmagan yagona tovar ishlab chiqaruvchisi bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatni topish deyarli mumkin emas, agar shunday bo'lsa, unda mahsulotlarga talab egri chizig'i mutlaqo noelastik bo'lgan kompaniya'ni topish mumkin emas. Binobarin, "monopoliya" va undan ham ko'proq "sof monopoliya" atamasidan foydalanishda doimo ma'lum darajada shartlilik mavjud.


Mukammal raqobat va sof monopoliya - bu ikki qutbli bozor holatini, ikkita mantiqiy chegarani ifodalovchi nazariy mavhumliklar. Ushbu modellar ushbu holatlarning har birida o'z daromadlarini maksimal darajada oshirishga intilayotgan individual firmaning oqilona xatti-harakatlari uchun shart-sharoitlarni yartishga imkon beradi.

Mukammal bo'lmagan raqobat sharoitida monopolist narx ustidan muayyan hukmronlikka ega bo'ladi. Narx ustidan nazorat qilish miqyosi har xil bo'ladi. Monopolist doimo maksimal foyda keltiradigan narx o'rnatishga harakat qiladi. Barcha turdagi monopol bozorlarda monopoliya narxi bozor narxining asosini tashkil etadi, ya'ni amaliyotda narxlar shu atrofda shakllanadi. Sof monopoliya bozorida bitta sotuvchi noyob mahsulotlarni taklif etganligi sababli xaridorning tanlash imkoniyati bo'lmaydi (7.1-jadval). Bunday holatda u monopoliya o'rnatgan narxni qabul qiladi. Masalan shaharga



elektr enyergiya'ni bitta korxonaga yetkazib beradi. U mahsulotiga narxni o'zi belgilaydi. Iste'molchi esa elektr enyergiya'ni ana shu narxlarda sotib olishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, sof monopoliya sharoitida tarmoqda bitta yirik korxonaga mavjud bo'ladi va mahsulotni sotish hajmini 100% qo'lida jamlaydi. Bu yerda ishlab chiqarish tarmog'i bitta kompaniyadan iborat bo'ladi va mahsulotiga narxni uning o'zi belgilaydi. Bunday tarmoqqa boshqa firmalarning kirib borishi amaliy jihatdan to'silgan bo'ladi. O'zbekistonda sof monopoliyalarga misol sifatida «O'zbekiston havo yo'llari» DAK, «O'zbekiston temir yo'llari» DAK misol qilib ko'rsatish mumkin. Yirik ishlab chiqaruvchilar bozordagi vaziyatni o'zgartirish uchun o'zlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni kamaytirib, tovar taklifini qisqartiradilar. Shu sababli iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham narx barqarorligicha qolaveradi


Mukammal raqobat sharoitida firma faqat ishlab chiqarish hajmini tanlaydi, narx esa bozorda obyektiv ravishda shakllanadi va ishlab chiqaruvchi narxga ta'sir eta olmaydi, monopolist esa nafaqat ishlab chiqarish hajmini aniqlabgina qolmay, balki narxni ham belgilashi mumkin.



**7.3 – rasm. Sof monopoliya sharoitida firmani talabi, me'yoriy va yalpi daromadi**

Demak, narx me'yoriy daromaddan oshib ketadi. Agar mukammal raqobat sharoitida  $R = MR$  bo'lsa, unda monopollashtirilgan bozorida  $P > MR$  bo'ladi. Bunda quydagiga e'tibor qaratish kerak 7.3-rasmda shuni ko'rish mumkin: 1) talab elastik bo'lsa, narxning pasayishi yalpi daromadning ko'payishiga olib keladi; 2) talab elastik bo'lmaganida, narxning pasayishi umumiy

daromadlarning pasayishiga olib keladi. Shuning uchun monopolist talab egri chizig'ining noelastik qismiga to'g'ri keladigan holatdan qochishga harakat qiladi ( talab egri chizig'ining pastki qismi). Monopol korxonada barcha ishlab chiqarishni o'z qo'lida jamlaganligi sababli, korxonaning talab egri chizig'i tarmoqning talab egri chizig'iga to'g'ri keladi. Monopoliya quyidagi tanlov oldida turadi: yuqori narxni saqlab qolish uchun sotish hajmini cheklash yoki sotish hajmini oshirish maqsadida narxni pasaytirish. Narxlarning pasayishi natijasida yo'qotishlar qo'shimcha mahsulotlarni sotishdan olinadigan daromadning oshishiga yo'l qo'ymaslik uchun monopolist har safar doimiy ravishda me'yoriy xarajatlar (MR) miqdorini nazorat qilishi kerak. Narx va talab bir xil bo'lgan taqdirda, bu holat monopoliya yuqori raqobatbardosh narxlarga va kam ishlab chiqarish hajmiga ega bo'lishiga olib keladi. Foydani ko'paytirish uchun monopolist **MR = MC bo'lgan sharoitdagi** mahsulot hajmini ishlab chiqaradi. Narx me'yoriy daromaddan oshadi ( $R > MR$ ). Oddiy monopoliya holatida me'yoriy daromad har doim o'z narxidan past bo'ladi.



**7.4-rasm. Sof monopoliya sharoitida narx va ishlab chiqarish hajmini aniqlash**

Talab elastik bo'lsa, me'yoriy daromad qiymatlari ijobiy bo'ladi va umumiy daromad oshadi. Talab elastik bo'lmagan taqdirda, me'yoriy daromad noldan kam bo'ladi va umumiy daromad kamayadi. Talabning bir teng elastligida  $MR = 0$  bo'lsa, jami daromad maksimal darajaga yetadi. Talab elastik bo'lsa, me'yoriy daromad noldan ( $MR > 0$ ) katta bo'ladi va umumiy daromad oshadi. Talab elastik bo'lmagan taqdirda, me'yoriy daromad noldan kam bo'lsa ( $MR < 0$ ), jami daromad kamayadi. Me'yoriy daromad barcha ishlab chiqarish darajalarida narxdan kam bo'ladi  $MR < P$ . Narx va me'yoriy

daromad o'rtasidagi farq firma ma'lum bir davrda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarni bir xil narxda sotganligi sababli paydo bo'ladi. Shunday qilib monopolist  $MC = MR$  darajasida,  $MR < P$  darajasida foydasini maksimallashtiradi. Tarmoqa qo'shimcha ishlab chiqarish resurslarini kiritish imkonsiz bo'lganligi sababli, monopolist uzoq muddatda foyda ko'radi. Firmaning uzoq muddatli foydasini maksimal darajaga ko'taradigan narx qisqa muddatli foydani oshiradigan narxdan past bo'ladi. Buning sababi shundaki, har qanday mahsulotga bo'lgan talab uzoq muddatli vaqt oralig'ida elastikligi qisqa muddatli davrdagiga nisbatan baland bo'ladi.

**Monopoliya'ning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko'ra** tabiiy va sun'iy monopoliyalar farqlanadi.

Tabiiy monopoliya mulkchilik huquqi yoki davlat litsenziyalariga emas, balki tabiat qonunlarini aks ettiruvchi texnologiyalarni o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. **Tabiiy monopoliyalar – iqtisodiy faoliyatning texnikaviy va texnologik xususiyatlarini taqozo qilib, ular raqobatni q'llash mumkin bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan sohalarni o'z ichiga oladi (suv, enyergiya, gaz ta'minoti korxonalari, temir yul transporti, telekommunikatsiya)**

Tabiiy monopoliya tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar iste'molini boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirib bo'lmaydi.

Tabiiy monopoliya raqiblarning kirib kelishiga to'siqlar, davlat imtiyozlari yoki axborotni cheklash natijasida mavjud bo'lishi mumkin. Tabiiy monopoliyalar ishlab chiqarish ko'lamlaridan samaradorlikni oshib borishi, ya'ni ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi bilan tovar birligiga to'g'ri keluvchi xo'jalik harajatlarning ahamiyatli darajada pasayib borishida namoyon bo'ladi. Bularning ishlab chiqarish harajatlari sof raqobat yoki oligopoliyaga nisbatan past bo'ladi.

**Iqtisodiy (sun'iy) monopoliyalar – ishlab chiqarish va kapitalning to'planishi hamda korxonalarining turli yo'llar bilan birlashishi natijasida vujudga keladi.**

Bozorga yangi raqiblarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun turli to'siqlar hosil qilish, eng yuksak darajadagi texnologiyalarga ega bo'lib, qolgan raqiblarini bu darajaga chiqishiga imkon byermaslik, nisbatan yirik hajmdagi kapitalni qo'llash orqali ishlab chiqarish miqyosi samarasidan unumliroq foydalanish va shu kabi yo'llar orqali sun'iy monopoliya o'z manfaatlari yo'lida bozor muhiti tuzilishiga ta'sir etib, uni ataylab o'zgartiradi. Sun'iy

monopoliyalar kartel, sindikat, trest, konsorsium, konsyern kabi aniq shakllarda namoyon bo‘ladi.

**Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko‘p bo‘lib, ular tovar yoki xizmatlarining yagona iste‘molchisi yoki xaridori mavjud bo‘lgan sharoitdagi yakkahukmronlik holati hisoblanadi.**

Bunga «O‘zDEUavto» korxonasi yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur yirik korxonada mamlakatimizdagi yengil avtomobillarni ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan ko‘plab ehtiyot va butlovchi qismlarni ularning nisbatan mayda ishlab chiqaruvchilaridan sotib olishda yakka hukmronlik mavqeiga ega bo‘ladi.

Monopoliyalarning iqtisodiyotda tutgan o‘rni ziddiyatlikdir. Monopoliya o‘zining afzalliklari va kamchiliklariga ega.

**Monopoliya’ning afzalliklariga** quyidagilar kiradi:

- monopoliya mavjud bo‘lganda, ishlab chiqarish harajatlari kamayadi va resurslardan ancha tejamli foydalaniladi;

- iqtisodiy inqirozda monopoliyalar ishlab chiqarishning pasayishini jilovlab turishga va bandlik darajasini saqlab turishga yordam beradi. Chunki, monopolistik uyushmalar davrida oddiy kompaniyalarga qaraganda ko‘proq vaqt inqirozga dosh beradilar va ularga nisbatan vaqtliroq inqirozdan chiqishni boshlaydilar;

- monopoliyalar yetarli darajada pul mablag‘lariga ega bo‘lganligi sababli, ular ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtiradilar, bu esa monopoliyalarga innovatsion texnika va texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga tatbiq etishga imkon beradi.

- sifatli tovarlarni ishlab chiqarish. Ba’zida monopoliyalar sifatli tovarlarni ishlab chiqaradilar, shu tufayli ular bozorda ustun mavqega ega bo‘ladilar;

- monopoliya ishlab chiqarishining katta ko‘lami ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirishga va resurslarni iqtisod qilishga imkon beradi, bu esa pirovar natijada ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Afsuski, **monopoliya’ning salbiy tomonlari** ham mavjud:

- bozorda o‘zlarini mutloq mavqega ega bo‘lgan monopoliyalar mahsulot ishlab chiqarishni cheklaydilar va yuqori narxni belgilaydilar. Darhaqiqat, monopol kompaniya’ning o‘zi ma’lum bir mahsulot narxini o‘zi belgilaganligi sababli, u narxni sezilarli darajada oshirishi, nafaqat matyeriallarga harajatlarini to‘lashi, balki uning sof foydasini ham bir necha bor oshirishi mumkin, ayni paytda xaridorlar oshirilgan narxda tovarlarni sotib

olishga majbur bo'lishadi, chunki ular boshqa imkoniyatga ega emaslar. Natijada narxni oshirib yuborish oqibatida aholi turmush darajasi pasayadi.

- raqobat yo'qligi sababli ilmiy-texnik taraqqiyotning to'silishi. Albatta, ilmiy texnik taraqqiyotning sekinlashishi mumkinligining sababi monopolistlar raqobatchilar tomonidan bosimni sezmasliklari tufayli, ular zo'riqmasdan juda katta foyda olishlari mumkinligidadir. Bunga esa ularning bozordagi hukmronligi imkon beradi, bu holat esa o'z navbatida monopolistlarga o'z bizneslarini takomillashtirish, rivojlantirish, ishlab chiqarish o'sishi imkoniyatlarini izlash, ishlab chiqarish turlarini ko'paytirishga rag'batlantirmaydi.

- iqtisodiy mexanizmni ma'muriy diktatura shakli bilan almashtirish, tovarlar sifatining pasayishi. Albatta, monopolist o'z mablag'larini tovarlar sifatidan tejashga qodir.

- monopol kompaniya mahsulotga bo'lgan talabni oshirish yoki oshirilgan narxlarni iste'molchilar oldida oqlash uchun kichik hajmda mahsulot ishlab chiqarishadi. Shu tarzda, monopolistlar mahsulotni noyobroq qiladi.

- raqobat yo'qligi sababli, baribir ishlab chiqarilayotgan mahsulotga talab katta bo'ladi, shu sababli monopolist o'ziga mos keladigan rivojlanish bosqichida to'xtab qolishi mumkin, ya'ni rivojlanish sekinlashishi yoki to'xtab qolishi mumkin.

- yangi kompaniyalarning bozorga kirishi qiyinligi. Monopolistning bozorda mavjud bo'lgan to'siqlari tufayli bu sohada yangi kelganlar juda qiyin vaqtga duch kelishmoqda.

- shaxsiy manfaatlar uchun ishlash istagi. Albatta, monopolist har qanday usul bilan o'z foydasini maksimal darajada oshirishga intiladi. Ba'zan monopolistlar o'zlarining mahsulotlarining past sifatidan norozi bo'lgan iste'molchilarga ham ahamiyat bermaydilar

## **7.5 Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati.**

Monopolistik birlashmalarning ikki yoqlama xarakterini inobatga olgan holda rivojlangan mamlakatlarda hukumatlar raqobatni qo'llab quvvatlab va rivojlantirish yo'li bilan monopolizmga ta'sir etishga harakat qiladi. Shunga ko'ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu **monopoliyaga qarshi siyosat** deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi

siyosati asosini **monopoliyaga qarshi qonunchilik** tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo‘ladi.

**Monopoliyaga qarshi tartibga solish** – bu iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan, u yoki bu ishlab chiqarish turlarini ayrim ishlab chiqaruvchilar tomonidan monopolizatsiya qilishni bartaraf etishga qaratilgan davlatning faoliyati.

**Monopoliyaga qarshi qonunchilik** - monopoliyalarni cheklash va taqiqlashga, monopol tuzilmalar va uyushmalar, monopolistik harakatlarning oldini olishga qaratilgan raqobatni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi qonunlar va boshqa davlat hujjatlari.

Bunday qonunlarga AQSHda 1890 yilda qabul qilingan Shyerman qonuni, 1914 yilda qabul qilingan Kleyton qonuni va 1936 yilda qabul qilingan Robinson-Petmen qonunlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Odatda monopoliyaga qarshi qonunchilik nisbatan ilgariroq va mukammalroq ishlab chiqilgan, deb hisoblanadi. U quyidagi uchta qonunchilik hujjatlariga asoslanadi:

**Shyerman qonuni** savdoni yashirin monopollashtirish, u yoki bu tarmoqdagi yakka nazoratni qo‘lga olish, narxlar bo‘yicha kelishuvlarni taqiqlaydi.

**Kleyton qonuni** mahsulot sotish sohasidagi cheklovchi faoliyatlarni, narx bo‘yicha kamsitish, ma’lum ko‘rinishdagi birlashib ketishlar, o‘zaro bog‘lanib ketuvchi direktoratlar va boshqalarni taqiqlaydi.

**Robinson-Petmen** qonuni savdo sohasidagi cheklovchi faoliyatlar, «narxlar qaychisi», narx bo‘yicha kamsitishlar va boshqalarni taqiqlaydi.

1950 yilda Kleyton qonuniga **Sellyer-Kefovyer tuzatishi** kiritildi. Unda noqonuniy birlashib ketishlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, aktivlarni sotib olish orqali birlashib ketish taqiqlandi. Agar Kleyton qonuni yirik firmalarning gorizontal ravishdagi birlashib ketishlariga to‘siq qo‘ygan bo‘lsa, Sellyer-Kefovyer tuzatishi vertikal ravishdagi birlashib ketishlarga cheklov kiritdi.

O‘zbekistonda hozirgi davrda antimonopol siyosatining xuquqiy asosini 2012 yilning 7 yanvaridan kuchga kirgan “Raqobat to‘g‘risida”gi yangi Qonun tashkil qiladi. Xuddi shu kundan boshlab O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni o‘z kuchini yo‘qotdi. Yangi Qonunning o‘ziga xos yangi jihati moliya bozorlarida monopollashish, raqobatning cheklanishi va ustunlik mavqeini suiiste’mol qilish holatlariga

barham berib, sogʻlom raqobat muhiti yuzaga kelishini taʼminlaydi, yaʼni umuman olganda tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Amaliy jihatdan ushbu tartibga solishni Oʻzbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qoʻmitasi amalga oshiradi. Quyidagilar Monopoliyaga qarshi kurashish qoʻmitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini taʼminlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- tovar va moliya bozorlarida raqobat muhiti holatini tizimli tahlil qilish, xoʻjalik yurituvchi subyektlarning ustun mavqeni suisteʼmol qilishi, «kartel» kelishuvlari va til birlashtirish, insofsiz raqobatni aniqlash va ularga chek qoʻyish;

- savdolar, iqtisodiy konsentratsiya va davlat koʻmagini monopoliyaga qarshi tartibga solish;

- bozor ishtirokchilariga yuqori likvidli, shu jumladan, tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlardan (ishlar, xizmatlardan) foydalanishda teng shart-sharoitlarni taʼminlash;

- qonun hujjatlarining raqobatga taʼsirini baholash, davlat organlarining raqobatni cheklovchi qarorlar qabul qilishiga va shunday harakatlarni amalga oshirishiga yoʻl qoʻymaslik.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Mukammal raqobat uchun xos boʻlgan belgilar toʻgʻrisida gapirib bering.
2. Mukammal raqobatning afzaliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. Mukammal bozor mexanizmi va uning elementlarini yoritib bering.
4. Mukammal raqobat bozorida narx darajasi va ishlab chiqarish hajmi shakllanishining oʻziga xosligi qaysi holatlarda namoyon boʻladi ?
5. Monopoliya yoki sof monopoliya bozor tuzilmasining belgilari toʻgʻrisida gapirib bering.
6. Sof monopoliya sharoitida narx va ishlab chiqarish hajmi qanday aniqlanadi?
7. Monopoliyaʼning vujudga kelishi ga qarab qanday monopoliyalar farqlanadi?
8. Monopoliyalarning afzaliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
9. Antimonopol qonunchilik nima uchun kerak?

10. O‘zbekistonda monopoliyalarga qarshi qonunchilikning asosini tashkil qiluvchi qonunlar to‘g‘risida gapirib bering.

## **8. MONOPOLISTIK RAQOBAT VA OLIGOPOLIYA**

### **8.1 Monopolistik raqobat, uning belgilari.**

#### **Monopolistik birlashmalar shakllari**

**Monopol raqobat - bu mukammal bo‘lmagan raqobat bozor tuzilmasining bir turi bo‘lib, unda ayni bir xil bo‘lmasa-da, o‘xshash (tabaqalashtirilgan) tovarlarni xaridorga taklif qiladigan bozor hokimligiga ega bo‘lgan mahsulot sotuvchilari o‘zaro raqobatlashadi.** Bu keng tarqalgan bozor turi bo‘lib, mukammal raqobatga eng yaqin bozor tuzilmasi. Monopolistik raqobatda, har bir firma mahsulotni tabaqalashtirish sharoitida o‘z mahsuloti ustidan bir qadar monopol hukmronlikga ega ya’ni raqobatchilarning harakatlaridan qat’i nazar, u narxni ko‘tarishi yoki tushirishi mumkin. Biroq, bu hukmronlik shu kabi tovarlarni ishlab chiqaruvchilarning yetarlicha ko‘pligi va boshqa firmalar tomonidan tarmoqqa kirish yerkinligi bilan cheklangan. Masalan, Reebok krossovkalarining "muxlislari" o‘z mahsulotlari uchun boshqa firmalarning mahsulotlariga qaraganda ko‘proq pul to‘lashga tayyor, ammo agar narxlar farqi juda katta bo‘lsa, xaridor har doim bozorda unchalik taniqli bo‘lmagan firmalarning arzonroq narxdagi mahsulotlarini sotib olishi mumkin. **Monopolistik raqobat bozori quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:**

- bozor ko‘p sonli mustaqil firmalar (ishlab chiqaruvchilar) va xaridorlardan iborat, ammo mukammal raqobatdagidan ko‘p emas. Aynan ishlab chiqaruvchilarning uncha ko‘p emasligi monopolistik raqobatni mukammal raqobatdan ajratib turadigan xususiyatlardan biridir;

- monopolistik bozorga firmalarning kirib borishi osonroq, biroq to‘siqlar umuman yo‘q degani emas. Avvalo, tarmoqqa kirish uchun yetarli miqdorda kapital bo‘lishi kerak. Undan tashqari firmani ro‘yxatga olish, patent va litsenziyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq muammolar mavjud;

- uzoq muddatli davrda bozorda omon qolish uchun monopolistik firma raqobatlashayotgan firmalar tomonidan taqdim etiladigan mahsulotlardan farq qiladigan turli xil, mahsulotlarni ishlab chiqarishi kerak. Ya’ni tabaqalashtirilgan mahsulotlarni bozorga taqdim etishi lozim;



- sotuvchilar va xaridorlarning bozor konyunkturasi to'g'risida to'liq xabardorligi;

- nisbatan kuchliroq bo'lgan narxdan tashqari raqobat usuli. Mahsulot reklamasi rivojlanish uchun muhimdir.

**Mahsulotni tabaqalashtirish monopolistik bozor tuzilmasiga xosdir.**

Mahsulotni tabaqalashtirish tarmoqda o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha bir xil bo'lmagan, ammo bir biriga yaqin tovarlarni, ya'ni mukammal o'rnini bosuvchi bo'lmagan tovarlarni ishlab chiqaradigan bir guruh sotuvchilar (ishlab chiqaruvchilar) mavjudligini nazarda tutadi. **Tabaqalashtirilgan tovar - bu turli xil korxonalar tomonidan taklif qilinadigan va xaridorlar tomonidan har bir sotuvchidan bir- biridan farq qiluvchi mahsulot deb qabul qilinadigan tovar. Tabaqalashtirilgan tovar o'zining sifati, sotilishi yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar, sotish shart-sharoitlari bilan farq qiladi.** Tabaqallashtirilgan tovarlarning aksariyati firma mahsulotlardir. Brendli mahsulot deganda ma'lum miqdordagi va qadoqlashda ma'lum nom ostida sotiladigan, ma'lum sifatga ega bo'lgan tabaqalashtirilgan mahsulot tushuniladi. Brendli tovarlarga Reebok krossovkalari, Mercedes 600 markali avtomashinani misol qilishimiz mumkin.

**Mahsulotning o'z vyersiyasini yaratish orqali har bir firma o'ziga xos cheklangan monopoliyaga ega bo'ladi,** ya'ni firma ushbu tovarning yagona ishlab chiqaruvchisiga aylanadi, biroq ushbu mahsulotga yaqin tovarlar boshqa firmalar tomonidan bozorga taklif etiladi. Mahsulotlarning tabaqalashtirish bozor narxlariga cheklangan ta'sir o'tkazish imkoniyatini yaratadi, chunki ko'plab iste'molchilar ma'lum bir firma mahsulotiga sodiq bo'lib, narxlarning biroz oshganiga qaramasdan ushbu tovarlarni sotib oladi. Biroq, bu ta'sir raqobatdosh firmalar mahsulotlarining o'xshashligi tufayli nisbatan kichik bo'ladi. Monopolistik raqobatchilar mahsulotlari o'rtasidagi talabning o'zaro moslashuvchanligi ancha yuqori. Talab egri chizig'i biroz salbiy nishabga ega (mukammal raqobatdagi gorizontal talab egri chizig'idan farqli o'laroq) va shuningdek, talabning narx bo'yicha yuqori elastligi bilan ajralib turadi.

Monopolistik raqobat bozori nisbatan ochiq bo'lganligi sababli unga yangi firmalar o'z mahsulotlari bilan kirib keladilar, natijada raqobat ko'lamlari kengayadi. Ammo monopoliyalarning borligi mahsulotning ishlab chiqarish hajmini ko'paytirmay turib narxni oshirish hisobiga ham foyda olishga imkon beradi. Buning natijasida ishlab chiqarish oldida to'siqlar paydo bo'lib, raqobat ma'lum darajada cheklanadi. Monopolistik raqobat bozorida yangi

sifatliroq tovarlarni ishlab chiqarib, bozorga taklif etish raqobat kurashining asosiy usuli hisoblanadi. Bozorning bu turida yangi mahsulotga yetarli darajada iste'molchilarning talabini shakllantirish maqsadida reklama, savdo markalaridan foydalaniladi.

Tarixiy jihatdan monopoliyalar kapitalning to'planishi va markazlashuvi natijasida vujudga kelgan. **Ishlab chiqarishning to'planuvi** ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to'planishini namoyon etadi. **Kapitalning markazlashuvi** esa bir kapital tomonidan boshqa birining qo'shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o'sishidir. Biroq monopoliyalar fan texnika taraqqiyoti, davlatning ayrim faoliyat sohaslarini qo'llab-quvvatlash, o'zaro kelishish orqali vujudga kelishi mumkin.

**Monopolistik birlashma deganda bozorda yetakchi o'rinni egallagan va yuqori daromad oladigan yirik kompaniyalar, korxonalar, shyerikliklar, firmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subektlarni tashkil etish tushuniladi.**

Monopoliya'ning o'ziga xos xususiyati shundaki, u bozor narxlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega. Uyushmalar uning ishtirokchilari o'rtasida yozma yoki og'zaki shartnomalar tuzish yo'li bilan tuziladi.

Monopoliyalar ijtimoiy takror ishlab chiqarishning barcha sohaslarini qamrab oladi: to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol. Muomala sohasini monopollashtirish asosida monopolistik birlashmalarning eng oddiy shakllari - kartellar va sindikatlar paydo bo'lgan.

**Kartel** –ishlab chiqarishning bitta tarmog'iga mansub bir necha korxonalarining monopol uyushmasi bo'lib, uning ishtirokchilari ishlab chiqarish vositalari va mahsulotlariga o'z mulkiy egaligini saqlab qoladi, yaratilgan mahsulotlarni sotish esa kvota, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmidagi har bir ishtirokchining ulushi, sotish narxlari, bozorlarning bo'lib olinishi bo'yicha kelishib bitim tuzadilar.

**Sindikat** – bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonalarining birlashmasi. Bunda ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik birlashma ishtirokchilarining o'zida saqlanib qolgani holda, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot maxsus tashkil etilgan yagona sotish tashkiloti (savdo kontoralari) orqali amalga oshiriladi. Monopolistik birlashmalarning

yanada murakkab shakllari monopollashtirish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish sohasiga kirganda paydo bo'ladi. Shu asosda monopol birlashmalarning trest, konsyern kabi shakllari vujudga keldi.

**Trest** – bir tarmoqda ishlab chiqarish vositalari va tayyor mahsulotga birgalikdagi mulkiy egalikni ta'minlovchi ishlab chiqaruvchilarning yuridik shaxs ko'rinishidagi birlashmasi.

**Konsyern** – rasmiy jihatdan mustaqil bo'lgan, ko'p tarmoqli korxonalar (sanoat, savdo, transport va bank kabi turli soha korxonalari) ning majmuini o'z ichiga oluvchi birlashma.

**Konsorsium** – tadbirkorlarning yirik moliyaviy operatsiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida ma'lum bir davrga birlashuvi (masalan, yirik miqyosli loyihalarga juda katta miqdorda va uzoq muddatli kredit byerish yoki investitsiyalar qo'yish).

XX asrning 60-yillarida AQSH va ba'zi rivojlangan mamlakatlarda konglomeratlar paydo bo'ldi. **Konglomerat** - ishlab chiqarish va texnik birligi bo'lmagan turli xil korxonalarni o'ziga qo'shish natijasida hosil bo'lgan monopolistik birlashma.

**Moliyaviy guruh** - bu bank tashkilotlari tomonidan boshqariladigan uyushma. Ushbu uyushma guruh a'zolari mablag'larini tasarruf qiladi, ularni faoliyatini boshqaradi va muvofiqlashtiradi.



## 8.2. Monopolistik raqobat sharoitida narx va ishlab chiqarish hajmini aniqlash


Shuni ta'kidlash kerakki, "me'yoriy xarajatlar me'yoriy daromadlarga teng" ( $MC=MR$ ) qoidasi univyersal va barcha bozor modellari uchun amal qiladi. Monopolistik raqobatda maksimal foyda miqdorini aniqlash uchun yalpi daromad va yalpi xarajatlar orasidagi farq maksimal yoki me'yoriy daromad va me'yoriy xarajatlar o'rtasidagi farq nolga teng sharoitdagi ishlab chiqarish hajmini aniqlash kerak. Firma har doim ushbu ko'rsatkichlarni bir biriga taqqoslaydi. Ularning orasidagi farq ijobiy ekan, firma ishlab chiqarishni kengaytiradi, biroq shu bilan birga narxlarni pasaytiradi. Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan foyda kamayadi, ammo mahsulot sotishning ko'payishi tufayli yalpi daromad miqdori ko'payadi. Ishlab chiqaruvchi me'yoriy daromad me'yoriy xarajatga ( $MC=MR$ ) teng bo'lgunga qadar o'z foydasini oshirish uchun narxni pasaytiradi. Aynan shu holatda foyda miqdori maksimal bo'ladi.

Ushbu hajmda odatda o'rtacha xarajatlar minimal darajaga yetmaydi va narx o'rtacha xarajatlardan yuqori bo'ladi.

Qisqa muddatda monopol raqobatchi firma foyda yoki zarar ko'rishini mumkin. Agar o'rtacha umumiy xarajatlar narxdan past bo'lsa ( $AS > P$ ), u holda firma foyda oladi (8.1 -rasm, a), agar o'rtacha umumiy xarajatlar narxga teng bo'lsa ( $AS = P$ ), unda firma harajatlarini qoplaydi (8.1.- rasm, b). Agar o'rtacha umumiy xarajatlar narxdan katta bo'lsa ( $AS < P$ ), u holda firma zarar ko'radi. Monopolistik raqobat sharoitidagi talab egri chizig'iga kelsak, u sof monopolistikiga qaraganda ancha elastikroq, chunki u o'zaro to'ldiruvchi tovarlarni ishlab chiqaruvchi ko'plab raqobatchilarga duch keladi.

Yalpi daromad va yalpi xarajatlar o'rtasidagi farq noldan katta bo'lsa, firma talab egri chizig'i ushbu oralig'ida bo'ladi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, monopolistik raqobatchining grafik tasviri monopolistik firma (sof monopoliya) holatiga o'xshashdir. Axir bozorga mahsulotning yangi turi bilan kirib borib ishlab chiqaruvchi bozorni ma'lum bir qismini egallaydi. Ishlab chiqaruvchi tabaqalashtirilgan mahsuloti doirasida monopolistik hisoblanadi, ammo butun tarmoq doirasida - raqib. Aynan monopolistik raqobat bozori modelini yuqori raqobatbardoshligi va monopolistik xatti - harakatlarning juda tor imkoniyatlari qisqa muddatli davrda firma tomonidan ustama foyda olishni cheklaydi. Shuning uchun mahsulotning tabaqalashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan monopolistik raqobatchi uzoq muddatli davrda ustama foyda olmaydi. Uzoq muddatli davrda monopolistik bozorda ishlab chiqaruvchilar normal foydani oladilar, ya'ni beziyon ishlaydilar. Qisqa muddatda foyda olish sohaga yangi raqobatchilarni jalb qiladi, chunki sohaga kirish nisbatan oson. Bozorda ko'p sonli ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishi talab egri chizig'ini pastga siljitadi va yanada elastikroq bo'ladi, chunki bozorda sotilayotgan tovarlarga yaqin, o'rnini bosadigan tovarlarni soni ko'payadi, buning natijasida iqtisodiy foydaning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi.





d)

### 8.1.- rasm. Monopolistik raqobat bozorida narx, mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiy foydani hisoblash.

Ushbu hajmdan har qanday og‘ish o‘rtacha xarajatlari narxlarning oshishiga olib keladi, bu esa narxni ko‘taradi va firmani zarar ko‘rishiga olib keladi. Iqtisodiy foydaning yo‘q bo‘lib ketishi boshqa firmalarning ushbu sohaga kirib kelishini rag‘batlantirmaydi. Zarar ko‘rgan taqdirda uzoq muddatda firmalarning tarmoqdan chiqib ketishi kuzatiladi, buning hisobiga omon qolgan firmalar zarar o‘rniga normal foyda olishadi.

Nima uchun monopol raqobatchiga ustama foyda olish xos emas? Gap shundaki, yuqorida aytib o‘tilganidek, monopolistik raqobatchilar narxlari ustidan nazorati juda cheklangan. Chunki monopolist bir xil mahsulot ishlab chiqaradi. Mahsulotdagi farqlanishning o‘ziga xos xususiyatlarining mavjudligi mahsulotni o‘zgartirmaydi. Masalan, alkogolsiz ichimliklar ta‘mi va rangidan qat’i nazar, alkogolsiz ichimlik bo‘lib qoladi.

Boshqa tomondan, ushbu bozor modeli narxlar yordamida raqobatni o‘z ichiga oladi. Qisqa muddatda narxni pasaytirish bozorni raqobatchilar hisobiga kengaytirish va ustama foyda olishga yordam byerishi mumkin. SHunga qaramay, monopolistik raqobatchida talabning narx bo‘yicha elastikligi yuqori emasligini va sotishni kengaytirish hisobiga ustama foyda olish qiyinligini unutmaslik kerak.

Bundan tashqari, ustama foyda olish imkoniyati me‘yoriy xarajatlarning kamayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu esa o‘z navbatida, yangi texnologiyalarni takomillashtirish yoki joriy etishga bog‘liq. Ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish va ularni amalga oshirish qimmat, uzoq va taxlikali yo‘ldir. Shuning uchun raqobatdagi firmalar narxlar yordamidagi raqobat usuliga - nisbatan narxdan tashqari raqobat usuliga o‘tadilar. Reklama va sotishdan keyingi xizmat, marketing tadqiqotlari va boshqalar - bu narxlarni

oshiradigan, ammo iste'molchiga yo'lni qisqartiradigan narxsiz raqobatning vositalari. Monopolistik raqobat sharoitida reklama quyidagi vazifalarni bajaradi: talabni shakllantiradi va kengaytiradi, shuningdek talabning narx bo'yicha elastligini pasaytiradi, bu esa firmaning narx ustidan nazoratini oshirishga yordam beradi. Reklama ta'siri ostida xaridor narx ko'tarilganda talabini kamaytirmasligi, ba'zan esa kengaytirishi mumkin.

Monopol raqobatchining ustama foyda olishini qiyinlashtiradigan yana bir omil bu sohaga kirish uchun deyarli to'siqlarning yo'qligi. Firma bozorda o'z mavqeini mustahkamlab borib, yangi tovar brendi bilan bozorning boshqa ishtirokchilari ulushini kamaytirish orqali o'z segmentini yaratadi, bu ularning foydasiga muqarrar ravishda ta'sir qiladi. Bundan tashqari, mahsulotning yangi brendini (yangi xususiyati) yaratish tubdan farq qiladigan mahsulotga qaraganda ancha osonroq. Shuning uchun monopolistik raqobat sharoitida bozorda yangi firmalarning paydo bo'lishi oligopol sharoitlariga qaraganda tez-tez uchraydi. Uning qaytarilish tezligi monopolistik raqobatchilar uchun ustama foyda olishning davomiyligini pasaytiradi.

### **8.3 Oligopoliya va uning belgilari. Oligopoliya sharoitida raqobatning o'ziga xos xususiyatlari**

Oligopoliya (grek. «kam sonli» va «sotaman» so'zlaridan olingan) - bu nisbatan kam miqdordagi sotuvchilar ko'plab xaridorlarga xizmat ko'rsatadigan bozor. Oligopoliya ko'pincha tabiiy ravishda paydo bo'ladi, chunki kompaniyalar o'sib boradi va tobora ko'proq raqobatchilarni siqib chiqaradi yoki yutib yuboradi. Vaqt o'tishi bilan ma'lum mahsulotlar va xizmatlarni taklif qiluvchi kompaniyalar soni bir nechta yirik korporatsiyalargacha kamayib bora boshlaydi. Mijozlar, o'z navbatida, mahsulot tanlashda ko'proq taniqli va obro'li brendlarga ishonishadi.

Oligopoliya bozorida raqobatda bir necha yirik firmalar qatnashadi, ular muayan tarmoqdagi mahsulot ishlab chiqarishni va sotishni o'z qo'llarida to'plab oladi. Oligopoliya bozoriga kirish sezilarli darajada qiyinligi sababli firmalar yuqori foyda oladilar. Bozorda faqat bir necha firma harakat qilgani uchun ularning har biri raqibining harakatini ko'z atmog'i zarurdir, narx siyosatga nisbatan o'z harakatini sinchkovlik bilan moslashtirish zarur.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turiga qarab sof va tabaqalashtirilgan oligopoliya farqlanadi. Sof oligopoliya korxonalarini bir turdagi standartlashtirilgan mahsulot ishlab chiqaradi. Bitta funksional vazifani bajaruvchi har xil mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi oligopoliya tabaqalashtirilgan deyiladi, odatda ular iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashadi, masalan avtomobil, elektromaishiy texnika va hokozo. Oligopoliya ishlab chiqarish hajmini cheklaydi, lekin uning narxi sof monopoliya narxidan pastroq, biroq yerkin bozor narxidan yuqori bo'ladi.

Oligopoliya bozoriga kirib borish yo'lida 3 ta jiddiy to'siq mavjud:

- oligopoliya bozoriga kirish va unda o'rtnashib olish uchun katta miqdorda kapital kerak bo'ladi, bu esa ko'pchilikda bo'lmaydi;

- tabiiy resurslar ayrim yirik kompaniyalar qo'lida mulk sifatida to'planib qolganidan, ular o'zgalarga nasib etmaydi;

- ilmiy texnikaviy innovatsiyalar ayrim yirik kompaniyalar monopoliyasiga aylanib qoladi, natijada ulardan boshqalarning bahramand bo'lishi qiyin. Masalan, avtomobil kompaniyalar o'zlarining innovatsiyalarini sir saqlab boshqalarga bermaydilar.

**Duopoliya – ikki firma bozorning ustun yoki eksklyuziv nazoratiga ega bo'lgan oligopoliya'ning bir turi.** Ular o'rtasidagi hamkorlik zarurati ikki kompaniya'ni bitim tuzib kartel hosil qilishini bildiradi. Kompaniya kartel kelishuvida tomonlarning har biri qanday hajmda mahsulot ishlab chiqarish va uning narxi ya'ni mahsulotlarni necha puldan sotishini kelishib olishadi. Shunga yerishilganda muvozanat holati hosil bo'ladi. Bunga ko'ra har bir raqobatchi istiqbolda nima qilishini, boshqa raqiblar nima qilishini hisobga olib belgilaydigan vaziyat vujudga kelishi kerak. Duopoliya mahsulotlarini iste'molchilarga raqobatdosh bozorda sotadi, bu yerda individual iste'molchining tanlovi firma ta'sir qilishi mumkin emas. Duopoliya va oligopoliyalarning xarakterli xususiyati shundaki, sotuvchilar tomonidan qabul qilingan qarorlar bir-biriga bog'liqdir.

Duopoliya'ning xususiyatlari:

-bozorda faqat ikkita sotuvchi borligi;

-o'zaro bog'liqlikning mavjudligi: agar firma narxni o'zgartirsa, raqobatda qolish uchun boshqa firma ham narxni o'zgartiradi, ya'ni o'zgarishga moslashishi kerak;

- monopoliya elementlarining mavjudligi: mahsulotlar tabaqalashtirilgan bo'lsa, firmalar biroz monopol hokimlikga ega, chunki har bir mahsulot bir nechta sodiq mijozlarga ega bo'ladi.

Biznesda tez-tez tilga olinadigan duopoliyaga misol bu - elektron to'lovlarni qayta ishlash bozorining muhim qismini nazorat qiladigan Visa i Mastyer Card, alkogolsiz ichimliklar bozorida Coca-Cola i Pepsi.

Oligopoliya turi ko'proq uchta kompaniyadan boshlanadi. Oligopolist- ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda sement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko'mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg'un) va Boysun (To'da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni misol keltirish mumkin.

Oligopoliya bozorida uchta -to'rtta ishlab chiqaruvchi bozorda o'z mavqelarini saqlashga intilish bilan birgalikda o'zaro raqobatlashadilar. Bunda ishlab chiqaruvchilar raqobatni inobatga olib narxni belgilaydilar, shuningdek narx til biriktirish yo'li bilan belgilanishi mumkin.

Shunday qilib, oligopolistik bozorlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- oz sonli firmalar va ko'p sonli xaridorlar. Bu bozor talabi hajmi mahsulotni ko'plab kichik xaridorlarga sotadigan bir nechta yirik firmalarning qo'lida ekanligini anglatadi;

- oligopoliya raqobat obyektini tabaqalashtirilgan yoki standartlashtirilgan mahsulotlar tashkil qiladi va ushbu tovarlar bozorda taklif etiladi;

- ishlab chiqarish hajmi va narxlari bo'yicha oligopolistlarning qarorlari bir-biriga bog'liqdir; oligopoliyalar har narsada bir-birlariga taqlid qilishadi. Shunday qilib, agar bitta oligopolist narxlarni pasaytirsam, unda boshqalar, albatta, undan o'rnak olishadi. Ammo bitta oligopolist narxlarni ko'tarsam, boshqalar undan o'rnak olmasligi mumkin, chunki ularning bozor ulushini yo'qotishlari xavfi bor;

- bozorga kirish uchun sezilarli, jiddiy to'siqlarning mavjudligi;

- sohadagi firmalar o'zaro bog'liqliklarini bilishadi, shuning uchun narxlarni boshqarish, nazorat qilish cheklangan.

- tovarlar (xizmatlar) narxlari masalasida til biriktirish imkoniyatining mavjudligi;

- oligopolistik bozorning bir yoki bir nechta ishtirokchilari nazorati ostida bozor ulushining konsentratsiyasi ularga mahsulot narxiga ta'sir qilish imkoniyatini beradi.

Oligopoliyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:



- **sof oligopoliya** - firmalar bir hil mahsulotlar (sement, po‘lat, neft, gaz) ishlab chiqaradigan holat;

- **tabaqalashtirilgan oligopoliya** - bu kompaniyalar o‘xshash mahsulotlarni ishlab chiqaradigan holat (avtomobillar, samolyotlar, telefonlar, kompyuterlar, sigaretalar, ichimliklar va boshqalar);

- **jamoaviy oligopoliya** - bu firmalar mahsulot narxi yoki ishlab chiqarish hajmini aniqlash uchun bir-birlari bilan hamkorlik qilishidir. Bunday tuzilma o‘zaro kelishuv va bozorni monopollashtirish belgilariga ega. Oligopoliya sharoitida yirik kompaniyalar bir-birlari bilan kuchli raqobatlashadilar, bu esa mahsulot sifatining o‘shishini va umuman ilmiy-texnik taraqqiyotni rag‘batlantiradi, ikkinchi tarafdin, shunga qaramay, bunday raqobat yirik firmalarning ulkan imkoniyatlari bilan birlashganda ma‘lum bir tovar yoki xizmatlar bozorida yangi o‘yinchilar paydo bo‘lishini sezilarli darajada cheklashi mumkin.

#### **8.4 Oligopoliya sharoitida narxlarning shakllanishi.**

##### **Lyernyer koeffitsiyenti.**

Narx siyosati nuqtayi nazaridan raqobatchilar bilan bo‘lgan munosabatlar yetakchi kompaniyalarning bozorga ta‘sirining asosiy omillaridan biridir. Oligopolist kompaniya‘ning hayotida narx siyosati juda katta rol o‘ynaydi. Qoidaga ko‘ra, firma uchun o‘z tovarlari va xizmatlari narxlarini ko‘tarish foydali emas, chunki boshqa firmalar birinchi bo‘lib narx ko‘targan kompaniyaga yergashmasliklari va iste‘molchilar raqib kompaniyaga mijoz, ya‘ni iste‘molchi bo‘lib o‘tib ketishlari ehtimoli katta.


Agar kompaniya o‘z mahsulotlarining narxlarini pasaytirs, u holda xaridorlarni yo‘qotmaslik uchun raqobatchi kompaniyalar odatda narxlarni tushirgan kompaniyaga yergashadilar, ular taklif etayotgan tovarlarning narxlarini pasaytiradilar. Ya‘ni, kompaniya narxlarni tushirganda yoki yangi tovar va xizmatlarni taklif qilsa, raqobatchilar ham unga yergashishlari kerak. Aks holda, ular mijozlarini yo‘qotishlari mumkin.

Shunday qilib, firmalar o‘z mahsulotlariga raqobatchi-yetakchidan yuqori bo‘lmagan narxlarni belgilaydigan oligopolistlar o‘rtasida tez-tez «narxlar urushi» deb ataladigan urushlar sodir bo‘ladi. Shakllangan oligopoliyada hukmron yoki dominant kompaniyalar narxlarni to‘liq nazorat qilish imkoniyatiga ega. Masalan, ko‘plab uyali aloqa kompaniyalari o‘z mahsulotlarining ommabopligi va uni sotib olishga qodir ekanliklari uchun narxlarini sezilarli darajada oshirib yuborishadi.

**Oligopoliyalar sharoitida narx quyidagi yo‘llar bilan shakllanishi mumkin: narxlashning siniq talab egri chizig‘i modeli, maxviy kelishuv, narxlarda peshqadamlik, «xarajat+».** Ushbularning har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

Har bir oligopolist mahsuloti narxining pasayishi raqobatchilarning javobiga sabab bo‘lishini hisobga oladi. Shu sababli, narxni pasaytirish tufayli talabning oshishi barcha firmalar o‘rtasida taqsimlanadi. Mahsulot narxini birinchi bo‘lib tushirgan oligopolist kompaniya o‘sgan talabning faqat bir qismini oladi. Agar o‘sha firma narxni oshirsa, unda boshqa firmalar uning o‘rniga yergashmasligi mumkin va shuning uchun uning mahsulotlariga bo‘lgan talab narxlarining umumiy o‘sishida sodir bo‘lgandan ko‘ra ancha keskin pasayadi. Talab egri chizig‘ining mohiyati oligopolist raqobatchilarining narxlari yetakchi oligopolik kompaniya‘ning narxlariga tenglashadimi yoki oligopolist raqobatchilar tomonidan joriy narxdagi har qanday o‘zgarishlarni inkor etishiga bog‘liq bo‘ladimi? Shubhasiz, raqobatchilar narxlarning ko‘tarilishini e‘tiborsiz qoldiradilar, ammo narxlarning pasayishini kuzatadilar. Shu sababli oligopolist talab egri siniq egri chiziq hisoblanadi. Ushbu siniqlik tarmoq narxini barqaror qiladi. Buni grafikda o‘rib chiqishga harakat qilamiz. (8.2.- rasm.)

Rasmdankorinadiki, dastlab oligopolist firmaning mahsulotiga talab egri chizig‘i  $D_1D_1$  ko‘rinishida bo‘lib,  $R_0$  narx darajasida  $Q$  sotish hajmini ta‘minlar edi. Oligopolist firma o‘z tovari narxini  $P_1$  darajaga pasaytirishi talabni o‘stirib, mahsulot hajmini  $Q_1$  ga qadar oshirishi ko‘zda tutilar edi. Biroq, boshqa oligopolistlarning «yergashish» xatti-harakatini tutishi, ya‘ni ularning ham o‘z tovarlari narxini pasaytirishi natijasida talab egri chizig‘ining «sinishi» ro‘y berib, u endi  $D_1ED_2$  ko‘rinishini oladi. Oqibatda sotish hajmi



## 8.2.-rasm. Oligopolistik bozordagi narxning shakllanishida talab egri chizig'ining «sinishi»

Oldingi  $Q_0$  darajasida qolgani holda tovarning narxi pasayib, oligopolistlar o'z foydalarining ma'lum bir qismini yo'qotadilar. Oligopolist firma o'z tovari narxini  $R_0$  dan  $R_2$  ga oshirgan taqdirda qolgan oligopolistlar «inkor etish» xatti-harakatini qo'llashlari natijasida talab egri chizig'i yana «sinadi». Oldingi  $D_1D_1$  ko'rinishdagi talab egri chizig'i endi  $D_3ED_1$  ko'rinishini oladi. Agar boshqa oligopolistlar ham o'z tovarlari narxini oshirganlarida, mazkur oligopolist firmaning tovariga bo'lgan talab hajmi  $Q_2$  ga qadar qisqarishi lozim bo'lsa, bunday xatti-harakatning amalga oshirilmasligi natijasida bu qisqarish  $Q_3$  ga qadar davom etadi, ya'ni bozordagi sotish hajmini yo'qotish darajasi oshib ketadi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, oligopoliya sharoitida ishlab chiqaruvchilar narxniko'proq o'zaro kelishish orqali belgilashga harakat qiladilar. Oligopoliyalar sharoitida **narxlar «yashirin kelishuv» asosida** o'rnatilishi mumkin. Bunda firmalar narxlarni belgilash, bozorlarni taqsimlash yoki qayta taqsimlash yoki o'zaro raqobatni cheklash uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki yashirin kelishuvlarga yerishganda paydo bo'ladi. Oligopoliya bozorida firmalar ular odatda 3-4 bo'ladilar narxni til biriktirib, kelishilgan holda belgilaydilar. Til biriktirish raqobatga nisbatan kelishuvni afzal bilganida yuz beradi. Bunday bitim kartel bitimi deyiladi. Bunday holda, narx xuddi sof monopoliya sharoitida bo'lgani kabi o'rnatiladi. Go'yo bir nechta bir xil korxonalaridan iborat bo'lib, ular yig'ilib, o'z zonalaridan kelib chiqqan vaziyatni yashirincha muhokama qiladilar va hammaga bir xil narx belgilashga kelishadilar. Yashirin kelishuvning eng keng tarqalgan shakli bu kartel – kompaniyalarning narx va ishlab chiqarish hajmi to'g'risida yozma kelishuv. Talab va xarajatlardagi farqlar, ko'p sonli firmalar, narx chegirmalari yordamida firibgarliklar, iqtisodiy tanazzul va antitrust qonunlar ko'pincha kelishuvga asoslangan oligopoliya uchun to'siq bo'ladi.

**Narxlar bo'yicha peshqadamlik** - bu firmalar o'zlarining narx siyosatini til biriktirmasdan muvofiq lashtirish vositasidir. Masalan AQSHda avtomobil bozorida «Jenyerel motoris» peshqadam narxni o'rnatib «Ford» va «Krayslyer» o'sha narxdan kelib chiqqan holda kompaniyalar o'z narxlarini o'rnatadilar. Bunda sohadagi eng yirik yoki eng samarali firma mahsuloti narxini o'zgartiradi, boshqa firmalar esa bu jarayonni kuzatadilar. Ammo har doim raqobatchilar ushbu o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlamasliklari xavfi mavjud.

Shuning uchun narxlar bo'yicha yetakchi kompaniya quyidagi siyosatga amal qiladi:

1. Narx faqat talab va xarajatlarning sezilarli darajada o'zgargan (ish haqi, soliqlar yoki elektr enyergiyasi narxlarining ko'tarilishi) holatida qo'llaniladi;

2. Yetakchi kompaniya narxlarning qayta ko'rib chiqilishini ochiq e'lon qiladi, ya'ni boshqa firmalar bu haqda oldindan bilishadi;

Oligopoliyalar sharoitida **narxlar «xarajat+» asosida** o'rnatilishi mumkin. Bunday holda, oligopolistik firma mahsulot birligi uchun xarajatlarni odatiy rejalashtirilgan ishlab chiqarish darajasida hisoblab chiqadi. Keyin standart narx talab qilingan miqdordagi foydani standart hajm birligi uchun o'rtacha xarajatlarga qo'shib hisoblab chiqiladi. Ushbu usul tovarlarning tannarxiga ma'lum standart ustamani hisoblashdir. Masalan, tamaki mahsulotlari - 20%, ayollar kostyumlari - 40%, kitoblar - 34% eng katta qo'shimchalar shakar va kofeda kuzatiladi. Ustama shuningdek xarajatlarga, sotish hajmi va tovar aylanmasiga bog'liq. Ushbu narxlash modeli yuzlab turli xil obyektlar uchun talab va xarajat shartlarini aniqlashni qiyinlashtiradigan va enyergiya harajatlari, sug'urta, soliqlar kabi yuzlab mahsulotlar bo'yicha umumiy xarajatlarni to'g'ri taqsimlay olmaydigan ko'p mahsulotli firmalar uchun alohida ahamiyatga ega. Keyinchalik yuqori narxlarni boshqarish bo'yicha menejyerlar raqobat, biznes sharoitlari, uzoq muddatli strategik maqsadlar va boshqa omillarni hisobga olgan holda yuqoriga yoki pastga qarab (odatda kichik) o'zgarishlar kiritib, standart narxdan foydalanadilar. Shuni ta'kidlash kerakki, monopolistning narxga nisbatan kuchi har doim nisbiydir. Agar u ishlab chiqarish harajatlarining pasayishi, ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishi, bozorni qulay narxlarda tovarlarga to'ldirishi bilan birga bo'lsa, unda monopollashtirish jamiyat uchun foyda keltiradi. Ammo, agar siz narxlar ustidan nazoratni ma'lum darajada oshirib yuborsangiz, unda bu talabning pasayishiga, turg'unlikka, ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi, shuning uchun bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi tartibga solish keng qo'llaniladi.

Mukammal raqobatda korxonalar uchun narx me'yoriy xarajatlarga teng ( $P=MC$ ), bozor xokimligiga ega bo'lgan korxonalar uchun narx me'yoriy harajatlaridan **yuqori** ( $P>MC$ ) bo'ladi. Binobarin, narx me'yoriy xarajatlardan oshib ketadigan miqdor monopol (bozor) hokimligi o'lchovi bo'lib xizmat qilishi mumkin. **Lyernyer indeksi** narxning me'yoriy narxdan og'ishini o'lchash uchun ishlatiladi.

Monopol hukmronligi ko'rsatkichi, Lyernyer indeksi ( $L$ ) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$L = \frac{P - MC}{P}$$

Bu yerda: P- monopol narx;

MC- me'yoriy xarajatlar.

Mukammal raqobat sharoitida individual firmaning narxlarga ta'sir qilishqobiliyati nolga teng ( $R = MC$ ), narxning marjinal xarajatlardan nisbiy oshib ketishi ma'lum bir firmada bozor hukmronligi mavjudligini tavsiflaydi.

Koeffitsiyent qiymatlar noldan birgacha bo'ladi. U qanchalik katta bo'lsa, firmaning bozordagi hukmronligi kuchi shunchalik katta bo'ladi. Mukammal raqobat sharoitida narx me'yoriy xarajatlarga tenglashadi va koeffitsiyent nolga teng bo'ladi.

Shuningdek, koeffitsiyent teskari mutanosib qiymat sifatida talabning elastligi orqali hisoblanishi mumkin:

$$L = 1/kd$$

bu yerda: kd- korxonah mahsulotiga narx bo'yicha talab elastligi.

Mukammal raqobat sharoitida kompaniya mahsulotlariga talab mutlaqo elastik bo'ladi. Elastiklik ko'rsatkichi cheksizlikka intiladi, shuning uchun elastiklikning teskari miqdori nolga intiladi. Bu narx me'yoriy xarajatlarga teng ekanligini ko'rsatadi. Mukammal raqobat sharoitida firmalar bir xil mahsulotni sotadilar, bozorning ozgina ulushiga egalik qiladilar va iste'molchilar narxlar to'g'risida barcha ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Narxni me'yoriy harajatlaridan yuqorichegarada o'rnatishga urinish bir zumda xaridorlarning boshqa sotuvchilarga o'tib ketishiga olib keladi. Natijada talab mutlaqo elastik bo'ladi. Keltirilgan formuladan kelib chiqadiki har qanday nomukammal raqobatchining yakka hukmronligi manbalari firma mahsulotlariga talabning elastligini belgilovchi omillar bilan bog'liq. Bunga quyidagilar kiradi:

**1. Firma mahsulotlariga bozor (tarmoq) talabining elastikligi** (sof monopoliya holatida firma mahsulotlariga bozor talabi va firma talablari bir-biriga teng). Firmaning talab elastligi odatda bozor talabining elastligidan katta yoki tengdir. Eslatib o'tamiz, talabning narx bo'yicha elastligiga quyidagi omillar ta'sir etadi: talab qilinadiga tovar yoki xizmatning o'zi qanday bo'lishi, bozorda o'rinbosar tovarlarning mavjudligi, bozorning tavsifi, iste'molchining daromadidagi mahsulotning ulushi, vaqt omili yoki talabning qanday vaqt oraliq'ida o'zgarishi.

**2. Bozordagi firmalar soni.** Bozorda firmalar soni kam bo'lsa, boshqa sharoitlar o'zgarmas bo'lganda individual firmaning narxlarga ta'sir qilish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi. Shu bilan birga, bu nafaqat firmalarning

umumiy soni, balki "asosiy o'yinchilar" deb ataladigan, eng katta bozor ulushiga ega bo'lgan eng ta'sirchanlarning soni muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, agar ikkita yirik kompaniya'ning ulushiga savdo hajmi 90%, qolganlarni ulushi 20 - 10% ni tashkil qilsa, demak, ikkita yirik kompaniya katta monopol hokimiyatiga ega. Bunga bozor (ishlab chiqarish) to'planuvi deyiladi.

3. **Firmalar o'rtasidagi o'zaro harakat.** Firmalar bir-biri bilan qanchalik yaqin aloqada bo'lsa, ularning monopol kuchi shunchalik yuqori bo'ladi. Aksincha, kompaniyalar bir-birlari bilan qanchalik tajovuzkor raqobatlashsalar, ularning bozor narxlariga ta'sir etish qobiliyati shunchalik zaiflashadi. Haddan tashqari holat, narxlar urushi, narxlarni raqobatbardosh darajaga tushirishi mumkin. Bunday sharoitda individual firma bozor ulushini yo'qotmaslik uchun o'z narxini ko'tarishdan qo'rqadi va shu bilan minimal monopol hokimiyatga ega bo'ladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Monopolistik raqobat bozori qanday xususiyatlarga ega?
2. Tabaqalashtirilgan mahsulot deganda nimani tushunasiz?
3. Monopolistik raqobat bozorida raqobatning qanday usullari qo'llanadi?
4. Monopolistik birlashmalarning shakllari bir- biridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
5. Monopolistik raqobat sharoitida narxlar shakllanishining o'ziga hosligi qaysi holatlarda namoyon bo'ladi?
6. Oligopoliya bozori boshqa bozor tuzilmalardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
7. Oligopoliya'ning qanday shakllari mavjud?
8. Duopoliya va uning xususiyatlari to'g'risida gapirib bering.
9. Oligopoliya sharoitida narxni shakllantirishning o'ziga xosligi nimada?
10. Lyerner indeksi nimani o'lchashda foydalaniladi?

## **9. IQTISODIY RESURLARGA NARXLARNING SHAKLLANISHI**

### **9.1 Iqtisodiy resurslarga talabning shakllanish xususiyatlari**

Milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi resurslarning miqdori, ulardan oqilona foydalanishga bog'liq. Ishlab chiqarish omillari bozorida narxlarning shakllanishi milliy iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Chunki narxlar ishlab chiqarilgan mahsulotda har bir insonning ulushini, jamiyatning barcha

a'zolarining daromadlaring va farovonligi darajasini, ya'ni daromadlarning taqsimlanishini aniqlaydi. Shuning uchun iqtisodiyot fanida omil daromadlarning shakllanishi va ularning taqsimlanishi muommosiga alohida e'tibor berib kelinadi. **Omil daromadi – bu ishlab chiqarish omillari: kapital, mehnat, yer va tadbirkorlik qobiliyatidan olingan daromad.**

Ishlab chiqarish omillari (resurs) bozorida ishlab chiqaruvchilar xaridor hisoblanadi. Ana shu jihatdan ishlab chiqarish omillari bozori oddiy inson ehtiyojlarini qondirish uchun tovarlar sotiladigan iste'mol tovarlari bozordan farq qiladi. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan sarflangan xarajatlar, resurs egalari ya'ni uy xo'jaliklari uchun daromad hisoblanadi. Mikroiqtisodiy jihatdan daromad deganda, shaxsning resurslariga mos qo'liga kelib tushgan pul summasi tushuniladi.

Bozor iqtisodiyotida xarajatlar va daromadlarning doiraviy aylanishida resurs bozori muhim rol o'ynaydi. Talab va taklifning o'zaro ta'siri orqali resurs bozorlari jamiyat ixtiyoridagi cheklangan resurslarning individual iste'molchilar o'rtasida taqsimlanishini tartibga soladi. Resurs bozorlarida bir tarafdin narx shakllanadi, narxning asosini ishlab chiqarish harajatlari tashkil qiladi, ikkinchi tarafdin esa uy xo'jaliklarining daromadlari shakllanadi. Uy xo'jaliklari resurslarni tegishli bozorlariga yetkazib berib (sotib), evaziga o'z daromadlarini oladilar.

**Resurslarga bo'lgan talab korxonalar, ya'ni ishlab chiqaruvchilar tomonidan, taklif esa resurs egalari uy xo'jaliklari tomonidan shakllantiriladi.** Mahsulot ishlab chiqaradigan firma uchun resurslar narxi katta ahamiyatga ega, chunki ishlab chiqarish harajatlari darajasi aynan resurslar narxiga bog'liq.

Ishlab chiqarish omillari bozorining har birida resurs narxi ishlab chiqarish omillariga bo'lgan talab va taklif ta'sirida shakllanadi. Bozorda har bir resurs uchun resurs narxi o'ziga xos xususiyatlarga ega va bular maxsus shaklda namoyon bo'ladi. Jumladan:

- yer - renta
- mehnat narxi - ish haqi;
- ishlab chiqarish kapital narxi - foiz;
- tadbirkorlik qobiliyati- foyda

Shu bilan birga, resurs bozorida narxlarning shakllanishini murakkablashtiradigan o'ziga xos holatlar mavjud:

**1. Resurslar taklifining cheklanganligi.** Resurslarning ko'p turlari takror ishlab chiqarib bo'lmaganligi sababli cheklangandir. Masalan, dunyoda neftga talab katta, ammo uning miqdori juda oz, zaxiralari esa tugamoqda. Xuddi shu holat unumdor yerlarga ham xos. Yuqori malakali ijodiy ishchi ham kam uchraydigan resurs hisoblanadi, bunday ishchilarga talab har doim taklifdan yuqori bo'ladi. Talabga ega iste'mol tovarlarini esa yetkazib berishni har doim ko'paytirish mumkin.

**2. Muayyan resursga bo'lgan talab miqyosiga institutsional omillarning kuchli ta'siri.** Resurslarga bo'lgan talabga ta'sir qiluvchi institutsional omillarga yer bozorini davlat tomonidan tartibga solish kasaba uyushmalari faoliyatini misol qilish mumkin. Ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish uchun yer olish juda qiyin, chunki davlat qishloq xo'jaligi va boshqa yer maydonlaridan foydalanish qoidalarini belgilaydi. Ushbu qoidalar qatoriga yer solig'i kiradi, soliq stavkasini oshirish yerdan foydalanganlik uchun ijara haqini oshiradi. Kasaba uyushmalari ishchilarni yollash va ishdan bo'shatishga qarshi kurashib, ish haqini shakllantirishni murakkablashtiradi. Bu esa mehnat bozorida ishchi kuchi narxining oshishiga olib keladi.

**3. Resurslarga bo'lgan talab hosila talab ekanligi.** Resurslarga bo'lgan talabning hosilaviy xususiyati shundan iboratki, resurslarga bo'lgan talab ana shu resurs yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talab miqdori bilan aniqlanadi. Masalan, dastgohlarga talab shu dastgohlar yordamida ishlab chiqariladigan matoga bo'lgan talabga bog'liq bo'ladi. Agar ma'lum bir mato turiga talab bo'lmasa, u holda ishlab chiqarilgan dastgohlarga talab pasayishini taxmin qilish mumkin.

Resurslarga bo'lgan talab resurslar bozorining muhim jihatidir. Ishlab chiqaruvchilar va firmalar tomonidan taqdim etiladigan resursga bo'lgan talabga bir qator omillar ta'sir etadi, jumladan:

**1. Resurs narxi.** Mukammal raqobat sharoitida resurs narxi tegishli resurs bozorida talab qonuni asosida shakllanadi. Ishlab chiqarish omiliga narx oshsa, unga bo'lgan talab kamayadi, pasayganda esa aksincha oshadi. Ishchi kuchi omilini olaylik, agar mehnat narxi, ya'ni ish haqi stavkasi oshsa, u holda ishchi kuchiga talab kamayadi. Aksincha, ish haqining pasayishi bilan ishchi kuchiga talab oshadi.

**2. Resurs unumdorligi.** Sifatli va unumdorligi yuqori bo'lgan resurs qimmatroq turadi. Yuqori malakali ishchining maoshi past malakali ishchiga qaraganda ko'proq bo'ladi. Hosildor yer egasiga to'lanadigan renta hosildorligi



past bo'lgan yer egasining rentasidan ko'proq bo'ladi. Resurslarning samaradorligi ko'p omillarga bog'liq. Masalan, xodimning mehnat unumdorligi birinchi navbatda uning malakasi, ma'lumot darajasi va tajribasi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, uning mehnat unumdorligi uchun mehnatning texnik jihozlanishi va foydalaniladigan ishlab chiqarish texnologiyasi katta ahamiyatga ega. Texnika va texnologiya qanchalik mukammal va innovatsion bo'lsa, mehnat unumdorligi shuncha yuqori bo'ladi.

**3. Resursdan foydalanib ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxi.** Yer, kapital va mehnat pirovard natijada insonlarga zarur tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun kerak. Demak, ishlab chiqarish omillarga talab va ularning narxi iste'mol talabining hosilasidir. U yoki bu resursga talab uning yordamida ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarga bo'lgan talabga bog'liq

**4. Boshqa resurslarning narxi, ularning bir- birining o'rnini bosishi.** Mahsulotga bo'lgan talab o'rnini bosadigan mahsulotlar narxlariga va bir-birini to'ldiruvchi mahsulotlar narxlariga bog'liq. Xuddi shunday holat resurslar bozorlarida ham mavjud. Aytaylik, ba'zi ishlab chiqarishda mehnat va kapital ma'lum darajada bir-birining o'rnini bosa oladi. Masalan, siz xandaqlarni qo'lda yoki ekskavator bilan qazishingiz mumkin. Agar ekskavatorlar narxi sezilarli darajada pasaysa, unda qo'l mehnatiga talab kamayadi, chunki qo'l mehnati asta-sekin mashina mehnati bilan almashtiriladi.

**5. Resursga talabni shakllantiradigan korxonalar soni.** Sohada ma'lum bir mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar qancha ko'p bo'lsa, ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslarga talab shunchalik yuqori bo'ladi. Chunki yangi korxonalar mahsulotini ishlab chiqarish uchun qo'shimcha hajmda resurslarni talab qiladi.

**6. Resurs iste'molchilarining kutishlari.** Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga kelajakda talabning prognozlarini resurslar narxlarining yaqin orada o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Agar, masalan, Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyatning yomonlashuvi bilan bog'liq holda, neft narxining o'sishi kutilayotgan bo'lsa, unda neftga va neft mahsulotlariga bo'lgan talab oshadi. Tabiiyki, neft iste'molchilari qo'shimcha joriy xaridlarni amalga oshiradilar va neft zaxiralarini ko'paytiradilar.

Raqobat kurashi jarayonida bozorda tovarlarga bo'lgan talab va taklifning o'zgarishi natijasida resurs egalarining daromadlari taqsimlanadi. Masalan bug'doyga bo'lgan talabning oshishi uni yetishtirishni oshirishga bo'lgan

ehtiyojni keltirib chiqadi. Bug‘doyni ekishga yaroqli yerlarga talab o‘sadi, yerning narxi (renta) oshadi.

## 9.2. Mehnat iqtisodiy resurs sifatida. Ish haqi

Mehnat - bu iqtisodiy faoliyat jarayonida odamlar tomonidan qilingan har qanday aqliy va jismoniy harakatlar. Ishchi ishlaydigan vaqt ish kuni yoki ish vaqti deb nomlanadi. Uning davomiyligi ikki omil bilan belgilanadi: birinchidan, odam kuniga 24 soat ishlay olmaydi, u uxlashi, dam olishi, ya’ni o‘zini tiklashi uchun vaqt kerak; ikkinchidan, inson o‘zining ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ham vaqt kerak.

Mehnat haqida gapirganda, mehnat unumdorligi va intensivligi haqida gapirish kerak. **Mehnat unumdorligi - bu ish vaqtining birligiga ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar miqdori yoki mahsulot va xizmatlar birligini yaratish uchun sarflangan ish vaqtidir.** Mehnat unumdorligining doimo o‘sib borishida fan va texnika jarayoni muhim rol o‘ynaydi. Masalan, XX-asr boshlarida konveyerning ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etilishi mehnat unumdorligini keskin oshirdi. XX asrning 50-yillarda konveyerni boshqarish moslamalari bo‘lgan mashinalarga almashtirildi, bu esa yana mehnat unumdorligining keskin oshishini ta’minladi. Ilmiy-texnika inqilobi mehnat tabiatining o‘zgarishiga olib keldi. Malakasiz jismoniy mehnatga nisbatan malakaliy aqliy mehnatning ahamiyati oshdi. Mehnat murakkablashadi, chunki ishlab chiqarishga ko‘plab murakkab mashinalar va mexanizmlar tatbiq etildi. Xodim ana shu uskunalar bilan ishlashga va tashabbus ko‘rsatishga qodir bo‘lishi kerak.

**Mehnat intensivligi – bu mehnat jarayonidagi ishchi kuchining jadallik darajasini tavsiflovchi va xodimning vaqt birligiga sarflagan mehnat miqdori bilan o‘lchanadigan iqtisodiy tushunchadir.** Mehnat intensivligi ish vaqti birligi mobaynida sarflangan mehnat miqdori orqali tavsiflanuvchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

Mehnatning jadallik darajasini aniqlashda ish kunining davomiyligi yoki bir soat vaqt birligi sifatida qabul qilinadi. Mehnat intensivligining oshishi muayyan vaqt davomida ko‘proq qiymat yaratilishiga imkon beradi. Konveyerning tezlashishi, bir vaqtning o‘zida xizmat ko‘rsatiladigan uskunalar sonining ko‘payishi va ish vaqtidagi yo‘qotishlarning kamayishi bilan mehnat intensivligi oshadi.

Ilmiy-texnikaviy inqilob sharoitida ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash ishchilarning jismoniy enyergiyasini iste'mol qilishni kamaytiradi. Yuqori darajadagi intensivlik ish kunini uzaytirish bilan barobardir. «Mehnat intensivligi», “mehnat unumdorligi” tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Optimal intensivlikni aniqlash iqtisodiyotdagi asosiy vazifalardan biridir. Bu maksimal mehnat unumdorligiga yerishishga imkon beradigan optimal intensivlikdir. Haddan tashqari intensivlik va boshqa omillar (shikastlanishlar, kasb kasalliklari va boshqalar) mehnat unumdorligida yo‘qotishlarga olib keladi.


Ish haqining mohiyatini ishchining ixtiyorida bo‘lgan, mehnatning normal takror ishlab chiqarilishini ta’minlaydigan yashash vositalari hajmining pul ifodasi sifatida ta’riflash mumkin. Ish haqi ishchi kuchining narxi hisoblanadi va mehnat bozorida shakllanadi.

**Mehnat bozori- maxsus tovar, ishchi kuchni ayirboshlash xususida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimidir.** Unda ishchi kuchiga bo‘lgan talab, taklif va narx shakllanadi. Ishchi kuchi bozori milliy bozorning tarkibiy qismidir.

Bir tomondan tadbirkorlar - yirik korporatsiyalar, o‘rta va kichik korxonalar va davlat (talab), ikkinchi tomondan esa alohida xodimlar yoki ularning uyushmalari (taklif) **ishchi kuchi bozorining subyektlari** hisoblanadi. Bozori subyektlari o‘rtasidagi kelishuv natijasida shakllanadigan **narx ish haqi stavkasini tashkil qiladi.** Bo‘sh ish joylari soni va band bo‘lmagan ish joylarini qidirib yurgan fuqarolar soni o‘rtasidagi nisbat **ishchi kuchi bozori konyukturasini** tavsiflaydi

Mehnat bozorisiz bozor iqtisodiyotining optimal harakat qilishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Mehnat bozori mehnat resurslarini soha, tarmoq, mintaqa, kasb va mutaxassislar bo‘yicha, talab va taklif qonuniga muvofiq taqsimlash va qayta taqsimlash vazifalarini bajaradi.

**Ishchi kuchi bozorining dinamikasi** ishchi kuchiga bozor talabi va taklifi o‘rtasidagi nisbatga bog‘liqdir. Ish haqi qiymati (**W**) va ishchi kuchiga bo‘lgan talab (**L**) o‘rtasidagi bog‘liqlik grafikda mehnatga bo‘lgan talab egri chizig‘i (**LD**) yordamida ifodalanadi. Grafikda ma’lum miqdordagi ish haqi sharoitida mehnatga bo‘lgan talab qanday bo‘lishini ko‘rsatadi.




**9.1.- rasm. Mehnat bozorida talab egri chizig‘i**

**Ishchi kuchi bozorida ishchi kuchiga bo‘lgan talabga quyidagi omillar ta‘sir etadi:** xodimlar tomonidan ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarga talabning kattaligi; mehnat resurslari narx darajasi, ya‘ni ish haqi darajasi; ishlab chiqarishda mehnatni kapital bilan almashtirish darajasi; iqtisodiy sikl fazasi: jonlanish fazasida mehnatga talab oshadi, inqiroz fazasida esa aksincha kamayadi; shakllangan iqtisodiy konyuktura mehnatga talabni oshiradi yoki kamaytiradi; ilmiy texnik progress bir tarafdin ishlayotgan xodimlarni qisqarishiga zamin yaratadi, ikkinchi tarafdin esa yangi kasb va mutaxassisliklarga ega xodimlar uchun talabni oshiradi.

Mukammal raqobat mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi ish haqi miqdoriga bog‘liq. Taklif egri chizig‘i (**LS**) shuni ko‘rsatadiki, ish haqi oshishi bilan ishchi kuchi taklifi ham oshadi. Ish haqining pasayishi esa ishchi kuchi taklifining pasayishiga olib keladi (9.2.- rasm).


Ishchi kuchi bozorida ishchi kuchi taklifiga quyidagi omillar ta‘sir etadi: aholi sonini aniqlovchi demografik omillar (tug‘ilish, o‘lim, tibbiy o‘shish, yosh–jins tuzilishi); nafaqa yoshi; mehnatga yaroqli aholining migratsiyasi; xodimning kasbiy malakaviy tayyorlanganligi; va ularning ishini o‘zgartirishdagi faolligi; ish kuni davomiyligi; ish haqidan tashqari daromad olish manbaining mavjudligi.



### 9.2- rasm. Mehnat bozorida taklif egri chizig'i


Raqobatdosh mehnat bozoridagi ishchi kuchi taklifi ikkita qiziqarli iqtisodiy hodisa bilan tavsiflanadi. Xo'sh, ishchilarning ma'lum bir guruhiga ish haqi stavkalari oshirish bilan ishchi kuchining taklifida qanday o'zgarishlar ro'y beradi? Javob aniq bo'lib tuyulishi mumkin: ishchi kuchi taklifi ko'payishi kerak, ammo bu yerda o'rnini to'ldirish samarasi va daromad samarasi paydo bo'ladi. Dastlab, ish haqi oshishi bilan xodim tomonidan bo'sh vaqtning har bir soati zararning ko'payishi, aniqrog'i qo'ldan boy byerilgan imkoniyat (naf) sifatida qabul qilinadi. Ushbu boy byerilgan imkoniyatni, bo'sh vaqtni ish vaqtiga aylantirish orqali ro'yobga chiqarish mumkin. Ushbu jarayon o'rnini bosuvchi samara deb ataladi.

O'rnini bosish samarasiga daromad samarasi qarshi turadi. Xodimning moddiy farovonligi ma'lum bir yuqori darajaga yetganda xodimlarning bo'sh vaqtga qarashi o'zgaradi. Endi bo'sh vaqtga boy byerilgan imkoniyat yoki naf emas, balki dam olish imkoniyati sifatida qaraladi. Endi ko'proq tovar sotib olish bilan bir qatorda ko'proq bo'sh vaqtga ega bo'lish xohishi vujudga keladi. Buni esa mehnat taklifini qisqartirish, bo'sh vaqtni naqd pulga emas balki, qo'shimcha ishlaganda olishi mumkin bo'lgan pul daromadiga sotib olish mumkin bo'ladi. Grafikda (9.3.-rasm) xodimlarning bir guruhi ma'lum bir ish haqi darajasida ishlashi mumkin bo'lgan umumiy ish vaqti aks ettirilgan.



### 9.3 – rasm. O‘rnini bosish samarasi.

Oddiy mehnatga bo‘lgan talab egri chiziqidan grafikdagi egri chiziq o‘zining shakli bilan farq qiladi. I nuqttagacha egri chiziq ish haqi oshishi bilan mehnat taklifi oshishini ko‘rsatadi- ordinata chizig‘idan uzoqlashadi (o‘rnini bosish samarasi). I nuqtadan o‘tgandan so‘ng u egilib ordinata chizig‘iga yaqinlashmoqda (daromad samarasi). Demak ish haqining ma‘lum bir darajagacha oshishi mehnat taklifini oshiradi, maksimal darajaga yetgandan so‘ng mehnat taklifi ish haqining oshishi sharoitida kamayib boradi. Endi biz mehnat bozorida muvozanat holatini shakllanishini ko‘rib chiqamiz. Taklif (LD) va talab (LS) egri chizig‘ining kesishgan nuqtasi (E) real ish haqi darajasini ko‘rsatadi. Aynan E nuqtasida ma‘lum bir ish haqi darajasida talab va taklif tengligi kuzatilmoqda. E nuqtasi to‘la bandlikni belgilaydi. Boshqa nuqtalardatalab va taklif tengligi kuzatilmaydi (9.4-rasm ).



### 9.4 - rasm. Mehnat bozorida muvozanat holati.

Ishchi uchun qanday shaklda va qancha miqdorda ish haqi olishi emas, balki unga qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olishi mumkinligi

muhim. Shu sababli nominal va real ish haqi farqlanadi. **Nominal ish haqi bu ma'lum vaqt davomida olingan pul summasi yoki pul shaklidagi ish haqi.**

**Real ish haqi – bu nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori.** Boshqacha aytganda real ish haqi – bu nominal ish haqini «xarid etish» qobiliyati. O'z-o'zidan aniqki, real ish haqi nominal ish haqiga va xarid qilinadigan tovarlar (va xizmatlar) narxiga bog'liq. Shunday ekan, real ish haqi boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda nominal ish haqiga to'g'ri mutanosibdir hamda iste'mol buyumlari va xizmatlar narxining darajasiga teskari mutanosibdir. Bu miqdorlar nisbatini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$V_p = \frac{V_n}{P},$$

bu yerda:  $V_p$  - real ish haqi;

$V_n$  - nominal ish haqi ;

$R$  - iste'mol buyumlari va xizmatlarning narx darajasi.

Nominal ish haqi ishlab topilgan pul daromadi darajasini, real ish haqi esa xodimlarning iste'moli va farovonlik darajasini tavsiflaydi.

Ish haqini tashkil etishda uning ikkita asosiy shakli: vaqtbay va ishbay shakllari farqlanadi. **Vaqtbay ish haqi xodimning malakasi, mehnatining sifati va ishlagan vaqtiga qarab to'lanadigan ish haqidir.** U odatda mehnatning natijalarini aniq hisoblab bo'lmaydigan, balki ular aniq vazifalar doirasini bajarish bilan belgilanadigan vaqtda (masalan, injenyer-texnik xodimlar va xizmatchilar, sozlovchilar, elektromontyorlar va shu kabilarga haq to'lashda) yoki mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonining borishi bilan belgilanadigan va bevosita ishchiga bog'liq bo'lmagan paytlarda (masalan konveyerlar va avtomat liniyalarida ishlash) qo'llaniladi.

**Ishbay ish haqi ishchining ishlab chiqargan mahsulot miqdori va sifati yoki bajargan ishining hajmiga qarab byeriladigan ish haqidir.** Mahsulot birligi uchun to'lanadigan ish haqi miqdori tarif stavkasidagi haqni ishlab chiqarish normasiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Haq to'lash shakllarining aniq mehnat sharoitlarini hisobga oladigan turlari ish haqining tizimini tashkil qiladi. Chunonchi, ishchilarning bir qismiga to'g'ri ishbay tizimi bo'yicha haq to'lanadi. Bunda ishlab chiqarish me'yori qay darajada bajarilishidan qat'i nazar, ish haqi yagona mahsulot birligi uchun belgilangan tarif bo'yicha to'lanadi.

**Ishbay-mukofot tizimi** bir qancha ko‘rsatkichlar uchun mukofot byerishni nazarda tutadi. **Ishbay-progressiv haq to‘lashda** ishchining belgilab qo‘yilgan me‘yor doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan tarif bo‘yicha ish haqi byeriladi, normadan yuqorisiga esa oshirilgan haq (tarif) bo‘yicha pul to‘lanadi. Ishbay ish haqi tizimida yakka tartibdagi jamoa va ijara pudratida qo‘llaniladigan mehnatga haq to‘lash farqlanadi. Bunda olingan tayyor mahsulot uchun uning sifati va ishlab chiqarish chiqimlarini hisobga olib haq to‘lanadi. Haq to‘lashning jamoa shaklida ish haqi brigada, sex va boshqa bo‘linmaning pirovard mehnat natijalariga bog‘liq qilib qo‘yiladi. Bunda har bir xodim faqat o‘ziga byerilgan shaxsiy topshiriqlarigina emas, balki shu bilan birga bo‘linmaning butun ish hajmini ham bajarishdan manfaatdor bo‘ladi.

Shunga alohida e‘tibor byerish kerakki, birinchidan odamlarning jismoniy va aqliy layoqati har xil, ikkinchidan esa mehnat jarayonida murakkabligi nuqtayi nazaridan turlicha, binobarin sarf etilgan mehnat ham har xil bo‘ladi. Undan tashqari xodimlar malakasi bo‘yicha farqlanadi, qolaversa insonlar bir xil bo‘lmagan ishlab chiqarish sharoitida ishlaydi.

Ishchi va xizmatchilarning ish haqini ularning bilimi, ish mahorati, ish turiga ko‘ra turli darajada tabaqalashtirilgan holda to‘lash tarif tizimi, ya‘ni ishlab chiqarish turlari, ish sharoiti, ishchining malakasiga ko‘ra ish haqi belgilash uchun yaratilgan me‘yoriy hujjatlar tizimi orqali amalga oshiriladi. **Tarif tizimi tarif-malaka ma‘lumotnomalari tarif setkasi va tarif stavkalaridan iboratdir. Tarif-malaka spravochniklari** ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil tarifi, u yoki bu aniq ishni bajaruvchining bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablardan iborat bo‘ladi, shuningdek, unda bu ishni tariflash uchun qo‘yiladigan razryadlar ham ko‘rsatiladi. **Tarif setkasida** razryadlardan tashqari ta‘rif koeffitsiyentlari ham bo‘lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to‘lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to‘lashning o‘zaro nisbatini ko‘rsatadi (birinchi razryadning tarif koeffitsiyenti hamma vaqt birga teng).

**Tarif stavkalari** tegishli razryadga ega bo‘lgan ishchining mehnatiga to‘lanadigan haq miqdorini belgilab beradi. Mehnat qilish sharoiti og‘ir va zararli bo‘lgan ishchilarga tarif stavkasiga qo‘shimcha haq belgilanadi.

Yagona tarif setkasini davlat ishlab chiqib joriy etadi. Shuningdek, davlat tomonidan belgilangan eng minimal ish haqi darajasi tarif setkasida ish haqini belgilashning asosi bo‘ladi. Keyingi razryadga taalluqli bo‘lgan ishchilarning ish haqlari razryadlar oralig‘idagi belgilangan koeffitsiyentiga



ko'ra hisoblanadi. Maoshning miqdori xo'jalik faoliyati natijasiga bog'liq bo'lgan bozor subyektlari -koopyerativlar, jamoa xo'jaliklari, shirkatlar, fyermyer, shaxsiy yordamchi xo'jalik a'zolari ish haqlarining eng kam miqdorini davlat kafolatlamaydi.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda keyingi yillarda tarif sistemasiga qo'shimcha ravishda ishchi, xizmatchilarga haq to'lashda uning shaxsiy ishbilarmonlik xususiyati, ishchanligi, xulqi va boshqa shunga o'xshash sifatlari e'tiborga olinmoqda.

### 9.3. Kapital iqtisodiy resurs sifatida. Foiz

Tadbirkor tomonidan foydalaniladigan ishlab chiqarish omillaridan biri kapitaldir. Iqtisodiyot nazariyasida turli maktab namoyondalari tomonidan kapital tushunchasi turlicha talqin etiladi, biroq quyidagi yo'nalishlar asosiy hisoblanadi:

- buyumlashgan yoki naturallashgan konsepsiya;
- pul yoki monitar konsepsiya;
- "inson kapitali" konsepsiyasi;

**Buyumlashgan konsepsiyaga** ko'ra kapital, bu sotishga mo'ljallangan ishlab chiqarish vositalari yoki tayyor mahsulot.

**Pul nazariyasiga** binoan kapital - bu foiz keltiruvchi pul.

**"Inson kapitali" nazariyasi** XX asrning 60 yillarida inson omilining ahamiyati oshishi natijasida neoklassiklar tomonidan asoslangan. Unga binoan ishlab chiqarishda "Jismoniy kapital" bilan birga "Inson kapitali" qatnashadi, unga olingan bilim, ko'nikmalar kiradi.

Umuman olganda kapital mazmun - mohiyatiga ikki yondashuv mavjud:

- foyda keltiradigan qiymat (klassik maktab);
- daromad keltiradigan har qanday ne'mat (neoklassiklar).

Biroq bu turli qarashlarni umumlashtiruvchi jihati- **kapitalni daromad keltirish qobilyatidir.**

Kapital ishlab chiqarishning maxsus omili sifatida korxonada ixtiyoridagi har qanday moddiy va pul resurslarini birlashtiradi.

Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda kapitalning turli elementlari turlicha harakat qiladi. Agar biz, masalan, xomashyo, matyeriallar kabi kapitalning bir qismini oladigan bo'lsak, unda ularning yangi tovarlarni yaratishda ishtirok etishi vaqtinchalik, ya'ni qayta ishlash jarayoniga kirsa, ular

darhol o'z moddiy shakllarini o'zgartiradilar va matyerialdan tayyor mahsulotga aylanadi. Masalan, tyeridan kurtka ishlab chiqariladi tyeri charm kurtkaga aylanib o'zining birlamchi shaklini o'zgartiradi. Shu bilan birga, xomashyoni, matyeriallarni tayyor mahsulotga aylantirishda ishtirok etgan mashina o'z moddiy shaklini saqlab qoladi. Demak, unumli kapitalning tarkibiy elementlarini ishlab chiqarish jarayonida qatnashish davomiyligi va o'z qiymatini tovarga o'tqazish tavsifiga ko'ra asosiy va aylanma kapitalga bo'lishimiz mumkin.

**Asosiy kapitalga** - bino, asbob-uskuna, stanoklar va boshqalar kiradi. Ular ishlab chiqarishda ko'p marta qatnashib qiymatini tovarga bo'lak-bo'lak qilib o'tkazadilar.

**Aylanma kapitalga** - xomashyo, matyeriallar va ishchi kuchi kiritiladi. Ular ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o'z qiymatini mahsulotga butunlay o'tkazadi.

Asosiy kapital ishlatilishi jarayonida eskiradi va aynan eskirgan qismiga teng qiymat tayyor mahsulotga o'tkaziladi.

Asosiy kapitalning **jismoniy eskirishi** - bu iste'mol qiymatini yo'qotishidir. Asosiy kapitalning **ma'naviy eskirishi** – bu yangi arzon ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va o'sha narxda unumdorligi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish vositalarining yaratilishi natijasida qiymatini yo'qotishi.

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy kapitalni ishlatish vaqti davomida qiymatining tayyor mahsulotga o'tishi va uning amortizatsiya fondida jamg'arilishiga **amortizatsiya** deyiladi.

**Amortizatsiya fondi** jismoniy va ma'naviy eskirishi hisobiga ishlab chiqarish jarayonidan chiqarilgan asosiy kapital elementlarini tiklash uchun sarflanadi.

Asosiy kapitalning jismoniy va ma'naviy eskirishini hisobga olish amortizatsiya normasini aniqlashga imkon beradi.

**Amortizatsiya normasi** – bu yillik amortizatsiya ajratmalar summasining asosiy ishlab chiqarish kapitalining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati. U foizlarda ifodalanadi.

Amortizatsiya normasi necha yil davomida asosiy kapital qiymati tiklanishi zarurligini ko'rsatadi. Fan-texnika taraqqiyoti davrida dastgohlarning xizmat qilish vaqti qisqaradi, shu bois amortizatsiya'ni tezlashtirish muammosi vujudga keladi.

Asosiy kapital, aylanma kapitaldan farqli o'laroq, nafaqat uzoq vaqt ishlaydi, balki yuqori qiymatga ham ega. Bu korxonada asosiy vositalarni yangilash va sotib olish bilan bog'liq tegishli moliyaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Asosiy vositalar qiymati yangi yaratilgan mahsulotga bo'lak bo'lak qilib uzoq vaqt davomida o'tqaziladi. O'tqazilgan qiymat amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida, asbob-uskunalarining amortizatsiya qiymatiga teng miqdorda ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tqaziladi. Bu holat korxonaning rivojlanishida yangi uskunalarga sarmoya kiritish muammosi alohida va murakkab masala ekanligini ko'rsatadi. Ushbu murakkablik yangi investitsiyalarning har xil turlari ichki jamg'arish va tejash (jamg'arma) yoki tashqi qarz olish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Asosiy va aylanma kapitaldan (fond) tashqari korxonalar mahsulotlarini sotishga mo'ljallangan **muomala fondlariga** egadir.

Muomala fondlariga sarflangan pul mablag'lari korxonaning **aylanma mablag'larini** tashkil etadi. Aylanma mablag'lar tarkibiga korxonaning barcha aylanma mablag'lari kiradi, ya'ni: xomashyo, matyeriallar, yoqilg'i, elektr enyergiyasi, yarim tayyor mahsulotlar, ish haqi uchun foydalaniladigan kompaniya naqd pullari. Mahsulotni yaratishda ishtirok etadigan aylanma mablag'larning qiymati mahsulotning kelajakdagi narxini shakllantiradi va sotilgandan so'ng yana korxonaga ishlatilishi uchun qaytib keladi.

Aylanma mablag'larning muhim xususiyati shundaki, uning elementlari osongina pulga aylanadi, tez qiyinchiliklarsiz tovar shaklini pul shakliga o'zgartiradi va aksincha. Pullarga tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyo, matyeriallar va aylanma mablag'larning boshqa tarkibiy qismlarini sotib olishga sarflanadi, yaratilgan mahsulot sotilgandan so'ng pullar korxonaga qaytib tushadi.

Aylanma mablag'larning yetarli miqdorda doimiy mavjudligi muvaffaqiyatli biznesning eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Aylanma mablag'larsiz, keyinchalik xomashyo, matyeriallar, elektr enyergiyasi va aylanma mablag'larning boshqa elementlarini sotib olish mumkin emas. Korxonaning moliyaviy barqarorligi aylanma mablag'larning yetarli hajmda korxonada borligi bilan ham bog'liq. Faoliyat yuritayotgan korxonalar o'z mablag'larining asosiy qismini bankda doimiy ravishda saqlaydilar. Bu ularga doimiy xaridlar va to'lovlarni (o'z aylanma mablag'larini) amalga oshirishga imkon beradi. Agar ularga mablag'lari yetarli bo'lmasa, ular banklarda ochiq kredit liniyalariga ega bo'lib, kredit (qarz aylanma mablag'lari) olish mumkin.

**Ishlab chiqarish bozorida kapital deganda jismoniy kapital yoki asosiy fondlar tushuniladi.** Ishlab chiqarish fondlari kapital ne'mat hisoblanib, undan foydalanib, kelajakda daromad hajmini oshirish mumkin.

Faraz qilamiz inson orolga bir o'zi tushib qoldi. U bir kunda 4 ta kaklik go'shtini iste'mol qilishi kerak. U bir oy ishlab qushlarni tutadigan moslama yasasa unda u bir kunda 10 ta kaklikni ovlashi mumkin. Unda u bir oy qush ovlamasligi, ya'ni och o'tirishi kerak. Endi faraz qilamizki, inson ovqatni (kaklikni) kreditga (qarzga) olishi mumkin. Qushni ovlaydigan uskunani yasash uchun u bir oy qarzga ovqatlanishi kerak, qarz miqdori  $120(4 \times 30)$  ta kaklikka teng bo'ladi. Endi inson olgan qarzidan foydalanganligi evaziga qancha kaklikni byerishi mumkin? Bu faraziy misol kapitalning sof unumdorligi kategoriyasini tushunishga yordam beradi. Bizning misolimizda qushni ovlaydigan moslama kapital, kaklik esa iste'mol ne'mati hisoblanadi. Shunday qilib, kapital yordamida ishlab chiqarilgan iste'mol ne'matlari summasi ( $300$  kaklik  $30 \times 10$ ) va kapitalni yaratish uchun voz kechilgan iste'mol ne'matlari ( $120$  kaklik) o'rtasidagi farq, kapitalning sof unumdorlik miqdorini ko'rsatadi ya'ni  $300 - 120 = 180$ .

Endi biz qo'yilgan savolga javob byerishimiz mumkin: inson olgan qarzidan foydalanganligi uchun  $180$  tadan ko'p bo'lmagan miqdorda kaklikni byerishi mumkin. Bu misolni insonning qarz olmagan variantini aytishimiz mumkin, unda inson qarz olmaydi, uning o'rniga bir oy tabiatda mavjud bo'lgan o'simlik va mevalarni iste'mol qiladi. Bunda  $120$  kaklik qo'ldan boy byerilgan imkoniyatning miqdorini ( $4 \times 30 = 120$ ) ko'rsatadi. Keyingi oydan inson yasagan moslanmasidan foydalanib,  $300$  ta kaklikni ovlaydi. ( $30 \times 10$ ). Kapitalning sof unumdordigi  $300 - 120 = 180$  tani tashkil qiladi.


Kapitalning sof unumdorligi kapital qo'yilmalarning daromadlilik va kapitalga talab tushunchalarini yoritishga yordam beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kapitalning sof unumdorligini foizda ham aks ettirish mumkin. Agar  $180$  va  $120$  kakliklarni, ya'ni absolyut birliklarni nisbiy birliklarga o'tqazsak unda  $180/120 = 150\%$  teng bo'ladi.

Bu kapitalga olingan daromadning foizdagi ifodasidir. Foizda ifoda etilgan kapitalning sof unumdorligini foizning «tabiiy» normasi deb ham ataladi. Chunki kapitalning foiz shaklida daromad keltirish qobiliyati ushbu ishlab chiqarish omilining «tabiiy» xususiyati hisoblanadi.

Kapital unumli, ya'ni daromad keltirgani uchun unga talab mavjud bo'ladi. Bir tarafdin, tadbirkorlar kapitalga bo'lgan talabni shakllantiradilar, ikkinchi tomondan kapitalni esa uy xo'jaliklari taklif etadilar.


Kapitalga bo'lgan talabning shakllanish shakli va uning mohiyatini farqlash lozim. Tashqi ko'rinishda kapital ma'lum bir pul summasiga talab sifatida namoyon bo'ladi. **Biroq pul shaklida pulga talab va kapitalga talab bir- biridan farq qiladi.** Biznes investitsiyaviy tovarga, ya'ni ishlab chiqarish vositalariga talabni shakllantiradi. Tadbirkorga aynan ishlab chiqarish vositalarini sotib olishga pul summasi kerak bo'ladi. Uy xo'jaliklari ham pulga talabni shakllantiradilar, biroq bu talabning tabiati tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lmaganligi sababli boshqacha bo'ladi,



### 9.5.- rasm. Kapitalga talab.

Kapitalga talabni salbiy qiymatga ega egri chiziq ( $D_c$ ) sifatida ifodalash mumkin (9.5.- rasm.). Grafik absissa (yotiq chiziq) investitsiyaviy mablag'lar ( $I$ ) hajmini, ordinata (tik chiziq) esa kapitalning me'yoriy (qo'shimcha) mahsuloti ( $MR$ ) hajmini ko'rsatadi. Grafikdan shuni ko'rish mumkinki, investitsiyaviy mablag'lar oshgan sari ( $I_1$ dan  $I_2$  ga) kapitalning me'yoriy (qo'shimcha) mahsuloti kamaymoqda ( $MR_1$ dan  $MR_2$  ga). Bu jarayon daromadlilikning kamayib borish qonuni ta'sirida ro'y beradi. Boshqa sharoitlar o'zgarmas bo'lganda kapitalning sof unumdorligi yoki foizning tabiiy normasi yoki kapitalga olingan daromad darajasi (bu tushunchalar sinonim tushunchalar) investitsion mablag'lar oshgan sari pasayish tendensiyasiga egadir. Kapitalni bir tarmoqdan boshqa tarmoqlarga doimo oqib o'tishi natijasida foizning «tabiiy» darajasi barobarlashib boradi.

Kapitalni uy xo'jaligi (aholi) taklif etadi. Uy xo'jaliklari investitsiyaviy mablag'larni, ya'ni pul summalarini biznesga taklif etadi. Tadbirkorlar esa unga ishlab chiqarish fondlarini sotib oladilar. Kapital taklifini ijobiy qiymatga ega egri chiziq sifatida ifodalash mumkin. Nima uchun kapital taklifi egri chizig'i ( $S_c$ ) ijobiy qiymatga ega? Kapital taklif etayotgan subyektlar (aholi) uni muqobil ishlatish variantlaridan voz kechadilar. Ya'ni ular kapitallarini o'zlari ishlatish imkoniyatlaridan (o'z bizneslarini ochish, yer sotib olish va x.k) voz kechadilar. Grafik absissasi investitsiyaviy mablag'lar ( $I$ ) hajmini, ordinata esa kapitalning me'yoriy (qo'shimcha) muqobil qiymatini yoki qo'ldan boy berilgan me'yoriy xarajatlarni ( $MOS$ ) ko'rsatadi.




**9.6. - rasm. Kapital taklifi**

Demak qanchalik kapital ko'p ssudaga taklif qilinsa, uning qo'shimcha muqobil qiymati yoki qo'ldan boy byerilgan imkoniyatlar qiymati shunchalik katta bo'ladi. Jumladan, qo'ldan boy byerilgan imkoniyatlar qo'shimcha harajatlari  $I_1$  da  $MOS_1$  miqdoriga teng,  $I_2$  da  $MOS_2$  ga teng bo'lmoqda (9.6-rasm).

Endi biz kapital talab va taklif egri chiziqlarni birlashtiramiz (9.7.- rasm). Grafik absessi investitsiyaviy mablag'lar (ssuda kapitali)  $I$  hajmini, ordinata esa foiz darajasini ko'rsatadi.

Grafikdan foydalanib biz foizning o'ziga xos muvozanatli narx ekanligini tushunishimiz mumkin.  $S_c$  va  $D_s$  egri chiziqlar kesishgan  $E$  nuqtada kapital bozorida muvozanat  $S_c = D_s$  holati kuzatilmoqda.  $E$  nuqtada kapitalning me'yoriy daromadi qo'ldan boy byerilgan imkoniyot me'yoriy xarajatlari mos

keladi, ssuda kapitaliga talab uning taklifiga mos kelmoqda. Foiz tushunchasining mohiyatini ochib byerishda vaqt omili albatta inobatga olinishi kerak.



**9.7- rasm. Kapital bozorida muvozanat**

**Foiz stavkasi (foiz normasi) – ssudaga taqdim etilgan kapital bo‘yicha daromadning foizda ifodalangan ssuda kapitalining miqdoriga nisbati.** Kengroq ma‘noda foizlar - bu kreditor tomonidan mijozga byerilgan pul kapitali uchun olingan daromad. Foiz - bu kredit uchun to‘lov. Kredit uchun to‘lov sifatida foizlar - bu tegishli ishlab chiqarish omilidan, masalan, pul shaklidagi kapitaldan foydalanishdan olinadigan daromadning alohida ko‘rinishidir.

#### **9.4 Yer iqtisodiy resurs sifatida. Renta**

Ishlab chiqarishning asosiy omili yerdir. Yerning muhim xususiyatlaridan biri uning maydonining cheklanganligi yerni ishlab chiqarish mumkin emasligidir. Yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi shundaki, undan foydalanish jarayonida u eyilmaydi, eskirmaydi va uni takror ishlab chiqarib bo‘lmaydi. Umuman olganda, "yer" atamasi keng ma‘noda qo‘llaniladi. Bu bir tarafdin, tabiat tomonidan insonga byerilgan barcha ne‘matlarni anglatadi, ikkinchi tarafdin inson ularning taklifi ustidan hech qanday hokimlikga ega emas, uni inson emas balki tabiat taklif etadi. Bu yerning o‘zi, minyerallar, suv va o‘rmon resurslari bo‘lishi mumkin. Ba’zi yer uchastkalari foydali qazilmalar manbalari sifatida, boshqalari esa baliq ovlash

va qurilish uchun ishlatiladi. Ammo, yer haqida gapirganda, biz, avvalambor, undan qishloq xo'jaligida foydalanishni nazarda tutamiz. Bunday holda, u ma'lum ekinlarni yetishtirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Agrar sohada yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, uning o'rnini boshqa omil bosa ololmaydi. Demak ushbu sohada ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq.

Yerning hosil byerish qobiliyatiga tuproq unumdorligi deyiladi. U tabiiy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin. Uzoq yillar davomida kishilarning hech qanday aralashuvisiz, tabiiy o'zgarishlar natijasida yerning ustki qatlamida o'simlik «oziqlanishi» mumkin bo'lgan turli moddalarning vujudga kelishi yerning tabiiy unumdorligi deyiladi.

Agar tuproq unumdorligi kishilarning tabiatga ta'siri natijasida ya'ni tuproq tarkibi va dehqonchilik usullarini yaxshilash sun'iy yo'l bilan (masalan, yerni organik va kimyoviy o'g'itlash, ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash, ilmiy asoslangan sug'orish, irrigatsiya va melioratsiya kabi ishlab chiqarish usullarini joriy qilish hamda boshqa shu kabi yo'llar bilan) amalga oshirilsa, bu iqtisodiy unumdorlikni tashkil kiladi. Demak inson yerning unumdorligiga ta'sir etishi mumkin. Biroq bu ta'sir cheksiz emas. Samaraning pasayib borish qonuniga ko'ra, shunday vaqt keladiki, yerga qo'shimcha mehnat, o'g'itlarning sarflanishi qo'shimcha unumdorlikning pasayishi va hatto uning to'liq to'xtashiga olib keladi. Boshida yer yetarli darajada ishlanmangan sharoitda bu tendensiya ko'zga ko'rinmaydi, samaraning pasayib borish qonuni samara maksimal darajaga yetgandan so'ng harakat qila boshlaydi. Samaraning pasayib borish qonuni agrotexnikani takomillashtirish hisobiga vaqtinchalik to'xtatib qo'yilishi mumkin. Biroq, agar yerdan olinadigan mahsulotlar ga talab cheksiz oshib borsa, pasayib boruvchi samarani to'xtatib yoki yengib bo'lmaydi. Yer cheklanganligi uchun ushbu qonun harakat qiladi. Chunki yerga ishlov byerishni jadallashtirish mumkin, biroq ekiladigan yerlarning zaxirasi o'zgarmasdir.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq, shuning uchun ham yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan **munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi.**

Yerga egalik jismoniy va hukukiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkib topgan an'analar yoki qonuniy asosda belgilangan tartibda egalik huquqini tan olishini bildiradi. U avvalo yerga bo'lgan mulkchilik huquqi va uni iqtisodiy jihatdan realizatsiya qilishni nazarda tutadi. Yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida «Yer



uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun byerilishi mumkin»<sup>14</sup>.

**Yerdan foydalanish huquqi - bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda doimiy yoki muddatli foydalanish uchun byerilishini bildiradi.** Bunda yerdan foydalanuvchi yer egasi bo'lishi shart emas. Yerga egalik qilish va undan foydalanishni ko'pincha turli jismoniy va huquqiy shaxslar, jumladan hozir mamlakatimizda dehqon va fermer xo'jaliklari amalga oshiradi.

**Yerdan foydalanganlik uchun uning egasiga to'lanadigan haq renta (R) deb ataladi.** Renta qishloq xo'jaligida ishlovchilar tomonidan yaratilgan qo'shimcha mahsulotning bir qismi bo'lib, yer egalari tomonidan ijara to'lov ko'rinishida o'zlashtirib olinadi. Renta yerga bo'lgan mulkchilikni amalga oshirishning iqtisodiy shaklidir.

Iqtisodiyot nazariyasida yer rentasi masalasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Yer rentasining markscha konsepsiyasi barcha turdagi daromadlarning manbaiy qo'shimcha qiymat degan g'oyaga asoslanadi. Shuning uchun renta qo'shimcha qiymatning o'zgargan shaklidir. Marks rentaning absolyut va diffyerenzial turlarini farqlagan. Diffyerenzial rentaning vujudga kelishining asosiy sabablari quyidagilar:

-birinchidan, xo'jalik yuritish uchun yaroqli bo'lgan yerlarning cheklanganligi va qayta tiklab bo'lmasligi natijasida yerga mulkchilik obyekti sifatidagi monopoliya'ning mavjudligi. Ushbu holat unumdorligi yuqori, o'rtacha va past bo'lgan barcha yerlardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Chunki qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab doimo oshib boradi.

-ikkinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narxlarning shakllanishida o'ziga xoslik mavjud. Diffyerenzial renta ishlab chiqarishning ijtimoiy narxi bilan individual narxi o'rtasidagi farqqa teng hamda unumdorligi yuqori va o'rtacha yerlarda olinadi.

-uchinchidan, qishloq xo'jaligida kapitalning organik tuzilishi qo'llanadigan ishlab chiqarish vositalarining xodimlarning soniga nisbati pastligi.

Diffyerenzial renta unumdorligi yuqori va o'rtacha yerlarda olinadi. Diffyerenzial renta ishlab chiqarishning ijtimoiy narxi bilan individual narxi o'rtasidagi farqqa teng. Diffyerenzial renta o'zining kelib chiqish sharoitlarga qarab diffyerenzial renta I va diffyerenzial renta II ga bo'linadi.

**Diffyerenzial renta I** yerlarning tabiiy unumdorligidagi yoki yer uchastkalarining yetishtirilgan mahsulotni sotishga mo'ljallangan bozorlarga

---

<sup>14</sup> «Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси». Т. «Ўзбекистон», 1999 й. 20 -модда.

nisbatan joylanishidagi farqlarning mavjudligi sababli vujudga keladi. Diffyerial renta I ning hosil bo'lishini shartli misol yordamida ko'rib chiqamiz (9.1.-jadval).

Misolimizdagi uch xil yer uchastkalari (mos holda unumdorligi past, o'rtacha va yuqori) da olingan mahsulotning miqdori har xil, ya'ni mos holda A uchastkasida 20 tonna, B uchastkasida 25 tonna, A uchastkasida 30 tonnani tashkil qiladi. Har bir uchastkadan turlicha hosil olinganligi tufayli ularda yetkazilgan mahsulotlar ning individual qiymati ham turlicha bo'lib chiqadi (mos holda 500, 400, 300 so'm).

## 9.1.-jadval

### Diffyerial renta I ning hosil bo'lishi (shartli ravishda so'm)

Yer uchastkasi	Ishlab chiqarish xarajatlari	O'rtacha foyda Normasi %	Yalpi mahsulot (tonna)	Mahsulotning individual qiymati	Ijtimoiy qiymat – bozor narxi	Yalpi sotilgan mahsulot	Diffyerial renta I
A	7000	20	20	500	500	10000	-
B	7000	20	25	400	500	12500	2500
V	7000	20	30	300	500	15000	5000

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati yomon uchastkada yetishtirilgan mahsulot narxida ya'ni 500 so'mdan sotiladi. Natijada yomon (A) yer uchastkasi o'zining

yakka ishlab chiqarish harajatlarini qoplash va foyda olish imkoniga ega bo'ladi. O'rtacha (B) va yaxshi (V) yer uchastkalarida esa yomon yer uchastkasi (A)ga nisbatan mos holda 2500 va 5000 so'm miqdorda qo'shimcha daromad olinadi.

**Diffyerial renta II** ekiladigan yer uchastkalariga qo'shimcha mablag' va mehnat sarflash natijasida uning unumdorligini oshirish hisobiga vujudga keladi.

Misolimizda yerga qo'shimcha 5 ming so'm xarajat sarf qilish natijasida qo'shimcha 20 tonna mahsulot olinsa, u holda birinchi yilga nisbatan

qo‘shimcha olingan 10 ming so‘m daromad diffyerenzial renta II ni tashkil etadi.

**Absolyut renta yollanma ishchilar tomonidan yaratiladigan qo‘shimcha mahsulotning bir qismi bo‘lib yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi mavjudligi sababli yer egasi tomonidan o‘zlashtirib olinadi. Absolyut renta qishloq xo‘jalik tovarlarining bozor narxi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish narxi o‘rtasidagi farqqa teng.**

## 9.2.-jadval


### Diffyerenzial renta II ning hosil bo‘lishi

Ishlab chiqarish davri	Ishlab chiqarish xarajatlari (so‘m)	Yalpi mahsulot (tonna)	1 tonna mahsulotning individual qiymati (so‘m)	1 tonna mahsulotning ijtimoiy qiymati (so‘m)	Sotilgan mahsulot summasi, so‘m	Qo‘shimcha mahsulot, ya’ni diffyerenzial renta II, so‘m
Birinchi yil	10000	20	500	500	10000	-
Ikkinchi yil	15000	40	375	500	20000	10000


Diffyerenzial renta va absolyut rentadan tashqari qishloq xo‘jaligida **monopol renta** ham mavjud bo‘ladi. Monopol renta bu rentaning o‘ziga xos shakli bo‘lib yerda yetishtirilgan mahsulotning qiymatidan yuqori bo‘lgan monopol narxda mahsulotni sotish evaziga hosil bo‘ladi. Noyob qishloq xo‘jalik mahsulotlari (sitrus ekinlari, choy) monopol narxlarda sotiladi. Bu narxlarning yuqori bo‘lishi ko‘pincha to‘lovga qodir talab darajasi bilan belgilanadi. Natijada monopol narxlar shunday mahsulotlarning individual qiymatidan ancha yuqori bo‘lishi mumkin. Bu esa yer egalariga monopol renta olish imkonini beradi.

Iqtisodiyot nazariyasida neoklassik yo‘nalishga mansub iqtisodchi olimlar rentaning mohiyatini tushuntirishda me‘yoriy xarajatlar konsepsiyasiga asoslanadilar. Biz P.Samuelsan keltirgan misolni ko‘rib chiqamiz.

U rentaning vujudga kelishini yer egasi fyermiyer bo'lganida va yerda ijarachi faoliyat yuritgan holatlarni alohida ko'rib chiqqan. Xususan, 9.8-rasmda fyermiyer yer egasi bo'lgan holat ko'rib chiqilgan. Grafikda shuni ko'rish mumkin fyermiyer (yer egasi) L nuqttagacha ishchilarni o'z yerida ishlatish uchun yollaydi, ya'ni oxirgi yollangan ishchining yaratgan me'yoriy (qo'shimcha) mahsulot qiymati, ularga to'lanadigan ish haqi miqdori bilan tenglashguncha. Barcha ishchilarning ish haqi miqdori OWEL yuza bilan aniqlanadi.



**9.8. - rasm. Yer egasi-fyermiyerning rentasi**



**9.9.- rasm. Ijarachi-fyermiyer rentasi.**

Qolgan WDE maydon yer rentasi miqdorini tashkil qiladi. P.Samuelson xulosasiga ko'ra yer rentasi miqdori «qoldiq usul» bilan aniqlanadi, ya'ni yaratilgan mahsulotning hajmidan ish haqi miqdori ayirmasiga teng. Olingan rentani fyermyer (yer egasi) oladi. Endi ushbu masalani ijarachi fyermyer nuqtayi nazaridan ko'rib chiqamiz (9.9-rasm). Ma'lumki, yer taklifi noelastikdir. Shuning uchun yer taklifining egri chizig'i (SS) vertikal ko'rinishga egadir. Yerga talabni (DD) egri chiziq aks ettirmoqda. (E) nuqta yer uchastkalarga bo'lgan talab va taklifni muvozanatlantiruvchi yer rentasi darajasini ko'rsatadi.

Agarda ijara to'lov (renta) E nuqtasidan oshib ketsa, unda yer taklifi unga bo'lgan talabdan yuqori bo'ladi. Bunday holatda yer egasi yerni ijaraga topshirishi qiyinroq bo'ladi va u renta miqdorini pasaytirishga majbur bo'ladi.

Agarda ijara to'lov E nuqtadan pastga tushib ketsa, unda yerga taklif unga bo'lgan talabdan yuqori bo'ladi. Bunday holatda yer egasi ijara to'lov (renta) miqdorini ko'taradi. Demak, faqat (E) nuqtasida yerga bo'lgan talab va taklif miqdori bir-biriga teng bo'ladi.

**Ijara haqi.** Renta ijara haqi shaklida to'lanadi. Agar ijaraga byeriladigan yerga oldin bino, inshoot va shu kabilarni barpo etishga mablag' sarflanmagan bo'lsa, ijara haqi va renta miqdoran bir-biriga teng bo'ladi. Aks holda, ijara haqi yer rentasidan farq qiladi. Ijara haqi yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan renta, yerga ilgari sarflangan kapital uchun foiz; yer uchastkasini ijaraga byergunga qadar unga qurilgan inshootlar amortizatsiyasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer faqat ijara obyektiga emas, balki oldi-sotdi obyektiga hamdir. Yer inson mehnati mahsuli bo'lmaganligi sababli almashuv qiymatga ega emas. Yer va boshqa tabiat in'omlari narxini irratsional narxlardir. Yerning narxi kapitallashtirilgan rentadir, chunki yer uchastkasining egasi uni sotishda olingan summani bankka qo'yganda, u keltiradigan foiz shu yer uchastkasidan olinadigan rentadan kam bo'lmagan taqdirdagina yerni sotadi. Boshqa sharoitlar teng bo'lganda, xuddi shu renta miqdori yer narxini belgilaydi. U renta miqdoriga to'g'ri va ssuda foizi normasiga teskari mutanosibdir. Binobarin, yerning narxi yer rentasi miqdori va ssuda foizi me'yoriga bog'liq. Renta miqdori oshganda yer narxi ko'tariladi foiz normasi oshganda esa yer narxi pasayadi. Shundan kelib chiqib, yerning narxi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$B = \frac{R}{r'} * 100\%$$

Bu yerda: R - renta r' - ssuda foizi normasi;  
B - yer bahosi.

### 9.5 Tadbirkorlik iqtisodiy iqtisodiy resurs sifatida. Foyda.

Tadbirkorlik tarixi juda uzoq o'tmishga borib taqalsa-da, aynan kapitalizmning vujudga kelishi va rivojlanishi davrida u bozorning ajralmas qismiga aylangan.

A.Smit tadbirkorni tijorat g'oyasi yoki foyda olish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boruvchi mulk egasi deb ta'riflagan.

“Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi qonunida ta'riflanishiga **tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy mas'uliyat ostida mavjud qonunlar doirasida daromad (foyda) olish maqsadida tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir.**

Har qanday xo'jalik faoliyatini tadbirkorlik faoliyati deb hisoblab bo'lmaydi. Aynan tavakkalchilik, tashabbuskorlik, uddaburonlik, mustaqillik, mas'uliyatlilik, faol izlanuvchanlik, navatorlik bilan bog'liq xo'jalik yuritish faoliyatini tadbirkorlik faoliyati deyish mumkin. Bular tadbirkorlik faoliyatining belgilari hisoblanadi.

Hozirgi zamonda tadbirkorlik faoliyatiga ana shu belgilar hos, ya'ni tadbirkor bozor talablariga moslasha oladigan, yangiliklarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etishga qodir bo'lgan, yakuniy natijada resurslardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil eta oladigan, izlanuvchan va tashabbuskor, o'zi va o'z jamiyatining boyligini oshira oladigan ishlab chiqaruvchidir.

Biznes ishning qanday bo'lishidan qat'i nazar foyda olishdir. Biznes keng ma'noda puldan pul chiqarishdir. Biroq, bunday faoliyatda yaratuvchanlik bo'lganda tadbirkorlik yuzaga keladi. Demak, biznes tadbirkorlik tushunchasiga nisbatan keng ma'noli tushunchadir. Tadbirkorlik biznesning asosiy turi hisoblanadi.

Tadbirkorlikda obyekt va subyektlar farqlanadi. Alohida shaxslar va turli uyushmalar (aksionyerlik jamiyatlari, ijara jamoalari va boshqalar) va davlat tadbirkorlikning **subyektlari** hisoblanadi. Har qanday xo'jalik yuritish faoliyati (ishlab chiqarish, savdo vositachilik, maslahat byerish, xizmat ko'rsatish va boshqalar) tadbirkorlikni **obyekti** hisoblanadi.

Mamlakatda tadbirkorlikning rivojlanishi uchun unga xos bo'lgan iqtisodiy munosabatlar, tadbirkorlikni olib borish uchun huquqiy baza va tegishli ijtimoiy-siyosiy sharoitlar yaratish lozim.

Ko'rinib turibdiki, tadbirkorlikning barcha turlari daromad olishga yo'naltirilgan. Biroq, buning uchun cheklangan resurslarni oqilona kombinatsiyalashni o'rganish zarur. Resurslarning turli kombinatsiyalarini amalga oshirish tadbirkor faoliyatining tarkibiy qismidir.

J. Shumpetyerning fikricha u quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

1. Yangi ne'matni yaratish yoki mavjud ne'matni takomillashtirish.
2. Ishlab chiqarish jarayoniga yangi usullarni tatbiq etish.
3. Mahsulotlarni sotishning yangi bozorlarini egallash.
4. Xomashyo yoki yarim fabrikatning yangi manbaini o'zlashtirish.
5. Zarur bo'lgan ishlab chiqarishni qayta tashkil etishni amalga oshirish.

Firma yaratgan tovar va xizmatlarini bozorda sotgandan so'ng, u daromadga ega bo'ladi. **Tovar va xizmatlar sotilgandan so'ng firma ixtiyoriga kelib tushgan pul tushumlari uning daromadi deyiladi.** Firma yalpi, o'rtacha va me'yoriy daromadlarni hisoblaydi.

**Yalpi daromad** - barcha mahsulotning sotilishi natijasida olingan tushumga teng bo'ladi. Firma daromadi (D) tovar va xizmatlarning miqdori (Q) va ularningbozor narxi (R) ga bog'liqdir. Bunda yalpi daromadni quyidagi ifoda orqali hisoblash mumkin:

$$D = Q \times R$$

Masalan, 1000 dona tovar ishlab chiqarilgan uni har birini 500 so'mdan sotilgan. Bunda yalpi daromad  $D = 1000 \times 500 = 500\,000$  so'mga teng bo'ladi.

**O'rtacha daromad**( $D_{o'}$ ) mahsulot birligiga hisoblanadi va u tovar birligini sotishdan olingan tushumni ifodalaydi va quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:  $D_{o'} = D / Q = 500000/1000 = 500$  so'm

O'rtacha daromad amalda sotilgan tovar birligining narxiga teng bo'ladi.  $D = R$ .

**Me'yoriy (marjinal) daromad** qo'shimcha tovar birligini sotishdan olingan qo'shimcha daromad. Uni aniqlash uchun tovarlarni sotishdan olingan daromad - pul o'sishi ( $\Delta D$ ) sotilgan tovarlar miqdorining o'sishiga ( $\Delta Q$ ) bo'linadi.  $D_{o'} = \Delta D / \Delta Q$

Masalan: Korxonada 1000 dona mahsulotini sotishdan 500 ming soʻm topgan. Keyin qoʻshimcha 200 dona tovarni sotish natijasida uning daromadi 600 ming soʻmga yetdi. Shu raqamlarni ifodaga solsak,

$$D_m = 600 - 500 / 1200 - 1000 = 100 / 200 = 500 \text{ soʻm}$$

Demak, qoʻshimcha bitta tovarni sotish uchun 500 soʻm bergan. Marjinal daromadning ortishi tovarni qoʻshimcha ravishda ishlab chiqarish, kamayishi esa qisqartirish zarurligini anglatadi. Chunki qoʻshimcha daromad kamayganida qoʻshimcha foyda ham kamayadi. Ishlab chiqarish oʻsib borishi uchun marjinal daromad ortib borishi kerak.

Firmaning yalpi daromadi uni foyda olib faoliyat yuritishini taʼminlashi zarur. Daromad hisobidan xarajatlar qoplanadi, undan qolgan qismi esa foydani hosil qiladi. Mohiyatan foyda tadbirkorga tegadigan daromad hisoblanadi.

**Foyda – kapital va tadbirkorlik faoliyati uchun ular egasiga tegadigan pul mukofotidir.**

Foydani birinchidan kapital, ikkinchidan esa tadbirkorlik faoliyati birgalikda vujudga keltiradi. Kapital va tadbirkorlik qobiliyati resurs hisoblanganda foyda shakldagi daromadni yarata oladi. Biroq, kapitalning bir qismi qarzga olinganda, daromadning bir qismi foizga aylanadi va pul egasiga tegadi. Bunday holatda ham tadbirkorlik qobiliyati yaratgan foyda olinavayeradi.

Foydani oʻzi ikki qismdan iborat boʻladi:

1. **Meʼyoriy foyda** tadbirkorlik qobiliyati evaziga olinadi va xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

2. Kapital uchun tegadigan foyda **iqtisodiy foyda** boʻlib, daromadning jami harajatlari ortib qolgan qismidir.

Iqtisodiy foydani (F) aniqlash uchun yalpi daromaddan (D) yalpi xarajatlar (W) chegirib tashlanadi  $F = D - W$ .

Daromad xarajatlar va foydadan iborat boʻladi. Demak, foydaning miqdori bevosita xarajat miqdoriga bogʻliq boʻladi.

Mukammal boʻlmagan raqobat sharoitida firma bozorda monopol mavqega ega boʻlsa (temir yoʻl, gaz, neft tarmoqlari), u tabiiy sharoitlar yaxshi boʻlgan sharoitda **monopol foydani** oladi.

Korxonada foydasining mutloq miqdori uning massasini tashkil qiladi. **Foyda massasining ishlab chiqarish harajatlariga nisbati va uning foizda ifodalanishi foyda normasi deyiladi.**



Firmani nisbiy daromad miqdori foyda normasi bilan tavsiflanadi. **Foyda normasi** – bu foyda miqdorining xarajatlarga nisbatini foizda aks ettiradi, bu ko‘rsatkichni amaliyotda rentabellik ham deyiladi. Rentabellik tadbirkor faoliyati, unga qilingan sarfga nisbatan naqadar foyda keltirishi bo‘lib, uning samaradorligini bildiradi.

Bu foydalilikning nisbiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Chunki, foydaliylikning mutloq ko‘rsatkichi (foyda massasi) yalpi foyda miqdori hisoblanadi.

Ishlab chiqarish rentabelligi ( $R_q$ ) quyidagicha hisoblanadi; Korxonada ixtiyoriy asosiy kapital ( $K_{as}$ ) va aylanma kapital qiymati ( $K_{au}$ ), korxonada olgan foyda ( $F$ ) bilan solishtiriladi.

$$R_q = \frac{F}{K_{as} + K_{au}} * 100\%$$

Mahsulot rentabelligi bu korxonada u yoki bu mahsulot turini ishlab chiqarish korxonasi uchun naqadar foydali ekanligini bildiradi. Uni ( $R_m$ ) aniqlash uchun muayyan mahsulot sotishdan tekkan sof foyda ( $F_s$ ) shu mahsulotni sotishdan kelgan tushum ( $D_m$ ) bilan qiyoslanadi.

Foydaning o‘shishiga, chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o‘zgarmagan holda ikki yo‘l bilan: yoki ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish hisobiga, yoki narxni oshirish hisobiga yerishish mumkin.

Korxonada yalpi foydasining taqsimlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo yalpi foydadan boshqa iqtisodiy subyektlarga turli to‘lovlar amalga oshiriladi. Bu to‘lovlarga boshqalarning yer va binolaridan foydalanganlik uchun ijara haqi, qarzga olingan pul mablag‘lari uchun to‘lanadigan foizni kiritish mumkin. Bundan tashqari, korxonalar davlat va mahalliy hokimiyat organlari byudjetiga soliqlar to‘laydilar, turli hayriya va boshqa fondlarga mablag‘lar kiritadilar. Mablag‘larning qolgan qismi korxonada sof foydasini tashkil etadi. U korxonaning ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlariga, shuningdek jamg‘arish (ishlab chiqarishni kengaytirish)ga, atrof-muhit muhofazasi, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash va boshqa maqsadlarga sarflanadi.

## Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy resurslarga talabni shakllanishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
2. Ishlab chiqaruvchilar va firmalar tomonidan taqdim etiladigan resursga bo'lgan talabga qanday omillar ta'sir etadi?
3. Ishchi kuchi bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talabga qaysi omillar ta'sir etadi?
4. Mehnat bozorida muvozanat holatining qanday shakllanishini tushuntirib bering
5. Ish haqi darajasi deganda nimani tushunasiz?
6. Kapitalning qaysi konsepsiyalarini bilasiz?
7. Kapital bozorida muvozanatning shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi?
8. Asosiy va aylanma kapital o'rtasida qanday farqlar mavjud?
9. Yerning xususiyatlarini yoritib bering.
10. Renta nima? Uning vujudga kelish sabablari va turlari to'g'risida gapirib bering.
11. Foydaning manbalari qaysilar? Foydaning miqdoriga qanday omillar ta'sir etadi?
12. Foyda massasi va me'yori nima ?

## **10. MAKROIQTISODIYOTGA KIRISH. MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR.**

### **1. Milliy iqtisodiyot va uning tuzilishi**

Makroiqtisodiyotni o'rganishda markaziy o'rinni "milliy iqtisodiyot" tushunchasi egallaydi. **Milliy iqtisodiyot** - bu muayyan hududiy chegaralar doirasida tarixan rivojlangan takror ishlab chiqarish tizimi

Amerikali iqtisodchi olim Nobel mukofoti sovrindori Vasiliy Leontiyev milliy iqtisodiyot tushunchasiga eng umumiy holda quyidagi ta'rifni bergan: «Milliy iqtisodiyot bir-biri bilan bog'liq bo'lgan turli xil faoliyatlardan iborat bo'lgan o'z-o'zini tartibga soluvchi tizim ».

Agar bu tushunchani yanada aniqlashtiradigan bo'lsak, unda milliy iqtisodiyot mamlakatni ijtimoiy takror ishlab chiqarishning tarixan yo'lga qo'yilgan tizimi, xalq xo'jaligida mavjud bo'lgan ijtimoiy mehnat shakllarini qamrab oluvchi sohalar va tarmoqlarning o'zaro bog'liq tizimi. Yagona

iqtisodiy muhit umumiy xo‘jalik qonunchiligi, pul va moliya tizimi, iqtisodiy subyektlarning faoliyatini nazorat qiluvchi umumiy iqtisodiy tizim va yagona iqtisodiy markaz asosida shakillanadi. Milliy iqtisodiyotning asosini iqtisodiy munosabatlar bilan birlashgan, ijtimoiy mehnat taqsimotida muayyan vazifalarni bajaradigan, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaradigan korxonalar, firmalar, uy xo‘jaliklari, ya’ni makroiqtisodiyot subyektlari tashkil qiladi.

O‘z navbatida ushbu subyektlarning faoliyati jamiyatning quyidagi makroiqtisodiy maqsadlariga erishishga qaratilgan:

- ishlab chiqarishning barqaror darajasi- har yili turli omillar ta’sirida keskin o‘zgarishsiz ishlab chiqarish hajmini oshirib borish;
- narxlarning barqaror darajasi – narxlar bozor raqobati ta’sirida o‘rnatilishi va keskin o‘zgarmasligi;
- bandlikning yuqori darajasi – har bir xohlovchi o‘zining mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashishi;
- muvozanatlashgan to‘lov balansini taminlash - mahsulotlarning eksport va importi o‘rtasida muvozanatga erishish.

«Milliy iqtisodiyot» tushunchasi «iqtisodiy tizim» tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq, chunki u «iqtisodiy tizim» tushunchasini aniqlashtiradi, mamlakatning jug‘rofiy joylashuvi, xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki, madaniy , tarixiy an‘analari va boshqa omillarga bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi.

Milliy iqtisodiyot yaxilt organizm sifatida quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: 1) umumiy iqtisodiy makon, yagona qonunchilik bilan; 2) yagona pul birligi, umumiy pul-moliya tizimi; 3) umumiy takror ishlab chiqarish va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida yaqin iqtisodiy aloqalar mavjudligi; 4) tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradigan yagona iqtisodiy markazga ega bo‘lgan hududiy aniqlik

Milliy iqtisodiyotning strukturasi uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi barqaror miqdoriy nisbatlarni aks ettiradi. Milliy iqtisodiyotni takror ishlab chiqarish, ijtimoiy, tarmoq va hududiy strukturalari va infratuzilmasi farqlanadi:

**-takror ishlab chiqarish tuzilishi** milliy iqtisodiyotni xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy turlariga bo‘linishini tavsiflaydi. Har bir mamlakat iqtisodiyotida takror ishlab chiqarish tuzilishining o‘zaro bog‘liq uchta katta guruhini ajratish mumkin: uy xo‘jaliklari, korxonalar (tadbirkorlik faoliyati) va davlat. Milliy iqtisodiyotning tuzilishida uy xo‘jaligi alohida o‘rin egallaydi.

Bu milliy daromadning katta qismi iste'mol qilinadigan va juda katta miqdordagi pul to'planadigan milliy iqtisodiyotning muhim sohasidir. Ushbu guruh mehnat resurslarini asosiy yetkazib beruvchisidir.

- milliy iqtisodiyotning **ijtimoiy tuzilishi** uni sektorlarga bo'lishni - muayyan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birlashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy birliklarning yig'indisini anglatadi. Milliy iqtisodiyotni o'xshash tarmoqlarga korxonalar guruhlari, aholi soni, ish turlari va boshqa xususiyatlar bo'yicha ajratish mumkin. Iqtisodiy nazariya uchun milliy iqtisodiyotni ishlab chiqarish vositalariga (davlat, xususiy, jamoaviy, aralash) egalik shakllariga muvofiq sektorlarga bo'lish katta ahamiyatga ega.

- **tarmoq tuzilishi** milliy iqtisodiyotning tarmoqlarga bo'linishini nazarda tutadi, ya'ni ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida mazmunan bir xil ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradigan sifat nuqtayi nazaridan bir xil korxonalar guruhi. Milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishida quyidagi sektorlar farqlanadi: birlamchi sektor (qazib olish sanoati, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik); ikkilamchi sektor qayta ishlovchi sanoat); uchlamchi sektor (xizmat ko'rsatish sohasi). Shuningdek, milliy iqtisodiyot yirik tarmoqlari (sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va boshqalar) ham ajralib turadi, ularning har biri o'z tarmoqchalariga ega. Tarmoq strukturasi milliy iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi, chunki aynan tarmoq kesimida rejalashtirish va prognozlash amalga oshiriladi va statistika ma'lumotlari qayd etiladi

- **hududiy tuzilish** ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlar (tabiiy resurslar zaxiralari, iqlim, ayrim tarmoqlarning rivojlanish darajasi va boshqalar) bilan tavsiflanadigan, mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish bilan belgilanadigan milliy iqtisodiyotni iqtisodiy mintaqalarga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Tarkibdan tashqari, milliy iqtisodiyot infratuzilmasiga ega.

- **infratuzilma** – bu takror ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlari va mamlakat aholisining ijtimoiy turmush tarzini ta'minlaydigan, o'zaro bog'liq ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari majmui. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma farqlanadi. **Ishlab chiqarish infratuzilmasi** tarkibiga bevosita ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar kiradi: energiya ta'minoti, transport, aloqa, moddiy-texnik ta'minot. **Ijtimoiy infratuzilma** mamlakat aholisining normal ishlashini ta'minlaydigan sohalarni o'z ichiga oladi: uy-joy kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash, maishiy xizmat va boshqalar.

Milliy iqtisodiyotning asosiy xususiyatlaridan biri uning **barqarorligi** bo‘lib, u milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismlari mutanosibligi va muvozanatligini ta‘minlashiga bog‘liq. Barqarorlik bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyot harakatchanlikka ega, ya‘ni yangi ijtimoiy ehtiyojlar va texnik imkoniyatlarga, resurs bazasidagi cheklovlarga muvofiq o‘zgaralar olish qobiliyatiga ega.

O‘zgarishlar milliy iqtisodiyotda yangi elementlar va yangi aloqalarning paydo bo‘lishi, yangi nisbatlar o‘rnatilishi va eskilarining yo‘q qilinishida namoyon bo‘ladi. Bunday o‘zgarishlar **tarkibiy siljishlar** deb ataladi. Agar iqtisodiyot yetarlicha harakatchan bo‘lmasa, unda **tarkibiy siljishlar** iqtisodiy zaruriyatga nisbatan sekinlashadi va tarkibiy inqiroz boshlanadi, ya‘ni ishlab chiqarilgan tovarlar, texnologiyalar va resurslar talab qilinmaydigan, eski nisbatlar buzilgan, yangilari esa hali rivojlanmagan iqtisodiyotning holati.

## 10.2 Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari

Makroiqtisodiyot tushunchasi ikki ma‘noda tushuniladi:

1. **Ta‘limot.** Milliy ishlab chiqarishning yangi darajasi, ishsizlik va inflyatsiya haqida ta‘limot. Iqtisodiy tizimning bir butun yaxlit holdagi xususiyatlari, milliy iqtisodiyotning rivojlanish omillari va natijalarini o‘rganadi.

2. **Tahlil etish sohasi.** Makroiqtisodiy tahlilda jamiyat miqyosida yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning kechishi tahlil etiladi. Bunda iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini, xo‘jalik yurituvchi turli subyektlarning faoliyat ko‘rsatishi, ishsizlik, inflyatsiya, pul – kredit va moliya tizimlari, iqtisodiy o‘rish muammolarini yaxlit holda o‘rganadi.

Milliy iqtisodiyotning pirovard maqsadi mamlakat barcha aholisining doimiy ravishda o‘sib boruvchi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini to‘laroq qondirishdan iborat. Milliy iqtisodiyotning mazkur asosiy maqsadga erishish borasida o‘z oldiga qo‘ygan vaziafalar naqadar samarali bajaralayotganligi makroiqtisodiy tahlil yordamida aniqlanadi. **Makroiqtisodiy tahlilning maqsadi – tegishli makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanish asosida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida vujudga kelgan holatlarni ochib berish, milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan o‘zgarishlarni tushuntirish va uning faoliyatini yaxshilash uchun iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishga yordam berishdan iborat.**

Bu maqsadga erishishning muhim shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) avvalo makroiqtisodiy tahlilni amalga oshirish uchun tegishli uslubiy yondashuvlarning ishlab chiqilganligi shu jumladan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun statistik ma'lumotlarning mavjudligi;

2) milliy iqtisodiyotni tahlil qilishga tarixiy jihatdan va har taraflama keng yondashuv;

3) iqtisodiy tizim salohiyatini makroiqtisodiy tahlil natijalariga asoslanib obyektiv baholamasdan turib mamlakat iqtisodiyotiga aralashuv salbiy holatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lishini anglash;

4) makroiqtisodiy tahlil natijasida to'plangan tajribadan boshqa mamlakatlar amaliyotida foydalanish imkoniyatlariga obyektiv baho berilganidan so'ng undan ehtiyotkorlik bilan foydalanish mumkinligini tushunish;

5) ishlab chiqarishning barqaror va samarali o'sishi mamlakat aholisining bandligini ta'minlash va daromadlar oshishining manbai ekanligini tushunish.

Makroiqtisodiy tahlilning asosiy o'ziga xos usuli – **bu makroiqtisodiy agregirlash**, ya'ni hodisalar va jarayonlarni yaxlit holatga keltirish, birlashtirish tushuniladi. Agregirlangan kataliklar bozorning holatini va uning o'zgarishini tavsiflaydi (YaMM, YaIM, narxlarning umumiy darajasi, inflyatsiya va ishsizlik darajalari va boshqalar).

Makroiqtisodiy agregirlash xo'jalik subyektlariga (uy xo'jaliklari, firmalar, davlat, xorijiy davlatlar) va bozorlarga (tovarlar va xizmatlar, qimmatli qog'ozlar, pullar, ishchi kuchlari, real kapital, xalqaro valyuta) nisbatan qo'llaniladi.

Makroiqtisodiy tahlilda **iqtisodiy modellardan** keng foydalaniladi - turli xil iqtisodiy hodisalar va jarayonlar ular orasidagi funksional munosabatlarni aniqlash uchun rasmiylashtirilgan tavsiflar ( mantiqiy, grafik, algebraik). Makroiqtisodiy modellar tizimning asosiy elementlari va ularning aloqalariga e'tibor qaratish uchun ikkinchi darajali elementlardan qochishga imkon beradi. Iqtisodiy voqelikning mavhum ifodasi sifatida paydo bo'lgan makroiqtisodiy modellar umumiy bo'la olmaydi, shuning uchun, makroiqtisodiyotda turli xil mezonlarga ko'ra tasniflanishi mumkin bo'lgan juda ko'p turli xil modellar mavjud.

Makroiqtisodiy tahlil bizga butun jamiyat darajasida hal qilinishi mumkin bo'lgan bir qator muammolarni aniqlashga imkon beradi:

- barqaror iqtisodiy o'sishga erishish ;
- iqtisodiy sikllarni tahlil etish;
- inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik;

- iqtisodiyotning real va pul sektorlarini o‘zaro harakati;
- mamlakat savdo balansining tahlili.
- mamlakat ichida milliy bozorlar bilan iqtisodiyotning tashqi sektori o‘rtasida o‘zaro aloqalar;
- davlatning samarali makroiqtisodiy siyosatni olib borishiga erishish.

Makroiqtisodiy tahlil iqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida olib boriladi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida ma’lum vaqt oralig‘ida milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga baho beriladi, rivojlanish tendensiyalari undagi ijobiy va salbiy, ya’ni muammoli holatlarni aniqlaydi, undan so‘ng mavjud muammolarning yechimini topish maqsadida tadbirlar ishlab chiqiladi. Boshqacha aytganda, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida amalga oshirilgan makroiqtisodiy tahlil natijalariga asoslanib, davlatning ijtimoiy - iqtisodiy siyosati ishlab chiqiladi. Bu tizimga kiruvchi turli xil ko‘rsatkichlar, **birinchidan**, bizga ma’lum vaqt oralig‘idagi ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyotning faoliyat yuritishiga bevosita ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. **Ikkinchidan**, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi, milliy mahsulot harakatining barcha bosqichlarida, ya’ni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash, qayta taqsimlash va natijada foydalanish bosqichlarida ko‘rgazmali shaklda aks ettirish imkonini beradi. Nihoyat, **uchinchidan**, mazkur ko‘rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan foydalanishning mos kelishi kuzatilganda, mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi.

### **10.3. Milliy hisobot tizimi va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.**

#### **Yalpi ichki va yalpi milliy mahsulot**

Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash milliy hisob tizimi yordamida amalga oshiriladi. **Milliy hisob tizimi (MHT) – bu buxgalteriya schyotlari shakliga ega bo‘lgan kompleks jadvallar bo‘lib unda ijtimoiy mahsulot va milliy daromadlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va pirovard iste‘mol qilish jarayonlari aks ettiriladi.** MHTda har bir schyot doirasidagi iqtisodiy bitim natijalari ham xarajatlar, ham daromadlar sifatida aks ettiriladi. BMT statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan milliy hisoblarning standart tizimi 1953 yildan beri ishlatilib kelinmoqda. Hozirgi davrda MHTda birlashgan millatlar tashkilotining statistika komissiyasi tomonidan 1993 yilda ishlab chiqilgan uslubiyatidan foydalaniladi. MHTning ahamiyati: uning yordamida milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi baholanadi, erishilgan

yutuqlar, mavjud muammolar aniqlanib, milliy iqtisodiyotning istiqbollari belgilanadi. Yalpi ichki mahsulot (YaIM), yalpi milliy mahsulot (YaMM), sof ichki mahsulot kabi ko'rsatkichlar milliy hisob tizimining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Milliy hisoblar tizimi YaIM ning harakatini, ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va yakuniy foydalanish bosqichlarida tasavvur qilish imkonini beradi. MHT mavjud resurslar va ulardan foydalanish muvofiqligi (tengligi) mavjud bo'lganda mamlakatda umumiy iqtisodiy muvozanat g'oyasini aks ettiradi. MHTning maqsadi - milliy daromadlarni taqsimlash va ulardan foydalanish to'g'risida miqdoriy ma'lumotlarni berishdir, buning uchun esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. MHT makroiqtisodiy tahlil uchun milliy iqtisodiyotni o'rganish va takomillashtirish, shuningdek iqtisodiy prognozlarni tuzishda ishlatiladi. MHT ning afzalliklari:

- nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohasini, balki “nomoddiy xizmatlar” sohasini ham qamrab oladi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro iqtisodiy ta'sirini real aks ettiradi;
- iqtisodiy tahlil uchun eng mos keladi.

Hozirgi vaqtda MHT 150 dan ortiq mamlakatlarda qo'llaniladi. MHTni yaxshiroq tushunish uchun bozor iqtisodiyoti subyektlari tasnifini (agentlar nomenklaturasi) va bozor iqtisodiyoti subyektlari o'rtasida bozor operatsiyalarining tasnifini (operatsiyalar nomenklaturasini) ko'rsatish kerak. Turli rivojlangan mamlakatlarda biznes agentlariga quyidagilar kiritilgan:

1. Moliyaviy bo'lmagan korxonalar, ishlab chiqarish firmalari.
2. Uy xo'jaliklari.
3. Davlat ma'muriy muassasalari.
- 4 Moliya institutlari va tashkilotlari.
5. Xorijiy davlatlar (ma'lum bir davlat chegaralaridan tashqaridagi biznes agentlari).

Bozor iqtisodiyotidagi operatsiya tovarlar, xizmatlar yoki huquqlarni topshirish, yaratish yoki yo'q qilish deb ataladi. Bundan kelib chiqib, kredit berish uchun bank operatsiyalari uy qurish, non pishirish va h.k. bilan bir xil operatsiya bo'lib, operatsiyalar nomenklaturasi uchta katta guruhga bo'linadi:

1. Tovarlarni va xizmatlarni bilan operatsiyalar (ishlab chiqarish, investitsiya, iste'mol, import operatsiyalari va boshqalar).
2. Taqsimlash operatsiyalari (ish haqi, dividendlar, ijtimoiy sug'urta to'lovlari va boshqalar).



3. Moliyaviy operatsiyalar (pul bilan bog‘liq aktivlar va majburiyatlardagi o‘zgarishlar, chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar, kredit operatsiyalari va boshqalar). Shuni ta’kidlash kerakki, moliyaviy balanslar tizimi muvozanat tizimi XX - asrning 50-yillaridan boshlab MHT tarkibiga kiritilgan. MHT hisoblarining turlari:

1. Ishlab chiqarish hisobi.
2. Daromadning shakllanishi hisobi;
3. Daromadni taqsimlash hisobi;
4. Daromadni qayta taqsimlash hisobi;
5. Daromaddan foydalanish hisobi.

Ishlab chiqarish hisobi bir yilda ijtimoiy ishlab chiqarishning xarajatlari va natijalarini hisobga oladi. Ishlab chiqarish jarayoniga taalluqli operatsiyalarni aks ettiradi. Daromadning shakllanish hisobi. Ishlab chiqarish jarayonida milliy daromadning shakllanishini aks ettiradi. Daromadni taqsimlash hisobi ishlab chiqarish ishtirokchilari daromadlarini aks ettiradi. Daromadni qayta taqsimlash hisobi soliqlar va transfert to‘lovlari yordamida ishlab chiqarish ishtirokchilari daromadlarining davlat tomonidan qayta taqsimlanishini aks ettiradi. Foydalaniladigan daromad ajratiladi ( ishlab chiqarish ishtirokchisi daromadi – soliqlar + transfert to‘lovlari).

Daromaddan foydalanish hisobi ishlab chiqarish ishtirokchilarining foydalanadigan daromadini pirovard iste’mol va jamg‘arishga sarflanishini aks ettiradi.

Jadval shaklida taqdim etilgan MHTda resurslar va ulardan foydalanish taqqoslanadi. MHTning muhim xususiyati bu ikki marta yozish prinsipidir. Bu shuni anglatadiki, har bir operatsiyada to‘lovchi va oluvchi bor va shuning uchun bir marta resurs sifatida va bir marta - foydalanish qayd etiladi. Shunday qilib, barcha operatsiyalar real va moliyaviy nuqtayi nazardan tavsiflanadi va milliy iqtisodiyotning jamlangan moddiy va moliyaviy balansi o‘zaro hisob-kitoblar tizimi ko‘rinishida taqdim etiladi. Moddiy - moliyaviy balanslar bilan bir qatorda, MHT ham mehnat (mehnat resurslari) balanslarini o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, BMT statistika xizmati tomonidan milliy buxgalteriya hisobini yuritishning xalqaro standarti sifatida tavsiya etilgan MHT ikki darajadan iborat: jamlangan hisoblar (YaIM va milliy daromadning harakatlanishini kapitalni tejash, boshqa mamlakatlar bilan operatsiyalar aks ettiradi) va batafsil hisoblar (tarmoqlararo munosabatlar, daromadlarning

harakati, ularning taqsimlanishi va yakuniy iste'molini tarmoqlararo aloqalarini ko'rsatadi).

MHT da quyidagi hisoblar turlari bor:

- jamlangan
- ishlab chiqarish, iste'mol, kapital qo'yilmalar
- daromadlar va xarajatlar
- kapital xarajatlarni moliyalashtirish

Butun milliy iqtisodiyotning holatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – yalpi milliy mahsulot (YaMM), yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad (MD), ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflyatsiya va shu kabilar hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlar moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatining umumiy va pirovard natijalarini qamrab oladi.

**Yalpi ichki mahsulot (YaIM) - mamlakat ichida milliy va xorijiy xo'jalik yurutuvchi subyektlar tomonidan bir yil davomida yaratilgan pirovard tovar va xizmatlarning bozor narxida hisoblangan qiymati.**

**Yalpi milliy mahsulot (YaMM) - mamlakat ichida va tashqarisida ushbu mamlakat fuqarolari tomonidan bir yil davomida yaratilgan pirovard tovar va xizmatlarni bozor narxida hisoblagan umumiy qiymati.**

Pirovard tovar va xizmatlar deganda yakuniy iste'mol uchun sotib olingan tovar va xizmatlar tushuniladi. Masalan, kostyum kiyish uchun sotib olinadi. Yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi aynan milliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mamlakat ichida ishlab chiqarishdan pirovard tovar va xizmatlarni bozor narxida hisoblangan qiymatini aks ettiradi. Yalpi milliy mahsulot ko'rsatkichiga esa milliy ishlab chiqaruvchilarning mamlakat tashqarisida ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlar bozor qiymati ham kiritiladi. Masalan, O'zbekistonda faoliyat yuritadigan rossiyalik firma yaratgan tovar va xizmatlarining qiymati O'zbekistonni YaIMga, Rossiya'ni esa YaMM qiymatida qo'shiladi. O'zbekistonlik xo'jalik yurutuvchi subeykt Rossiyada ishlab chiqargan tovar va xizmatlar qiymati O'zbekistonning YaMMga, Rossiya'ning esa YaIMga kiritiladi. Yopiq iqtisodiyotda  $YaIM = YaMM$  bo'ladi.

#### **10.4 Yalpi milliy mahsulotni hisoblash usullari va milliy iqtisodiyotning boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlari**

Yalpi milliy mahsulot ko'rsatkichlari quyidagi uch usulda hisoblanishi mumkin:

- 1) xarajatlar;
- 2) daromadlar;
- 3) qo'shilgan qiymat bo'yicha.

Xarajatlar usulida pirovard mahsulotni iste'mol qilish uchun sarflar jamlanadi:

$$YaMM = C + I + G + X_n$$

Bu yerda: C – aholining iste'mol sarflari;

I – yalpi xususiy investitsiyalar;

G - tovar va xizmatlarning davlat xaridi;

X<sub>n</sub> - sof eksport.

**Aholining iste'mol sarflarga (S)** uy xo'jaligining uzoq muddat foydalanadigan tovarlar (xolodilnik, televizor, avtomobil va h.k) va joriy iste'molga (oziq – ovqat, kiyim bozori, turli xizmatlar va x. k.) qilgan sarflari kiritiladi. Uy joy qurilishiga qilingan sarflar investitsiya deb hisoblangani uchun iste'mol sarflariga qo'shilmaydi.

**Yalpi xususiy investitsiyalar (I)** – bu ishlab chiqarishga nodavlat kapital qo'yilmalaridir. Asosiy (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) fondlarga va zaxiralarga kapital qo'yimlardan iborat. Yalpi investitsiyalar xususiy investitsiyalar va amortizatsiya miqdorlarining yig'indisidan iborat. Sof xususiy investitsiyalar joriy yilda ishlab chiqarishga qilingan qo'shimcha kapital qo'yimlarni aks ettiradi va yalpi xususiy investitsiyalar va amortizatsiya miqdorlarining ayirmasiga teng. Qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar mavjud aktivlarni ayirboshlash bo'lib, joriy ishlab chiqarish hajmini oshirmagani uchun yalpi xususiy investitsiyalarga qo'shilmaydi.

**Davlat tomonidan tovar va xizmatlar xaridi (G)** maktab va yo'llar qurish, armiya va davlat apparatini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlardir. Davlat xarajatlarida transfert to'lovlar (nafaqa, stipendiya, va h.k.) kiritilmaydi, chunki nafaqaxo'r, student va ishsizlar hech narsa yaratmaganlari uchun transfert to'lovlar YaIM miqdorini oshirmaydi.

**Sof eksport (X<sub>n</sub>)** – bu eksport bilan import o'rtasidagi farq. Bu ko'rsatkich mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar miqdori xorijdan mamlakatga olib kirilgan tovar va xizmatlar miqdoridan qanchalik ko'p yoki kamligini ko'rsatadi.

YaMM daromadlar usuli bilan hisoblaganda quyidagi ko'rsatkichlar jamlanadi:

- ish haqi (V)
- renta (R)
- foiz (r)
- foyda (P)
- egri soliqlar (T)
- amortizatsiya (A)

**Ish haqi (V)** – ish haqi tadbirkorlar va davlat tomonidan ishchi kuchini taqdim qilganlarga to'lanadi. U ish haqiga ko'plab qo'shimchalar, ijtimoiy sug'urta to'lovlari va nafaqa ta'minotining har xil xususiy fondlari, ishsizlik nafaqalari va boshqa har xil mukofot hamda imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Ish haqiga bu qo'shimchalar ish kuchini yollash bilan bog'liq bo'lgan xarajatining bip qismidir va shu cababli korxonaning ish haqi to'lashga umumiy sapflarining tarkibiy qismi sifatida qapaladi.

**Renta (R)** – uy xo'jaliklari tomonidan yer, bino va turar joylarni ijaraga berib topgan daromadi.

**Foiz (r)** – pul kapitali egasining daromadi, kredit, bankdagi qo'yilmalar bo'yicha foizlar va h.k. Bunda davlat tomonidan amalga oshiriladigan foizli to'lovlar, foizli daromadlar tarkibidan chiqariladi.

**Foyda (P)** – nokorporativ va korporativ foydadan iborat, ya'ni xususiy, sherikchilik, korporativ korxonalar foydasi va korporatsiyalar ko'radigan foyda. Korporativ foyda o'z ichiga foydaga soliqlar sifatida davlat daromadlari, aksiyalar bo'yicha dividendlar sifatida aksionerlarning daromadi (taqsimlanadigan foyda) va korxonada ixtiyorida qoluvchi foyda (taqsimlanmagan foyda).

**Biznesga egri soliqlar (T)** – bu aksiz yig'implari, sotuvdan soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona xirojlari, yer va mulk solig'i. Ushbu soliqlar ishlab chiqaruvchilardan iste'molchiga mahsulot narxida qo'shilishi orqali o'tkaziladi.

**Amortizatsiya ajratmalari (A)** – aslida joriy yilda YaMM ishlab chiqarish uchun iste'mol qilingan investitsiyaviy tovarlar (stanok, asbob – uskunalar) sotib olish uchun ajratmalardir. Uning xarajat sifatida ahamiyati tadbirkorlik sektor daromadlarining bir qismida resurslarni yetkazib beruvchilar bilan hisob – kitob qilish uchun foydalanib bo'lmasligi bilan belgilanadi. Bu xarajatlarning bir qismi aynan mahsulot qiymatining, ya'ni ishlab chiqarish

xarajatlarining bir qismi bo‘lib, u korxonada foydasini kamaytiradi. Biroq ishlab chiqarish chiqimlarining boshqa turlaridan farq qilib, amortizatsiya biror bir daromadga qo‘shilmaydi. Boshqacharoq aytganda, amortizatsiya ajratmalari shuni bildiradiki, YaMMning bir qismi ishlab chiqarishda ishlatilgan mashina va uskunalarni kelajakda qoplash uchun olib qo‘yilishi lozim. Agar olib qo‘yilmasa, unda korxonalarining ishlab chiqarish zaxiralari ahvoli kelajakda talabga javob bermay qoladi.

Milliy hisob tizimida xarajatlar qismi daromadlar qismida teng bo‘lishi lozim:

$$\begin{array}{l} \text{Joriy yilda ishlab} \\ \text{chiqarilgan mahsulot-} \\ \text{dan olingan, pul da-} \\ \text{romadi} \end{array} = \text{YaMM} = \begin{array}{l} \text{Joriy yilda ishlab} \\ \text{chiqarilgan mahsulot-} \\ \text{larni xarid qilishda} \\ \text{xarajatlar} \end{array}$$

$$\text{yoki } \sum \text{daromad} = \sum \text{xarajat}$$

**Qo‘shilgan qiymat – bu korxonada yalpi mahsuloti bozor narxidan (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangan miqdoriga teng.**

#### 10.1-jadval

##### **Uch bosqichli ishlab chiqarish jarayonida qo‘shilgan qiymat. (mln. so‘m)**

Ishlab chiqarish bosqichlari.	Mahsulotni sotish narxi.	Qo‘shilgan qiymat.
1- korxonada: jamoa xo‘jaligi	20	20
2- korxonada: paxta tozalash zavodi	30	10
3 – korxonada: Ip yigiruv fabrikasi	37	7
Sotilgan mahsulotning umumiy qiymati	87	-
Qo‘shilgan qiymat	-	37

**Qo‘shilgan qiymat – bu korxonada yalpi mahsuloti bozor narxidan (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangan miqdoriga teng.**

YaMM (YaIM)ni qo‘shilgan qiymat usulida hisoblanganda pirovard mahsulotni ishlab chiqarishning har bir bosqichida qo‘shilgan qiymat miqdori jamlanadi (10.1 – jadval).

Ikki marta hisoblashga yo‘l qo‘ymaslik uchun YaMMga faqat korxonalar tomonidan qo‘shilgan qiymat kiritilishi zarurdir. U ishlab chiqarilgan mahsulotning bozor narxi bo‘lib, unda harid qilingan va istemol qilingan xomashyo hamda materiallar qiymati chegirib tashlanishi kerak. Buni misolda tushuntirishga harakat qilamiz. Faraz qilamizki, jamoa xo‘jaligi paxta yetishtirdi va uni qayta ishlovchi korxonaga 20 mln. so‘mga sotdi. Paxtadan ushbu zavod xarajat qilib paxta tolasi yaratdi va uni ip yigiruvchi fabrikaga 30 mln so‘mga sotdi. O‘z navbatida fabrika paxta tolasidan ip yigirib, 37 mln. so‘mga sotdi. Nimaga e‘tibor berish kerak? Avvalo paxta jamoa xo‘jaligi uchun mahsulot hisoblanadi, paxta tozalash zavodi uchun xomashyo, paxta tolasi zavod uchun tayyor mahsulot, ip yigiruvchi fabrika uchun xom – ashyo hisoblanadi. Ikkinchidan esa, jamoa xo‘jaligining paxta sotishdan olgan tushumi 20. mln so‘mni tashkil etadi, paxta tozalash zavodiga esa 20 mln xarajat bo‘lib hisoblanadi. Paxta zavodning qo‘shilgan qiymati 10 mln. (ya‘ni  $30 - 20 = 10$ ), ip yigiruvchi fabrikaning qo‘shilgan qiymati 7 mln. so‘mni (y‘ani  $37 - 30 = 7$ ) tashkil etadi.

Demak qo‘shilgan qiymat korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining bozor narxidan iste‘mol qilingan xomashyo va materiallar ayirmasiga teng.

YaMMni hisoblaganda noumumli bitimlarni, y‘ani moliyaviy bitimlar va ishlatilgan tovarlarni sotishni chegirib tashlash kerak bo‘ladi. Chunki moliyaviy bitimlar aslida qiymat yaratmaydi. Ishlatilgan tovarning qiymati yangiligi davrida YAMM hisoblanayotgan davrda hisobga olingan bo‘ladi. Moliyaviy bitimlar quyidagi bitimlardan iboratdir:

a) davlat byudjetidan transfert (o‘tkazilgan) to‘lovlari (nafaqa, ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari va boshqalar);

b) xususiy transfert to‘lovlari (xususiy kishilar yuborgan nafaqa va yordamlar);

d) qimmatbaho qog‘ozlar bilan bitimlar (aksiya, obligatsiya va shu kabilarni sotib olish va sotish)

Milliy hisob tizimida YaMM va YaIMdan tashqari sof milliy mahsulot, milliy daromad, shaxsiy daromad va foydalaniladigan daromad. Yalpi milliy mahsulot joriy ishlab chiqarish hajmini oshirib ko‘rsatadi, chunki u yillik

ishlab chiqarishning kapitalni qoplashga sarf etadigan (amortizatsion ajratmalar) qismini chiqarib tashlashni nazarda tutmaydi. Shu sababli ishlab chiqarishning sof hajmini tasniflash uchun sof milliy mahsulot ko'rsatkichi ishlatiladi. **Sof milliy mahsulot** iqtisodiyotning kelajak davrlarda ishlab chiqarish imkoniyatlarini kamaytirmasdan yillik ishlab chiqarish hajmini ko'rsatadi. Agarda biz YaMMdan amortizatsiya ajratmalarini (A) chegirib tashlasak, qolgan qismi sof milliy mahsulotni tashkil etadi:

$$SMM = YAIM - A$$

**Milliy daromad – bu mamlakatda bir yilda olingan ish haqi, renta, foiz va foyda summasidir.** Milliy daromad miqdorini aniqlash uchun sof milliy mahsulot miqdoridan egri soliqlar (T) miqdori ayrib tashlanadi:

$$MD = CMM - T$$

Ishlab chiqarilgan va foydalanilgan milliy daromad farqlanadi. **Ishlab chiqarilgan daromad** – bu barcha tovar va xizmatlarning yangidan yaratilgan qiymatidir. **Foydalanilgan milliy daromadni** esa ishlab chiqarilgan milliy daromaddagi tabiiy ofatlardan va boshqa turdagi yo'qotishlardan, shuningdek tashqi savdo saldosi chegirib tashlangandan so'ng qolgan qismi tashkil etadi. Milliy daromad o'zining harakatida ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va foydalanish bosqichlaridan o'tadi. Uning oshib borishining asosiy omilini ishlab chiqarish unumdorligining o'sishi tashkil etadi. Milliy daromadning birlamchi taqsimlanishi ish haqi, foyda, yer rentasi shaklida amalga oshiriladi. Milliy daromadning qayta taqsimlanishi davlat byudjeti orqali amalga oshiriladi. Y'ani ani olingan daromaddan har bir iqtisodiy agent soliq to'laydi; u esa davlat byudjeti tarkib topishining asosi bo'lib hisoblanadi. Milliy daromad iste'mol va jamg'arish uchun foydalaniladi. Iste'mol - bu milliy daromadning joriy iste'mol uchun yo'naltiriladigan qismi. Jamg'arish esa milliy daromadning qurilayotgan obyektlarga, innovatsiyalarga kapital qo'yilma va investitsiyalar qilinadigan qismidir. Jamg'arish ishlab chiqarishning rivojlanishini va kelajakda iste'molni ta'minlaydi.

**Shaxsiy daromad** – bu alohida shaxslar tomonidan ishlab topilgan yoki olingan daromaddir. Gap shundaki, milliy daromadning bir qismi aholining ixtiyoriga kelib tushmaydi. Bu ijtimoiy sug'urta tizim to'lovlari, korporatsiyalarng foydasidan soliqlar, korporatsiyalarni taqsimlanmagan foydasi. Demak, shaxsiy daromadni milliy daromaddan ijtimoiy sug'urtaga to'lovlar, korporatsiya foydasiga soliqlar, korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasini ayrib, transfert to'lovlarni qo'shgan holda aniqlash mumkin.

**Foydalaniladigan daromad** – bu soliqlarni to‘lagandan so‘ng aholida jamg‘arish va iste‘molga qolgan daromad. Foydalaniladigan daromad shaxsiy daromaddan individual soliqlar ( daromadga, shaxsiy mulkga, merosga)ni ayrib tashlash orqali hisoblanadi.

MHTdagi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik:

1) **Yalpi ichki mahsulot** - amortizatsiya = **sof milliy mahsulot**;

2) **Sof milliy mahsulot** - egri soliqlar = **milliy daromad**;

3) **Milliy daromad** - ijtimoiy sug‘urtaga to‘lovlar – korporatsiyalarning foydasiga soliq - korporatsiyalarni taqsimlanmagan foydasi + transfert to‘lovlari= **shaxsiy daromad**;

4) **Shaxsiy daromad** - shaxsiy daromadlarga soliqlar = foydalaniladigan shaxsiy daromad;

5) **Foydalaniladigan shaxsiy daromad**

### 10.5. Narxlar indeksi

Har xil yillardagi YaMMni pul birligining qiymati o‘zgarmagan holdagina taqqoslash mumkin. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar joriy va qiyosiy (bазis) narxlarda hisoblanadi. Shunga ko‘ra amaliyotda nominal va real yalpi milliy mahsulot ko‘rsatkichlari farqlanadi. **Nominal YaMM** joriy narxlarda hisoblangan bo‘ladi. **Real YaMM** inflyatsiya (narxlarninh o‘sishi) ga yoki deflyatsiya (baxolarning pasayishi)ga qarab to‘g‘rilangan bo‘ladi.

Nominal YaMM mahsulot miqdorining va narxlar darajasining o‘shishiga qarab oshib borishi mumkin. Real YaMM da esa narxlar darajasi ta’sir etmaydi. Shuning uchun real YaMM tovar va xizmatlarning hajmini o‘lchab beruvchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

$$\text{Real YAMM(YAIM)} = \frac{\text{Nominal YaMM(YaIM)}}{\text{Narxi indeks}} \times 100\%$$

Narx dinamikasini o‘lchash va nominal YaMMni real YaMMga keltirish uchun quyidagi indekslardan foydalaniladi: YaMM deflyatori, narx darajasi va iste‘mol tovarlar narxi. Ushbu ko‘rsatkichlar baza yili asosida hisoblanadi, ya’ni joriy yildagi o‘rtacha narxlarning baza yildagi o‘rtacha narxlarga nisbatan qanchaga o‘zgarganini ko‘rsatadi. Narx darajasini hisoblaganda baza yili ko‘rsatkichi 1ga teng qilib, narx indeksini hisoblaganda esa 100 ga teng qilib



belgilanadi. Narx darajasini va narx indeksi bir xil axboratni aks ettiradi, biroq narx indeksi ko‘proq mashhurdir. Narxlar darajasi iqtisodiy modellarni qurishda foydalaniladi. Indeksning o‘shish sur‘atlarini inflyatsiya sur‘atlari ko‘rsatadi. Narxlar darajasi **indeks shaklida** ifoda etiladi.

**YaMM deflyatori** - nominal va real YaMM(YaIM) o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi va inflyatsiya darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. YaMM deflyatori- iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlarni hisobga olganligi sababli umumiy indeks hisoblanadi va faqat narxlarning o‘zgarishini emas, balki tovar va xizmatlar strukturasi o‘zgarishini ham aks ettiradi. **Indeksatsiya-** indeksning o‘zgarishiga qarab to‘lovlar miqdorini to‘g‘rlash.

**Iste‘mol narxlar indeksi ( INI )** - odatiy, belgilangan “iste‘mol savatini” tashkil etuvchi tovar va xizmatlarni hisobga oladi. Iqtisodiyotni tartibga solishda yetakchi rolni o‘ynaydi inflyatsiya ya‘ni ish haqi va transfert to‘lovlarini indeksatsiyalashda foydalaniladi. INIning aniqlashda keng foydalaniladigan 300 ta tovar va xizmatlar kiritiladigan “iste‘mol savati” tushunchasidan foydalaniladi

$$\text{Joriy yilning narx indeksi} = \frac{\text{bu yilgi iste'mol savatining narxi}}{\text{baza yildagi iste'mol savatining narxi}} \times 100\%$$

Masalan: faraz qilamizki 2014 yilda bozor savati 64 ming so‘m, 2005 yilda esa 50 ming so‘mga teng bo‘lgan, bunda  $64:50 \times 100 = 128\%$ . Demak, 2014 yilda 2005 yilga nisbatan narx darajasi 28% oshgan bo‘ladi.

YaIM deflyatori narxlarining o‘zgarishini hisobga olgan holda nominal YaIMni o‘zgartirish uchun narx indeksi sifatida foydalanish mumkin.

## 10.2-jadval

**YaMMning narxlar darajasini inobatga olgan holda to‘g‘rlash.  
(raqamlar shartli, milliard dollarda)**

Yillar	Nominal YaMM	Narxlar darajasi indeksi % (1982=100)	Real YaMM (1982 yil narxlarida )
1994	456,8	29,7	1538,0 (=456,6 : 0,297)

1998	892,7	37,7	2367,9 (=892,7 : 0,377)
2002	1212,8	46,5	2608,1 (=1212,8 : 0,465)
2010	2732	85,7	3187,8 (=2732 : 0,857)
2014	3166	100,0	3166,0 (=3166,0 : 1,000)
2018	4861,1	121,7	3394,9 (=4861,8 : 1,217)

YaMM deflyatori va iste'mol narxlar indeksi ( INI) o'rtasida farqlar quyidagilardan iborat:

- YaMM deflyatori iqtisodiyotda ishlab chiqariladigan barcha tovar va xizmatlar ro'yxati bo'yicha narxlarning o'zgarishini ko'rsatadi, iste'mol narxlar indeksi ( INI) esa faqat iste'mol tovarlarga narxlarning oshishini ko'rsatadi.

- YaMM deflyatori ishlab chiqarilayotgan tovarlar strukturasiidagi o'zgarishlarni inobatga oladi, INI esa hisobga olmaydi.

- YaMM deflyatori miliy omillar yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga narxlarni o'zgarishini ko'rsatadi, INI esa import tovarlarga ham narxlarni o'zgarishini ko'rsatadi.

Nominal YaMMni hisoblaganda unga ikkita omil ta'sir etishi hisobga olinadi: tovar xizmatlarni ishlab chiqarishning real o'sishi va narxlarning tebranishi. YaMMni deflyatorini inobatga olgan holda hisoblaganda real YaMM hisoblash mumkin:

Nominal YaMM

$$\text{Real YAMM} = \frac{\text{Nominal YaMM}}{\text{YaIM deflyatori}}$$

Nominal YaMM INI va deflyator yordamida hisoblash ushbu muhim ko'rsatkichni yillar bo'yicha taqqoslash imkoniyatini beradi.

### **10.6. O'zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori o'sish sur'atlarining ta'minlanishi**

YaIM ning 1991-2017 yillarda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 4,5 % ni tashkil qildi. O'zbekiston o'zining rivojlanish modelini izchil amalga oshirishi natijasida boshqa sobiq ittifoq mamlakatlarga nisbatan qisqa muddatlarda, ya'ni 1996 yildayoq iqtisodiy pasayishning oldini oldi, makroiqtisodiy

barqarorlikni ta'minladi va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq asosiy iqtisodiy masalalarni amalga oshirishga kirishdi. 2000-2019 yillar davomida iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'atlari 6,5 % ni tashkil qildi. Oxirgi 10 yilda (2008-2019 yillar) YaIM 2,2 barobarga o'sdi. Iqtisodiy o'sishning asosiy omillari va manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, oxirgi 10 yil davomida iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning 1,8 marta (2008-2018 yillar uchun o'rtacha yillik o'sish – 6,1 %), sanoatda – 1,7 marta (5,4 %), qurilishda – 3,4 marta (13,4 %), xizmatlar sohasida – 2,3 marta (8,8 %) o'sganligi hisobiga ta'minlandi.

2008-2019 yillar uchun YaIM deflyatori indeksi 126,8 % dan 115,6 % gacha kamaydi. 2017 yilda YaIM deflyatori indeksining nisbatan yuqori darajasi (120,8 %) qayd etildi, bu esa asosan, 2017 yil sentyabr oyida valyuta bozorini liberallashtirish va milliy valyutaning devalvatsiyasi bilan bog'liqdir. Oxirgi 10 yillikda (2008-2017 yillar) qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi, investitsiyalarning keng jalb qilinishi natijasida nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishi, balki iqtisodiyot tarkibida muhim sifat o'zgarishlarining yuz berishi ta'minlandi. Tarkibiy o'zgarishlar borasidagi siyosatning izchil amalga oshirilishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti tarkibi diversifikatsiya qilindi. Mustaqillik yillarida sanoat tarmog'i va xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyati yanada kengaytirilishi natijasida YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining bosqichma-bosqich kamayishi (1995 yilda 32,4 % dan 2017 yilda 19,7 % ga) tendensiyasi saqlanib qoldi. Shu bilan birga, YAIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining kamayishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ijobiy o'rtacha yillik o'sish sur'atlari fonida sodir bo'ldi. Sanoat tarmog'ini diversifikatsiyalash, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash bo'yicha chora-tadbirlarning qabul qilinishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmining o'sishi va YaIM tarkibida sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi 1995 yildagi 27,8 % dan 2017 yilda 34,1 % gacha oshishi ta'minlandi. SHu bilan birga, xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti, bandlik va aholi daromadlari o'sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida, mazkur tarmoq qisqa muddat ichida iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sektoriga aylandi. Xizmatlar sohasining YaIM dagi ulushi 1995 yildagi 39,8 % dan 2017 yilda 46,2 % gacha oshdi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk davrlaridayoq, obyektlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Kichik biznes mamlakatimiz iqtisodiyotining 2000-2017 yillardagi rivojlanishida eng muhim omillaridan biri bo‘lib hisoblandi.

Ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab quvvatlash va yanada rag‘batlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarning qabul qilinishi natijasida uning YaIM dagi ulushi 2000 yildagi 31,0 % dan 2017 yilda 54,9 % gacha oshdi.

Yakuniy iste‘mol usuli orqali hisoblangan YaIM tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar YaIM ning yakuniy iste‘mol yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy proporsiyalarini tahlil qilish, shuningdek yakuniy iste‘molchilar talabini qondirish va mamlakat milliy boyligini o‘stirish uchun iste‘mol qilingan tovar va xizmatlar qiymati ulushini aniqlash imkonini beradi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning farqi nimada? Ular iqtisodiyotning qanday ko‘rinishlari uchun xos ekanligini izohlang.

2. Milliy iqtisodiyot tushunchasi nimani ifodalaydi? Uning qanday tarkibiy qismlari mavjud?

3. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o‘ynaydi?

4. YaIM va SMM bir-biridan nima bilan farqlanadi? SMM va milliy dapomadchi?

5. Milliy mahsulot harakat shakllari tavsifini bering.

6. YaIM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat?

7. Nominal va real YaIM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko‘rsating.

8. Takroriy hisob, qo‘shilgan qiymat, oraliq mahsulot va pirovard mahsulot tushunchalarini izohlab bering.

## **11. MAKROIQTISODIY MUVOZANAT**

### **11.1. Iqtisodiy muvozanat tushunchasi. Muvozanat turlari.**

Iqtisodiyotning inqirozsiz, barqaror rivojlanishi uchun uning turli tomonlar o'rtasida ma'lum muvozanat talab etiladi. Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanatning shakllanish jarayoni, uni ta'minlash ancha murakkab va ziddiyatli.

**Iqtisodiy muvozanat - iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir–biriga teng kelgan holati** Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanat o'z ichiga xususiy va umumiy tavsifdagi bir qator muvozanatlar tizimini oladi.

**Xususiy muvozanat — bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi.** Xususiy muvozanat alohida tovarlarga talab va taklif o'rtasidagi muvozanat aholining xarid layoqati va tovar taklifi, byudjet daromadlari va harajatlari o'rtasidagi muvozanat, ko'rinishida namoyon bo'ladi.

**Umumiy muvozanat jamiyat barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish hajmining o'zaro teng kelishini bildiradi,** iqtisodiyotning shunday holatiki unda barcha bozorlarda (ne'matlar, pul, qimmatli qog'ozlar, mehnat) bir vaqtning o'zida muvozanatga yerishiladi. Demak, umumiy iqtisodiy muvozanat birinchidan, yalpi talab va yalpi taklifning tengligini, ikkinchidan esa, barchabozorlarni muvozanatlashtirilgan va kelishilgan holda harakat qilishini talab etadi.

Ne'matlar (tovar va xizmatlar) bozorida, milliy mahsulot hajmi, tovar bozorining barcha subyektlari mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sotib olishga rejalashtirgan sarflariga teng bo'lganda muvozanatga yerishiladi.

Pul bozorida, bank tizimi tomonidan yaratilgan pul miqdori, aholi ixtiyoriy ravishda naqd pul shaklida va muddatsiz bank qo'yilmalari shaklida saqlasa muvozanatga yerishiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida, iqtisodiy subyektlarga taklif etilayotgan qimmatli qog'ozlar aholi tomonidan sotib olingan taqdirda muvozanatga yerishiladi.

Mehnat bozorida, mavjud ish haqi stavkasida ishlashni xohlovchilar ish topa olsalar, muvozanatga yerishiladi.

Umumiy iqtisodiy muvozanatni shakllanishining shartlari mavjud, xususan:

- ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlar o'rtasidagi muvofiqlik;

-iqtisodiy muvozanat barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanadigan iqtisodiy mexanizmning mavjudligi;

- ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy tuzilishi iste'molning tarkibiy tuzilishiga mos kelishi;

- bozor muvozanatiga yerishish, ya'ni barcha asosiy bozorlarda (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi va boshqalar) talab va taklifning muvozanati.

Iqtisodiy muvozanat, shuningdek, yekin raqobat bozorida barcha xaridorlarning tengligi, iqtisodiy vaziyatning barqarorligi kabi shart-sharoitlarga bog'liq.

Real hayotda iqtisodiyot doimiy harakat va uzluksiz rivojlanish holatida bo'ladi. Vaqti-vaqti bilan iqtisodiy siklning bosqichlarida, bozor sharoiti va bozor subyektlarining daromadlarida, harajatlari tarkibida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Shunday qilib, makro darajadagi umumiy iqtisodiy muvozanat mamlakatning butun iqtisodiyotining muvofiqligi hisoblanadi. U barcha sohalar, tarmoqlar va firmalarning normal rivojlanishini ta'minlaydigan, iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilarini, shuningdek, barcha bozorlarda o'zaro bog'liq muvozanatlarni o'z ichiga oladi. Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda iqtisodiy nisbatlar alohida o'rin tutadi.

**Iqtisodiyotdagi munosabatlarni tavsiflovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi miqdoriy aloqalar nisbatlar deyiladi.** Milliy iqtisodiyotning har bir turi makroiqtisodiy nisbatlarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarga ega. Rejalashtirish asosida tartibga solinadigan milliy iqtisodiyotda ular markazlashgan holda, bozor iqtisodiyoti sharoitida – bozor mexanizmi asosida, aralash iqtisodiyotda - bir tarafdin, bozor mexanizmi, ikkinchi tarafdin esa, davlat tomonidan tartibga soluvchi ta'sirni hisobga olgan holda o'rnatiladi.

Makroiqtisodiy nisbatlar tizimni tashkil qiladi va unda quyidagi nisbatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: umumiy iqtisodiy, tarmoqlararo, tarmoq ichidagi, hududiy, davlatlararo.

**1. Umumiy iqtisodiy nisbatlar – ijtimoiy takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan nisbatlar,** masalan, yalpi milliy mahsulot va milliy daromad o'rtasidagi, iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi, iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi, iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi, aholining daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi nisbatlar. Umumiy iqtisodiy nisbatlar asosan davlat darajasida qabul qilingan qarorlar natijasida shakllanadi, va agar ushbu qarorlar

bir-biriga zid bo'lsa, unda mintaqaviy nisbatlarda buzilishlar muqarrar. Xususan, jamg'arish va iste'mol o'rtasidagi nisbatlarning buzilishi, ish joylari mehnat resurslari bilan ta'minlanmaydi yoki aksincha, ishlamoqchi bo'lgan insonlarga ish joyi yetishmaydi.

**2. Tarmoqlararo nisbatlar - umumiy ishlab chiqarish hajmida alohida tarmoqlarning ulushini tavsiflovchi milliy ishlab chiqarishning turli tarmoqlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.** Milliy iqtisodiyot juda ko'p tarmoq va sohalardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi bir-birini taqozo qiladi. Bir tarmoqda yaratilgan mahsulot boshqa tarmoqda iste'mol qilinadi yoki pirovard mahsulotga aylantirilib, o'z iste'molchisini topadi. Bu moddiy ishlab chiqarish sohalari, sanoat infratuzilmasi va ijtimoiy infratuzilma, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, sanoat va qurilish va boshqalar o'rtasidagi aloqani o'z ichiga oladigan nisbatlar. Ular umumiy ishlab chiqarishdagi ayrim tarmoqlarning ulushini va ishlab chiqarish hamda moliyaviy resurslarning tarmoq taqsimoti tarkibini tavsiflaydi.

**3. Tarmoq ichidagi nisbatlar - alohida olingan tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.** Masalan, metallurgiyada, quyma temir va po'lat ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mashinasozligida traktorlar va kombaynlar, yengil sanoatdagi kiyim va poyafzal ishlab chiqarish o'rtasidagi nisbat. Tarmoqlararo mutanosiblik va milliy ishlab chiqarish darajasidagi muvozanatlik tarmoqlar ichidagi mutanosiblik orqali ta'minlanadi.

**4. Hududiy nisbatlar - bu ma'muriy-hududiy birliklar doirasida ajratilgan bo'linmalar, sohalar, ishlab chiqarishlar o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik.** Ular ishlab chiqarilgan va ishlatilgan milliy daromad tarkibidagi ayrim hududlarning ulushini, investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishini tavsiflaydi. Bunga ma'lum bir shahardagi yuridik va jismoniy shaxslarning iste'mol va investitsiya harajatlari o'rtasidagi, ma'lum bir viloyatda sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi nisbatlar misol bo'la oladi.

**5. Davlatlararo nisbatlar - bu alohida davlatlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlik,** ularning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki o'lchovi. Ular ma'lum bir mamlakatning jahon ishlab chiqarishidagi ulushini tavsiflaydi. Masalan, don, neft, oltin va boshqalar.

Ko'rib chiqilgan mutanosibliklarga yerishish orqali milliy ishlab chiqarishning muvozanatli rivoji ta'minlanadi. Agar muvozanat holati

ko'rsatkichlar o'rtasida tenglikni talab etsa, nisbatlarda esa tenglik shart emas, ular mos keluvchi nisbatlarda (masalan, 1:2, 3:1) bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy nisbatlarni eng maqbul tarzda ta'minlash orqali milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojini ta'minlashda quyidagilar nazarda tutiladi:

- mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy salohiyatdan unumli va samarali foydalangan holda mamlakatning ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirib borish;

- ishlab chiqarishning barqaror darajasini ta'minlash orqali keskin o'zgarishsiz ishlab chiqarish hajmini oshirib borishga yerishish;


- to'la bandlik va ishlab chiqarish hajmiga yerishish, ya'ni ishlab chiqarish uchun yaroqli bo'lgan barcha resurslardan samarali foydalanish va taqsimlanishini ta'minlash;

- narxlar bozor raqobati ta'sirida o'rnatilishi va keskin o'zgarmasligini ta'minlash orqali narxlarning barqaror darajasiga yerishish;

- eksport va importni muvofiqlashtirish asosida muvozanatlashtirilgan to'lov balansini ta'minlash.

## 11.2 Yalpi talab tushunchasi, yalpi talab egri chizig'i va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar

**Yalpi talab** –ma'lum davr mobaynida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarga makroiqtisodiy subyektlarning jami sarflari.



### 11.1. -rasm Yalpi talab egri chizig'i.

Yalpi talab mavjud bo'lgan narx darajasida iste'molchi sotib olishga tayyor bo'lgan narx darajasi va ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi **Yalpi talab egri chizig'i (AD)** - har bir narx darajasida qancha miqdorda tovar va xizmatlar sotib olinishi mumkin ekanligini ko'rsatadi. Abssissa



chizig‘i real YaIM yoki ishlab chiqarishning real hajmini, ordinata chizig‘i esa narx darajasini ko‘rsatadi. Yalpi talab bozor talabiga nisbatan murakkabroq tushuncha bo‘lib, jamiyat miqyosida quyidagi tashkil etuvchilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

- uy xo‘jaliklarining iste‘mol sarflari (C);
- firmalarning investitsiyaviy sarflari (I);
- davlat xaridlari (G);
- sof eksport (Xn).

Demak, Yalpi talab quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$AD = S + I + G + Xn$$

Yalpi talabga eng avvalo narx darajasi ta‘sir etadi va uning miqdorini o‘zgartiradi. Narx omili ta‘sirida talab teskari proporsional o‘zgaradi, ya‘ni narxning pasayishi yalpi talab hajmining oshishiga, ko‘tarilishi esa yalpi talab hajmining pasayishiga olib keladi.

Talabning o‘zgarishi AD egri chizig‘ining siljishiga olib keladi. Ushbu holat yalpi talabga narxdan tashqari omillarning ta‘siri natijasida ro‘y beradi. Bu omillar yalpi talabning tarkibiy qismlariga (S + I + G + Xn ) ta‘sir etuvchi omillardir. Yalpi talabga quyidagi narxdan tashqari omillar ta‘sir etadi:


**1. Turli iste‘molchilarning iste‘mol sarflaridagi o‘zgarishlar.** Bu iste‘molchi farovonligi darajasi, iste‘molchining kutishidagi o‘zgarishlar, iste‘molchining qarzlari va soliqlarning o‘zgarishi. Ushbu omillar ta‘sirida iste‘molchilar xaridi hajmida o‘zgarish ro‘y beradi.

**2. Firmalarning investitsiyaviy sarflari.** Narxlarning mavjud darajasida korxonalar sotib olishi mumkin bo‘lgan yangi ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalarning kamayishi yalpi talabning kamayishiga, aksincha korxonalar sotib oladigan investitsiyaviy tovarlarga investitsiyalarning ko‘payishi yalpi talabning oshishiga olib keladi. Investitsiyaviy sarflarni o‘zgartirish mumkin bo‘lgan narxdan tashqari omillar sirasiga foiz stavkasi, subsidiyalar, investorlarga imtiyozli kreditlarning byerilishi, biznesga soliqlar miqdori kiradi.

**3. Davlat sarflari.** Narxlarning mavjud darajasida, milliy mahsulotda davlat xaridining ko‘payishi yalpi talabning o‘shishiga olib keladi. O‘z navbatida davlat siyosati davlat xaridlariga ta‘sir etadi. Agar davlat harbiylashtirish siyosatini olib borsa ko‘proq qurol aslaha sotib olinadi, kuchli ijtimoiy siyosat olib borilsa maktab, kasalxonalar va shunga o‘xshashlarga zarur bo‘lgan tovarlar sotib olinadi. Davlat sarflarining kamayishi yalpi talabning qisqarishiga olib keladi.

**4. Sof eksportdagi o‘zgarish.** Sof eksportga valyuta kurslarining

o'zgarishi, tashqi bozorlardagi sharoit ta'sir etadi. Sof eksportning ko'payishi yalpi talabni ko'paytiradi. Eksportning yuqori darajasi chet ellarda milliy tovarlarga bo'lgan talabni oshiradi. Importning qisqarishi milliy tovarlarga ichki talabning ko'payishiga olib keladi. Sof eksport hajmini avvalo xorijiy davlatlardagi milliy daromad va valyuta kursleri o'zgartiradi. Chet mamlakatlarda daromadlar darajasi oshganda, ularning fuqarolari o'zlarining tovarlarini, ham chet ellarda ishlab chiqarilgan tovarlarni ham ko'proq miqdorda sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.



### 11.2. - rasm. AD ga narxdan tashqari omillarning ta'siri


Chet ellarda milliy daromadning kamayishi esa qarama-qarshi natija beradi: bizning eksportning sof hajmi qisqaradi.

Narxdan tashqari omillar ta'sirida yalpi talab egri chizig'i (11.2 - rasm) AD dan  $AD_2$  ga siljiydi. Ushbu siljish turli narxlar darajasida istalgan tovar va xizmatlarning miqdorini oshiradi. AD egri chizig'ining chapga  $AD_1$  ga siljiganda esa iste'molchilar kamroq tovar xizmatlarni sotib olishi natijasida yalpi talab miqdori kamayishi kuzatiladi. AD ga ta'sir etuvchi bitta yoki bir nechta omillar (ular o'zgarmas deb hisoblanadi) o'zgargandagina yalpi talab hajmida o'zgarish ro'y beradi.

### 11.3. Yalpi taklif tushunchasi, yalpi taklif egri chizig'i (klassik, oraliq - keynsian kesmalar) va uning hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.

**Yalpi taklif (AS) - deganda iqtisodiyot ishlab chiqaradigan yoki turli narx darajalarida ishlab chiqarishning real hajmi tushuniladi.** Yuqori narxlar qo'shimcha tovarlar ishlab chiqarish uchun rag'bat yaratadi va mahsulot hajmini oshiradi. Narxlarning past darajasi esa tovar ishlab chiqarishning

qisqarishiga olib keladi bunda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi kamayadi. Bu holat narxlar va milliy ishlab chiqarish hajmi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rsatadi.



### 11.3 - rasm. AS egri chizig'i

Bu bog'liqlik (AS) taklif egri chizig'ida aniq aks etadi. Yalpi taklif egri chizig'i shakliga kelsak, turli xil iqtisodiy maktablar (Keynscha va neoklassiklar) uning konfiguratsiyasini turlicha talqin qilishadi, shuning uchun egri chiziq barcha qarashlarning sintezini aks ettiradi va uchta qismdan iborat. Buning sababi iqtisodiyotda uchta vaziyat yuzaga kelishi mumkin:

- 1) to'liq bandlikka yerishilmagan holat;
- 2) to'liq bandlikka yaqin holat;
- 3) to'liq bandlik holati.

Bu holatlarga mos yalpi taklif egri chizig'i uch kesimdan iborat bo'ladi: **gorizontal, oraliq, vertikal**

**Gorizontol kesma** Keynscha deyiladi, vertikal esa klassik. Bu holat narxlar va ishlab chiqarish hajmining o'zaro bog'liqligi masalasini keynscha va klassik maktablar namoyondalari tomonidan turlicha talqin qilinishi bilan bog'liq.

Gorizontol kesma milliy ishlab chiqarish potensial hajmidan ancha kam bo'lgan ishlab chiqarishning real hajmini aks ettiradi. Bu kesma iqtisodiyot chuqur tanazzul yoki depressiya holatida ekanligini, ko'plab mashina, uskuna va ishchi kuchi foydalanilmayotganligidan dalolat beradi. Foydalanilmayotgan resurslar harakatga kelishi mumkin, lekin bu narx darajasiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Keyns nazariyasiga ko'ra, turg'unlikka tushgan iqtisodiyot narxlar oshmasdan o'sishi mumkin. Bu kesma yana ishlab chiqarish real hajmi qisqarganda ham tovarlar va resurslarga narx eski darajada qolishini bildiradi. Bu tushunarli, chunki birinchi navbatda bo'shatilgan quvvatlar ishga tushiriladi. Keyns nazariyasi ilgari surilgan Buyuk depressiya yillarida bo'lgani kabi ishchi

kuchi ham jalb qilinadi. **Shunday qilib, yotiq kesma milliy ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda ham narx darajasi doimiy qolishini ko'rsatadi.**

**Oraliq kesmada** iqtisodiyot to'liq bandlik holatiga yaqinlashayotganligini, unda "qiyinchiliklar" paydo bo'layotganini, ya'ni ba'zi tarmoqlarda resurslarning yetishmasligi va ba'zi birlarida esa resurslarning ortiqchaligi vujudga kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, tez rivojlanayotgan iqtisodiyotda avtomobilsozlik sohasida yuqori malakali ishchilar yetishmasligi, aviatsiyada ishsizlik mavjud bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda avtomobilsozlik sanoatida resurslarga aniqrog'i ishchi kuchiga talab oshib boradi, natijada ishlab chiqarish harajatlari oshadi, korxonalar esa rentabellikni saqlab qolish uchun o'z mahsulotlarining narxini oshiradilar. **Oraliq kesma milliy ishlab chiqarishning real hajmining oshishi, narx darajasining o'sishi bilan birga borishini ko'rsatadi.** Bu ishlab chiqarishning to'liq quvvat bilan ishlay boshlaganidan, korxonalarining ancha eski va kam samarali uskunalardan foydalana boshlaganligidan guvohlik beradi. Ishlab chiqarish hajmining kengayib borishi bilan qo'shimcha ishchilar ham ishga jalb qilinadi. Ushu barcha sabablarga ko'ra mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlar ortadi, korxonalar ishlab chiqarishining rentabelli bo'lishi uchun tovarlarga ancha yuqori narx belgilaydi. **Shu sababli oraliq kesmada milliy mahsulot real hajmining ko'payishi narxlarning o'sishi bilan birga boradi**

Tik kesma iqtisodiyot (**vertikal kesim**) to'liq bandlik darajasida ekanligini ko'rsatadi. Bu holatda iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatining shunday nuqtasida joylashadiki, bunda qisqa muddatda ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytirishga imkon bo'lmaydi. Tovarlar va xizmatlarga talabning yanada o'sishi narxlarni oshiradi. Narxning to'xtovsiz oshib borishi ham ishlab chiqarish real hajmining ko'payishiga olib kelmaydi, chunki iqtisodiyot to'liq quvvat bilan ishlay boshlaydi. **Bu kesma milliy ishlab chiqarish hajmi doimiy bo'lib qolishi, narx darajasi esa o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi.** Ushbu kesim klassik (neoklassik) nazariyaga mos keladi, chunki agar davlat iqtisodiyotni tartibga solishga aralashmasa, iqtisodiyot o'zining to'liq bandlik holatini ta'minlaydi.

Shuningdek, yalpi taklifga narxdan tashqari quyidagi omillar ham ta'sir etadi:

- **resurs narxlarining o'zgarishi.** Qimmatroq yoki arzonroq resurslar jami taklif egri chizig'ini chapga yoki o'ngga siljitadi. Masalan, yangi foydali qazilma konlarining ochilishi yerning unumdorligini oshiradi yoki aksincha, yer

osti boyliklarining kamayishi unumdor qatlamning yo‘q qilinishiga olib keladi. Monopoliyalar ham katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xususan, kasaba uyushmalarining ta’sirida ish tashlashlar natijasida ishchi kuchi taklifining qisqarishiga va ish haqi stavkalari oshishiga olib kelish mumkin;

- **mehnat unumdorligidagi o‘zgarishlar.** Mehnat unumdorligi - bu vaqt birligiga ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori. Qancha ko‘p mahsulot ishlab chiqarilsa, xarajatlar kamayadi va yalpi taklif egri chizig‘i o‘ngga siljiydi;

- **huquqiy normalardagi o‘zgarishlar.** Huquqiy normalar o‘zgarishining ikki turi mavjud: a) soliq va subsidiyalarning o‘zgarishi; b) davlat tomonidan tartibga solish tavsifi va usullarining o‘zgarishi.

Korxonalaridan olinadigan soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i, ish haqi fondidan olinadigan soliqlar)ning ko‘payishi mahsulot birligiga xarajatlarni ko‘paytirishi va yalpi taklifni qisqartirishi mumkin. Korxonaga davlat tomonidan byeriladigan subsidiyalarning ortishi yoki soliq yukining kamayishi ishlab chiqarish harajatlarini kamaytiradi va yalpi taklifni oshiradi. Bu narxdan tashqari omillar AS egri chizig‘ining siljishiga olib keladi.

#### **11.4 Yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanatlik hamda uning o‘zgarishi**

Yalpi talab egri chizig‘i va yalpi taklif egri chizig‘i kesishgan nuqta narxning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmini ko‘rsatadi. Ishlab chiqarilgan va sotib olingan mahsulot real hajmi teng bo‘lganda, iqtisodiyotda muvozanatlikka yerishiladi.

YUqorida aytib o‘tilganidek, iqtisodiyot uch xil holatda bo‘lishi mumkin va yalpi taklif egri chizig‘i uch qismdan (gorizontal, oraliq, vertikal) iborat bo‘lganligi sababli, yalpi talab egri chizig‘i uning turli kesmalarida kesishishi mumkin.

Keyns muvozanat modelida (gorizontal qism), iqtisodiy rivojlanishning siklik xususiyatini, ortiqcha ishlab chiqarishning muqarrarligini tan olgan bozor iqtisodiyoti o‘zini o‘zi tartibga soluvchi ichki mexanizmlariga ega emas, shuning uchun hukumat iqtisodiyotni tartibga solishi zarur degan g‘oya’ni asoslagan, narxlar va ish haqini tartibga soluvchi o‘zaro ta’sirida avtomatizmni rad etgan, jamg‘arma darajasi foiz stavkasiga bog‘liq emas va samarali talab siyosatini amalga oshirish zarur deb hisoblagan.


Keyns iqtisodiyoti quyidagi farazlarga asoslanadi:

1. Noaniqlik iqtisodiyoti. Iqtisodiyot holati shaxslarning vaziyatni qanday baholashiga va ularning kelajak haqidagi qarashlariga bog‘liq.

2. Talab iqtisodiyoti. Talab ishlab chiqaruvchilarning xatti-harakatlarini belgilaydi. U ishlab chiqaruvchilarga qaratilgan talabni dolzarb (samarali) deb ataydi.

3. Bandlik bozor muvozanatiga to‘g‘ri kelmaydigan iqtisodiyot.

4. Monetar (pul-kredit) iqtisodiyoti. Pul nafaqat bitimlarni amalga oshirish uchun ishlatiladi, balki bu asosiy likvidlikdir. Foiz stavkasi pul bozorida belgilanadi, bu talabga (likvidlikni afzal ko‘rish) va ichki pul taklifiga bog‘liq.



#### 11.4 -rasm. Yalpi taklif egri chizig‘ining oraliq kesimidagi iqtisodiy muvozanat


AS egri chizig‘i gorizontal, ya‘ni ishlatilmayotgan bo‘sh resurslarning mavjudligini anglatadi, bu esa ishlab chiqarish hajmining ko‘payishiga zamin bo‘lishi mumkin. AS egri chizig‘ining Keynscha kesimi nol ishlab chiqarishdan to‘liq bandlik bilan yerishilgan hajmgacha cho‘ziladi, bunda AS egri chizig‘i vertikal ko‘rinishda bo‘ladi. (11.4 -rasm).

AD barqaror emas, hatto pul massasi o‘zgarib ham u o‘zgaruvchan, chunki AD ning tarkibiy qismlaridan biriga, ya‘ni investitsiyalarga ko‘plab omillar ta‘sir qiladi.

ADning qisqarishi AD egri chizig‘ining AD1 holatiga siljishiga olib keladi, bu esa bandlik va milliy ishlab chiqarish hajmining bir xil narx darajasida kamayishini anglatadi. Ushbu holat uzoq vaqt davom etishi mumkin. Shu sababli, iqtisodiyotni depressiyadan chiqarish uchun Keyns davlat harajatlarini investitsiyalar va xarid qilish va rag‘batlantirish shaklida ko‘paytirish, shuningdek soliqlarni va foiz stavkalarini pasaytirishni taklif qiladi. Bu bilan davlat yalpi talabni rag‘batlantiradi, ya‘ni oshiradi.

Ushbu chora-tadbirlar natijasida AD egri chizig‘i avvalgi holatiga qaytishi yoki to‘liq bandlikka yerishilganda "AD2 holatiga o‘tishi" mumkin. AS egri chizig‘i gorizontallik ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Talabning oshishi bilan firmalar birmuncha vaqt ishchilarni yollashadi, ishlab chiqarishni ko‘paytiradi va talabni oldingi narx darajasida qondiradi. Shuning uchun AS egri chizig‘i gorizontallik ko‘rinishda bo‘ladi. Agar nominal ish haqi qattiq bo‘lsa va narxlar nisbatan moslashuvchan bo‘lsa, unda AD o‘shishi natijasida ularning o‘shishi real ish haqining pasayishiga olib keladi va ishchi kuchi arzonlashadi. Bu firmalarning ishchi kuchiga bo‘lgan talabini oshiradi va ishlab chiqarish hajmi oshadi. AS egri chizig‘i ijobiy nishabga ega bo‘ladi.



### 11.5-rasm. YAlpi taklifning oraliq kesimidagi iqtisodiy muvozanat


Yalpi talab egri chizig‘i yalpi taklif egri chizig‘ini oraliq kesmada kesib o‘tadi va uning siljishi narx darajasining va real YaIMning o‘zgarishi bilan birga keladi (11.5-rasm).

Rasmdan ko‘rinadiki, yalpi talabning AD1dan AD2 ga o‘shishi yalpi taklif egri chizig‘i bo‘ylab milliy ishlab chiqarish hajmining  $Q_1$  dan  $Q_2$ ga qadar oshishiga olib kelmoqda. Ammo, bu k o‘payish ayni paytda narxlar darajasining oshishi ( $R_1$ dan  $R_2$ ga) bilan birga yuz byermoqda. Bu esa oraliq kesmada iqtisodiyotdagi ishlab chikarish resurslari asta-sekin to‘la bandlik holatiga o‘tayotganligini, qo‘shimcha quvvatlarning ishga tushirilishi tobora o‘sib boruvchi xarajatlar orqali amalga oshishini anglatadi. Binobarin, oraliq kesmada milliy ishlab chiqarishning real hajmi qisqarishi va narx darajasi pasayashi ro‘y beradi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, klassik maktab namoyondalari fikricha iqtisodiyot davlat aralashuvisiz avtomatik ravishda to‘liq bandlik holatiga

o‘tadi. Bu, birinchidan, iste‘molchilar o‘z daromadlarini xarajatlarga sarflashlari bilan izohlanadi, ikkinchidan, agar xarajatlar darajasi yetarlicha bo‘lmasa, u holda bunga foiz stavkalari, narxlar darajasi va ish haqi darajasi, shuningdek, foiz stavkalari qo‘shiladi. Agar umumiy xarajatlar kamaytirilsa, bu real YaIM, bandlik va real daromadning pasayishiga olib kelmaydi.

11.6- rasmda yalpi talab egri chizig‘i to‘liq bandlik bo‘lmagan holatda yalpi taklif egri chizig‘ini kesib o‘tadi, narxlar o‘zgarmagan holatda YaIMning hajmi o‘zgaradi.



**11.6 - rasm. Yalpi taklifni vertikal (klassik) kesimidagi iqtisodiy muvozanat**


Rasmdan ko‘rinib turibdiki, tik kesmada yalpi talab miqdorining  $AD_1$  dan  $AD_2$  ga oshishi faqat narx darajasining  $R_1$  dan  $R_2$  ta qadar o‘shishiga olib kelmoqda, milliy ishlab chiqarish hajmi esa potensial daraja —  $Q_s$  hajmida qolmoqda. Chunki bu chegarada iqtisodiyot o‘zining barcha ishlab chiqarish imkoniyatlarini ishga solib bo‘lgan hisoblanadi.

Klassik nazariya‘ning bu pozitsiyasi J.B.Sey qonuniga asoslanadi - taklif o‘zining talabini yaratadi, ya‘ni olingan barcha daromad sarflanadi. Ammo savol tug‘iladi: nima uchun barcha daromad sarflanadi? Axir, daromadning bir qismi jamg‘arilishi mumkin, bu esa umumiy xarajatlar va bandlikning kamayishiga olib keladi.

Bunday bo‘lmaydi, deyishadi klassiklar, chunki jamg‘arma tadbirkorlar tomonidan investitsiya qilinadi, tadbirkorlar barcha harajatlarini faqat tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga sarflamaydilar, balki tovarlarga sarmoya kiritib, bir-birlariga sotadilar. Ammo uy xo‘jaliklari odatda iste‘mol qilishni afzal ko‘rishadi va agar ular mukofot sifatida investorlarga to‘laydigan foiz stavkasini olsalargina jamg‘aradilar, ya‘ni tadbirkorlar, foiz qancha yuqori bo‘lsa, uy xo‘jaliklarining jamg‘arish istagi shunchalik yuqori bo‘ladi, shuning uchun jamg‘arish egri chizig‘i yuqoriga ko‘tariladi. Foiz stavkasi qanchalik past bo‘lsa, investorlarning jamg‘arishga murojaat qilish istagi shunchalik yuqori bo‘ladi.



Jamg'arish o'sganda, egri chiziq o'ng tomonga siljiydi ( $S_0$  dan  $S_1$  ga) va foiz stavkasi pasayadi ( $r_0$  dan  $r_1$  gacha) va bu o'z navbatida investorlarning talabining o'sishiga olib keladi va foiz stavkasi oldingi darajaga ko'tariladi.



**11.7- rasm. Foiz stavkasining o'zgarishi**

Agar foiz stavkasi investitsiya va jamg'arma bozorini muvozanatlay olmasa, unda narx darajasi yordam beradi. Jamg'arishni ko'paytirishi narxlarning pasayishiga, pulning xarid qobiliyatini oshirishga olib keladi. Talab qonuniga ko'ra, odamlar ushbu jamg'armani arzonroq tovarlarga sarflashadi.

Narxlarning pasayishi, o'z navbatida, resurslar, shu jumladan ishchi kuchi narhlarini pasaytiradi. Mahsulotga bo'lgan talabning umumiy pasayishi resurslarga, shu jumladan ishchi kuchiga talabni kamaytiradi. Natijada ishsizlik paydo bo'ladi. Ishidan mahrum bo'lganlar eski stavkalarda yollana olmaydilar va past narxga rozi bo'ladilar. Ularni bunga ishsizlar o'rtasidagi raqobat majbur qiladi, bu esa ish haqini yanada pasaytiradi.

Natijada tadbirkorlarga (ish beruvchilarga) xodimlarni ish haqining past stavkasi bo'yicha yollash foydali bo'ladi, natijada majburiy ishsizlik bo'lmaydi. Klassik maktab iqtisodiyotni o'zini- o'zi tartibga solish tizimi sifatida qabul qildi va davlatning aralashuvini rad etdi.


### **11.5 Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlash usullari**

Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlash quyidagi asosiy usullar yordamida amalga oshiriladi:

1. Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli;
2. Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli.

**Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usulida,** birinchidan, ishlab chiqarish umumiy hajmining miqdoriy ko'rsatkichi sifatida sof milliy mahsulot (SMM), ikkinchidan esa, iqtisodiyotda yalpi sarflar sifatida iste'mol hajmi va sof investitsiya sarflarining umumiy summasi ( $S+I_n$ ) olinadi. Mazkur modelda yalpi investitsiyalar o'rniga sof investitsiyalar ko'rsatkichidan

foydalanish ishlab chiqarish umumiy hajmini ifodalashda YaIM o‘rniga SMM ko‘rsatkichining qo‘llanishi bilan izohlanadi. Iqtisodiy muvozanat darajasini tahlil qilish jarayonini soddalashtirish maqsadida yalpi sarflar tarkibidagi davlat (G) hamda chet el omili ( $X_n$ ) e‘tiborga olinmaydi.



### 11.8 - rasm. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashning yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli

Iqtisodiyotning muvozanatli darajasi bu ishlab chiqarishning shunday hajmiki, u ishlab chiqarish mazkur hajmini sotib olish uchun yetarli umumiy sarflarni ta‘minlaydi. Boshqacha aytganda, sof milliy mahsulot muvozanatli darajasida ishlab chiqarilgan tovarlarning umumiy miqdori (SMM) xarid qilingan tovarlar umumiy miqdoriga ( $S+I_n$ ) teng bo‘ladi, ya‘ni  $SMM = S+I_n$  (11.8- rasm).


Chizmadan ko‘rinadiki,  $45^\circ$  burchak ostida o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq orqali yalpi sarflar hamda ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi tenglik ifodalanadi.

Bu to‘g‘ri chiziqning har qanday nuqtasidan chiqarilgan yotiq va tik yo‘nalishdagi chiziqlar teng miqdorlarni ko‘rsatadi. S chizig‘i esa iste‘mol sarflari miqdorini aks ettirib, daromad (ya‘ni SMM) hajmi oshib borishi bilan uning darajasi ham o‘sib boradi. YAlpi sarflar ( $S+I_n$ ) chizig‘ini hosil qilish uchun iste‘mol sarflarining (S) turli hajmiga mos tushuvchi sof investitsiyalar ( $I_n$ ) miqdori qo‘shib boriladi. Bu o‘rinda tadbirkorlar tomonidan amalga oshirish ko‘zda tutilayotgan investitsiyalar hajmi daromad darajasiga bog‘liq emas, deb qabul qilinadi. Shu sababli yalpi sarflar chizig‘i iste‘mol sarflari chizig‘idan  $I_n$  miqdoriga teng uzoqlikda joylashadi.

Chizmada iqtisodiy muvozanatga E nuqtada yerishiladi, ya'ni aynan shu nuqtada ishlab chiqarilgan sof milliy mahsulot hajmi ( $SMM_E$ ) iste'mol qilingan mahsulot hajmiga  $(S+I_n)_E$  teng keladi.

To'la bandlik sharoitida yalpi sarflar SMM hajmi bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mos kelmaslik chizmada retsession yoki inflyatsion farq ko'rinishida ifodalangan. **Yalpi sarflarning SMM hajmidan kam bo'lgan miqdori retsession farq, yalpi sarflarning SMM hajmidan ortiqcha bo'lgan miqdori inflyatsion farq deyiladi.**

**Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashning jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli** ishlab chiqarilgan mahsulotning har qanday hajmi shunga mos daromad hajmini beradi degan fikrga asoslanadi. Biroq, aholi bu daromadning bir qismini iste'mol qilmasdan jamg'armaga qo'yishi mumkin. Jamg'arma "sarflar — daromadlar" oqimidan potensial sarflarni olib qo'yish hisoblanadi. Bunda jamg'armaga qo'yilgan mablag' investitsiyalar bilan to'liq qoplansa, yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmiga teng bo'ladi (11.9-rasm). Investitsiyaviy sarflarning ko'payishi ishlab chiqarish hajmi va daromad darajasining o'sishiga olib keladi. Bu o'zaro natija multiplikator samarasi bilan izohlanadi.



### 11.9 –rasm. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashning jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli

Multiplikator tushunchasi «ko'paytiruvchi» degan ma'noni anglatadi. Multiplikator samarasining mohiyati investitsiya hajmining o'sishi jamiyat milliy daromadining unga nisbatan ko'proq o'sishiga olib kelishi orqali ifodalanadi.

**Multiplikator samarasi — bu sof milliy mahsulot (SMM) o‘zgarishining investitsiya sarflaridagi (IS) o‘zgarishga nisbati:**

Multiplikator samarasi = SMM o‘zgarishi / IS o‘zgarish

Yoki multiplikator koeffitsiyentini (k) quyidagicha ifodalash ham mumkin:

$$k = \frac{1}{1 - MPC} = \frac{1}{MPS}.$$

Bundan kelib chiqqan holda:

Real SMMdagi o‘zgaris = k x IS o‘zgarish

Investitsiyaviy sarflardagi o‘zgarishdan tashqari iste‘mol, davlat xaridi yoki eksportdagi o‘zgarishlar ham multiplikator samarasiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, jamg‘arma va investitsiya darajasi ham o‘ziga xos chegaralarga ega bo‘lib, bu borada klassik va keynscha qarashlar tafovutlanadi. Klassik nazariya qarashlariga ko‘ra, jamg‘arma investitsiya manbai bo‘lib, jamg‘armaga nisbatan moyillikning yuqori darajasi muqarrar ravishda iqtisodiyotning yuksalishiga olib keladi.

Keynscha nazariya esa klassik talqinga qarshi chiqib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon o‘zgacha kechishi ta‘kidlanadi. Chunki, rivojlangan mamlakatlarda jamg‘armaga bo‘lgan intilish investitsiyalashga bo‘lgan intilishdan jadalroq borib, u quyidagi sabablar bilan izohlanadi:


**birinchidan**, yuqori foyda keltiruvchi kapital qo‘yilmalarning muqobil imkoniyatlari qisqarib boradi. Natijada kapital jamg‘arishning o‘sishi bilan uning amal qilishining keyingi qo‘shilgan samaradorligi pasayib boradi;

**ikkinchidan**, rivojlangan mamlakatlarda daromadlarning o‘sishi bilan jamg‘armaning ulushi oshib boradi. Shunga ko‘ra, jamg‘arma hajmi investitsiya sarflari hajmidan oshib ketsa, jamg‘arma egalari muvaffaqiyatsizlikka duchor bo‘ladilar. Bu holatni iqtisodiy adabiyotlarda «tejamkorlik paradoksi» tushunchasi orqali izohlanadi.

Bu paradoksning mohiyati shundan iboratki, investitsiyalar nazariy jihatdan avtonom va hosilaviy investitsiyalarga ajratilib, avtonom investitsiyalar milliy daromad hajmi va uning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmasa, hosilaviy investitsiyalar esa milliy daromadning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘ladi. Aynan avtonom investitsiyalarga qo‘shimcha ravishda o‘sib boruvchi hosilaviy

investitsiyalar iqtisodiy o‘shishni kuchaytirishi, uni jadallashtirishi natijasida **akselyerator samarasi** ro‘y beradi (“akselyerator” tushunchasi “jadallashtiruvchi” degan ma’noni anglatadi).

Hosilaviy investitsiyalarning iqtisodiy tabiatidagi o‘ziga xoslik shundaki, u milliy daromadning o‘shishiga qanchalik uzviy bog‘liq bo‘lsa, uning qisqarishiga ham shu darajada ta’sirchan bo‘ladi. Ya’ni, iqtisodiyotdagi daromadlarning qisqarishi hosilaviy investitsiyalarning undan ham tezroq qisqarishiga olib keladi. Natijada iqtisodiyotda ishlab chiqarish resurslarining bandlilik darajasi pasayadi. Bunday sharoitda jamg‘armaga bo‘lgan moyillikning o‘shishi o‘z navbatida iste’molga bo‘lgan moyillikning pasayishini anglatadi. Iste’mol sarflarining qisqarishi esa mavjud tovar va xizmatlarning sotilmay qolishiga, ya’ni ishlab chiqarish zaxirasining ko‘payishiga olib keladi. Oqibatda yangi kapital qo‘yilmalar amalga oshirilmaydi, ishlab chiqarish qisqaradi, ishsizlikning o‘shishi va daromadlarning pasayishi ro‘y beradi. Aholi tomonidan jamg‘armaning haddan ortiq ko‘paytirib yuborilishi oqibatida kelib chiquvchi salbiy jarayonlar, ya’ni - «tejamkorlik paradoksi» shunday tarzda namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonni quyidagi chizma orqali ham ko‘rib chiqish mumkin (11.10- rasm)



**11.10 - rasm. «Tejamkorlik paradoksi».**

11.10 - rasmning yotiq o‘qida milliy daromad, tik o‘qida esa jamg‘arma va investitsiyalar hajmi joylashtirilgan bo‘lib, F chizig‘i iqtisodiyotdagi to‘la bandlik sharoitida milliy daromad hajmini ifodalaydi.

E’tibor byerilsa, chizmadagi investitsiya sarflari chizig‘i yotiq o‘qqa parallel emas, balki o‘tib boruvchi ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, avtonom investitsiyalardan farqli o‘laroq, hosilaviy investitsiyalarning milliy daromad hajmiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Chizmadan ko‘rinadiki, iqtisodiyotdagi jamg‘arma hajmi S dan S<sub>1</sub> ga qadar o‘smoqda. Natijada jamg‘armaning investitsiya bilan muvozanat nuqtasi E dan E<sub>1</sub> ga ko‘chdi. Biroq, bu o‘shish E nuqtadagi milliy daromad hajmi ON ning E<sub>1</sub>

nuqtadagi  $ON_1$  hajmiga qadar qisqarishiga olib keldi. Tegishli ravishda investitsiya hajmi ham  $EN$  darajadan  $E_1N_1$  darajaga qadar qisqardi.  $E_1E_0E$  nuqtalarini tutashtirish natijasida hosil bo'luvchi uchburchak yuzasi jamg'arma hajmining o'sishi natijasida investitsiya imkoniyatlarining qisqarishini,  $EE_0$  kesma esa investitsiyalarning qisqarishini ko'rsatadi. Aynan shu holat, ya'ni jamg'armalarning o'sishi natijasida investitsiyalarning qisqarishi «tejamkorlik paradoksi» mohiyatini namoyon etadi.

Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda yuqoridagi usullardan tashqari balans usulidan hamda xarajat va natijalarni taqqoslash usulidan ham foydalaniladi.

Balans usulida tarmoqlararo balans, moddiy, moliyaviy va ishchi kuchi balanslaridan foydalanib iqtisodiyotdagi muvozanatlik darajasiga baho byeriladi.

«Xarajat va natija»larni taqqoslash usulida ishlab chiqarishga qilingan iqtisodiy resurs harajatlari miqdori bilan olingan mahsulot hajmini taqqoslash orqali muvozanat darajasi tahlil qilinadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Yalpi talab va yalpi taklifni tahlil qilish nima uchun zarur?
2. Yalpi talab nima? Nima uchun yalpi talab egri chizigi o'zgaradi?
3. Yalpi talabga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Yalpi talab egri chizigining pasayuvchan shaklda bo'lishiga foiz stavkasi, boyluk va import tovarlar xaridi samaralarining ta'sirini tushuntirib bering.
5. Yalpi taklif nima? Yalpi taklif egri chizig'ini uchta kesmasini tasvirlang va ular nimani ko'rsatishini tushuntiring?
6. Yalpi taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
7. Hozirgi sharoitda O'zbekistonda yalpi taklifning o'zgarishiga ko'proq qaysi omillar ta'sir ko'rsatmoqda?
8. O'zbekistonda yalpi taklif hajmini oshirishda davlat tomonidan qanday choralar ko'rilmogda?
9. Yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining ahamiyat nimada? Bunday muvozanatga erishish yo'llarini izohlab bering.

## **12. ISTE'MOL JAMG'ARMA VA INVESTITSİYALAR**

### **12.1. Iste'mol va jamg'arishning iqtisodiy mazmuni va manbalari.**

Makroiqtisodiy darajada rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etganda iste'mol, jamg'arma va investitsiya kategoriyalarini tahlil qilish iqtisodiyotning muvozanatli va davriy rivojlanish bilan bog'liq muammolariga boshqacharoq nazar tashlashga imkon beradi.

Iste'mol YaIMning eng katta tarkibiy qismi bo'lgani uchun uni tahlil qilish asosiy makroiqtisodiy muammolarni o'rganish uchun juda muhimdir. Yalpi iste'molni o'rganayotganda, iste'mol qilish jarayoniga ta'sir qiluvchi obyektiv va subyektiv omillarga, iste'mol sarflarini amalga oshirishda psixologik omilning roliga e'tibor byerish kerak. Ma'lumki, turli oilalar iste'mol harajatlarini rejalashtiradilar va sarflaydilar, ular nimani va qachon sotib olishlarini o'zlarining mustaqil fikrlariga tayangan holda amalga oshiradilar.

Shunga qaramay, mamlakatda o'rtacha iste'mol sarflarini amalga oshirishning umumiy qonuniyatlari mavjud. Ushbu qonuniyatlar iste'molning tuzilishi va hajmlarini oldindan istiqbollashtirishga imkon beradi. Boshqacha aytganda, jamiyatda iste'mol qilishning barqaror tendensiyasi kuzatilmaydi. **Keyns bu hodisani o'zining mashhur asosiy psixologik qonuni yordamida tasvirlaydi, unga ko'ra daromadlar o'sishi bilan iste'mol o'sadi, lekin daromad o'sishi bilan mutanosib emas - iste'mol daromad o'sishidan ortda qoladi, aholining jamg'arishlari nisbatan ko'payadi.**

Mamlakatda yaratilgan milliy daromad iste'mol va jamg'arish maqsadlarida sarflanadi. YAlpi iste'mol mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishni bildiradi. Bunda jami iste'mol unumli va shaxsiy iste'moldan iborat bo'ladi.

**Unumli iste'mol ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining, shaxsiy iste'mol esa insonlarning iste'mol buyumlari va xizmatlarini iste'mol qilish jarayonidir.** Unumli iste'mol ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradi. Shaxsiy iste'mol esa ishlab chiqarish jarayonidan tashqarida yuz beradi. Yakka tartibdagi yoki jamoa bo'lib iste'mol qilish ham farqlanadi. Alohida shaxsning o'z ixtiyorida bo'lgan ne'matlarni iste'mol qilishi yakka tartibdagi iste'mol, jamiyat a'zolari turli guruhlarining ne'matlardan birgalikda foydalanishga jamoa bo'lib iste'mol qilish deyiladi.

Keyns nazariyasida umumiy talab quyidagi ko'rsatkichlarga bog'liq.

a) **iste'mol (C)** - ma'lum vaqt ichida sotib olingan va iste'mol qilingan tovarlarning umumiy soni ( umumiy iste'mol talabi);

b) **jamg'arma (S)** – aholini pul daromadlarining uni odamlar kelajakdagi xaridlari uchun, kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish uchun ajratadigan qismi.

d) **investitsiyalar (I)** - mamlakat ichkarisida va chet elda uzoq muddatli kapital qo'yilmalar.

Bunda daromad ( Y ) iste'mol ( C ) va jamg'arma ( S ) yig'indisiga teng:

$$Y = C + S.$$

Demak, iste'mol jami sarflarning tarkibiy qismidir. Daromad iste'molning manbai hisoblanadi. Daromadni iste'moldan ortib qolgan qismiga jamg'arma deyiladi. **Aynan daromad iste'mol va jamg'arma manbaidir.**

**Jamg'arish va iste'mol daromadlar darajasiga bog'liq. Chunki aynan daromad jamg'arish va iste'molning manbaidir.**

Odatda daromadlari mamlakatdagi o'rtacha daromad miqdoridan yuqori bo'lgan oilalar daromadlarining bir qismini jamg'aradilar. Qanchalik oila kambag'al bo'lsa, shunchalik kam jamg'aradi. Eng kambag'al aholining jamg'arishi 0 ga teng. Qarzga yashovchi aholi manfiy jamg'armaga egadir. Demak hamma oilalar ham jamg'ara ololmaydilar. Jamg'arishdan farqli o'laroq barcha oilalar iste'mol qiladilar. Biroq uning pastki darajasi tirikchilik minimumidan pastga tushib ketmasligi kerak. Iste'mol joriy talabni, jamg'arish esa kelajakdagi talablarni qondiradi.

**Iste'mol fondi – bu milliy daromadning jamiyat a'zolarining barcha ehtiyojlarini qondirishga sarflanuvchi qismi.** Iste'mol fondi butun aholining shaxsiy iste'molini va noishlab chiqarish sohadagi muassasalari va tashkilotlarning barcha sarflarini o'z ichiga oladi. Iste'mol fondi insonlarning va umuman jamiyat talablarini qondiradi.

Iste'mol fondining shaxsiy daromad shaklida aholi qo'lga kelib tushadigan qismi iste'mol sarflari maqsadida ishlatiladi. Iste'mol sarflari – bu aholi joriy daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi. Iste'mol miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$C = Y - S, \text{ ya'ni iste'mol} = \text{daromad} - \text{jamg'arma}$$

Aholi o'z daromadini sarflar ekan, bugungi (joriy) iste'mol hamda kelgusidagi iste'mol hajmini oshirish o'rtasida tanlovni amalga oshiradi. Kelgusida iste'mol hajmini oshirish imkoniyati joriy davrdagi jamg'armaga ham bog'liq bo'ladi.

**Jamg'arma – bu milliy daromadning aholi, korxonalar (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishi. Jamg'arma fondi - ishlab chiqarishni**



**kengaytirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga sarflanadi.** Uning hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$S = Y - C \text{ ya'ni jamg'arma} = \text{daromad} - \text{iste'mol}$$

**Jamg'arish - milliy daromadning (MD) tarkibiy qismi bo'lib, asosiy va aylanma kapital shuningdek rezerv zaxiralarni ko'paytirishga sarflanadi.**

Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish jamg'arish farqlanadi. Jamg'arilgan mablag'larning bir qismi moddiy ishlab chiqarish sohasida asosiy va aylanma kapitalni kengaytirishga sarflanadi, bu miqdor ishlab chiqarish jamg'arishni tashkil qiladi. Ishlab chiqarishdagi jamg'arish iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Jamg'arish summasi, uning hajmi va tarkibi takror ishlab chiqarish sur'atlarini aniqlaydigan omil hisoblanadi. Jamg'arish normasi jamg'arish summasining milliy daromad xajmiga nisbati oqali hisoblanadi:

$$JN = (JS/MD) \times 100\%,$$

Bu yerda: NS – Jamg'arish normasi;

JS – jamg'arish summasi;

MD – milliy daromad.

Jamg'arish normasining chegarasi mavjud. Ushbu chegaradan o'tib ketish iqtisodiy nosamarador va noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, haddan tashqari jamg'arish natijasida investitsiyaviy sarflarning samaradorligi pasayib ketishi mumkin, chunki kapital mablag'lar va qurilish tashkilotlari quvvatlari, materiallar va dastgohlarni yetkazib berish imkoniyatlari va infratuzilma o'rtasida nomutanosibliklar vujudga kelishi mumkin. Buning natijada iqtisodiy o'sish pasayish tendensiyasiga ega bo'ladi.

Iste'mol va jamg'arma darajasini aniqlab beruvchi asosiy omil milliy daromad va uning o'zgarishi hisoblanadi. Milliy daromad YaMM qiymatidan amortizatsiya ajratmalari va biznesga egri soliqlarni ayirish orqali hisoblanadi. Biroq milliy daromad tarkibida to'g'ri soliqlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli soliqlar to'langandan keyin aholi qo'lida qoladigan daromad iste'mol sarflari va shaxsiy jamg'arma yig'indisiga teng bo'ladi. Iste'mol va shaxsiy jamg'armaning darajasi bevosita soliqlar to'langandan keyingi qolgan daromad bilan aniqlanadi. Bu daromad ixtiyordagi yoki sof daromad deyiladi. Demak bu daromad iste'molning ham, jamg'armaning ham umumiy manbai hisoblanadi. Chunki jamg'arma daromadning iste'mol qilinmaydigan qismi hisoblansa, soliqlar to'langandan keyingi daromad shaxsiy jamg'armani aniqlab beradigan

asosiy omil bo'lib chiqadi. Har yilgi haqiqiy iste'mol miqdori va soliqlar to'langandan keyingi daromad o'rtasidagi farq shu yildagi jamg'arma miqdorini aniqlaydi.

Jamg'arish iqtisodiyotda yalpi sarflarning tarkibiy qismi bo'lib, investitsiyaviy tovarlarga talab darajasini aniqlaydi. Aslida, investitsiyalar jamg'arishni namoyon bo'lish shakli bo'lganligi sababli tahlilni jamg'arishni mohiyati, omillari va samaradorligining nazariy asoslarini asoslashdan boshlaymiz.

Shunday qilib, iqtisodiy o'sishning sur'atlari va sifatiga faqat jamg'arishning miqdor ko'rsatkichlari ta'sir etmaydi. Fan texnika progressi natijasi bo'lmish innovatsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish birinchi va hal qiluvchi omildir. Chunki jamg'arish milliy daromadning takibiy qismi hisoblanadi, unda milliy daromad hajmini oshirishini aniqlovchi omillar jamg'arishning hajmini ham aniqlaydi. Foydalanayotgan resurslarning miqdori va unumdorligi ana shunday omillardan biri hisoblanadi. Jamg'arish hajmi xomashyo, materiallar va energiya sarflarini tejashga ham bog'liq. Ushbu sarflarni mahsulot birligiga kamaytirish, ushbu material vositalar miqdorini ko'paytirmasdan ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini ko'paytirishga imkon beradi.

Daromad tarkibida iste'mol sarflari ulushi qanchalik ko'p bo'lsa, jamg'arma hajmi shunchalik kam bo'ladi. O'z navbatida jamg'arma miqdorining oshishi esa daromadlarning iste'mol buyumlari xarid qilishdan investitsiyaviy tovarlar xarid qilishga yo'naltirilishini bildiradi. Shu sababli daromad tarkibidagi iste'mol sarflari va jamg'arma nisbatining o'zgarishi bir qator, ba'zan ziddiyatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Birinchi, bir tarafdin daromadlar bir qismining jamg'arilishi iste'mol miqdorini kamaytiradi, bu esa talab miqdorini kamaytiradi. Aholi daromadining jamg'arilgan qismi o'zining xususiy talabini vujudga keltirmaydi. Buning natijasida sotilmay qolgan tovarlarning ko'payishi, ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlik va daromadlarning pasayishi ro'y berishi mumkin. Ikkinchi tarafdin esa jamg'arilgan mablag'lar tadbirkorlar tomonidan investitsiyaviy maqsadlarda ishlatiladi. Bu jamg'arma keltirib chiqaradigan iste'mol sarflaridagi har qanday yetishmaslikni to'ldiradi.

Korxonalar ham o'zining ishlab chiqargan barcha mahsulotini iste'molchilarga sotishni nazarda tutmaydi, mahsulotning bir qismini uning o'zi ishlab chiqarishida foydalanishi mumkin. Shunday qilib, agar tadbirkorlar

aholining jamg'armalariga teng miqdordagi mablag'larni investitsiyalarga qo'yishni ko'zda tutsa, ishlab chiqarish darajasi doimiy bo'lib qoladi.

Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi eng maqbul nisbat, shuningdek iste'mol qilish va jamg'arishga o'rtacha va maksimal moyillik, quyidagi tamoyillarga asoslangan makroiqtisodiy muvozanatning Keyns modelida ko'rib chiqilgan:

- iqtisodiy faoliyat darajasi yalpi taklifni emas, balki yalpi talabni belgilaydi;

- ish haqi va narxlar moslashuvchan emas;


- iqtisodiyotda to'liq bandlik o'z-o'zidan ta'minlanmaydi, ishsizlik uzoqqa cho'zilishi mumkin. Bu iqtisodiyotga davlat aralashuvining sabablaridan biri hisoblanadi.

## **12.2. Iste'mol va jamg'arma o'rtasida optimal nisbat. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha va keyingi qo'shilgan moyillik**

Iste'mol va jamg'arma hajmi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik iste'mol va jamg'arma funksiyasi deyiladi. Bu funksiyalarni talqin etishda klassik iqtisodchilar va keynschilarning yondashuvlari farqlanadi. Klassik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, insonlar o'z daromadlarining bir qismini qo'shimcha daromad keltirgan taqdirdagina jamg'aradilar. Demak banklarning real foiz stavkasi qanchalik yuqori bo'lsa, insonlarning jamg'arishga qiziqishlari shunchali kuchli bo'ladi, ya'ni jamg'arma real foiz stavkasining o'sib boruvchi funksiyasi hisoblanadi. Agar aholi daromadlari iste'mol va jamg'arma mablag'larining yig'indisiga teng ekan, real foiz stavkasining o'sishi bilan iste'mol kamayib, oshishi bilan esa ko'payib boradi. Boshqacha aytganda, klassik iqtisodchilar fikriga ko'ra iste'mol real foiz stavkasining pasayib boruvchi funksiyasi hisoblanadi, ya'ni  $C=f(r)$ .

J.M.Keyns klassik iqtisodchilarning bu fikrlariga qo'shilmaydi, aholining iste'mol sarflari real foiz stavkasiga u qadar bog'liq emasligini, insonlar uchun hamma vaqt joriy iste'molning kelgusidagi iste'moldan afzalligini ta'kidlaydi va uy xo'jaliklarining joriy daromadlarini iste'mol sarflari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil deb hisoblaydi. Demak, Keyns fikriga ko'ra, iste'mol uy xo'jaliklari joriy daromadlarining o'sib boruvchi funksiyasi hisoblanadi:

$$C = f(Y).$$




**12.1- rasm. Iste'mol funksiyasining grafikdagi tasviri**

Iste'mol funksiyasini grafik ko'inishida ham tasvirlash mumkin (12.1-rasm). Bunda tik o'q iste'mol sarflari ( $S$ ), yotiq o'q esa aholi ixtiyoridagi daromad miqdorini ( $Y$ ) ko'rsatadi.

Abssissa o'qi sof daromadni ( $Y$ ), ordinata o'qi esa iste'mol xarajatlarini ( $S$ ) ko'rsatadi.  $45^\circ$  burchak ostida chizilgan to'g'ri chiziqda ( $F$ ) yotadigan har qanday nuqta sarflar = daromad ( $S = Y$ ) holatini aks ettiradi. Ammo amalda bunday holat kuzatilmaydi, daromadning faqat bir qismi iste'molga sarflanadi. Shuning uchun iste'mol chizig'i  $45^\circ$  chiziqdan og'adi.  $45^\circ$  chizig'ining iste'mol chizig'i bilan kesishgan  $V$  nuqtasi  $0$  ga teng jamg'arishni ko'rsatadi, ya'ni oilaning sarflar = daromad holati kuzatiladi. Ushbu nuqtaning chap tomonida salbiy jamg'arish kuzatiladi (ya'ni, xarajatlar daromaddan oshadi - "qarzga hayot kechiriladi»), o'ngda esa - ijobiy jamg'armalar. (daromadni bir qismi jamg'ariladi.)  $E_1E_0$  kesma istemol miqdorini,  $E_0E_2$  jamg'arma miqdorini ko'rsatadi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, real hayotda iste'molning ma'lum qismi daromad hajmiga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, biron-bir shaxsning daromadi kutilmaganda juda past darajaga tushib qolishi mumkin. Biroq, bu shaxs, daromadi bunga imkon bermagan taqdirda ham, ma'lum darajada ovqatlanish, kiyinish va boshqa zarur iste'mol xarajatlarini amalga oshirishga majbur. U mazkur sarflarni yo oldingi davrda jamg'arilgan daromadlari hisobiga, yoki o'zgalardan qarz olish hisobiga qoplashi mumkin. Iqtisodiy adabiyotlarda iste'mol sarflarining bu darajasi avtonom (ya'ni, joriy sof daromaddan mustaqil) holdagi iste'mol darajasi deyiladi. Bizning grafigimizda bu daraja  $S_0$  nuqtadan boshlanadi.



12.2-rasm. Jamg'arma funksiyasining grafikdagi tasviri.

Jamg'arma funksiyasining grafikdagi tasviri bir oz o'zgacha ko'rinishda bo'ladi (12.2 – rasm ).

Chizmadan ko'rinadiki, jamg'arma funksiyasining grafikdagi tasviri iste'mol funksiyasi tasvirining aksi sifatida namoyon bo'ladi. Bu grafikda ham V nuqta 0 darajadagi jamg'arishni, 0Y yotiq chizig'ining 0 darajadan pastki qismi manfiy jamg'arishni, yuqori qismi esa ijobiy (musbat) jamg'arishni anglatadi.  $E_0E_2$  kesma sof daromadning  $Y_1$  darajasidagi jamg'arma miqdorini ko'rsatadi.

Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari yana bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Obyektiv omillar alohida iste'molchining ixtiyoriga, idrokiga bog'liq bo'lmagan omillardan iborat bo'lib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- jamg'arilgan mol-mulk darajasi;
- narxlar darajasi;
- real foiz stavkalari;
- iste'molchining qarzdorligi darajasi;
- iste'molchilarni soliqqa tortish darajasi.

Subyektiv omillar asosan iste'molchining o'ziga, uning ruhiyati va bozordagi xatti-harakatiga bog'liq bo'ladi. Bu omillar qatoriga iste'mol va jamg'arishga bo'lgan moyillik, kelgusidagi narx, pul daromadlari, soliq, tovarlar mavjudligi darajasining o'zgarishiga nisbatan munosabatni kiritish mumkin.

Daromadning mutloq o'lchamda o'sishi bilan iste'mol ( $\Delta C$ ) va jamg'arma ( $\Delta S$ ) o'sishi kuzatiladi:  $\Delta Y = \Delta C + \Delta S$ , ammo nisbiy o'lchamda daromad o'sishi bilan iste'mol o'sishi kamayadi, jamg'arish oshadi. Insonlarning iste'mol qilish va jamg'arishga moyilligini qanday o'lchash mumkin? Buning uchun iste'mol uchun o'rtacha moyillik va jamg'arishga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin.

Aholi daromadining iste'molga sarflanadigan ulushi iste'molga o'rtacha moyillik (APC) deyiladi.

Iste'molga o'rtacha moyillik (APC) iste'molning (C) daromadga (Y) nisbati bilan aniqlanadi:

$$APC = C / Y.$$

Aholi daromadining jamg'armaga ketadigan ulushi esa jamg'armaga o'rtacha moyillik (APS) deyiladi. Jamg'arishga o'rtacha moyillik (APS) jamg'arishning (S) daromadga (Y) nisbati bilan aniqlanadi:

$$APS = S / Y.$$

Ammo bu ko'rsatkichlar hozirgi paytdagi iste'mol qilishga va jamg'arishga moyillikni ko'rsata oladi.

Agar daromad o'zgarishi iste'mol va jamg'armaning o'zgarishiga qanday ta'sir qilishini ko'rishni istasak (ya'ni, asosiy psixologik qonunni tasdiqlash uchun), biz iste'mol qilish uchun marjinal moyillik va jamg'arish uchun marjinal moyillik deb nomlangan boshqa ko'rsatkichlarga foydalanamiz. Marjinal moyillik bu keyingi qo'shilgan moyillik.

Daromad hajmining o'zgarishi natijasida iste'molni hajmining o'zgarishi darajasi iste'molga marjinal moyillik (MPS) deyiladi. Iste'molga marjinal moyillik (MPS) iste'molning o'zgarishiga ( $\Delta C$ ) uni keltirib chiqargan daromadning o'zgarishiga ( $\Delta Y$ ) nisbati orqali hisoblanadi.

$$MPS = \Delta C / \Delta Y;$$

Daromad hajmining o'zgarishi natijasida jamg'arma sarflari hajmining o'zgarish darajasi jamg'arishga marjinal moyillik (MPS) deyiladi.

Jamg'arishga marjinal moyillik (MPS) jamg'arish o'zgarishini ( $\Delta S$ ) uni keltirib chiqargan daromadning o'zgarishiga ( $\Delta Y$ ) nisbati orqali hisoblanadi.

$$MPS = \Delta S / \Delta Y.$$

Ushbu ko'rsatkichlar birinchidan uy xo'jaliklari qo'shimcha daromadlarining qancha qismini iste'mol qilishga va qaysi qismini jamg'arishga moyil ekanligini ko'rsatadi, ikkinchidan esa daromadning o'sishi iste'molga yoki jamg'arishga ketadi, shuning uchun iste'mol qilingan ulush (MPC) va jamg'arilgan ulush (MPS) daromadni oshishini "yutib" yuboradi shuning uchun  $MPC + MPS = 1$  teng bo'ladi.

### **12.3. Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari.**

#### **Investitsiya xajmiga ta'sir etuvchi omillar**

Foyda olish maqsadida davlat (xususiy) kapitalning mamlakat ichida va tashqarisida turli tarmoqlarga uzoq muddatli qo'yilmalariga investitsiyalar deb ataladi. Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va

ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir

Investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs – investor, investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha amaliy harakatlar - investitsiyaviy faoliyat deyiladi.

Investitsiyalarning asosiy yo'nalishlari:

1. Yangi ishlab chiqarish bino va inshootlarni qurishga;
2. Yangi dastgoh, texnika va texnologiyalarni sotib olishga;
3. Qo'shimcha xomashyo va materiallarning xaridiga;
4. Turar joy va ijtimoiy obektlarni qurishga.

Demak ushbu yo'nalishlarga mos, asosiy kapital, tovar-moddiy zaxiral va inson kapitaliga investitsiyalar farqlanadi.

Investitsiyalar pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Nominal investitsiya pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiyalar, unga sotib olish mumkin bo'lgan investitsiyaviy resurslar (ishlab chiqarish vositalari) real investitsiyalar deyiladi.

Investitsiya faoliyati quyidagi manbalar hisobiga amalga oshiriladi:

- aholi jamg'armalari;
- investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foйда, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va h.k.);
- qarz olingan moliyaviy mablag'lar (obligatsiya zayomlari, bank kreditlari);
- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari);
- davlat byudjeti mablag'lari;
- chet elliklar mablag'lari.

Yalpi sarflar tarkibining investitsiya sarflariga oid qismi yalpi xususiy ichki investitsiyalar deb yuritiladi. Shuningdek investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga bo'linadi. Yalpi investitsiyalar (YaI) - eskirgan dastgohlarni almashtirishga (amortizatsiya) sarflar summasi va ishlab chiqarishni kengaytirishga investitsiyalarning o'sishi yoki sof investitsiyalar(SI) miqdoridan iborat.

Ya'ni:  $YaI = Amortizatsiya + SI$

Sof investitsiyalar joriy yil davomida qo'shimcha ravishda jalb qilingan investitsiyaviy tovarlardan iborat. O'z navbavtida sof investitsiyalar yalpi investitsiyalar va amortizatsiya summasi ayirmasiga teng. Ya'ni:

$SI = YaI - Amortizatsiya$

Sof investitsiya asosiy va aylanma kapitalning oshishini ta'minlaydi. Yalpi investitsiyalar bilan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi nisbat iqtisodiyot rivojlanish holatining ko'rsatkichi hisoblanadi. Yalpi va sof investitsiyalar hamda amortizatsiya nisbati o'zgarishining o'suvchi, turg'un va qisqaruvchi iqtisodiyotlarga ta'sirini ko'rishimiz mumkin:

- sof investitsiyalar ijobiy miqdorni tashkil etsa ( $YAI + \text{Amortizatsiya}$ ) yil oxirida kapital hajmini, pirovard natijada esa iqtisodiyotning o'sishiga olib keladi, iqtisodiyot rivojlanayotgan bo'ladi;
- sof investitsiyalar nolli kattalikni ( $YAI = \text{Amortizatsiya}$ ) tashkil etsa, unda yil oxirida kapital miqdori o'zgarmay qoladi, iqtisodiyot statik(turg'un) holatda bo'ladi;
- sof investitsiyalar salbiy miqdorni tashkil etsa ( $YAI < \text{Amortizatsiya}$ ), unda yil oxirida kapital miqdorining qisqarishiga va buning oqibatida, iqtisodiyot ko'rsatkichlarining pasayib ketishiga olib keladi, iqtisodiyotda faollik pasayib borayotganligi kuzatiladi.

Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi: 1) investitsiya sarflaridan kutilayotgan foyda normasi; 2) bankning foiz stavkasi. Investitsiyalarga qilinadigan sarflardan maqsad hisoblanadi. Tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini qachonki ular foyda keltiradigan bo'lsa, sotib oladilar.


Investitsiyalar darajasini belgilaydigan ikkinchi omil foizning real stavkasi hisoblanadi. Foiz stavkasi bu – kapitalni qarzga olish uchun firma to'lashi zarur bo'lgan narx.

Bu yerda foyda va bankning foiz stavkasi bilan bog'liqlik quyidagicha: agarda kutilayotgan foyda normasi yuqori bo'lsa, unda investitsiyalar o'sadi. Agarda kutilayotgan foyda normasi(masalan 12%) foiz stavkasidan yuqori bo'lsa (masalan 9%),unda investitsiya qilish foydali bo'ladi va aksincha. Demak investitsiyalarga talab va foiz stavkasi o'rtasida teskari proporsional bog'liqlik mavjud. Investitsiya va jamg'arma o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash borasida bir qator nazariy qarashlar farqlanadi. Bu borada eng avvalo klassik iqtisodchilarning qarashlarini ko'rib chiqamiz.

Klassik iqtisodchilar nuqtayi nazaridagi eng markaziy holat – bu ular tomonidan foiz stavkasining ham investitsiya'ning, ham jamg'armaning funksiyasi sifatida qaralishi hisoblanadi (12.3-rasm).

Grafikda jamg'arma va investitsiya o'rtasida muvozanat holati aks ettirilgan. I egri chizig'i - investitsiyalar, S egri chizig'i esa jamg'armani ko'rsatadi. Ordinata o'qi foiz stavkasini ( $r$ ), absissa o'qi jamg'arish va investitsiyalarni aks ettiradi. Investitsiyalar foiz stavkasini funksiyasi






### 12.3-rasm. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik modeli

$I = I(r)$  hisoblanadi. Bu funksiya kamayuvchi hisoblanadi, ya'ni foiz stavkasi darajasi baland bo'lsa, investitsiya darajasi shunchalik past bo'ladi. Jamg'arish ham foiz stavkasi funksiyasi hisoblanadi  $S = S(r)$ . Bu funksiya o'sib boruvchi hisoblanadi, ya'ni foiz stavkasi darajasi qanchalik baland bo'lsa, jamg'arma darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Grafikda shuni ko'rish mumkinki,  $r_0$  ga teng foiz darajasi milliy iqtisodiyot miqyosida jamg'arma va investitsiyalar o'rtasidagi tenglikni, ya'ni muvozanatni ta'minlaydi.

Foiz stavkasi darajasining muvozanat darajasidan chetlanishi ( $r_1$  – past va  $r_2$  – yuqori bo'lgan holatlar) investitsiya va jamg'arma hajmi o'rtasidagi tenglikning buzilishiga olib keladi. Foiz stavkasining  $r_1$  darajasida investorlar uchun qulay narxlarning vujudga kelishi investitsiyaviy resurslarga bo'lgan talabni oshiradi, biroq bunday darajada jamg'arma uchun rag'bat pasayib ketadi. Natijada investitsiyaviy resurslar taqchilligi paydo bo'ladi.  $r_2$  darajada esa barcha subyektlar uchun jamg'armaning nafliligi oshadi, biroq bunday foiz darajasida barcha investorlar ham o'z faoliyatining foydaliligini ta'minlay olmaydilar. Natijada jamg'armaning ahamiyatli qismi investitsiyalarga aylana olmaydi.



**12.4-rasm. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modeli.**

Keynschilarning investitsiya va jamg'arma o'rtasidagi muvozanat modeli o'z tuzilishiga ko'ra klassik modeldan farq qiladi. Bunda eng markaziy nuqta – J.M.Keyns tomonidan jamg'arma foiz stavkasining emas, balki daromadning funksiyasi deb qaralishi hisoblanadi:  $S = S(Y)$ . Investitsiya esa, klassik modeldagi singari, foiz stavkasining funksiyasi deb olinadi:  $I = I(r)$  Ya'ni, keynscha konsepsiya'ning asosida jamg'arish va investitsiya darajalarining boshqa-boshqa omillar ta'sirida o'zgarishi yotadi. Keynscha modelning mohiyatini 12.4-rasm orqali izohlash mumkin.

Ordinata o'qi jamg'arma va investitsiyalarni (S, I), absiss o'qi milliy daromad darajasini (NI) aks ettiradi. I gorizontaal chiziq milliy daromadni har qanday darajasida investitsiyalarning o'zgarish miqdorini ko'rsatadi, ya'ni I NIga bog'liq emas. Mazkur modelda uni milliy daromadga bog'liq bo'lmagan, ya'ni avtonom holda beriladi.

S jamg'arishni aks ettiradi. Milliy daromad jamg'arma darajasi milliy daromad hajmiga bog'liq holda o'zgaradi. Milliy daromad hajmi oshgan sari jamg'arma miqdori oshib boradi. Milliy daromadni ONga teng hajmda, chiziqlar E nuqtada kesishadi natijada  $I=S$  holat kuzatiladi. Biroq, milliy daromadni ONga teng xajimda to'la bandlik ta'minlanmaydi. FFE tikka chizig'i to'la bandlik holatini aks ettiradi Bu chiziq jamg'arma va investitsiyalar kesishgan E nuqtadan o'ngroqda joylashgan. Bu holat Keynsning to'la bandlik bo'lmaganda ham miliy daromad muvozanatda bo'ladi degan xulosasiga to'g'ri keladi. Investitsiya va jamg'arma darajalari muvozanatining klassik va keynscha modellari o'rtasidagi farq quyidagilar orqali namoyon bo'ladi: birinchidan, klassik modelda bu muvozanat ro'y berishi uchun iqtisodiyotning doimiy ravishda to'la bandlik holatida bo'lishi taqozo etiladi. Keynscha modelda esa, yuqorida ko'rib chiqilganidek, bu muvozanatga to'la bandlik bo'lmagan holatda ham erishish mumkin; ikkinchidan, klassik modelda narx

mexanizmi juda harakatchan bo'ladi. Keynscha modelda narxning bunday moslashuvchanligi inkor etiladi; uchinchi, yuqorida ta'kidlanganidek, klassik modelda jamg'arma foiz stavkasining funksiyasi sifatida, keynscha modelda esa daromad funksiyasi sifatida qaraladi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinadiki, jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modeli klassik modelga nisbatan asoslangan, real hayot, ya'ni iqtisodiyotning to'la bandligi mavjud bo'lmagan holatga nisbatan ham tatbiq etilib, takomillashtirilgan model hisoblanadi. Shunga ko'ra, biz ham makrodarajadagi boshqa muammolarni ko'rib chiqish va tahlil qilishda asosan ushbu modeldan foydalanamiz


Hozirga qadar jamg'arma va investitsiyalarning tengligiga asoslangan milliy daromad darajasini aniqlash tahlil qilindi. Daromadning muvozanat darajasini aniqlashning yana bir usuli bor, sarmoyalarni iste'mol qilishga asoslangan usul yoki "milliy daromad - yalpi xarajatlar" modeli, 12.5-rasmda milliy daromad darajasini aniqlashning ushbu usulini grafik tasviri berilgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, milliy daromad ikki asosiy kanal orqali ishlatiladi: iste'mol va investitsiyalar uchun, ya'ni  $Y = C + I$ . Yalpi xarajatlar, shaxsiy iste'mol sarflari (C) va unumli iste'mol sarflaridan (I). iborat. Iqtisodiyotning turg'unlik sharoitida iste'molga moyillik past bo'ladi hamda daromad va sarflar (shaxsiy iste'mol uchun) tengligiga  $S_0$  nuqtada, ya'ni O ga teng jamg'arma darajasida mos keladi. Ammo, agar shaxsiy iste'mol xarajatlariga investitsiyalar qo'shilsa, u holda SS chizig'i vertikal bo'yicha yuqoriga qarab  $C + I$  holatini egallaydi. Endi  $C + I$  egri chizig'i E nuqtasida 45 chiziqni (daromad va sarflar tengligi chizig'i) kesib o'tadi. Ushbu nuqtaga milliy daromadning ON miqdori to'g'ri keladi. N nuqta F nuqtaga yaqinlashdi, ya'ni to'liq bandlik holatiga mos keladigan MD darajasiga. Investitsiyalar qancha katta bo'lsa,  $C + I$  egri chizig'i shuncha yuqori ko'tariladi va to'liq bandlik darajasi yaqinlashadi. Agar davlat nafaqat xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish, balki turli xil xarajatlarni amalga oshirsa, unda

$C + I$  egri chizig'i  $C + I + G$  egri chizig'iga aylanadi, bu yerda G davlat xarajatlarini tashkil etadi. Chizma – davlatning xususiy sektorda davlat xarajatlari va investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishining ijobiy rolini aks ettiradi. Bunga J. Keyns katta ahamiyat bergan. Shunday qilib, umumiy xarajatlar C, I, G, summasidan iborat, agar tashqi savdo operatsiyalarini hisobga olsak, unda sof eksport (NM) summasi qo'shiladi  $C + I + G + NM$

Investitsiyalarning ko‘payishi milliy daromadning o‘shishiga olib keladi va ma’lum bir ta’sir tufayli to‘liq bandlikka erishishga yordam beradi, bu iqtisodiy nazariyada multiplikator samarasida aks etadi.

Daromad va investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik multiplikator yordamida ifodalanadi. Multiplikator (lot.- ko‘paytiraman) - bu investitsiyalar o‘zgarishi va daromad miqdorini o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi koeffitsiyent. Investitsiyalarning o‘shishida, YaMM hajmi birlamchi qo‘shimcha investitsiyalarga nisbatan katta miqdorda oshadi.



### 12.5- Keyns xochi

Ushbu ko‘paytiruvchi, YaMM miqdoridagi o‘sovchi samara multipikatsiyaviy samara deyiladi. Multiplikator (AR)- bu investitsiyalarni hajmining oshishi sharoitida YaMMning oshishi miqdorlarini ko‘rsatuvchi son koeffitsiyenti.

Faraz qilamiz, investitsiyalarning qo‘shimcha oshishi 10 mlrd.so‘mni tashkil qiladi bu esa YaMMni 20 mlrd. so‘mga o‘shishiga olib keladi. Multiplikator 2 ga teng.

Investitsiya va jamg‘arma darajalarining muvozanatga erishishiga qaratilganligi investitsiya va jamg‘arma darajalari muvozanatining klassik va keynscha modellarining umumiy tomonini tashkil qiladi. Biroq bu ikki yondashuv ushbu muvozanatga erishish sharoitlari va shartlari bilan bir - biridan farq qiladi. Investitsiya va jamg‘arma darajalari muvozanatining klassik va keynscha modellari o‘rtasidagi farq quyidagilardan iborat:

- klassik modelda investitsiya va jamg‘arma darajalarini muvozanatga doimiy ravishda to‘la bandlik holatida, keynscha modelda esa to‘la bandlik bo‘lmagan holatda ro‘y beradi;

- klassik modelda narx mexanizmi moslashuvchan, Keynscha modelda narxlar moslashuvchan emas deb qaraladi;

-klassik modelda jamg'arma foiz stavkasining funksiyasi sifatida, keynscha modelda esa daromad funksiyasi sifatida qaraladi.

Binobarin, jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modeli klassik modelga nisbatan ancha keyinroq vujudga kelgan, shu bois, asoslanganligi, amaliy hayotga yaqin ekanligi, ya'ni iqtisodiyotning to'la bandligi mavjud bo'lmagan holatini inobatga olgan holda takomillashtirilgan model hisoblanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta'riflang.

2. Iste'mol va jamg'armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarini sanab ko'rsating.

3. Iste'mol va jamg'arma funksiyalarining grafikdagi tasvirini chizib, ularga shartli raqamlar qo'llagan holda tushuntiring.

4. Manfiy va musbat (ijobiy) jamg'arma nima va ularning grafikdagi joylashishi qanday bo'ladi?

5. Jamg'arish normasi qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

6. Iste'molga va jamg'armaga o'rtacha moyillik deganda nimani tushunasiz? Iste'mol va jamg'armaga qo'shilgan moyillik qanday aniqlanadi?

7. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi? Ularning qisqacha tavsifini bering.

8. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri qanday?

9. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning klassik modelining mohiyatini tushuntirib bering.

10. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatning keynscha modelining mohiyatini hamda klassik modeldan farqini tushuntiring

## **13. BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA**

### **DAVLATNING IQTISODIY ROLI**

### **13.1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish: tushunchasi, mazmuni, maqsadi va zarurligi**

Kishilik jamiyatining rivojlanish jarayonida shunday davrlar bo'lganki davlat iqtisodiyotni tartibga solishga kam aralashgan. Biroq XX asrning 50-yillaridan boshlab bu yo'nalishda tub o'zgarish ro'y berib, davlat iqtisodiyotini tartibga solish chegaralarini kengaytirib, doimiy ravishda makroiqtisodiy tartiblashga o'tdi. Xo'sh iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda nima tushuniladi?

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan davlat muassasalari va ijtimoiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijro etish va nazorat etish tasnifidagi tadbirlar tizimi.**

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning subyektlariga quyidagilar kiradi: mulkiy holati, daromadlar miqdori, shuningdek faoliyat turi bilan bir biridan farq qiluvchi ijtimoiy guruhlar, turli birlashma va uyushmalar, davlat organlari va markaziy bank. Sohalar, tarmoqlari, rayonlar mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy hayotida avtomatik yoki yaqin kelajakda hal qilib bo'lmaydigan muammolar vujudga kelgan vaziyatlar, hodisalar va sharoitlar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektlari hisoblanadi.

Iqtisodiy sikl, bandlik, kapital jamg'arish, narx, pul muomalasi, to'lov balansi, ilmiy tadqiqotlar, atrof muhit, raqobat, tashqi iqtisodiy aloqalar, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish obyektlari hisoblanadi. Ular hal qilinayotgan muammolar darajasiga qarab firma, rayon, tarmoq, ishlab chiqarish sohasi, milliy iqtisodiyot, halqaro munosabatlar darajasidagi muammolarga bo'linadi. **Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bosh maqsadi – mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash.** Ana shu bosh maqsadga erishishi uchun quyidagi aniq maqsadlar aniqlab olinadi:

- bozor jarayonlarining muqarrar salbiy oqibatlarini minimallashtirish;
- bozor iqtisodiyotining samarali ishlashi uchun moliyaviy, huquqiy va ijtimoiy zaminlarni yaratish;
- barqaror iqtisodiy o'sishga erishish;
- milliy iqtisodiyot strukturasi mamlakat ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos takomillashtirib borish;
- aniq iqtisodiy vaziyatda bozor jamiyatining mavqei eng zaif bo'lgan guruhlarini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash;

- atrofmuhit holatini yaxshilash.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning umumiy strategiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ma'lum shart-sharoitlar bo'lganda iqtisodiyotni tashkil etishning bozor shakllariga ustunlik berish kerak. Amalda, bu shuni anglatadiki, davlat faqat xususiy biznesni jalb qilmaydigan (past rentabellik tufayli) ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalarni moliyalashtirishi kerak;

- davlat tadbirkorligi raqobatlashmasligi, aksincha xususiy biznes rivojiga yordam berishi. Ushbu tamoyilni e'tiborsiz qoldirish davlat korxonalarining xususiy korxonalar ustidan sun'iy hukmronligiga olib kelishi mumkin;

- davlat moliyaviy, kredit va soliq siyosati iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam berishi;

- davlatning bozor jarayonlariga aralashuvi, iqtisodiy usullar yordamida amalga oshirish samaraliroq bo'ladi;

- davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirish umumiy iqtisodiy inqirozlarni, shuningdek davlatlararo iqtisodiy aloqalar sohasidagi jarayonlarni nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlatning iqtisodiyotga ta'siri ikki asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

- davlat sektori orqali;

- turli xil iqtisodiy vositalar (iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish) yordamida iqtisodiyotning xususiy sektori faoliyatiga ta'sir o'tkazish orqali.

**Iqtisodiyotning davlat sektori - bu davlat tasarrufidagi va davlat organlari yoki ular tomonidan tayinlangan shaxslar tomonidan boshqariladigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar majmui.**

C.R.Makkonnell va S.L.Bryuning fikriga ko'ra, davlat sektori to'liq davlat ( hukumat) tomonidan boshqariladigan iqtisodiyotning bir qismidir.<sup>15</sup>

Iqtisodiyotning davlat sektori davlatga tegishli bo'lgan barcha iqtisodiy resurslarni o'z ichiga oladi, ularning yordamida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish amalga oshiriladigan barcha tashkilotlar (davlat ishlab chiqarish korxonalari, boshqaruv, sog'liqni saqlash, ta'lim, mudofaa, davlat sohasidagi davlat tashkilotlari) yerlar, shuningdek davlat moliyasi (davlat byudjeti) .<sup>16</sup>

---

<sup>15</sup> Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономика : принципы, проблемы и политика .-М.: -Республика, 1992, т 2 – С.385

<sup>16</sup> Якобсон Л.И. Государственный сектор экономики теория и практика- М.: ГУ ВШЭ,2000- С. 24-25

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning quyidagi vositalari mavjud: ma'muriy va huquqiy hujjatlar; moliyaviy (soliq) tizimi; davlatning pul tizimi; davlat mulki; davlat buyurtmasi. Ma'lumki, bozor ehtiyojning pul bilan ta'minlangan qismi, ya'ni talabga javob qaytaradi. Biroq, jamiyatda shunday ehtiyojlar borki, ularning pul qiymati yo'q. Bunday ehtiyojlarni qondiradigan tovar va xizmatlar **ijtimoiy nem'atlar deyiladi.**

Ushbu turdagi ne'matlar individual foydalaniladigan tovar va xizmatlardan (ne'matlar) bo'linmasligi va individual xaridorlarga sotib bo'lmasligi bilan farq qiladi. Masalan, milliy mudofaa, yagona energetik tizim, transport, fundamental fanlar. **Ijtimoiy ne'matlardan xarajat qilmasdan foydalanish mumkin. Biroq, ushbu tovarlarning haqi to'lanishi zarur. Ijtimoiy ne'matlarning narxlarini davlat belgilaydi, soliq to'lovchilar esa uni to'laydi.**

Tashqi samarani tartiblashda davlatning aralashuvi zarur. Gap shundaki, bozor mexanizmi atrof-muhitni muhofaza etish mexanizmiga ega emas. Korxonalar o'z faoliyatlarida atrof-muhitni ifloslantirishi mumkin. Davlat esa ushbu muammoni yuridik asosda hal etadi, yani korxonalariga tozalovchi inshootlar qurdirish yoki soliq yordamida bunday korxonalardan nisbatan yuqori soliq olish asosida hal etadi.

Bozor mexanizmi fuqarolarning mehnatga bo'lgan huquqini ta'minlab bermaydi. Natijada davlat ushbu masalani hal etishga aralashishi va ishsizlik darajasini tartibga solish zaruriyati kelib chiqadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bozor mexanizmi, fan va texnika sohasini jadallashtirish, iqtisodiyotda chuqur tuzilmaviy o'zgartirish, uzoq muddat qoplanadigan yirik investitsiyalarni amalga oshira ololmasligi bilan bog'liqdir. Bunday sharoitda davlat biznesga yordamga keladi, ya'ni fan-texnika taraqqiyoti (FTT), investitsiyaviy va tuzilmaviy siyosatni rag'batlantiradi.

Nihoyat, bozor mexanizmi monopolizm, inflyatsiya va iqtisodiy faollikning pasayishi kabi kasalliklarga qarshi tura olmaydi. Bunda davlat monopolizmga, inflyatsiyaga qarshi samarali siyosatni olib borishi, iqtisodiy faollikning pasayish oqibatlarini yumshatishi zarur buladi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishining maksimal doirasi ana shular bilan belgilanadi. Agar ushbu doira kengayib ketsa, bunda bozor jarayonlarining buzilishi ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib keladi.



Shunday qilib, milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi sabablari quyidagilardan iborat:

- ulkan mehnat va moliyaviy resurslarni talab etuvchi ilmiy – texnika inqilobining rivojlanishi;
- bozorning aholining ijtimoiy tovarlarga bo‘lgan ehtiyojini qondira ololmasligi;
- bozorni ishsizlik, inflyatsiya va ekologik muammolarni hal eta ololmasligi.

### **13.2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning klassik, monetaristik, keynscha nazariyalari**

Klassik maktab namoyondasi A. Smit milliy iqtisodiyotni asosiy tartibga soluvchi mexanizm bozor hisoblanadi, shu bois, davlat iqtisodiyotini tartibga solishga aralashmasligi zarur deb hisoblagan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ro‘y bergan sanoat to‘ntarishi natijasida ishlab chiqarish kuchlarining jadal rivojlanishi ro‘y berdi. Bozor monopoliyasining vujudga kelishi sababli bozor mexanizmi resurslardan samarali foydalanishni taminlab bera olmaslik holati vujudga keldi. U bozorni tartibga soluvchi mexanizmini izdan chiqardi va 1929 yilda boshlangan jahon iqtisodiy inqirozida namoyon bo‘ldi. Ushbu davrda G‘arb mamlakatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmi 46 foiz, tashqi savdo oboroti esa 67 foizga kamaydi. Ish bilan bandlarning har to‘rtinchisi ishsizga aylandi. Aholining real daromadlari o‘rtacha 58 foizga kamaydi. AQSHning o‘zida 109 mingta firma sindi. Bunday sharoitda iqtisodiy inqirozlarning oldini oladigan, uning oqibatlarini yumshatadigan, milliy iqtisodiyotni tartibga soluvchi yangi mexanizmlarni topish zarur edi.

Ana shunday mexanizmni Angliyalik iqtisodchi olim J.M.Keyns o‘zining “Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” (1936 y) deb nomlangan asarida bayon etdi. U iqtisodiyot o‘zi tannazul holatidan chiqib keta olmasligini, buning uchun davlat aralashuvi hayotiy zaruriyat ekanligini asoslab berdi. J.A.Keyns davlat o‘zining iqtisodiy siyosati vositasida jami talab va jami taklifni bir-biriga muvofiqlashtirishi, iqtisodiyotni tanazzul holatidan chiqarishi, keyinchalik barqarorligini ta‘minlashi zarur deb hisoblagan. Bunga erishishi uchun esa davlat fiskal (xaznaviy) va kredit yordamida tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag‘batlantirish va aholining ish bilan bandligini ta‘minlashi zarur degan g‘oyani ilgari surgan.

Nazariy jihatdan J.Keynsning qarashlari iqtisodiyot nazariyasida yangi “makroiqtisodiyot” bo‘limiga asos soldi. Amaliy jihatdan esa ikkinchi jahon urushidan so‘ng J.Keynsning g‘oyalari barcha rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatiga asos qilib olindi. Bu esa o‘zining ijobiy samarasini berdi.

XX asrning 70-yillarida jahon xo‘jalik tizimida yuz bergan larzalar davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli, uning tabiati xususida yangi bahs va munozaralarga sabab bo‘ldi.

“Monetarizm”, “ratsional kutish” va “taklif nazariyasi” tarafdorlari tomonidan yangi amaliy yo‘riqlar ishlab chiqildi.

Monetarizm – asoschisi AQSHlik iqtisodchi M.Fridman hisoblanadi. Uning fikricha, davlatning iqtisodiyotga eng kam darajada aralashuvi pul muommalasi doirasida ro‘y berishi kerak. Monetarizmning inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan tavsiyalari quyidagilardan iborat: pul taklifi va kredit berishni qattiq cheklash; pul emissiyasini ishlab chiqarishning o‘shishiga mos ko‘paytirish; davlatning axolida turli to‘lovlarni kamaytirish hisobiga ijtimoiy dasturlarni qisqartirish.

“Ratsional kutish nazariyasi” tarafdorlari davlat bozor holatida kutilayotgan inqirozli holatlarni oldindan tahlil qilishi va uning oqibatlarini yumshatish bo‘yicha chora tadbirlar belgilashi zarur deb hisoblaydilar.

“Taklif nazariyasi” tarafdorlari esa davlatning iqtisodiyotni tartibga solish siyosatiga ustuvorlik tovarlar taklifini yalpi talabga moslashtirishga berilishi lozim deb hisoblaydilar.

Ushbu uchta nazariya tarafdorlari makroiqtisodiy darajada davlat fiskal – byudjet va pul siyosati bilan iqtisodiyotga aralashishi kerak emas, balki bozorning normal harakat qilishi uchun moliyaviy sharoit yaratishi darkor, degan fikrni ilgari surdilar. Ushbu g‘oyalar XX asrning 80-yillarida AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishiga asos bo‘ldi (AQSH va “reygenomika”, Buyuk Britaniyada “tetchirizm”).

XX asrning ikkinchi yarmida bozor iqtisodiyotining rivojlanishi davlat fa‘oliyati chegaralarining kengayishi va uning iqtisodiy sohada tutgan o‘rnining kuchayib borishi bilan xarakterlanadi. Lekin shu bilan birga faqat bozor mexanizmi sharoitida ishlab chiqarish yuqori samaradorlikka erishishi mumkinligi hamma iqtisodchilar tomonidan e’tirof etiladi.

**Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning maqsadi bozor mexanizmiga aralashish emas, balki uning normal harakat qilishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Binobarin hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyoti ikki**

**vosita – bozor mexanizmi davlat tomonidan tartibga solinadi. Ularning o‘rtasida mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, milliy xususiyatlarini inobatga oluvchi ma’lum nisbat yotadi.** Ushbu tezis barcha iqtisodchi olimlar tomonidan e’tirof etiladi. **Biroq davlatning iqtisodiyotni tartibga solish chegaralari va shakllari xususida haligacha munozaralar olib boriladi.** Xususan, P Samuelson davlat tomonidan turar joy va oziq-ovqat mahsulotlari bilan kambag‘allarga yordam berish kambag‘allik darajasini pasaytirish vositasi deb hisoblasa, M.Fridman esa aksincha kambag‘allarga qo‘shimcha daromad olish imkonini ta’minlansa, ular davlat aralashuvisiz o‘z muammolarini hal eta oladilar, deb hisoblaydi. P.Samuelson sog‘liqni saqlash va talim sohalarida talab va taklif qonuni harakat qilmasligi kerak, ularni butunlay yoki qisman ijtimoiy ne‘mat sifatida davlat tomonidan ta’minlanishi lozim deb hisoblasa, M.Fridman esa talab va taklifni eng kuchli va katta naf keltiradigan vosita deb biladi. Shu bois davlat biznesga tegmasdan, unga aralashmasdan tinch qo‘yish uning rivojlanishiga shart sharoit yaratib berishi lozim, deb hisoblaydi.

### **13.3. Davlatning iqtisodiy vazifalari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat bir qator iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

#### **1. Davlatning qonunchilik asoslarini yaratish vazifasi.**

Davlat mamlakatda iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qonunlarni qabul qiladi va ularni hayotga to‘laqonli tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqadi. Bu qonunlarda mulkka egalik qilish huquqi, turli firmalarning faoliyat yuritish tartibi va qoidalari, har xil shartnomalarni tuzish sharoitlari, kasaba uyushmalari va ma’muriyat o‘rtasidagi o‘zaro majburiyatlar, monopoliyaga qarshi siyosatning huquqiy asoslari bo‘yicha qonunlar qabul qilinadi. O‘zbekistonda davlat tomonidan iqtisodiy hayotni tartibga soluvchi qonunlar majmui qabul qilingan. Jumladan, “Mulk to‘g‘risida”, “Tadbirkorlik to‘g‘risida”, “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”, “Soliq kodeksi” “Yer kodeksi” va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

Davlatning qonunchilik asoslarini yaratish vazifasi quyidagi choralarni nazarda tutadi:

1. Xususiy korxonalariga qonuniy maqomni berish.
2. Xususiy mulk huquqlarini aniqlash.
3. Tuzilgan shartnomalarning bajarilishini kafolatlash.

4. Korxonalar, resurslarni yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish qoidalarni ishlab chiqish. Shuningdek, mahsulotning og'irligi va sifatini o'lchaydigan standartlarni hayotga kiritish, mahsulotlarni ayirboshlashni yengillashtiruvchi, pul tizimini tashkil etish va uning normal harakat qilishini ta'minlash, mahsulotni markirovka qilish qoidalarni ishlab chiqish davlatning tegishli tashkilot va muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

**2. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish vazifasi.** Hukumat moliya va monetar siyosati yordamida ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlik va inflyatsiyaviy jarayonlarni tartibga solishga harakat qiladi. Undan tashqari hukumat xususiy sektorga to'la bandlik va barqaror narx darajasini ta'minlashga yordam beradi. Uning mohiyati ishlab chiqarish darajasi jami sarflar darajasiga bog'liq ekanligidir. Umumiy sarflarning yuqori darajasi ko'pgina tarmoqlarga ishlab chiqarish hajmlarini oshirishni maqsadga muvofiq qilib qo'yadi, bu holat esa o'z navbatida qo'shimcha resurslarni, shu jumladan ish kuchini ishlab chiqarish jarayoniga jalb etishga imkon yaratadi. Biroq, ko'plab iqtisodchilarning fikriga ko'ra, bozor iqtisodiyoti jami sarflarni to'la bandlik darajasigacha ko'tara olmaydi. Shuning uchun ishsizlik, inflyatsiya holatlari kuzatiladi. Hukumat davlat xarajatlari, soliq stavkalari, kredit foizlarini o'zgartirish yo'li bilan iqtisodiyotni barqarorlashtirish vazivasini bajaradi.

**3. Resurslarni taqsimlash.** Bu vazifani bajarishda Hukumatning iqtisodiy hayotni tashkil etishning makroiqtisodiy tarafi namoyon bo'ladi. Nima ishlab chiqarish kerak? Qanday ishlab chiqarish kerak? Davlat iqtisodiyotni sanoat, agrar, xizmat ko'rsatish sohalarining samarali rivojlantirishni ta'minlashi kerak bo'ladi. Shu bois, mamlakatning ehtiyoji va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tarkibiy va investitsiyaviy siyosat ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilish lozim bo'ladi.

**4. Daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi.** Bozor mexanizmi mehnat qilish va daromadlarni olish huquqini kafolatlay olmaydi. Natijada esa jamiyatda tabaqalanish mavjud bo'ladi, ya'ni aholining ta'minlangan qismi bilan bir qatorda kam taminlangan qismi mavjud bo'ladi. P.Samuelson ta'biri bilan aytganda, bozor tizimi mavjud tengsizlikni takror hosil qiladi. Jamiyat davlat timsolida byudjet daromadlarini qayta taqsimlash orqali kam ta'minlangan aholining ijtimoiy himoyasini o'z zimmasiga oladi. Buning uchun ijtimoiy dasturlar ishlab chiqiladi va hayotga tatbiq etiladi. Masalan, ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar va shu kabilar.

### **13.4. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish usullari va vositalari**

Iqtisodiyotga ta'sir etish mexanizmini tashkil etuvchi tadbirlarning barchasidan foydalangandagina davlat o'z vazifalarini bajara oladi.

#### **Bozoriqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari:**

- **byudjet - soliq (fiskal) siyosat** - davlatning soliqqa tortish, davlat xarajatlari va davlat byudjetini tartibga solish sohasidagi faoliyati umuman byudjetini shakllantirish, tasdiqlash va bajarishni o'z ichiga oladi. Bu davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, inflyatsiyaning oldini olish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan.

- **ma'muriy tartiblash**, litsenziyalash, kvoatalash, monopoliyalarning ko'lamlariga majburiy ta'sir etishni nazarda tutadi.

Davlatning byudjet mablag'larini taqsimlash bilan bog'liq siyosati fiskal siyosati deyiladi va uning ikki tarafi mavjud: birinchi tarafi – soliq tizim orqali byudjetni tarkib toptirish, ikkinchi tarafi esa – uni sarflashdir, ya'ni aniq maqsadlar yo'lida ishlatish.

**Soliq siyosati** soliq mexanizmidan foydalanib byudjetga pul tushirib uni shakllantirishga qaratilgan. Unga binoan soliq turlari aniqlanadi, soliq stavkalar, soliq solinadigan obyektlar, soliq imtiyozlari, soliq undirish tartibi belgilanadi. Rivojlangan mamlakatlarda byudjet shaklida davlat juda katta moliyaviy resurslarni jamlaydi.

Iqtisodiyotni makroiqtisodiy barqarorlashtirishda fiskal siyosat muhim vositadir. Davlat xarajatlar va soliqlarni o'zgartirish yo'li bilan tadbirkorlarning faoliyatini rag'batlantiradi. Ishsizlik va inflyatsiyaga ta'sir etadi.

**Kredit – pul siyosati** ham iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu siyosat tovar va pul massasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, pul oqimlarini boshqarish, umuman olganda pul muammosini tartibga solishga qaratilgan.

Milliy pul birligining xarid qurbini, uning valyuta kursini barqarorlashtirish pirovard natijada pulga talab bilan uning taklifini muvozanatlashtirish pul – kredit siyosatining maqsadi hisoblanadi. Pul miqdorini tartibga solish orqali davlat narx darajasiga, investitsiyaviy

xarajatlarga va aholining iste'moliga, milliy ishlab chiqarish hajmiga va iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etishi mumkin.

Har qanday davlat ijtimoiy siyosati olib boradi. Davlatning ijtimoiy siyosati – bu insonning hayotiy manfaatlarini yuzaga chiqarish, imkonni himoya qilish va kamol topishiga qaratilgan. Bandlik daromad va ijtimoiy himoya siyosati ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Ijtimoiy siyosatda bandlik darajasini ta'minlash, eng kam ish haqi miqdorini o'rnatish, kambag'allik chegarasi va ijtimoiy yordam me'yorlarini aniqlash kabi usullari qo'llaniladi. Davlatning ta'lim, tibbiyot va madaniyat sohasidagi faoliyati ham ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy siyosatning muhim vositalaridan biri tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishidir. Davlat savdo va valyutani tartibga solishni amalga oshiradi, valyutani chegaralash va valyuta investitsiyasidan himoyalashda bojlar, litsenziyalar, soliqlardan foydalanishi mumkin. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tgan sari unda davlatning roli jiddiy o'zgarmoqda. Davlat, uning hokimiyat boshqaruv tuzilmalari bozorga aralashishdan chetlashmoqda. Bozor iqtisodiyotining o'zini – o'zi tartibga solish mexanizmlari tobora katta rol o'ynamoqda.

Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiy va ma'muriy usullar yordamida amalga oshiriladi. Iqtisodiy usullar o'z navbatida bevosita va bilvosita usullarga bo'linadi:

- bevosita: monopoliyalar ustidan nazorat, ekologiya, standartlarni ishlab chiqish, ularning saqlanishi (sifat belgilari, davlat standartlari);

- bilvosita: pul-kredit siyosati, daromadlarni nazorat qilish, ijtimoiy siyosat;

Bilvosita usullar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi : a) davlatni maqsadli moliyalashtirishi. Bunda davlat korxonalariga dotatsiya beradi, ilmiy – texnik va ekologik dasturlarni, ijtimoiy sohani moliyalashtirishni amalga oshiradi. b) davlat xaridlari davlat organlar korxonalarining pirovard mahsulotlari, davlat ehtiyojlari uchun zarur resurslarni sotib olishga, shuningdek yollangan xodimlarga (maktab, kutubxona, shifoxona, parklar) ish haqi to'lashga davlat byudjetidan mablag' ajratadilar. d) iqtisodiyotni davlat sektorining xarakatlanishini ta'minlash.

Har bir mamlakatda davlat mulkiga asoslangan davlat sektori mavjud. Davlat sektoriga u yoki bu sabablarga ko'ra daromad keltirmaydigan obyektlar kirgan bo'ladi, bular shahar transporti, energetika, suv ta'minoti, shuningdek

puli emissiyasi, tashqi iqtisodiy aloqalarni kreditlaydigan banklar. Biroq, bu tarmoqlar aholi uchun hayotiy zarur hisoblanadi shuning uchun davlat ularni o'z qaramog'iga oladi. Davlat qaramog'ida tezda foyda keltirmaydigan yangi tarmoqlar ham bo'ladi. Chunki xususiy sektor ushbu yangi tarmoqlarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Davlat mulki asosida davlat tadbirkorligi rivojlanib boradi.

U odatda ijtimoiy ne'matlarni yaratishga, fan va texnika sohasida yuqori qiymatga ega loyihalarini moliyalashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bu esa xususiy sektorga o'z mablag'ini samaradorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarga yo'naltirishga imkon beradi, natijada esa iqtisodiy tizim samarali rivojlanadi.

Bilvosita usullar esa quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

a) pul – kredit usullari (hisob stavkasi, qimmatbaho qog'ozlar bozorida ochiq operatsiyalar, majburiy rezerv me'yorini belgilash);

b) byudjet – soliq usullari (soliq tizimi, soliq stavkasini belgilash, soliq chegirmalarini o'rnatish);

d) jadallashtirilgan amortizatsiya (amalga oshirilish tartibi);

t) tashqi iqtisodiy usullari (eksportni rag'batlantirish, eksportni kreditlash, xorijiy kapitallarni mamlakatga jalb etish yoki uning kirib kelishini cheklash).

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishda ma'muriy usullardan foydalaniladi, uning shakllari quyidagilardir:

- monopoliyaga qarshi tadbirlar (monopol kelishuvlarning oldini olish, korxonalarining ko'lamlariga ta'sir etish, asosiy ishlab chiqaruvchilarning faoliyati ustidan nazorat o'rnatish);

- majburiy standartlarni kiritish (ekologik, sanitar va ijtimoiy standartlar);

- aholi hayotining minimal parametrlarini aniqlash (ish haqining kafolatlangan minimumi, ishsizlik bo'yicha to'lovlar).

### **13.5. Davlatning ijtimoiy siyosati**

**Davlatning ijtimoiy siyosati fuqarolarning manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan jamiyatning ijtimoiy sohasini boshqarish bo'yicha faoliyati.**

Aholi farovonligini oshirish, insonlarning mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy adolat tamoyillarini o'rnatish ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat jamiyat a'zolarining faqat moddiy emas balki ma'naviy, siyosiy manfaatlarini ham e'tiborga olishi kerak.

Davlat olib boradigan iqtisodiy siyosatning asosiy ijtimoiy vazifasi xodimlarning iqtisodiy faoliyatlari samaradorligini oshirishdan manfaatdorligini va uning doimiy ravishda oshishini ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy siyosat iqtisodiyot oldiga quyidagi muammolarni qo'yadi:

-insonlarning ijtimoiy ehtiyojlarini qanday usullar va vositalar yordamida qondirish.

-jamiyatda ne'matlarning adolatli taqsimlanishini qanday yo'llar yordamida ta'minlash.

-kishilar farovonligining oshishini ijtimoiy takror ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga monand yuz berishini qanday ta'minlash.

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi natijalar mavjud iqtisodiy tizim va jamiyatning barqarorligini belgilaydi. Ijtimoiy barqarorlik quyidagilarni nazarda tutadi:

-asosiy iste'mol tovarlari va xizmatlariga barqaror narxlari;

-aholi daromadlarining keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik.

Jamiyat a'zolariga ishonchli ijtimoiy himoya va kafolatlar tizimini tarkib toptirish.

Jamiyatning ijtimoiy beqarorligi asosan aholi daromadlarining keskin tabaqalanishi natijasida aholini o'ta boy va qashshoq qatlamlariga bo'linishi bilan bog'liq. Davlatning ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Bandlik siyosati davlatning mehnatga layoqatli va ishlashni xohlovchilarni ish joylari bilan ta'minlash orqali o'zini o'zi boqish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan siyosat.

2. Daromadlar siyosati davlat daromadlarining oqilona taqsimlanishini tartibga solish siyosati.

Ijtimoiy soliqlar, ijtimoiy dotatsiyalar va byudjet transfertlari kabilar uning vositasi hisoblanadi. Bandlikni, pensiya bilan ta'minlash va mehnatning ijtimoiy sug'urtalanishini ta'minlash maqsadida firmalardan ular ajratgan mehnat xaqi summasidan ijtimoiy soliqlar undiriladi. Bularning bir qismi davlat tomonidan ishsizlar va vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotganlarga nafaqa ko'rinishida to'lanadi. Daromad solig'ining progressiv shkalasini belgilash va unga asoslanib soliqlarni undirish orqali ko'p daromad olgan ko'p soliq to'lashga erishiladi. Natijada yig'ilgan pul davlat byudjetida to'planib muhtojlarga yordam sifatida beriladi.



3. Ijtimoiy siyosat aholining nochor qatlamlariga yordam berish, ularni qo‘llab-quvvatlab turish siyosatidir. Davlatning ijtimoiy siyosati ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy nafaqalar yordamida amalga oshiriladi. Aholini ijtimoiy himoyalash siyosati aholining o‘zi ishlab pul topishga qodir bo‘lmagan qismiga davlat byudjeti hisobidan pul va moddiy shaklda yordamni nazarda tutadi. Bu yo‘nalishda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: daromadlari kam insonlarni soliqlardan ozod qilish: bir yo‘la yordam ko‘rsatish; bepul yotoqxonalar ajratish ijtimoiy yordam miqyosli muhtojlar soniga va davlatning moliyaviy imkoniyatlariga bog‘liq.

Ijtimoiy kafolatlar-jamiyatning har bir fuqaroning oldida ularning zaruriy ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha majburiyatlari. Ijtimoiy kafolatlar tekin ta‘lim olish huquqi, fuqarolarning mehnat qilish qobiliyatini realizatsiya qilish va mehnatga zo‘rlashning maqsadga muvofiq emasligi bo‘yicha kafolatlar.

2017— 2021 yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida **ijtimoiy rivojlanish sohasida asosiy vazifalar belgilangan:** aholi o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlarning daromadlarini oshirish, fan va uzluksiz ta‘limni rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ular bilan aholini qamrab olishni kengaytirish, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularni munosib turar joy bilan ta‘minlash va farovonligini oshirish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish, turizmni rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida **fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish tizimini mustahkamlash va ularga davlat xizmatlari ko‘rsatish, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini himoya qilish hajmlari va shakllarini ko‘paytirish** yo‘nalishda davlat pensiya tizimini, davlat xizmatchilari ish haqi fondini isloh qilish, ijtimoiy kafolatlar va nafaqalar to‘lash tizimini takomillashtirish, vaqtincha ishsizlikdan sug‘urta qilishni soddalashtirish, ijtimoiy sug‘urtaning amaldagi tizimini xalqaro normalarga va JST konvensiyalariga muvofiqlashtirish, kasb-hunar-texnik ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, katta yoshdagilarni zamonaviy kasblarga o‘qitish va shu kabilar nazarda tutiladi.

Fuqarolarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish va yaxshilash maqsadida aholining ishlab chiqarish resurslaridan, dori

vositalaridan, sog'liqni saqlashning sifatli va kafolatli xizmatlaridan, zamonaviy ta'lim tizimini qurgan holda ta'limdan teng foydalanilishini ta'minlash va xotin-qizlarning iqtisodiyotning barcha sektorlarida ishtiroki cheklanishini bartaraf etish va shu kabilar nazarda tutiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang?
2. Davlat asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering?
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?
4. Tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering.
6. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.
7. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol o'ynaydi?
8. Davlat iqtisodiy dasturlari qanday amalga oshiriladi?

## **14. IQTISODIY O'SISH. BIZNES- SIKLLAR**

### **14.1. Real yalpi ichki mahsulot va undan iqtisodiy o'sishni o'lchashda foydalanish**

**Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va iqtisodiyotda, ishlab chiqaruvchi kuchlar, ta'lim, fan, madaniyat, aholi hayot darajasi va sifati, inson kapitalida bosqichma-bosqich sifat va tarkibiy ijobiy o'zgarishlarga iqtisodiy taraqqiyot deyiladi.** Iqtisodiy o'sishning dinamikasiga qarab milliy iqtisodiyotni ijtimoiy iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, aholining turmush darajasiga baho beriladi. **YaMM uni yaratish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish omillarining miqdor va sifat nuqtayi nazaridan takomillashishiga iqtisodiy o'sish deyiladi.** Iqtisodiy o'sishning mazmunini ijtimoiy ishlab chiqarish tashkil qiladi, natijasi esa milliy boylikning yaratilishi. Xodimlar, ishlab chiqarish vositalari tabiat va texnologiyalarning o'zaro

birgalikdagi harakati iqtisodiy o'sishning harakatlanish mexanizmini tashkil etadi. Iqtisodiy taraqqiyot ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini o'z ichiga oladi, shuning uchun u har xil tarzda iqtisodiyotning texnologik ukladlari va moddiy ne'matlarni taqsimlashning tarixan rivojlangan aniq sharoitlarida o'tadi. Yozef Shumpeter 1911 yilda nashr etilgan "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" nomli kitobida iqtisodiyotning o'sishi va rivojlanishi o'rtasidagi farqlarni bayon qilgan. Shumpeter iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi farqni quyidagicha izohlaydi: "O'zingiz xohlagan cha pochta karetlarini ketma-ket joylashtiring – bunda siz temir yo'lga ega bo'la olmaysiz." **Iqtisodiy o'sish** - bu miqdoriy o'zgarish - vaqt o'tishi bilan bir xil tovarlar va xizmatlarni (xususan, pochta karetsi) ishlab chiqarish va iste'mol qilishning ko'payishi. **Iqtisodiy rivojlanish** - bu ishlab chiqarish, mahsulotlarda, xizmatlarda, boshqaruvda, umuman iqtisodiyotda yangiliklar, ijobiy sifat o'zgarishlari, ya'ni innovatsiyalar<sup>17</sup> Yozef Shumpeter innovatsiyalarni shuningdek tadbirkorlik resursini iqtisodiy rivojlanishning bosh lokomativi deb hisoblagan. Bunda iqtisodiy o'sish -miqdoriy o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish esa hayot sifatining o'sishi va rivojlanishiga yo'naltirilgan ijobiy sifat o'zgarishlaridir

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, iqtisodiy o'sish, innovatsion iqtisodiyot va venchur biznes sektorini yaratish iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, mehnat unumdorligi va aholining hayot sifatini oshirishni qamrab oladi. Hozirgi davrda rivojlanish jarayonlarining samaradorligi ko'p jihatdan iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, davlat institutlari samaradorligi bilan belgilanadi.

**Inson rivojlanishi indeksi va aholi jon boshiga YaIM mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.** Iqtisodiyotning o'sishi va rivojlanishi bir-biri bilan bog'liq, lekin iqtisodiyotning rivojlanishi birlamchi hisoblanadi, chunki aynan iqtisodiyotning rivojlanishi uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy o'sishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra, iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish nazariyalari o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi. **Iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili inson kapitali va u yaratadigan innovatsiyalardir.** Rivojlanish darajasi bo'yicha davlatlarni taqqoslash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar

---

<sup>17</sup> Шумпетер Й. Теория экономического развития. — М.: Директмедиа Паблишинг, 2008. — с. 108

tizimi qo'llaniladi: aholi jon boshiga YaMM va YaIM; aholining turmush darajasi va sifati; iqtisodiyotning raqobatbardoshligi; mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikning boshqa ko'rsatkichlari; aholi jon boshiga inson kapitalining qiymati, uning sifati va samaradorligi; jahon iqtisodiyotiga integratsiya qilinganlik darajasi; korrupsiya darajasi; dunyoning yetakchi reytinglarida egallangan joy; moliyaviy-iqtisodiy reytinglar va jahonning yetakchi reyting agentliklarining bahosi; iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, xomashyo iqtisodiyotning ulushi; aholi jon boshiga asosiy mahsulotlar ishlab chiqarish.

**Iqtisodiy o'sish yaratilgan yalpi ichki mahsulot va uning aholi jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi.** Agarda iqtisodiyotning rivojlanishiga baho beriladigan bo'lsa, iqtisodiy o'sish yalpi ichki mahsulot, agarda aholining yashash darajasiga baho beriladigan bo'lsa, yalpi ichki mahsulotning jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichidan foydalaniladi.

**Iqtisodiy o'sish mutloq va nisbiy bo'lishi mumkun.** Mutloq iqtisodiy o'sish ( $O'_m$ ) ma'lum davrda yaratilgan tovar va xizmatlarning miqdori qanday o'zgarayotganini ko'rsatadi va real YaIM ning bu yilgi xajmidan ( $Q_2$ ) solishtiriladigan yilning ( $Q_1$ ) miqdori ayirib tashlanadi.  $O'_m = Q_2 - Q_1$  Masalan: 2019 yilda real YaIM hajmi 200 milliard dollar bo'lsa, 2020 yilda 210 milliard dollarni tashkil etdi. Bunda mutloq iqtisodiy o'sish 10 milliard ( $210 - 200 = 10$ ) dollarga teng. Mutloq o'sish milliy iqtisodiyotni salohiyati, ko'lamlarini ko'rsatadi

Nisbiy iqtisodiy o'sish foizda iqtisodiy o'sish sur'atlarida aniqlanadi:

$$O'_n = \frac{Q_2 - Q_1}{Q_1} * 100$$

Masalan, 2019 yilda real YaIM hajmi 200 milliard dollar bo'lsa ( $Q_1$ ), 2020 yilda 210 milliard dollarni ( $Q_2$ ) tashkil etgan. Raqamlarni ifodaga qo'yamiz:

$O'_n = \frac{210 - 200}{200} * 100 = 5 \%$ . Demak, 2019-2020 yillarda YAIM o'sish sur'ati 5 % ga teng bo'lgan.

Ijtimoiy mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

**Ekstensiv iqtisodiy o'sish** – bu yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarish jarayoniga qo'shimcha ishlab chiqarish omillarini jalb etish hisobiga oshishi. Bunda birinchidan, ishlab chiqarishning texnik asosi o'zgarmaydi, ikkinchidan

esa ishlab chiqarishning ko'lamini oshadi. Buning ijobiy va salbiy taraflari mavjud. Ekstensiv rivojlanish iqtisodiy taraqqiyotning sur'atlarini oshirishning eng oson yo'li hisoblanadi. Chunki uning yordamida tabiiy resurslarni tez o'zlashtirish hamda ishsizlar sonini qisqartirish mumkin. Biroq, ekstensiv rivojlanishda mahsulot miqdorini oshirishni texnik - iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilmayotgani sababli texnik turg'unlikka olib keladi. Shuningdek iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi hisobiga erishiladi.

**Intensiv o'sish** – bu yalpi milliy mahsulotning ishlab chiqarishning texnik va texnologik asoslarini takomillashtirish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish hisobiga ko'payib borishi. Iqtisodiy o'sishning bu turining asosini fan-texnika taraqqiyoti, innovatsiyalar tashkil etadi. Shu bilan birga ishlab chiqarishni intensivlashtirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki, bu milliy iqtisodiyotni chuqur strukturaviy qayta qurish, yuqori saviyali mutaxassislar tayyorlash va shu kabilar bilan bog'liq.

#### **14.2. Iqtisodiy o'sish omillari**

Iqtisodiy o'sishga bir qator omillar ta'sir etadi. Ularni ichida eng muhimlari quyidagilar: taklif omillari, talab omillari va taqsimlash omillari. **Ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar taklif omillarini tashkil qiladi.**

Taklif omillariga quyidagilar kiradi:

- tabiiy resurslar (yer, foydali qazilmalar, iqlim va h.k) va ularning miqdori hamda sifati.

-mehnatga qobiliyatli aholining miqdori va sifati;

-asosiy kapitalning mavjudligi va uning sifati;

-mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan texnologiyalarning mavjudligi.

Ushbu omillarning barchasi mamlakat iqtisodiyotining o'sishga erishishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Bu omillar har birining yalpi mahsulot hajmiga ta'sirini baholash orqali iqtisodiy o'sishni tavsiflash mumkin.

Ma'lumki, yalpi milliy (ichki) mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi, ya'ni:

$$Y = f(L, K, N),$$

bu yerda:

Y – yalpi milliy (ichki) mahsulot;

L – ishchi kuchi sarflari;

K – kapital sarflari;

N – tabiiy resurslar sarflari

**Talab omillariga ishlab chiqarilgan mahsulotga jamiyatning umumiy talabini oshiradigan va ana shu yo‘l bilan iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradigan omillar kiradi:**

- daromadlarning miqdori, daromad darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa shunchalik talab oshadi.


- davlatning fiskal siyosati, soliq stavkasi qanchalik yuqori bo‘lsa daromad miqdori kamayadi, demak talab ham past bo‘ladi va aksincha.

- aholining jamg‘arishga moyilligi real talabni pasaytiradi, demak iqtisodiy o‘shish imkoniyatlari ham pasayadi.

Iqtisodiy o‘shishga erishish uchun resurlarning taqsimlanishi oqilona tashkil etilgan bo‘lishi lozim. **Ishlab chiqarish jarayonida resurlarning maksimal va oqilona jalb etilishi, iqtisodiy aylanmaga jalb etilayotgan resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy o‘shishning taqsimlash omillarini tashkil etadi.** Iqtisodiy o‘shishning talab, taklif va taqsimlash guruh omillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, o‘zaro ta’siri va birgalikdagi harakati to‘g‘risidagi tasavvurni ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i beradi.

Ushbu egri chiziq insonning tabiiy resurslar, asosiy kapital va mavjud texnologiyalarning ma’lum miqdori va sifati bilan ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan turli xil tovarlarning ishlab chiqarish kombinatsiyalarini aks ettiradi (14.1-rasm). Rasmda mavjud imkoniyatlar egri chizig‘idagi har qanday nuqta

ikkita tovarni ishlab chiqarishning maksimal hajmini ko'rsatadi. Agar



#### 14.1-rasm. Iqtisodiy o'sish natijasida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi

mamlakatda ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'idagi nuqtaga to'g'ri kelsa, ishlab chiqarish jarayonida omillar samarali qo'llaniladi.

Egri chiziq ichidagi har bir nuqta omillarning samarasiz qo'llanilishini, orqasida joylashgan barcha nuqtalar esa resurslar cheklanganligi natijasida ishlab chiqarishning darajasi yetarli emasligini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish ilgari foydalanilmagan ishlab chiqarish omillari qo'llanila boshlanganida va iqtisodiyot ichki nuqtadan ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'idagi nuqtaga o'tganda yuz beradi. O'sish ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i o'ngga siljiganda ham kuzatiladi.

Iqtisodiy o'sishning zarurligini barcha iqtisodchilar tan oladilar, ammo iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali usullari to'g'risida turli xil fikrlar mavjud. Xususan bir xil iqtisodchilar asosiy kapitalga kapital qo'yilmalarni ko'paytirishni, boshqalari ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni rag'batlantirishni taklif qiladilar. Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «**70 miqdori qoidasi**» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, mamlakatimizdagi o'sish sur'atining 9,5% darajasida YaIMni 2 baravar oshirish uchun 7,3 yil talab

etiladi (70:9,5). Xolbuki, iqtisodiy o'sishning 2000 yildagi 4,0% darajasida bu ko'rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi.

### **14.3. Iqtisodiy o'sish nazariyalari, konsepsiyalari va modellari**

Iqtisodiy fanda iqtisodiy o'sish nazariyalarining yangi keynschilik va neoklassik yo'nalishlari mavjud. Shunga mos ravishda iqtisodiy o'sishning yangi keynschilik va neoklassik modellari farqlanadi. Yangi keynschilik yo'nalishi J.M. Keynsning kapitalistik iqtisodiyotning nisbiy beqarorligi va makroiqtisodiy muvozanat to'g'risidagi g'oyalari asosida vujudga kelgan. O'z navbatida neoklassik yo'nalish asosini Adam Smitning bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga solish bo'yicha qarashlari, J.B. Seyning uch omil va J. B. Klarkning iqtisodiy omillarning me'yoriy unumdorligi nazariyalari tashkil qiladi. Milliy daromad darajasi va dinamikasi, shuningdek uning iste'mol va jamg'armaga taqsimlanishi (keyinchalik u investitsiyalarga aylanadi) Keyns nazariyasida makroiqtisodiyotning asosiy muammosi hisoblanadi. Keyns milliy daromad hajmi va dinamikasi, uni realizatsiya qilish va to'la bandlikka erishishni iste'mol va jamg'arishning harakati bilan bog'lagan.

Investitsiyalar qancha ko'p bo'lsa, joriy iste'mol shunchalik kichik bo'ladi, kelajakda esa uning o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Jamg'arma va iste'mol o'rtasida oqilona nisbatni izlash **iqtisodiy o'sishning doimiy ziddiyatlaridan biri va shu bilan birga milliy mahsulotni ishlab chiqarish va ko'paytirish shartidir.**

Agar jamg'arma investitsiya miqdoridan ortiq bo'lsa, unda mamlakatning potensial iqtisodiy o'sishi to'liq amalga oshirilmaydi. Agar investitsiyaviy talab jamg'arma hajmidan yuqori bo'lsa, bu iqtisodiyotning "haddan tashqari qizib ketishiga" olib keladi va narxlarning inflyatsiyaviy oshishiga va xorijdan qarz olishning o'sishiga olib keladi.

Keynscha yo'nalishning barcha modellariga jamg'arish va investitsiya o'rtasidagi umumiy bog'liqlik xos. Milliy daromad o'sish sur'ati, jamg'arish meyori va investitsiyalar samaradorligiga bog'liq.

Yangi keynschilik yo'nalishida Britaniyalik iqtisodchi Roy Xarrod (1900-1978) va AQSHlik iqtisodchi Evsey Domar (1914-1997) tomonidan iqtisodiy o'sish modellari ishlab chiqilgan. Ular taklif etgan modellari juda o'xshashdir,



ular uzoq davrda barqaror iqtisodiy o'sishni tahlil qilganlar, uning asosiy shartlaridan biri bu jamg'arma va investitsiyalarning tengligi ( $S=I$ ). Biroq, uzoq muddatli davrda bugungi jamg'arma va ertangi investitsiyalar o'rtasida farq vujudga keladi. Bir qator sabablarga ko'ra, barcha jamg'armalar investitsiyalarga aylanmaydi. Jamg'arma va investitsiyalarning darajasi va dinamikasiga turli omillar ta'sir etadi. Jamg'arma asosan daromad oshishi bilan belgilansa, investitsiyalar ko'plab o'zgaruvchilarga bog'liq, chunonchi, bozor holati, foiz stavkasi darajasi, soliq miqdori, kapital qo'yilmalarning kutilayotgan rentabelligi. R. Xarrodning iqtisodiy o'sishning to'liq modelida uchta miqdor o'rtasidagi nisbatlar tahlil qilinadi: haqiqiy ( $G$ ), tabiiy ( $G_n$ ) va kafolatlangan ( $G_W$ ) o'sish sur'atlari. Xaqiqiy o'sish darajasi tenglamasi tahlilning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi:

$$GC = SY$$

Bu yerda:

$G$ , - daromad o'sishining bazis davrdagi miqdoriga nisbati ( $G = \Delta Y / Y$ );

$S$  – kapital sig'imi koeffitsiyenti, investitsiyalarning daromadlarning o'sishiga nisbati ( $C = I / \Delta Y$ );

$SY$  - milliy daromadda jamg'armalar ulushi ( $S/Y$ )

Xarrod aholi sonining o'sishi (bu iqtisodiy o'sish omillaridan biri) va mehnat unumdorligini oshirish bilan ta'minlanadigan ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'ati (bu ikkinchi o'sish omilidir), surunkali ishsizlik, ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq yuklanmaganligi va iqtisodiy inqirozlar bo'lmagan sharoitdagi jamg'arilgan kapital hajmi va kapital sig'imi koeffitsiyentini iqtisodiy o'sishning uchinchi omili deb hisoblaydi.

Jamg'arma miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, investitsiya hajmi shuncha katta bo'ladi va iqtisodiy o'sish sur'ati shunchalik yuqori bo'ladi. Kapital sig'imi koeffitsiyenti bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Tabiiy o'sish sur'ati (Xarrodga ko'ra) aholi sonining o'sishi va texnologik imkoniyatlarga qarab iqtisodiy o'sishning maksimal darajasini bildiradi. Iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarida investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoj  $G_nGr$  miqdor bilan ifodalanadi, bu yerda:  $G_n$  – o'sishning tabiiy sur'atlari,  $Gr$  – asosiy va aylanma kapitalning o'sish sur'atlari. Qisqa va o'rta muddatli istiqbolda investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoj sikl davomida asosan aylanma mablag'lar miqdori hisobiga o'zgarishi mumkin. Uzoq muddatli davrda asosiy va aylanma kapitalning o'sish sur'atlari ( $Gr$ ) o'zgarish foiz normasida doimiy

kattalik hisoblanadi, foiz normasi uzoq muddat davomida pasaysa  $G_r$  o'sadi, foiz normasi uzoq muddat davomida oshsa  $G_r$  pasayadi.

Iqtisodiy o'sishning tabiiy o'sish sur'atida muvozanat shartlarini yoki uning buzilishini aks ettiruvchi Xarrod tenglamasi quyidagi shaklga ega:

$$G_n * C_r = \text{yoki teng emas } S_Y$$

bu yerda:  $S_Y$ - jamg'arma.

Aslida, bu Keynes tenglamasining  $I=S$  takomillashtirilgan variantidir. Ularning farqi shundaki, Keynesning fikriga ko'ra, investitsiyalar hajmi kapitalning me'yoriy samaradorligi (foydalar normasi) va foiz stavkasi bilan aniqlanadi, Xarrod bu o'lchamlarni aholi o'sishi, texnologik taraqqiyot va kapital sig'imi bilan bog'laydi, ya'ni asosiy va aylanma mablag'larning o'sishi bilan. Jamg'arma ( $S$ ) miqdori ikkala holatda ham jamg'arishga marjinal moyillik bilan aniqlanadi. Haqiqiy va tabiiy o'sish sur'ati o'rtasidagi farqni ta'kidlab, uni bartaraf etish mumkinligini isbotlagan. R. Xarrod yangi - "kafolatlangan" o'sish sur'atini ( $G_w$ ) taklif etdi. "Bu bashorat qilingan qiymat, o'sha olg'a siljishning umumiy o'sish sur'ati ishbilarmonlarga mos keladigan o'tmishni baholash va kelajakka nisbatan bo'lgan umidlardan kelib chiqqan holda tajriba tarzda aniqlanadi."

Kafolatlangan o'sish sur'ati  $G_w * C_r = S_Y$  tenglamasida  $S_Y$  o'tgan yilgi miqdor,  $G_w * C_r$  kelajak miqdorni anglatadi, ya'ni investitsiyalarning o'sishi daromadlardagi jamg'arma ulushiga bog'liq.

Agar haqiqiy iqtisodiy o'sish sur'ati bashorat qilingan kafolatlangan iqtisodiy o'sish sur'atlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, unda uzluksiz barqaror rivojlanish kuzatiladi. Biroq, bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday muvozanat juda kam uchraydi. Haqiqiy o'sish sur'ati kafolatlangan o'sish sur'atlaridan past yoki yuqori bo'ladi. Daromadning jamg'armaga nisbatan doimiy ulushini hisobga olgan holda, R. Xarrod ta'kidlashicha, investitsiyalar dinamikasiga ta'sir etadi, natijada mos ravishda kamayadi yoki ko'payadi. Shunday qilib R. Xarrod qisqa muddatli siklik tebranishlarni tushuntiradi. Xarrod iqtisodiy vaziyatning uzoq muddatli tebranishlarning kafolatlangan va tabiiy o'sish sur'atlarini taqqoslab tahlil qiladi va  $G_n$  va  $G_w$  o'rtasidagi nisbat bir necha yillar davomida jonlanish yoki turg'unlik hukm surishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. R. Xarrodning fundamental tenglamasi bo'yicha  $G_w * C_r = G_n * C_r$  ya'ni barqaror kafolatlangan o'sish uchun

jamg'arishga bo'lgan haqiqiy ehtiyoj, uning tabiiy o'sish sur'atiga bo'lgani kabi ehtiyojiga tengdir. Barqaror iqtisodiy o'sishning shartlaridan biri bu jamg'arma va investitsiyalarning tengligi. Agar jamg'arma investitsiyaviy talabdan yuqori bo'lsa, unda ortiqcha zaxiralar vujudga keladi, uskunalar to'liq ishlatilmaydi va ishsizlar soni ko'payadi. Agar investitsiyaviy talab jamg'arish hajmidan oshib ketgan bo'lsa, bu inflyatsiya narxining oshishiga va iqtisodiyotning "qizib ketishiga" yordam beradi.

Neoklassik model ko'p omilli hisoblanib, amerikalik iqtisodchi P.Duglas va matematik CH.Kobb yaratgan ishlab chiqarish funksiyasi asos qilib olingan. Kobb-Duglas modeli orqali ishlab chiqarish hajmining o'sishida ishlab chiqarish turli omillarining ulushini aniqlashga harakat qilinib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = AK^{\alpha} L^{\beta},$$

bu erda:

Y – ishlab chiqarish hajmi;

K – kapital sarflari;

L – ishchi kuchi sarflari;

A,  $\alpha$ ,  $\beta$  - ishlab chiqarish funksiyasining koeffitsiyentlari;

A – mutanosiblik koeffitsiyenti;

$\alpha$  va  $\beta$  - ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi va kapital sarflari bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti.

Elastiklik koeffitsiyenti bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarishi natijasida boshqa bir ko'rsatkich miqdorining o'zgarishi darajasini ifodalaydi. Shunga ko'ra,  $\alpha$  koeffitsiyenti kapital sarflarining 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini,  $\beta$  koeffitsiyenti esa ishchi kuchi sarflarining 1%ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi.  $\alpha$  va  $\beta$  ning yig'indisi ishchi kuchi va kapital sarflarining bir vaqtning o'zida 1% ga o'sishi ishlab chiqarish hajmining necha foizga o'sishini ko'rsatadi.

CH.Kobb va P.Duglas o'z tadqiqotlarida AQSH qayta ishlash sanoatining 1899-1922 yillar mobaynidagi ish faoliyatini tahlil qilib, ishlab chiqarish funksiyasining ko'rsatkichlarini aniqlashga harakat qilganlar:

$$Y = 1,01 \times K^{0,25} \times L^{0,75}.$$

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, o'sha davrda AQSH qayta ishlash sanoatida kapital sarflarining 1% ga oshirilishi ishlab chiqarish hajmini

0,25%ga, ishchi kuchi sarflarining 1% ga oshirilishi esa ishlab chiqarish hajmini 0,75% ga oshishiga olib kelar ekan.

Keyinchalik Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasini golland iqtisodchisi Yan Tinbergen yanada takomillashtirib, unga yangi omil – texnika taraqqiyoti ko‘rsatkichini kiritdi. Natijada ishlab chiqarish funksiyasi formulasi quyidagi ko‘rinishni oldi:

$$Y = AK^\alpha L^{1-\alpha} e^{rt},$$

bu yerda:  $e^{rt}$  – vaqt omili.

Ishlab chiqarish funksiyasiga vaqt omilining kiritilishi endilikda nafaqat miqdor, balki «texnika taraqqiyoti» atamasi orqali uyg‘unlashuvchi sifat o‘zgarishlari – ishchi kuchi malakasining o‘sishi, innovatsiya jarayonlarining kuchayishi, ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashuvi, jamiyat miqyosida ma’lumotlilik darajasining oshishi va boshqalarni ham aks ettirish imkonini berdi.

Iqtisodiy o‘shish nazariyasi rivojiga Nobel mukofoti sovrindori amerikalik Robert Solou (1924 yilda tug‘ilgan) qo‘shgan, u Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasini yana bir omil - texnologik rivojlanish darajasini joriy etgan holda o‘zgartirdi. SHu bilan birga, u texnologiyaning o‘zgarishi K va L ni bir xil o‘shishga olib keladi deb hisoblagan :

$$Q = T \cdot F(K, L),$$

Bu yerda: Q- mahsulot ishlab chiqarish;

K - asosiy kapital; L- sarflangan mehnat (ish haqi ko‘rinishida);

T- texnologiyaning rivojlanish darajasi;

(K,L) – Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi.

**Tarmoqlararo balans** iqtisodiy o‘shishning muhim modellaridan biri hisoblanadi. Tarmoqlararo balans AQSHlik iqtisodchi V.Leontyev tomonidan «**xarajatlar – ishlab chiqarish**» modeli sifatida takomillashtirilgan holda ishlab chiqildi. V.Leontyev iqtisodiy tahlilning «xarajatlar – ishlab chiqarish» usuli yordamida amalga oshirgan, e’tiborni eng avvalo iqtisodiyotdagi miqdoriy aloqalarga qaratadi. Tarmoqlar o‘rtasidagi bu aloqalar texnologik koeffitsiyentlar orqali o‘rnatiladi.

Tarmoqlararo balans jadvali to'rtta kvadrantdan iborat. Birinchi kvadrantga mahsulot ishlab chiqarishga moddiy sarflar ko'rsatkichlari joylashtirilgan. Ikkinchi kvadrantga shaxsiy iste'mol, jamg'arish, davlat xaridi va eksport sifatida foydalaniluvchi pirovard mahsulot ko'rsatkichlari joylashtirilgan. Uchinchi kvadrantdan qo'shilgan qiymat (ish haqi, foyda, soliqlar) va import ko'rsatkichlari o'rin olgan. To'rtinchi kvadrantda sof milliy mahsulotni qayta taqsimlash ko'rsatkichlari joylashgan. Tarmoqlararo aloqalar jadvali ustunlari bo'ylab xarajatlarni, ya'ni har bir tarmoq bo'yicha mahsulot qiymatini tashkil etuvchi unsurlarni, satrlar bo'yicha esa – milliy iqtisodiyot har bir tarmog'i mahsulotini taqsimlash tarkibiy tuzilmasini aks ettiradi.

Tarmoqlararo balans modelida bir tarmoqdagi pirovard talab yoki ishlab chiqarish sharoitidagi o'zgarishlar boshqa barcha o'zaro bog'liq tarmoqlarning miqdoriy ta'sirini kuzatish orqali o'rganiladi. Bu esa qandaydir tovarga bo'lgan ehtiyojlar yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasidagi har qanday o'zgarishlar muvozanatlashgan narxlar tarkibini o'zgartirib, texnologik koeffitsiyentlarning ham o'zgarishiga olib kelishini anglatadi.

«Xarajatlar – ishlab chiqarish» tarmoqlararo balansi usuli nafaqat iqtisodiyot turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganishga, balki mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini, uning tarmoqlar tuzilmasining o'zgarishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarini bashoratlashga imkon yaratadi.

#### **14.4. Sikllik - iqtisodiy taraqqiyotning umumiy shakli ekanligi va uning sabablari**

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qaysi mamlakatda iqtisodiy o'sish (rivojlanish) bir tekis kechmaydi. U davriy xarakterga ega bo'lib, iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul holati vujudga keladi. Iqtisodiyotda mavjud muvozanatlar iqtisodiy rivojlanishning shart-sharoiti hisoblansa-da, ular buzilib va tiklanib turadi. Ular buzilganida iqtisodiy barqarorlik, tiklanganda esa barqarorlik kuzatiladi. Inqiroz moliyaviy tanglik, ishsizlikning me'yordan ortib ketishi, aholi turmush darajasi pasayishi, iqtisodiy beqarorlik kabi belgilar bilan tavsiflanadi. Iqtisodiyotni siklligi iqtisodiy rivojlanish darajasining ketma-ket yuksalish va tushkunlik holatiga tushishi jarayonidir. Iqtisodiyotning tebranib turishining sababi yalpi talab va yalpi taklifning muvozanat holatiga kirishi va undan chiqib turishidir. Birinchi holatda iqtisodiyot o'sadi, ikkinchi holatda esa pasayadi. Iqtisodiyotning bunday notekis harakati bozor tizimining nuqsonidir.

Makroiqtisodiy nazariyada iqtisodiy siklning umume'tirof etilgan konsepsiyasi mavjud emas, shuning uchun turli yo'nalishdagi iqtisodchilar iqtisodiy sikllarning vujudga kelish sabablariga e'tibor qaratishadi. Iqtisodiy sikl omillarini aniqlash nuqtayi nazaridan uchta uslubiy yondashuvlar farqlanadi: ekzogen, endogen va eklektik. **Ekzogen yondashuv tarafdorlari siklning xususiyatini faqat tashqi sabablar bilan bog'lashadi. Endogen yondashuv tarafdorlari ushbu hodisaning ichki qonuniyatlarini izlaydilar. Eklektizm tashqi va ichki omillar sintezi siklining vujudga kelishini belgilab beradi deb hisoblaydilar.**

**Birinchi yondashuvga binoan** sikllar tashqi (ekzogen) omillar ta'sirida vujudga keladi. Tashqi (ekzogen) omillar – bu iqtisodiy tizim tashqarisida yuz beradigan hodisalardir. Xususan, aholining dinamikasi, aholi migratsiyasi, fan va texnika kashfiyotlari, urushlar va boshqa siyosiy voqealar, neft narxining o'zgarishi, oltin konlarining kashf etilishi, yangi yerlar va tabiiy resurslarning kashf etilishi va boshqalar.

**Ikkinchi yondashuvga** muvofiq iqtisodiyotni siklik rivojlanishi ichki (endogen) omillar, ya'ni iqtisodiy tizimning ichida yuz beradigan hodisalar ta'sirida ro'y beradi. Bularga quyidagilar kiradi:

-**iste'molning ta'siri**: firmalar xaridorlarni barcha tovar va xizmatlar bilan ta'minlashga harakat qiladi, natijada istemol sarflari oshadi, yangi xodimlar ishga yollanadi. Shunday qilib mahsulot ishlab chiqarish, bandlik, mahsulot sotish hajmlari oshadi, iqtisodiyot yuksalish bosqichiga o'tadi. Iste'mol xarajatlari qisqargan paytda aks holat kuzatiladi.

- **investitsiyalarning ta'siri**: asosiy fondlarga kapital qo'yilmalar yangi ish joylarini yaratadi, iste'molchilarning xarid etish qobiliyati oshadi, pirovard natijada bu yuksalishga sharoit yaratadi. Investitsiyalash darajasi pasayganda aks holat, ya'ni iqtisodiyotda tanazzul holatlari kuzatiladi.

- **hukumat faoliyatining ta'siri** - ushbu ta'sir ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: a) fiskal siyosat, ya'ni soliqlarni yig'ish va taqsimlash; b) monetar siyosat, ya'ni pul muomalasini tartibga solish.

**Uchinchi yondashuvga** muvofiq iqtisodiyotning siklik rivojlanishi ichki va tashqi omillar ta'sirida vujudga keladi deb hisoblanadi. Ularning fikricha, tashqi omillar iqtisodiy sikilni vujudga keltirishiga birlamchi turtki beradi. Ichki omillar esa bosqichlar bo'yicha iqtisodiyotning tebranishlariga sabab bo'ladi.

Ushbu yo‘nalishdagi hozirgi zamon nazariyasi Samuelson-Xiksning biznes sikl modeli bilan bog‘liq. Ushbu nazariyaga binoan milliy daromad yoki YaMMni iste‘mol va kapital jamg‘arishning o‘zaro harakati iqtisodiy siklning vujudga kelishi sababidir.

Zamonaviy iqtisodiyot fanida 1380 dan ortiq sikllar turi ma‘lum. Iqtisodiy sikllarning eng xarakterli xususiyati ularning ro‘y berish vaqtining davomiyligi, shuning uchun XIX asr boshlarida iqtisodiyotda har xil turdagi jismoniy kapitalning ishlash muddati bo‘yicha sikllarning tasnifi berilgan. Hozirgi vaqtda to‘rtta asosiy sikl turlari farqlanadi:

**Kitchin sikli.** (Jozef Kitchin (1926 y.) ) 2–4 yil davom etadi. Iste‘mol tovarlari bozorida talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasida korxonalarda aylanma mablag‘larning o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan qisqa muddatli iqtisodiy sikllar.

**Jyuglar sikli.** (Klement Jyuglar (1819-1905 yy.)) 7–10 yil davom etadi, «biznes-sikl», «sanoat sikli», «o‘rtacha sikl» kabi nomlar bilan ham ataladi. Korxonalarining investitsiyaviy talabining o‘zgarishi natijasida ishlab chiqarish omillarining uzoq muddatli jamg‘arilishi va mavjud bo‘lgan texnologik modelda katta o‘zgarishsiz sanoat korxonalarida eskirgan uskunalarni almashtirish natijasida yuzaga keladigan o‘rta muddatli iqtisodiy sikllar (biznes faollik sikllari) Narxlar, foiz stavkalari va Markaziy bankning zaxiralarini tadqiq etishga asoslangan. Birinchi sanoat sikli 1825 yili Angliyada metallurgiya va boshqa yetakchi tarmoqlarda mashinali ishlab chiqarish hukmron mavqeni egallagan davrda kuzatiladi. 1836 yildagi inqiroz dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQSHga ham tarqaladi, 1847-1848 yillarda AQSH va qator Yevropa davlatlarida boshlangan inqiroz, tub mohiyatiga ko‘ra birinchi jahon sanoat inqirozi bo‘lgan. Agar XIX asrda sanoat sikli 10-12 yilni tashkil qilgan bo‘lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham kam davrgacha qisqargan. AQSH va Yevropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan kechirgan bo‘lib, ulardan yettitasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro‘y bergan.

**Kuznes sikllari.** (Saymon Kuznets) Davomiyligi 15–25 yil. Qurilish sikllari (reproduktiv, demografik) qurilishga talabning notekisligi, turar-joy binolarini, ishlab chiqarish obyektlarini yangilashning davriyligi, demografik o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

**Kondratyev sikli** (N.D.Kondratev davomiyligi 50-60 yil). Ijtimoiy ishlab chiqarishning texnologik bazasini tubdan o‘zgartirish, uni tarkibiy qayta qurish

bilan bog‘liq uzoq muddatli (uzun) sikllar. Uzoq muddatli tebranishlar davriyligining moddiy asosini uzoq xizmat muddatiga ega asosiy kapitalni yangilash, uning negizida yangi texnologiyalar, materiallar, xomashyo va energiya manbalarini (bug‘ dvigatellari, temir yo‘llar, elektr energiyasi, ichki yonish dvigatellari, kompyuterlar) joriy etish yotadi. N.D.Kondratyev tadqiqoti Angliya, Fransiya va AQSHning 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab oladi. Bunda u iqtisodiy o‘shishning ko‘p omilli tahlilini o‘tkazib, ya’ni tovar narxlari kapital uchun foiz, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta sikllarni ajratib ko‘rsatadi.

I-sikl: 1787-1814 yillar - ko‘taruvchi to‘lqin; 1814-1851 yillar - pasaytiruvchi to‘lqin.

II-sikl: 1844-1851 yillar - ko‘taruvchi to‘lqin; 1870-1896 yillar - pasaytiruvchi to‘lqin.

III-sikl: 1896-1920 yillar - ko‘taruvchi to‘lqin.

Yuqoridagi barcha sikllar birinchidan, sarmoyalar, ikkinchidan esa vaqt oralig‘ida orqada qolish bilan bog‘liq. Kitchin sikli investitsiyalarni taqsimlash va yangi ishlab chiqarish vositalarini joriy etish o‘rtasidagi vaqtning uzilishi (oralig‘i) bilan bog‘liq; Jyuglyar sikli - mehnat vositalarining faol qismini kiritish va chiqarib yuborish o‘rtasidagi vaqt oralig‘i bilan; Kuznes (asosan) va Kondratyev sikllari mehnat vositalarining passiv qismini kiritish va chiqarib yuborish o‘rtasidagi vaqt oralig‘i bilan bog‘liq. Shu bilan birga, Kitchin sikli sof investitsiyalar dinamikasiga, Jyuglyar, Kuznes va Kondratyevlarning sikllari kapitalni yangilash bilan bog‘liq bo‘lgan yalpi investitsiyalarga bog‘liq. Real takror ishlab chiqarish - bu turli xil sikl turlarining kombinatsiyasi va o‘zaro bog‘liqligidir. Ular o‘rtasida sinxronizatsiya samarasi vujudga keladi. Kombinatsiyalangan sikllar iqtisodiyotning barcha subyektlari har kuni shug‘ullanadigan iqtisodiy siklni tashkil qiladi.

#### **14.5. Iqtisodiy inqirozlarning turlari va ularning xususiyatlari.**

Iqtisodiy inqiroz ishlab chiqarishning keskin va sezilarli pasayishi bilan tavsiflanadi. Real yalpi ichki mahsulotning pasayishi, ommaviy bankrotlik va ishsizlik, aholi turmush darajasining pasayishi iqtisodiy inqirozning oqibatlaridir. Birinchi yirik inqirozlar XVII asrda Angliyada yuz bergan. Industrial sanoat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan krizislar siklik tavsifga ega



bo‘lib, iqtisodiy siklning bosqichlaridan biriga aylangan. Siklli rivojlanishning dastlabki va asosiy fazasi inqiroz hisoblanadi. Inqiroz bir siklni nihoyasiga yetkazib, yana muqarrar ravishda inqiroz bilan tugaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi.

Inqiroz davrida ishlab chiqarishning qisqarishi, narxlarning beqarorligi, ishsizlar sonining ortishi, ish haqining pasayishi, aholi turmush sharoitining yomonlashishi kabi holatlar yuz beradi. Inqiroz paytida tovarlar aholini sotib olish qobiliyati bilan belgilanuvchi talabga nisbatan ortiqcha ishlab chiqarilganligi va sotilmay qolayotgani bilan yaqqol namoyon bo‘ladi, narxlar va foyda miqdori pasayishi, ishlab chiqarish hajmi pasayishi kuzatiladi. Buning natijasida ishsizlik soni ko‘payadi, ish haqi pasayadi, kreditga talab oshadi, foiz ko‘tariladi, banklardagi qo‘yilmalar ommaviy ravishda qaytarib olinadi.

Iqtisodiy siklning inqiroz bosqichida ressessiya jarayoni kuzatiladi. **YaMM hajmining 6 oy va undan ortiq davrda kamayishiga ressessiya deyiladi.**

Har bir iqtisodiy inqiroz takror ishlab chiqarish jarayonining keskin buzilishi va izdan chiqishi bilan namoyon bo‘ladi. Bunday holda quyidagi vaziyat yuzaga kelishi mumkin, ishlab chiqarish hajmi talab hajmidan oshib ketadi yoki to‘lov qobiliyatiga ega talab hajmi ishlab chiqariladigan mahulot hajmidan oshib ketadi. Birinchi holda, ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi, ikkinchisida esa kam ishlab chiqarish inqirozi kuzatiladi.

Ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi birinchi marta 1825 yilda Angliyada yuz bergan. 1929-1933 yillardagi inqiroz avvalgilaridan ancha kuchli kelgan, shuning uchun u «Buyuk turg‘unlik (depressiya)» deb nomlangan. 1990 yillar uchun tarkibiy inqirozlar (neft, oziq-ovqat, energiya, xomashyo) xos.

Iqtisodiy tushkunlikning xarakteriga, ularning milliy iqtisodiyotning turli sohalari yoki tarmoqlarini qamrab olishiga, ro‘y berish chastotasiga qarab iqtisodiy inqirozlarning quyidagi turlari farqlanadi. 1. Xo‘jalik tizimida muvozanatning buzilishi **miqyosiga ko‘ra inqirozlarni umumiy hamda ayrim sohalarda yuz beradigan inqirozlarga bo‘lish mumkin. Umumiy inqirozlar butun milliy xo‘jalikni va jahon xo‘jaligini qamrab olsa, ikkinchisi qisman, ya’ni ayrim sohalarda yoki tarmoqlardagi tanglik sifatida ro‘y beradi.**

Ayrim sohalardagi inqirozlarga katta faoliyat sohalari doirasidagi iqtisodiy faollikning pasayishi bilan bog‘liq. Gap pul muomalasi va kreditlar, bank tizimi, fond va valyuta bozorlari (XX asrning 70-yillari global valyuta inqirozi va suzuvchi kurslar tizimiga o‘tish) haqida boradi.

Ayrim sohalardagi inqirozlar quyidagilarni kiritish mumkin:

**Pul-kredit sohasidagi inqiroz** – mamlakat pul-kredit tizimining tang ahvolga tushishi bo‘lib, bunda tijorat va bank krediti keskin qisqaradi, qimmatli qog‘ozlar kursi, bank foizi pasayib ketishi natijasida banklar sinib, ommaviy holda bankrotlikka uchraydilar.

**Valyuta inqirozi** - bu milliy valyuta qimmatining tushib ketishi, bankda valyuta zaxirasining tugab, milliy valyuta kursining keskin pasayishi holati.

**Birja inqirozi** – birjada qimmatli qog‘ozlar kursining tezda tushib ketishi, ularni emissiya qilishning qisqarishi, fond birjalari faoliyatidagi chuqur tushkunlik, tanglik holati.

Atrof-muhitni, eng avvalo inson sog‘lig‘ini yo‘qotish, umrini qisqartirishga olib keladigan darajadagi vaziyatning vujudga kelishida ifodalanuvchi inqiroz **ekologik inqiroz deyiladi**. U sanoatning shiddatli tarzda o‘shishiga yo‘l qo‘ymaydi.

**Tarmoq inqirozlari**- milliy xo‘jalikning biron-bir tarmog‘ini qamrab oladi, tarkibiy o‘zgarish yoki normal xo‘jalik aloqalarining buzilishi tufayli ishlab chiqarishning pasayishi va tarmoqlarning birida (masalan, ko‘mir, po‘lat va to‘qimachilik sanoatida) faoliyatni qisqartirish bilan tavsiflanadi.

**Tarkibiy inqirozlar** ijtimoiy ishlab chiqarishda tarmoqlararo nomutanosiblikning asta-sekin va uzoq muddatli kuchayib borishi bilan bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarishning mavjud tuzilmasi va resurslardan samarali foydalanishning o‘zgargan sharoitlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik bilan tavsiflanadi. Tarkibiy inqirozlar sanoat ishlab chiqarishining umumiy holatiga katta ta’sir ko‘rsatadi, siklik rivojlanishning an’anaviy manzarasini o‘zgartiradi, siklik inqirozining namoyon bo‘lishini yumshatadi yoki kuchaytiradi. Masalan XX-asrning 70-yillaridagi energitik inqiroz narxlarning 4-5 baravar oshishiga va energiya tejaydigan texnologiyalarga o‘tishga olib kelgan. Tarkibiy inqirozlar bilan iqtisodiy tebranishlar va shu jumladan iqtisodiy faollikning mavsumiy tebranishlari ham mavjud bo‘ladi. **Mavsumiy inqirozlar** iqtisodiy faoliyatning qabul qilingan ritmini buzadigan iqlim omillari (qishloq xo‘jaligi va kommunal xizmatlar uchun kech bahor, yoqilg‘i yo‘qligi) tufayli yuzaga keladi.

**Qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy inqirozlar agrar inqirozlar deb ataladi**. Qishloq xo‘jaligidagi siklik rivojlanish o‘ziga xos xususiyatlarga ega, ular agrar inqirozlarda namoyon bo‘ladi. Agrar inqirozlar namoyon bo‘lishining asosiy shakllari: qishloq xo‘jaligidagi tovarlarning sotilmay qolgan

zaxiralarining ko'payishi, ularga narxlarning pasayishi, ishlab chiqarish hajmining kamayishi, ishsizlikning ko'payishi, ish haqining pasayishi, fermerlarning ommaviy ravishda xonavayron bo'lishi, ularning qarzlarning ortishi. Agrar inqirozlar sanoatdagi inqirozlardan farqli o'laroq, uzoq muddat davom etadi va siklik xarakterga ega emas. Birinchi agrar inqiroz XIX asrning 70-yillarida boshlanib, har xil shakllarda 90-yillar o'rtasigacha davom etgan edi. Birinchi jahon urushidan keyin, aholining xarid qobiliyati juda pasayib ketgan sharoitda, 1920 yil bahorida agrar inqiroz boshlanib ketdi va ikkinchi jahon urushining boshlanishiga qadar davom etdi. Uchinchi agrar inqiroz 1948 yildan boshlanib, 80-yillargacha davom etdi.

**Jahon iqtisodiy inqirozlari** global miqyosda jahon xo'jaligini qamrab oladi.

**Iqtisodiyotda muvozanatning buzilishi muntazam yoki aksincha tarzda yuz berishiga ko'ra davriy, oraliq inqirozlarga ajratish mumkin.**

**Davriy inqirozlar** - bu davriy ravishda qaytarilib turadigan ijtimoiy ishlab chiqarishdagi tushkunlik bo'lib, bu milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida ishbilarmonlik faoliyatining falajlanishiga olib keladi va iqtisodiy faoliyatning yangi siklini keltirib chiqaradi.

**Oraliq inqirozlar** – bu vaqti vaqti bilan vujudga kelib turuvchi ijtimoiy ishlab chiqarishdagi tushkunlik bo'lib, milliy iqtisodiyotning jonlanish va yuksalish bosqichlarini vaqtincha to'xtatadi. Bular yangi siklini keltirib chiqarmaydi, mahalliy tavsifga ega va qisqa muddatli bo'ladi.

3. **Takror ishlab chiqarish nisbatlarining buzilishi tavsifiga ko'ra** ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish inqirozlariga bo'linadi. **Tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi** turli naf keltiradigan ne'matlarni ko'p ishlab chiqarish, lekin ularni to'la sota olmaslikda namoyon bo'ladi. **Taqchil ishlab chiqarish inqirozi** davrida muvozanat buzilib, yetishmovchilik natijasida tang ahvol kelib chiqadi. Shunday qilib, iqtisodiyotning tang ahvolga tushishiga faqat ortiqcha ishlab chiqarish emas, balki taqchil ishlab chiqarish ham sabab bo'ladi.

#### **14.6. Iqtisodiy siklning fazalari**

Iqtisodiy sikl YaIMning o'sish sur'atlari, tovar va xizmatlarni sotish hajmi, narxlarning umumiy darajasi, ishsizlik va shu kabi iqtisodiy faollikning turli ko'rsatkichlari tizimi bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy siklning o'ziga xos

xususiyati iqtisodiyotni siklning ketma-ket to‘rt bosqichini o‘tayotgan vaqtda YaMMning o‘shishi hisoblanadi.


Iqtisodiy davr (sikl) inqiroz, turg‘unlik jonlanish, yuksalish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichlar iqtisodiy davr fazalari deyiladi. Fazalarning har birida navbatdagi fazaga o‘tish uchun sharoit yuzaga keladi. Endi fazalarni alohida ko‘rib chiqamiz.

Davriy (siklik) rivojlanishning bosqichlari mavjud, biroq iqtisodiyot doim ushbu barcha bosqichlardan o‘tadi degan gap emas. XX asrning 50- yillarining o‘rtalariga qadar rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida sikl **inqiroz, turg‘unlik, jonlanish, yuksalish** fazalaridan iborat bo‘lgan. Biroq shundan keyin siklning o‘zi va uning bosqichlari kamaygan va hatto navbatdagi bosqichning tushib qolishi yuz bergan. Iqtisodiyot turg‘unlik holatini chetda qoldirib inqirozdan yuksalishga o‘tib ketgan, inqiroz davri qisqargan, krizislar yengil kechgan. Har bir faza birinchidan iqtisodiy rivojlanishdagi muayyan pallani ifodalaydi, ikkinchidan esa o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ana shu fazalarning har birining rivojlanishi jarayonida navbatdagi fazaga o‘tish uchun tegishli shart sharoitlarni yuzaga keladi. Bizga ma’lumki, iqtisodiy siklning dastlabki fazasi **inqirozdan** boshlanib, u ishlab chiqarishning pasayishida ifodalanadi. Inqirozdan keyin **turg‘unlik fazasi** boshlanadi, u nisbatan uzoqroq davom etadi. Bu bosqichda ishlab chiqarish hajmining kamayishi to‘xtaydi. Iqtisodiyot turg‘un holatida turadi ya’ni ishlab chiqarish hajmi o‘zgarmaydi. Bu fazada ishlab chiqarish darajasining barqarorligi ta’minlansada, u inqiroz boshlanishidan oldingi darajaga nisbatan ancha past bo‘ladi. Bozorda tovarlar juda past narxlarda sotila boshlaydi. Bo‘sh pul kapitali vujudga kelib, foiz pasayadi. Biroq ishsizlikning yuqori darajasi saqlanib qoladi. Bu jonlashish bosqichiga o‘tish uchun sharoitni vujudga keltiradi.

**Jonlanish bosqichida** ishlab chiqarish oyoqqa turib oladi. Ishsizlik darajasi bir oz qisqarib, ishlab chiqarish darajasi sekin-asta o‘shib boradi. Narxlar ham asta ko‘tarilib, ssuda foizi o‘sha boshlaydi. Ishlab chiqarishning hajmi asta-sekin

YAMM





**14.2-rasm. Iqtisodiy sikl fazalarining klassik jihatdan ifodalanishi**

inqirozdan oldingi darajasiga yetadi, narxlar oshadi, foyda ortadi, jonlanish fazasini o‘rnini yuksalish fazasing egallaydi.

**Yuksalish fazasi** uchun ishlab chiqarishning inqirozgacha bo‘lgan darajasidan oshib ketish, tovar narxlarining ancha ko‘tarilishi, korxonalarining ishga tushurilishi, ishsizlik sonining kamayishi, bank va kredit ishlarining yo‘lga qo‘yilishi kredit talablarining oshishi va foiz miqdorlarining ko‘payishi xosdir. Pirovard talabning oshishi, o‘z navbatida, iste‘mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga, bozorni kengaytirishga jadal turtki beradi. Raqobat va foyda ketidan quvish oqibatida nomutanosibliklarning to‘planib borishidan iborat zanjirli reaksiya tezlashadi. Bu bilan yangi inqiroz muqarrar bo‘lib qoladi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishidagi sikllar bir-biridan davomiyligi va jadalligi bo‘yicha keskin farqlanadi. Shunga qaramay, ularning barchasi bir xil fazalarga egadir. Lekin bu fazalar turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha nomlanadi. Masalan, yuqorida ko‘rib chiqilgan iqtisodiy siklning fazalari klassik tavsifga ega bo‘lib, ular 14.2- rasmda tasvirlangan.

Hozirgi davrda iqtisodiyotning siklli o‘shishi ikki bosqichli tarzida ta‘riflanadi:

- yuksalish, jonlanish va bum (gurkirab o‘shish) dan iborat bo‘lgan iqtisodiy sikl bosqichi. Bunda iqtisodiyotning o‘shib eng yuqori bosqichga chiqishi bum deyiladi.

- **ressessiya**, krizis va depressiya (turg‘unlik) dan iborat iqtisodiy sikl bosqichi. Bunda krizis va depressiya birgalikda **ressessiya** deb ataladi va iqtisodiyotning tanglik holatini bildiradi. Tanglikning eng og‘ir shakli

stagnatsiya hisoblanadi. **Stagnatsiya** - uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish va savdoning turg'unligi bilan tavsiflangan iqtisodiyotning holati, turg'unlikda ishsizlar sonining ko'payishi, ish haqi va turmush darajasining pasayishi bilan birga keladi.

#### **14.7. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz sabablari va oqibatlari**

Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi 2008 yilda boshlangan jahon iqtisodiyotining inqirozli holati. Davlatlar va mintaqalar 2009 yildan 2013 yilgacha turli davrlarda inqirozning o'tkir bosqichidan chiqqanlar. Miqyosi va oqibatlari bilan uni faqat 30-yillardagi "Buyuk turg'unlik" davri bilan solishtirish mumkin. 2009 yilda jahon yalpi ichki mahsuloti ikkinchi jahon urushidan beri birinchi marta salbiy dinamikani ko'rsatgan. Jahon savdosi ham rekord darajada pasayib ketdi (10% dan yuqori), bu savdo hajmi 2011 yilga kelib tiklangan, ammo shunga qaramay inqirozdan oldingi o'sish sur'atlaridan sezilarli darajada orqada qolmoqda. AQSH iqtisodiyoti va yevro hududda ressessiya 2009 yilning ikkinchi choragida yakunlandi, ammo 2011 yilda yevrozonada ikkinchi pasayish boshlandi, bu 2013 yilgacha davom etdi. Ishsizlikning misli ko'rilmagan darajada ko'payishi mehnat bozori kuzatuvlari tarixidagi eng yuqori ko'rsatkichga etdi. (2009 yilda 199 million kishi).

2007-2008 yillardagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi AQSHdagi ipoteka bozori inqirozi, banklarning sinishi va aksiyalar narxining pasayishi bilan boshlandi, bu global iqtisodiy inqirozga yo'l ochib berdi (ba'zan "katta ressessiya" deb nomlanadi). Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining dastlabki bosqichi AQSHda ipoteka inqirozi bo'lib, uning birinchi belgilari 2006 yilda uylar sotilishi kamayganida namoyon bo'ldi va 2007 yil bahorida yuqori xavfli ipoteka kreditlari inqiroziga aylandi. 2007 yil yozida ipoteka inqirozi moliyaviy inqirozga o'sib o'tib nafaqat AQSHga balki boshqa davlatlarga ham ta'sir eta boshlandi. AQSH ipoteka bozorlarida namoyon bo'lgan mazkur inqiroz yetarlicha to'lov layoqatiga ega bo'lmagan, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubxali bo'lgan qarzdorlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi natijasida ro'y berdi.

AQSH iqtisodiyoti yaratilgan shart-sharoitlar tufayli arzon kredit resurslariga to'yindi va bu Federal zaxira tizimi (FZT) amalga oshirayotgan pul-kredit siyosatining o'zgarishiga olib keldi. Natijada 2004-2006 yillarda Federal zaxira tizimi foiz stavkalarini 6,25% gacha ko'tardi. Kreditlarning qimmatlashuvi aholining ipotekaga nisbatan talabining pasayishiga va

kreditlarni qaytarish bo'yicha qarzdorlar to'lovining qisqarishiga olib keldi. Boshqa tomondan, oziq-ovkat mahsulotlari va energiya resurslari narxlarining o'sishi aholining kreditni qaytarish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarining cheklanishiga olib keldi. 2000-2007 yillar mobaynida jahon bozoridagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxi o'rtacha ikki barobarga, benzin narxi esa 3,5 barobarga oshdi. Neft narxi rekord darajada, ya'ni bir barreli 147 dollardan oshib ketdi. Pirovard natijada 2007 yil boshida AQSHda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko'chmas mulk garovi bilan olgan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati ko'paydi. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi. Shunday qilib global moliyaviy inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Aksariyat moliyachi-iqtisodchilar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning sabablaridan biri sifatida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosatining «mevasi» ekanligini, ya'ni «o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvining cheklanganligi bilan ham izoxlanadi.

Jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab - **moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ham aloxida ta'kidlash lozim.** Pul muomalasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilishi lozim. Biroq, milliy iqtisodiyotlarning baynalminallashuvi va globallashuv jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan AQSHda, keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur

qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka olib keldi. Jumladan, o'tgan asrning 70-yillariga qadar amal qilib kelgan jahon valyuta tizimlari pullarning oltin yoki tovar mazmunini ta'minlash orqali iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga zamin yaratdi. Biroq, jahon amaliyotida 1976- yildan boshqariladigan, suzib yuruvchi valyuta tizimiga o'tgach, pulning oltin mazmuni yo'qolib, asosan AQSH dollari yetakchi valyutaga aylangach, uning muomalaga chiqarilishini nazorat qilib bo'lmay qoldi. Keyingi yillarda globallashuv jarayonining jadallashuvi ta'sirida xalkaro iqtisodiy aloqalarda qat'iy valyutaga bo'lgan talabning yanada kuchayishi AQSH tomonidan hech qanday tovar bilan ta'minlanmagan pullarning muomalaga chiqarilish jarayonini yanada tezlatib yubordi. Ma'lumotlarga ko'ra, muomaladagi pul massasi (naqd, kredit pullar va turli to'lov vositalari)ning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmidan deyarli 10 baravar, agar pulning aylanish tezligi ham hisobga olinsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoridan, ya'ni pulga bo'lgan talabdan bir necha o'n baravar ko'payib ketganligini anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, asosan yetakchi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozni vujudga keltiruvchi asosiy sabablardan biri hisoblanadi:

- noratsional pul-kredit siyosatini hamda qayta moliyalash stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi;

- moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag'lari o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi;

- qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;

- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarining buzilishi va soxta audit xulosalarining taqdim etilishi;

- moliyaviy rag'batlantirish uslubining sifat ko'rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;

- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarning vujudga kelishi va h.k.

Jahon moliyaviy inqirozi aksariyat rivojlangan mamlakatlar moliya tizimini tubdan isloh qilish zarurligini keltirib chiqardi. Shunga ko'ra, AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'zlarining bank tizimlarini inqirozdan Qutqarish uchun yirik tijorat banklarining aksiyalarini sotib olib, ularniNG



byudjet mablag‘lari hisobiga likvidli aktivlar bilan ta‘minlay boshladi.

AQSH hukumati iqtisodiyotga yirik ko‘lamdagi davlat aralashuvi siyosatini yurita boshladi. AQSHning sobiq moliya vazirining tashabbusi bilan Kongress Polson rejasi - deb nomlanuvchi rejani qabul qildi. Mazkur rejaning umumiy hajmi 700 mlrd. dollarni tashkil qildi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari inqirozdan chiqish bo‘yicha tijorat banklari kreditlari uchun davlat kafolatlari tizimidan foydalanishga kelishib olishdi. Bu holatda kafolatlar banklararo kreditlar bo‘yicha 5 yil muddatga taqdim etiladi va hukumat banklarning imtiyozli aksiyalarini sotib olish orqali ularni qullab-quvvatlash imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Masalan, AQSHda Federal zaxira tizimi qimmatli qog‘ozlarni sotib olish orqali xususiy sektorni to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish amaliyotiga o‘tish orqali likvidlilikni ta‘minlashning yangi usuliga o‘tdi. Buyuk Britaniya hukumati banklar va moliyaviy muassasalar aksiyalariga 37 mlrd. funt sterling mablag‘larning investitsiya qilishini e‘lon qildi. Germaniya hukumati esa, bank tizimini qo‘llab-quvvatlash uchun kapital va kreditlar bo‘yicha kafolatlar shaklida 500 mlrd. yevro ajratishini e‘lon qildi. Avstraliya hukumati esa barcha pul jamgarmalarini 3 yilga kafolatlashini e‘lon qildi va ipoteka qimmatli qog‘ozlarini sotib olish uchun 2,6 mlrd. dollar mablag‘ ajratdi. Yevropaning yirik banklari milliyashtirildi, ya‘ni davlat tomonidan sotib olindi.

Inqirozdan qutqarish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlardan ko‘rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar tartibga solinmaydigan erkin bozor hakidagi ideologik dogmani orqaga tashlab, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullaridan keng foydalana boshladilar.

Tijorat banklarini «milliyashtirish»ni nazarda tutuvchi davlat byudjetidan ajratilgan mazkur investitsiya resurslari ma‘lum bir davrga o‘zining ijobiy natijasini berishi mumkin.

Dunyo mamlakatlari tomonidan inqirozga qarshi kurash bo‘yicha yirik miqdorda moliyaviy resurslar ajratildi. Ularning hajmi va yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog‘i inqirozning ta‘sir ko‘lami va har qaysi mamlakatlarning inqirozga qarshi kurash bo‘yicha ishlab chiqqan rejalari hajmiga asoslanadi.

Jahon bo‘yicha jami sarflangan mablag‘larning hajmi 9400 mlrd. dollarni tashkil qilgan AQSH hukumati sarflangan mablag‘larning hajmi 3539 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo‘lib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25% ini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich Buyuk Britaniyada 1020 mlrd. dollarni (mamlakat

yalpi ichki mahsulotining 37%), Germaniyada 893 mlrd. dollarni (23%) tashkil qilgan. Bundan ko‘rinadiki, inqirozdan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya nisbatan ko‘proq aziyat chekkan.

Inqirozni bartaraf etish bo‘yicha mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ajratiladigan mablaglar ma‘lum maqsadli sarflanish yunalishlariga ega bo‘lgan.

Inqirozni bartaraf etishga sarflangan jami mablaglar 2008 yilda 6820 mlrd. dollarni tashkil qildi. Kredit mablag‘lariga davlat kafolati uchun 3004 mlrd. dollar sarflangan, ya‘ni jami ajratilgan mablag‘lardagi salmog‘i 44% ni tashkil qilgan, moliyaviy institutlar ustav kapitaliga maqsadli qo‘yilmalar 1155 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo‘lib, ularning salmog‘i 17% ni tashkil qilgan. Yuqori riskli shubhali aktivlarni xarid qilish uchun sarflangan mablag‘lar hajmi 674 mlrd. dollarni tashkil qilib, ularning jami ajratilgan mablag‘lardagi salmog‘i qariyb 10% ni tashkil qildi. Shunday qilib rivojlangan mamlakatlarni hukumatlari tomonidan ko‘rilgan choralar natijasida nisbatan qisqa davrda rivojlangan mamlakatlar ressessiya holatidan chiqdilar. Xususan, AQSH iqtisodiyoti va yevro hududda ressessiya 2009 yilning ikkinchi choragida yakunlandi, ammo 2011 yilda yevrozonada ikkinchi pasayish boshlandi bu 2013 yilgacha davom etdi.

#### **14.8. O‘zbekistonda inqirozli jarayonlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari va ularni bartaraf etish yo‘llari**

2008 yilda boshlangan va chuqurlashib borgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mamlakatimizga ta‘sir ko‘rsatdi. Chunki bu inqiroz global inqiroz edi, O‘zbekiston esa xalqaro hamjamiyat, jahon xo‘jaligi va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” nomlangan asarida birinchidan, jahon moliyaviy inqirozining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo‘lgan omillar ochib berilgan, ikkinchidan esa mamlakatimizda inqirozni bartaraf etish va jahon bozoriga yanada qo‘shilib borishning ustuvor yo‘llari asoslab berilgan. O‘zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini oldini olish va yumshatish imkonini beradigan omillar quyidagilardan iborat edi:

- tijorat banklarining likvidliligi va kapitallashish darajasini oshirishga qaratilgan siyosatning 2005 yildan boshlab izchillik bilan amalga oshirilganligi;

- puxta o‘ulangan pul-kredit siyosatining amalga oshirilishi natijasida inflyatsiyaning prognoz ko‘rsatkichlari chegarasida saqlanib qolayotganligi;

- oqilona byudjet-soliq siyosatining olib borilganligi natijasida Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilmoqda, soliq yukining pasayib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2008 yilda Davlat byudjeta profitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foizni tashkil qildi;

- tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirishga muvaffaq bo‘linganligi;

- mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorij investitsiyalar miqdorining barqaror o‘sish sur‘atlarga ega bo‘layotganligi;

- mamlakat tashqi qarzining mu‘tadil darajasini ta‘minlashga muvaffaq bo‘linganligi;

- fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan katta miqdorda moddiy va moliyaviy resurslar ajratilayotganligi.

Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha 2009-2012 yillarga mo‘ljallab qabul kilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O‘zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoldi.

Inqirozga qarshi dasturning eng muhim yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan - korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish

Ikkinchidan — joriy konyunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha omillar yaratish

- aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun korxonalar Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo‘lmagan stavkalarda 12 oygacha bo‘lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;

- tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni byudjetga barcha turdagi soliq va to‘lovlardan (qo‘shimcha qiymat solig‘i bundan mustasno) ozod qilish

muddatini 2012 yilgacha uzaytirish;

-banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlar miqdorini qayta ko'rib chiqish, byudjetga to'lanadigan to'lovlarning penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va preferensiyalar berish.

Uchinchidan - qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish

To'rtinchidan - elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish.

Beshinchidan - jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirini bartaraf etish va inqirozdan keyingi taraqqiyot dasturlarini amalga oshirish sharoitida O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturining muhim ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- 2009-2012 yillarga mo'ljallangan mamlakatda qabul qilingan jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha inqirozga qarshi dasturni amalga oshirish va shu asosda iqtisodiy o'sishni uzoq muddatli barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash;

- tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, buni birinchi navbatda xalqaro sifat standartlariga javob beradigan talab yuqori bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yunaltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish;

- qishloq turmush sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'zni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga, fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga, har tomonlama yunaltirilgan uzoq muddatli, o'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlar keng kompleksini amalga oshirish;

- aholi bandligini ta'minlash, uning turmush sifatini oshirishning muhim omili sifatida xizmatlar ko'rsatish sohasi va kichik biznesni jadal rivojlantirish;

- mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va aholi bandligini

oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish. Banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh mablag‘larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag‘batlantirish.

O‘zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qarshi qabul qilingan dasturning amalga oshirilishi natijasida, global inqirozning iqtisodiyotiga ta‘sirini yumshatish va qisqa muddatda ushbu inqirozdan chiqish imkonini beradi.

#### **14.9. Mamlakatimizda iqtisodiy o‘shining uzoq muddatli barqaror sur‘atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta‘minlash.**

Mamlakatimizda iqtisodiyotning iqtisodiy o‘shining yuqori sur‘atlarini ta‘minlashda quyidagi masalalarni hal etish lozim:

- ochiq iqtisodiyot, sog‘lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish

- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiyl sektorini jadal rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish;

- iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘shni ta‘minlash;

- «yashirin» iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;

- valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror pul-kredit siyosatini amalga oshirish;

- iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.

Ushbu masalalarni samarali hal etish mamlakatimizda erishilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga yuqori iqtisodiy o‘sh sur‘atlarini ta‘minlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Mamlakatimiz rivojlanishida iqtisodiyot va ijtimoiy sohada bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

- iqtisodiyotning xalkaro darajadagi raqobatbardoshligining pastligi va uning asosan xomashyo (tabiiy gaz, oltin va boshqalar) eksportiga tayanganligi;

- aholi turmush darajasi va sifati boshqa ko‘plab mamlakatlarga solishtirganda ortda qolayotganligi;

- iqtisodiyot va ijtimoiy sohada davlat boshqaruvi sifati yetarli darajada emasligi;

- ta'lim, fan va texnologiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri nihoyatda pastligi.

Ushbu tizimli muammolarni hal etishning aniq maqsad, vazifa va ustuvor yo'nalishlarini o'zida qamrab olgan O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiyada belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida bajarilishi mamlakatda 2030 yilda aholi jon boshiga YaIMning ikki baravarga oshishi, mehnat bozorida barqaror yuqori daromadli ish o'rinlarining yaratilishi hamda aholi kam ta'minlangan qatlamining ikki marotabaga qisqarishiga olib keladi. Mazkur maqsadlarga quyidagi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarni amalga oshirish orqali erishiladi:

- aholi jon boshiga YaIMning ikki baravarga oshishi, mehnat bozorida doimiy yuqori daromadli ish o'rinlarining yaratilishi hamda aholi kam ta'minlangan qatlamining ikki martaga qisqarishiga olib keladi:

- iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha yillik 6,4 foiz, kapital qo'yilmalar 9,9 foiz, eksport 9,6 foizni tashkil etishi;

- ishsizlik darajasi 9,3 foizdan 5,2 foizga, inflyatsiya darajasi 14,3 foizdan 4,3 foizga pasayishi;

- iqtisodiy o'sishning asosiy yangi drayveri o'rta texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish orqali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,3 martaga (YaIM dagi ulushini 2018 yil 26,3 foizdan 2030 yilda 33,3 foizga), qurilish va xizmat ko'rsatish sohalarini 2,1 martaga hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 1,8 martaga oshirish;

- iqtisodiy o'sishda intensiv omillarning ulushini oshirish, jumladan, muqobil va qayta tiklanuvchi energiyaning energiya balansidagi ulushini 25 foizga yetkazish, energiya samaradorligini 2 baravarga, mehnat samaradorligini esa 1,8 baravarga oshirish;

Uzoq muddatli davrda (2030 yillarda) quyidagilarni amalga oshirish belgilangan:

- institutsional o'zgarishlar va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, byudjet xarajatlari samaradorligining fiskal qoida va mezonlarini amaliyotga tatbiq etish, qattiq inflyatsiyaning targetlash siyosatiga o'tish, mamlakat moliyaviy barqarorlik indikatorlariga xalqaro talablarni bosqichma-bosqich joriy etish, kapital va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirishni inobatga olish;

- iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, faol eksportga yo‘naltirilgan siyosatga o‘tish, ishlab chiqarishda noan‘anaviy resurs va energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishda resurs tejovchi va yashil iqtisodiyot talablarining qo‘llanishiga e‘tibor qaratish;

- inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda ilmga asoslangan iqtisodiyot sohalarini rivojlantirish tizimiga davlat xususiy sheriklik mexanizmini keng joriy etish, aholining sport bilan shug‘ullanish darajasini oshirish, majburiy tibbiy sug‘urta qamrov darajasini 90 foizgacha yetkazish, tibbiyot xodimlari mlakasini baholash tizimiga xalqaro standartlarni qo‘llash, aholi turmush darajasi standartlarini dunyoning ilg‘or mamlakatlar darajasiga yetkazishni inobatga olish;

- innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda milliy innovatsion tizimni shakllantirish, milliy iqtisodiyot xususiyati va ixtisoslashuviga qarab joylarda innovatsion markazlarni tashkil etish, innovatsiyani belgilovchi jahon standartlarini amaliyotga qo‘llash, ishlab chiqarishda innovatsiyalarning joriy etilishi va korxonalarining ilmiy tadqiqot va konstruktorlik muassasalarini tashkil etishni rag‘batlantirishga e‘tibor berish;

- muhandislik kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda avitransport koridorlarini rivojlantirish, havo yo‘llari navigatsiyasi tizimini takomillashtirish, mintaqalarni bir biriga bog‘lovchi temir yo‘l tizimini rivojlantirish, davlat boshqaruvida «Blokcheyn» texnologiyasini qo‘llash, an‘anaviy ma‘lumot markazlari (Big Data center) o‘rniga bulutli (Cloud) hisoblash tizimini joriy etishni inobatga olish;

- investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlari va aholini innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishini rag‘batlantirish, iqtisodiyotning innovatsion rivojlantirish bosqichiga o‘tish, innovatsiya va texnologiyalarning import qiluvchi mamlakatdan eksport qiluvchi mamlakatga o‘tish tizimini yaratishga e‘tibor berish;

- hududlarni mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda hududlarda ishlab chiqarish resurslarining erkin harakatini amalga oshirish, hududlar ixtisoslashuvidan kelib chiqib innovatsion mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish, respublika hududlari

oʻrtasidagi nomutannosiblikni bartaraf etish dastaklarini ishlab chiqishni inobatga olish.

Konsepsiyada oʻrta va uzoq muddatlarda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asos boʻladigan makroiqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, real sektorning oʻsish nuqtalarini aniq belgilash, inson kapitalini rivojlantirishning samarali yoʻllarini amaliyotga joriy etish, innovatsion iqtisodiy rivojlanish modeliga asos yaratish, hududlarning tabiiy-iqtisodiy omillaridan samarali foydalanish, iqtisodiy oʻsish va tarkibiy oʻzgarishlarni taʼminlovchi natijaga yoʻnaltirilgan investitsiya siyosatini amalga oshirishning ustuvor yoʻnalishlari belgilab olindi.

Bunga, makroiqtisodiy institutlarni mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga oʻtishni jadallashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilishning samarali mexanizmini joriy etish, davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirish, ekologiya va resurslarni tejash siyosatini olib borish kabi institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali erishish nazarda tutilgan.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy oʻsish tushunchalarining taʼrifini bering va farqni tushuntirib bering.

2. Iqtisodiy oʻsishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi?

3. Nima uchun real hayotda sof ekstensiv yoki sof intensiv iqtisodiy oʻsish turlari uchramaydi?

4. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishining samaradorligiga baho berishda iqtisodiy oʻsishning qanday koʻrsatkichlaridan foydalaniladi?

5. Iqtisodiy oʻsishga taʼsir qiluvchi taklif, taqsimlash va talab omillarini tushuntiring hamda ularning ahamiyatini baholang.

6. Iqtisodiy siklning taʼrifini bering va uning har bir fazasining oʻziga xos belgilarini koʻrsating.

7. Tarkibiy inqirozlarni tushuntiring. Siklli tebranishlar vujudga kelishining sabablarini koʻrsating.

8. Agrar inqirozlarning xususiyatlarini bayon qiling.

9. Iqtisodiy sikl asosiy turlariga tavsif bering va muhim belgilarini koʻrsating.

10. Iqtisodiy siklning oqibatlarini baholang.

## **15. PUL, INFLYATSIYA**



## 15.1. Pulning kelib chiqishi va mazmuni

Pulning mohiyati har doim olimlarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bunday holat ba’zi iqtisodchilarning: "Pul - bu tovarlar va xizmatlar evaziga qabul qilinadigan narsadir", degan xulosaga kelishiga sabab bo‘lgan. Biroq, bunday ta’rif yuzaki va shuning uchun ilmiy emas. Pulning kelib chiqishini o‘rganishda ikkita yondashuv mavjud-ratsionallik va evolyutsiyaviy.

Pulning vujudga kelishi haqidagi **ratsionallik konsepsiya** tarixan avval paydo bo‘lgan. Bu nazariya birinchi marta Aristotel o‘z asarida bayon etgan. Aristotel pul tabiatan emas, balki qonun tufayli pulga aylangan, odamlar bu qonunni o‘zgartirishi va pulni foydasiz qilishi mumkin deb hisoblaydi.<sup>18</sup> Ratsionallik nazariyani tarafdorlari pullar odamlar tomonidan tovar ayirboshlash jarayonini engillashtirish va yanada oqilona tashkil etish uchun **odamlarning o‘zaro kelishuvi** yoki davlat tomonidan tegishli qonun qabul qilish natijasida vujudga kelgan deb hisoblaganlar. Ushbu g‘oya XVIII-asrgacha, arxeologiya sohasidagi yutuqlar unga nisbatan shubxa tug‘durguncha keng tarqalgan. Biroq, pulning kelib chiqishi masalasini tushunishga bunday yondashuv hanuzgacha mavjud. Xususan, amerikalik iqtisodchi P. Samuelson “ "pul" tushunchasini sun’iy ijtimoiy qabul qilingan”, J.K.Gelbrayt esa "qimmatbaho metallar va boshqa buyumlar uchun pul funksiyalarini ta’minlash odamlar o‘rtasidagi kelishuvning mahsulidir" deb hisoblaydilar. Binobarin, **ratsionallik** nazariyada pullarning paydo bo‘lishini iqtisodiy bo‘lmagan sabablar bilan tushuntiriladi.

Pulning kelib chiqishi haqidagi **evolyutsiyaviy konsepsiyaga** muvofiq pul tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Ushbu jarayonda tovarlar dunyosidan bitta tovar ajralib chiqib umumiy ekvivalent rolini o‘ynay boshlagan. Ana shu noyob bir mahsulotda barcha tovarlarning qiymati ifoda etilgan. A. Smit va D. Rikardolar mehnat taqsimoti natijasida pulning vujudga kelishi to‘g‘risidagi nazariyani asoslaganlar. K. Marks esa uni umumlashtirib rivojlantirgan. Xususan, Marks pulning kelib chiqishini ishlab chiqarish munosabatlarining ma’lum bir shaklini ob’ektiv stixiyali rivojlanish jarayoni sifatida izohlaydi. Pul - bu mahsulot va tovar ishlab chiqarishni rivojlantirishning zarur shartdir. Mehnat mahsulotlarining qiymatlarini o‘zaro o‘lchovdoshligi asosida vujudga keladigan pul ularning qiymati nisbatlarini

---

<sup>18</sup> Кауфман И., Никольский Н. История денег в России. М.: Эксмо, 2013-680 с.

ifodalash uchun tashqi shakl bo'lib xizmat qiladi. Ushbu nazariyaning muhim xulosasi pul tovar sifatida vujudga kelganligi haqidagi xulosadir.

Ishlab chiqarishda tovar qiymati yaratiladi, ammo faqat bozorda bir tovarni ikkinchisiga tenglashtirish orqali aniqlanadi. Tovarlarning qiymatini o'zida aks ettirishga material sifatida xizmat qiladigan tovar, ekvivalent tovar deyiladi. Masalan, X tovar, Y tovarga ayirboshlanmoqda ya'ni  $X=Y$ . Bunda Y tovar, X tovarni qiymatini o'zida ifodalamoqda, demak Y tovar ekvivalent – tovar hisoblanadi. Ammo pulni vujudga kelishidan oldin ekvivalent – tovar uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tgan.

**Pul - bu umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi maxsus tovardir.** Pulning paydo bo'lishi va rivojlanishida qiymat shakllarining rivojlanish bosqichlari muhim o'rin tutadi. Umuman olganda qiymatning: **oddiy yoki tasodifiy, kengaytirilgan, umumiy va pul shakllari** mavjud.

Qadimgi davrlarda ayirboshlash jarayoni, birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti ruy bergan, ya'ni dexqonchilik chorvachilikdan ajralib chiqqan paytda vujudga kelgan. Ushbu ayirboshlash shaklida bitta mahsulot boshqa mahsulotga ayirboshlangan. Shuning uchun qiymatning bu shakli oddiy, tasodifiy deb ataladi. Chunki, ayirboshlash doimiy emas balki, tartibsiz va tasodifiy tavsifga ega bo'lgan. Masalan, 2ta bolta= 1ta qo'y, ya'ni 2ta bolta 1ta qo'yga ayirboshlangan.

Ijtimoiy mehnat taqsimotini chuqurlashuvi va tovar ishlab chiqarishini rivojlanishi natijasida ishlab chiqarilayotgan tovarlarni turi va soni oshib bordi va ayirboshlash doimiy xarakterga ega bo'ldi. Endi bir tovar qiymati (2ta bolta) bir necha tovar- ekvivalentlar (1 qop g'alla, 2ta qo'ya yoki 5 metr mato) qiymatida aks ettirilgan. Ushbu tovar- ekvivalentlar qiymati bo'yicha birinchi tovarga (2ta boltaga) taxminan teng bo'lgan, shuning uchun uni ayirboshlash mumkin bo'lgan. Bunday qiymat shakli **kengaytirilgan** degan nom olgan.

Keyingi davrlarda insonlar yanada ko'proq tur va xajmda tovarlarni ishlab chiqara boshlashi natijasida tovar muomalasi ko'lamlarni kengaygan. Bevosita ayirboshlash murakkablashgan. Shuning uchun xar bir ishlab chiqaruvchi o'z tovarini, muomalada keng tarqalgan, talabga ega tovarga almashtirishga xarakat qilganlar. Ana shunday qilib qiymatning **umumiy shakli** vujudga kelgan unda barcha tovarlarni qiymati bitta ekvivalent tovarda aks ettirilgan. Bunday ekvivalent –tovar rolini turli mamlakatlarda turli tovarlar o'ynagan.( choy, tuz, muyna, mol, baliq va x.k) . Bu rol biron bir

mahsulotga yuklanmagan. Muayyan sharoitlarga qarab, u yoki boshqa mahsulot uni bajarishi mumkin edi.

Ijtimoiy mehnat taqsimotining yanada chuqurlashuvi, hunarmandchilikning rivojlanishi, ayniqsa eritish texnologiyasining kashf etilishi natijasida, boshida oddiy, keyinchalik nodir metal universal ekvivalent vazifasini o'ynay boshlagan va ular pulga aylangan. Qiymatning pul shakli vujudga kelgan. Nima uchun pulning vazifalari qimmatbaho metallarga - oltin va kumushga bog'lab qo'yilgan? Umumiy ekvivalent rolining nodir metallarga, jumladan oltinga yuklatilish sabablari quyidagilar orqali izohlanadi:

- tabiatda nisbatan kamyoqligi, sifat jihatdan bir xil o'lchamga keltirish mumkinligi;

- bo'linuvchanligi va bo'lgandan keyin yana yaxlit holga keltirish mumkinligi, bo'linganda ham o'z qiymatini saqlab qola olishi;

- ozgina miqdordagi va og'irlikdagi nodir metallning qiymati ancha yuqoriligi.

- zanglamasligi va uzoq muddat saqlash mumkinligi;

Demak, birinchidan pul haqida fikr yuritilganda uning tarixiy jarayonlarda vujudga kelgan turlari haqida gapirish o'rinli bo'ladi, ikkinchidan, pulning birinchi turi tovar pullari, ya'ni pulning rolini tovarlar (qoramol, tuz, tamaki, mo'ynalar va boshqalar) o'ynagan. Keyinchalik asta-sekin pulning rolini qimmatbaho metallar (oltin, kumush) bajara boshlagan. Dastlab metall pullar shaklga ega bo'lmagan, metallni quyish texnologiyasi kashf qilingandan so'ng pullar tanga ko'rinishiga ega bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra birinchi tangalar bundan 26 asr oldin Lidiya va Xitoyda muomalaga chiqarilgan. O'rta Osiyoda birinchi pullar Selikvidlar davrida eramizdan avvalgi 280-261 yillarda chiqarila boshlangan. Islom ramzi tushiurilgan dastlabki tangalar dinor (4,3 g. oltin tanga) va dirham (2.6 g. kumush tanga) 685-705 yillarda xalifa Abdu Malik tomonidan Suriya va Falastinda zarb ettirilib muomalaga kiritilgan. Tanga pullar XI - XII asrlarda O'rta Osiyoda va Sharqiy Turkistonni birlashtirgan Qoroxoniylar davlatida ham, XIII - XVI asrlarda Amir Temur va temuriylar davrida ham, O'rta Osiyoda uch xonlik-Buxoro, Xiva va Qo'qon xonlari davrida ham asosan oltin, kumush va misdan juda ko'p zarb etilgan.

XVIII asrda Yevropada oltin va kumush tangalar bilan bir qatorda qog'oz pullar muomalaga chiqarilgan.

Adabiyotlarda birinchi qog'oz pullar XII asrda Xitoyda ishlab chiqarilgan deb ko'rsatiladi. Dastlab qog'oz pullar qiymatga ega emas edilar, ular ushbu qiymatning tashuvchisi bo'lganlar. Keyinchalik oltin va boshqa qimmatbaho metallarni qazib chiqarish qiyinlashuvi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va to'lov, muomala vositasiga bo'lgan ehtiyojning oshishi natijasida, undan tashqari tangalarning uzoq vaqt muomalada bo'lishi, qo'ldan-qo'lga o'tish natijasida yemirilishi, tangadagi metall tarkibining buzilishi (davlat tomonidan ongli ravishda davlat xazinasiga tushumni oshirish maqsadida tangalarning metall (oltin, kumush) miqdorining kamaytirilishi) qog'oz pullarini chiqarilishiga sabab bo'lgan.

Xalqaro valyuta fondining (XVF) qaroriga binoan 1978 yil 1 apreldan boshlab oltin pul muomalasidan chiqarilib, uning asosida valyutalarning rasmiy bahosi bekor qilindi. Biroq shunga qaramasdan, oltin har qanday valyutaga osonlikcha ayirboshlanadigan maxsus tovar bo'lib qolmoqda.

XX asrning 30-yillarining o'rtalaridan boshlab kredit va qog'oz pullar tizimi ishlay boshladi, oltin muomaladan chiqarildi. Kredit pullari deb nomlangan yangi pullar paydo bo'ldi. Bularga veksel to'lov topshiriqnomalari va cheklar kiradi.

Pulni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi elektron pul tizimining paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, uning yordamida bank hisob varag'idan pul olish, omonat qo'yish yoki to'lovlarni amalga oshirish mumkin va hokazo. Zamonaviy pullar rivojlanishining yangi bosqichi - bu plastik kartalaridir. Plastik kartalar funksional va texnik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Debet va kredit plastik kartalar farqlanadi. Birinchisidan foydalanish karta egasi tomonidan depozit hajmiga qarab pulni hisobdan chiqarish bilan bog'liq. Kredit kartalar tovarlar va xizmatlarni sotib olishda bankdan kredit olish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, tarixiy rivojlanish jarayonida pul to'liq va to'liq bo'lmagan bosqichlaridan o'tib, o'zgarib borgan.

**To'liq qiymatli pul** - bu o'z qiymatiga ega bo'lgan pul tovari. Masalan, don, mo'yna, qoramol, metallar va boshqalar

**To'liq bo'lmagan (nomukammal) pullar**- bu qiymati kichik bo'lgan, to'liq qiymatli pullarning o'rnini bosadigan pul ramzlari, qiymati to'liq bo'lmagan pullarni, banknotalarni almashtirishdir. Bularga qog'oz pullar (g'azna va bank banknotalari), kredit pullar (veksellar, cheklar, kredit kartalar) kiradi.

## **Pul - bu umumiy ekvivalent vazifasini bajaradigan o'ziga xos tovar.**

Har qanday tovar kabi u xossalarga ega.

Oddiy tovar sifatida oltinning iste'mol qiymati uning zargarlik buyumlari ishlab chiqarish va sanoatda ishlatilishi va shu kabilar bilan bog'liq. Mehnatning qiymat nazariyasiga binoan, oltinning qiymati uni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zarur mehnat bilan belgilanadi.

Umumiy ekvivalent sifatida oltin alohida o'ziga xos tovarning xususiyatlariga ega, ya'ni o'ziga xos iste'mol qiymati va o'ziga xos qiymat shakliga ega. O'ziga xos iste'mol qiymati bu pulning boshqa barcha tovarlarning qiymatini o'ziga tenglashtirish qobiliyatidir. Oltinning pul materiali sifatidagi qiymatining o'ziga xos xususiyati shundaki, u to'g'ridan-to'g'ri umumiy almashinuv shaklini olishidadir.

### **15.2. Pul konsepsiyalari**

Zamonaviy pul konsepsiyalari XVII- XVIII asrlarda paydo bo'lgan nazariyalardan kelib chiqadi. Avvalo, bu pulning nominal va miqdoriy nazariyalariga taalluqlidir. Endi oldingi nazariyalar yangi shaklda paydo bo'ldi. **Agar ilgari pulning kelib chiqishi, mohiyati, shakllanishi muammolariga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, hozirgi sharoitda pul nazariyalari bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga ularning ta'sirini o'rganishga o'tmoqda.**

Pul nazariyalari jamiyat rivojlanishining iqtisodiy va siyosiy shartlari bilan belgilanadi, ammo bu nazariyalarning barchasi iqtisodiy siyosat sohasidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Pul nazariyalarda uchta nazariyani ajratish kerak:

- metallik;
- nominallik;
- miqdoriy (keynschilik, monetarizm)

XVII - XVIII-asrlarda kapitalning dastlabki jamg'arilishi davrida ishlab chiqilgan pulning metallik nazariyasi vakillari pulni qimmatbaho metallar bilan ayni bir narsa deb qaraganlar. Nazariya vakillari: Angliyada - U.Steford, T. Man, D. D.Nors; Fransiyada - A.Monkreten ushbu nazariya vakillari hisoblanadi. Pulning metallik nazariyasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

-boylikning manbai qimmatbaho metallar va tashqi savdo bo'lib, uning aktiv saldosi (eksport va import o'rtasidagi musbat farq) mamlakatga qimmatbaho metallarning kirib kelishini ta'minlaydi;

-muomaladagi metall pullarni qog‘oz pullarga almashtirish zarurati va maqsadga muvofiqligi rad etiladi.

1973 yilda oltin standarti bekor qilingach, ushbu nazariyani yanada rivojlantirish uchun amaliy asos qolmagan.

Dastlab quldorlik tizimi sharoitida vujudga kelgan nominal nazariya nihoyat shakllanib, XVII- XVIII asrlarda keng rivojlandi. Nazariyaning birinchi vakillari - ingliz iqtisodchilari J. Berkeley va J. Styuart. Nazariyaning asosiy qoidalari:

- pul davlat tomonidan yaratiladi;
- pulning qiymati nominalga qarab belgilanadi;

Nominallik nazariyasi pulning qiymat xususiyatini rad etadi va uni faqat almashinuvning texnik vositasi sifatida ko‘rib chiqadi. XIX -asr oxiri va XX-asr boshlarida ushbu nazariya pul iqtisodiy nazariyasida ustunlik qilgan.

1929-1933 yillardagi iqtisodiy inqiroz va keyinchalik oltin standartining bekor qilinishi pulning nominallik nazariyasi pozitsiyasini yanada kuchaytirdi. J.M. Keynes oltin pulni "vahshiylikning qoldig‘i", "aravaning beshinchi g‘ildiragi" deb e‘lon qilib, qog‘oz pullarni ideal deb e‘lon qildi.

**Pulning metallilik nazariyasi jamg‘arish va jahon puli vazifalarini mutlaqlashtiradi va shu asosda pulni qimmatbaho metallar bilan tenglashtiradi.**

Pulning nominal nazariyasi tarafdorlari "metallistlar" ni tanqid qilib, pulning muomala va to‘lov vositasi funksiyalarini mutlaqlashtiradilar. **"Nominalistlar" pullarni tovarlar almashinuviga xizmat qiluvchi va davlat hokimiyati mahsuli bo‘lgan shartli ramzlar va hisob birliklari deb e‘lon qilishdi.**

Pulning miqdoriylik nazariyasi tarafdorlari pulning qiymat asosini himoya qiladilar. Ular pul birligining qiymati va tovar narxlari darajasi muomaladagi pul miqdoriga qarab belgilanadi, deb hisoblaydilar. Pulning miqdoriy nazariyasini takomillashtirishga I. Fisher (XX asr boshlarida), A.S. Pigu (XX-asrning o‘rtalari) va boshqalar salmoqli hissa qo‘shdilar.

Hozirgi davrda AQSHlik iqtisodchi I. Fisher teglamasidan foydalaniladi:

$$MV=PQ$$

Bunda: M- pul massasi;

V- pullarning aylanish tezligi yoki oborot soni ;

P- tovar va xizmatlarning o'rtacha narxlar darajasi;

Q – sotilgan tovarlarning soni.

yoki

$$M= PQ/V$$

Demak, formula pulning qiymati uning miqdoriga teskari proporsional ekanligini va inflyatsiya, ya'ni tovar qiymatining oshishi natijasida pulning qadrsizlanishi hodisasini tushunishga yordam beradi.

Asta-sekin pulning miqdoriy nazariyasi zamonaviy iqtisodiy nazariyaning monetaristik nazariyasiga aylantirildi. Unga binoan pul muomalasidagi pul taklifi bozor iqtisodiyotining barqarorlashuvi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. M. Fridman monetarizm asoschisidir. Monetarizm XX asrning 50-yillarida paydo bo'lgan. Monetarizmning nazariy rivojlanishida eng muhim omil AQSH iqtisodiyotini barqarorlashtirish konsepsiyasi va mashhur Reyganomika bo'lib, uning amalga oshirilishi AQSHga inflyatsiyani pasaytirish va dollarni mustahkamlashga yordam bergan.

### 15.3. Pulning vazifalari

Pulning mohiyatini to'laroq tushunish uchun uning quyidagi **asosiy vazifalarini** ko'rib chiqamiz: 1) qiymat o'lchovi; 2) muomala vositasi; 3) boylik to'plash vositasi; 4) to'lov vositasi.

**Pulning qiymat o'lchovi** vazifasini ideal pul bajaradi. Tovar egasi fikran ideal ravishda shu tovarning almashuv qiymatini pul bilan ifodalaydi. Pullar bu vazifani bajarishi uchun o'z qiymatiga ega bo'lishi kerak. Bu vazifani oltin bajaradi. Tovarining almashuv qiymatini o'lchash uchun pul birligi (so'm, rubl, dollar) zarur bo'ladi, bunday birlik narxlar o'lchovi (masshtabi) deb ataladi. Narxlar o'lchovi shartlidir va u muayyan mamlakatda hamma tomonidan e'tirof etilgan bo'lishi kerak. Pul birligi rasmiy tan olinishini ta'minlash uchun davlat pul birligi huquqini qonun bilan mustahkamlaydi.

**Pul muomala vositasi vazifasini** tovar ayirboshlashda vositachilik qilganda bajaradi. Bu jarayonni T-P-T formulasi orqali aks ettirish mumkin. U tovarni sotish T-P va sotib olish-T- P aktlaridan iboratdir. Tovar muomalasi jarayonida naqd pul bo'lishi kerak (tanga, qog'oz pullar). Uzluksiz muomalada bo'lish natijasida oltin yumshoq metall bo'lganligi uchun tangalar yeyilib ketishi, o'z vaznining bir qismini yo'qotishi sababli muomalaga to'laqonli

bo‘lmagan qiymat belgilari chiqarilgan. Pul muomala vositasi vazifasini bir lahzada bajarganligi uchun oltin pullarni qog‘oz pullarga almashtirish imkoniyati vujudga keladi. Qog‘oz pullar o‘z qiymatiga ega emas. Shuning uchun qiymat o‘lchovi vazifasini bajarmaydi, u faqat oltinning belgisi hisoblanadi.

Pul muomaladan chiqarilganda jamg‘arish vazifasini bajara boshlaydi. **Jamg‘arish** vazifasini oltin (quyma shakldagi oltin, tilla tanga, oltin va kumushdan yasalgan zebi ziynat ashyolari) bajaradi. Qog‘oz pullar o‘z qiymatiga ega emasligi sababli boylik bo‘la ololmaydi, biroq jamg‘arish vazifasida qatnashadi.

Tovarlarni nasiyaga to‘lov muddati kechiktirib sotilganda, pul to‘lov vositasi vazifasini bajaradi va **kredit pullar** shaklini oladi. Unga veksellar, banknotalar, cheklar kiradi. Pulning bu vazifasi tovar muomalasi doirasi bilan cheklanmay, pul qarz berilganda, renta va soliqlarni to‘lashda ham to‘lov vositasi vazifasini bajaradi

**Veksel** - bu yozma qarzdorlik majburiyati bo‘lib, unda qarzdor tomonidan to‘lov miqdori va to‘lov shartlari ko‘rsatilgan bo‘ladi. Pul sifatida muomalada harakat qiladi.

**Banknotalar** bank hisob varag‘idir. Banknotalar qog‘oz pullardan farq qiladi. Avvalo banknotlar tijorat veksel ya’ni kredit va bankning oltin zaxirasi bilan ikki tomonlama garovga egadir, davlat tomonidan emas, balki markaziy emitent banki tomonidan chiqariladi va nihoyat to‘lov vositasi vazifasini bajaradi.

**Chek** - bu joriy hisob raqamiga ega bo‘lgan shaxsning bankka pulni to‘lash yoki uni boshqa hisob raqamiga o‘tkazish to‘g‘risidagi yozma buyrug‘idir.

Hozirgi davrda pullarni bank pullari deyiladi. Chunki ularning oltin bilan bevosita bog‘liqligi yo‘q. Buning isboti sifatida rivojlangan mamlakatlarda muomaladagi barcha pullarning 90 % bank pullari, 10 % naqd pullar tashkil etishini keltirishning o‘zi kifoya.

**Naqd pullar- aniq moddiy shakldagi qog‘oz va tanga pullar bo‘lib, ular qo‘ldan qo‘lga o‘tib turadilar.** Naqd pullar keng tarqalgan to‘lov vositasidir. Shuningdek naqd bo‘lmagan yoki kredit pullar mavjud. Bu pul naqd puldan farqli o‘laroq moddiy shaklga emas, u xayoliy pul, ya’ni uning bor-yo‘qligini qo‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi, xayolan tasavvur etiladi.



#### **15.4. Inflyatsiya: kelib chiqish sabablari, turlari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar**

Mamlakatda mavjud surunkali makroiqtisodiy muammolardan biri – bu pulning qadrsizlanishi, ya'ni inflyatsiyadir. **Inflyatsiya ( lotincha inflatio - shishish, bo‘rtish, taranglashish) – ma’lum davr mobaynida mamlakatda narxlar o‘rtacha (umumiy) darajasining barqaror o‘sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi.** Inflyatsiya bozor iqtisodiyotini asosiy izdan chiqaruvchi omillari jumlasiga kiradi, uning sur'ati qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotga xavfli ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi. "Inflyatsiya" atamasi ilk bor Shimoliy Amerikada 1861-1865 yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo'llanildi. Inflyatsiya atamasi muomaladagi qog'oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko'payib ketishi holatini izohlagan. Ammo inflyatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi. Umuman olganda inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Inflyatsiya sabablarini aniqlashning ahamiyati inflyatsiyaga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish uchun muhimdir. Inflyatsiya sabablari nimada? Inflyatsiyaning vujudga kelish sabablari quyidagilardan iborat:

1. Markaziy bank tomonidan qog'oz pullarning keragidan ko'proq bosib chiqarilishi natijasida muomalada ortiqcha pul massasining ko'payishi natijasida inflyatsiyaviy holat vujudga keladi. Demak, inflyatsiyaning vujudga kelishining birinchi sababi ortiqcha pul emissiyasi. Qoidasi bo'yicha Markaziy bank tovarlarning ko'proq oqimi, ichki qarzlarni, qisqa muddatli davrda tartibga solishga xizmat qiladigan miqdorda pulni emissiya qilishi kerak. Ammo bunga har doim ham rioya etilmaydi. Davlat vujudga kelgan muammolarni masalan, ishlab chiqarishning rivojlanishini qo'llab quvvatlash, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish yoki davlat byudjeti defitsitini tez bartaraf etishga hukumat Markaziy bankni ham jalb qiladi. MB o'z navbatida, iqtisodiyotni inflyatsiyadan himoya qilish o'rniga, uni keraksiz pul massasi bilan to'ldiradi, buning natijasida esa inflyatsiyaviy jarayonlar kuchayib tezlashadi.

2. Davlat byudjeti defitsiti, ya'ni davlatning xarajatlari uning daromadlaridan oshib ketgan holatda ham inflyatsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday holatni vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri davlat bajaradigan vazifalar bilan bog'liq bo'lgan noishlab chiqarish xarajatlariga ( harbiy

xarajatlar, ta'limga, ijtimoiy dasturlar va h.k ) davlat monopoliyasi hisoblanadi. Byudjet kamomadli bo'lsa, uni moliyalashtirish vositasidan foydalangandan ham inflyatsiyaning oldini olish mumkin emas. Ammo inflyatsiyaning o'sish sur'ati ko'proq darajada ushbu defitsitni qanday bartaraf etilayotgani bilan bog'liq. Agar bu muammo pulni bosib chiqarish yo'li bilan bartaraf etilsa, unda defitsit faqat oshib boradi. Demak, davlat o'z qo'lida mavjud bo'lgan samarali vositalardan foydalanishi kerak bo'ladi, masalan xorijiy tadbirkorlarga kredit ajratish. O'z vaqtida ya'ni XX asrning 80-yillarning o'rtalarida AQSHda aynan shu tarzda byudjet kamomadni moliyalashtirgan va xorijiy manbalardan qariyb 100 milliard dollar olgan, bu miqdor davlat byudjeti taqchilligining deyarli yarmiga teng edi.

3. Monopoliya inflyatsiya ta'sirining kuchayishi jarayoniga ham ta'sir qiladi. Bozorda ustun mavqeni saqlab qolish uchun monopoliyalar yuqori narxlarni o'rnatishga va ushlab turishga, ishlab chiqarish hajmini saqlab qolishga harakat qiladi va shu bilan inflyatsiyani tezlashtiradilar. Shuningdek ish haqi miqdori, darajasi va uni ushlab turish vaqtini aniqlaydigan kasaba uyushmalar monopoliyasi ham inflyatsiyaga sabab bo'ladi

4. Jahonda ro'y berayotgan globalashish jarayoni ta'sirida inflyatsiya tashqi omillar ta'sirida ham vujudga kelishi mumkin, ya'ni tashqaridan jahon savdosi kanallari orqali mamlakatga kirib kelishi mumkin. Bunda u yoki bu resurslarga bo'lgan jahon narxlarining ko'tarilishi zanjir bo'ylab narxlarning o'sishiga olib keladi va bu o'sish mamlakatga ham kirib keladi.

5. Inflyatsiyaviy kutishlar ham inflyatsiyaga ijobiy ta'sir etadi. Qanday qilib? Insonlar tovar va xizmatlarga narxlarning uzoq vaqt davomida ko'tarilishini anglagaganlaridan so'ng istiqbolda o'z iste'mollari uchun ularni sotib olishni boshlaydilar ya'ni joriy talabni oshirib yuboradilar, ayni paytda yuqori daromadlarni talab qiladilar. Natijada iste'molchilar talabi o'sib borib, taklifdan oshib ketadi, natijada narxlar o'sadi.

Bu omillar bir – biriga bog'liqdir va har biri alohida talab va taklifning ko'tarilishi va pasayishiga, ularning o'rtasidagi nisbatning buzilishiga olib keladi.

Kelib chiqishi nuqtayi nazaridan, iqtisodchilar inflyatsiyaning ikki turini farqlaydilar, bular; a) talab inflyatsiyasi: b) taklif inflyatsiyasi.

**Talab inflyatsiyasi deb talabning taklifga nisbatan ortiqqligi natijasida narxlarning oshishiga aytiladi.** Taklif inflyatsiyasi mahsulot birligiga sarf qilinadigan xarajatlar o'sishiga olib keluvchi omillar bilan tushuntiriladi.

O'rtacha xarajatlarning o'sishi iqtisodiyotda mavjud narxlarda, firmaning foydasi, taklif etmoqchi bo'lgan mahsulot hajmini kamaytiradi. Oqibatda tovar va xizmatlarning taklifi kamayadi, buning natijasida narx oshadi. Demak bunda talab emas, balki xarajatlar narxning ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Xarajatlarning oshib borishi natijasida vujudga keladigan inflyatsiyaning ikki shakli mavjud, bular nominal ish haqi oshishi hamda xomashyo va energiyaga bo'lgan narxlarning ko'tarilishi natijasida yuzaga keluvchi inflyatsiyalardir. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori to'lanadigan ish haqi va olinadigan daromadlarga mutanosib bo'lsa, iqtisodiyot samarali hisoblanadi. Boshqacharoq qilib aytganda ish haqi mehnat unumdorligi o'sgandagina oshishi mumkin. Agar ish haqi miqdori ishlab chiqargan mahsulot miqdoridan oshib ketsa, narx ko'tariladi, ya'ni inflyatsiya vujudga keladi.

Moddiy xarajatlar oshishi bilan bog'liq inflyatsiyaning yana bir shakli – taklif mexanizmining buzilishi natijasida vujudga keladigan inflyatsiyadir. Kutilmaganda birdaniga xomashyo va energiyaga narxlarning oshishi sababli inflyatsiya vujudga keladi. Masalan, 1973-1974 va 1979-1980 yillardagi chetdan olib kelinadigan neft narxining keskin oshishi, ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi natijada inflyatsiya darajasining oshishiga olib kelgan. Inflyatsiya o'sishi sur'atlariga ko'ra o'rmalovchi, yo'rg'alovchi va giperinflyatsiya ko'rinishida bo'lishi mumkin:

1. O'rmalovchi inflyatsiyada narxlar sekin 10 foizga qadar oshadi, pulning qiymati saqlanadi. Bu narxlarning me'yorda o'sishini bildiradi;

2. Yo'rg'alovchi inflyatsiyada narxlar yiliga tez 20% dan 200% gacha o'sadi. Pul qadrsizlanadi. Tuziladigan shartnomalarda inflyatsiya inobatga olinadi.

3. Giperinflyatsiyada narx 1000% ziyodga o'sadi. Giperinflyatsiya moliyaviy inqirozni, depressiya, ijtimoiy va siyosiy beqarorlikni tezlashtiradi.

Giperinflyatsiya odatda urush yoki urushdan keyingi yillarga xos hodisadir. Masalan, Vengriyada 1946 yil avgustda 829 oktilion ( $10^{22}$ ) forint urushdan oldingi bitta forintga teng bo'lgan. AQSH dollari  $3 \cdot 10^{22}$  forintga teng edi. Yaponiyada narxlar 1938 yildan 1948 yilgacha 116 marta oshdi va sotuvchilar pulni hisoblashda tarozidan foydalanganlar.

Germaniyada 1922 yilda narxlar darajasi 5470% ga ko'tarildi. 1923 yilda vaziyat yanada yomonlashdi: narxlar darajasi  $1,3 \cdot 10^{12}$  marta ko'tarildi. Oktyabr oyida bitta xat 200 ming marka, bir funt sariyog' - 1,5 million marka,

go'sht - 2 million, bitta non - 200 ming, bitta tuxum - 60 ming markani tashkil qiladi.

Kutilayotgan va kutilmagan inflyatsiya ham mavjud. Kutilgan inflyatsiyaning qandaydir tarzda prognoz qilish mumkin, kutilmagan inflyatsiya narxlarning keskin sakrashi bilan ajralib turadi.

Inflyatsiya sharoitida tadbirkorlar o'z mahsulotlariga qanday narxni belgilashni, xaridor esa sotilayotgan tovarga qancha to'lash kerakligini bila olmaydilar. Pulning qadri tushib ketayotgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar yetkazib bergan tovar va xizmatlari evaziga tezda pul olishga harakat qiladilar. Kredit munosabatlari ham izdan chiqadi. Davlat byudjeti kamomadi va davlatning qarzi ortib boradi. Pul o'z vazifalarini bajara olmay qoladi. Buning natijasida moliya - pul sohasi inqirozga yuz tutadi. Inflyatsiya narxlar indeksi yordamida hisoblanadi. Masalan: 2019 yilda iste'mol mollari indeks deylik 115,6% 2020 yilda 120,3% ga teng. 2020 yil uchun inflyatsiya darajasi quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Inflyatsiya suratlari} = \frac{120,3 - 115,6}{120,3} \times 100 = 3,9\%$$

Inflyatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlari o'ta murakkab va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Inflyatsiyaning past sur'atlari narx va foyda normasini oshiradi, demak bu holda inflyatsiya ishlab chiqarish holatining vaqtinchalik yaxshilanishi omili sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, inflyatsiya chuqurlashib, kuchayib borgan sari, u takror ishlab chiqarish uchun to'siqqa aylanib boradi, mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yomonlashtiradi. Inflyatsiya bozorning barcha subyektlariga salbiy ta'sir etadi, natijada esa bozor barcha subyektlari daromadlarining kamayishi, ahvolining esa yomonlashuvi kuzatiladi. Xo'sh inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari qanday?

1. Inflyatsiya ta'siri natijasida aholi farovonligi darajasi pasayadi.

Inflyatsiya aholi farovonligiga joriy iste'mol va jamg'arma orqali birdaniga ikki yo'nalishda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

1.1. Inflyatsiya sharoitida aholining real daromadlari va joriy iste'mollari pasayadi. Inflyatsiya barcha pul daromadlarining kamayishiga olib keladi. Agarda nominal daromadning o'sish sur'atlari inflyatsiyaning o'sish sur'atlaridan past bo'lsa, unda real daromad kamayib boradi, agarda aksincha bo'lsa oshib boradi. Inflyatsiya milliy daromadning qayta taqsimlanishiga olib

keladi. Inflyatsiyani ma'lum darajada aholi uchun ustama soliq deyishimiz mumkin. Bu holat nominal va real ish haqi sur'atlarining orqada qolishi, tovar va xizmatlarga keskin narxlarning oshishiga olib keladi. **Inflyatsiyaviy soliq - bu pul va boshqa qiymat ekvivalentlari egalari ko'radigan iqtisodiy zarar. Bunday zarar inflyatsiya tufayli valyuta qiymatining pasayishi va shu bilan birga inflyatsiyaning keltirib chiqaradigan foydaning emissiya markazi tomonidan o'zlashtirishi natijasida yuzaga keladi.**

Inflyatsiyaviy soliqqa tortish samarasi ta'siri hayot sifatining yomonlashishiga yordam beradi. Bu holat faqat progressiv soliqlar mavjud bo'lgan holatda kuzatiladi. Agar ochiq inflyatsiya bo'lsa, tartibga solinadigan pul kompensatsiyasini oladigan soliq to'lovchi ortib borayotgan nominal daromad egasiga aylanadi. Ammo bu uni soliq to'lovchilarning bir guruhidan ikkinchisiga ko'chiradi va u o'z daromadlarining ko'p qismini soliq sifatida davlatga to'laydi, soliqlarni chegirib tashlagandan keyin qolgan miqdor uning xarid qobiliyati bo'yicha inflyatsiya boshlangunga qadar bo'lganiga nisbatan past bo'ladi.

1.2. Inflyatsiya shaxsiy jamg'armalarning real qiymatini va xarid quvvatini pasaytiradi. Chunki, insonlar o'zlarining jamg'armalarini naqd pulda ushlab tursalar, har safar narxlar ko'tarilganda ularning xarid qobiliyati pasayadi. O'z mablag'larini ko'chmas mulk va moddiy boyliklarni sotib olishga sarflagan va uning egasiga aylangan insonlar eng kam zarar ko'radilar. Kredit tashkilotlari ham zarar ko'radilar.

2. Inflyatsiyaning aholining daromadlari va jamg'armalarining xarid quvvatini pasaytirib yuborishi oqibatida aholining tez ijtimoiy tabaqalanishi, mulkiy tengsizlikning kuchayishi yuz beradi. Chunki, inflyatsiya daromad va boylikning qayta taqsimlanishiga olib keladi. Masalan qarz olganlar qarz berganlarning hisobiga boyiydi. Chunki qarz olayotganda pulning xarid quvvati qarz berayotgan davrdagiga nisbatan farq qiladi. Yoki inflyatsiya davrida ko'chmas mulk egalari boyiydi, chunki ko'chmas mulk va yerga bo'lgan talab oshib ketadi. Hukumatning inflyatsiyaga qarshi choralar yordamida tengsizlikni kamaytirishga urinishi tengsizlikni yanada kuchaytirib yuborishi mumkin. Hukumatning inflyatsiyaga qarshi choralar odatda asosan kambag'allarga mo'ljallangan bo'lib, natijada aholining eng katta va faol qismi - o'rta sinf aziyat chekadi. Uning manfaatlarining buzilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

3. Inflyatsiya nafaqat insonlar farovonligiga, korxonalar ishlab chiqarishga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yo'rg'alovchi inflyatsiya xo'jalik yuritishni tashkil etishga salbiy ta'sir etib, birinchi navbatda bozor holatining noaniqligi sababli yirik va kichik korxonalarga iqtisodiy ziyon yetkazadi. Mehnat unumdorligi, keyinchalik esa iqtisodiyot samaradorligi pasayadi. Iqtisodiy rivojlanishning umuman sekinlashishi kuzatiladi. Bunday sharoitda, tadbirkorlar uchun qo'shimcha ishchi kuchi, xom ashyo, yangi uskunarlar sotib olish foydasiz bo'lib qoladi. Narxlar va xarajatlarni taxmin qilish deyarli mumkin emasligi sababli, korxonalar uzoq davrda qoplanadigan yirik kapital xarajatlaridan voz kechishni afzal ko'rishadi. Ochiq inflyatsiya sharoitida inflyatsiyaviy soliqqa tortish, bu biznesni rivojlantirishga sarmoya kiritishi mumkin bo'lgan foydaning bir qismini qisqartiradi, samaradorlikni oshirishga xalaqit beradi.

### **15.5. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati.**

Inflyatsiyaning salbiy oqibatlari barcha mamlakatlar hukumatlarini inflyatsiyaga qarshi choralarni qo'llashga majbur qiladi. Inflyatsiyani yengish uchun davlat to'liq kuch bilan harakat qilishi kerak. Inflyatsiyani mo'jizaviy davolash usullari mavjud emas. **Inflyatsiyaga qarshi choralarni ikki qismga bo'lish mumkin: uzoq muddatli kuchlar va usullarni birlashtirgan inflyatsiyaga qarshi strategiya va nisbatan qisqa vaqt ichida natijalarni kutish mumkin bo'lgan inflyatsiyaga qarshi taktika.**

Inflyatsiyaga qarshi strategiyaning eng muhim vazifalaridan biri bu inflyatsiyaga nisbatan kutishlarni so'ngidirish. Bu quyidagilarni talab qiladi:

- tovarlarning miqdori va sifatining oshishi, narxlarning o'zgarishi bilan kechadigan bozor mexanizmini kuchaytirish. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun hukumat boshqarib bo'lmaydigan inflyatsiyani bartaraf etish yo'lini qat'iy tanlashi zarur. Buning uchun o'zining qat'iyligi va inflyatsiyaga qarshi turish qobiliyatini isbotlagan hukumat bo'lishi kerak;

- inflyatsiyaga qarshi strategiyaning yana bir ajralmas qismi-bu uzoq muddatli pul-kredit siyosati. Buning uchun pul massasining o'sishiga yillik qat'iy cheklovlar joriy etiladi. Shuningdek, kreditlarni qimmat qiladigan

banklararo foizlar tizimi, majburiy zaxiralar stavkasi va qimmatli qog'ozlar bozorida hukumat qarzi bilan operatsiyalar;

- navbatdagi strategik vazifa - byudjet taqchilligini to'liq bartaraf etish istiqbollarini nazarda tutgan holda uni kamaytirish. Buning uchun ilmiy-texnik taraqqiyot va ishlab chiqarish tuzilishini qayta qurishni rag'batlantirish zarur; iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlarga investitsiya oqimlarini yo'naltirish;

- milliy valyuta kursining o'sishi inflyatsiyaga qarshi vosita sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Bu import qilinadigan tovarlar va xizmatlar narxlarini pasaytiradi, binobarin narxlarning umumiy darajasining pasayishiga turtki beradi. Ammo import narxlarining pasayish tendensiyasi eksport narxlarining ko'tarilishiga olib keladi va mamlakat uchun jahon bozoriga chiqish tobora qiyinlashadi.

Bu inflyatsiyaga qarshi strategiyaning asosiy xususiyatlari. Chunki ular uzoq muddatga mo'ljallangan. Inflyatsiyaning vaqtincha pasaytirish uchun favqulodda choralar talab etiladi. Bu taktik choralar bo'lib, ular hech qanday strategiyaning o'rnini bosa olmaydi. Gap iqtisodiyotga radikal ta'sir o'tkazish, uni yanada radikal choralarga tayyorlash uchun mo'ljallanganligi haqida ketmoqda.

Inflyatsiga qarshi taktik tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxonalarini imtiyozli soliqqa tortish. Bunda korxonalar ixtiyorida ishlab chiqarishni kengaytirish uchun ko'proq mablag' qoladi va shu bilan taklif hajmi oshadi;

- davlat mulkini xususiylashtirish natijasida davlat daromadlari ko'payadi va xarajatlari kamayadi. Bundan tashqari, xususiylashtirilgan korxonalar chiqargan aksiyalar talab inflyatsiyasining bir qismini o'ziga tortadi;

- iste'mol tovarlarini katta miqdorda import qilish va davlat strategik zaxiralarini qisman sotish;

- jamg'arma stavkasini oshirish va ularning likvidlik darajasini pasaytirish. Buning uchun hukumat depozitlar bo'yicha foizlarni oshirish to'g'risida g'amxo'rlik qilishi kerak va u inflyatsiya darajasidan kam bo'lmasligi kerak;

- davlat zayomlari bo'yicha foizlarni oshirish natijasida keyinchalik bankka pul o'tkazmaydigan shaxslar davlat zayomlarini sotib olishga qiziqish bildiradilar;

Ushbu inflyatsiyaga qarshi choralar davlat amalga oshiradigan inflyatsiyaga qarshi siyosat doirasida amalga oshiriladi. Inflyatsiya sharoitida

iqtisodiyotni tartibga solishga ikki yoqlama yondashuv mavjud. Bular bozor iqtisodiyotining barcha subyektlari (uy xo'jaligi, firmalar, davlat) o'z harakatlarida indeksatsiyalash usulidan foydalanish yo'li bilan inflyatsiyani hisobga olishni nazarda tutuvchi inflyatsiyaga moslashish (adaptiv) siyosati va inflyatsiyaga qarshi choralar bilan uni bartaraf etish inflyatsiyaga qarshi siyosatidir. Inflyatsiya sur'ati past bo'lgan davrda davlat inflyatsiyaga moslashish choralarini qo'llaydi. Inflyatsiya sur'ati yuqori bo'lganda va ayniksa giperinflyatsiya sharoitida davlat faol inflyatsiyaga qarshi siyosatni yuritadi, bu asosan muomaladagi ortiqcha pulni chiqarib olish, pul emissiyasini to'xtatishdan iborat bo'ladi. Iqtisodiyotda ortiqcha pul hosil bo'lganda pul massasi kamaytiriladi. Narxlar pul miqdoriga bog'liq bo'lar ekan, uning qisqarishi narx masshtabni kamaytirib, narxlarning o'sishini sekinlashtiradi va hatto narxlarning pasayishiga ham olib keladi. Ammo pul massasining kamaytirilishi me'yorida bo'lishi kerak, aks holda pul defitsiti hosil bo'lib, pul oborotida uzilishlar paydo bo'ladi, o'zaro hisob kitoblarda qiyinchilik yuzaga keladi.

Jahon amaliyotida pulni xarid qobiliyatining pasayishidan ko'rilgan zararni qoplashning ikki usuli mavjud. Uning keng tarqalgan usuli foiz stavkasini indeksatsiyalash hisoblanadi. Bunda foiz stavkasi inflyatsiya darajasiga muvofiqlashtiriladi. Masalan, kreditor qarz beruvchi bergan pul miqdoriga 5% foizda olishi mumkin, agarda kutilayotgan inflyatsiya darajasi 6% ga teng bo'lsa, unda u foiz stavkasini 11% qilib belgilaydi.

Inflyatsiya zararni qoplashning ikkinchi usuli investitsiyalarning birlamchi miqdorini indeksatsiyalash hisoblanadi. Qilingan investitsiya oldindan kelishilgan indeks yordamida ma'lum davrda inflyatsiya darajasiga qarab to'g'rilanib boriladi. Uy xo'jaligi daromadning qo'shimcha manbalarini qidirish orqali moslashishga harakat qiladilar. Xodimlar esa ishga yollanish, ish haqini inflyatsiyaga qarab indeksatsiyalashga harakat qiladilar.

Korxonalar esa qisqa muddatga mo'ljallangan loyihalarni amalga oshiradi, chunki bu ularga sarf etilgan kapitallarning qisqa muddat ichida qaytib kelishini ta'minlaydi. Amaliyotda inflyatsiyaga qarshi moslashish siyosati qo'llanilgan, ammo u samarasiz bo'lib chiqdi. Chunki narxlarni tutib turish ishlab chiqarish unumdorligiga va xalqning yashash darajasining pasayishi hisobiga amalga oshirilgan. Narx bilan ish haqi o'rtasidagi nisbat ustidan nazorat qilish siyosati qisqa vaqt davrida samara beradi, uzoq muddatli davrda esa bermaydi. Shuning uchun bu siyosat keng tarqalmagan.



Adaptiv va antiinflatsion chora-tadbirlar iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, uning barqarorligini ta'minlash vositalaridan biri hisoblanadi.

### **15.6. O'zbekistonda milliy valyuta - so'mning muomalaga kiritilishi va uning barqarorligini mustahkamlash yo'nalishlari**

Tovar-pul munosabatlarining samarali rivojlanishi milliy valyutaning barqarorligiga bog'liq. «Milliy valyuta — milliy iftixor, davlat mustaqilligining ramzi, suveren davlatga xos belgidir. Bu respublikaga tegishli umumiy boylik va mulkdir»<sup>19</sup>

«O'zbekiston mustaqillikning birinchi yillarida O'zbekiston hukumati siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ikki o'zaro ziddiyatli, birinchisi ikkinchisini inkor qiladigan holatga duch kelib qoldi: bir tomondan siyosiy mustaqillik, boshqa tomondan – yagona rubl, demak, iqtisodiy qaram zonada turganlik holati edi». <sup>20</sup> Bu holatdan chiqish faqat iqtisodiy mustaqillikga erishish uchun milliy valyutani muomalaga kiritish orqali amalga oshirilishi mumkin edi. O'zbekistonning o'z milliy valyutasini muomalaga kiritish ikki bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqich 1993 yilning noyabr oyidan 1994 yilning iyunigacha bulgan davrni, ikkinchi bosqich esa 1994 yilning iyun-iyul oylarini o'z ichiga oldi

1991 yil sentyabridan 1993 yil noyabrigacha bo'lgan davrda, muomalaga milliy valyutani kiritilmaganligi sababi, qator jiddiy muammolar mavjud bo'lgan:

banklar orqali mijozlar va aholini naqd pul bilan ta'minlash; mavjud iqtisodiy munosabatlarning buzilishi va hisob kitobni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki amaliy jihatdan to'laqonli pul - kredit siyosatini olib bora olmasligi bilan bog'liq muammolar. Chunki bu davrda Rossiya Markaziy banki muomalaga pul chiqarar edi, buning natijasida ularni tartibga solib bo'lmas edi. Bu davrda iste'mol bozorini himoya qilishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993 yil 15 mayda « Pul muomalasini tartibga solish va respublika iste'mol bozorini himoyalashni kuchaytirish» to'g'risida qaror qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra aholining tovar sotib olish va depozit operatsiyalarni bajarishda pasport va kupon tizimi

<sup>19</sup> Каримов И.А. Узбекистон иктисодий ислохотларни чуқурлаштириш йулида. — Т.: Ўзбекистон, 1995, 217-6.

<sup>20</sup> Муллажонов Ф.М. Ўзбекистон Республикаси банк тизими - Т.: Ўзбекистон, 2001, 33-6.

joriy etildi.

Mamlakatimizda milliy valyutani muomalaga kiritishning birinchi bosqichida, 1993 yilning noyabr oyidan 1994 yilning iyunigacha bo'lgan davrda, ya'ni 1993 yil 15 noyabrdan muomalaga oraliq «so'm- kupon» kiritildi va ayni paytda Rossiyaning nominali 5000 va 10000 bo'lgan rubllar muomaladan chiqarildi. 1993yil 1- dekabrda SSRI Davlat banki 1961-1992 yillar namunasidagi 200, 500, va 1000 rubl pul birliklari muomalada to'lov vositasi vazifasini bajarishi to'xtatildi. 1993 yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi hududida muomalada «so'm - kupon», sobiq SSRI Davlat bankining qiymati 100 rublgacha bo'lgan kupyuralari, va Rossiya bankining 1993 yilda namunasidagi kupyuralari muomalada xarakat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994 yil 11aprelda «Pul muomalasini mustahkamlash va «so'm - kupon» xarid qobiliyatini oshirishning kechiktirib bo'lmaydigan chora- tadbirlari to'g'risida»gi qarori pul muomalasini barqarorlashtirish, so'mning xarid qobiliyatini oshirish uchun zarur shart- sharoitlarni yaratishda muhim tadbir bo'ldi.

Ushbu qarorga muvofiq, 1994 yilning 15 apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida Rossiya Banki banknotalarining muomalada bo'lishi to'xtatildi.

O'zbekistonning amaldagi milliy valyutasi so'm — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasi hamda «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunning 111-moddasiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 1993 yil 3 sentyabrdagi №952-XII qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi PF-870 sonli farmoniga binoan, 1994 yilning 1 iyulida, o'zigacha amalda bo'lgan so'm-kuponga 1:1000 nisbatda muomalaga kiritilgan. So'm dastlab 1, 3, 5, 10, 20, 50 tiyinlik tangalar hamda, 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'mlik qog'oz kupyuralar bilan bir vaqtning o'zida muomalaga kirgan. 1 so'm 100 tiyinga maydalangan.

Mamlakatimizda milliy valyutaning muomalaga kiritilishi davlatimizda to'laqonli pul tizimini vujudga keltirish, mustaqil pul kredit siyosatini olib borishga, tom ma'noda iqtisodiy mustaqillikka erishishga zamin bo'lib xizmat qildi. Undan keyingi davrda asosiy vazifa milliy valyuta so'mning barqarorligini ta'minlashdan iborat edi. Bunga erishish uchun 4 ta maqsadli kompleks dastur ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etilyapti. Ushbu dasturning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: Respublika bozorini iste'mol mollari

bilan to'ldirish, aholining eng zarur talablarini qondiruvchi milliy ishlab chiqarishni kengaytirish, tashqi iqtisodiy siyosatni tubdan ko'rib chiqish, mamlakatning eksport imkoniyatini kengaytirish, qat'iy moliyaviy - kredit siyosatini izchillik bilan o'tkazish, kredit resurslaridan samarali va muayyan maqsad yo'lida foydalanish, milliy valyutaning yuqori to'lov qobiliyatini uzoq muddat davomida saqlab qolishni ta'minlash, ishlab chiqarish hajmi bilan to'lovga qobil talabning o'sishi o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlash qat'iy moliyaviy- kredit siyosatini izchillik bilan o'tkazish.

Bizning mamlakatimizda milliy valyutani erkinlashtirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-sonli Farmoni talablariga asoslangan yangi rivojlanish davri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur farmonga muvofiq 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash belgilangandir. Mana shu ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda qabul qilingan eng muhim qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrida «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5177-sonli Farmonidir.

Mazkur Farmonga asosan 2017 yil 5 sentyabrdan boshlab quydagi valyuta operatsiyalar erkin faoliyati ta'minlandi:

- O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari joriy xalqaro operatsiyalar (tovar, ish va xizmatlar importi, foyda repatriatsiyasi, kreditlarni qaytarish, xizmat safari xarajatlarini to'lash va boshqa savdo xarakteriga ega bo'lmagan o'tkazmalar) bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun tijorat banklarida chet el valyutasini cheklovsiz sotib olishlari;

- O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar chet el valyutasini tijorat banklarining valyuta ayirboshlash shoxobchalariga erkin sotishi va konversion bo'limlarida sotib olingan mablag'larni xalqaro to'lov kartalariga o'tkazish bo'yicha amaldagi tartibga asosan sotib olishi va chet elda hech qanday cheklovlarsiz ishlatishi;

- iste'mol tovarlari importi bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga chet el

valyutasini jismoniy shaxslar uchun o‘rnatilgan tartibda, banklardagi hisobvaraqlar orqali sotib olishga ruxsat beriladi;

- mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha eksportchi korxonalarining chet el valyutasidagi tushumini majburiy sotish bo‘yicha talab bekor qilinadi.

- chet el valyutasida daromad oluvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko‘rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, fermer xo‘jaliklari o‘z bank hisobvaraqlaridagi naqd chet el valyutasini naqt ko‘rinishida olishi mumkin.

Shunday qilib, O‘zbekistonda milliy valyuta muomalaga kiritilgandan so‘ng uning barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan dasturlarning ishlab chiqilishi va amaliyotda izchil ravishda amalga oshirilishi, valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha malga oshirilgan chora-tadbirlar milliy valyutamizning mustahkamlanishi, boshqa valyutalarga nisbatan almashuv kursining barqarorlashuvini ta‘minladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Qanday pul nazariyalarini bilasiz? Ularning bir biridan farqi qaysi holatlarda ko‘rinadi?

2. Pulning mazmunini va vujudga kelishining umumiy shart –sharoitlarini tushuntirib bering.

3. Oltin pul va qog‘oz pul o‘rtasidagi umumiylik va farqlarini ko‘rsatib bering.

4. Qog‘oz va kredit pullarning qadr–qiymati va barqarorligi nima bilan belgilanadi?

5. Pulning vazifalarini aytib bering.

6. Pul o‘z vazifalarini bajarishiga qanday omillar ta‘sir etadi?

7. Inflyatsiyaning vujudga kelish sabablari qaysilar?

8. Inflyatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlarini aytib bering.

9. Inflyatsiya darajasi qanday hisoblanadi va unga qanday omillar ta‘sir etadi?

10. Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosatining mazmuni va mohiyatini aytib bering.

## **16. PUL-KREDIT SIYOSATI**

### **16.1. Pul muomalasi. Pul muomalasi qonunlari**

**Iqtisodiyotda pulning doimo harakatda bo'lishi, pulning o'z vazifalarini uzluksiz bajarib turishiga pul muomalasi deyiladi.** Dunyoda barcha mamlakatlar tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlab qo'yilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi.

**Pul tizimi - bu mamlakatda milliy valyutaning muomalasi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar majmui; mamlakatda mavjud pul birligi muomalasini tashkil qilish tartibi, usullari va uni nazorat qiluvchi kredit muassasalari.**

Hozirgi davrda mamlakatlarda kredit va qog'oz pullar muomalasi tizimi shakllangan. Pul tiziminining asosiy elementlari quydagilardan iborat:

- pul birligi (dollar, marka, rubl, so'm);
- pul turlari (bank biletlari, tanga, chaqalar);
- pul emissiyasi tarkibi (muomalaga pul chiqarishning qonuniy tasdiqlangan tartibi)
- muomalada pul massasini tartibga soluvchi muassasalar.

Pul muomalasi naqd va kredit pullar yordamida amalga oshiriladi. Naqd pul muomalasiga bank biletlari va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi ularni (naqd va kredit pullarni) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Pul muomalasini boshqarib turuvchi qonun borki u muomalada qancha pul zarur bo'lishini aniqlab beradi. Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi omillarga bog'liq:

- muayyan davr davomida sotilishi va xarid qilinishi lozim bo'lgan tovarlar summasiga, chunki tovarlar qanchalik ko'p bo'lsa, ularning sotilishi uchun shunchalik pul zarur bo'ladi va aksincha
- pul birligining aylanish tezligiga, chunki aylanish pul birligi qiymati ayirboshlashga ko'proq yoki ozroq xizmat qilishi mumkin;
- kreditning rivojlanishiga, puldan to'lov vositasi vazifasida foydalanishga ham bog'liq.

Ko'p hollarda tovarlar shartnomaga muvofiq kreditga sotiladi, ularning haqi esa keyinroq to'lanadi. Demak, bir tarafdand, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori kredit miqdoriga muvofiq ko'proq bo'ladi, ikkinchi tarafdand esa bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu albatta pul miqdoriga ehtiyojni ko'paytiradi. Undan tashqari

hozirgi vaqtda ko'pgina oldi-sotdi jarayonlari naqd pulsiz, bir-biriga bank orqali pul o'tkazish ya'ni o'zaro hisob-kitoblar yo'li bilan amalga oshiriladi.

Pul muomalasi qonunlari muomaladagi tovarlar massasi, narxlar darajasi va pul muomalasi tezligi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

**Pul muomalasi qonuniga binoan muomaladagi pul miqdori sotiladigan ne'matlarga narxining umumiy summasiga to'g'ri mutanosiblikda, pul harakatining tezligiga teskari mutanosiblikda, bo'ladi.** Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P_m = \frac{T_{\delta} - X_k + X_T - \tilde{Y}_{x-k}}{A_T},$$

bu yerda:

$P_m$  - muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori;

$T_b$  - sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasi (tovarlar miqdori x narxi);

$X_k$  - kreditga sotilgan tovarlar summasi;

$X_t$  - to'lash muddati kelgan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa to'lovlar summasi;

$O_{x-k}$  - naqd pulsiz o'zaro hisob-kitoblar;

$A_t$  - pulning aylanish tezligi.

Shunday qilib, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoriga quyidagilar ta'sir qiladi.

- ishlab chiqarish sharoitlariga bog'liq bo'lgan va muomaladagi tovarlar miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar;

- tovarlar va xizmatlar narxlarini darajasini belgilovchi omillar;

- pul muomalasi tezligiga ta'sir qiluvchi omillar;

- kreditning rivojlanish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar;

- naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar.

Muomaladagi pul miqdori avtomatik ravishda pulni jamg'arish vazifasidan foydalangan holda tartibga solinadi, ya'ni pulga ehtiyoj kamaygan bo'lsa, unda keraksiz pul massasi jamg'ariladi, agar u ko'paygan bo'lsa, pullar muomalaga qaytishi ro'y beradi. Binobarin, muomalada bo'lgan pul miqdori doimo kerakli darajada saqlanib turadi.

Bundan tashqari, agar pul muomalasi oltin yoki qog'oz pullarga almashtirib bo'lmaydigan banknotalar tomonidan xizmat ko'rsatilsa, chiqarilgan qog'oz pullar miqdori muomalaga zarur bo'lgan oltin pullarga teng

bo'ladi, bu holda ham salbiy hodisalar yuzaga kelmaydi, ya'ni banknotalar oltin pul o'rnini bosadilar.

Muammo faqat pulning cheklanmagan chiqarilishi pul muomalasining buzilishiga, pul muomalasi kanallarining keraksiz kupyuralar bilan to'ldirilishiga va natijada inflyatsiyaga olib kelganda paydo bo'ladi. Iqtisodiyotda muomalaga zarur bo'lgan pul miqdori muammosiga boshqa nuqtayi nazar mavjud. Amerikalik iqtisodchi I. Fisher quyidagi almashinuv tenglamasini taklif etgan:

$$M * V = Q * P$$

Bu yerda: M - pul massasi;

V - pulning aylanish tezligi;

Q - tovarlar miqdori;

P - narx.

Ifodadan ko'rinib turibdiki, tovarlar miqdori to'g'ridan-to'g'ri narx darajasiga bog'liq. Agar pul massasi katta bo'lsa, unda narxlar yuqori bo'ladi, demak inflyatsiya mavjud bo'ladi. Muomaladagi pul miqdoriga quyidagi omillar ta'sir etadi:

1. Tovarlar massasining hajmi. Tovarlar miqdori va assortimenti qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik muomalada ko'p pul massasi kerak bo'ladi.

2. Narxlar darajasi. Narx qancha past bo'lsa, iste'molchilar tomonidan shuncha ko'p tovarlar talab qilinadi va shunga muvofiq ko'proq pul kerak bo'ladi.

Quyidagi omillar mavjud bo'lganda aksincha kamroq miqdorda pul talab qilinadi:

- kreditning rivojlanganlik darajasi. Kreditga qancha tovar ko'p bo'lsa, shuncha kam pul kerak bo'ladi;

- naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanganligi;

- pulni to'lash chastotasi. Pul qanchalik tez-tez to'lansa, muomalaga kamroq pul kerak bo'ladi.

3. Pul muomalasining tezligi (pul birligining ma'lum bir davrdagi aylanish soni).

Fisherning ayirboshlash tenglamasi narxlarning nima uchun o'zgarib turishini va shunga mos ravishda pulning xarid qobiliyatini, real milliy

mahsulot hajmini tushunishga imkon beradi. Masalan, doimiy Q va V bilan M pul massasining o'zgarishi to'g'ridan-to'g'ri narxga ta'sir qiladi. Biroq, pul massasining oshishi tovarlarning ishlab chiqarilishi va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmining u yoki bu darajada oshishi bilan bir vaqtda sodir bo'lsa, narxlarning o'sishi sodir bo'lmaydi.

Ayirboshlash tenglamasidan muomalaga zarur bo'lgan pul miqdorini chiqarish mumkin:

$$M = (R. * Q) / V$$

Bu yerda: M - muomaladagi pul massasi;

V - pul muomalasining tezligi;

R. \* Q = YAMMning nominal hajmi.

Shunday qilib, muomalaga shuncha pul kerak bo'ladiki, shunda milliy iqtisodiyot doirasida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning butun hajmi amaldagi narxlarda sotilishi mumkin bo'lsin.

Rivojlangan mamlakatlarda pul birligi yiliga 2-3 marta aylanadi. Mamlakatdagi pul muomalasini tartibga solish pul islohoti va denominatsiya kabi operatsiyalar orqali amalga oshiriladi.

**Pul islohoti - bu pul aylanishini barqarorlashtirish va mustahkamlash maqsadida davlat tomonidan amalga oshirilgan pul tizimining to'liq yoki qisman o'zgartirish.**

**Denominatsiya, pul islohotidan farqli o'laroq, eski pullarning yangilariga almashtirishda, yangi belgilarda bitta valyutani eski belgilarda ko'proq pul birligiga tenglashtirishda ifodalangan texnik operatsiya.**

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi pul tizimi «Markaziy bank to'g'risidagi» qonun asosida tartibga solinadi. Mamlakatimiz hududida banknota va tanga shaklidagi naqd pullar shuningdek tijorat banklar hisobidagi mablag'lar ko'rinishidagi naqd bo'lmagan pullar muomalada harakat qiladi. Pul massasini tavsiflanishi uchun pul agregatlaridan foydalaniladi:  $M_0, M_1, M_2$  va  $M_3$

$M_0$  =naqd pullar ( qog'oz va tanga pullar )

$M_1$  –bu tor ma'nodagi pullar bo'lib,tovar aylanmasiga naqd va naqd bo'lmagan shaklda xizmat qiladi. Naqd pullar va joriy hisobdagi pullardan iborat, ya'ni bu pullar to'lov vositasi sifatida ishlatiladigan pullar.



$M_2$ -bu pulni muomala va jamg'arish vositasi sifatida asosan qisqa davrda tavsiflaydigan pul agregati  $M_2 = M_1 + \text{jamg'arma hisoblari} + \text{qisqa muddatli qo'yilmalar}$ .

$M_3$  –bu joriy muomaladagi, qisqa muddatli xizmat ko'rsatish, va uzoq muddatli investitsiyalashni aks ettiruvchi pul agregati  $M_3 = M_2 + \text{tijorat banklari uzoq muddati depozitlari}$ .

## **16.2 Pul bozorida talab va taklif. Pul agregatlari. Pul multiplekatori**

Mohiyatiga ko'ra pul davlat banklari, jamg'arma muassasalarining qarz majburiyatlari hisoblanadi. Unga bozorda tovar va xizmatlar sotib olish mumkunligi sababli ular qiymatga ega. Binobarin, **pul qadri deganda pulning tovar va xizmatlarni xarid qilish, chet el valyutalariga almasha olish qobiliyati tushuniladi.**

Hozirgi davrda pul massasida naqd pullarning ulushi 25% dan kam. Ayrim baholarga ko'ra rivojlangan mamlakatlar bu ko'rsatkich 10% rivojlanayotgan mamlakatlar 25-40% tashkil qiladi. Bitimlarning asosiy qismi naqd bo'lmagan shakilda kredit pullardan foydalanib amalga oshiriladi ( cheklar, kredit kartochkada). **Pulga talab xo'jalik faolyati uchun zarur bo'lgan ehtiyojdir.** Uning shakillanishining ikki sababi mavjud. **Birinchidan**, insonlarga har doim tovar va xizmatlarni, korxonalariga esa xomashyo, yoqilg'i energiyani sotib olishga, ish haqi to'lash uchun pul zarur bo'ladi. Bular uchun zarur bo'lgan pul miqdori nominal YaMM hajmi bilan belgilanadi. Muomaladagi tovar va xizmatlarning pul qiymati qanchalik katta bo'lsa, ularni sotib olish uchun shunchalik ko'p pul kerak bo'ladi. Pulga talab bilan YaMM o'rtasida to'g'ri proporsional bog'liqlik mavjud. **Ikkinchidan**, insonlar o'zlarining pullarini har xil shakllarda (aksiyalar, obligatsiyalar, qimmatbaho tovarlar holatida) saqlaydilar. Ishlab chiqarish jarayonining o'sishi pulga bo'lgan talabni oshiradi. Pulga bo'lgan talabning o'sishi undan foydalanish uchun to'lanadigan foiz stavkasini oshiradi.


**Pul bozori – milliy bozorning tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatdagi pul miqdori hamda foiz stavkasining turli darajalarida pul mablag'lariga bo'lgan talab va pul taklifining o'zaro nisbatini ifodalovchi mexanizm.**

**Pul takliflarini muomaladagi barcha pullarning miqdori tashkil etadi. Pul taklifi  $M_0, M_1, M_2, M_3$  pul agregatlaridan iborat.** Iqtisodiyotda pul taklifi pul massasi ko'rsatkichi bilan tavsiflanadi. **Pul massasi bu iqtisodiyotdagi naqd va naqd bo'lmagan xarid va to'lov mablag'lari yig'indisidir.** Pul

massasi tashkil etuvchi pul shakllari likvidik darajasi bo'yicha farqlanadi. **Pulning likvidligi uning muomala vositasi sifatida barcha narsaga tez va hech bir to'siqsiz ayirboshlanishidir.** Naqd pullar, tijorat boshqa joriy hisobidagi mablag'lar absolyut likvid hisoblanadi. Jamg'arma qo'yilmalarning esa likvidligi pastroq. Umuman olganda pul hech bir xarajatsiz xohlagan paytda xohlagan narsaga ayirboshlanishi mumkin. Bino, transport vositasi va shu kabilarni esa boshqa narsaga ayirboshlash uchun ularni sotish zarur, bu ma'lum darajada vaqt va xarajatni talab etadi.

**Pul bozorida muvozanat – bu taklif qilingan pul mablag'lari miqdori bilan, aholi va tadbirkorlar talab qiladigan pul miqdoriga teng bo'lgan holat.** Pul bozoridagi muvozanat pul taklifi va unga bo'lgan talab o'rtasidagi bog'liqlikdir.


Pulga bo'lgan talab egri chizig'i ( $M_s$ ) aholi va firmalar hozirgi vaqtda o'z qo'llarida ushlab turishni xohlagan pul miqdori bilan oddiy pul aktivlari bo'yicha foiz stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi.



**16.1- rasm. Pul bozori modeli**


**Pul taklifi egri chizig'i** pul taklifining foiz stavkasiga bog'liqligini aks ettiradi. Pul bozorida muvozanat markaziy bank ta'sirida shakllanadi. Agarda markaziy bank pul taklifini nazorat qilsa, foiz stavkasini o'zgarishidan qat'i nazar pul hajmini belgilangan miqdorda ushlab tursa, unda taklif egri chizig'i ( $M_s$ ) vertikal ko'rinishga ega bo'ladi (16.1- rasm). Pul bozorida muvozanat talab va taklif egri chizig'i kesishgan  $A (r_0 M_0)$  nuqtada kuzatiladi. Foiz stavkasi  $r_1$  gacha pasayishi, natijasida obligatsiyalar daromadliligi pasayadi, pulga bo'lgan ehtiyoj esa oshadi. Bunday vaziyatda iqtisodiy subyektlar obligatsiyalarni sotadilar, natijada obligatsiyalarga talab va ularning bozor narxi

pasayadi. Ularni sotish evaziga olingan daromadlar esa oshadi. Ushbu bitimlar natijasida pul mablag‘larining ko‘chishi sodir bo‘ladi va asta sekinlik bilan pul bozoridagi muvozanat tiklanadi.



**16.2- rasm. Pulga bo‘lgan talab egri chizig‘ining siljishi**

Daromadlar darajasining oshishi pulga bo‘lgan talabni oshiradi, natijada talab egri chizig‘i o‘ngga siljiydi. Bunda foiz stavkasi oshadi ( $r_2$ ) (16.2.-rasm.).



**16.3 - rasm. Pul taklifi chizig‘ini siljishi**

Markaziy bank tomonidan pul taklifining kamaytirilishi pul taklifi egri chizig‘ining chapga siljishiga olib keladi foiz stavkasi oshadi. ( $r_2$ )

Pul bozorida foiz stavkasi (nominal, real) pulning muqobil narxidir. Foiz kreditining bozor narxi bo‘lib, qarz pulidan vaqtincha foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq. Kreditning arzon yoki qimmatligini foiz darajasi belgilaydi. Uzoq davr mobaynida aniqlanadigan foiz stavkasi o‘rtacha foiz stavkasi, har kuni shakllanadigan foiz stavkasini bozor foiz stavkasi deb yuritiladi. Unga kapital miqdori, kapitalning unumdorligi va kapitalga bo‘lgan talab va taklif nisbati ta‘sir etadi. Shuningdek nominal va real foiz stavkasi farqlanadi. Nominal foiz stavkasi bank foizini aks ettiradi, reali esa inflyatsiyaga inobatga olingan holda o‘rnatilgan foiz stavkasidir.

Pul taklifini oshirish bilan Markaziy bank ularni vaqtinchalik ko'p bo'lishini ta'minlaydi natijada foiz stavkasi pasayadi, kapital qo'yilmalar va iqtisodiy faollik oshadi. Pul massasini kamaytirish esa aks holatni vujudga keltiradi – muomala uchun pul yetishmaydi, foiz stavkasi ko'tariladi, kapital qo'yilmalar kamayadi, iqtisodiy faollik susayadi.

Tijorat banklari o'z ixtiyorlarida bo'lgan aktivlarini kredit sifatida mijozlariga berish orqali yangi pullarni hosil qiladilar. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining bu faoliyatlarini majburiy zaxira me'yorlarini o'rnatish orqali cheklaydi. Nima uchun shunday qilinadi? Tijorat banklari o'zlarining joriy xarajatlarini qoplay olishlari va mijozlar tomonidan kreditlar qaytarilmasligi xavfining oldini olish maqsadida qilinadi. Aktivlarning qolgan qismi esa muomalaga chiqarilib, u ma'lum muddatdan so'ng yana bankka qaytishi hamda majburiy zaxira me'yoridan ortiqcha qismi yana muomalaga chiqarilishi mumkin. Ushbu jarayon markaziy banklar tomonidan majburiy zaxira stavkalari yordamida pul-kredit siyosati doirasida tartibga solinadi. To'xtovsiz ravishda takrorlanuvchi bu jarayon pul taklifi multiplikatori yoki bank multiplikatori deyiladi. Pul massasi o'sishi pul multiplikatori qiymatiga ham bog'liq, odatda bu ko'rsatkich majburiy zaxiralar me'yoriga proporsionaldir. Pul taklifi multiplikatori - bu bankdagi pul depozitlari qo'shimcha ravishda o'sgan hajmining majburiy zaxiralar qo'shimcha hajmiga nisbati bo'lib, pul mablag'larining bir birlikga ko'payishi iqtisodiyotdagi pul taklifining qanchaga oshishini ko'rsatadigan ko'rsatkich. Pul taklifi multiplikatori quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$m = M_s / R \quad m = 1 / r$$

bu yerda:  $m$  - pul multiplikatori koeffitsiyenti;

$M_s$ -bankdagi depozitlarni qo'shimcha ravishda o'sgan qismi;

$R$ - majburiy zaxiraning qo'shimcha hajmi;

$r$  - majburiy zaxiraning foizdagi me'yori

Majburiy zaxira normasi qancha past bo'lsa, barcha tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning umumiy hajmi shuncha ko'p bo'ladi.

Albatta, hayotda barcha narsa shunchalik ravon o'tmaydi. Qarz oluvchi kredit miqdorini to'liq yoki qisman naqd pulda olishi mumkin va pul depozitlarga qaytmaydi. Mijozlari bankdagi pullarini qaytarib olishlari mumkin, bu ham kredit berish imkoniyatini pasaytiradi. Shunday qilib, multiplikatsiyaviy samara sezilarli darajada kamayishi mumkin.

### **16.3. Pul-kredit siyosatining tamoyillari va vositalari**

**Pul-kredit siyosati deganda to'la bandlik sharoitida jami mahsulotni ishlab chiqarishda inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf qilish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirish tushuniladi.** Pul siyosatida pul massasi miqdori, foiz darajasi va kreditlar boshqariladi. Foiz darajasi ustidan nazorat foizning hisob stavkasi darajasini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Foizning hisob stavkasi – bu markaziy bank tomonidan tijorat banklarga qisqa muddatga beriladigan kreditlarning foiz me'yori. Bu siyosat markaziy bank tomonidan olib boriladi.

Hozirda barcha mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda **ochiq bozorda operatsiyalar (inglizcha – “Open market operations”)**, ya'ni davlat qimmatli qog'ozlarni taklif qilish usulidan foydalaniladi. Ushbu operatsiyalarni asosan markaziy bank amalga oshiradi. Bunda Markaziy bank xazina qimmatli qog'ozlarni sotish yoki xarid qilish yo'li bilan pul taklifiga ta'sir etadi, ya'ni pul bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta'minlaydi.

Pul bozorida muomalada pul miqdori ortiqchaligi sharoitida Markaziy bank ortiqcha pul massasini bartaraf etishga harakat qiladi. Buning uchun u qimmatli qog'ozlarni aholi va banklarga sotadi. Davlat qimmatli qog'ozlarining taklifi oshib borgan sari ularning bozor narxi pasayadi, o'z navbatida unga bo'lgan talabni oshiradi. Banklar va aholi qimmatli qog'ozlarni ko'proq xarid qila boshlaydilar, pirovard natijada banklarning rezervlari qisqaradi. O'z navbatida bu hol pul taklifining bank multilikatoriga teng nisbatda qisqarishiga olib keladi.

Endi pul bozorida pul miqdori kamayib ketgan holatni ko'rib chiqamiz. Bu holatda Markaziy bank pul taklifini ko'paytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshiradi. Banklar va aholidan qimmatli qog'ozlarni sotib ola boshlaydi, bunda davlat ularga bo'lgan talabni oshiradi. Natijada qimmatli qog'ozlarning bozor narxi ko'tariladi va avtomatik ravishda unga bo'lgan foiz miqdori pasayadi. Bu esa aholi va banklarning ularni ko'proq sotishga harakat qilishiga olib keladi. Bu esa bank rezervlari va pul taklifining ortishiga olib keladi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Angliya, Germaniya, Kanada va boshqalar)da XX asrning 40-yillarida davlat obligatsiyalari bozorining nihoyatda kengayishi va ularning markaziy banklar tomonidan faol sotib olinishi orqali pul-kredit siyosatining asosiy dastagiga aylangan bo'lib, ushbu amaliyot bugungi kunda, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar markaziy banklari tomonidan ham pul

mablag‘lariga bo‘lgan taklifni nazorat qilish hamda tartibga solib turishda eng muhim dastakka aylandi.

Pul–kredit (monetar) siyosatini amalga oshirishning yana bir vositasi, bu **hisob–kitob stavkasi siyosatidir**. Hisob–kitob stavkasini Markaziy bank belgilaydi. Agarda ushbu stavka past bo‘lsa unda tijorat banklari ko‘proq kredit olishga harakat qiladilar. Buning natijasida banklarning ortiqcha bank rezervlari ortib boradi va muomaladagi pul massasi miqdori oshadi. Agar hisob stavkasi miqdori yuqori bo‘lsa unda banklar kamroq kredit olishga, olganlarini esa qaytarib berishga harakat qiladilar. Pirovard natijada esa ortiqcha bank rezervlari kamayadi, buning natijasida esa muomaladagi pul miqdori kamayadi.

Amaliyotda davlatlar hisob stavkasi siyosatini ochiq bozordagi operatsiyalar siyosati bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borishga harakat qiladilar.

Pul kredit siyosatining vositalaridan yana biri – **bu majburiy bank rezervlarining me‘yorini o‘zgartirish siyosatidir. Majburiy zaxira (rezerv) talablari (inglizcha – “Reserve requirements”)** – pul-kredit siyosatining an‘anaviy vositalaridan biri hisoblanib, AQSH Federal Zaxira Tizimi (Federal Reserve System) tomonidan mamlakat bank tizimining likvidliligiga ta‘sir etish maqsadida 1863 yilda ishlab chiqilgan,<sup>21</sup> Bugungi kunda, dunyoning ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari (AQSH, Shveytsariya, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Braziliya va boshqalar)da majburiy zaxira talablari qo‘llanib kelinmoqda. Majburiy bank rezervlarining me‘yorini (MBRM) Markaziy bank belgilaydi.

Agar markaziy bank MBRM kamaytirsa, ortiqcha bank rezervlari ortadi, bu esa pul taklifining oshishiga olib keladi. Masalan, ushbu norma 20% bo‘lsa, unda bankka qo‘yilgan 200 ming so‘mdan 40 ming so‘m majburiy bank me‘yorini tashkil etadi. Bunda bank faqat 160 ming so‘mni qarzga berish mumkin bo‘ladi. Endi faraz qilamizki, norma 10% ga tushirildi, unda bank 180 ming so‘mni qarzga berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

MBRMni oshirish yordamida davlat pul taklifini kamaytiradi, zero bu banklarning ortiqcha bank rezervlarini kamaytirishiga olib keladi.

---

<sup>21</sup> <https://www.federalreserve.gov/monetarypolicy/0693lead.pdf>

Pul – kredit (monetar) siyosatini o‘tkazishda bu vosita kuchli, ammo shu bilan birga qo‘pol hisoblanadi, chunki u butun bank tizimining asoslariga ta’sir etadi. Banklarning majburiy rezervlarini o‘zgartirish banklarning depozit (pul omonatlari) va kredit miqdorida katta o‘zgarishga olib keladi. Shuning uchun majburiy bank rezervlarining me’yorini o‘zgartirish siyosati mamlakatlarda o‘ta zarur bo‘lganda qo‘llaniladi.

Davlat tomonidan amalga oshiralidigan kredit – pul (monetar) siyosati YaMM, bandlik va narxlar darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Faraz qilamizki, iqtisodiyotda ishlab chiqarish kamaymoqda va ishsizlar soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda davlat markaziy bank orqali pul taklifini yuqorida ko‘rib chiqqan vositalar yordamida tartibga solishga harakat qiladi. Buning natijasida pul taklifi oshadi, foiz stavkasi esa pasayadi. Bu esa investitsiyalarga bo‘lgan talabni oshiradi va o‘z navbatida YaMM miqdori ko‘payishiga olib keladi. Bu bilan davlat ma’lum davrda o‘z maqsadiga erishadi, ishlab chiqarishning kamayishi to‘xtaydi, ishsizlar soni kamayadi, aholining daromadlari oshadi.

Monetar siyosatining oqibatlarini to‘g‘risida gapirganda qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlardagi oqibatlarni farqlash zarur.

Agar qisqa muddatli davrda davlat pul taklifini oshirish va buning natijasida YaMM miqdorining o‘shishini rag‘banlantirgan bo‘lsa, bu bilan ma’lum samaradorlikka erishadi, biroq, uzoq muddatli davrda esa bu choralarni samaradorligi pasayadi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, monetar siyosat asosida pul nazariyasi yotadi. Ko‘p yillardan beri ushbu nazariyaga ikki xil yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv takomillashtirilgan keynscha nazariya va ikkinchi yondashuv esa zamonaviy pul miqdori nazariyasi (monetarizm). Ushbu ikkala nazariya tarafdorlari pul taklifining nominal yalpi milliy mahsulotga (YaMM) ta’sirini inkor etmaydilar, ammo bu ta’sirning ahamiyatiga har xil baho beradilar.

Keynschilar fikricha monetar siyosat asosiga foiz stavkasi darajasi, monetaristlar fikricha esa – pul taklifining darajasi asos qilib olinishi zarur.

Keynschilar bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat aralashuvi shart deb biladilar, chunki mavjud bozor mexanizmi o‘zini – o‘zi tartibga sola olmaydi deb hisoblaydilar. Monetaristlar esa, bozor iqtisodiyoti o‘zining mexanizmi bilan o‘zini - o‘zi tartibga soladi, shuning uchun davlatning aralashuvini ortiqcha deb hisoblaydilar.

Keynschilar pul taklifining YaMM ta'sirini quyidagi ketma – ketlikda amalga oshadi deb hisoblaydilar: pul taklifining o'zgarishi foiz stavkasini o'zgartirishga, foiz stavkasi esa o'z navbatida investitsiyalarga bo'lgan talabning o'zgarishi orqali YaMMga ta'sir etadi.

Monetaristlar esa bu borada shunday deydilar: pul miqdorining o'zgarishi bilan YAMM ning o'zgarishi o'rtasida yaqinroq aloqa mavjud, ya'ni pul miqdorining o'zgarishi bevosita YaMM ni o'zgarishga olib keladi.

Keynschilarning asosiy tenlamasi quyidagicha:

$$Y_{AMM} = C + I + G + MN$$

Bu yerda: C-aholi iste'moli xarajatlari, I - investitsiya, G -davlatning tovar va xizmatlarni sotib olishga xarajatlari, MN -sof eksport.

Monetaristlar  $M \times V = P \times Q$  tenglamaga asoslanadilar. Agar  $P \times Q$  bo'lsa, unda tenglamani quyidagicha yozish mumkin bo'ladi.

$$M = \frac{Y_{AMM}}{V}$$

bu yerda:

M- pul taklifi;

V- pulning aylanish tezligi yoki oboroti soni;

P- tovar va xizmatlarning o'rtacha narxi;

Q- sotilgan tovarlarning soni.

Bunda monetaristlar V barqaror deb hisoblaydilar, keynschilar esa u barqaror emas deydilar.

Hozirda mavjud bo'lgan, monetaristik siyosatining modellari bu ikki yondashuvning sintez qilingan variantidir. Ya'ni, bu yondashuvlarning ijobiy taraflarini qo'shib o'zida aks ettirgan monetaristik siyosatning variantlaridir.

#### **16.4. O'zbekistonda olib borilayotgan pul- kredit siyosati**

Pul-kredit siyosatining pirovard maqsadi – mamlakatda barqaror past darajadagi inflyatsiyani ta'minlashdan iborat. Bu maqsadga erishish esa aholi turmush darajasining yaxshilanishiga va farovonligining oshishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, narxlar o'sish sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

Mamlakatimizda ichki narxlar barqarorligi ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish



va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zamini hisoblanadi. Inflyatsiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholi farovonlik darajasini oshirishning muhim omili sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida Markaziy banki pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- inflyatsiyaning doimiy amal qiladigan maqsadini belgilash va uni keng jamoatchilikka yetkazish;

- pul bozoridagi foiz stavkalarini tartibga solish va inflyatsiyaviy jarayonlarni boshqarish maqsadida pul-kredit siyosatining keng qamrovli dastaklarini qo'llash;

- pul-kredit siyosati sohasida obyektiv qarorlar qabul qilish maqsadida ichki va tashqi bozorlarda mavjud bo'lgan ochiq ma'lumotlarni hisobga olgan holda batafsil makroiqtisodiy tahlil va prognozlarni amalga oshirish.

Hozirgi davrda mamlakatimizda davlat tomonidan olib borilayotgan pul kredit siyosatida uning jahonda tan olingan vositalaridan foydalanib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ochiq bozor operatsiyalarini faollashtirish maqsadida 2018 yildan davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish borasida Moliya vazirligi bilan tegishli tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Bunda, bozorning foiz stavkalari va bank tizimida (tijorat banklari)gi likvidlilik darajasiga ta'sir ko'rsatish, shuningdek, iqtisodiyotdagi pul massasi hajmi o'zgarishini muvozanatlashtirish maqsadida Markaziy bank ochiq bozorda davlat qimmatli qog'ozlarini, shuningdek, o'zi chiqargan obligatsiyalarni hamda boshqaruv qaroriga ko'ra boshqa qimmatli qog'ozlarni (xorijiy davlatlar qimmatli qog'ozlari (obligatsiya, veksel, depozit sertifikatlari va boshqalar) hamda mahalliy korporativ obligatsiyalar) sotib olishi va sotishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Markaziy bank faqat pul-kredit siyosatini amalga oshirish maqsadida obligatsiyalar emissiyasi (muomalaga chiqarish)ni amalga oshiradi. Shuningdek, obligatsiyalarning emissiyasi, joylashtirilishi, muomalada bo'lishi hamda muomaladan chiqarilishi tartibi va shartlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Xalqaro amaliyotda davlat qimmatli qog'ozlarining doimiy muomalada bo'lishi nafaqat davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirishning maqbul yo'li, balki mamlakat moliya bozorini rivojlantirishning muhim instrumenti bo'lib hisoblanadi.<sup>22</sup>

---

<sup>22</sup> <https://finlit.uz/oz/articles/monetary-policy/required-reserve-requirements/>

Mamlakatimizda 2020 yilning 11 sentyabrdan boshlab Markaziy bank asosiy stavka 14% ni tashkil etadi. Markaziy bank asosiy stavkasi pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri hisoblanadi.

Banklararo pul bozoridagi foiz stavkalari, shuningdek, Markaziy bank tomonidan bank tizimiga likvidlikni taqdim etish bevosita asosiy stavkaga bog'liq.

Shunday qilib, asosiy stavka iqtisodiyotdagi foiz stavkalari darajasiga, shuningdek, aholi va biznesning iste'mol va investitsiyaviy (sarmoya kiritish) qarorlariga ta'sir ko'rsatgan holda ichki talab va inflyatsiya darajasi o'zgarishida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy stavka darajasi Markaziy bank boshqaruvi majlislarida pul-kredit siyosati sharoitlari, joriy va kutilayotgan inflyatsiya darajasi hamda makroiqtisodiy holatni inobatga olgan holda belgilanadi. Odatda, agar inflyatsiya darajasi oshsa, Markaziy bank ham asosiy stavkani oshiradi. Agar inflyatsiya darajasi pasaysa, bunda Markaziy bank asosiy stavkani pasaytiradi. Markaziy bank asosiy stavkani o'zgartirishga qaror qilsa, bozorni mumkin bo'lgan o'sish yoki pasayish haqida avvaldan xabardor qiladi.<sup>23</sup>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ham majburiy zaxira talablari pul massasini tartibga solish hamda mamlakat bank tizimining likvidliligiga ta'sir etishning muhim va ta'sirchan vositasi sifatida amaliyotda qo'llanilmoqda.

Majburiy rezervlar tijorat banklari tomonidan jalb qilingan milliy va xorijiy valyutadagi depozit mablag'larga nisbatan o'rnatilgan me'yorlardan kelib chiqib, Markaziy bankdagi o'tkazilishi lozim bo'lgan pul mablag'larini anglatadi. Xususan bu instrument Markaziy bank tomonidan quyidagi maqsadlar uchun qo'llanadi:

- tijorat banklarining likvid mablag'lari hajmini muvofiqlashtirgan holda, kreditlash faolligiga ta'sir ko'rsatish;

- tijorat banki bankrot bo'lgan sharoitda uning majburiyatlari yuzasidan hisoblashish;

- pul massasining o'sish sur'atlarini tartibga solgan holda, pul massasining multiplikativ ko'payishiga bevosita ta'sir ko'rsatish. Bunda, Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 25 aprelda 3002-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga

---

<sup>23</sup> <https://finlit.uz/oz/articles/monetary-policy/required-reserve-requirements/>

o‘tkaziladigan majburiy rezervlari to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, Markaziy bank tijorat banklari tomonidan Markaziy bankka o‘tkazilishi lozim bo‘lgan majburiy rezervlar hajmi (normativ miqdori)ni hamda depozitga o‘tkazish tartibini belgilaydi. O‘z navbatida, majburiy rezervlarning normativ miqdorini hisoblashda Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining rezerv shakllantiriladigan majburiyatlariga nisbatan majburiy zaxira me‘yorlari belgilangan bo‘lib, 2019 yil 1 iyuldan: milliy valyutadagi depozitlar uchun - 4%; xorijiy valyutadagi depozitlar uchun - 14% etib belgilangan bo‘lib, majburiy zaxira rezervlari har ikkala valyuta uchun ham milliy valyutada shakllantiriladi.<sup>24</sup>

Mamlakatimizda pul-kredit siyosatini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflyatsiya darajasini 2021 yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023 yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni (target) o‘rnatilish bilan 2020 yilning 1 yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o‘tkazish maqsad qilib olingan.

Pul-kredit siyosatining inflyatsion targetlash rejimida markaziy bank tomonidan inflyatsiyaning o‘rta muddatli maqsadli darajasi e‘lon qilinadi va pul-kredit instrumentlari ushbu inflyatsiyaning maqsadli ko‘rsatkichiga erishishga yo‘naltiriladi. Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning mazkur usuli ko‘pgina rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Inflyatsion targetlash rejimi inflyatsiya darajasining o‘zgaruvchanligi va inersion davomiyligini kamaytirishning samarali usuli hisoblanib, o‘rta muddatli istiqbolda barqaror va muvozanatli iqtisodiy o‘shishga erishish uchun qulay sharoitlarni yaratadi.<sup>25</sup>

Mamlakatimizda iflyatsion targetlash rejimiga to‘liq o‘tish uchun quyidagi sharoitlar yaratish belgilab olingan:

-muvofiqlashtirilgan monetar-fiskal va monopoliyaga qarshi siyosat yuritish;

- raqobatdosh bozor iqtisodiyotiga o‘tishni tezlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish hamda tovarlar va xizmatlarning to‘laqonli bozorlarini shakllantirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni davom ettirish;

---

<sup>24</sup> <https://finlit.uz/oz/articles/monetary-policy/required-reserve-requirements/>

<sup>25</sup> <https://cbu.uz/oz/monetary-policy/concept/>

- monopoliyaga qarshi kurashish va narxlarni tartibga solishning zamonaviy usullariga o'tishga, shuningdek, ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirishga yo'naltirilgan tartibga solinadigan narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish.

Umuman olganda, inflyatsion targetlashga o'tish pul-kredit siyosati sohasining barcha jihatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, uzoq muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sishning asosi bo'lgan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sifat jihatdan yangi bosqichga o'tilishini anglatadi

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Pul tizimi va uning elementlarini yoritib beringnima va uning tarkibiy qismlari
2. Pul muomilasi qonunlari qanday munosabatlarni ifodalaydi?
3. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq?
4. Pul agregatlari nima va uning tarkibiga qanday pullar kiradi?
5. Pul bozori uning obyektlari va subyektlari to'g'risida gapirib bering.
6. Pul bozorida talab va taklif qanday shakllanadi?
7. Pul bozorida muvozanat holati qanday shakllanadi?
8. Pul taklifi multiplikatori nima va u qanday hisoblanadi?
9. Davlatning pul kredit siyosatini maqsadi nimadan iborat?
10. Davlat pul kredit siyosatining asosiy vositalarini yoritib bering.

## **17. BANK TIZIMI**

### **17.1. Bank tizimi. Markaziy bank va uning vazifalari.**

**Kredit tizimi** – bu pul resurslarini tarkib toptiruvchi va o'zida jamlovchi va ma'lum muddatda qaytarib berish va haq to'lash shartlari asosida ularni qarzga beruvchi kredit muassasalarning majmui. Kredit tizimi uch darajadan iborat strukturaga ega:

1. Markaziy ( davlat ) banki;
2. Bank tizimi;
3. Maxsus kredit muassasalari (sug'urta kompaniyalari, nafaqa fondlari, investitsiyalar va h.k).

**Mamlakatda mavjud banklarning mamlakat hududida o'zaro birgalikda harakatlanuvchi bank muassasalarining jamisiga bank tizimi deyiladi.**

Bank tizimi ko'pchilik holatda ikki pog'onali, ya'ni markaziy (emission) bank va tijorat(depozit) banklaridan iborat bo'ladi.

2019 yil 1 iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston bank tizimida O'zbekiston Markaziy banki, 30 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda. Bundan 5 tasi davlatga qarashli, 13tasi - aksiyadorlik tijorat, 6 tasi xususiy, 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar.

MDH standartlari bo'yicha respublika banklar bilan yuqori darajada ta'minlangan - 2011 yil 1 yanvar holatiga shunday muassasalardan biriga (bank yoki uning filiali) 33,8 ming kishi to'g'ri keladi, bu, masalan, Rossiyada, Qozog'iston yoki Belorussiya kabi mamlakatlarga nisbatan ko'p. Lekin Germaniya yoki Italiya kabi rivojlangan Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga qaraganda ancha darajada past.

2019 yil 1-iyuliga ko'ra:

- O'zbekistondagi tijorat banklarining aktivlari - 264,54 trillion so'm
- banklarning umumiy kapitali - 30,00 trillion so'm
- banklarning kredit qo'yilmalari - 205,48 trillion so'm
- jalb qilingan depozitlar hajmi - 84,69 trillion so'm<sup>26</sup>

Markaziy bank davlat banki hisoblanadi. Ayrim hollarda markaziy bank rasman davlatga qarashli bo'lmaganda (Shvetsariya milliy banki ) yoki davlat uning kapitalini bir qismiga egalik qilganda ham ( Yaponiya banki 55% ) ularning faolyati davlat yo'riqlari asosida amalga oshadi.

Davlat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi:

Birinchidan, davlat banki Markaziy bank hisoblanadi. Buning mazmuni shundan iboratki, birinchidan, ko'pchilik mamlakatlarda davlat banki yagona markaziy bankdan iborat bo'lib, u o'tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan o'rnatiladi;

Ikkinchidan, Markaziy bank tijorat banklari va jamg'arma muassasalaridan mablag'larni qabul qilib, ularga kredit beradi. Xususan, shu sababga ko'ra markaziy bank "banklar banki" deyiladi;

Uchinchidan, Markaziy bank faqat foyda olishga intilib faoliyat yuritmaydi, davlatning butun iqtisodiyot holatini yaxshilash siyosatini amalga oshiradi va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Markaziy bank ko'plab xilma-xil vazifalarni bajaradi:

---

<sup>26</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>

- 1) boshqa bank muassasalarining majburiy zaxiralarini saqlash;
- 2) cheklarni qayd (inkassatsiya) qilish mexanizmini ta'minlash va banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish, ularga kreditlar berish;
- 3) davlatning monetar siyosatini amalga oshirish;
- 4) barcha banklar faoliyatini uyg'unlashtirish va ular ustidan nazoratni amalga oshirish;
- 5) xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyutalarni ayirboshlash;
- 6) pul taklifi ustidan nazorat qilish, milliy valyutani muomalaga chiqarish.

Banklar o'z tasarrufidagi resurslardan foydalanish samaradorligi uchun moddiy jihatdan mas'ul hisoblanadi va shu sababli kredit-pul operatsiyalari ko'proq ularning iqtisodiy samaradorligiga qarab beriladi.

Mamlakatimizda **markaziy bankning asosiy maqsadlari** quyidagilardan iborat: narxlar barqarorligi; bank tizimining barqarorligi va rivojlanishi; to'lov tizimining barqaror rivojlanishi. O'zbekistonda Markaziy bank "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida" gi qonun asosida faoliyat yuritadi. Markaziy bankning amalga oshiradigan operatsiyalarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Markaziy bankning faol operatsiyalariga qimmatli qog'ozlarni chiqarish va sotish hamda kreditlarni berish kiradi. Hukumat qimmatli qog'ozlari (davlat obligatsiyalari, g'azna veksellari) davlat qarzining bir qismini tashkil etadi. Bozor sharoitida davlat zayomlarini sotib olish va sotish tijorat banklari zaxiralari hajmiga va davlatdagi pul massasi hajmiga ta'sir qiladi.

Markaziy bankning (MB) yana bir faol operatsiyasi - bu tijorat banklariga ssuda berish. Markaziy bank barcha banklarga kredit olishda teng imkoniyatlarni taqdim etadi. Banklarning zaxira talablarini ta'minlash uchun ularga beriladigan kreditlar, mavsumiy kreditlar va moliyaviy ahvoli barqaror bo'lmagan banklarga beriladigan kreditlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Aktivlarga valyuta qiymatlari (oltin, chet el valyutasi) ham kiradi.

Markaziy bankning majburiyatlarning asosiy moddalari - bu g'aznachilik (hukumat) depozitlari, tijorat banklarining zaxiralari va banknotalarni chiqarish. Hukumat o'z majburiyatlarini soliq tushumlari bilan tuziladigan va to'ldiriladigan depozitlar, shuningdek aholi va banklarga qimmatli qog'ozlarni sotish bilan to'laydi. Markaziy bank uchun tijorat banklarining zaxiralari majburiyatdir, chunki bu uning tijorat banklari oldidagi majburiyatlari. Markaziy bank tomonidan chiqarilgan banknotalar ham uning egalarini tovar va xizmatlar bilan ta'minlash yuzasidan MBning o'ziga xos majburiyatidir.

Qog‘oz pullarni chiqarish mexanizmi quyidagicha: Markaziy bank chet el valyutasini sotib oladi (qimmatli qog‘ozlar, veksellar va banknotalarda to‘laydi). Muammolar hukumat byudjeti defitsiti sharoitida yuzaga kelishi mumkin. Ba’zi mamlakatlarda Markaziy bank hukumatdan mustaqildir. (Federal rezerv tizimi AQSH, Bundesbank Germaniya) Boshqa mamlakatlarda masalan, Angliyada markaziy davlatga qarashli, shuning uchun Moliya vazirligi (G‘aznachilik) va Markaziy bank davlat byudjetini bajaruvchisi hisoblanadi. Ortiqcha xarajatlar (byudjet kamomadi) ko‘pgina mamlakatlarning byudjet amaliyotida tez-tez uchraydigan hodisa. Bu xarajatlarni ikki manbadan qoplash mumkin: aholidan pul qarz olish, qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish yoki banknotalarni qoplashsiz muomalaga chiqarish, bu muqarrar ravishda inflyasiyaning o‘shishiga olib keladi. Markaziy bank har qanday miqdordagi pul belgilarini chiqarishi mumkin. Biroq, agar pul emissiyasi iqtisodiy rivojlanishga, pul massasi va tovar taklifi hajmining muvofiq amalga oshirilsa MB barqarorlikni ta’minlash vazifasini bajaradi. Banknotlar - bu Markaziy bankning o‘ziga nisbatan qarz majburiyatlari.

Majburiyatlardan tashqari Markaziy bank o‘z kapitaliga ega bo‘lib, unga bank mol-mulki, hisob varag‘i va foydasi qiymati kiradi. Markaziy bank balansining soddalashtirilgan sxemasi 17.1-jadvalda keltirilgan.

Respublikaning asosiy banki - Oliy Majlis Senati oldida hisobot beradigan O‘zbekiston Markaziy banki.

17.1-jadval

### Markaziy bank balansining soddalashtirilgan sxemasi

<b>Aktivlar</b>	<b>Passivlar</b>
1. Valyuta zaxiralari (oltin, chet el valyutasi)	1. Banknotalarni muomalaga chiqarish (emissiya)
2. Kreditlar	2. Davlat depozitlari
3. Davlat qimmatli qog‘ozlari	3. Tijorat banklarining depozitlari
4. Bank binolari va boshqa aktivlar	4. Chet el depozitlari
	5. Markaziy bankning kapitali
	6. Boshqa majburiyatlar

--	--

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:**

- pul-kredit siyosatini, shu jumladan valyuta siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- O‘zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasini monitoring, tahlil va prognoz qiladi, tegishli axborot materiallarini hamda statistik ma’lumotlarni e’lon qiladi;

- O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansini, xalqaro investitsiyaviy mavqeini, tashqi qarzini va zaxira aktivlarini o‘z ichiga olgan bank, pul-kredit statistikasini, tashqi sektor statistikasini shakllantirishni hamda e’lon qilishni amalga oshiradi;

- har yili O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga Davlat byudjeti loyahasini tayyorlashga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo‘yicha axborotni taqdim etadi;

- naqd pul muomalasini tashkil etadi;

- valyutani tartibga solishni va valyutani nazorat qilishni amalga oshiradi;

- valyuta operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi;

- banklarni va kredit byurolarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiradi;

- banklarning, mikrokredit tashkilotlarining, lombardlarning, to‘lov tashkilotlarining, to‘lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining faoliyatini va qimmatli qog‘ozlar blankalarini ishlab chiqarishni litsenziyalaydi, shuningdek kredit tashkilotlarining, to‘lov tashkilotlarining, to‘lov tizimlari operatorlarining, valyuta birjalarining, kredit byurolarining va banklar guruhlarining faoliyatini tartibga soladi hamda ushbu faoliyat ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- hukumatning fiskal agenti vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan bank operatsiyalarini va boshqa bitimlarni mustaqil ravishda yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining topshirig‘iga binoan amalga oshiradi;

- O‘zbekiston Respublikasida to‘lov tizimlari barqaror ishlashini ta’minlash choralari ko‘radi;



- ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga Markaziy bank tomonidan litsenziyalanadigan tashkilotlarning rioya etishi yuzasidan monitoring hamda nazoratni amalga oshiradi;

- Xalqaro valyuta fondining O'zbekiston Respublikasi valyutasidagi mablag'lari depozitariysi hisoblanadi, operatsiyalarni va bitimlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan operatsiyalar va bitimlarni amalga oshiradi;

- kredit tashkilotlari xizmatlari iste'molchilari huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, moliyaviy xizmatlarning ochiqligini hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish choralarini ko'radi;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralarini (bundan buyon matnda xalqaro zaxiralar deb yuritiladi), shu jumladan kelishuvga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Hukumatining zaxiralarini boshqarishni, hisobga olishni va saqlashni amalga oshiradi. Markaziy bank ushbu Qonun bilan belgilangan maqsadlariga erishish uchun qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin<sup>27</sup>

## **17.2. Tijorat banklari va ularning vazifalari**

**Pul mablag'larini jalb qilish hamda ularni qaytarishlik, to'lashlik va muddatli shartlar asosida o'z nomidan joylashtirish uchun tuzilgan muassasa bankdir.**

Bank bu tijorat muassasasi bo'lib, uning maqsadi foyda olish. Bank o'z faolyatida quyidagi asosiy tamoyillarga amal qiladi: mijozlarning manfaatiga ustuvorlik berish va ularni jalb etish uchun kurashish: foyda olib ishlash; raqobatda ishtirok etish tavakkal qilish; o'z mablag'larini naqd pulga aylantira olish.

Banklarning aksaryati tijorat banklaridir. Vaqtinchalik bo'sh pullarni to'plash, kredit berish, pul hisob-kitoblarini amalga oshirish, qimmatli qog'ozlarni chiqarish tijorat banklarning asosiy vazifalaridir. Amalga

---

<sup>27</sup> "Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида" ги қонун. <https://lex.uz/docs/4590452>

oshiradigan operatsiyalarga ko‘ra universal va ixtisoslashtirilgan banklar farqlanadi. **Ixtisoslashtirilgan banklar – muayyan mijozlar guruhiga xizmat ko‘rsatadi yoki ayrim xizmatlarga ixtisoslashadi (investitsiyaviy, eksport, ipoteka).**

**Bank – bu tijorat korxonasi bo‘lib, uning maqsadi foyda olish, uni iloji boricha ko‘paytirish.** Ammo banklar har doim ham o‘z foydasi hisobidan qarzni o‘z vaqtida to‘lashni ta‘minlay olmasligi mumkin. Juda ko‘p miqdorda ssuda bergan yoki qarzni o‘z vaqtida to‘lashni ta‘minlamagan banklar ayrim hollarda to‘lash qobiliyatiga ega bo‘lmaydi. Bu hol ularning sinishiga olib kelishi mumkin. Binobarin, banklar aholi, korxonalar, boshqa muassasalar qo‘yilmalarining barchasini qarzga bera olmaydi. Chunki ular o‘z qo‘yilmalarini har qanday vaqtda qaytarib olishlari mumkin.

Shuning uchun o‘zlarining xavfsizliklarini ta‘minlash maqsadida banklar o‘sha qo‘yilmalarning bir qismini zaxira sifatida ajratib qo‘yadilar. Bu fondlar bank zaxiralari deyiladi. Tijorat banklari majburiy zaxirasi miqdori va bank tomonidan qo‘yilmalar bo‘yicha berilgan majburiyatlar o‘rtasidagi nisbatga bank zaxirasi me‘yori deyiladi.

Bank zaxirasi me‘yori = tijorat banki majburiy zaxirasi / muddatsiz qo‘yilmalar bo‘yicha tijorat bankining majburiyatlari \* 100%

Bankning asosiy hujjatlaridan biri - balans hisobotidir. U aktiv va passiv qismdan iborat bo‘ladi.

## 17.2- jadval

### Tijorat bankining balans

Aktiv	Passiv
Naqd pul	Talab qilinadigan depozitlar
Zaxiralar	Jamg‘arma va muddatli depozitlar
Kreditlar	Bankning kapitali
Xususiy firmalarning aksiya va obligatsiyalari	Boshqalar
Davlat qimmatli qog‘ozlari.	

Aktiv qismi bank egalik qiladigan kassa naqdini (qog'oz pullar va tangalar), bank depozitlar (omonatlar), qimmatli qog'ozlar, bank tomonidan berilgan ssudalarini o'z ichiga oladi.

Bank balans hisobotining passiv qismida bank oldiga qo'yilgan barcha talablar (bank egalari talablaridan tashqari) o'z aksini topadi. Passiv qismida bank depozitlari muhim o'rin tutadi.

Banklar o'z vazifalarini ikkita o'zaro bog'langan passiv va aktiv operatsiyalari ko'rinishida amalga oshiradi.

**Passiv bank operatsiyalari**, zaxiralarini shakllantirish operatsiyalari bo'lib, bunda depozitlar, ya'ni mijozlarning omonatlarini bankka jalb qilinadi.

**Aktiv bank operatsiyalarida** to'plangan resurslarni joylashtirish va foydalanish operatsiyalari amalga oshirila

Banklar kredit berish, bozor subyektlarining jamg'armalarini saqlash bilan bir qatorda pullarni hosil qilish jarayoniga ham xizmat qiladi. Ushbu jarayonni biz misolda ko'rib chiqamiz. Aytaylik, siz bankda omonat daftarcha ochib, unga 100000 so'm qo'ydingiz. Bu pul summasi sizniki bo'lishni to'xtatmaydi, istalgan vaqtda ularni qaytarib olishingiz mumkin, ammo bank ulardan foydalanganligi uchun sizga foizlarni to'laydi, masalan, boshqa odamga 90 000 so'm kredit beradi. Natijada, pul miqdori ko'payadi, ammo jismonan ular ko'paymaydi. Siz 100000 so'mni depozitda saqlaysiz va foizlarni olasiz. Bank mijozni unga berilgan 90 ming so'm kreditni sarflaydi va unga foizlar to'laydi. Shu bilan birga, naqd pul miqdori qancha bo'lgan bo'lsa shunchaligicha qoldi. Faraz qilamiz, biror firma o'z mahsulotlarini sotib, uning evaziga 200 mln. so'm oldi va uni A bankiga qo'ydi. Bunda agar bank zaxira me'yori 20% bo'lsa, bank 160 mln. so'mni boshqa firmaga ssudaga berishi mumkin. Bunda: ortiqcha zaxira 160 mln. so'mga teng, haqiqiy zaxira 200 mln so'mga va majburiy zaxira 40 mln so'mga teng. A bankning balans hisoboti quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Aktiv mln so'm	Passiv mln. so'm
Majburiy zaxira -40	Depozitlar-200
Ssuda -160	Jami- 200
Jami 200	

Bunda muomaladagi pul hajmi 200 dan 360 mln. so'mga ko'payadi. 160 mln bank tomonidan yaratilgan pul summasini tashkil qiladi. Shundan so'ng ssuda olgan firma boshqa firmadan tovarlar sotib oladi, uchinchi firma mahsulotini sotgandan olgan 160 mln so'mni B bankga qo'yadi va yuqoridagi

jarayon yana qaytariladi. Bu jarayon, ya'ni banklar tomonidan pul hosil qilish to'xtamaydi, bu potensial pul summasi 0 ga teng bo'lguncha davom etadi.

Endi bankning kredit berish mexanizmini ko'rib chiqamiz. Kredit berish mexanizmini ko'rib chiqing. Firma yangi uskunalar sotib olishga qaror qildi va kredit olish uchun A bankiga murojaat qildi. Firmaning kredit qobiliyati yuqori bo'lsin va bank unga 80 million so'm miqdorida kredit beradi. 80 mln so'm firmaning hisob raqamiga tushadi va mansabdor shaxslar yangi uskunalarni yetkazib beruvchilarga chek yozib berishlari mumkin, bunda tovar aylanmasida to'lov vositasi sifatida qatnashadigan cheklar shaklida qo'shimcha pullar yaratiladi. Kredit berish bankning kredit berish imkoniyatlarini pasaytiradi. Kredit qaytarilgach, bankning kredit resurslari yana ko'payadi. Shunday qilib, alohida banklar pulni yaratadi va ularni tugatadi.

Endi operatsiyalarni bank tizimida umumiy holda ko'rib chiqamiz. Aytaylik, A.Davronov A bankiga 10 mln so'm miqdorida omonat qo'ydi. Kredit berishda bank me'yoriy zaxirasini hisobga olishi kerak. Shu sababli, 10 foiz zaxira stavkasi bilan bank kreditlash uchun 9 mln so'mdan foydalanishi mumkin. Tahlilni soddalashtirish uchun bank bir qo'lga kreditning butun summasini beradi va mijoz darhol yetkazib beruvchi bilan operatsiya uchun to'lovni to'lash uchun chek yozadi deb faraz qilaylik. Shunday qilib, chek "B" bankiga tushadi, uning depozitlari 9 mln so'mga oshgan. Xuddi shu zaxira stavkasi bilan B banki ushbu summaning 8 mln 100 ming so'mini kreditlash uchun ishlatishi mumkin. 8 mln 100 ming so'm miqdorida kredit olgan, shuningdek, chek orqali to'lagan B bankining mijozi, S bankining depozitini mos ravishda 8 mln 100 ming va kredit imkoniyatlarini 7 mln 200 ming so'mga oshirdi. Ushbu miqdorga kredit ajratish orqali S banki D bankning kredit imkoniyatlarini oshiradi, yangi qo'shimcha pullar yaratadi va h.k.

Ta'riflangan jarayon ko'p marta takrorlanishi mumkin. Pullar o'sib boradi, shu bilan birga yaratilgan pullar bankdan bankga o'tganda kamayib boradi pirovard natijada umumiy summa quyidagiga teng bo'ladi:

$$10\text{mln.}+9\text{mln.}+8\text{mln. } 100\text{ming}+7\text{mln } 200\text{ming}= 34 \text{ mln } 300 \text{ ming so'm}$$

Banklarning muomalaga qo'shgan pul miqdorini bank multiplikatori yordamida hisoblash mumkin (qara 16-mavzu).

Banklar faoliyatidagi asosiy yo'nalishdan tashqari (depozit-kreditlar) tijorat banki depozit kreditlari bo'yicha majburiyatlar portfelini boshqarish, muddatli va muddatli depozitlardan foydalanish o'rtasidagi muvozanatni saqlash bo'yicha keng ko'lamlı ishlarni amalga oshiradi. Qarz oluvchining

kreditga layoqatliligi yoki likvidliligini ta'minlash bo'yicha ekspertizani o'tkazadi. Bank faoliyatining muhim elementi - bu qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlarning o'z maqsadlari uchun ishlatilishini nazorat qilish, bu kreditlarni o'z vaqtida qaytarish ehtimolini oshiradi.

Umuman olganda asosiy bank xizmatlari quyidagilardir:

- **kreditlash**, ya'ni ssuda berish
- **bank investitsiyalari**, ya'ni bank tomonidan aksiya va obligatsiyalarni xarid qilish

- **konsalting** - korxonalar, firmalar, tashkilotlarning iqtisodiy faoliyatiga oid masalalar, shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi bo'yicha ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va xaridorlarga maslahat berish.

- **lizing** – ishlab chiqarish inshootlarini, mashina ishlab chiqarish, transport vositalarini shartnoma asosida ma'lum haq evaziga uzoq muddatga ijaraga berish.

**faktoring** – mijozga aylanma kapital uchun kredit berish bilan birgalikda o'tkaziladigan savdo - vositachilik harakatlarining bir turi.

- injenering – tijorat qoidalariga asoslangan injenerlik – maslahat xizmatlari: ishlab chiqarishni ta'minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish obyektlarini qurib ishga tushirish yuzasidan maslahat berish.

- trust operatsiyalari – mijozlarni kapitalini boshqarish bo'yicha operatsiyalar.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi uchun bank tizimi barqaror bo'lishi lozim. Bank tizimi barqarorligining buzilishi sabablari quyidagilardir :

- milliy valyuta kursining barqaror emasligi;
- Markaziy bankning muvaffaqiyatli bo'lmagan pul – kredit siyosati;
- oqilona bo'lmagan soliq siyosatini yurgizish;
- depozitlarni sug'urtalash tizimining mavjud emasligi.

Kredit – bank tizimining barqarorligini ta'minlash choralari quyidagilardan iborat:

- bank qonunchiligini takomillashtirib borish;
- bank rezervlarining minimal darajasini hisob stavkasining darajasiga muvofiqlashtirish;
- kredit – bank xizmati yangi turlarining sig'imini tartibga solish.

### 17.3. Tijorat banklarining rentabelligi va likvidligi

Foyda hajmi har doim ham bank faoliyati darajasi to'g'risida to'liq ma'lumot bermaydi. Bank faoliyatining pirovard natijalarini uning rentabelligi yoki foyda me'yori ko'rsatadi. Rentabellik ko'rsatkichlari foydaning xarajatlarga nisbatini anglatadi va shu ma'noda bank faoliyati natijalarining, ya'ni uning moliyaviy resurslarining samaradorligini tavsiflaydi. Rentabellik ko'rsatkichining umumiy iqtisodiy ma'nosi shundaki, ular bank tomonidan har bir sarflangan (o'zining va qarzga olingan) so'midan olinadigan foydani tavsiflashida namoyon bo'ladi. Tijorat bankining rentabellik ko'rsatkichlari quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$R = \text{Foyda} / \text{Bank aktivlari qiymati} * 100\%$$

Masalan 1 yanvar 2020 yilga bankning sof foydasi 321891079 ming so'mni, sof aktivlarning qiymati esa 10975636300 ming so'mni tashkil qildi. Binobarin aktivlarning rentabelligi yoki bankning rentabelligi 2.9% tashkil etdi.

«Likvidlik» tushunchasi moddiy boyliklarni va boshqa aktivlarni tez sotish va moliya vositalariga aylantirish qobiliyatini anglatadi. Ushbu tushunchaga ohangdosh bo'lgan «to'lov qobiliyati» bank tomonidan o'z to'lov majburiyatlarining vaqtida va to'liq bajara olish qobiliyatini bildiradi. Demak, likvidlik to'lov qobiliyatining zaruriy va majburiy sharoitidir. Ya'ni, tijorat banki likvidligi deganda — aktivlarni naqd pul sifatida ishlata olish yoki zudlik bilan ularni naqd pulga aylantirish imkoniyati yoxud qobiliyatini tushunamiz.

Likvidlik birinchidan, moliyaviy vositachi sifatida bank faoliyatining eng muhim ko'rsatkichlardan biridir, ikkinchidan esa likvidlik kredit muassasasining nafaqat joriy, balki istiqboldagi holatini ham tasniflaydi. Tijorat banklari tomonidan likvidlikka alohida e'tibor qaratilishi Markaziy bank tomonidan qo'yilgan qat'iy talablar bilan ham izohlanadi. O'rnatilgan me'yorlarning bajarilmasligi bankka nisbatan juda jiddiy sanksiyalarning qo'llanilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bank majburiyatlari real va shartli bo'lishi mumkin. Real majburiyatlar bankning balansida depozitlar, muddatli omonatlar, jalb qilingan banklararo resurslar va kreditorlar mablag'lari ko'rinishida aks ettiriladi. Balansdan tashqari majburiyatlar bank tomonidan berilgan kafolatlar, mijozlarga ochiq kredit liniyalari va boshqalar bilan ifodalanadi.

Real majburiyatlar depozitlar, banklararo kreditlar, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar ko'rinishida tegishli balans hisoblarida aks ettiriladi.

Shartli majburiyatlar bankning balans hisob varaqlarida aks ettirilgan majburiyatlari hisoblanadi. Bu muayyan holatlarda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan majburiyatlar, masalan, bank tomonidan berilgan kafolatlar.

Tijorat bankining likvidligini belgilaydigan omillar ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ichki omillar quyidagilardan iborat:

- bank aktivlarining sifati;
- jalb qilingan mablag'larning sifati;
- aktivlar va majburiyatlarning muddatlari bo'yicha mosligi;
- bankning boshqaruvi va imidji.

Kuchli kapital bazasi, o'z kapitalining mutlaq qiymatining mavjudligini anglatadi. Bank kapitalining asosiy qismi bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida turli maqsadlar uchun mo'ljallangan qonuniy va boshqa fondlardan iborat. Bankning o'z kapitali qanchalik katta bo'lsa, uning likvidligi shunchalik baland. Bankning likvidligiga ta'sir qiluvchi yana bir omil — uning aktivlarining sifati.

Bank likvidligiga ta'sir etuvchi tashqi omillar quyidagilardan iborat:

- mamlakatdagi umumiy siyosiy va iqtisodiy vaziyat;
- qimmatli qog'ozlar bozori va banklararo bozorni rivojlantirish;
- Markaziy bank tomonidan tijorat banklarni moliyalashtirish tizimini;
- Markaziy bankning nazorat funksiyalarining samaradorligi

#### **17.4. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini takomillashtirish**

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi bugungi kunda 31 ta tijorat bankidan tashkil topgan. Imtiyozli kreditlarning bank tizimi umumiy portfelidagi ulushi 60 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda. Bank sektorida davlat ustun mavqega ega — 31 ta bankdan 13 tasining kapitalida davlat ishtiroki mavjud bo'lib, ularning kapitali bank tizimi jami kapitalning 87 foizidan ko'prog'ini, aktivlari esa umumiy aktivlarning 85 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladi.

2017 yilda boshlangan bank sektorini isloh qilishning faol bosqichi valyuta bozorini liberallashtirish, bank faoliyatidagi eskirgan cheklovlarni olib tashlash va banklarni ularga xos bo'lmagan funksiyalardan ozod qilish, bank xizmatlari ommabopligini oshirishga qaratildi. 2019 yilda bank tizimida bir qator sifat o'zgarishlari amalga oshirildi. Xususan:

- bank ishining zamonaviy standart va tamoyillariga mos keluvchi yangi tahrirdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi va «O'zbekiston

Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi;

- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarining isloh qilinishi;

- davlat dasturlarini Markaziy bankning asosiy stavkasidan kam bo'lgan stavkalarda kreditlash amaliyotidan voz kechilishi va 2021 yildan kreditlashning bozor shartlariga o'tilishi;

- tadbirkorlikni rivojlantirish davlat maqsadli dasturlari doirasida kreditlashning 3 ta bank — AT Xalq banki, «Agrobank» ATB va «Mikrokreditbank» ATBda jamlanishi;

- tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan imtiyozli moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmining Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi orqali tashkil etilishi;

- bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlari hisobidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning yangi tartibi joriy etilishi;<sup>28</sup>

Jahon bankinging «Biznes yuritish» reytingidagi past ko'rsatkichlar — reytingning «Kredit olish» yo'nalishida O'zbekiston 67-o'rinni egallab turibdi. Bu esa mamlakatimiz bank tizimini rivojlantirishda qiyinchiliklar va muammolar borligini ko'rsatadi. Ana shu qiyinchiliklarni yengib o'tish va muammolarning yechimini topish asosida mamlakatimiz bank tizimini rivojlantirish samaradorligini oshirish maqsadida 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasini qabul qilindi.

Strategiya bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020-2025 yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yo'llarini belgilaydi.

Strategiyaning maqsadi zamonaviy bank tizimini shakllantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va bank xizmatlarining yangi standartlarini joriy etishga qaratilgan bank tizimida kompleks o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat.

---

<sup>28</sup> 2020 — 2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизimini ислох қилиш стратегияси. <https://lex.uz/docs/4811025>



Bank tizimi samaradorligini oshirish tadbirkorlik subyektlari va aholining arzon va sifatli moliyaviy xizmatlarga o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlash uchun iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, Strategiya doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda:

1) ilg'or xalqaro tajriba va texnologiyalarni jalb qilish hisobiga bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish;

2) korporativ boshqaruvning ilg'or standartlari va tajribasini joriy etish orqali banklarda boshqaruvni takomillashtirish, bank boshqaruvi organlari hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini hamda ular tomonidan ma'lumotlarni lozim darajada oshkor etilishini ta'minlash;

3) banklar faoliyatini tijoratlashtirishni oshirish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, shuningdek, pul-kredit siyosati instrumentlarining samaradorligini oshirish uchun subsidiyalangan kredit berishdan voz kechish;

4) tijorat banklarining jamg'armalarni investitsiyalarga safarbar qilish hamda ularni moliyaviy va iqtisodiy nuqtayi nazardan eng samarali sohalarni moliyalashtirishga yo'naltirishni ta'minlovchi moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirish;

5) strategik xorijiy investorlarni jalb qilish va moliya tizimining xalqaro moliya bozorlariga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bank faoliyatini izchil liberallashtirish va uni eng yaxshi xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtirish;

6) nobank kredit tashkilotlarini, shu jumladan ushbu segmentda raqobatni rivojlantirish, prudensial tartibga solishning tegishli normalarini rivojlantirish orqali, shuningdek, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini engillashtirish hisobiga rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Bank tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Bank tizimi necha pog'onali bo'lishi mumkin?
3. Markaziy bankning asosiy vazifalari?
4. Tijorat banklari va ularning vazifalari?
5. Tijorat banklarining rentabelligi qanday aniqlanadi?
6. Tijorat banklarining likvidligi deganda nimani tushunasiz?.

7. Bank tizimini takomillashtirish yo‘llarini aytib bering.

## 18. MOLIYA TIZIMI. DAVLAT BYUDJETI VA FISKAL SIYOSAT

### 18.1. Davlatning moliyaviy tizimi

Moliya tarixiy xarakterga ega bo‘lgan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Moliya atamasi lotincha so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib to‘lov, daromad ma’nosini anglatadi.

**Moliya deganda mablag‘larning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan fondlarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarning majmui tushuniladi.**

Moliyaviy munosabatlarda pul davlat byudjeti, sug‘urta fondlari, davlatning valyuta rezervlari, korxonalar va firmalarning pul fondlari va boshqa maxsus fondlari orqali harakat qiladi.

Pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va taqsimlash orqali ishlatishda ishtirok etuvchilar (davlat, huquqiy hamda jismoniy shaxslar) moliyaviy munosabatlarning suybektlari hisoblanadi. O‘z navbatida pul resurslari moliyaviy munosabatlarning obyektidir.

Moliyaviy munosabatlar quyidagi ko‘rinishga bo‘lishi mumkin: davlat va huquqiy shaxslar o‘rtasida; jismoniy shaxslar o‘rtasida; huquqiy va jismoniy shaxslar o‘rtasida; huquqiy shaxslar o‘rtasida.

Moliya bir qator vazifalarni bajaradi. Moliyani **taqsimlash vazifasi** milliy daromadni moddiy ishlab chiqarish ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlash orqali boshlang‘ich yoki asosiy daromadlarni yaratish, shuningdek, milliy daromadni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, mintaqalar, mulkchilik shakllari va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida taqsimlash orqali ikkilamchi yoki hosilaviy daromadlarni shakllantirishdan iborat. Taqsimlash bosqichi yangi qiymatni taqsimlash bilan boshlanadi va boshlang‘ich daromadni (ish haqi, foyda) shakllantirish bilan tugaydi. Qayta taqsimlash ko‘p bosqichli bo‘lib, unda milliy jamg‘armalar shakllanadi: davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, sug‘urta, bank mablag‘lari va korxonalar fondlari. Taqsimlash vazifasi - moliya kategoriyasini yaratilgan mahsulot qiymatini pul shaklida taqsimlashni amalga oshiruvchi obyektiv xususiyatidir. Qayta taqsimlash bosqichi taqsimlash bosqichidan farq qiladi, bu bosqichda ilgari yaratilgan daromadlar qayta taqsimlanadi.

Moliyani **qayta taqsimlash** vazifasi - yaratilgan mahsulotni jamiyat a'zolari o'rtasida qayta taqsimlash, ya'ni ikkilamchi taqsimlash. Yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlashning butun jarayoni markazlashtirilgan mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish asosida davlat moliyasi tomonidan amalga oshiriladi. Markazlashtirilgan fondlarga barcha darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg'armalar kiradi. Qayta taqsimlash jarayoni davlat moliyasiga xizmat qiladi.

Moliyani **nazorat qilish** vazifasi – pul resurslarni taqsimlash jarayonida mutanosiblikni ta'minlashdan iborat. Turli sohalar uchun mutanosibliklar turlicha, har xil sharoitlarda rivojlanadi va obyektiv tavsifga ega. Taqsimlash jarayoni nazorat obyektidir. Asosiy nazorat qilinadigan mutanosiblik bu jamg'arma va iste'mol fondlari o'rtasidagi nisbatdir. Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan, byudjet munosabatlaridan tashqari, byudjetdan tashqari moliyaviy munosabatlar ham shakllanadi. Ijtimoiy-madaniy tadbirlarni o'tkazish uchun sarflanadigan mablag'larning bir qismi byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Moliyani **tartibga solish** vazifasi. Davlat jamg'armalarini shakllantirish deganda turli darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg'armalarga tushumlarning to'planishi tushuniladi. Ushbu vazifaning bajarilishi natijasida davlat faoliyatining maqsadlarini ta'minlaydigan byudjet mablag'larini shakllantirish jarayoni sodir bo'ladi. Davlatda pul mablag'laridan (daromadlardan) foydalanish - byudjet xarajatlarini moliyalashtirishni ta'minlashdir. Moliyani tartibga solish vazifasi bajarilishi natijasida byudjetni moliyalashtirish uchun qabul qilingan xarajatlarni moliyalashtirish ta'minlanadi. Moliya tizimi yalpi milliy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash uchun takrorlanadigan jarayonning barcha subyektlari o'rtasida pul munosabatlarini tashkil etish shaklidir. Yalpi milliy mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni moliyaviy mexanizm yordamida amalga oshiriladi. **Moliya mexanizmi – taqsimot va qayta taqsimot munosabatlarining keng tizimini amalga oshirish, daromad va jamg'armalarni tashkil qilish, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirishni ta'minlovchi shakl va usullar yig'indisidan iboratdir.** Moliya mexanizmini tashkil etish, tartibga solish va rejalashtirish tizimini, xo'jalik yurituvchi subyektlar, ishchilar, davlat va mahalliy boshqaruv organlarining moliyaviy manbalarini shakllantirish va ulardan foydalanish usullarini o'z ichiga oladi.

Yalpi milliy mahsulot qiymatini taqsimlash jarayonida iqtisodiy munosabatlar subyektlari (davlat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ishchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlari) turli xil pul daromadlari fondlari jamg‘ariladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun daromad olish usullariga qarab moliya tizimini ikki sohaga ajratish mumkin: markazlashtirilgan (davlat) va markazlashtirilmagan moliya.

**Markazlashtirilgan moliya moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash yo‘li bilan yaratiladi.** Bunga quyidagilar kiradi:

- davlat byudjeti;
- byudjetdan tashqari mablag‘lar.

**Markazlashtirilmagan (xususiy) moliya - bu pul munosabatlarini tashkil etish shakli, turli korxonalar, tashkilotlar, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar, uy xo‘jaliklari va ayrim fuqarolar darajasida shakllangan mablag‘lar.** Markazlashtirilmagan moliya deganda davlat va kommunal moliya tashqarisida shakllanadigan mablag‘lar tushuniladi. Bular yuridik yoki jismoniy shaxslarga tegishli. Markazlashtirilmagan moliya tizimining asosini tashkil etadi, chunki aynan shu sohada davlat moliyasining asosiy qismi shakllanadi.

Moliyaviy tizim shuningdek quyidagi tarkibiy qisimlardan iborat:

- davlat moliyasi;
- korxonalar moliyasi;
- moliya bozori;
- xalqaro moliya.

**Davlat moliyasi** - pul munosabatlari sohasi, unda yalpi ichki mahsulot va milliy boylikning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlash, shuningdek davlatni boshqarish, mudofaa qilish hamda uning ichki ehtiyojlarini qondirish uchun davlat mablag‘larini shakllantirish va foydalanish ro‘y beradi.

**Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyasi** - korxonaning o‘z faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan. O‘z navbatida, kompaniyaning mablag‘lari mamlakat moliya tizimining asosini tashkil etadi, chunki kompaniya yalpi ichki mahsulotning eng katta ulushini yaratadi.

**Moliya bozori** - moliyaviy resurslarni sotib olish va sotish jarayonida vujudga keladigan almashuv va qayta taqsimlash munosabatlarini anglatadi. Bozor sharoitida u orqali moliya tizimi va iqtisodiy tizim muvofiqlashtiriladi. Moliya bozorining tashkiliy tuzilishining asosini fond birjasi tashkil etadi.

**Xalqaro moliya** - bu davlatlar, xalqaro tashkilotlar va institutlar o'rtasida almashish va qayta taqsimlashga oid munosabatlar bilan tavsiflanadi.

## **18.2. Davlat byudjeti tarkibi. Byudjet taqchilligi va davlat qarzi**

**Davlat byudjeti – bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir yoki hukumatning har yili tushadigan daromad va xarajatlar hisobidir.** Davlat daromadlari va xarajatlarining asosiy qismi davlat byudjeti orqali o'tadi. Mamlakat iqtisodiyotini ma'lum maqsadda rivojlantirish, turli markazlashgan jamg'armalarni va avvalo umumdavlat pul mablag'lari fondi davlat byudjetini tuzish yo'li bilan ta'minlanadi. Davlat byudjetining asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

Davlat mol-mulk va shaxsiy sug'urtasi umumdavlat moliyasining keyingi bo'g'ini hisoblanib, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar va fuqarolarga joriy qilinadi. U majburiy va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Bu maqsadlar uchun fondlar korxonalar va aholining to'lovlari hisobiga shakllanadi. Fond mablag'lari mol-mulk sug'urtasiga va shaxsiy sug'urtaga pul to'lashni ko'zda tutadi. Shaxsiy sug'urta aholining pul jamg'armalarini tashkil qilishning shakllaridan biri bo'lib ham xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotida moliya tizimida turli xil sug'urta (ijtimoiy sug'urta, tibbiy sug'urta) fondlari va byudjetdan tashqari moliya fondlari (pensiya fondi, aholini ish bilan ta'minlash fondi, tabiatni muhofaza qilish fondi, tarixiy yodgorliklarni saqlash fondi, tadbirkorlarga ko'mak berish fondi va boshqalar)ning ahamiyati ortib boradi.

Davlat byudjeti va mahalliy viloyat, tuman byudjetlari farqlanadi. Bunda davlat byudjeti umuman millat manfaatlaridan kelib chiqadigan xarajatlarga (mudofaa, tashqi iqtisodiy foyiat, iqtisodiyotni moliyalashtirish) sarf etiladi. Mahalliy organlar esa o'z hududlaridagi aholiga xizmat ko'rsatish obyektlari, hududini o'zlashtirish, obodonlashtirish, madaniyat, sog'likni saqlash ijtimoiy ta'minoti sohasida chora - tadbirlarni amalga oshirishda mahalliy byudjetdan mablag'lar ajratadilar. Bunda mablag'larning davlat va mahalliy byudjetlarga borib tushishida ma'lum bir nisbat bo'lishi lozimdir.

Davlat byudjeti daromadlar va xarajatlar qismidan iborat, ya'ni bir tomonida byudjetga kelib tushadigan daromadlar tarkibi va ularning manbalari,

ikkinchi tomonida esa asosiy xarajatlarning tarkibi va miqdori o'z ifodasini topgan qismlardir.

Mamlakat davlat byudjetining daromadlar qismini asosan soliqlar, davlat ijtimoiy sug'urta manbalari, eksportdan va importdan olinadigan daromadlar, boj va xirojlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi:

### **Daromadlar jami**

Qo'shilgan qiymatga soliqlar

Respublikadan tashqariga olib chiqib ketiladigan xomashyo resurslari va mahsulotlarga solinadigan soliqlar

Aksizlar

Daromadga soliq

Aholiga sotiladigan davlat zayomlari

Aholidan olinadigan davlat soliqlari

### **Xarajatlar – jami**

Xalq xo'jaligiga ijtimoiy iqtisodiy tadbirlarga jami:

undan

maorif, madaniyat fanga, sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiyaga, ishtimoiy ta'minotga, ko'p bolali va yolg'iz onalarga nafaqa, xalqning turmush darajasini oshirish

davlat organlari va boshqaruv

Davlat byudjetining bajarilishi uch xil bo'lishi mumkin:

- balanslashtirilgan (daromad = xarajat);
- defitsitli (daromad < xarajat);
- profetsitli (daromad > xarajat).

Davlat byudjetining daromatlari va xarajatlari miqdori tengligi taqozo qilinadi. **Lekin ko'pchilik hollarda davlat byudjeti xarajatlarning miqdori daromadlar miqdoridan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida byudjet taqchilligi ro'y beradi.** Bu holning sabablari ko'p bo'lib, ularning ichida, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o'rin tutadi, ya'ni tovarlar bilan ta'minlanmagan pullarni muomalaga chiqarish, asoslanmagan (puflangan) ijtimoiy sohalaridagi dasturlarga sarflarni oshirish, shuningdek iqtisodiyotdagi tanazzul ijtimoiy ishlab chiqarishda me'yoriy xarajatlarning o'sishi va hokazo.

**Davlat qarzi deganda ma'lum vaqt davrida byudjet kamomadlarining yig'indisi tushuniladi.** Davlat qarzi tashqi va ichki qarzga bo'linadi. Davlat tomonidan tashqi davlatlar, tashkilot va alohida shaxslardan olgan qarzi tashqi qarzni tashkil qiladi. Davlatning o'z xalqidan qarzi esa ichki qarzni tashkil qiladi.

Byudjet kamomadi bilan davlat qarzi bir-biriga bog'liq, chunki u yoki bu miqdordagi davlat byudjetining kamomadi miqdorining qanchalik xavfliligini aniqlash uchun avvalo davlat qarzining miqdorini tahlil etmoq zarurdir. Hozirgi sharoitda deyarli barcha mamlakatlarga davlat qarzlarning ortishi kuzatilmoqda.

O'rnatilgan xalqaro standartlarga ko'ra byudjet taqchilligi YAIMning 5% darajasidan oshmasligi lozim. Byudjet taqchilligi asosan davlat qimmatli qog'ozlarini sotish, nobyudjet fondlari (sug'urta fondi, ishsizlik bo'yicha sug'urtalash fondi, pensiya fondi)dan qarz olish ko'rinishidagi davlatning ichki va tashqi qarzlari hisobiga qoplanadi.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash)ning muhim ko'rinishlaridan biri davlat krediti hisoblanadi. Davlat krediti deganda, davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga tushadigan barcha moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi.

Moliyaviy resurslarni davlat tomonidan qarzga olishning asosiy shakli – bu davlat qarz majburiyatlari (zayomlari)ni chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat kompaniyalarining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qiladi.

Davlat o'z majburiyatlarini nafaqat xususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga pulning tovar hajmining ko'payishi bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha miqdorini chiqaradi. Davlat qarzlarning to'xtovsiz ko'payib borishi, milliy daromadni foiz to'lovlari shaklida, tobora ko'proq qayta taqsimlanishga olib keladi.

Katta byudjet taqchilligi va davlat majburiyatlari bo'yicha foiz to'lovlari o'sish sharoitida, davlat qarzlarni to'lash vaqtini imkon darajada cho'zishga harakat qiladi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanadi. Jumladan davlat o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini o'rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini, ancha yuqori foiz bo'yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olishi mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrda samara berishi va vaqtincha

davlatning moliyaviy ahvolini yengillashtirishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzlar umumiy miqdorining o'sishi bilan bog'liq.

Jahon amaliyotida muomaladagi pul miqdori belgilangan mamlakatlarda byudjet kamomadini qoplashning quyidagi usullari mavjud. Bular davlat zayomlari va soliq olishni ko'paytirish, ya'ni soliqlar stavkaasini ko'tarish. Shuni xam ta'kidlash joizki, kamomadsiz byudjet iqtisodiyotning sog'lomligidan dalolat bermaydi. Shuning uchun moliya tizimi ichida qanday jarayonlar ro'y berayotganligini, takror ishlab chiqarish siklida qanday o'zgarishlarni byudjet o'zida aks ettirishini tasavvur etish va bilish lozim.

### **18.3. Moliya siyosati tamoyillari. Davlatning byudjet siyosati konsepsiyalari**

**Davlatning moliyaviy siyosati (inglizcha *The financial policy of the state*) - davlatning o'z vazifalarini amalga oshirish uchun moliyani tashkil etish va undan foydalanishga oid siyosati.**

Davlat va moliya bozorining o'zaro ta'siri ko'p qirrali. Davlat qarz beruvchi va qarz oluvchi sifatida ish yuritishi, bozorning ishlash qoidalarini o'rnatishi va unda kundalik nazoratni amalga oshirishi, bozor orqali rasmiy pul siyosati va keng iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishi mumkin. Shuningdek, davlat moliya bozori rivojlanishini rag'batlantirishi va himoya qilishi mumkin (masalan, bir qator mamlakatlarda fond birjalari davlat institutlari hisoblanadi). Milliy iqtisodiyotning barqaror ishlashi ko'p jihatdan fond bozori holatiga bog'liq. Ushbu siyosat bozor va uning tarkibiy qismlariga tashkiliy to'liqlik, operatsiyalarni standartlashtirish va qat'iy nazorat qilish orqali amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy siyosatini ishlab chiqishda moliyaviy siyosatning muayyan tamoyillarini hisobga olinishi kerak. Davlatning moliyaviy siyosati tamoyillari ma'lum davrda o'zgarishi mumkin.

Moliyaviy siyosatning **birinchi tamoyili** ishlab chiqarishni rivojlantirishga, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga va bandlik darajasini oshirishga doimiy yordam berishdan iborat.

Davlatning moliyaviy siyosatining **ikkinchi tamoyili** ijtimoiy kafolatlar berish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish hisoblanadi. Aniqroq qilib aytganda, ushbu tamoyilni fuqarolarning ijtimoiy kafolatlari va boshqa ehtiyojlarini qondirish maqsadida moliyaviy resurslarni



jalb qilish va ulardan foydalanish shakllari va usullarini izlash va doimiy takomillashtirishdan iborat.

Moliyaviy siyosatning **uchinchi tamoyili** - moliyaviy siyosat vositasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ta'sir etish, fuqarolarning sog'lig'iga tahdid soladigan texnologiyalarni taqiqlash. Bir tomondan, davlat ishlab chiqarish tuzilmalaridan tabiiy muhitni yangilash xarajatlarini qoplashni talab qiladi, ikkinchi tomondan, moliyaviy manbalardan foydalangan holda zararli ishlab chiqarishlarni yopish va ilg'or resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga harakat qiladi.

Shuning uchun davlat o'z byudjet siyosatini ishlab chiqadi. Jahon tajribasida byudjet siyosatini ishlab chiqishning uch konsepsiyasi mavjud:

- har yilgi asosda muvoztlantiruvchi byudjet ;
- siklik muvoztlantiruvchi byudjet ;
- funksional moliyalashtirish ;

**Birinchi konsepsiyaning asosini davlat byudjetini har yili muvozanatlashtirish lozim, degan qoida tashkil etadi.** Ammo bu masala chuqurroq tadqiq etilsa, unda bu qoida asosida tuzilgan byudjet iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan davlat fiskal siyosatining samaradorligiga salbiy ta'sir etishini ko'rish mumkin. Masalan, inflyatsiya sharoitida aholining daromadi oshib boradi, bu esa avtomatik ravishda soliq tushumlarini ko'paytiradi, hukumat daromadlarni xarajatlardan ortib ketishining oldini olishga harakat qiladi. Unda u soliq stavkasini pasaytirish yoki davlat xarajatlarini ko'paytirish yoki ularning ikkalasidan foydalanishi kerak bo'ladi. Buning natijasida inflyatsiyaning kuchayishi ro'y beradi.

**Ikkinchi konsepsiyaning asosida byudjetni iqtisodiy sikl davrida muvozanatlashtirish lozim degan qoida yotadi.** Bunda davlat bir vaqtning o'zida siklga qarshi choralarni amalga oshiradi va byudjetni muvozanatlashtirishga harakat qiladi. Bunda tanazzulga qarshi turish chorasi deb hukumat soliqlarni pasaytiradi, xarajatlarni oshiradi va ongli ravishda byudjet kamomadini yuzaga keltiradi. Yuksalish davrida esa hukumat soliqlarni ko'taradi va davlat xarajatlarini kamaytiradi. Buning natijasida yuzaga kelgan byudjetning profitsitini tanazzul vaqtidagi kamomadini qoplashga ishlatadi. Bunda eng asosiy muommo shundan iboratki, iqtisodiy faoliyat ko'tarilish va tanazzul vaqt davomiyligi nuqtayi nazaridan farq qiladi. Masalan, tanazzul davri ikki yil, yuksalish davri esa bir yil bo'lishi mumkin. Unda ikki yilda ongli

ravishda yuzaga keltirilgan kamomad miqdorini bir yildagi byudjetning ijobiy saldo miqdori bilan qoplab bo'lmaydi.

**Uchinchi konsepsiya byudjet emas, balki iqtisodiyot muvozanatlashtirishi kerak degan qoidaga asoslanadi.** Bunda makroiqtisodiy barqarorlik davrida byudjet ijobiy va barqaror saldogaga ega bo'lishi mumkin degan fikr ilgari suriladi. Zero, iqtisodiy o'sish sharoitida byudjetga soliqlar tushumi avtomatik ravishda ko'payadi, makroiqtisodiy barqarorlik esa buni rag'batlantiradi, demak byudjet kamomadi avtomatik ravishda o'z-o'zidan yo'q bo'ladi. Undan tashqari davlatning soliqlarni belgilash huquqi va pullarni vujudga keltira olish sharoitida uning byudjet kamomadini moliyalashtirish imkoniyatlari amaliy jihatdan cheksizdir.

Byudjetni tartiblashning strategiyasi, undan keyin taklif iqtisodiyoti (XX-asrning 80-90 yil) nazariyasi, rivojlangan mamlakatlarda funksional moliya konsepsiyasini amaliyotda qo'llanuvchi iqtisodiy tartiblashning modeliga aylantirdi.

#### **18.4. Soliq tizimi**

**Soliq - bu davlatning o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirish maqsadida korxonalar va tashkilotlaridan, aholidan undiriladigan pul mablag'laridir.**

Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Milliy iqtisodiyotda soliqlar uchta muhim vazifani bajaradi:

- davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);
- ijtimoiy tengsizlikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);
- iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

**Soliqlarning fiskal vazifasi** orqali soliqlarning asosiy ijtimoiy maqsadi amalga oshiriladi - davlatning o'z vazifalarini (mudofa, ijtimoiy, ekologik va boshqalarni) amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va davlat byudjet tizimida va byudjetdan tashqari fondlarda to'plangan moliyaviy resurslarini shakllantirish.

**Soliqlarni taqsimlash vazifasi** (yoki qayta taqsimlash) - soliqlarning (ijtimoiy) vazifasi - bu aholining turli toifalari o'rtasida ijtimoiy daromadlarni qayta taqsimlash. Bu vazifaning ma'nosi shundaki, aholining kuchliroq (daromadi katta) toifalariga soliq yukini yuklash orqali fuqarolarning zaif va himoyalangan toifalari foydasiga mablag'larni o'tkazish. Buning natijasida kimningdir daromadining bir qismi olib qo'yiladi va boshqalarga o'tkaziladi. Soliqlarni taqsimlash vazifasini amalga oshirishga misol tariqasida,

tovarlarning ayrim turlariga, birinchi navbatda hashamatli tovarlarga belgilangan aksizlar, shuningdek, progressiv soliqqa tortish mexanizmlarini keltirish mumkin.

Inqirozga qarshi tartibga solishning zamonaviy sharoitida, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sirida **solliqlarni tartibga solish vazifasi** alohida ahamiyatga ega. Ushbu vazifa vaqt jihatidan soliq to'lovlarini yuridik va jismoniy shaxslar, iqtisodiyotning sohalari va tarmoqlari, umuman davlat va uning hududiy subyektlari o'rtasida taqsimlash bilan bog'liqdir. Ushbu vazifa aholining turli guruhlarini daromadlarini tartibga solish imkonini beradi. Soliqni tartibga solish imtiyozlar tizimi va soliq to'lovlari va yig'implari tizimi orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi davrda umumiy tendensiya bo'lgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda soliq hajmining oshib borishiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

1. Aholi sonining o'sishi.
2. Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya.
3. Atrof-muhitning ifloslanishi.
4. Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.
5. Milliy mudofaa, davlat xavfsizligini ta'minlash xarajatlari hajmining o'sishi.

**Soliq tizimi deganda davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar turi, majmui, ularni yig'ib olish turlari va usullarini tashkil etish tushuniladi.** Unga soliq turlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi, soliq undiriladigan daromadlarini aniqlash kabilar kiradi.

Soliq tizimi davlatning qabul qilingan qonunlariga asoslanadi, unda soliqlarning turlari va ularni undirish usullari, ya'ni soliqlarning konkret elementlari aniqlanadi. Ularga quyidagilar kiradi.

**Soliq subyekti** – qonun bo'yicha soliq to'lovchi shaxs. Bularga korxonalar birlashma, tashkilotlar va fuqarolar kiradi.

**Soliq obyekt** – soliq olinadigan narsa (buyum). Masalan daromad, mulk, tovar, yer maydoni va boshqalar.

**Soliq manbai** soliq subyektining daromadi, masalan ish haqi, foyda va boshqalar.

**Soliq imtiyozlari deganda joriy qonunlar bo'yicha soliqdan to'liq va qisman ozod etilishidir.** Eng muhim soliq imtiyozlari- bu soliq olinmaydigan daromad minimumi yoki obyekt qiymatidir. U obyektning soliqqa tortilmaydigan eng kam qismidir. Soliq stavkasi – bu soliq solishning

ulush(kvota) birligidir. Amaliyotda soliq imtiyozlarining quyidagi turlari keng tarqalgan:

- obyektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;
- soliq to'lashdan alohida shaxs yoki ma'lum guruhlarni (masalan, urush faxriylarini) ozod qilish;
- soliq darajasi (stavkasi)ni pasaytirish;
- soliq olinadigan summadan chegirish;
- soliqli kredit (soliq olishni kechiktirish yoki soliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish).

Soliq stavkalarini quyidagi guruhlarga bo'lishi mumkun.

**Proposional stavka** – soliq olish obyektiga yagona foizda belgilanadi. Masalan, mol mulk solig'iga yiliga 1% stavka qilib belgilanadi.

**Progressiv stavka** – obyekt qiymati o'sishi bilan stavka o'sib boradi.

**Regressiv stavka**- daromad qancha pasaya borsa, soliq ko'paya boradi. Bu progressiv stavkaning teskarisidir. Qo'shilgan qiymat solig'ida regressivlik kuchaya boradi, chunki kam qiymat ishlab chiqargan ko'p mahsulot ishlab chiqarganga qaraganda nisbatan ko'p soliq to'laydi.

Soliq stavkasini belgilash bir qator tamoyillarga asoslanadi.

**1. Naflilik tamoyili** – turli shaxslardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlicha soliq undirilishi kerakligini bildiradi.

Soliq summasining (R) soliq olinadigan summaga (D) nisbatining foizdagi ifodasi soliq stavkasi ( $R^{\wedge}$ ) deyiladi:

$$R^{\wedge} = \frac{R}{D} \times 100\%.$$

**2. To'lovga layoqatlilik tamoyili** – soliq miqdori soliq to'lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur. Boshqacha aytganda, soliq solish daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilishi zarur.

**3. Adolatlilik tamoyili** – daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo'yicha teng bo'lgan kishilar teng miqdorda soliq to'lashi zarur.

Soliq tizimi har xil turdagi soliqlarni o'z ichiga oladi ular ma'lum bir belgi asosida turlarga bo'lingandir. Soliqlarning asosiy katta guruhini to'g'ri va egri soliqlar tashkil etadi.

To'g'ri soliqlar to'g'ridan to'g'ri ochiq daromad yoki mulklarga solinadi. Bunday soliqlarni to'lovchilar ham, undirib oluvchilar ham oldindan biladi.


O‘zbekistonda belgilangan to‘g‘ri soliqlarga korxonalar va tashkilotlardan olinadigan daromat solig‘i, mol mulk solig‘i, aholidan olinadigan daromad solig‘i va shu kabilar kiradi.

Egri soliqlar davlat tomonidan xaridorgir tovarlar narxiga ustama qilib belgilanadi, tabiiyki bu tovarning narxini oshiradi. Egri soliqlarni tovar ite‘molchisi o‘zi bilmagan holda to‘laydi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘ini egri soliqlarga misol qilib ko‘rsatish mumkin. Hozirda rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy sug‘urta fondiga badal to‘lash keng yoyilgan. Mohiyatan bu badal aniq maqsadga ega soliq hisoblanadi uni korxonalar va xodimlari to‘laydilar.

Byujetga kelib tushishi nuqtayi nazaridan soliqlar davlat soliqlari va mahalliy soliqlarga bo‘linadi. Davlat soliqlari davlat byudjetini asosiy manbaini tashkil etadi. Ulardan davlat byudjetiga tushadi. Mahalliy soliqlar esa faqat mahalliy byudjedlariga to‘liq tushadi. Bunday soliqlarga qurilish solig‘i, yer solig‘i, transport egalari olinadigan soliqlar va boshqalar kiradi.

Davlat byudjetiga tushumlar va soliq stavkasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni **“Laffer egri chizig‘i”** aks ettiradi. oldi (18.1-rasm). Grafik tik o‘qida soliq stavkasi ( $R$ ), yotiq o‘qida - davlat byudjetiga tushumlar ( $V$ ) aks etgan. Soliq stavkasining optimal miqdori ( $R_1$ ) davlat byudjetiga eng yuqori tushum ( $V_1$ ) ni ta‘minlaydi.

Soliq tushumlari optimal soliq stavkasida boshida oshib boradi, keyin esa kamayadi. Soliqlar yanada oshirilganda tadbirkorlarning ishlashga qiziqishi susayadi, 100 foizli soliq olishda davlat daromadi nolga teng bo‘ladi, chunki hech kim tekinga ishlashni xohlamaydi. Boshqacha aytganda, uzoq muddatli istiqbolda haddan tashqari yuqori belgilangan soliqlarni pasaytirish jamg‘armalar, investitsiyalar, bandlikning ortishi orqali soliq undiriladigan yalpi daromad hajmining o‘shirishini ta‘minlaydi.



18.1-rasm. Laffer egri chizig‘i

Natijada soliq tushumlari summasi ko'payadi, davlat daromadlari hajmi o'sadi, taqchilik kamayadi va inflyatsiyaning pasayishi ro'y beradi. Lekin o'z-o'zidan tushunarliki, Laffer samarasi faqat erkin bozor mexanizmi me'yorida amal qilgan holdagina namoyon bo'ladi. Shunday qilib, soliq tizimi mamlakatning iqtisodiy ahvoli, ma'lum konkret davrida oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadi. Bu esa soliq siyosatini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. **Soliq siyosati deganda davlatning soliq siyosatidagi chora tadbirlari tushuniladi.** Ushbu masalani tushunish uchun davlatning fiskal siyosatini o'rganish kerak.

### **18.5. Davlatning fiskal ( moliya – byudjet ) siyosati**

**Fiskal siyosati - bu davlat byudjeti xarajatlari yoki daromadlari miqdorini o'zgartirish orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish vositasida uni tartibga solish bo'yicha davlat siyosati.**

Qisqa muddatda biznes sikllaridagi tebranishlarni kamaytirish va iqtisodiy tizimning barqarorligini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotga davlat aralashuvi zarur. Soliq, transfertlar va davlat tomonidan tovarlar va xizmatlarni sotib olish soliq-byudjet siyosatining asosiy vositalari hisoblanadi.

Davlatning soliq-byudjet siyosatini olib borishning asosiy maqsadlaridan biri bu yalpi talab darajasiga mos ravishda yalpi ichki mahsulot hajmini moslashtirish. Bundan so'ng davlat makroiqtisodiy muvozanatni saqlashi kerak, bunga esa iqtisodiyotdagi barcha resurslardan samarali foydalanilgandagina erishish mumkin. Natijada, davlat byudjeti parametrlarini to'g'rilash bilan birga, narxlarning umumiy darajasi ham barqarorlashadi.

Soliq stavkasini o'zgartirish davlatning fiskal siyosatining asosiy dastagi hisoblanadi. Jahon tajribasida soliqlar va davlat xarajatlari yordamida iqtisodiyotni rivojlantirishning samarali usullari mavjud.

Fiskal siyosat diskretion va avtomatik siyosatdan tashkil topadi. **Diskretion fiskal siyosati deganda, milliy ishlab chiqarish hajmiga, bandlikka, inflyatsiyaga ta'sir etish maqsadida, ongli ravishda davlat tomonidan soliq solish va davlat xarajatlarini tartibga solish tushuniladi.**

Unga muvofiq tanazzul sharoitida davlat sarflari oshiriladi, soliq stavkalari pasaytiriladi, davlat sarflarining oshishi soliqlarning pasayishi bilan qo'shib olib boriladi. Bunday siyosat esa kamomadli moliyalashtirishga, ishlab chiqarishning kamayishiga olib keladi.

Ortiqcha talab natijasida yuzaga kelgan inflyatsiya sharoitida diskretion siyosat sarflarini kamaytirish, soliqlar miqdorini oshirishni davlat sarflarini kamaytirish bilan qo‘shib olib borish nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjetining ijobiy saldogga ega bo‘lishiga olib keladi. Shunga etibor bermoq zarurki, yuqorida biz fiskal siyosatini sxematik tarzda keltirdik va u sizga o‘ta sodda bo‘lib ko‘ringan bo‘lishi mumkin, ammo real hayotda iqtisodiyotga turli omillar ta’sir etadi, shuning uchun optimal fiskal siyosatini ishlab chiqishi juda qiyindir.

**Umumiy fiskal siyosatining ikkinchi tartkibiy qismi mavjud - bu avtomatik fiskal siyosat. Avtomatik deganda iqtisodiy ahvolning o‘zgarishiga tezda javob qaytaradigan mexanzim tushuniladi. Bunda davlat hech qanday choralar ko‘rmaydi.** Unga birinchidan, soliq tushumlarining o‘zgarishi kiradi. Soliqlar miqdori esa daromadlar miqdoriga bog‘liq. Shuning uchun YaMMning o‘sishi sharoitida, ya’ni iqtisodiyotning yuksalishi sharoitida soliq tushumlari avtomatik tarzda oshib boradi, bu esa aholining xarid qobiliyatini pasaytiradi va iqtisodiy o‘shishni sekinlashtiradi.

Demak, progressiv soliq tizimi inflyatsiyaning o‘shish sharoitida potensial sotib olish qobiliyatini pasaytiradi va aksincha, iqtisodiy o‘shish sur‘atlari pasaygan sharoitda xarid qobiliyatining minimal bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan zarur hisoblanadi. Undan tashqari, ushbu siyosat iqtisodiy o‘shish va soliq tushumining ko‘payishi sharoitida davlat byudjeti kamomadining qisqarishiga, hatto ijobiy saldogga olib kelishi mumkin, bu esa inflyatsiya jarayonlarining kamayishiga yordam beradi. Iqtisodiy tanazzul sharoitida soliq tushumlarining avtomatik tarzda kamayishi byudjet kamomdini chaqiradi, bu esa tanazzuldan o‘tib olishga ijobiy ta’sir etishi mumkun.

### **Mavzuni qaytarish uchun savollar.**

1. Pul munosabatlari va moliyaviy munosabatlarni taqqoslang?
2. Moliya tizimining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Soliqning asosiy turlari qaysilar ?
4. Byudjet kamomadining asosiy sabablarini ayting va izohlab bering ?
5. Byudjet siyosatining asosiy konsepsiyalarini sanab o‘ting va izohlang ?
6. Byudjet siyosatini ishlab chiqishda nimalarga alohida e’tibor berish lozim?
7. Moliya siyosatining asosiy tamoyillarini ayting va izohlab bering.
8. Diskriditsion va avtomatik soliq siyosatining mohiyati nimadan iborat?





## 19. ISHSIZLIK

### 19.1. Bandlik, ishsizlik va to'liq bandlik tushunchalari. Bandlikning o'zgarish shakli va darajasi

Ishchi kuchi ishlab chiqarish jarayonining muhim va yetakchi omillaridan biridir. Ishlab chiqarish omillari ichida ishchi kuchi faol omil hisoblanadi. Chunki boshqa barcha omillar ishchi kuchi tomonidan yaratiladi va harakatga keltiriladi.

**Bandlik - aholini ish bilan ta'minlash, mehnatga layoqatli aholining mehnat bilan mashg'ul bo'lishini ta'minlash maqsadida aholining ish bilan ta'minlanganligi; fuqarolarning qonunchilikka zid bo'lmagan, ularning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.** Bandlikning quyidagi turlari mavjud: vaqtincha to'liq bo'lmagan bandlik, ikkilamchi bandlik, doimiy bandlik, to'liq bo'lmagan bandlik, doimiy bo'lmagan bandlik, xufyona bandlik, shartli bandlik, qisman bandlik. Bandlik fuqarolarning mehnat munosabatlariga kirishi bilan ham, mustaqil mehnat faoliyati bilan (o'z-o'zini ish bilan ta'minlash) ham ta'minlanishi mumkin. Mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishlamaydigan iqtisodiy faol aholi ishsizlar deb tasniflanadi.

**Ishsizlik - mamlakatda iqtisodiy faol aholining bir qismini tashkil etadigan, ishlashga qodir va tayyor, ammo ish topa olmaydigan odamlarning mavjudligi.**

Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) metodologiyasiga ko'ra, ishsizlar ma'lum vaqt davomida ish joyi bo'lmagan, mehnatga layoqatli va ish topishga harakat qilishlari mumkin bo'lgan, ammo uni topa olmaydigan mehnatga layoqatli yoshdagi odamlardir. Ish bilan bandlik deb nafaqat yollanma ish, balki o'z-o'zini ish bilan ta'minlashni ham hisoblash mumkin. Ishsizlik bo'yicha ma'lumotlarning xalqaro miqyosda taqqoslanishini ta'minlash uchun XMT 15 yoshdan oshgan barcha odamlarni mehnatga layoqatli deb hisoblashni tavsiya qiladi. Shu bilan birga, har bir mamlakat mehnat qobiliyatining yosh mezonlarini mustaqil ravishda tanlash huquqiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Masalan, mamlakatlar yosh chegarasi belgilanishi mumkin. Xususan, O'zbekistonda ishsizlar — o'n olti yoshdan to pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan yoshdagi, haq to'lanadigan ishga yoki daromad keltiradigan mashg'ulotga ega bo'lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo'lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta

tayyorlashdan o'tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli shaxslar (ta'lim muassasalarida ta'lim olayotganlar bundan mustasno)<sup>29</sup>.

XMT metodologiyasiga ko'ra, mehnatga layoqatli (15 yoshdan katta), birmuncha vaqt ishsiz va o'z-o'zini ish bilan ta'minlamagan, ishlash yoki shaxsiy ish bilan shug'ullanish qobiliyatiga ega, ish topishga harakat qiladigan odam ishsiz deb hisoblanadi.

Shuningdek ishsizlar qatoriga,

- ishizlamayotgan, biroq kelajakda izlashga kirishishga tayyorlanayotganlar;

- kasb-hunarga o'qitish yoki qayta tayyorlash bilan band bo'lib, keyingi uch oy davomida ishlashni boshlashni rejalashtirayotganlar;

- ishlash uchun xorijiy mamlakatga ko'chib ketmoqchi bo'lgan, ammo ko'chib o'tishni kutayotgan odamlar ham kiritiladi.

**To'liq bandlik - bu iqtisodiyot mavjud bo'lgan barcha yaroqli ishlab chiqarish resurslaridan foydalanadigan, ishlashga tayyor va qodir bo'lganlarni ish bilan ta'minlaydigan holat. Shunday qilib, makroiqtisodiyot nuqtayi nazaridan to'liq bandlik ishsizlik o'zining tabiiy darajasidan oshmaydigan vaziyatda erishiladi.**<sup>30</sup> Bu mamlakatning barcha iqtisodiy resurslaridan va birinchi navbatda, ishchi kuchidan to'liq foydalaniladigan vaziyat. Keyns davridan boshlab hukumatlar odatda to'liq bandlikni ta'minlash iqtisodiy siyosatning pirovard maqsadi deb bilishadi. Bunday vaziyat real hayotda, hatto mehnat bozoridagi talabdan taklifning sezilarli darajada oshib ketishi sharoitida ham yuzaga kelishi ehtimoli juda kichik. To'liq bandlik ishsizlikning yo'qligini anglatadi. Biroq real hayotda to'liq bandlik deganda, ixtiyoriy va strukturaviy ishsizlik mavjud bo'lgan, ammo siklik ishsizlik bo'lmagan bandlik darajasi tushuniladi. Suningdek, iqtisodiyot tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun yaroqli barcha mavjud resurslardan foydalansh ta'minlanadi.

Mikroiqtisodiyot nuqtayi nazaridan to'liq bandlik - bu yakka tartibdagi xo'jalik yurituvchi subyektdagi vaziyat, bu bo'sh ish o'rinlarining to'liq yo'qligini, shuningdek, maksimal darajada ishlab chiqarish va foyda olishga

<sup>29</sup> Ўзбекистон Республикаси меҳнат кодекси <https://www.lex.uz/acts/142859>

<sup>30</sup> Макконнелл К. Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. — М.: Республика, 1992. — Т. 1. — С. 158—159. — 399 с.

erishish uchun xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy resurslardan to‘liq foydalanishini nazarda tutadi. Shunga o‘xshash vaziyat har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektda, hatto mehnat bozorida talabdan taklif sezilarli darajada oshib ketgan sharoitda ham paydo bo‘lishi ehtimoli juda katta.

Bandlik muammosi barcha iqtisodiy maktablar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Ular tomonidan bandlik va ishsizlik masalalariga turli ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning har biri jahon iqtisodiyotidagi iqtisodiy taraqqiyot davrlarining muayyan bir bosqichiga to‘g‘ri keladi. Ushbu nazariyalardan biri bandlikning klassik nazariyasidir. Unda aholining to‘liq bandligiga bozorda raqobat mavjudligining zaruriy sharti sifatida qaraladi, bu esa yalpi talabning yalpi taklifga mos kelishiga asoslanadi. Klassik maktab namoyondalari bozorga o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tizim sifatida qaraganlar, ya’ni o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizm deb hisoblaganlar. Shu bois iqtisodiyotda majburiy ishsizlik mavjud emas, deb hisoblaganlar.

Bandlik nazariyasining yangi konsepsiyasini J.M.Keyns o‘zining 1936 yilda nashr etgan “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asarida e’lon qildi. Unda bandlik nazariyasiga yangi konseptual yondashuv ishlab chiqilgan. Uning fikricha, erkin raqobat bozorni o‘zini o‘zi tartibga soluvchi emas. Bozor mexanizmining o‘zi muvozanatni, to‘liq bandlikni ta’minlamaydi. U yangi sharoitda klassik nazariyani butunlay rad etadi va iqtisodiyotning muvozanatliligiga davlatning tartibga soluvchi roli orqali erishilishini asoslab beradi. Keynsning umumiy bandlik nazariyasi quyidagilarga asoslanadi: ish bilan bandlik darajasining oshishi tufayli milliy daromad va, demak, iste’mol oshadi, ammo iste’mol daromadga nisbatan sekinroq oshadi, chunki daromad ortishi bilan «jamg‘arishga intilish» kuchayadi.

**J.M. Keynsning ta’kidlashicha, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining to‘liq bandligi vujudga kelishi mutlaq tasodif emas, shu sababli kapitalistik iqtisodiyot o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tizim bo‘lishi mumkin emas, ushbu soha davlat tomonidan doimiy tartibga solishni talab qiladi. Shu bilan birga, u ishsizlik va inflyatsiyaning aholining mablag‘lari va tadbirkorlarning investitsiyalarini rag‘batlantirish orqali bozor iqtisodiyotining davlat aralashuvi bilan puchga chiqadigan tabiiy xususiyati sifatida ko‘rdi. Hozirgi davrda iqtisodiyot nazariyasida bandlik masalasida yangi klassik maktab yo‘nalishi**

namoyondalari tarafdorlari oshib bormoqda. Ularning fikricha, ishsizlikning tabiiy darajasi mavjud bo'lishi shart, undan qutilish mumkin emas

---

## 19.2. Ishsizlik va uning turlari.

Mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifning to'liq muvozanati bo'lmasligi surunkali xarakterga ega. **Ishsizlik - bu iqtisodiy faol aholining bir qismi ishsiz bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir.** Ishsizlik muammosining keskinligi bir qator sabablarga ko'ra vujudga keladi:

- inson - bu maxsus turdagi iqtisodiy resurs. Agar u hozirda iqtisodiyot tomonidan talab qilinmasa, uni zaxiralab "yaxshi paytgacha muzlatgichga qo'yish" mumkin emas. Yo'qotilgan ish vaqtini tiklab bo'lmaydi va bugungi kunda ishsizlik sababli ishlab chiqarilmagan ne'matlar miqdorini qoplab bo'lmaydi;

- agar odam ishlamasa ham, u ne'matlarni iste'mol qilishni to'xtata olmaydi, u o'zini va oilasini boqishi kerak. Shu sababli, jamiyat ishsizlarni qashshoqlikdan xalos etish vositalarini izlashga majbur. Ammo buning uchun ajratilgan mablag'lar (ishsizlik bo'yicha nafaqalar) yangi tovarlarni ishlab chiqarish uchun mukofotga (to'lov) aylanmaydi, demak ular mamlakatning barcha fuqarolari farovonligini yanada oshirishga olib kelmaydi.

- ishsizlikning o'sishi ichki bozorda tovarlarga bo'lgan talabni pasaytiradi. Ish haqi olmaydigan odamlar faqat hayot kechirish uchun zarur bo'lgan vositalarni minimumi bilan kifoyalanishga majbur bo'ladilar. Natijada, bu mamlakat ichki bozorida tovarlarni sotishni qiyinlashtiradi. Bu bilan, ishsizlikning o'sishi mamlakatdagi iqtisodiy muammolarni yanada kuchaytiradi va bandlikni yanada qisqartirish uchun turtki bo'lib xizmat qiladi. Ishsizlikning iqtisodiy sabablari:

-xaridor (ish beruvchi) tomonidan ishchi kuchi narxining (ish haqining) past belgilanishi. Bunday holda, sotuvchi (yollangan ishchi) o'z mehnatini arzimagan pulga sotishdan bosh tortadi va boshqa xaridor qidiradi. Undan tashqari, insonlar har doim yashash joylarini o'zgartiradilar, bir ishdan bo'shab ikkinchi ishga o'tadilar, ish qidiradilar. Natijada muayyan vaqt davomida ular ishsiz qolishi va ishsizlar toifasiga kirishlari mumkin.

2. Ishchi kuchi egasi yoki kasaba uyushmasi tomonidan mehnatning yuqori narxini, ya'ni ish haqini talab qilinishi. Xaridorning ya'ni ish

beruvchining mehnat bozoridagi xulq-atvori ishchi kuchini sotib olish xarajatlari va uni ma'lum vaqt davomida ishlatishdan oladigan daromadni ishchi o'rnini bosadigan mashinani sotib olish uchun sarflanadigan xarajatlar bilan o'zaro bog'liqligi va unga ushbu mashinani olib keladigan natija bilan belgilanadi. Agar bunday taqqoslash mashinaning foydasiga bo'lsa, u holda ishchi kuchini sotib olinmaydi va mashinaga ustunlik beriladi. Insonning ishchi kuchi sotilmaydi, o'zi esa ishsizlar qatorida bo'ladi. Zamonaviy sharoitda ilmiy-texnik taraqqiyot va ishlab chiqarishning texnik tuzilmasining o'sishi ishsizlik o'sishining sabablaridan biridir. Ishlab chiqarishda texnologik o'zgarishlar ishchi kuchiga bo'lgan talabda tuzilmaviy o'zgarishlarga olib keladi. Ishchi joylarining yangi tuzilishi shakllangan ishchi kuchi tuzilishiga mos kelmaydi, natijada ishchilarning bir qismi ishsiz qoladi.

3. Ishchi kuchi qiymatining, demak uni narxining yo'qligi. Jamiyatda har doim ham ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilib bo'lmaydigan odamlar bor. Bular bekorchilar, nogironlar va boshqalar. Fuqarolarning ushbu toifasi, qoida tariqasida, ishini va uni topish umidini doimiy ravishda yo'qotadi va turg'un ishsizlar toifasiga kiradi. Shunday qilib, ishsizlikning asosiy sababi mehnat bozoridagi nomutanosiblikdir. Ushbu nomutanosiblik, ayniqsa iqtisodiy tanazzul, urushlar, tabiiy ofatlar va h.k. kuchayadi.

Makroiqtisodiy beqarorlikning ko'rinishlaridan biri bu ishsizlar armiyasining mavjudligi. Ishsizlikning bir qator shakllari mavjud, ammo ulardan eng muhimi uchta: friksion, tuzulmaviy va siklik - bu shakllar ishsizlikning tabiiy darajasini aniqlash uchun muhimdir. Ishsizlik shakllarining har birining o'ziga xos sabablari bor. Shuning uchun shakllarning ta'rifi ularni keltirib chiqaradigan sabablar, ishsizlikning davomiyligi va turi bilan bog'liq.

**Friksion ishsizlik, bir tomondan, yollanma xodimlarning miqdori va sifati o'rtasidagi muvozanatni o'rnatish uchun ma'lum bir vaqtni talab qilishi, ikkinchi tomondan, ish joylarining miqdori va sifati bilan bog'liq.** Friksion ishsizlik turli sabablarga ko'ra ishning ixtiyoriy ravishda o'zgarishi, yuqori daromadli ish joylarini izlash yoki yanada qulay ish sharoitlariga ega bo'lgan obro'li ishni qidirish natijasida vujudga keladi.

Friksion ishsizlar, mehnat bozorida sotilishi mumkin bo'lgan malaka, ko'nikma va tajribaga ega bo'ladilar. Agar biror kishi ish joyini (geografik jihatdan), o'z malakasini o'zgartirishni istasa, yoki shunga o'xshash ish joyiga yuqori ish haqi stavkasi bilan o'tishi kerak bo'lsa, u bu muammoni ixtiyoriy

ravishda o'zi hal qiladi. Shuning uchun friksion ishsizlik odatda ixtiyoriy va qisqa muddatli bo'ladi.

**Tarkibiy ishsizlik iqtisodiyot tuzilishi o'zgarishi sababli ishchilarga bo'lgan talab tarkibining o'zgarishiga bog'liq.** Strukturaviy ishsizlikning vujudga kelishiga ilmiy-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish ta'sirida ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Ishsizlikning ushbu shakli ma'lum kasblar "eskirishi" va ularga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada kamayishi yoki hatto butunlay yo'qolishi tufayli paydo bo'ladi. Shu bilan birga, yangi ko'nikmalar, malakalar, kasblar va bilimlarni talab qiladigan yangi tarmoqlar va ishlab chiqarishlar paydo bo'ladi. Sobiq ishchi uchun mohir sartarosh, sotuvchi yoki dasturchi bo'lish har doim ham mumkin emas. Bu shuni anglatadiki, strukturaviy ishsizlik ko'p hollarda majburiy va friksion ishsizlikka nisbatan uzoqroq davom etadi. **Friksion va tuzilmaviy ishsizlik birgalikda tabiiy ishsizlikni tashkil qiladi.** Agarda:

- to'liq bandlik mavjud, ya'ni mehnat bozorida raqobat saqlanib qoladigan va yollangan mehnatdan samarali foydalanish ta'minlanadigan bandlik holati mavjud bo'lsa ;

- milliy ishlab chiqarishning potensial hajmiga erishilsa;

- inflyatsiya bo'lmasa ishsizlik tabiiy darajasida deb hisoblanadi.

To'liq bandlik - bu ishsizlikning tabiiy darajasidagi bandlik, uning kattaligi 5-7% ni tashkil qiladi.

**Siklik ishsizlik bu haqiqiy ishsizlikning tabiiy darajadan u yoki bu tarafga og'ishi, iqtisodiy inqiroz tufayli ishlab chiqarish va ishbilarmonlik faolligi va ishchi kuchiga talabning keskin pasayishi bilan yuzaga keladi.** Turg'unlik davrida milliy (mahalliy) ishlab chiqarish hajmi potensial darajadan pastga tushadi va haqiqiy ishsizlik tabiiy ko'rsatkichdan oshib ketadi. Rivojlanish davrida, iqtisodiyotning inflyatsion o'sishi sodir bo'lganda, YaIMning haqiqiy hajmi potensial darajadan oshib ketadi va haqiqiy ishsizlik tabiiy darajadan pastroq bo'ladi.

**Iqtisodiyotga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmaydigan ishsizlikning boshqa shakllari ham mavjud, ularni bilish muhimdir, chunki ular aholining ayrim guruhlari manfaatlariga ta'sir qiladi.** Mavsumiy ishsizlik - bu ayrim tarmoqlarda (qishloq xo'jaligi (o'simlikchilik), shakarni qayta ishlash, o'rmon, baliq ovlash boshqalarda) ishsizlikning majburiy shakli. **Mavsumiy ishsizlik ma'lum bir sohalardagi faoliyatning mavsumiy tabiati tufayli vujudga**

keladi, ko'pincha mavsumdan tashqari davrda odamlar ish bilan ta'minlanmaganligi sababli boshqa mintaqalarga ishlashga ketishadi.

**Texnologik ishsizlik** - bu yangi yuqori unumli uskunalari va texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq ravishda yollangan ishchilarni ozod qilish bilan bog'liq bo'lgan ishsizlikning majburiy shakli.

Texnologik ishsizlik texnika va texnologiyalarning yangi avlodlariga o'tish, qo'l mehnatini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish natijasida vujudga keladi. Shu bilan bir qatorda hududiy ishsizlik ham farqlanadi.

**Hududiy ishsizlik** muayyan hududdagi tarixiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy-ruhiy xususiyatdagi bir qator kompleks omillar ta'siri ostida ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi hisoblanadi.

**Ochiq ishsizlik** - bu mehnat bozorida holat, unda shaxs ishsizligini anglaydi va ish bilan ta'minlash xizmatida (mehnat birjasida) rasmiy ro'yxatdan o'tqaziladi.

**Yashirin ishsizlik**, ish izlash umidini yo'qotishi sababli ish izlashni to'xtatgan odamlarning mavjudligi bilan bog'liq.

Iqtisodiyot rivojlanish darajasining pasayishi korxonalaridagi ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib keladi. Biroq korxonalar egalari o'z ishchilarini birdaniga ishdan bo'shata olmaydi. Buning natijasida birinchidan, ishchilarning ma'lum qismi rasman ish bilan band bo'lsalarda, amalda to'liq ishlamaydilar, ikkinchidan esa, mehnat unumdorligi pasayib korxonalar moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir qiladi. Yashirin ishsizlik uchun ish kuni yoki ish haftasi davomida to'liq band bo'lmaslik xos. Yashirin ishsizlik mamlakatda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy keskinlikning oldini olishga intilish natijasida ham vujudga kelishi mumkin.

### **19.3. Ishsizlik darajasi va uni aniqlash. Ishsizlikning iqtisodiy va sotsial oqibatlari. Oukon qonuni.**

«To'liq bandlilik» tushunchasi iqtisodiyotda ishsizlikning mutlaq mavjud bo'lmasligini bildirmaydi. Iqtisodchilar friksion va tarkibiy ishsizlikning bo'lishini tabiiy deb hisoblaydi, shu sababli «to'liq bandlilik» ishchi kuchining 100% dan kam qismini tashkil qiluvchi miqdor sifatida aniqlanadi. Aniqroq aytganda, to'liq bandlilik sharoitida ishsizlik darajasi friksion va tarkibiy ishsizlar soniga teng bo'ladi. Siklik ishsizlik nolga teng bo'lganda to'liq bandlilik sharoitidagi ishsizlik darajasiga erishiladi, «to'liq bandlilik»

sharoitidagi ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasi deb ham ataladi. **Ishsizlikning tabiiy darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan milliy ishlab chiqarishning real hajmi iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini ko‘rsatadi.**

Ish bilan to‘liq bandlilik yoki ishsizlikning tabiiy darajasi ishchi kuchi bozori muvozanatiga erishganda, ya’ni ish izlovchilar soni bo‘sh ishchi o‘rinlari soniga teng kelganda vujudga keladi. Ishsizlikning tabiiy darajasi qandaydir darajada iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Chunki, «friksion» ishsizlarga mos keluvchi ish o‘rinlarini topish, «tarkibiy ishsizlarga» ham yangi kasbni o‘zlashtirish yoki yangi yashash joyida ish topish uchun ma’lum vaqt kerak bo‘ladi.

«Ishsizlikning tabiiy darajasi» tushunchasi ma’lum bir aniqliklar kiritishni talab qiladi. Birinchidan, bu tushuncha iqtisodiyot har doim ishsizlikning tabiiy darajasida amal qilishi va shu orqali o‘zining ishlab chiqarish imkoniyatini ro‘yobga chiqarishini bildirmaydi. Chunki, ko‘pincha ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ortiq, ayrim hollarda, masalan, ish vaqtdan ortiqcha ishlash va o‘rindoshlik ishlarida band bo‘lish natijasida tabiiy darajadan past ham bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darajasi o‘zicha doimiy miqdor hisoblanishi shart emas, u tarkibiy o‘zgarishlar (qonunlar va jamiyat urf-odatlaridagi o‘zgarishlar) oqibatida o‘zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSHda ishsizlikning tabiiy darajasi dastlab XX asr 60-yillarining o‘rtalarida 4,5% deb belgilangan bo‘lsa, 70-yillarning boshiga kelib 5,5%, 80-yillarning boshida esa 6% gacha o‘sdi.

Ishsizlik darajasi ishsizlar sonining ishchi kuchi tarkibidagi foizi sifatida hisoblanadi.

**Ishsizlik darajasi= ishsizlar sonin / ishchi kuchi soni x 100 %**

Ishsizlik darajasini baholash bilan birga uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ham hisobga olish zarur bo‘ladi. Chunki, ishsizlikning o‘zi haddan tashqari yuqori darajasi bilan katta iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari ishlab chiqarilmagan mahsulot bilan taqqoslanib baholanadi. Iqtisodiyot ishlashni xohlagan va ishlay oladigan barcha uchun yetarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo‘lmasa mahsulot ishlab chiqarish potensial imkoniyatining bir qismi yo‘qotiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu yo‘qotish yalpi milliy mahsulot (YaMM) hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YaMMning



potensial YaMMdan kam bo'lgan hajmi sifatida ko'rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YaMM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi.

Makroiqtisodiyot sohasidagi taniqli tadqiqotchi A.Ouken ishsizlik darajasi va YaMM hajmining orqada qolishi o'rtasidagi nisbatini matematik ifodalab beradi. Bu nisbat iqtisodchilar orasida Ouken qonuni sifatida tanilgan bo'lib, agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning **tabiiy darajasidan bir foizga ortiq bo'lsa, YaMM hajmining orqada qolishi 2,5% ni tashkil qilishini ko'rsatadi.**

Ayrim hollarda milliy mahsulotning haqiqiy hajmi potensial hajmidan ortib ketishi ham mumkin. Bunday hol ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ham past bo'lgan davrlarda ro'y beradi. Ishlab chiqarish smenalarini ko'paytirish va unga ishchilarni jalb etish, kapital uskunalardan o'rnatilgan normativdan yuqori darajada foydalanish, ish vaqtidan ortiqcha ishlash va o'rindosh ishlarda band bo'lish kabilar buning asosiy sabablaridir.

Ishsizlik, ishsizlarning o'zlari va butun jamiyat uchun muqarrar tarzda jiddiy salbiy ijtimoiy- iqtisodiy oqibatlar olib keladi. Bunday oqibatlar qatoriga eng avvalo, sezilarli ko'lamdagi ishchi kuchidan yetarlicha foydalanmaslikni kiritish mumkin. Aynan manashu sababli dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash hamda ishsizlikni minimal, ijtimoiy maqbul darajagacha kamaytirishga yo'naltirilgan qonunlar tizimi qabul qilingan. Ishsizlikning iqtisodiyotga ta'sirining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari qanday? Iqtisodiyotga ishsizlikning ta'siri faqat salbiy deb baholanmasligi kerak. Ishsizlik iqtisodiyotga salbiy, ham ma'lum darajada ijobiy ta'sir etadi. Ishsizlikning iqtisodiyotga ta'sirining salbiy oqibatlari quyidagailardan iborat:

1) mamlakatda ishlab chiqarilgan real YaMM hajmining, potensial imkoniyatlari darajasida ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan YaMM hajmidan past bo'lishi, ya'ni orqada qolishi;

2) ishsizlik bo'yicha xarajatlar aholining turli qatlamlari o'rtasida notekis taqsimlanishi;

3) xodimlarning malakasini yo'qota borishi.

Ishsizlikning iqtisodiyotga ijobiy (konstruktiv) ta'siri quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

-mehnat bozorida samarali bandlik va raqobatni rag'batlantirish.

-xodimlarni mehnat bozori talablariga moslashtirish.

-vaqt va makonda resurslarning harakatchanligini ta'minlash.

Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- mehnat birjalarii orqali band bo'lmaganlarni ishga joylashtirish va qayta o'qitishga yordam berish;

- turli guruhlarining (xotin qizlar, pensioner, yoshlar) o'ziga xos xususiyatlarini inobatga oluvchi moslashuvchan mehnat bozorini shakllantirishni rag'batlantirish;

- ishsizlikdan ozor chekkan insonlarni ijtimoiy himoya qilish.

O'zbekistonda 2017-2021 yillarda ishchi kuchi bandligini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish, ishchi kuchi bozori mutanosibligi va infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;


-mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

#### **19.4. Ishsizlik va inflyatsiyaning o'zaro bog'liqligi.**

##### **Fillips egri chiziqi**

Fillipis egri chizig'i inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi teskari bog'liqlikni aks ettiruvchi chiziqdir, ya'ni mehnatga layoqatli aholi umumiy sonida ishsizlarning ulushi qanchalik oz bo'lsa, narxlarning inflyatsiya ta'siri ostidagi o'sish sur'atlari shunchalik yuqori bo'ladi. Uni 1958 yilda angliyalik iqtisodchi Uilyam Fillips taklif qilgan, u Angliya uchun 1861-1957 yillardagi empirik ma'lumotlarning tahliliga asoslanib ishsizlik darajasi va ish haqining o'sishi o'rtasidagi korrelyatsiyaviy bog'liqlikni aniqlagan. Dastlab bog'lanish ishsizlik va ish haqining o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan. Ishsizlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, ish haqining o'sishi shunchalik past bo'ladi, narxlar ko'tarilishi pasayadi va aksincha, ishsizlik darajasi va ish bilan bandlik

darajasi qanchalik past bo'lsa, ish haqining ko'payishi, narxlarning oshishi tezligi yuqori bo'ladi. Keyinchalik umumlashtirishlar asosida ish haqi o'zgarishi o'rniga iqtisodchilar narxlarning umumiy darajasidagi o'zgarishlarni qo'yganlar. Bu bog'liqlikni ifodalovchi egri chiziq Fillips egri chizig'i deb nom oldi (19.1-rasm). Unga ko'ra, inflyatsiya darajasini 1% ga pasaytirish uchun ishsizlikni 2% ga o'stirish lozim bo'ladi. Fillips egri chizig'i uzoq muddatli emas, balki inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi qisqa muddatli bog'liqlikni aks ettiradi. Qisqa vaqt ichida markaziy bank yoki hukumat ushbu ikkita o'zgaruvchi o'rtasida birini tanlash



**19.1-rasm. Fillips egri chizig'i**

imkoniyatiga ega. Biroq, uzoq muddatli davrda iqtisodiyot ish bilan bandlik darajasi va potensial ishlab chiqarishning tabiiy darajasiga qaytadi, narxlar shunday o'zgaradiki, ularning darajasi uzoq muddatli muvozanatni ta'minlaydi. Bunda asosiy rolni inflyatsiyaviy kutish o'ynaydi. Inflyatsiyaviy kutish qanchalik yuqori bo'lsa, bir xil ishlab chiqarishda narx darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Zamonaviy talqinda Fillips egri chizig'i inflyatsiya darajasini uchta omilga bog'liqligini ko'rsatadi:

- 1) kutilayotgan inflyatsiya;
- 2) ishsizlik darajasi me'yoring tabiiy darajadan og'ishi;
- 3) taklifdagi shok o'zgarishlari.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Ish bilan to'la bandlik nima uchun nisbiy ma'noda tushuniladi? Qanday qilib ishchi kuchidan samarali foydalanishga erishiladi?
2. Ishsizlikning asosiy turlariga tavsif bering.
3. Ishsizlik darajasi qanday hisoblanadi?

4. Ishsizlikning tabiiy darajasi nimani anglatadi va u qanday tartibda aniqlanadi?
5. Ouken qonunining mohiyati nimada namoyon bo‘ladi?
6. Ishsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini tushuntirib bering.
7. Ishsizlik va inflyatsiyaning o‘rtasidagi bog‘liqlikni bilish nimani beradi?
8. Ishsizlikning iqtisodiyotga ta’sirining ijtimoiy iqtisodiy oqibatlar.

## 20. DAROMADLARNING TAQSIMLANISHI, TENGSIZLIK VA KAMBAG'ALLIK

### 20.1. Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari.

Davlatning ijtimoiy faoliyatida aholi daromadlarini shakllantirish siyosati muhim o'rin egallaydi. Zero real daromadlar aholi turmush darajasini belgilaydi.

**Daromad- shaxsiy iste'mol maqsadlari uchun tovar va xizmatlarni sotib olishga mo'ljallangan ma'lum vaqt oralig'ida olingan pul mablag'lari summasidir.** Ish haqi, renta, foyda, foiz, dividend, ijtimoiy to'lovlar (nafaqa, ishsizlik nafaqasi va h.k.) daromadlarning turlari hisoblanadi. Daromadlarning shakllanish manbalari quyidagilar:

1. **Mehnat evaziga olingan daromad:** yollanib mehnat qiluvchining ish xaqi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxsning foydasi.

2. **Mulkdan olinadigan daromad:** a) foiz-pul egasining o'z pulini qarzga berganligi uchun oladigan haqi; b) renta ko'chmas mulk egalarining o'z mulkini ijaraga berish hisobiga olgan ijara haqi; d) dividend-aksiya egasining olgan daromadi.

3. **Ijtimoiy to'lovlar:** qarilik bo'yicha nafaqa, nogironlik yoki boquvchisiz qolganlar oladigan nafaqalar, bir yo'la yordam pullari va h.k.

**Demak mamlakatda daromadlarning shakllanish manbalari quyidagilardan iborat: a) aholining mehnat faoliyati; b) aholining mulki; d) asosan davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy to'lovlar.**

Daromadlarning ushbu manbalarini aholining turli ijtimoiy qatlamlariga ahamiyati turilichadir: bir xil aholi qatlamlariga, masalan yollanib ishlaydiganlarga ish xaqi, boshqalarga esa mulkdan oladigan daromad asosiy hisoblanadi.

**Iqtisodiyot rivojining muayyan holatida insonlar hayotiy ehtyojlarining ularning naqadar qondirilishi turmush darajasini bildiradi.** Turmush darajasi daromad darajasiga bog'liq. Daromadlarning darajasiga baho berish uchun nominal va real daromadlar ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

**Nominal daromad** - aholi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida daromadlarning pul ko'rinishidagi miqdori. **Real daromad** esa narx darajasini hisobga olib, aholi ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori. Real daromadni miqdoriga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- subyektlarni qo‘liga tekkan pul daromadining miqdori, bu berilishi zarur bo‘lgan pul daromadidan majburiy pul to‘lovlari chegirib olinganidan so‘ng qolgan daromad. Ushbu daromad tovar va xizmatlarni xarid qilishga mo‘ljallangan. Qanchalik bu daromad miqdori katta bo‘lsa shunchalik unga mos tovar va xizmatlar sotib olinadi va aksincha.

-pulsiz va imtiyozli xizmatlar miqdori qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik real daromad darajasi yuqori bo‘ladi va aksincha.

-narxlar darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, real daromad kam bo‘ladi va aksincha.

-soliq stavkalari qanchalik past bo‘lsa real daromad yuqori bo‘ladi va aksincha.

**Iste‘molchi savatchasi-** bir oylik (yillik) iste‘mol tarkibini tavsiflovchi, inson yoki oila hayot faoliyatini ta‘minlovchi, natural va qiymat (pul) shaklida tovar va xizmatlarning hisoblangan to‘plami. Bunday to‘plamdan minimal iste‘mol byudjetining (yashash minimumi) miqdorini hisoblash uchun foydalaniladi. Unga mos holda, joriy narxlarda, iste‘molchi savatining qiymatidan kelib chiqqan holda ish haqining minimal miqdori belgilanadi. Shuningdek, iste‘molchi savati hisoblangan va real iste‘mol darajalarini taqqoslash asosi hisoblanadi. Iste‘molchi savatining miqdori va tuzilmasiga (ne‘matlar to‘plami) qarab alohida mamlakatda erishilgan hayot darajasi va hayot sifatiga baho berish mumkin. Iste‘mol savati bizning davlatda eng kam iste‘mol darajasini ta‘minlaydigan 35 xil mahsulot va xizmatlar to‘plamidan tarkib topgan bo‘lib, ularning 11 tasini non va non mahsulotlari, kartoshka, sabzavot, meva, go‘sht, sut va baliq mahsulotlari, tuxum, shakar va qandolat mahsulotlari, o‘simlik yog‘i va margarin, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. Iste‘mol savatiga nooziq-ovqat mahsulotlarining 4 guruhi hamda xizmatlarning 5 turi ham kiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda iste‘molchi savatchasi tovarlarni bir necha yuz turidan iborat. Masalan AQSHda u 250 ta turli tovar va xizmatlardan iborat. Iste‘molchi savati asosida inflyatsiya darajasi aniqlanadi. **Iste‘molchi savatini tashkil etuvchi tovar va xizmatlar to‘plamining jami bozor narxi, ya‘ni ularni xarid etishga ketadigan pul miqdori tirikchilik qiymati deb yuritiladi.** Real daromaddagi (Dr) o‘zgarishlarni aniqlash uchun qo‘lga tekkan pul daromadlar narxlar bilan taqqoslanadi. Buning uchun pul daromadlari indeksi (Di) narxlar indeksiga (Pi) bo‘linadi.  $Dr = Di \setminus Pi$

## 20.2. Daromad tengsizligi va uning sabablari. Lorens egri chizig‘i

Daromadlar tengsizligining asosiy sabablari quyidagilardir:

1. **Insonlarning aqliy, jismoniy va estetik qobiliyatlarining turlicha ekanligi.** Yuqori aqliy qobiliyatga ega bo‘lish nisbatan yuqori daromadga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Aksincha holat ham kuzatilishi mumkin. O‘ziga xos jismoniy qobiliyatga ega bo‘lish, xalqaro darajada tan olingan sportchi bo‘lish va o‘shanga yarasha katta daromad olish imkoniyatini beradi. Estetik qobiliyatga ega inson yuqori malakali san’atkor yoki rassom bo‘lishi mumkin.

2. **Insonlarning ta’lim olganlik darajalarining turlicha ekanligi.** Qanchalik kasbiy tayyorgarlik yuqori bo‘lsa, shunchalik ish haqi miqdori yuqori bo‘ladi. Masalan, AQSHda oliy ma’lumotga ega bo‘lganlar o‘rta ma’lumotga ega bo‘lganlarga nisbatan uch barobar ko‘p ish haqi oladilar. Qanchalik ta’lim darajasi yuqori bo‘lsa shunchalik inson omiliga ko‘proq investitsiyalar talab etiladi.

3. Insonlarning turlicha daromad va mulk bilan ta’minlanganligi. Bir xil fuqaroning mulki kamroq yoki umuman bo‘lmaydi. Boshqalar esa ko‘p miqdorda mulkka (yer, ko‘chmas mulk va h.k) ega bo‘ladi. Natijada ular mulki hisobiga ko‘proq daromad oladilar.


4. Oila tarkib daromadlar bo‘yicha tengsizlikni yuzaga keltiradi, agar oilada pultoparlar ko‘p bo‘lsa, uning jami daromadi ko‘p bo‘ladi va aksincha.

Daromadlardagi farqlarni bozor holatidagi o‘zgarishlar ham yuzaga keltiradi. Bu ayniqsa tadbirkor daromadiga ta’sir etadi. Bozorda kutilmaganda, narx oshib ketsa, tadbirkor katta daromad topadi va aksincha bo‘lsa kutilgan daromadni ham ololmaydi.

D.Maydler va E.Goldsmit “Дело против глобальной экономики” kitobida turli darajada daromadlarning tengsizligini ochib berganlar. Mikroiqtisodiy darjada - AQSHda menedjering ish haqi o‘rtacha zavod ishchisining ish haqidan 419 barobar katta. Makroiqtisodiyot darajasida AQSHning 2,7 mln. eng boy aholisining daromadi 100 mln. kambag‘al aholisining daromadlariga teng. Mamlakatlararo darajada Shveysariyada aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad miqdori Mozambikdagiga nisbatan taxminan 400 marta ko‘p.

Jamiyatda daromadlarning taqsimlanishini Lorens egri chizig‘i yordamida tushuntirish mumkin (20.1-rasm). Bunda oilalar ulushi absissada, daromadlar ulushi esa ordinatada joylashagan. Nazariy jihatdan daromadlarning absolyut teng taqsimlanishi bissektrisa (OE) yordamida aks ettirilgan. Unda 20% aholi

20% daromadni, 40% aholi 40% daromadlarni oladilar va h.k. Agar jamiyatda barcha daromad 1% aholiga tegishli bo'lsa unda chiziq vertikal ko'rinishda bo'ladi va u absolyut tengsizlik chizig'i deyiladi.



**20.1- rasm. Lorens egri chizig'i**

Daromadlarning aslida taqsimlanishi A,V,S,D,E nuqtalari ko'rsatadi. Absolyut tenglik chizig'i va Lorens egri chizig'i o'rtasida yuza (M) daromadlarning taqsimlanishdagi tengsizlik darajasini ko'rsatadi. Ushbu yuza qanchalik katta bo'lsa, daromadlar taqsimlanishidagi tengsizlik shunchalik katta bo'ladi va aksincha.

Daromadlarni tabaqalanishidagi tengsizlik darajasi Djini koeffitsiyenti yordamida ham hisoblanadi. Ushbu koeffitsiyent Lorens egri chizig'i bilan mutloq tenglik chizig'i (bissektrisa) o'rtasidagi yuzaning, uchburchak yuzasiga nisbati orqali hisoblanadi. **Djini koeffitsiyenti** qanchalik katta bo'lsa (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shunchalik kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashib borganda, bu ko'rsatkich 0 (nol) ga intiladi. AQSHda 1984 yilda Djini koeffitsiyenti 0,35ni, 1987 yilda esa 0,36ni tashkil etgan bu holat daromadlarning notekis taqsimlanishini kuchayishidan dalolat beradi. O'zbekistonda ushbu koeffitsiyent 1990-2010 yillarda 0,49 dan 0,3 gacha pasaygan. Bu holat ijobiy deb baholanishi mumkin.

Daromadlar tabaqalanishini aniqlashda ko'proq qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan biri **ditsel koeffitsiyenti** hisoblanadi. Bu ko'rsatkich 10% eng yuqori ta'minlangan aholi o'rtacha daromadlari va 10% eng kam ta'minlangan aholi o'rtacha daromadi o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Masalan AQSH va Buyuk Britaniyada bu nisbat 13:1, Shveytsiyada esa 5,5:1 ga teng. Daromadlarning noteks taqsimlanish darajasi Pareto-Lorens-Djini



metodologyaisi yordamida hisoblanishi mumkin. Pareto qonuniga binoan 80% YaIM 20% aholi tomonidan o'zlashtiriladi, qolgan 20% YaIM esa 80% aholi o'rtasida taqsimlanadi. Shuning uchun Pareto qonuni 80/20 qonuni nomini olgan.

Daromadlar taqsimlanishida tengsizlikning haddan tashqari oshib ketishining oldini olish uchun uning me'yori belgilangan. Bunga ko'ra aholining boy qatlami qo'lida jami daromadlarning 20-35 foizi to'planishi mumkin. Boshqa bir me'yorga ko'ra 10% boylar va 10% kambag'allar daromadi o'rtasida farq 13-15 martadan oshmasligi kerak.

### **20.3. Turmush darajasi. Turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar**

**Turmush darajasi - odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini tovarlar va xizmatlarda qondirish darajasi.** Turmush darajasi aholi jon boshiga real daromad hajmi va iste'molning tegishli hajmiga asoslanadi. Aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlar tizimi o'z ichiga quyidagi guruhlarini oladi:

1. Tug'ilish va o'lish darajasi hamda boshqa demografik ko'rsatkichlar.
2. Hayot kechirishning sanitar-gigiyena jihatidan sharoitlari.
3. Oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilish.
4. Turar joy sharoitlari.
5. Ma'lumot va madaniyat.
6. Mehnat qilish va bandlik sharoitlari.
7. Aholining daromadlari va xarajatlari.
8. Hayot kechirish qiymati va iste'mol narxlari.
9. Transport vositalari.
10. Dam olishni tashkil etish.
11. Ijtimoiy ta'minot.
12. Inson erkinligi.

**Aholi hayot sifati deganda ma'lum mamlakat aholisining moddiy, ijtimoiy jismoniy, madaniy va ma'naviy farovonligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarining jami tushuniladi.**

Aholi hayot sifati ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- inson salohiyatining rivojlanish indeksi (ISRI)
- jamiyatning aqliy salohiyati indeksi;
- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan inson kapitali miqdori;

Inson salohiyatining rivojlanish indeksi quyidagi uchta ko'rsatkichning o'rtacha matematik miqdoriga teng:

- kutilayotgan hayot davomiyligi (1h);
- ta'lim darajasi (1t);
- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM miqdori (YaIMajb).

Inson salohiyatining rivojlanish indeksi (ISRI) quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$ISRI = 1h + 1t + YaIMajb / 3$$

Ushbu ko'rsatkich Efiopiyada 0.25ni, Kanadada esa 0.96 tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1990 yildan beri hisoblanadi.

Jamiyatning aqliy salohiyati indeksi mamlakatda ta'lim va fanning rivojlanishini aks ettiradi. Ushbu indeksni hisoblashda quyidagilar hisobga olinadi:

- katta yoshdagi aholining ta'lim darajasi;
- aholining umumiy sonida talabalarning ulushi;
- YaIMda ta'limga sarflarning ulushi;
- bandlarning umumiy sonida, fanda va ilmiy xizmatlar sohalarida bandlarning ulushi;
- YaIM da fan sohasiga sarflarning ulushi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan inson kapitali miqdori ko'rsatkichi aholi jon boshiga davlat, firmalar va fuqarolarning ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtmoy soha tarmoqlariga sarflari darajasini ko'rsatadi. Qanchalik mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lsa, shunchalik inson kapitali darajasi va uning kapitalning umumiy miqdoridagi ulushi katta bo'ladi.

Bu asosiy ko'rsatkichlardan tashqari yana ba'zi bir axborotga oid ko'rsatkichlar ham ajratib ko'rsatiladi: aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromad, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi iste'mol hajmi va boshqalar.

Hayot sifatining alohida tamonlarini xususiy ko'rsatkichlar tavsiflaydi. Xususan:

- ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar (hayot davomiyligi, kasallanish dinamikasi, o'lim, aholining tabiiy o'sishi);
- aholining iqtisodiy faolligi (ishsizlik darajasi, aholi migratsiyasi va uning sabablari);

- ijtimoiy keskinlik ( aholining siyosiy tadbirlarda qatnashishi, YaIMda xufiya iqtisodiyotning xissasi, jinoyatlar dinamikasi);

- ijtimoiy sohaning rivojlanishi ( ta'lim, fan, sog'liqni saqlash va madaniyatga sarflar ulushi, barcha toifadagi o'quvchi va talabalar soni, bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchi va talabalar soni);

- ekologik ko'rsatkichlar (atmosfera, yer, suv, oziq-ovqat mahsulotlarida zararli moddalar tarkibi, YaIMda ekologiyaga sarflar ulushi, asosiy kapitalga investitsiyalar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish)

Turmush darajasi insonlarning turmush tarzi bilan uzviy bog'liq. Turmush tarzi bu insonlarning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati, turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya. U inson hayot faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi:

-mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari;

-turmush va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari;

-siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtrok etish;

-moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;

-kishilarning kundalik hayotdagi xulq-atvor me'yorlari va qoidalari.

#### **20.4. Qambag'allik: mohiyati, o'lchash usullari**

Kambag'allik global hodisa bo'lib, barcha mamlakatlarda mavjud. Kambag'allik nisbiy mazmunga ega, chunki aholining ma'lum qismi boshqasiga nisbatan kambag'al hisoblanadi. Undan tashqari kambag'allikning ko'lami va holati har xildir

**Kambag'allik-bu hayot kechirish uchun zarur minimum mablag'ga ega bo'lmagan insonlarning iqtisodiy holatidir.** Qambag'allik turli xil va o'zaro bog'liq sabablarning natijasidir, bularni quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkin:

- iqtisodiy (ishsizlik, iqtisodiy tengsizlik, shu jumladan ish haqi va mehnat unumdorligining pastligi, sanoatning raqobatbardosh emasligi);

- ijtimoiy-tibbiy (nogironlik, qarilik, kasallanish darajasi yuqoriligi);

- demografik (to'la-to'kis bo'lmagan oilalar, oila qaramog'idagi ko'p sonli odamlar, ortiqcha aholi);

- ta'lim malakasi (ma'lumot darajasining pastligi, kasbiy tayyorgarlikning yetarli emasligi);

- siyosiy (harbiy mojarolar, majburiy migratsiya).

Kambag'allik darajasini kambag'allarning aholi sonidagi hissasi belgilaydi. Kambag'allik darajasini aniqlash uchun kambag'allar aholining sonida necha foizni tashkil etishni hisoblash zarur. Masalan, biror bir mamlakatda aholi 100 mln. bo'la turib, kambag'allar soni 10 mln. kishini tashkil qiladi. Bunda kambag'allik darajasi 10% ga teng bo'ladi. Biroq, kambag'allik yagona ko'rsatkichga ega emas. Jahon amaliyotida kambag'allikni aniqlashning uchta asosiy konsensiyasi mavjud, unga mos kambag'allik chegarasini aniqlashga uchta yondashuv mavjud.

**Mutlaq kambag'allik konsepsiyasi** kambag'allik chegarasi tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Kambag'allik chegarasi - bu daromad yoki iste'mol darajasi, undan past bo'lganda odam kambag'al hisoblanadi. **Kambag'allikning absolyut chegarasi-insonni oziq-ovqat, kiyim - bosh, turar joyda insonlarning fiziologik ehtiyojlari bazasida aniqlovchi hayotning minimal darajasi.** Mutlaq kambag'allik ko'pincha iste'mol yoki daromadi kambag'allik chegarasidan past bo'lgan odamlar yoki uy xo'jaliklari soni bilan o'lchanadi. Jahon banki mutlaq kambag'allik chegarasi sifatida kuniga 1,25 AQSH dollaridan kam miqdorni belgilaydi. 2015 yilda Jahon banki kambag'allik chegarasini kuniga 1,9 dollarga ko'targan.

**Nisbiy kambag'allik** mezonlari nisbiy kambag'allik chegarasini belgilaydi va unga aholi daromadlarini taqqoslaydilar. Agar butun aholining real daromadlari oshib borgan bo'lsa va ularning taqsimlanishi o'zgarmagan bo'lsa, nisbiy kambag'allik oldingi holatga nisbatan o'zgarmagan bo'ladi. Shunday qilib, nisbiy kambag'allik konsepsiyasi tengsizlik konsepsiyasining bir qismidir. Kambag'allikning nisbiy chegarasi shunday daraja bilan tavsiflanadiki, undan pastda aholi kambag'allik darajasida hayot kechiradilar. Masalan, Yevropa ittifoqida mamlakat bo'yicha uy xo'jaliklarini jami sarflarini yarmisidan kam bo'lganda.

Nisbiy kambag'allik ko'lami mutlaq kambag'allik ko'lamlariga to'g'ri kelmaydi. Mutlaq kambag'allikni bartaraf etish mumkin, ammo nisbiy kambag'allik doimo saqlanib qoladi, chunki tengsizlik tabaqalashtirilgan jamiyatlarga xos. Jamiyatda barcha ijtimoiy qatlamlarning turmush darajasi oshganda nisbiy kambag'allik saqlanib qoladi.

**Subyektiv kambag'allik** faqat insonni o'zi kambag'alligini aniqlashi mumkin degan fikrga asoslangan kambag'allik konsepsiyasi. Subyektiv kambag'allik darajasini aniqlashda ko'plab yondashuvlar mavjud: siz qancha odam o'zini kambag'al deb hisoblashini bilib olishingiz mumkin. Jamiyat fikri

asosida subyektiv kambag'allik chegarasini aniqlash, so'ngra uni aholi daromadlari bilan taqqoslash mumkin. Demak kambag'allikni mutlaq, nisbiy va subyektiv chegaralari mavjud. Amaliyotda xalqaro kambag'allik chegarasi ham mavjud.

**Xalqaro kambag'allik chegarasi.** Jahon banki tomonidan xalqaro miqyosda taqqoslash uchun ishlatiladi. O'ta kambag'allik chegarasi xarid qobiliyati pariteti bo'yicha kuniga 1 dollar miqdorida belgilanadi, kambag'allik chegarasi esa kuniga 2 dollar miqdorida belgilanadi. So'nggi paytlarda ushbu kambag'allik chegaralari tegishli ravishda 1,25 va 2,5 dollarga ko'tarilgan. Hozirgi vaqtda dunyodagi eng kambag'al 15 mamlakat ushbu kambag'allik chegarasidan foydalanadi. Biroq, hozirgi vaqtda, turli mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda, kambag'allikning boshqa chegaralari ham qo'llaniladi. Xususan, daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgan davlatlar uchun kam ta'minlanganlik darajasi kuniga 3,2 dollar, daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar uchun esa kuniga 5,5 dollarni qo'llash tavsiya etiladi.<sup>31</sup>

Har bir insonning iste'moli oila byudjetiga bog'liq. Oilaning iqtisodiy holatiga baho oila byudjetining tahlili asosida amalga oshiriladi. Oila byudjeti daromadlar va xarajatlar qismidan iborat. Oila byudjeti daromadlarning turli manbalaridan shakllanadi: ish haqi, renta, dividendlar, tadbirkorlikdan olinadigan daromad, davlat nafaqalari va boshqa ijtimoiy to'lovlar. Davlat byudjetidan olinadigan daromadlar nisbatan doimiy, boshqa sohadagi daromadlar darajasi o'zgaruvchan bo'ladi. Oila daromadlarining darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning ehtiyojlarining qondirilish darajasi va turmush darajasi hunchalik yuqori bo'ladi. Oila xarajatlari quyidagilardan iborat bo'ladi: oziq-ovqat va kiyim - kechakka xarajatlar, turli to'lovlar, transport xarajatlari, madaniy - maishiy sarflar.

Daromadlardagi tengsizlik aholini tabaqalanishiga olib keladi. Aholi tarkibida kambag'al, o'rta hol va boy qatlamlar paydo bo'ladi. Insonlarni bu qatlamlarga mansubligi turli mezonlarga qarab aniqlanadi. **Kambag'allik chegarasini tirikchilik minimumi belgilaydi. Bu minimum biror bir mamlakatda eng kam deganda qancha ne'matlar iste'mol qilinishi**

---

<sup>31</sup> <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambag'allik-darajasi-kambag'allikni-kamaytirish-uchun-nima-qilish-kerak>

**mumkin ekanligini ko'rsatadi.** Kimning daromadi shu minimumdan kam bo'lsa, shu kambag'al hisoblanadi. Masalan mamlakatda bir oylik tirikchilik minimumi tarkibi quyidagicha deb faraz qilamiz: oziq ovqat narxi 200 dollar, kiyim kechak narx 120 dollar, xizmatlar narxi 80 dollar. Demak, tirikchilik minimumi 400 dollarga teng. Bu 400 dollar kambag'allik chegarasi hisoblanadi. Insonning bir oylik daromadi 400 dollardan kam bo'lsa, u kambag'al hisoblanadi. Endi agar daromad oziq-ovqat minimumini ta'minlashga (bizning misolimizda 200 dollar) yetmasa, u qashshoq hisoblanadi. Bizning misolimizda daromadi, 200 dollardan kam bo'lganlar o'ta kambag'al (qashshoq) guruhiga kiradi. O'rta hollarga daromadi tirikchilik minimumidan yuqori bo'lgan, ammo mamlakat bo'yicha o'rtacha daromaddan oshib ketmagan aholi kiradi. Bizning misolimizda tirikchilik minimumi 400 dollar bo'lgan holda o'rtacha daromad 2200 dollarni tashkil etgan bo'lsa, daromadi ana shu ikki ko'rsatkich oralig'ida bo'lganlar o'rta hollarni tashkil etadi. Daromadi o'rtachadan, ya'ni biz misolimizda 2200 dollardan ortiq bo'lganlar boy hisoblanadi. Boylarning o'zi boylar va o'ta boylardan iborat. Bozor iqtisodiyotida boylikning yuqori chegarasi bo'lmaydi. Aholi daromadlarining tabaqalanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanganligi darajasiga va davlatning ijtimoiy siyosatiga bog'liq bo'ladi. Kambag'allik global hodisa hisoblanadi va u barcha mamlakatlarda mavjud. Davlat o'zining ijtimoiy siyosati bilan ushbu muammoning yechimini topishga harakat qiladi.

## **20.5. O'zbekistonda kambag'allik va uni kamaytirish yo'llari**

Ma'lumki, kambag'allik bu umumbashariy muammo bo'lib barcha mamlakatlarda mavjud. Buning asosiy sabablaridan biri bozor tizimining ijtimoiy tengsizlikni takror hosil qilishidadir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yilning 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Murojaatnomada ta'kidlaganidek: "Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob - kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda. Bu ularning

bir kunlik daromadi 10-13 ming so‘mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo‘lishi mumkin, lekin bir kishi og‘ir kasal bo‘lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo‘sh bunday oilani o‘ziga to‘q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o‘qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo‘layapti, degan savol har kuni qiynaydi. Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir”<sup>32</sup>.

O‘zbekiston aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan milliy daromad ko‘rsatkichi bo‘yicha o‘rtacha daromadga ega mamlakatlar qatoridan joy oladi (Yiliga kishi boshiga o‘rtacha 1533 AQSH dollari). Daromadning o‘rtacha darajasi ikki guruhga bo‘linadi. Daromadi o‘rtacha darajadan past mamlakatlar kishi boshiga yiliga 1036 - 4085 dollar va daromadi o‘rtacha darajadan yuqori mamlakatlar –kishi boshiga yiliga 4086-12615 dollar. Birinchi guruhdagi mamlakatlar uchun mezonlar qabul qilingan, bu mezonlar bo‘yicha kuniga kishi boshiga 3,2 dollar kambag‘allik chizig‘ining o‘rtacha ko‘rsatkichini anglatadi. Milliy daromadi o‘rtachadan balandroq mamlakatlar uchun kuniga kishi boshiga 5,5 dollar kambag‘allik chizig‘ining o‘rtacha ko‘rsatkichi deb qabul qilingan O‘zbekiston uchun kambag‘allik chizig‘i – kuniga 3,2 dollardan kam pulga yashash degani, misol uchun besh kishidan iborat oilaning yalpi daromadi oyiga 480 dollar yoki 4,6 million so‘mdan kam bo‘lsa, bu oilani kambag‘al deb hisoblash mumkin.<sup>33</sup> Jahon bankining hisob-kitoblariga ko‘ra, kambag‘allikning yuqori darajasi Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatilmoqda.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar asosida kam ta‘minlangan aholining tavsifi ishlab chiqilgan. Kam ta‘minlangan oila 7 kishidan iborat bo‘lib, oila boshlig‘ining o‘rtacha yoshi 50 yoshdan yuqori va u oliy ma‘lumotga ega emas. Jumladan, 11% kam ta‘minlangan oilaning boshlig‘i ishsiz, 93% holatlarda esa oliy ma‘lumotga ega emas va faqat 24% o‘rta maxsus ma‘lumotga ega. Kam ta‘minlangan uy xo‘jaliklarining 43% doimiy ish joyiga ega emas. 93% markaziy isitish tizimiga, 96% markaziy kanalizatsiya

---

<sup>32</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521)

<sup>33</sup> [http://u3.tsue.uz/wp-content/uploads/2020/09/7\\_Mustafakulov-1.pdf](http://u3.tsue.uz/wp-content/uploads/2020/09/7_Mustafakulov-1.pdf)

tizimiga va 66% markaziy suv ta'minotiga ulanmagan. Prognozlash va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan BMT Taraqqiyot dasturi ko'magida olib borilgan shunga o'xshash tadqiqotlar natijalariga ko'ra esa respublikada kam ta'minlangan uy xo'jaliklarining ahvolini quyidagicha tavsiflash mumkin: ular 3 bolali, qishloq joylarda istiqomat qiluvchi, oila a'zolarining ma'lumot darajasi yuqori bo'lmagan va chet elda mehnat qila oladigan mehnatga layoqatli a'zosi bo'lmagan uy xo'jaliklaridir. Shu bilan birga, kam ta'minlanganlik darajasi aniq mintaqaviy xususiyatga ega.<sup>34</sup> So'nggi yillarda kambag'allik darajasini tadqiq etish va umumlashtirish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish borasida ishlar olib borildi va ma'lum darajada yutuqlarga erishildi. Ma'lumotlar bazasi kambag'allikni tavsiflash, uning omillari, shuningdek, aniq dasturlar va siyosiy islohotlarning kambag'allikka ta'siri to'g'risidagi ko'plab farazlarni sinab ko'rish imkonini beradi. Jumladan, kambag'al va kambag'al bo'lmagan uy xo'jaliklarining o'ziga xos xususiyatlarini taqqoslab, kambag'allikning sababini aniqlash va unga qarshi kurashning aniq ko'rsatkichlarini belgilash mumkin.

Kambag'allikga qarshi kurash, uni kamaytirish davlatning ijtimoiy siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Savkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak".<sup>35</sup> Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi esa aynan ushbu vazifalarning ijrosini tizimli ta'minlashda amaliy qadam bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, kambag'allik, ishsizlik, inflyatsiya kabi surunkali muammo hisoblanadi. Kambag'allikni butkul bartaraf etib bo'lmaydi, shunday ekan buni iloji boricha kamaytirish zarur. Kambag'allikni kamaytirish yo'nalishlarini aniqlash va unga mos tadbirlarni ishlab chiqishda mamlakatimiz turli mintaqalarda, shahar yoki qishloqlarda istiqomat qiluvchi turli yoshdagi

---

<sup>34</sup> <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambagallik-darajasi-kambagallikni-kamaytirish-uchun-nima-qilish-kerak>

<sup>35</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521)



insonlar, erkaklar va ayollar uchun kambag'allikning sabablari bir biridan keskin farq qilishini, demak kambag'allikka qarshi kurash juda murakkab va ko'p qirrali vazifa ekanligini hisobga olish kerak.

Kambag'allikni kamaytirishning umumiy sharti, yo'nalishi bu iqtisodiyotning samarali rivojlanishi asosida barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o'sishga erishildi degani har yili yaratilgan YaIM hajmi oshadi, aholi ish joylari va daromad bilan ta'minlanadi, natijada ularning farovonligi oshib boradi degani. Bunda davlat tomonidan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyaga qarshi samarali siyosatning olib borilishi ta'minlanishi zarur. Bundan tashqari davlat o'zining oqilona ijtimoiy siyosatini ishlab chiqishi va hayotga to'la qonli tatbiq etishi muhimdir.

Kambag'allikni kamaytirishning birinchi yo'nalishi kambag'al qatlamlarda iqtisodiy faollikni uyg'otish. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- ishlab chiqarishning o'sishi va shu bilan aholining pul daromadlariga ega bo'lishi va ushbu daromadlarning to'xtovsiz oshib borishini ta'minlash.

- ishsizlik darajasini pasaytirish, ishga joyiga muhtoj insonlarga kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish, bozor talablarini hisobga olib, maqbul shart sharoitlarni yaratish choralari ko'rish;

- aholiga tadbirkorlik bilan shug'ullanishga huquqiy, tashkiliy va moliyaviy jihatdan qulay shart sharoitlarni yaratish;

Mamlakatda kambag'allikni kamaytirishni yana bir yo'nalishi kam ta'minlanganlarning yashash shart sharoitlarini yaxshilash. Bu yo'nalishda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- kam ta'minlangan aholi qatlamlarini energiya, suv va gaz, kanalizatsiya va axborat texnologiyalari bilan ta'minlash;

- arzon uy joy qurilishini kengaytirish va ipoteka kreditlash tizimini rivojlantirish;

- xizmat ko'rsatish sohasini ayniqsa qishloq joylarida rivojlantirish.

Mamlakatda kambag'allikni kamaytirishni yana bir yo'nalishi kambag'allarga davlat va korxonalarining moddiy yordam berishini tashkil etish. Moddiy yordam o'zini boqishga qodir bo'lmagan kishilarga, ya'ni nogironlarga va ko'p bolali oilalarga berilishi lozim. Ijtimoiy yordam uzoq vaqt ishsiz qolganlar, kasbini yo'qotganlarga ham beriladi.

Kambag'allikni kamaytirishga insonlar o'zlarining moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va o'zlarini zarur daromadlari bilan ta'minlaydigan sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Aholi daromadlari tushunchasini va uning shakllanish manbalarini bayon qiling.
2. Aholi daromadlari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab ko'rsating.
3. Turmush darajasi va uning tushunchasiga izoh bering. Turmush darajasini qanday ko'rsatkichlar tavsiflab beradi?
4. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini tushuntirib bering.
5. Lorens egri chizig'i nimani anglatadi? Uning mazmunini misollar yordamida bayon qiling.
6. Jini df ditsel koeffitsiyentlari qanday aniqlanadi?
7. Qambag'allikning mohiyati va uni o'lchash usullarini bayon qiling
8. O'zbekistonda kambag'allik va uni kamaytirish yo'llari borasida qanday natijalar qo'lga kiritilmoqda?

## **21. JAHON XO'JALIGI VA UNING EVOLYUTSIYASI.**

### **21.1. Jahon xo'jaligining tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari va asosiy belgilari. Xalqaro mehnat taqsimoti**

**Jahon xo'jaligi (JX) - xalqaro mehnat taqsimoti asosida iqtisodiy munosabatlar bilan o'zaro bog'langan milliy xo'jaliklar tizimidir.**

JX uzoq tarixiy rivojlanishning natijasi hisoblanadi. Jahon xo'jaligining rivojlanish jarayoni xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish evolyutsiyasi bilan bog'liq. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jahon xo'jaligining shakllanishi jarayonida alohida o'rin tutadi. Jahon xo'jaligi yaxlit tizim sifatida XIX va XX asrlar chegarasida shakllangan.

Zamonaviy jahon xo'jaligining evolyutsiyasi jarayoni bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan:

1. XIX asrning oxiridan birinchi jahon urushigacha bo'lgan davr, bu jahon xo'jaligining ochiqligini oshirish bosqichidir. Jahon savdosida

xomashyo yoʻnalishi ustunlik qildi. Biroq, eksportning ulushi doimiy ravishda oʻsib bordi;

2. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari orasidagi davr. Bu bosqich jahon xoʻjaligining rivojlanishiga hamroh boʻlgan beqarorlik va inqirozlar bilan ajralib turadi. Milliy iqtisodiyotlarning avtarkiyasi va proteksionizm, shuningdek, eksport rolining pasayishi tendensiyasi kuchaydi;

3. XX - asrning 1950-1970 yillari. Bu bosqi integratsiya guruhlarining (EI) paydo boʻlishi, transmilliylashtirish jarayoni, texnologiyalar, tadbirkorlik mahorati va kapitalning faol ravishda koʻchishi, ssuda kapitalining jahon bozorida tiklanishi bilan tavsiflanadi. Sotsialistik va rivojlanayotgan davlatlar jahon iqtisodiyotida alohida oʻringa daʼvorgarlik qila boshladilar.

4. XX - asrning 1980-1990-yillari. Rivojlangan davlatlar postindustrial davriga kirdilar, koʻplab rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiy qoloqlikni (Xitoy ) yengib oʻtdilar va sobiq sotsialistik davlatlar bozor iqtisodiyotiga oʻtishni boshladilar.

5) XX - asr oxiri va XXI-asrning boshlari - jahon xoʻjaligi shakllanishidagi hozirgi bosqich. Bu geografik makonning rivojlanish darajasi, xalqaro ishlab chiqarish kuchlarining shakllanishi, iqtisodiy oʻzaro taʼsir va oʻzaro bogʻliqlikning oshishi bilan ajralib turadi. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishning yangi bosqichiga chiqishi mamlakatlar oʻrtasidagi iqtisodiy sohadagi hamkorlikning faollashuvi bilan birga keladi.

Jahon xoʻjaligi tizimini uning qatnashchilari, yaʼni subyektlaridan iborat mexanizm koʻrinishida ifodalash mumkin. Ushbu subyektlarning asosiylari: 200 dan ortiq davlatlar milliy iqtisodiyotlari, transmilliy korporatsiyalar (TMK), integratsiyaviy birlashmalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar.

Yagona jahon bozorining mavjudligi jahon xoʻjaligini milliy xoʻjalikdan farqlantiradigan belgisi hisoblanadi. Jahon bozorining amal qilishiga rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy siyosati sezilarli darajada taʼsir koʻrsatadi. Jahon narxlari va xalqaro raqobat tizimining amal qilishi jahon bozorining oʻziga xos xususiyati hisoblanadi. Jahon bozorida narx neʼmatlarning asosiy hajmini yetkazib beruvchi mamlakatlardagi shart-sharoitlar orqali aniqlanadi. Mamlakatlar oʻrtasida mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini egallash uchun keskin raqobat kurashi olib boriladi.

YaIMni mutlaq va nisbiy o'sishi, milliy daromad va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi, mamlakat eksporti va importi tarkibiy tuzilmasi, aholining turmush darajasi, sifati va boshqalar mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari hisoblanadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib zamonaviy jahon xo'jaligining rivojlanish tamoyillari va qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

- dunyo mamlakatlari xo'jalik hayoti baynalminallashish jarayonining chuqurlashuvi;
- tashqi iqtisodiy aloqalarning erkinlashuvi;
- hududiy iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi;
- ishlab chiqarish va kapitalning transmilliylashishi;
- jahon xo'jalik aloqalarni davlatlararo tartibga solish tizimining barpo etilishi va iqtisodiy aloqalarning bir xillashuvi;
- jahon xo'jaligining globallashuvi.

**Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi- bu mamlakatlarning jahon miqyosida iqtisodiy aloqalarning kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olish jarayonidir.**

Hozirda jahon xo'jaligining rivojlanishidagi asosiy tendensiya mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining baynalminallashuvining kuchayishi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning har xil tizimlarining barpo bo'lishi bilan tasniflanadi. Bu, ayniqsa, mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro tashqi iqtisodiy munosabatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tarixan olib qaraganda qadimda ushbu aloqalar aholini tovarlar bilan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan tashqi savdo ko'rinishida amalga oshib kelgan. Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi natijasida ular tashqi savdo doirasidan o'sib chiqib, barcha mamlakatlarga ta'sir etuvchi murakkab iqtisodiy tizimga aylandi.

Rivojlangan mamlakatlarda keyingi o'n yilliklarda yangi texnologik asoslarga o'tish jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi bilan birga ro'y berdi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarining baynalminallashuvi o'zining har ikkala shaklida: integratsion (milliy xo'jaliklarning yaqinlashuvi, o'zaro moslashuvi orqali) va transmilliy (xalqaro ishlab chiqarish majmuasining tuzilishi orqali) shakllarida kuchayadi.

Barcha iqtisodiy jarayonlarning baynalminallashuvi natijasida jahon xo‘jaligining quyidagi tarkibi vujudga keldi:

- 1) tovar va xizmatlar jahon bozori;
- 2) kapitallar jahon bozori;
- 3) ishchi kuchi jahon bozori;
- 4) xalqaro valyuta tizimi;
- 5) xalqaro kredit-moliya tizimi.

Shuningdek, fan va texnika, innovatsiya va axborot sohalarida xalqaro almashuv rivojlanib bormoqda.

Jahon xo‘jaligi asosida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi. **Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT)- mehnat taqsimoti alohida mamlakatlar doirasidan chiqishi bilan bog‘liq, ijtimoiy taqsimotining yuqori pog‘onasi.** XMT alohida mamlakatlarning ma‘lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvidir. XMT jahon bozori va davlatlararo iqtisodiy munosabatlar shakllarini asosida yotadi, milliy xo‘jaliklarni birlashishining, mehnat unumdorligini oshishining omili hisoblanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti xalqaro savdoni kengaytirish va jahon bozori rivojlanishining obyektiv asosidir.

Dastlabki vaqtlarda xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi asosan tabiiy sharoitlardagi farqlarga asoslangan. Sanoat to‘ntarishidan keyin, ya‘ni ishlab chiqaruvchi kuchlar baynalminal xususiyat kasb etib, milliy xo‘jaliklar doirasidan tashqariga o‘tib chiqa boshlagach, ularning negizida barqaror mehnat taqsimoti va jahon bozori tarkib topadi. Hozirgi vaqtda xalqaro mehnat taqsimoti turli ijtimoiy tizimlarni o‘z ichida oluvchi umumjahon xo‘jaligi doirasida rivojlanmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanish darajasi jahon xo‘jaligiga kiruvchi alohida mamlakatlarni ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va ularning tashqi faolligiga bog‘liqdir.

Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi bilan bir qatorda globallashuvi jarayoni ham muhim o‘rin tutadi. Bir tarafdin bu har ikkala tushuncha o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular jahon xo‘jaligi subyektlarining umumiy maqsadlarga erishish yo‘lidagi xatti-harakatlarining birlashuvi jarayonini aks ettiradi. Biroq, ikkinchi tarafdin esa bu tushunchalar bir-biridan farq qilib, ular bir xilda bo‘lmagan xo‘jalik birlashmalari miqyoslarini ifodalaydilar.

**Baynalminallashuv – bu jahon xo‘jaligining bir necha subyektlari**

**o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning o‘rnatilishi va rivojlanishining dastlabki bosqichidir.**

**Globallashuv (lotincha globus – yer kurrasi) jahon xo‘jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog‘ining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi. Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarini (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy) keskin baynalminallashishi bilan tavsiflanadigan jahon taraqqiyotining yangi bosqichidir.**

Globallashuv jarayonining quyidagi yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- mulkchilik munosabatlarining globallashuvi;
- kooperatsiya va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajasiga o‘tish;
- xo‘jalikni tashkil etishning butunlay yangi shakllarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi;
- xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tartibga soluvchi rolining kuchayishi.

Globallashuv – murakkab va ziddiyatli jarayondir. Bir tarafdin u ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantiradi, ikkinchi tarafdin esa mavjud ziddiyatlarni kuchaytiradi va yangilarni vujudga keltiradi. Globallashuv jarayoni transmilliy banklar (TMB), xalqaro valyuta fondi (XVF), jahon banki (JB), jahon savdo tashkilotida (JST) kuchli mavqega ega bo‘lgan, o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda ilg‘or industrial mamlakatlar tomonidan olib borilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar hissasiga jahon aholisining 20% va dunyoda yaratilgan YaMM ning 80% to‘g‘ri keladi, rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi esa mos holda 80 va 20 foizni tashkil etadi.

Globallashuv milliy iqtisodiyot tizimining ochiqlilik darajasini, axborotlar, mehnat resurslari, kapital, tovar va xizmatlar, madaniy va ma‘naviy boyliklar bilan o‘zaro almashinuvni jadallashtirdi, biroq shuning qatorida mavjud muammolarni kuchaytirib, yangilarini vujudga keltirmoqda: jumladan, rivojlanishning notekisligi va ziddiyatlarning kuchayishi, milliy davlatlar, moliya, savdo va axborot ustidan nazoratlarning cheklanishi, ijtimoiy adolatni ta‘minlay ololmaslik, katta miqdorda aholining migratsiyasi. Lekin shunga qaramasdan globallashuv obyektiv jarayondir.

## **21.2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakllari**

**Xalqaro iqtisodiy munosabatlar - xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan turli milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimidir.** Xalqaro iqtisodiy munosabatlar quyidagi shakllarda amal qiladi:

- tovar va xizmatlar bilan xalqaro savdo;
- kapitalning xalqaro migratsiyasi;
- ish kuchining migratsiyasi;
- ishlab chiqarishning davlatlararo kooperatsiyasi;
- fan va texnika sohasida almashuv;
- valyuta va kredit munosabatlari.

Jahon xo'jaligi tovarlarni savdosidan chetga kapital chiqarishga va jahon moliya bozorini shakllantirish ketma-ketligida shakllangan. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, oldin vujudga kelgan iqtisodiy aloqalarning shakli keyingi shakllarning rivojlanishiga asos bo'ladi va o'zi ham xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakllari asosida o'zgarib boradi. Xususan, kapitalning eksporti tovarlarning eksportiga yo'l ochgan.

Hozirgi zamon xo'jaligining baynalminallashuvi chuqurlashayotgan sharoitda kapitalni xalqaro migratsiyasining ahamiyati ortib bormoqda.

**Kapitalning xalqaro migratsiyasi – bu kapitalning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga foyda olish maqsadida ko'chishi.**

Kapitalning xalqaro migratsiyasi ikki shaklda amalga oshiriladi.

- tadbirkorlik kapitali;
- ssuda kapitali.

Kapitalning tadbirkorlik kapitali shaklida migratsiyasi chet elda turli sohalarda korxonalarining qurilishi yoki harakatdagi korxonalarining aksiyalarini ularning ishlab chiqarishini tashkil etib, foyda olish maqsadida sotib olishni nazarda tutadi. Tadbirkorlik kapitali to'g'ri va portfeldagi investitsiyalarga bo'linadi. Ular jahon xo'jaligi aloqalarining chuqurlashuvi, mustahkamlashuvining omillaridan hisoblanadi. Agarda kapital ustidan xorijiy investorning nazorati saqlanib qolsa (aksiyalarning oltin paketi), bunday qo'yilmalar to'g'ri investitsiyalarni tashkil etadi. Portfeldagi investitsiyalar kapital ustidan mahalliy korxonalar nazorati saqlanib qolishini nazarda tutadi. Bunda xorijiy investor 25% dan kamroq korxonalar aksiyalariga egalik qiladi. Xalqaro iqtisodiy aloqalarda to'g'ri investitsiyalarning hajmi o'sib bormoqda.

Xalqaro miqyosda raqobat qila olish yangi texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishga bog'liq bo'lgan sharoitda, kapitalni

chetga chiqarishning ahamiyati o'sib boradi. Xuddi shu davr mamlakatlarning investitsiyalarini jalb etish uchun kurashi bilan xarakterlanadi. Agarda XX asrning birinchi yarmida investitsiyalar oqimi rivojlanayotgan mamlakatlarga qaratilgan bo'lsa, oxirgi o'n yilliklarda rivojlangan mamlakatlarga ham investitsiyalar kirib kelmoqda.

Ssuda kapitalining migratsiyasi tashqi zayomlar, tashqi savdo xaridlarni kreditlash, xorijiy banklarga qo'yilmalar shaklida amalga oshiriladi. Ssuda kapitali ssuda foizi ko'rinishida daromad olishni ta'minlaydi.

Ssuda kapitalini xorijga olib chiqish quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatli zayom va kreditlar;
- uzoq muddatli zayom va kreditlar, to'g'ri va portfeldagi investitsiyalar.

Odatda ssuda kapitali qisqa muddatga, tadbirkorlik kapitali esa uzoq muddatga mo'ljallangan bo'ladi.

XX asrning 80 - yillarida jahon moliya va kredit sohasi shakllandi. Buning natijasida xalqaro kredit bozorining ahamiyati keskin ortdi. Hozirgi vaqtda ham xalqaro ssuda kapitali bozori yuqori sur'atda o'smoqda.

Xalqaro ssuda kapitali pul bozori va kapital bozoriga bo'linadi. Pul bozori – bu asosan qisqa muddatli (bir yilgacha) bo'lgan kreditdir. Uning yordamida korporatsiyalar vaqtinchalik yetishmayotgan aylanma mablag'larini to'ldiradilar. Kapital bozori 2 yildan 10 yilgacha bo'lgan o'rta muddatli kreditlar va 10 yildan ortiqroq, ya'ni uzoq muddatli kreditlardan iborat bo'lib, obligatsiyalarni chiqarish va sotish shaklida bo'ladi. Keyingi vaqtlarda xalqaro bozorda ssuda kapitalining an'anaviy bo'lmagan shakllari, ya'ni tadbirkorlik kapitaliga yaqin bo'lgan, aynan aniq sanoat loyihasi uchun yo'naltirilgan usullari qo'llanilmoqda. Xalqaro kredit bozorining tez sur'atda o'sishi jahon xo'jaligining rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

**Ishchi kuchi migratsiyasi** tashqi iqtisodiy aloqalarning yana bir shakli hisoblanadi. Xalqaro mehnat bozori ish kuchi va kapitallarning migratsiyasi asosida shakllanadi va bunda birinchi holda ish kuchi kapitalga qarab intiladi, ikkinchi holda buning aksi yuz beradi. Xo'sh ish kuchi migratsiyasining sabablari nimada? Bular mamlakatlar, hududlar o'rtasida aholining notekis joylanishi va turmush darajasi o'rtasidagi



farqlardir. Ishchi kuchining ko'chishi asosan yetakchi rivojlangan mamlakatlarda past rivojlangan mamlakatlar arzon ishchi kuchini og'ir va kam haq to'lanadigan tarmoqlarda ishlatishiga asoslangan. Migratsiya oqimi O'rta-er dengizi, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan G'arbiy Yevropaga, Meksikadan mavsumiy ishlarga AQSH ga, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridan neftga boy bo'lgan Fors ko'rfazi bo'yi mamlakatlariga qarab oqib o'tmoqda.

Jahon statistikasiga ko'ra 175 mln. Kishi, ya'ni jahon aholisini 3% o'zlarining ona yurtlarida yashamaydilar. Migratsiyaning soni o'sib bormoqda, 1970 yilga nisbatan u ikki barobarga oshdi.

**Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayirboshlash** bir qator shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy –texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan sohasi xodimlari bilan almashuvni, tadqiqot va yangiliklarni litsenziya asosida berishni, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, umumiy fan-texnika va texnologiyani ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.

Ilmiy –texnikaviy hamkorlikning muhim shakllaridan biri xalqaro injiniring hisoblanadi. Xalqaro injiniring bir davlat tomonidan boshqasiga sanoat va boshqa obyektlarni loyihalashtirish va qurish jarayoniga kerakli hisob-kitob loyihalarini berish hamda injenerlik-qurilish xizmati ko'rsatishdan iborat.

Pirovard natijada jahon bozoridagi raqobat kurashi jahon hamjamiyatidagi iqtisodiy munosabatlarni, ya'ni har bir milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish tuzilishi, hajmi va eksport miqdorini belgilaydi. Mamlakatlarning o'zaro ishlab chiqarish, savdo, valyuta munosabatlari va boshqa sohalarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu mintaqada davlatlar ittifoqining shakllanishi XX asr ikkinchi yarmidagi jahon xo'jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biri bo'ldi. Buning asosida yuzaga keladigan xo'jalik aloqalarini bog'lovchi va birlashtiruvchi iqtisodiy jarayonlar davlatlararo integratsiya nomini oldi.

### **21.3. Xalqaro iqtisodiy integratsiya**

Rivojlanishning hozirgi bosqichida jahon xo'jaligining rivojlanishiga bir tarafdin globallashuv jarayoni xos bo'lsa, ikkinchi tarafdin mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi xos.

**Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) - bu turli mamlakatlar milliy xo‘jaliklarining iqtisodiy aloqalari va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi asosida ishlab chiqarishning yuqori darajada baynalminallashuvi natijasida qo‘shilish jarayonidir. Xalqaro iqtisodiy integratsiya qator mamlakatlar takror ishlab chiqarish tarkibining asta sekin qo‘shilib ketishiga olib keladi.**

Jahon iqtisodiyotida bir tarafdin integratsiya jarayonlari har bir davlat uchun faqat “o‘z ishlab chiqarishiga” ega bo‘lish samara bermaydigan vaziyatni keltirib chiqaradi, ikkinchi tarafdin esa xalqaro iqtisodiy integratsiya – milliy iqtisodiyotlarning turli sohalardagi hamkorlik shakli bo‘lib, hamkor mamlakatlar iqtisodiyotining texnik, texnologik va iqtisodiy jihatdan uzoq muddatli bog‘liqligining chuqurlashuvi bilan ajralib turadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyani maqsadi kelajakda tovarlar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin xarakatlanishiga to‘siq bo‘layotgan cheklovlarni bartaraf etishdan iborat.

«Integratsiya» tushunchasi, shuningdek, integratsiya jarayonining o‘zi ham ilmiy doirada nisbatan yaqinda, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida paydo bo‘ldi. Ma‘lumki, "integratsiya" atamasi lotincha so‘z bo‘lib, tarjimada tiklash, ulanish va butun, yaxlit degan ma‘noni anglatadi. SHu sababli, integratsiya deganda birlashish va yaqinlashish, ya‘ni har qanday qismdan butunlikni olish natijasida birlik va yaxlitlik shakllanadigan jarayon tushuniladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, u o‘zining rivojlanishida bir qancha bosqichlarni bosib o‘tgan va turli shakllarda yuz bergan. Birinchi bosqichda jahonning turli mamlakatlari o‘rtasida erkin savdo-sotiq aloqalari o‘rnatilgan, shuningdek bojxona to‘lovlari, eksport kvotalari bekor qilingan erkin savdo zonalari vujudga kelgan. Bu jarayonning natijasi o‘laroq davlatlararo tovar ayirboshlashda integratsiyalashuv yuz bergan.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ikkinchi bosqichiga erkin iqtisodiy zonalar shakllanishi xosdir. Bu bosqichda integratsion aloqalar kengayadi, ya‘ni savdo-sotiq bilan cheklanmasdan, sanoat, bank, sug‘urta ishi va texnologiya sohasida ham yuz beradi. Bu erkin iqtisodiy zonalar ochiq iqtisodiy hududlar hisoblanib, unda iqtisodiy aloqalar erkin va ko‘p qirrali bo‘lib, barcha iqtisodiyot subyektlari imtiyozlarga ega bo‘ladilar. Umumiy bozor shakllanishi xalqaro iqtisodiy integratsiyaning keyingi uchinchi bosqichida ro‘y bergan. Umumiy bozorni tashkil etgan mamlakatlarning milliy

bozorlari bir-biri uchun ochiq bo‘ladi, amalda milliy bozorlar birlashib, mamlakatlara umumiy bozor vujudga keladi. Unda barcha tovarlar, ish kuchi va kapital erkin, cheklovlarsiz bir mamlakatdan boshqasiga o‘tadi, qaysi mamlakatda resursni ishlatish qulay bo‘lsa, u shu yerga borib joylasha oladi. Umumiy bozorda iqtisodiy chegaralar amalda bekor qilinadi, bojxona to‘lovlari, eksport kvotalari, tovar sifatiga talab minimal darajaga keltiriladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning to‘rtinchi bosqichda integratsion aloqalar savdo-sotiq va ishlab chiqarish bilan cheklanmay, moliya, pul muomalasi va bank tizimiga ham kirib boradi. Bu jarayonlar iqtisodiy va valyuta ittifoqi doirasida yuz beradi. Yevropa Ittifoqiga kirgan 15 mamlakatdan 12 tasida 2000—2001 yillarda umumiy pul - yevro muomalaga kiritildi, yagona soliq tizimi joriy etildi, milliy byudjetlar saqlangan holda yagona, umumiy byudjet ham tuziladigan bo‘ldi.

Demak xalqaro iqtisodiy integratsiy milliy iqtisodiyotlarning turli sohalaridagi hamkorlik shakli bo‘lib, hamkor mamlakatlar iqtisodiyotining texnik, texnologik va iqtisodiy jihatdan uzoq muddatli bog‘liqligining chuqurlashuvi jarayonidir.

Integratsiya jarayonining afzalliklari va salbiy oqibatlari mavjud. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- bozor hajmining oshishi;
- mamlakatlar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi;
- infratuzilmani takomillashtirish bilan parallel ravishda savdoning kengayishi;
- eng yangi texnologiyalarning tarqalishi.

Integratsiya jarayonining salbiy oqibatlari esa quyidagilardir:

- nisbatan qoloq mamlakatlardan resurslarning (ishlab chiqarish omillari) chiqib ketishiga olib keladi, kuchli sheriklar foydasiga qayta taqsimlash mavjud bo‘ladi;

- ishtirok etayotgan mamlakatlarning TMKlari o‘rtasidagi oligopolistik til biriktirish tovarlarga narxlarning ko‘tarilishiga olib keladi;

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishiga mos uning yangi shakllari vujudga kelgan. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari quyidagilardir:

**Erkin savdo hududi (ESH)** – mamlakatlarning o‘zaro savdoda bojxona bojlari va miqdoriy cheklovlarni bekor qilish bo‘yicha birlashuvdir. ESH

ning tashkil etilishi ichki bozorda milliy va xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatni kuchaytiradi, milliy ishlab chiqaruvchilarning bankrot bo'lishi xavfini kuchaytiradi, ishlab chiqarishni takomillashtirish va yangiliklarni joriy etish uchun rag'bat yaratadi. Masalan, Yevropa erkin savdo uyushmasi va MDH mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bitim;

**Bojxona ittifoqi (BI)** – o'zaro savdoda to'siqlar bekor qilingan va a'zo bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tariflari asosida umumiy tashqi iqtisodiy siyosat olib borayotgan mamlakatlar guruhidir. BI da davlatlar o'zaro to'siqlarni bartaraf etib, tashqi savdo to'siqlarning yagona tizimini va uchinchi mamlakatlarga nisbatan bojxona bojlarining yagona tizimini tashkil qiladilar. Masalan, Yevropa Ittifoqi, Yevroosiyo bojxona ittifoqi.

**Umumiy bozor (UB).** Bu iqtisodiy integratsiyaning ancha murakkab shakli bo'lib, tovar va xizmatlar, kapital, ishchi kuchining erkin harakatini hamda o'zaro kelishilgan iqtisodiy siyosatni ta'minlaydigan mamlakat guruhi. Bu bosqichda mamlakatlar o'z milliy chegaralari orqali tovarlardan tashqari ishlab chiqarish omillarining (kapital, ishchi kuchi, texnologiya va ma'lumotlar) erkin harakati to'g'risida kelishadilar. Bunga Yevropa iqtisodiy ittifoqi yoki Yevropa umumiy bozorini misol qilib keltirish mumkin. Uning doirasida barcha boj to'lovlari va import me'yori (kvota)lari bekor qilinadi, boshqa mamlakatlardan Evropa bozoriga tovarlar kirishi bir xil tartibga solinadi, pul mablag'lari va ishchi kuchining chegaradan erkin o'tishi ta'minlanadi hamda umumiy muammolarni hal etishda yagona siyosat o'tkaziladi;

**Iqtisodiy va valyuta ittifoqi.** Ishlab chiqarish omillarining erkin harakati ta'minlangan ijtimoiy-iqtisodiy jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, energetika, valyuta-moliya sohalarida yagona siyosat amalga oshirilayotgan, umumiy valyuta muomalaga kiritilgan guruhidir.

Integratsiyalashayotgan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish va bozor munosabatlaridagi yetuklik darajasining yaqinligi, geografik yaqinligi va aksariyat hollarda umumiy chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi, ularning oldida turgan iqtisodiy va boshqa muammolarning yaqinligi, iqtisodiy integratsiya shakllanishining shart-sharoitlari hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga kirishayotgan mamlakatlarda ichki bozor hajmining kengayishi, natijada yalpi ichki mahsulot hajmining

o'sishi rag'batlantiriladi, aholi xarid qobiliyatlarining o'sishi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha daromadlarning o'sishi va tovarlar narxining pasayishi kuzatiladi, ishlab chiqarishning samaradorligi va raqobatbardoshligi ortadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya quyidagi obyektiv tavsifdagi bir qator omillarga asoslanadi:

- xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umumjahon fan-texnika taraqqiyoti;
- milliy iqtisodiyotlarning ochiqlik darajasining oshib borishi;

Ushbu omillar birinchidan, o'zaro bir biri bilan bog'liq ikkinchidan esa, XMT asosida integratsiya mamlakatlari o'rtasidagi barqaror iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi va takror ishlab chiqarishning milliy iqtisodiyot doirasidan chetga chiqish jarayonidir.

**O'zbekistonda ochiq bozorni shakllantirish.** Iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga ochiqlik sari yuz tutishida iqtisodiy integratsiya, jahon iqtisodiy integratsiyasi muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda mamlakatimiz xalqaro integratsiya jarayonida faol ishtirok etib, uning muhim va ajralmas qismi sifatidagi o'rnini yanada mustahkamlab bormoqda.

Ushbu vazifani bajarish obektiv ravishda iqtisodiyotning ochiqligini ta'minlashga asoslanadi. **Ochiq iqtisodiyot - bu jahon iqtisodiy munosabatlar tizimiga integratsiyalashgan iqtisodiyotdir, unda xo'jalik yurituvchi subyekt tovarlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish, moliyaviy operatsiyalar huquqiga ega, boshqa mamlakatlardan tovarlar va sarmoyalarning kirib kelish chegaralarini ochadigan va boshqa davlatlarga o'z tovarlari va xizmatlarini erkin eksport qiladigan huquqlarga ega.**

Tarmoq (mikroiqtisodiy) darajasida iqtisodiy asoslanganlik va xalqaro raqobatbardoshlik doirasida investitsiyalar, texnologiyalar, axborot oqimini rag'batlantiradigan mamlakatdagi qulay investitsiya muhiti ochiq iqtisodiyotning mezoni hisoblanadi. Shuningdek, ochiq iqtisodiyotda mamlakat ishlab chiqarayotgan tovarlari va xizmatlarining ma'lum bir qismini eksport va import qiliadi, jahon moliya bozorlarida investitsiyalar eksporti va importida qatnashadi, xomashyo, ishchi kuchi, axborotlar, texnologiyalar kabilarni eksport va import qiladi, turli xil grantlar, moliyaviy ko'maklar, foizsiz va foizli

kreditlar olishi va berishda qatnishadi. Ochiq iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardir:

- a) YaIMdagi tashqi savdo kvotasi;
- b) ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushi;
- d) iste'mol tarkibidagi importning ulushi;
- e) investitsiyalar hajmidagi xorijiy investitsiyalarning ulushi.

Ochiq iqtisodiyotning afzal taraflari quyidagilardan iborat:

- xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasini chuqurlashtirish;

- resurslarni oqilona taqsimlash;

- xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali dunyo tajribasini yoyish;

- jahon bozorida raqobat tomonidan rag'batlantirilgan mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi.

#### **21.4. Jahon bozori va tashqi savdo.**

Jahon bozori - bu jahon iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, talab va taklif sohasi, shuningdek tovarlar va xizmatlarning tijorat almashinuvi sohasini ifodalaydi. Xalqaro munosabatlarning rivojlanishi bilan xalqaro mehnat taqsimotida ishtiroki bilan bog'langan davlatlar, tadbirkorlar, tijorat tashkilotlari, turli firmalar o'rtasida barqaror tovar-pul munosabatlari tizimi vujudga keladi.

**Jahon bozori — xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o'zaro bog'langan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari tizimi.**

Jahon iqtisodiyoti globallasuvi, kengayishi va chuqurlashuvi sharoitida tovar bozorlari barcha mamlakatlar savdogarlari tomonidan sotiladigan global tovar bozorlariga aylanib, milliy va hududiy chegaralarini yo'qotmoqda.

Jahon bozori XX-asr boshiga kelib vujudga keldi. Chunki, aynan shu davrda yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish milliy bozor chegaralarini kengaytirdi va tashqi savdo mamlakat xo'jaligi taraqqiyotining zaruriy shartiga aylandi. Bunda ixtisoslashuv bir mamlakatda muayyan tovarni arzon va sifatli ishlab chiqarish imkonini bersa, tovarlarni ishlab chiqarishda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlasa, shu tovarlar ko'plab yaratiladi va jahon bozoriga yetkazib beriladi. Aksincha agar biror mamlakatda tovarlarni ishlab chiqarish uchun resurslarni sarflash qulay bo'lmagan yoki ishlab chiqarish imkoni bo'lmagan tovarlar jahon bozorida sotib olinadi.

Jahon bozori turli xil tovar bozorlari, xizmatlar bozori, moliya bozori, resurs bozori, shu jumladan mehnat bozorini o'z ichiga oladi. Jahon tovarlari va xizmatlari bozori faoliyati xalqaro tovar kelishuvlari bilan tartibga solinadi. Har bir tovar bozorida o'ziga xos savdo markazlari - «asosiy bozorlar» vujudga kelib, ularning narxlari tegishli tovarlar savdosida asosiy hisoblanadi. Masalan, Chikago don birjasi, Liverpul paxta birjasi va London rangli metallar birjasi. Savdoni tashkil etish usuliga ko'ra bozorlarning o'ziga xos turlari farqlanadi - tovar birjalari, kim oshdi savdolari, xalqaro ko'rgazma va yarmarkalar. Aynan xalqaro birjalar, savdo uylari, banklar, sug'urta kompaniyalari jahon bozori infratuzilmasini tashkil qiladi. Jahon bozorida to'lovlar va hisob-kitoblar xalqaro pul vazifasini o'tovchi barqaror, erkin almashtiriladigan valyutalar (AQSH dollari, Yaponiya ienasi, yevro) yordamida amalga oshiriladi. Jahon bozori ixtisoslashgan xalqaro birjalardan iborat yirik segmentlariga ega. Jahon bozorida alohida narxlar — jahon narxlari amal qiladi; ayirboshlash ulgurji shaklda va xalqaro birjalar vositasida olib boriladi.

**Xalqaro savdo-bu tovar va xizmatlarni eksport qilish vositasi yordamida amalga oshiriladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakli.** Resurslarning cheklanganligi sababli ko'pchilik davlatlar o'z ehtiyojlar uchun zarur barcha tovarlarni samarali tarzda ishlab chiqarish imkoniyatiga ega emaslar. Demak, jahon xo'jaligi uchun xalqaro savdo hayotiy zaruriyatdir. Jahonda resurslarning notekis taqsimlanganligi natijasida mamlakatlarning resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, har xil mamlakatlarda texnologiyalarning samaradorlik darajasi turlicha ekanligi xalqaro savdoning mavjud bo'lish sabablari hisoblanadi.

Demak, har bir mamlakat resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab o'zining sharoiti va imkoniyatlaridan kelib chiqib mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish lozim.

Xalqaro savdo hajmi tovar va xizmatlarning eksporti, importi, sof eksport ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Mamlakatla iqtisodiyotidagi tashqi savdoning o'rnini yalpi milliy mahsulotdagi eksport (chetga tovar chiqarish) va import (chetdan tovar keltirish) hissasiga qarab aniqlash mumkin. Har bir mamlakatning eksporti va importining yig'indisi uning tashqi savdo tovaroborotini tashkil etadi. Jami eksport va import o'rtasida farq (ma'lum davr mobaynida albatta) savdo balansining saldosi deyiladi. Agarda eksport importdan kichkina bo'lsa unda u salbiy aksi bo'lsa ijobiy bo'ladi. Balansda importning eksportdan oshib ketishi tashqi savdo kamomadiga olib kelishi

mumkin. Uni to'lash uchun esa davlat qarz oladi. Qarzni to'lash uchun esa ichki iste'mol kamaytiriladi.

**Import va eksport o'rtasidagi farq sof eksport deyiladi.** Sof eksport, eksport importdan katta bo'lganda ijobiy, eksport importdan kichik bo'lganda salbiy ko'rsatkichga ega bo'lishi mumkin. Ijobiy sof eksport jami sarflarni va milliy mahsulot hajmining o'sishiga, salbiy sof eksportda esa jami sarflar va milliy mahsulotning kamayishiga olib keladi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalardagi ishtirokini ifodalovchi bir qator ko'rsatkichlar ham mavjud. Masalan, tarmoq ishlab chiqarishining xalqaro ixtisoslashuvi darajasi ko'rsatkichlari sifatida **taqqoslama eksport ixtisoslashuvi koeffitsiyenti (TEIK)** hamda **tarmoq ishlab chiqarishidagi eksport bo'yicha kvotadan** foydalanish mumkin. TEIK quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_o = E_o / E_m$$

bu yerda:

$E_o$  – mamlakat eksportida tovar (tarmoq tovarlari yig'indisi)ning solishtirma salmog'i;

$E_m$  – jahon eksportidagi shu turdagi tovarlarning solishtirma salmog'i.

Agar nisbat birdan katta bo'lsa, bu tarmoq yoki tovarni xalqaro jihatdan ixtisoslashgan tarmoq yoki tovarlarga kiritish mumkin va aksincha.

Eksport bo'yicha kvota milliy sanoatning tashqi bozor uchun ochiqlik darajasini ifodalaydi:

$$K_e = E / YaIM,$$

bu yerda: E – eksport qiymati.

Eksport bo'yicha kvotaning ko'payishi ham mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokining, ham mahsulot raqobatbardoshligining o'sib borishidan darak beradi.

Ekspor - mamlakatda yaratilgan YaIM xajmi, daromadlar va bandlik darajasiga ijobiy ta'sir etadi. Eksportning o'sishi milliy daromad miqdorini oshiradi. Import qilinayotgan mahsulotni sotib olishga mamlakatda yaratilgan milliy daromadning bir qismi sarflanadi, bu bilan boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarish faoliyati rag'batlantiriladi. **Import tovarlar miqdorini oshirib, mamlakat ichidagi ishlab chiqarish sarflarini kamaytiradi.** Bir mamlakatning eksporti ikkinchi mamlakatning importidir. Shuning uchun barcha mamlakatlar o'zining ishlab chiqarishini rag'batlantirishi mumkin emas. Davlat importga milliy daromadini sarflasa unda uning eksporti boshqa



mamlakatning milliy daromadidan to'lanadi. Demak eksportni ko'paytirish yoki kamaytirish boshqa mamlakatlarda milliy daromad hajmining ortishi yoki kamayishiga bog'liq. Undan tashqari mahsulot va xizmatlarni eksport qilish uchun tovar raqobatbardosh bo'lishi lozim. Eksportdan olingan mablag' iqtisodiyotning tuzilishini takomillashtirishga sarflanishi lozim. Bundan ko'zlangan maqsad mamlakatning jahon xo'jaligida munosib joy egallashidan iborat.

Xalqaro savdoning ahamiyati quyidagilardan iborat:

-mamlakatlarning resurs bazasining cheklanganligi bilan bog'liq holatni yumshatadi.

-milliy va baynalminal ishlab chiqarish xarajatlar o'rtasidagi farq hisobiga qo'shimcha daromad olishga imkon beradi.

-ichki bozor sig'imini kengaytiradi va milliy bozorning jahon bozori bilan aloqalarini o'rnatadi.

-xorijiy resurslarni jalb etish hisobiga ishlab chiqarish ko'lamlarini kengaytiradi.

### **21.5. Xalqaro savdo nazariyalari.**

A.Smit "erkin savdo" konsepsiyasini yaratgan. Uning negizini "absolyut afzallik" nazariyasi tashkil etadi. Xalqaro mehnat taqsimotida samarali ishtirok etish uchun mamlakatlar absolyut xarajatlar tamoyiliga asoslanib, boshqa mamlakatlarga nisbatan tabiiy va absolyut ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga asoslanishi zarur. Chunki, har bir mamlakatda o'ziga xos sharoitlar va resurslar mavjud bu esa ma'lum mahsulotlarni ishlab chiqarishda boshqa mamlakatga nisbatan ustunlikka ega bo'lishga imkon beradi.

**Demak absolyut (mutloq) ustunlik - bir mamlakatning boshqa mamlakatga nisbatan o'z mahsulotlarini samaraliroq ishlab chiqara oladigan holati.** Masalan, jug'rofiy joylanishi va obi havo sharoiti Marokashda mandarinni AQSHdagiga nisbatan arzon etishtirishga imkon beradi. AQSHda esa aksincha kompyuterlarni arzon ishlab chiqarish mumkin. Demak, mandarin yetishtirishda Marokash, kompyuterni ishlab chiqarishda AQSH mutloq ustunlikka ega. Shu sababli AQSH mandarinni Marokashdan, Marokash esa kompyuterlarni AQSHdan sotib olishi mumkin. Buning natijasida bu mamlakatlar mahsulotlarni o'zlarida ishlab chiqarishgandagiga qaraganda ko'proq naf qo'radilar

D. Rikardo nisbiy ustunlik nazariyasini asoslab bergan. **Uning fikricha agar mamlakat ishlab chiqarishda qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa va ularni boshqa mamlakat ishlab chiqarishda qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan tovarlarga ayirboshlasa, bundan har qanday mamlakat katta naf ko'rishini mumkin.** Mamlakatlarning yutuqlari ishlab chiqarish xarajatlari nisbatlaridagi farqdir. Har bir mamlakat o'zi ishlab chiqaradigan mahsulotni eksport qiladi va ishlab chiqarishda boshqa davlatlar ustun bo'lgan mahsulotni import qiladi.

Demak, agar mamlakat tashqi savdodan olgan daromadlarini maksimal darajada oshirsa, agar u nisbatan qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa, u iqtisodiy o'sishga va aholi turmush darajasining oshishiga erishadi. Agar mamlakatlar mutlaq va qiyosiy ustunlik nazariyalariga amal qilmasa, bu mamlakat aholisi turmush darajasining pasayishiga, iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga olib kelishi mumkin.

Qiyosiy ustunlik nazariyasini tushuntirish uchun quyidagi misolni keltiramiz. Aytaylik, jahon hamjamiyati ikki mamlakat - O'zbekiston va Qozog'istondan iborat va xalqaro savdo mavjud emas deb faraz qilamiz. Ushbu ikki davlat ikkita turdagi mahsulot ishlab chiqaradi: paxta va go'sht. Ikkala mamlakatda ham resurslar to'la band va ishlab chiqarish shartlari quyidagicha: O'zbekistonda go'sht etishtirishning 1 tonnaga o'sishi paxta yetishtirishni 1 tonnaga qisqartirish hisobiga ta'minlanadi, ya'ni bir tonna paxtaning muqobil xarajatiga teng. Agar O'zbekiston ushbu mahsulotlardan bittasini ishlab chiqarishni istasa, ishlab chiqarishning maksimal miqdori 60 tonnani tashkil qiladi.

Qozog'istonda vaziyat quyidagicha: paxtaning 1t o'sishi go'sht ishlab chiqarishni 2 t ga qisqartirishni talab qiladi, bunda paxta va go'sht ishlab chiqarishning maksimal hajmi mos ravishda 40 t va 80 t. Birjalar bo'lmaganda, har bir mamlakat ikkala mahsulotni ham ishlab chiqarishi kerak. Shunday qilib, faraz qilaylik, O'zbekiston uchun talab va taklifni aks ettiradigan maqbul daraja quyidagicha: 22 t. go'sht va 36 t. paxta, Qozog'iston uchun - 45 tonna go'sht va 18 tonna paxt.

Qiyosiy ustunlik tamoyili.(misol, shartli) 21.1- jadval

	<b>O'zbekiston</b>	<b>Qozog'iston</b>
--	--------------------	--------------------

<b>Ixtsoslashuvga qadar ishlab chiqarish xajmi</b>	Paxta 36 t Go'sht 22t	Paxta18t Go'sht 45t
<b>Ixtsoslashuvdan keyingi ishlab chiqarish xajmi</b>	Paxta 60 t Go'sht 0 t	Paxta0 t Go'sht 80t
<b>Eksport (-), import (+)</b>	Paxta -20 t Go'sht +30 t	Paxta+20 t Go'sht -30t
<b>Savdodan so'ng mahsulot xajmi</b>	Paxta 40 t Go'sht 30 t	Paxta+20 t Go'sht -30t
<b>Ixtisoslashuvdan so'ng ko'rilgan naf</b>	Paxta+4t Go'sht +2 t	Paxta+2t Go'sht +5t

Mavjud tashqi savdo sharoitida O'zbekiston paxta yetishtirishdan foyda ko'radi: 1:1, 2:1 nisbatan kamroq. Savdo tufayli O'zbekiston go'shtni o'zida ishlab chiqarganiga ko'proq olishi mumkin. Ushbu vaziyat O'zbekistonni resurslarni go'sht yetishtirishdan paxta yetishtirishga o'tqazishni, qo'shimcha yetishtirilgan paxtani go'shtga ayirboshlashni taqozo etadi. Go'sht ishlab chiqarishning qisqarishi natijasida yo'qotilgan har bir tonna uchun O'zbekiston xalqaro savdo orqali 2 tonnagacha go'sht sotib olishi mumkin. Uning savdodan ko'radigan nafi go'shtni o'zida ishlab chiqarganga nisbatan arzon narxlarda chetdan sotib olish imkoniyati bilan bog'liq. Ushbu almashinuv o'zaro manfaatli bo'lishi kerak. O'zbekiston uchun har bir tonna paxta uchun bir tonnadan ko'p go'sht olgani ma'qul bo'lsa, Qozog'iston uchun har bir tonna paxta uchun 2 tonnadan kam go'sht berish ma'quldir. Aytaylik, mamlakatlar 1t paxta = 1,5 t. go'sht sharoitida kelishadilar.

Qiyosiy afzalliklar tamoyilidan foydalanishga asoslangan ixtisoslashuv dunyoda resurslarning yanada samarali taqsimlanishiga hamda go'sht va paxta yetishtirishning o'sishiga yordam beradi va shuning uchun ham O'zbekiston, ham Qozog'iston uchun foydalidir. O'zbekiston faqat 60 tonna paxta yetishtirib, uning 20 tonnasini go'shga almashib, endi u 40 t paxta va 30 t (1,5 \* 20) go'shga ega bo'lmoqda, Qozog'iston esa 80 t hajmda go'sht ishlab chiqaradi va uni 30 t eksport qilib, 20 t (30:1.5) paxta va 50 t go'shga ega bo'lmoqda.

Endi xalqaro mehnat taqsimoti tufayli dunyo hamjamiyati 80 tonna go'sht (ixtsoslashuvga qadar -73t) va 60t. paxta (ixtsoslashuvga qadar 54t) olmoqda.

Ammo ixtisoslashuvdan ko'riladigan naf cheksmz emas, muqobil xarajatlarning oshib borish qonuniga ko'ra, har ikki davlat ko'proq va ko'proq

muqobil mahsulotlarni qurbon qilishga majbur bo'ladigan yoki ishlab chiqarishga kamroq mos keladigan resurslar jalb qilinadigan vaqt keladi.

Agar O'zbekistonda oz miqdordagi go'sht ishlab chiqarilsa, bu mahalliy mahsulotni import qilingan mahsulotlar bilan raqobatlashishiga, Qozog'istonda esa paxta yetishtirishga imkon beradi.

SHunday qilib, xalqaro savdo tovarlarni iste'mol qilishda qo'shimcha kombinatsiyalarni ta'minlaydi. Ammo real hayotda tashqi savdoda barter emas, balki pul yordamida bitimlar tuziladi. Iste'molchilar xorijiy tovarlarni ichki narxlardan arzonroq bo'lgan taqdirda sotib olishadi. Bu esa valyuta kurslariga bog'liq. Aks holda, savdo faqat bitta yo'nalishda ketishi mumkin. Talab va taklif qonunlari jahon bozorida ham qo'llaniladi va almashinuv nisbati u yoki boshqa yo'nalishda o'zgarishi mumkin. Agar Qozog'istonda qurg'oqchilik bo'lsa va don ishlab chiqaruvchilar kutilganidan ozroq hosil olishsa, uni yetkazib berishning pasayishi narxni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Yoki O'zbekistonda paxta hosildorligi yuqori bo'lsa, uni yetkazib berish hajmi oshadi va shu bilan narx pasayadi. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy voqelik faktlari D. Rikardoning nisbiy ustunlik ( qiyosiy xarajatlar) nazariyasi doirasiga kirmaydi. Shu munosabat bilan yangi talqinlar paydo bo'ldi.

Hozirgi zamon g'arb iqtisodchilari D.Rikardo tomonidan asoslab berilgan tashqi savdo nazariyasini rivojlantirish va takomillashtirishga harakat qildilar. Tashqi savdo nazariyasini rivojlantirishda shved iqtisodchilari Eli Xeksher va Bertil Olinlar muhim o'rin egallaydilar. Xeksher-Olinlarni tashqi savdo nazariyasini ishlab chiqarish omillarining nisbati nazariyasi deb atashadi. Unga binoan mamlakat qaysi resurslardan samarali foydalansa, shu resurslarning ulushi ko'p bo'lgan tovarlarni eksport qilishi, qaysi ishlab chiqarish omili taqchil bo'lsa, shu omil asosiy o'rin tutgan tovarlarni xarid qilishi maqsadga muvofiq.

Undan keyingi davrda tashqi savdo nazariyasi "Xeksher-Olin" tadqiqoti asosida tahlil etilayotgan ishlab chiqarish omillarini ko'paytirish yo'lidan borgan. Xususan, M.Pozner "texnologik uzilish" konsepsiyasi, R.Vernoning "mahsulotning hayotilik sikli" nazariyasi.

Shunday qilib, tahlil etilgan nazariya, konsepsiya va modellarning tahlilidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-xalqaro savdo nazariyasi namoyondalarining goyalari tashqi iqtisodiy siyosatining nazariy asosini tashkil etadi;

- xalqaro savdo nazariyasida mavjud qarashlar tizimining umurtqasini "absolyut" va "nisbiy" ustunlik nazariyasi tashkil etadi. Undan keyingi davrdagi qarashlar ushbu nazariyani boyitib borgan. Ular rivojlangan mamlakatlar va resurslar bilan bir xilda resurslarga ega mamlakatlar o'rtasidagi tashqi savdo munosabatlarning yangi sifat bosqichini tahlil etish va tushuntirishga qaratilgan.

-tashqi savdo iqtisodiy naf va milliy ishlab chiqarishning o'sishini nisbiy ustunlikka ega tarmoqlarni ixtisoslashtirish asosida mavjud resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish ko'lamlarida iqtisod qilish asosida ta'minlaydi.

### **21.6. Xalqaro savdo siyosati**

**Savdo siyosati-import va eksportni to'g'ridan to'g'ri cheklash vositasida tashqi savdoni tartibga solishga yo'naltirilgan davlatning tashqi iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi.** Tashqi savdo siyosati tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir. Tashqi iqtisodiy siyosat mamlakatni boshqa davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha faoliyatdir. Milliy iqtisodiyotda tashqi omildan samarali foydalanishda u muhim o'rin tutadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanib borishi bilan tashqi iqtisodiy siyosatni olib borishning vositalari tizimi ishlab chiqildi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalari milliy va davlatlararo darajada olib boriladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida faoliyatni muvofiqilashtirish kelishuvi taraflarning muammolarni hal etishda rioya etadigan bo'yniga oluvchi me'yorlar, qoidalar va muolajalarni aniqlovchi bitimlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bular esa o'z navbatida milliy iqtisodiyotni tartibga solishga ta'sir etadi.

Xalqaro savdoda iqtisodiy munosabatlar Butun Jahon savdo tashkiloti (BJST) doirasida amalga oshiriladi. BJST jahon savdosining tamoyil va qoidalarini belgilovchi va xalqaro ko'p tarfli kelishuvlar asosida harakat qiluvchi xalqaro tashkilotdir. Hozirgi vaqtda unda 100 ga yaqin davlatlar a'zo bo'lib, xalqaro savdo miqdorining 90% ni nazorat qiladi.

Jahon amaliyotida tashqi savdo siyosati proteksionizm (tashqi ta'sirdan ximoyalash) va fritrederlik (erkin savdo) shakllari orqali olib boriladi.

Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish vositalari proteksionistik xarakterga egadir. Davlat mavjud ahvoldan kelib chiqqan holda proteksionistik siyosatni yoki bojxona siyosatini kuchaytiradi yoki susaytiradi. Ushbu siyosatning maqsadi mamlakat milliy, shu jumladan iqtisodiy

xavfsizligini ta'minlash, ish bilan bandlik darajasini oshirish, hali o'zini tiklab olmagan yosh tarmoqlarni himoya etish, chet el firmalarining bozorni egallash maqsadida o'zlarining tovaridan foyda ko'rmasa ham arzonlashtirib sotishdan himoya etish.

Proteksionistik siyosat quyidagi yo'nalishlarga ega:

-tayyor mahsulotni importida, yuqori eksportida esa pastroq bojxona bojlarini nazarda tutuvchi bosh to'lovlari;

- notarif to'siqlari: kvotalar, litsenziyalash, davlat monopoliyasi;

Import miqdorini cheklash maqsadida import kvotalari belgilanadi. Bunda mamlakatga ma'lum belgilangan (kvota) miqdorda tovarlarni import yoki eksport qilishga ruxsat beriladi.

**Litsenziyalash-bu tashkilot tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat ma'lum turlarini amalga oshirish uchun ruxsat (litsenziya) olish. Davlat monopoliyasi faqat davlat organlarining ma'lum tashqi iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshirish huquqi.**

Umumlashtirib olganda fritrederlik (erkin savdo) siyosatini olib borishning iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'siri quyidagi holatlarda o'z aksini topadi:

-milliy iqtisodiyot tarmoqlarining xalqaro darajada ixtisoslashuvi chegaralarini kengaytirish asosida tovarlarini ayriboshlayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi, undagi aholining turmush darajasi va sifatini oshiradi.

-tashqi savdo yordamida ilmiy-texnik yutuqlarning mamlakatlarda yoyilishiga erishiladi, bu esa davlatlarning innovatsiyaviy asosda iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

-raqobatning rivojlanishiga tegishli shart-sharoitlarni yaratib, ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarning joriy etilishini rag'batlantiradi, natijada esa mahsulotlarning turlari ko'payadi, sifati esa yaxshilanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Ochiq savdo konsepsiyasi" keyinchalik "Ochiq iqtisodiyot" nazariyasining tarkibiy qismiga aylangan.

Ochiq iqtisodiyot xorijiy mamlakatlar bilan eksport, import va moliyaviy operatsiyalar kabi mexanizmlar bilan bog'langan. Biroq iqtisodiyotning ochiqligi iqtisodiyotning "erkin savdo" va "proteksionizmga" yo'nalganligi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf eta ololmaydi. Demak, davlat tashqi savdo siyosatida ushbu ikki yo'nalishi o'rtasida oqilona nisbatni topish kerak. Amaliy jihatdan olganda hozirgi zamon tendensiyalari davlat tomonidan

"proteksionistik" va "erkin savdo" siyosatining olib borilishi va ularning qoʻllanilishi ham ushbu xulosalarni tasdiqlaydi.

Tarixiy jihatdan xalqaro savdoda proteksionizm va erkinlashtirish davrlari almashib kelgan, demak erkinlashtirish va proteksionizm birbiriga qarama-qarshi umumiylikka ega kategoriyalar sifatida oʻziga xos tarzda vujudga kelgan turli shart-sharoitlarda birbiriga oʻtish dialektikasi mavjud.

Hozirgi davrda proteksionizm va fritrederlikka asoslangan siyosatni amaliy jihatdan "sof" holda olib borish mumkin emas, ularning oʻrtasida oqilona nisbatni topish davlatning tashqi savdodan koʻzlagan maqsadiga erishish asosidir.

"Proteksionistik" siyosat tarafdorlari mamlakatning qisqa davrdagi manfaatlaridan, "erkin savdo" tarafdorlari esa mamlakatning uzoq davrdagi manfaatlaridan kelib chiqishini koʻrsatadi.

Tashqi iqtisodiy siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari "erkin savdo" va "proteksionizm" siyosati oʻrtasida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi oʻziga xos xususiyatlarni va jahon xoʻjaligining rivojlanishidagi yangi tendensiyalarni eʼtiborga olgan holda oqilona nisbatni taʼminlash orqali ana shu vazifani bajarishga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim.

### **21.7. Oʻzbekistonning jahon iqtisodiyotiga qoʻshilishi va tashqi iqtisodiy faoliyati.**

Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda:

birinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish boʻyicha aniq yoʻnaltirilgan siyosat yuritish;

ikkinchidan, respublika iqtisodiyotiga toʻgʻridan-toʻgʻri kapital qoʻyilmalarni keng jalb qilishni taʼminlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yanada takomillashtirish;

uchinchidan, respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan, milliy iqtisodiyotning zamonaviy tuzilmasini yaratishda yordam beradigan xorijiy investorlarga nisbatan "ochiq eshiklar" siyosatining izchil amalga oshirilishi;

toʻrtinchidan, respublikaning mustaqilligini taʼminlaydigan va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bogʻliq sohalarda mablagʻlarni investitsiyalash.

Shuni ta'kidlash kerakki, davlat tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda. Bu yo'nalishda bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan " Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta'minlash va eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 dekabrda PF-5286-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasining 05.24.2019 yildagi "Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4337-sonli qarori.

So'nggi yillarda eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirishga qaratilgan hukumat islohotlari va umuman olganda, tashqi savdoni muvozanatlash maqsadida amalga oshirilayotgan siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ijobiy siljishlarga olib keldi.

O'zbekiston tashqi savdo hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. Shunday qilib, agar 2010 yilda respublikaning tashqi savdo aylanmasi 22,199 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 42200 million dollarni tashkil etdi, deyarli ikki baravar ko'paydi. Shu bilan birga, eksport 13,023 AQSH dollardan 17,900 million dollarga (1,37 marta), import 9175,8 milliondan 24.300 million dollarga (2.65 baravar) o'sdi. Bu mustaqillik yillarida erishilgan eng yuqori ko'rsatkich bo'lib, bunga eksportdagi tayyor mahsulotlar va xizmatlar ulushini 50% dan ko'proq oshirish hisobiga erishildi. Natijada, mamlakatning valyuta zaxiralari (bugungi kunda ular 26 milliard dollardan oshadi), ya'ni iqtisodiyotimizning tashqi bozordagi o'zgarishlarga nisbatan barqarorligi oshdi.

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida, respublika eksport tarkibida xom ashyo ulushi ustunlik qilar edi, bugungi kunda tayyor mahsulot eksporti xomashyo mahsulotlari eksportidan 1,2 baravar oshdi. Bu natijaga noorganik kimyo mahsulotlari, o'g'itlar, parfyumeriya va kosmetika mahsulotlari, avtomobillar, trikotaj buyumlar, kiyim bosh kabi mahsulotlarning eksport qilish hajmini oshirish evaziga erishildi. O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish bozor islohotlari jarayonida bo'lgan milliy iqtisodiyotning real ehtiyojlariga asoslanadi. Ayni paytda O'zbekistonni global iqtisodiyotga integratsiyalashtirishni, dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan munosib o'rin egallash asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 193 mamlakati bilan tashqi savdo aloqalarini amalga oshirmoqda. Eng katta tashqi savdo aylanmasi Xitoy (18,1%), Rossiya (15,7%), Qozog'iston (8,0%), Koreya Respublikasi (6,5%), Turkiya (6,0%) va boshqa davlatlar bilan amalga oshiriladi. Germaniya (2,0%). So'nggi yillarda qo'shni davlatlar: Tojikiston, Turkmaniston va Qirg'iziston



bilan savdo aloqalarida o'sish kuzatilmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarida ikkita, ya'ni MDH va uzoq xorij mamlakatlari yo'nalishini ajratish mumkin.

Davlatimiz tomonidan MDH mamlakatlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va tashqi savdoni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2010 yildan 2019 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida 90,1% ga, shu jumladan MDH mamlakatlari bilan 55,7% ga, boshqa davlatlar bilan 115,2% ga oshdi.

Ma'lumki, xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga yordam beradi. Mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish, eksport qiluvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar turini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar eksport qiluvchilar sonini ko'paytirdi.

Eksport tarkibida energiya va neft mahsulotlari (19,1%), xizmatlar (21,9%), to'qimachilik va to'qimachilik buyumlari (9,8%), oziq-ovqat mahsulotlari (7,3%), rangli metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (6,0%) eksporti ustunlik qilmoqda.

Eksport bo'yicha yetakchi sheriklari - Xitoy, uning ulushiga eksportning 18,1%, Rossiya - 12,5%, Qozog'iston - 7,4%, Turkiya - 6,5%, Afg'oniston - 5,0% to'g'ri keladi. Ushbu mamlakatlarga eksport qilinadigan mahsulotlar tarkibiga energiya tashuvchilar va neft mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.

Importga kelsak, importning asosiy qismi Xitoydan (17,8%), Rossiya (23,2%), Koreya Respublikasi (8,8%), Qozog'iston (8,7%), Turkiya (5). 1%, Germaniya - 3,5%, AQSH - 1,4% tomonidan amalga oshiriladi.

2019 yilda xizmatlar eksporti hajmi 2010 yildagi 619,3 million dollarga nisbatan, 560,2 million dollarni tashkil etdi va o'sish 574,9 foizni tashkil etdi. Temir yo'l va havo transporti, tibbiy, moliyaviy, sayyohlik va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatishda yuqori o'sish kuzatilmoqda.

Respublikada ishlab chiqarilmaydigan va korxonalarining takror ishlab chiqarish sikli uchun zarur bo'lgan mahsulotlar importi hajmi oshdi. Bu - mashina va uskunalari, kimyoviy mahsulotlar, rangli va qora metallar.

Shunday qilib, tashqi savdoda yildan-yilga ijobiy tendensiyalar kuchaymoqda, import va eksportning tovar tarkibida sifat o'zgarishlar ro'y bermoqda, xorijiy sheriklar, ayniqsa MDH davlatlari bilan savdo aloqalari yaxshilanmoqda va ijobiy savdo balansiga erishilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat, xususan mamlakatda amalga oshirilayotgan tashqi savdo siyosatining natijasi bevosita aholi turmush darajasiga ijobiy ta'sir qilmoqda.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o'ziga xos xususiyati nimadan iborat? Jahon xo'jaligining milliy iqtisodiyotga ta'siri qanday?

2. Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi jarayonining mohiyati nimadan iborat?

3. Globallashuv jarayoni nima va uning qanday yo'nalishlari mavjud? Globallashuv jarayonining ziddiyatli jihatlarini gapirib bering.

4. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillarga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rol o'ynaydi?

5. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nima uchun turli shakllarga ega bo'ladi? Ularning asosiy shakllarini aytib bering.

6. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni nima zarur qilib qo'yadi? Hozirda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qanday xalqaro tuzilmalarni bilasiz?

7. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima va uning qanday shakllari mavjud?

8. Erkin savdo hududlarining mohiyatini tushuntiring. Bunday tuzilmalarning integratsiyalashuv jarayonidagi o'rni qanday?

9. Bojxona ittifoqi va to'lov ittifoqi bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

10. Umumiy bozorning amal qilish tamoyillari qanday va bugungi kunda uning faoliyati uchun qanday shart-sharoitlar talab qilinadi?

## **22. XALQARO VALYUTA MUNOSABATLARI VA VALYUTA KURSI.**

### **22.1. Xalqaro valyuta munosabatlari. Jahon valyuta tizimining rivojlanishi**

Turli mamlakatlar iqtisodiyoti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tovarlar va xizmatlar savdosi va moliyaviy operatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu operatsiyalarga pul vositachilik qiladi. Natijada, jahon iqtisodiyotida pulning harakati bilan bog'liq holda valyuta munosabatlari vujudga keladi. Valyuta munosabatlari milliy iqtisodiyot va xalqaro institutlar faoliyati natijalarining ayirboshlashinuvini aks ettiradi. Valyuta munosabatlarning asoslari bu tovar

ishlab chiqarish, savdo, xizmatlar ko'rsatish, mamlakatlar o'rtasidagi kapital harakati.

Valyuta munosabatlari to'lov balanslari, valyuta kurslari, kreditlar bo'yicha hisob-kitob operatsiyalari orqali ayirboshlash va taqsimlash sohasida vujudga kelsa-da, valyuta munosabatlari har ikki davlatning iqtisodiy rivojlanishiga va umuman xalqaro iqtisodiy munosabatlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro to'lov oborotida pulning harakat qila boshlashi bilan vujudga kelgan. Bir vaqtning o'zida jahon pul muomalasi tizimining ahamiyati va uning nisbatan mustaqillik darajasi oshib borgan. Valyuta munosabatlarining taraqqiyoti ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon xo'jaligi tarkibining o'zgarishi bilan uzviy bog'liqdir.

Binobarin, valyuta munosabatlari bu tashqi savdoni amalga oshirishda, iqtisodiy va texnik yordam ko'rsatishda, valyuta sotib olish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda valyutaning ishlashi bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlaridir. Valyuta operatsiyalarining ishtirokchilari davlatlar, jismoniy va yuridik shaxslardir.

**Valyuta munosabatlari-davlatlar o'rtasida tashqi savdo, kapital chiqarish, foydani olib chiqish, zaym va subsidiyalar olish, fan-texnika sohasidagi almashuv, turizm va boshqa shunga o'xshash turli xo'jalik aloqalariga xizmat qiluvchi jahon puli amal qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardir.**

Valyuta munosabatlari muomala ya'ni taqsimot va almashuv sohasida amal qiladi. Lekin, nisbatan mustaqil holda to'lov balansi valyuta kursi ahvoriga, kredit va hisob operatsiyalari orqali jahon iqtisodiyoti ayrim mamlakatlarni iqtisodiy rivojlantirishga, ularning iqtisodiy aloqalariga turli ko'rinishda ta'sir o'tkazadi.

Har bir milliy bozor o'zining milliy valyuta tizimiga ega. Xalqaro valyuta tizimi bu jahon xo'jaligining rivojlanishi va davlatlararo kelishuvga muvofiq huquqiy mustahkamlangan valyuta munosabatlari shakli; tashqi bozorlarda markaziy emission banklar faoliyatini tartibga soluvchi qoida, qonun va muassasalar to'plami. Uning tarkibiy elementlari quyidagilar:

- asosiy to'lov vositalari (milliy valyutalar, oltin, xalqaro valyuta birliklari;
- valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmlari;
- valyutani almashtirish shartlari;

- xalqaro bozorlar rejimi ya'ni xalqaro valyuta va oltin bozori tartibi;
- valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi.

Xalqaro valyuta tizimi milliy valyuta tizimlari asosida harakat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'larni, shu jumladan, valyutani almashtirish va sotishni yirik tijorat banklari amalga oshiradilar. Ushbu banklar boshqa mamlakatlarda o'z firmalariga ega yoki boshqa banklar bilan shartnomaga ega bo'ladilar. Bu banklar orqali savdo va boshqa tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish natijasida, mijozlar ushbu bankka pul qo'yish va uni boshqa mamlakatga boshqa turdagi valyutada o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tashqi valyuta bozorining bosh iqtisodiy agenti bo'lib valyuta eksportyorlari va importyorlari hisoblanadi va ular bozorda valyutaga talab va taklifni shakllantiradilar. Undan tashqari, valyuta bozorida banklar, valyuta brokerlar, dillerlar bevosita valyuta bilan savdo qiladilar. Xalqaro valyuta bozorining yirik markazlari Tokio, Nyu-York, Bryussel hisoblanadi.

**Xalqaro valyuta tizimi (XVT) o'z taraqqiyotida uch bosqichni bosib o'tgan:**

-birinchi bosqich, XVTning vujudga kelishi, XIX asrdan to ikkinchi jahon urushigacha;

-ikkinchi bosqich, XX asrning 30-yillari oxiridan to 70 yillargacha (ushbu bosqichning mazmunini 1944 yilda bo'lib o'tgan Bretton-Vud konferensiyasi belgilab bergan)

-uchinchi bosqich, XX asrning 70-yillaridan hozirgacha davom etmoqda (1976 yil Yamaykada shakllangan).

Xalqaro valyuta tizimi XIX-asr oxirida oltin andoza asosida yuzaga kelgan bo'lib, bunda ayrim mamlakatlarning milliy valyutasi boshqa mamlakat valyutasi bozorida oltinga erkin almashtirilgan. Bu valyuta tizimi XX asr boshlaridagi buyuk depressiya davrida barbod bo'ldi. 1944 - yil AQSHda Bretton-Vuds konferensiyasida rasmiylashtirilgan valyuta kursining oltin andozasi saqlanib qolgan. Lekin bunda AQSH dollari oltin va valyuta almashuvining bosh vositasi qilib belgilandi. Bu ikkala vositada ham valyuta kursi huquqiy tomondan oltinning jahon bozoridagi narxiga ko'ra belgilab qo'yish asosida amalga oshirildi. Ushbu konferensiyada "Xalqaro valyuta fondi" tashkil etildi.

1971 yilga kelib AQSH hukumati dollarni oltinning rasmiy narxi bo'yicha almashtirib olishdan bosh tortdi, chunki bu davrga kelib jahondagi pul

zaxirasining o'sishi qazib olinayotgan oltin miqdoriga bog'liq bo'lmay qoldi, shuningdek oltin zaxiralarining o'sishi xalqaro savdo va moliya miqyoslarining o'sishidan orqada qola boshladi. Bu orada chet mamlakatlarga chiqib ketgan AQSHning dollari miqdori ko'payib, savdo balansida kamomad oshib ketgan.

Hozirda amal qilib turgan valyuta tizimi 1976 yilda XVF tomonidan joriy etilgan. Davlatlar o'rtasida valyuta munosabatlari milliy pul birligining o'zgarib turuvchi "suzuvchi" kursi asosida harakat qilishini belgilangan.

**Chet el valyutasi** - xorijiy davlatlarning banknotalari, shuningdek turli xil valyuta birliklarida ko'rsatilgan turli xil to'lov vositalari - veksellar, cheklar va boshqalar.

**Kollektiv valyuta** - bu ma'lum bir davlatlar doirasidagi hisob-kitoblar uchun ishlatiladigan (masalan, yevro, rubl, dollar) sun'iy ravishda yaratilgan xalqaro valyuta.

Barcha valyutalar uch guruhga ya'ni erkin, qisman va konvertatsiya qilinmaydigan valyutaga bo'linadi. Valyuta konvertatsiyasi iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishi uchun muhim ko'rsatkichdir. **Konvertatsiya deganda bozorda haqiqiy valyuta kursi bo'yicha milliy valyutalarni xorijiy valyutalarga almashtirishning kafolatlangan imkoniyati tushuniladi.** Cheklovlari darajasi yoki ularning to'liq yo'qligi valyutalarning konvertatsiyalanish xususiyatini baholashda belgilovchi tamoyil hisoblanadi.

Erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta - har qanday operatsiyalar bo'yicha ham rezidentlar, ham norezidentlar uchun valyuta operatsiyalar bo'yicha qonuniy cheklovlar mavjud emasligini anglatadi.

Qisman konvertatsiya qilinadigan valyuta, ushbu valyuta turi, operatsiyalarning ayrim turlari yoki valyuta operatsiyalarning turli subyektlari uchun miqdoriy cheklovlar yoki valyuta ayirboshlash uchun maxsus ruxsat berish tartibi bor bo'lgan mamlakatlarda mavjud bo'ladi.

Konvertatsiya qilinmaydigan valyuta - bu qonunchilikda deyarli barcha turdagi operatsiyalar bo'yicha cheklovlar nazarda tutilgan mamlakat valyutasi.

Xalqaro valyuta operatsiyalarda milliy valyutani ishlatishda valyuta **devalvatsiyasi va revalvatsiya** kabi tushunchalar qo'llaniladi:

- **valyuta devalvatsiyasi** milliy valyutaning arzonlashishi ya'ni chet el valyutasi birligining milliy valyuta birliklarida o'sishi. Shunga ko'ra, har qanday chet el valyutasining (dollar) bir birligini sotib olish uchun ko'proq milliy valyutaning (so'mning) birligi kerak bo'ladi;

- **revalvatsiya** milliy valyuta narxining oshishi yoki milliy pul birliklarida chet el valyutasi narxining pasayishi, ya'ni har qanday chet el valyutasini sotib olish uchun milliy valyutani ancha kam sarflash kerak bo'ladi. O'zbekistonda faqat respublikaning Markaziy banki rasmiy ravishda milliy valyuta narxining ko'tarilgani (revalvatsiya) yoki pasayganligi (devalvatsiyasi) to'g'risida e'lon qilishi mumkin.


## 22.2. Valyuta kursu. Valyuta bozorida valyutaga nisbatan talab va taklif.

Har qanday valyuta tizimining muhim elementlaridan biri valyuta kursidir. Valyuta kursi mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan narxidir. Suzib yuruvchi valyuta tizimida valyutaning kursi (narxi) bozordagi talab va taklif asosida shakllanadi.

Valyutaning bozor (muvozanat) narxi bu valyuta bozoridagi valyuta taklifi unga bo'lgan talabga teng bo'lgan kursdir.

Xorijiy valyutaga talab mamlakatning tovar va xizmatlar importiga bo'lgan ehtiyoji, mamlakatga kirib kelayotgan turistlarning sarflari, mamlakatning to'lashi kerak bo'lgan to'lovlar miqdori va shu kabilar bilan aniqlanadi. Valyutaning taklifi esa mamlakatning eksport hajmi, uning olgan zayomlari miqdori bilan aniqlanadi. Xorijiy valyutaga bo'lgan talab va taklif davlatning iqtisodiy ahvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari, pulning real xarid qobiliyati va mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi kabi omillar valyuta kursining o'zgarishlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta bozorida, valyutaga (so'm, dollar) bo'lgan talab (D) va uning taklifi (S) 22.1.- rasmda keltirilgan.



## 22.1 - rasm. So‘mning dollarga nisbatan almashish kursining shakllanishi.

$E_n$  - valyuta bozoridagi valyutaga talab va uning taklifi o‘rtasidagi muvozanatga mos keladigan nominal kurs.  $E$  nuqtasi - valyuta bozoridagi muvozanat nuqtasi.  $E_n$ - nominal kurs (chet el valyutasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri kotirovkasi, masalan, 1 AQSH dollari uchun 12000so‘m);  $M$  - valyutaning muvozanat miqdorini ko‘rsatadi.

Talab va taklif egri chiziqlari klassik ko‘rinishga ega, ammo talab va taklifni belgilovchi omillar biroz boshqacharoq. Chet el valyutasining taklifi O‘zbekiston tovarlari va xizmatlari importchilari, xorijiy investorlar va O‘zbekiston eksportchilari tomonidan shakllantiriladi. Xorijiy valyutaga bo‘lgan talabni O‘zbekiston importchilari va investorlari, o‘zbek tovarlari va xizmatlari eksportchilari tomonidan shakllantiriladi. Natijada, so‘m evaziga dollarga bo‘lgan talab almashuv kursidan pasayib boruvchi funksiyasi, so‘mga dollar taklifi esa ortib borayotgan funktsiya ko‘rinishida bo‘ladi. Talab taklifdan qanchalik ko‘p bo‘lsa, valyuta shunchalik qimmatga tushadi.

Boshqa bozorlardan farqli o‘laroq, ushbu bozorda har bir tovar-valyutani baholaydigan umumiy o‘lchov birligi mavjud emas. Binobarin, ushbu bozorni tovar ayirboshlash bozori deb qarash mumkin, bu yerda turli xil valyutalarning nisbatlarini juft-juft qilib tahlil qilish zarur.

Valyuta nominal kursini belgilovchi omillarga kelsak, ular quyidagicha aniqlanadi: agar real valyuta kursi quyidagicha ifodalangan bo‘lsa

$$E_r = E_n \cdot \frac{P_d}{P_f},$$

bu yerda:  $E_r$  - real valyuta kursi;

$P_d$  - o‘z mamlakatlarida ishlab chiqarilgan tovarlar narxlari darajasi, ichki narxlar indeksi;

$P_f$  - chet elda ishlab chiqarilgan tovarlarning narx darajasi, chet elda narxlar indeksi, u holda nominal kursni quyidagicha ifodalash mumkin

$$E_n = E_r \cdot \frac{P_f}{P_d}.$$

Ushbu tenglama nominal valyuta kursining nima aniqlashini ko‘rsatadi: bu ikki mamlakatda real almashuv kurs va narx darajasi

Agar narxlar darajasi ( $P_d$ ) oshsa, masalan, O'zbekistonda, nominal almashuv kurs ( $E_n$ ) pasayadi, chunki, endi so'm arzonroq va unga kamroq chet el valyutasini (masalan, AQSH dollarini) sotib olish mumkin. Boshqa tomondan, agar AQSHda narxlari darajasi ( $P_f$ ) ko'tarilsa, nominal almashuv kursi oshadi, chunki dollar arzonlashganligi sababli, so'mga ko'proq dollar sotib olish mumkin bo'ladi.

Har bir mustaqil davlat o'z milliy valyutasiga ega bo'lishga intiladi. Milliy valyutaning mavjudligi mamlakatning to'liq mustaqilligi, milliy iqtisodiyotni "import qilinadigan" inflyatsiyadan himoya qilish iqtisodiyotni real va moslashuvchan boshqarish imkoniyatining kafolati bo'lib, turli valyutalar sharoitida ularni almashtirish zaruriyati tug'iladi. Ichki almashuvda qoida tariqasida, har bir mamlakat o'zining milliy valyutasidan foydalanadi. Har qanday mamlakatdan tovar yoki xizmatlarni import qilish uchun biz ushbu mamlakat valyutasini sotib olishimiz kerak. **Ayirboshlash kursi - bu ikki mamlakat valyutalari o'rtasidagi munosabatlar yoki boshqa mamlakatlarning pul birliklarida ifodalangan mamlakat pul birligi narxi.** Ularning sotib olish qobiliyati va boshqa bir qator omillar (to'lov balansining holati, inflyatsiya darajasi, qisqa muddatli kapitalning davlatlararo migratsiyasi) bilan belgilanadigan turli mamlakatlarning pul birliklari o'rtasidagi nisbat.

Markaziy bank yoki biron bir davlat idorasi tomonidan belgilanadigan rasmiy kurs bilan valyuta bozorida (birjada) shakllanadigan erkin kursni bir biridan farqlash lozim.

Valyuta kurslarining nominal va real kursi (qiymati) farqlanadi. **Nominal kurs - bu bir valyuta narxining boshqa valyutada ifodalanashi. Valyutalarning nisbiy narxlari kurs kotirovkalari deb ataladi.** To'g'ri va teskari kotirovkalar mavjud. Ko'pgina mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan chet el valyutasini to'g'ridan-to'g'ri kotirovka qilishda kurs chet el valyutasi birligiga to'g'ri keladigan milliy valyuta birliklari soniga qarab belgilanadi (masalan, 1 AQSH dollari uchun 8000 so'm). Teskari kotirovka bo'lsa, milliy valyuta birligiga to'g'ri keladigan chet el valyutasi birliklarining soni aniqlanadi (1 so'm uchun 0,008 AQSH dollari). Nominal kurs bo'yicha ma'lumotlarning mavjudligi tashqi va ichki bozorlarning narxlarini taqqoslashga imkon beradi. Valyuta kurslarining o'zgarishi ichki narxlarning bir xil xalqaro narx darajasida o'zgarishiga olib keladi.

Nominal kursdan farqli o'laroq, real valyuta kursi bir mamlakat tovarlari. ikkinchi mamlakat tovarlariga qaysi nisbatda ayirbrshlanishini ko'rsatadi va



shu bilan ma'lum bir mamlakatning xalqaro bozorda qanchalik raqobatdosh ekanligini ko'rsatadi.

Valyuta kursi va narxlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va teskari bog'liqlik mavjud: narxlarning ko'tarilishi valyuta kursini pasaytiradi, kursning pasayishi narxlarning yangi sakrashiga olib keladi.

Valyuta kurslarining quyidagi tizimlari farqlanadi:

**1) Erkin o'zgaruvchan valyuta kurslari** - bu talab va taklifning o'zaro ta'siri natijasida valyuta bozorida shakllanadigan kurs, bu jarayonga davlatning hech qanday aralashuvisiz, talab va taklifning o'rtasidagi nisbat asosida shakllanadi. Shunday qilib, suzuvchi valyuta kursida uning kattaligi, ya'ni milliy valyutada ifodalangan chet el valyutasining narxi unga bo'lgan talab va taklifni belgilovchi omillarga bog'liq. Xorijiy valyutaning qadrsizlanishi (qachonki chet el valyutasini sotib olish uchun ko'proq milliy valyuta kerak bo'lsa) yoki narxning oshishini (chet el valyutasi birligini sotib olishga milliy valyutadan kam mablag' sarflanganda) anglatadi.

Valyuta kursiga ta'sir qiluvchi omillar:

- **iste'molchilar didining o'zgarishi** tovar va xizmatlarni eksport yoki importning ko'payishiga olib keladi. Reklama, yangi, yanada mukammal modellar yaratish orqali xorijiy tovarlarning jozibadorligini oshirish mumkin. Import qilinadigan tovarlarni jozibadorliging yanada oshishi tovarlar iste'molining ko'payishiga olib keladi;

- **daromadning nisbiy o'zgarishi.** Iste'mol xarajatlari hajmi to'g'ridan-to'g'ri milliy daromad darajasiga bog'liq. Daromad oshishi bilan ham mahalliy, ham import qilinadigan tovarlarning iste'moli oshadi;

- **real foiz stavkasi.** Foiz stavkasini o'zgartirish orqali mamlakatda pul muomalasi tartibga solinadi, bu esa milliy valyuta kursiga ta'sir etishi mumkin;

- **xalqaro hisob-kitoblarda va spekulyativ kapital bozorida valyutadan foydalanish darajasi.** Yevropada kapitalning qisqa muddatli harakati bo'yicha operatsiyalarni yevrodollarda amalga oshirish talab va taklif hajmiga, demak valyutaning narxiga ta'sir qiladi.

Butun dunyoda bir qonuniyat mavjud: iqtisodiy rivojlanish darajasi va iqtisodiyotning ochiqligi bilan ichki narxlar jahon darajasiga yaqinlashadi, bu esa avtomatik ravishda milliy valyutaning real kursining oshishiga olib keladi. Bir qator ko'rsatkichlar valyuta kursi uzoq muddatli muvozanat nuqtasiga nisbatan past yoki yuqori baholanganligini bildiradi, jumladan:

- eksport va importning o'sish sur'atlari;

- savdo balansining saldosi belgisi va o'sish sur'atlari;
- valyuta zaxiralarining miqdori va dinamikasi.

Agar mamlakatning valyuta zaxiralari hajmi oshayotgan bo'lsa, demak, boshqa sharoitlar o'zgaras bo'lganda, bu kursni past baholash siyosatidan dalolat beradi.

- o'rtacha ish haqi va umuman pul daromadlari bo'yicha hisob-kitoblar. Agar daromadlar dollar ko'rinishida o'sayotgan bo'lsa, demak, boshqa sharoitlar o'zgaras bo'lsa, bu milliy valyutaning haqiqiy mustahkamlanishidan dalolat beradi, agar tushsa, u zaiflashadi.

Pasaytirilgan valyuta kursi moliyaviy barqarorlikni cho'zib yuboradi va valyuta zaxiralarining ko'payishi bilan uni izdan chiqarishi mumkin. Pasaytirilgan valyuta kursi sun'iy ravishda milliy mahsulotlarning past narxlarini saqlab qolishga yordam beradi. Ichki va jahon narxlaridagi farq xomashyoning ommaviy ravishda ataylab arzon narxlarda chiqib ketishining oldini olish bo'yicha har qanday choralarni samarasiz qiladi. Milliy mahsulotlar uchun narxlarni past darajada ushlab turish korrupsiyani kuchaytirib yuboradi.

Valyuta kursining pastligi, hatto bojxona to'lovlaridan ham samaraliroq, ichki bozorni import qilinadigan tovarlar va xizmatlar raqobatidan yopib qo'yadi. Natijada, yopiqlikning "issiqxona" sharoitlari bilan taltaytib yuborilgan milliy iqtisodiyot o'nlab yillar davomida turg'unlikka mahkum bo'ladi.

2) **Belgilangan valyuta kursi.** Bu hukumat (Markaziy bank) tomonidan belgilanadigan valyuta kursi. Moslashuvchan valyuta tizimining o'ziga xos kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida ko'plab mamlakatlar o'z kurslarini belgilaydilar. Bunda Markaziy bank xorijiy valyutani belgilangan kurs bo'yicha sotib olish va sotish majburiyatini oladi. Bunda valyuta kursining muvozanatli bozor kursiga mos kelishi shart emas. Odatda kurs har qanday qattiq valyutaga yoki valyuta savatiga bog'lab qo'yiladi. Valyuta kursini ushlab turish uchun Markaziy bank valyuta bozorida valyuta defitsitini rasmiy zaxiralar hisobiga to'ldirish yoki valyuta sotib olish orqali valyuta intervensiyalarini amalga oshiradi. Biroq, rasmiy zaxiralar joriy defitsitini doimiy ravishda moliyalashtirish manbai bo'la olmaydi va oxir-oqibat hukumat yoki Markaziy bank devalvatsiya yoki revalvatsiya yo'li bilan valyuta narxini o'zgartirishga majbur bo'ladi.

Valyuta kursini belgilashga yana bir asos - bu xarid qobiliyati pariteti (XQP), ya'ni, valyuta kursi valyutalarning ma'lum tovar va xizmatlar

to'plamini (standart iste'mol savati) sotib olish qobiliyatiga asoslangan holda aniqlanadi. Ushbu konsepsiyani birinchi marta shved iqtisodchisi Gustav Kassel ishlab chiqqan. Uning fikricha mukammal raqobat sharoitida bir xil mahsulotni turli mamlakatlarda har xil narxlarda sotish mumkin emas. Masalan, agar AQSHda o'rnatilgan standart 1000 dollar, Buyuk Britaniyada 700 funt sterling bo'lsa, u holda kurs quyidagicha bo'ladi: 1 dollar = 0.7 funt sterling. Biroq, amalda bu taxmin har doim ham tasdiqlanmaydi:

- xarid qobiliyatini taqqoslashda xalqaro savdoda tovarlar va xizmatlar savati (to'plami) ishlatiladi. Aslida, mutlaqo bir xil tovarlar va xizmatlar to'plamlari hech qachon turli xil valyutalarga sotib olinmaydi;

- valyutaga bo'lgan talab va uning taklifi o'rtasidagi nisbat valyuta kursiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Agar tashqi bozorda davlat ko'proq ne'matlarni sotib olsa va tovarlarni kamroq sotsa, u holda valyutaga bo'lgan talab taklifdan yuqori bo'ladi;

- iqtisodiy omillardan tashqari valyuta kurslariga siyosiy, psixologik (kutishlar, kayfiyat, qo'rquv), harbiy omillar katta ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatlar tashqi iqtisodiy aloqalariga valyuta kursining o'zgarishi ta'sir qiladi. Ya'ni kursning pasayishi ushbu davlat mahsulotini jahon bozorida nisbatan raqobatlashuvini kuchaytiradi, tovarlar va xizmatlarni eksport qilishga yordam beradi, chetdan tovar va xizmatlar kelishiga qarshilik ko'rsatadi, natijada tashqi savdo va to'lov balansining yaxshilanishiga olib keladi.

XVF tomonidan qabul qilingan "tebranib turuvchi boshqariladigan valyuta kursi tizimiga" ko'ra unga a'zo bo'lgan har bir davlat o'z valyuta kursini mustaqil tanlab olish huquqiga ega. XVF nizomiga ko'ra mamlakat valyuta kurslarini o'rnatish tartibi quyidagicha:

1. Mamlakat valyuta kursini XVFning hisob birligiga yoki muvofiq keluvchi biron bir valyutaga bog'liq holda saqlashi.

2. O'z valyutalarining qiymatini boshqa XVF ga a'zo mamlakat valyutasi qiymati bo'yicha ushlab turish haqida bitim tuzish lozim.

Valyuta munosabatlarini davlat tomonidan va davlatlararo miqyosda tartibga solish valyuta siyosati asosida amalga oshiriladi.

**Valyuta siyosati-davlat organi va hukumatlararo tashkilot tomonidan qabul qilingan dasturga muvofiq o'tkaziladigan iqtisodiy tadbirlar.**

Valyuta kursining o'zgarishi iqtisodiyotning ahvoriga sezilarli darajada ta'sir etadi. SHuning uchun u mamlakat va davlatlararo munosabatlarda tartibga solinadi.

Davlatning valyuta kursiga ta'sir etishning to'g'ri va bilvosita usullarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bilvosita usullarga pul kredit va moliyaviy siyosatning barcha vositalari kiradi. Milliy valyuta kursiga muomaladagi pul hajmi real foiz stavkasi, inflyatsiya sur'atlari ta'sir ko'rsatadi.

Davlat valyuta kursiga ta'sir ko'rsatuvchi to'g'ri usullarni qo'llash mumkin. Ularning ichidan diskont siyosatini (bank tomonidan olinuvchi foiz) va tashqi valyuta bozorlarida valyuta intervensiyasini ajratib ko'rsatish mumkin. AQSHda 70- yillarda dollarning kursi pasayishi kuzatilgan. 70 - yillarning oxirlarida AQSH hukumati dollarni baquvvatlash rejasini qabul qildi. U bank hisob stavkasini oshirish va yirik ko'lamda valyuta intervensiyasini nazarda tutar edi. Ushbu rejani amalga oshirish, boshida dollar kursining pasayishini to'xtatish, so'ngra esa 80-yillardan boshlab dollar kursini oshirish imkonini berdi. Bunga faqat yuqorida qayd qilingan vositalar bilan birga o'sha davrda o'tkazilgan kattiq pul-kredit siyosati orqali erishilgan.

Valyuta kursini tartibga solish devalvatsiyaga (valyuta kursining pasayishiga) va revalvatsiyaga (valyuta kursini oshirishga) qaratilgan bo'lishi mumkin. Hukumat oldiga qo'yilgan maqsadlar va mamlakat iqtisodiyotidagi ahvolga bog'liq bo'ladi. U valyutaning devalvatsiyasiga suyanib jami talabni eksport imkoniyatlari hisobiga oshirish yoki uni revalvatsiya bilan cheklashi mumkin.

Mamlakatlar o'zlarining valyutalarini tashqi bozorda sotish yoki sotib olish yo'li bilan valyuta intervensiyasini amalga oshiradilar. Valyuta kursining devalvatsiyasini amalga oshirish uchun valyuta bozorlarida o'z valyutasining taklifini oshirish zarur. Buni pulning qo'shimcha emissiyasi hisobiga amalga oshirish mumkin. Agarda valyuta intervensiyasi revalvatsiyaga qaratilgan bo'lsa, unda mamlakat markaziy banki o'zining milliy valyutasini o'zining ixtiyorida chet el valyutasi hisobiga sotib olishi zarur. Bunday tadbirlarni amalga oshirish uchun mamlakat valyuta revalvatsiyalariga ega bo'lishi kerak. Buning uchun esa davlatlarda maxsus barqarorlashtirish fondlari tashkil etiladi.

Valyuta sohasida davlat proteksionistik siyosatni ham qo'llashi mumkin. Uni qo'llash natijasida davlat oltin va valyuta operatsiyalar ustidan nazorat o'rnatadi. Milliy eksportyorlar o'zlarining mahsulotlarini sotishdan olgan valyutalarini bozorda sota olmaydilar. Uni o'rnatilgan kurs bilan banklarga topshirishlari, o'rniga esa milliy valyutani olishga majbur bo'ladilar.

Ma'muriy sohada valyuta harakatlarini muvofiqlashtirish hukumatlar darajasida olib boriladi. Valyutani tartibga solish sohasida G'arbdagi

rivojlangan “yettilik” mamlakatlari har yilgi yig‘ilishlari, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro rekonstruksiya va taraqqiyot banki (XRTB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IXTT), Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (XTU) muhim o‘rin tutadi.

### **22.3. To‘lov balansi va uning tarkibi**

**To‘lov balansi - bu har bir alohida mamlakat valyutasida, chet eldan olingan to‘lovlar miqdori va ma‘lum bir davr (yil, oy, chorak) uchun chet elga o‘tkazilgan to‘lovlar miqdori o‘rtasidagi nisbat; ma‘lum bir mamlakat rezidentlarining boshqa mamlakatlar rezidentlari bilan amalga oshirgan barcha iqtisodiy operatsiyalarining ma‘lum bir vaqt uchun muntazam qaydnomasi. Operatsiyalar bitim asosida amalga oshiriladi.**

**Iqtisodiy bitimlar** – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya’ni tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o‘tishi bo‘yicha kelishuvlardan iborat. To‘lov balansidagi ma‘lumotlar, avvalo, hukumat tomonidan valyuta, savdo, soliq siyosatini shakllantirish va siyosiy qarorlarni qabul qilish uchun talab qilinadi.

To‘lov balansi umumiy xalqaro tovar va moliyaviy oqimlarni aks ettiradi. Xalqaro bitimlar, odatda, to‘lovlarning qarshi harakatini nazarda tutadigan turli mamlakatlar rezidentlari o‘rtasida tovarlar, xizmatlar va aktivlar almashinuvi sifatida tushuniladi.

Har qanday operatsiya, qoida tariqasida, ikki tomon - tovarlarni yoki xizmatlarni qabul qilish va ular uchun to‘lovni taqdim etganligi sababli, u to‘lov balansida ikki marta aks ettiriladi: kredit va debet. Demak, har qanday bitim ikki tomoniga ega bo‘ladi va shu sababli to‘lov balansida ikki tomonlama yozuv tartibiga rioya qilinadi. Har bir bitim to‘lov balansining debet va kredit qismlarida aks ettiriladi. Shuning uchun to‘lov balansini taqqoslashning asosiy tamoyillaridan biri bu ikki tomonlama hisoblashdir.

**Kredit – tovarlar va xizmatlar yoki aktivlarning mamlakatdan chiqib ketishi bo‘lib, uning hisobiga mazkur mamlakat rezidentlari chet el valyutalarida qoplovchi to‘lovlar ekvivalentini oladi.** Kredit chet ellardan ularga sotilgan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovni olish bilan bog‘liq operatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, mablag‘lar oqimi bilan olib boriladigan operatsiyalar kredit moddolari bo‘yicha tasniflanadi. Ular to‘lov balansida "+" belgisi bilan aks ettiriladi.

**Debet –esa ularning mazkur mamlakatga kirib kelishi bo‘lib, uning hisobiga rezidentlar chet el valyutalarni sarflaydi. To‘lov balansida kreditlar umumiy summasi debetlarning umumiy summasiga teng bo‘lishi zarur.** Debet chet ellarga to‘lovlar (mamlakatdan mablag‘ chiqishi) bilan bog‘liq operatsiyalarni o‘z ichiga oladi va ular to‘lov balansida "-" belgisi bilan aks ettiriladi. Ushbu keltirilgan ta‘riflarning barchasi to‘lov balansi moddalarining tuzilishi va o‘zaro bog‘liqligini va uning makroiqtisodiy rolini tushunish uchun juda muhimdir.

Kredit va debet o‘rtasidagi farq schyot saldosi ( qoldig‘i) deb ataladi. Agar yakuniy qoldiq ijobiy bo‘lsa, u holda mamlakat boshqa mamlakatlarga bo‘lgan talablarini oshiradi va shunga muvofiq ular oldidagi majburiyatlar ham shuncha miqdorga kamayadi. Agar yakuniy balans salbiy bo‘lsa, u to‘lov balansi defitsitini kamaytirish uchun boshqa davlatlarga nisbatan o‘z majburiyatlarini oshirishi kerak.

Shuni ta‘kidlash kerakki, zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda balans so‘zi saldo sifatida tushuniladi, ya‘ni u yoki bu schyot uchun kredit va debet o‘rtasidagi farq.

Muayyan mamlakat va boshqa dunyo o‘rtasidagi barcha operatsiyalar joriy va kapital operatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Shunga ko‘ra, to‘lov balansi uchta asosiy elementni o‘z ichiga oladi:

- **joriy operatsiyalar hisobi** - joriy operatsiyalar balansi. Bu schyot savdo balansini o‘z ichiga olib, unda eksport import hajmi, tashqi savdo bilan bog‘liq xizmatlar balansi, turizm bo‘yicha to‘lovlar, bir tomonlama pul o‘tkazmalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (pensiya, sovg‘alar, chet elga pul o‘tkazmalari, chet ellarga beg‘araz yordam) hamda investitsiyalari bo‘yicha daromadlarini aks ettiradi. Joriy schyot balansi mamlakat qarzdorligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, joriy schyot milliy daromad va milliy xarajatlar o‘rtasidagi farq va mamlakatning qarzlar masalasidagi holatini aks ettiradi;

## 22.1 -jadval.

### To‘lov balansining tuzilishi.

<b>I. Joriy operatsiyalar hisobi</b>	
1. Tovar eksporti	2. Tovar importi
Tashqi savdo balansi qoldig‘i	
3. Xizmatlar eksporti (chet el turizmidan daromadlar	4. Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to‘lovlar

va h.k. - kreditli xizmatlar)	va h.k. - kreditli xizmatlar)
5. Investitsiyalardan sof daromadlar (kreditli xizmatlardan sof daromadlar)	
6. Sof transfertlar	
Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i	
<b>II. Kapital harakati hisobi</b>	
7. Kapital kirishi	8. Kapital oqib chiqishi
Kapital harakati balansi qoldig'i	
Joriy operatsiyalar va kapital harakati balansi qoldig'i	
<b>III. Rasmiy zaxiralarning o'zgarishi</b>	

- **kapital harakati hisobi** - kapital bozori bilan bog'liq operatsiyalar schyoti. Bu schyotda kapital transfertlar - asosiy kapital yoki asosiy kapitalni sotib olish va kapital qurilish uchun mo'ljallangan mablag'lar harakatini aks ettiradi.

- **rasmiy zaxiralar hisobi** - Bu bo'limda zaxiralarning o'zgarishi, XVF kreditlari va qarzlardan foydalanish hamda favqulodda moliyalashtirish (tashqi qarzni restruktizatsiyalash) to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Mamlakatning umumiy to'lov balansi joriy operatsiyalar uchun to'lov balansi, kapital balansi va kredit oqimlari balansi, shuningdek, oltin-valyuta zaxiralari harakatidan iborat bo'ladi. Mamlakatning umumiy to'lov balansi har doim muvozanatli bo'ladi, ya'ni uning faol va passiv operatsiyalari bir xil miqdorda bo'ladi.

Joriy operatsiyalar uchun to'lov balansi quyidagilardan iborat:

1. **Savdo balansi** ma'lum vaqt (oy, chorak, yil) davomida qiymat shaklida import va eksport qilinadigan tovarlar o'rtasidagi nisbatni tavsiflaydi. Savdo balansi - bu tovarlarning eksport va importi o'rtasidagi farqqa teng. Mamlakat yoki mamlakatlar guruhining jahon bozoridagi iqtisodiy mavqeini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri.

2. **Xizmatlar balansi** - hozirgi vaqtda to'lov balansida katta rol o'ynaydigan xizmatlar savdosi. Xizmatlar savdosi bu chet el vakolatxonalarini, harbiy bazalarni saqlash, tovarlarni tashish va sug'urtalash, turizm va xususiy xizmatlarni ko'rsatish, qarindoshlariga o'tkazmalar, meros, grantlar bilan bog'liq xizmatlar uchun to'lovlar va tushumlardan iborat.

3. **Kapital va kredit oqimlari balansi** davlat va xususiy uzoq va qisqa muddatli kapitalni eksport-import qilish uchun to'lovlar va tushumlarni aks

ettiradi. Bunga to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalari, bank depozitlari, tijorat kreditlari, maxsus moliyaviy operatsiyalar va boshqalar kiradi.

**4. Joriy transfertlar balansi.** Transfert to'lovlari - bepul yordam ko'rsatish. Ular balansda har doim + belgisiga ega.

Joriy to'lov balansining holati mamlakat valyuta kursiga bevosita ta'sir qiladi. Surunkali passiv to'lov balansi bilan valyuta kursi pasayadi, aktiv bo'lganida esa ko'tariladi.

Savdo balansi, xizmatlar almashinuvi, bir martalik to'lovlar va boshqa savdo-sotiq operatsiyalarini jamlash asosida joriy operatsiyalar bo'yicha saldo aniqlanadi. Joriy to'lov balansidagi profitsit yoki defitsit odatda "moliyalashtiriladi", aniqrog'i kapital va oltin harakati bilan muvozanatlashadi.

Uni qurish tamoyillariga binoan to'lov balansi umuman muvozanatda bo'ladi. Binobarin, muvozanatsizlik haqida faqat uning alohida moddalari bo'yicha gapirish mumkin. Uch xil saldo (qoldiq) mavjud: joriy operatsiyalar saldosi, kapital oqimi saldosi va rasmiy hisob saldosi.

**Joriy operatsiyalar bo'yicha saldo** - bu joriy to'lov balansi qoldig'i; mamlakat iqtisodiyoti uchun eng muhim ahamiyatga va nisbatan sekin o'zgarib turadigan moddalarni ifodalaydi. Boshqa moddalar bilan muvozanatlashishi mumkin.

**Kapitallar oqimlari saldosi** - buning hisobiga, qoida tariqasida, joriy to'lov balansining salbiy saldosi qoplanadi. Joriy to'lov balansi ijobiy bo'lgan taqdirda, mamlakatga kapital importi uning mamlakat eksportidan kam bo'lishi mumkin.

**Rasmiy zaxiralar balansi saldosi** - yakuniy balans saldosi, uning tarkibiga savdo balansi, joriy operatsiyalar balansi va kapital oqimining balansi kiradi, zaxiralarning umumiy o'zgarishi bundan mustasno. Yakuniy balansni hisoblashda favqulodda moliyalashtirish (to'lov balansi defitsitini yumshatish bo'yicha operatsiyalar, to'lovlarni kechiktirish va h.k.) va chet el davlat organlarining valyuta zaxiralaridagi majburiyatlari (davlatning xorijiy banklardagi depozitlarini sotib olish, chet el qimmatli qog'ozlarini sotish) hisobga olinmaydi. XVF ba'zan shunday qiladi. To'lov balansining yakuniy moddasi davlatning rasmiy zaxiralarining o'zgarishi hisoblanadi. Gap shundaki, joriy operatsiyalar balansi va kapital balansi bir-birini muvozanatlashtirishi kerak, ammo aslida ko'pincha defitsit yoki profitsit mavjud bo'ladi.

To'lov balansini mamlakatning xorijiy davlatlarga nisbatan talablari va majburiyatlarini ifodalovchi hisoblangan to'lov balansidan farqlash zarur. Ushbu talablar va majburiyatlarga davlat (oltin, valyuta va boshqalar) va



xususiy aktivlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, olingan va berilgan kreditlar, moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan korporatsiyalarning majburiyatlari kiradi. To‘lov balansidan farqli o‘laroq, hisoblangan to‘lov balansiga to‘lovlar amalga oshirilmagan boshqa davlatlarga nisbatan barcha talablar va majburiyatlar kiradi.

To‘lov balansi davlat tomonidan tartibga solinadigan ob’ektlardan biridir. **To‘lov balansini davlat tomonidan tartibga solish - bu uning asosiy moddalarini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy, shu jumladan valyuta, moliyaviy, pul-kredit tadbirlari majmuidir.**

To‘lov balansini tartibga solishning davlatlararo vositalariga quyidagilar kiradi.

- eksport kreditlari shartlarini kelishish;
- ikki tomonlama hukumat kreditlari, «svop» shartnomalari bo‘yicha markaziy banklarning milliy valyutadagi qisqa muddatli o‘zaro qarzlari;
- xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari, birinchi navbatda XVF kreditlari.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Xalqaro valyuta tizimi nima sababdan mavjud?
2. Jahon valyuta tizimining mazmuni nimadan iborat?
3. Xalqaro valyuta tizimini rivojlanish bosqichlari va ularning o‘ziga xos belgilarini izohlang.
4. Valyuta bozorida talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatning shakllanishini tushuntirib bering.
5. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi?
6. Chet el valyutalariga talab va taklifga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
7. To‘lov balansi nima maqsadda tuziladi?
8. To‘lov balansi operatsiyalari xususiyatiga ko‘ra necha turga bo‘linadi?
9. Joriy operatsiyalar balansida nimalar aks ettiriladi?
10. To‘lov balansini davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati nimada?

## GLOSSARIY

**Absolyut renta** - qishloq xo'jaligida yerga bo'lgan xususiy mulkchilik monopoliyasi natijasida vujudga kelib, hamma turdagi: yaxshi, o'rtacha va yomon yerlardan olinadigan renta.

**Aylanma kapital** - umumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomidagi ishlab chiqarish jarayonida to'liq iste'mol qilinadigan, o'z qiymatini yaratilgan mahsulotga to'liq o'tkazadigan va ashyoviy-buyum shaklini ham yo'qotadigan qismi.

**Aksiya** - bu uning egasi hissadorlik jamiyati kapitaliga o'zining ma'lum hissasini qo'shganligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog'oz.

**Aksiya kursi** - qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyalarning sotiladigan narxi.

**Amortizatsiya normasi** - amortizatsiya ajratmalari yillik summasining asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Asosiy kapital** - umumli kapitalning ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib, o'zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo'lib-bo'lib o'tkazib boradigan va ashyoviy-buyum shaklini o'zgartirmaydigan qismi.

**Aholi hayot sifati**- ma'lum mamlakat aholisining moddiy, ijtimoiy jismoniy, madaniy va ma'naviy farovonligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning jami.

**Ayirboshlash kursi** - bu ikki mamlakat valyutalari o'rtasidagi munosabatlar yoki boshqa mamlakatlarning pul birliklarida ifodalangan mamlakat pul birligi narxi.

**Banklar** - kredit munosabatlariga xizmat kilib, kredit tizimining negizini tashkil qiluvchi maxsus muassasalar.

**Bank operatsiyalari** - mablag'larni jalb qilish va ularni joylashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar.

**Bank krediti** - pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) beriluvchi pul ssudalari.

**Befarqlik egri chizig'I** - ehtiyojlarning bir xil darajada qondirilishini ta'minlovchi iste'mol to'plamlari yig'indisini namoyon etadi.

**Bozor iqtisodiyoti** - bu erkin tadbirkorlik tamoyillari, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishning xilma-xilligi, bozor narxlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar, subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga davlatning cheklangan aralashuvi tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tizim.

**Bozor mexanizmi** - bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishni ta‘minlaydigan dastak va vositalardir.

**Bozor** - ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o‘rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo‘ladigan munosabatlar yig‘indisidir.

**Bozor obyekti** - bozorga, ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyatning natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlardir.

**Bozor subyekti** - bozorning, ayirboshlash munosabatlarining qatnashchilaridir.

**Bozor infratuzilmasi** - ayirboshlash munosabatlariga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilmalardir.

**Vaqtbay ish haqi** – ishchining ishlagan vaqti (kun, hafta, oy) hisobga olinib, to‘lanadigan ish haqidir.

**Valyuta kursi** – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosi.

**Globalashuv** - jahon xo‘jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog‘ining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi.

**Gossenning birinchi qonuni** – me‘yoriy naflilikni kamayish qonuniga binoan talab qondirilgani sari qo‘shimcha xarid etiladigan so‘nggi tovarlarning nafliligi pasayishga moyil bo‘ladi, iste‘molning doimiy uzluksiz harakatida keyingi tovar birliklarining naflilik xususiyatlarining pasayishini anglatadi, bunda ushbu mahsulotda to‘liq to‘yinganlik ta‘minlanadi, naflikning birinchi birliklarining nafligi takroriy iste‘mol qilish bilan kamayadi.

**Gossenning ikkinchi qonuni** – me‘yoriy nafliklarni tenglashtirish qonuni. Ushbu qonunga binoan ayirboshlashning har bir ishtirokchisi o‘z mablag‘larini turli xil xaridlar o‘rtasida taqsimlash orqali maksimal foyda olishga intiladi. Xarid qilingan har bir tovar uchun sarflangan pul miqdordan teng darajada qoniqish olishni nazarda tutadi.

**Globalashuv** - jahon xo‘jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog‘ining tashkil topishi va rivojlanishi.

**Daromad samarasi** - narx pasayganda iste‘molchi pul daromadlarining sotib olish layoqatining ortishidir.

**Demping narx** – bozorda o‘z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun foydalanilib, bozorga kirib olish narxi deb ham ataladi.

**Dividend** - aksiya egasi o‘zlashtiradigan daromad turi.

**Differensial renta** - yer uchastkalarining unumdorligidagi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo‘shimcha sof daromad.

**Differensial renta I** - yerlarning tabiiy unumdorligi farqlar natijasida vujudga keladigan qo‘shimcha sof daromad.

**Differensial renta II** - yerlarning iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida vujudga keladigan qo‘shimcha sof daromad.

**Doimiy xarajat** - ishlab chiqarish hajmiga ta‘sir etmaydigan, u o‘zgarganda ham miqdorini o‘zgartirmaydigan xarajatlar

**Dotatsiyalashgan narx** – davlat byudjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxdir.

**Yer** – ishlab chiqarishga jalb qilingan barcha yerlar va boshqa barcha tabiiy resurslar;

**Jahon bozori** — xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish bilan o‘zaro bog‘langan mamlakatlar o‘rtasidagi barqaror tovar-pul munosabatlari tizimi.

**Jamg‘arish** – milliy daromadning bir qismidan asosiy va aylanma kapitallarni, shuningdek, ehtiyot va zaxiralarni ko‘paytirish uchun foydalanish.

**Jamg‘arish normasi** – jamg‘arish summasining milliy daromadga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Jamg‘arishga keyingi qo‘shilgan moyillik** – daromad hajmining o‘zgarishi natijasida jamg‘arish hajmining o‘zgarishi darajasi.

**Jamg‘arishga o‘rtacha moyillik** – shaxsiy daromadni jamg‘arishga ketadigan ulushi.

**Jahon xo‘jaligi** - xalqaro mehnat taqsimoti, savdo-ishlab chiqarish moliyaviy va ilmiy-texnikaviy aloqalar orkali birlashgan turli mamlakatlar xo‘jaliklari tizimi.

**Ijtimoiy infratuzilma** - odamlar yashash va turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta‘minlaydigan sohalar.

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar** - bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va is'temol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

**Ilmiy abstraksiya** - iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishda qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, tahlil paytida xalaqit beruvchi ikkinchi darajali voqea-hodisalarni e'tibordan chetlashtirib, fikrni asosiy o'rganilayotgan hodisaning asl mohiyatiga qaratishdir.

**Intensiv iqtisodiy o'sish** - ishlab chiqarish omillarining mavjud darajasida, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payib borishi.

**Import** – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

**Inflyatsiya** – ma'lum davr mobaynida mamlakatda narxlar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qobiliyatining uzoq muddatli pasayishi

**Iste'mol** – jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish natijalaridan va ishlab chiqarish omillari (ishchi kuchi)dan foydalanish jarayoni.

**Iste'molchilarni afzal ko'rishi** - bu iste'molchi tomonidan iste'mol tovarlari va xizmatlarining ma'lum assortimentini ularning nafliligi bo'yicha taqqoslash asosida baholash jarayoni.

**Iste'molchi savatchasi** - bir oylik (yillik) iste'mol tarkibini tavsiflovchi, inson yoki oila hayot faoliyatini ta'minlovchi, natural va qiymat (pul) shaklida ifodalovchi tovar va xizmatlarning hisoblangan to'plami.

**Iste'molchining tanlovi** - iste'molchining ma'lum tovar yoki xizmatlarni sotib olish to'g'risidagi qarori yoki uni iste'mol qilish usuli.

**Iste'molga keyingi qo'shilgan moyillik** – daromad hajmining o'zgarishi natijasida iste'mol sarflari hajmining o'zgarishi darajasi.

**Iste'mol sarflari** – aholi daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi.

**Iste'molchilarning xatti harakati** - bu turli xil tovar va xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabini shakllantirish jarayoni.

**Iste'molga o'rtacha moyillik** – shaxsiy daromadning iste'molga ketadigan ulushi

**Iqtisodiy mexanizm**- bu iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi va bir-birini taqozo etuvchi vositalar bo'lib, unga iqtisodiy stimullar (rag'bat beruvchi

kuchlar), ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'molni tashkil etish, iqtisodiy faoliyatning ixtisoslashuvi, iqtisodiy faoliyat kooperatsiyasi va xo'jalik aloqalarini o'rnatish usullari kiradi.

**Iqtisodiy tizim** – bu o'zaro bog'liq va tartibga solingan iqtisodiyotni tarkibiy qismlarining majmui; ma'lum bir yaxlitlikni, jamiyatning iqtisodiy tuzilishini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq iqtisodiy elementlar majmui.

**Ichki xarajatlar** - korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan resurslardan foydalanish natijasida vujudga keladigan xarajatlar.

**Ish haqi** – ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasi.

**Ishbay ish haqi** – ishlab chiqargan mahsuloti miqdoriga yoki bajargan ishi hajmiga qarab to'lanadigan ish haqidir.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** - ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birligi.

**Ishlab chiqarish xarajatlari** - tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflardir.

**Ishchi kuchi (mehnat)** – insonda mavjud bo'lgan jismoniy va aqliy qobiliyatlar. Ishchi kuchining sarflanishi mehnat jarayonini tashkil qiladi.

**Iqtisodiyot** - bu cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, insonlar uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berishga qaratilgan va chambarchas bog'liqlikda amal qiladigan faoliyatlar birligini ta'minlovchi iqtisodiy tizim.

**Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish** - qonunchilik, ijro va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish.

**Iqtisodiy resurslar** - bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda qo'llaniladigan omillar

**Iqtisodiy rivojlanish** - ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

**Iqtisodiy kategoriyalar** -- jamiyatning iqtisodiy hayot sharoitini umumlashtirib aks ettiruvchi mantiqiy tushunchalar bo'lib, ular real iqtisodiy voqelikning in'ikosi ifodasidir

**Iqtisodiy qonunlar** - iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning o'zaro bog'likligini ifodalaydi.

**Iqtisodiy muvozanat** - iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir–biriga teng kelgan holati

**Iqtisodiy yoki sof foyda** - yalpi pul tushumidan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi.

**Iqtisodiy o‘sh** - YaIM, SMM, MD miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishida va sifatining yaxshilanishida ifodalanadi.

**Iqtisodiy o‘sh mezoni** - iqtisodiy o‘shni nisbatan to‘liq darajada baholash imkonini beradigan ko‘rsatkichni xarakterlaydi.

**Iqtisodiy o‘shning ko‘rsatkichlari** - iqtisodiy o‘shni aniqlashda foydalaniladigan qiymat, ijtimoiy naflilik va natural (jismoniy) ko‘rsatkichlar tizimidan iborat.

**Iqtisodiy o‘sh omillari** - iqtisodiy o‘shga ta’sir ko‘rsatishda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va uni aniqlab beruvchi talab, taklif va taqsimlash omillarini bildiradi.

**Kambag‘allikning absolyut chegarasi**-insonni oziq-ovqat, kiyim bosh, turar joyda insonlarning fiziologik ehtiyojlari bazasini aniqlovchi hayotning minimal darajasi.

**Kambag‘allik** -bu hayot kechirish uchun zarur minimum mablag‘ga ega bo‘lmagan insonlarning iqtisodiy holatidir

**Kapital** – foyda keltiradigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan insonlar tomonidan yaratilgan ishlab chiqarish vositalari va pul jamg‘armalari.

**Kredit** - bo‘sh turgan pul mablag‘larini ssuda fondi shaklida to‘plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun qarzga berish.

**Lizing** - kreditning pulsiz shakli bo‘lib, odatda ishlab chiqarish vositalari va boshqa moddiy boyliklarni keyinchalik foydalanuvchilar tomonidan muntazam ravishda hak to‘lab borib, sotib olish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga berishdan iborat.

**Mehnat unumdorligi** - ma’lum vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt bilan aniqlanadi.

**Mehnat intensivligi** – bu mehnat jarayonidagi ishchi kuchining jadallik darajasini tavsiflovchi va xodimning vaqt birligiga sarflagan mehnat miqdori bilan o‘lchanadigan iqtisodiy tushunchadir.

**Milliy iqtisodiyot** – bu ma'lum vaqt va makon doirasida xo'jalik yaxlitligi hamda birligi bilan tavsiflanuvchi iqtisodiy subektlar, ular o'rtasidagi aloqalar.

**Milliy daromad** – bu mamlakatda bir yilda olingan ish haqi, renta, foiz va foyda summasidir. Milliy daromad miqdorini aniqlash uchun sof milliy mahsulot miqdoridan egri soliqlar miqdori ayrib tashlanadi.

**Milliy hisob tizimi** – bu buxgalteriya schyotlari shakliga ega bo'lgan kompleks jadvallar bo'lib, unda ijtimoiy mahsulot va milliy daromadlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va pirovard iste'mol qilish jarayonlari aks ettiriladi.

**Me'yoriy naflilik** - bu ma'lum bir turdagi tovar (xizmat) ning qo'shimcha birligini sotib olish natijasida umumiy naflilikning oshishi yoki muayyan ne'matning navbatdagi birligini iste'mol qilishdan olingan qo'shimcha naflilik.

**Monopol renta** - alohida tabiiy sharoitga ega bo'lgan, noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladigan yerlardan olinadigan renta.

**Multiplikator samarasi** — bu sof milliy mahsulot (SMM) o'zgarishining investitsiya sarflaridagi (IS) o'zgarishga nisbati

**Narx** – bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy naflilikining puldagi ifodasidir.

**Narx diapazoni** – narxlar oralig'idagi farqning puldagi ifodasi.

**Naflilik** - bu iste'molchilar ma'lum bir mahsulot (xizmat) ni iste'mol qilishdan oladigan qoniqishdir

**Naflilik funksiyasi**- iste'mol jarayonida erishiladigan iste'mol hajmlari bilan naflilik o'rtasidagi nisbat.

**Nominal ish haqi** – pul shaklida olingan ish haqi summasi.

**Nufuzli narx** – aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan tovarlarni sotishda qo'llaniladi.

**Obligatsiya** - uning egasi jamiyatga qayd qilingan foiz olish sharti bilan pul qo'yganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.

**Pul** - hamma turdagi tovar va xizmatlarni ayirboshlashda umumiy ekvivalentlik rolini bajaruvchi maxsus tovardir.

**Pul muomalasi** - tovarlar aylanishiga hamda notovar xarakteridagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati.

**Pul tizimi** - tarixan tarkib topgan va milliy qonunchilik bilan mustahkamlangan, mamlakatda pul muomalasini tashkil qilish shakli.



**Raqobat** – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashishidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.

**Raqobat usullari** – raqobat kurashida qo‘llaniladigan vosita va dastaklardan iborat bo‘lib, bunda raqobat narx vositasida va narxsiz raqobatlashish usullari orqali amalga oshiriladi.

**Real ish haqi** – nominal ish haqi summasiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining sotib olish layoqati.

**Renta munosabatlari** - yerdan foydalanish natijasida vujudga keladigan qo‘shimcha sof daromadni taqsimlash va o‘zlashtirish bilan bog‘liqlikda vujudga keladigan munosabatlar.

**Samaradorlik** - ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan resurslar miqdori birligi va bu jarayondan olinadigan mahsulot hajmini xarakterlaydi, ya‘ni “harakat va ishlab chiqarish” muammosini qamrab oladi.

**Tadbirkorlik kapitali** - tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag‘lari.

**Tadbirkorlik layoqati** – ayrim kishilarga xos bo‘lgan, iqtisodiy faoliyat sohalaridagi noyob xislat

**Tadbirkorlik faoliyati** - shakli va sohasidan qat‘iy nazar foyda olishga va undan samarali foydalanish maqsadiga karatilgan iqtisodiy faoliyat.

**Taklif** - ishlab chiqaruvchi ma‘lum vaqtda ishlab chiqarishga kodir bo‘lgan, narxning xar bir darajasida bozorga sotishga chiqaradigan tovarlar mikdoridir.

**Taklif egri chizig‘i** - narx va taklifning hajmi o‘rtasidagi to‘g‘ridan - to‘g‘ri bog‘liqlikning grafikdagi tasviridir.

**Taklif konuni** - narx bilan sotishga chiqariladigan tovarlar miqsori o‘rtasidagi bevosita yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni ifodalaydi.

**Taklif (talab) ning elastikligi** - narx 1 % o‘zgarganda talab necha foiz o‘zgarishini ko‘rsatadi. Bu talabning narx bo‘yicha o‘zgaruvchanligi ham deyiladi.

**Talab** - iste‘molchi ma‘lum vaqtda harxlarning xar bir darajasida sotib olishga qodir bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdoridir.

**Talab egri chizig‘i** - grafikda narx va talabning hajmi o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

**Talab qonuni** - tovarlar narxi bilan uning sotib olinadigan miqdori o‘rtasidagi teskari yoki qarama - qarshi bog‘liqlikni ifodalaydi

**Talabning narxga bog‘liq elastikligi** (ingl. price elasticity of demand) bu narxning o‘zgarishiga javoban talabning naqadar o‘zgarganligini bildiradi.

**Talabning narxga bog‘liq elastligi koeffitsiyenti**- bu talab hajmi o‘zgarishining narxning o‘zgarishiga nisbati

**Ta‘sischilik foydasi** - sotilgan aksiyalar va hissadorlik korxonasiga haqiqatda qo‘yilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq.

**Tashqi xarajatlar** - tashqaridan jalb qilingan resurslarga to‘lovlarni amalga oshirishga ketgan xarajatlar.

**Turmush darajasi** - odamlarning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini tovarlar va xizmatlarda qondirish darajasi.

**To‘lov balansi** – mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma‘lum vaqt oralig‘ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

**Ulgurji narxlar** – ishlab chiqaruvchilar tomonidan tovarlar katta partiyalarda bir yo‘la ko‘tarasiga sotilganda mavjud bo‘ladi.

**Umumiy naflilik** - ma‘lum bir mahsulot (xizmat) turini iste‘mol qilish bilan bog‘liq qoniqish.

**Umumiy bozor** - bunda uning qatnashchilari o‘zaro erkin savdoni amalga oshirish va yagona tashqi savdo siyosati o‘tkazish bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati ta‘minlanadi

**Umumiy muvozanat** - jamiyat barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish hajmining o‘zaro teng kelishini , iqtisodiyotning shunday holatiki unda barcha bozorlarda (ne‘matlar, pul, qimmatli qog‘ozlar, mehnat) bir vaqtning o‘zida muvozanatga yerishiladi.

**Umumiy mahsulot**- ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan asosiy kapital, ishchi kuchi, xomashyo va materiallardan foydalanish evaziga olingan mahsulotning mutloq hajmi

**Unumli iste‘mol** – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan foydalanish

**Uslubiyat** - iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning prinsiplari, yo‘llari, qonun-qoidalari, aniq hadislari tizimidir.

**Faktoring** - boshqa iktisodiy subyektlarning qarzdorlik bo‘yicha majburiyatlarini sotib olish yoki qayta sotish munosabatlari.

**Foiz stavkasi** - foiz yoki foizli daromadning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanishi.

**Foyda normasi** - foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga bo'lgan nisbatining foizdagi ifodasi

**Xalqaro savdo** - bu tovar va xizmatlarni eksport qilish vositasi yordamida amalga oshiriladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakli.

**Xalqaro valyuta tizimi** – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

**Xalqaro mexnat taqsimoti** - alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

**Xususiy muvozanat** - bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi.

**Chakana narxlar** – tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladigan narxlardir.

**Elastiklik** - bu parametrlardan birining (masalan, talab yoki taklifning) boshqasining o'zgarishiga sezgirligini (masalan, narx, daromad), ikkinchisi 1% ga o'zgarganda birinchi ko'rsatkich necha foiz o'zgarishini ko'rsatadigan o'lchovdir.

**Ekstensiv iqtisodiy o'sish** - ishlab chiqarishga qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmining ortib borishi.

**Eksport** – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

**Erkin narxlar** – talab va taklif ta'sirida shakllanadigan narxlardir.

**Ehtiyoj** – bu shaxs yoki jamiyat rivojlanishini ta'minlab turish uchun kerak bo'lgan ne'matlarga bo'lgan zaruriyat yoki insonning qoniqmaganlik yoki muhtojlik holatidir.

**Shaxsiy iste'mol** – iste'molchilik tavsifidagi ne'matlar va xizmatlardan bevosita foydalanishi, ya'ni ularning individual tarzda iste'mol qilinishi.

**Yalpi ichki mahsulot (YaIM)** - mamlakat ichida milliy va xorijiy xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bir yilda yaratilgan pirovard tovar va xizmatlarning bozor narxida hisoblangan qiymati.

**Yalpi milliy mahsulot (YaMM)** - mamlakat ichida va tashqarisida ushbu mamlakat fuqarolari tomonidan yaratilgan pirovard tovar va xizmatlarni bozor narxida hisoblagan umumiy qiymati.

**Yalpi talab** – ma'lum davr mobaynida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarga makroiqtisodiy subyektlarning jami sarflari.

**Yalpi taklif** - iqtisodiyot ishlab chiqaradigan yoki turli narx darajalarida ishlab chiqarishning real hajmi.

**O‘rtacha mahsulot**- jalb qilingan har bir ishchi kuchi yoki kapitalning birligiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi

**O‘zgaruvchi xarajat** - ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga ta’sir etadigan xarajatlar.

**O‘rtacha xarajatlar** - mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar.

**Qo‘shimcha xarajatlar** - mahsulotning navbatdagi qo‘shimcha birligini ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlar.

**Qo‘shilgan mahsulot** - eng so‘nggi qo‘shilgan omil kapital yoki ishchi kuchi evaziga olingan mahsulot hajmi.

**Hissadorlik jamiyati** - ko‘proq foyda olish maqsadida aksiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital)larini birlashtirgan uyushma.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521)
2. Vaxabov A. V., Tadjibaeva D.A., Xajibaeva SH.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma.- T.: Moliya, - 708 b
3. Вечканов Г.С. Экономическая теория. 2- изд.- СПб.: Питер, 2009.- 448 с.
4. Гальперн В.М., Игнатъев С.М., Моргунов В.М. Микроэкономика В 3 томах СПб.: Омега-Л, Экономикус, 2010. — Т. 1. — 1026 с.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. Toshkent: - O‘zbekiston- 2009, 4-5 b.
6. Кауфман И., Никольский Н. История денег в России.- М.: Эксмо, 2013-680 с.
7. Коуз Р. Фирма, рынок и право- М.: Дело, 1993.- 4 с.
8. Куликов Л.М. Основы экономической теории. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2004 г.С.73.
9. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика - М.: ИФРА-М 1999.- 984 с.
10. Маршал. А. Принципы экономической науки. М.: Прогресс, 1993- С.5
11. Самуэльсон, Пол Э., Нордхаус, Уильям Д. Макроэкономика. Учебное пособие. М.: ООО И.Д.Уильямс, 2009-592 с.
12. Усманова Р.М. , Саидкаримова М.И. Экономическая теория. Учебное пособие – Ташкент: Наука и техника, 2017. 385 с. Kulikov L.M.
13. Xodiyev Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi.(Darslik). - T.: Barkamol fayz media, 2017, 89- b
14. SHodmonov SH.SH., Gofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010, 144- b.
14. Шумпетер Й. Теория экономического развития. — М.: Директмедиа Пабблишинг, 2008. —108 с.
15. Юсупов А.Т., Турсунов А.М. Иқтисодиёт назарияси. Ўқув қўлланма- Тошкент: Фан, 1997, 220-б.

16. Якобсон Л.И. Государственный сектор экономики теория и практика- М.: ГУ ВШЭ, 2000- С. 24-25.
17. "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida" gi qonun. <https://lex.uz/docs/4590452>
18. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi <https://lex.uz/docs/152653>
19. 2020 — 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi. <https://lex.uz/docs/4811025>
20. Qodirov A., Tursunov A.M, Turg‘unov U.A. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma- Toshkent: TDTU, 1997. 294-b
21. Qodirov A., Tursunov A.M, Turg‘unov U.A. Iqtisodiyot nazariyasi : atama va tushunchalar- Toshkent: TDTU, 2000. 108-b

### **Intyernet resurslar**

<https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambagallik-darajasi-kambagallikni-kamaytirish-uchun-nima-qilish-kerak>  
[http://u3.tsue.uz/wp-content/uploads/2020/09/7\\_Mustafakulov-1.pdf](http://u3.tsue.uz/wp-content/uploads/2020/09/7_Mustafakulov-1.pdf)  
<https://parliament.gov.uz/upload/iblock/b35/sltslxqtbc%20wtcd%20yodysydelnrgodflbxwv-qhtgbujxombn.pdf>  
<https://ru.wikipedia.org/wiki>  
<https://finlit.uz/oz/articles/monetary-policy/required-resyerve-requirements/>  
<https://cbu.uz/oz/monetary-policy/concept/https://www.fedyeralresyerve.gov/monetarypolicy/0693lead.pdf>

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH</b>	3
<b>1.</b>	<b>IQTISODIYOTGA KIRISH</b>	5
1.1	Iqtisodiyot fani nimani o‘rganadi?	5
1.2	Ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi. Ehtiyojlarning o‘tib borish qonuni	8
1.3	Takror ishlab chiqarish va iqtisodiy resurslar	11
1.4	Iqtisodiyot fanini bilish usullari	15
1.5	Iqtisodiy kategoriya va qonunlar, ularning tasnifi	18
<b>2.</b>	<b>IQTISODIY TIZIM TURLARI</b>	21
2.1	Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning modellari	21
2.2	Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari	26
2.3	Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslar, mahsulotlar va daromadlarning aylanishi	29
2.4	Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari	33
2.5	Bozor tushunchasi, vazifalari va turlari	38
2.6	Bozor infratuzilmasi va uning elementlari	40
<b>3.</b>	<b>TALAB VA TAKLIF, BOZOR MUVOZANATI</b>	43
3.1	Talab tushunchasi. Talab qonuni. Talab miqdoriga ta‘sir etuvchi omillar	43
3.2	Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif miqdoriga ta‘sir etuvchi omillar	49
3.3	Bozor muvozanati. Bozor narxlarining davlat tomonidav tartibga solinishi	51
<b>4.</b>	<b>ELASTIKLIK</b>	57
4.1	Elastiklik tushunchasi va uni iqtisodiyot fanida qo‘llanishining o‘ziga xosligi.	57
4.2	Talab elastikligi va uning turlari	58
4.3.	Taklif elastikligi	66
<b>5.</b>	<b>ISTE‘MOLCHILAR TANLOVI NAZARIYASI</b>	69
5.1	Iste‘molchining afvzal ko‘rishi va naflilik	69
5.2	Naflilikni o‘lchash. Miqdoriy (kardinalistik) va tartibli ( ordinalistik ) naflilik	72
5.3	Naflilikni maksimallashtirish qoidasi. Befarqlik egri chizig‘i. Befarqlik kartasi	76

5.4	Iste'molchi byudjeti. Iste'molchining optimal tanlovi	82
<b>6.</b>	<b>ISHLAB CHIQRISH VA XARAJATLAR</b>	84
6.1	Ishlab chiqarish omillari: tavsifi, o'zaro bog'liqligi	84
6.2	Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari	86
6.3	Ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirish omillari	89
6.4	Korxonalar va uning turlari	94
6.5	Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning turlari	96
6.6	Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari	102
<b>7.</b>	<b>MUKAMMAL BOZOR VA MONOPOLIYA</b>	105
7.1	Bozor tuzilmasi. Mukammal raqobat: tavsifi va asosiy belgilari	105
7.2	Mukammal bozor mexanizmi va uning harakatlanishi	107
7.3	Mukammal raqobat sharoitida narx va ishlab chiqarish hajmining shakllanishi.	114
7.4	Monopoliya sharoitida narx va ishlab chiqarish hajmining shakllanishi	117
7.5	Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati.	123
<b>8.</b>	<b>MONOPOLISTIK RAQOBAT VA OLIGOPOLIYA</b>	125
8.1	Monopolistik raqobat, uning belgilari. Monopolistik birlashmalar shakllari.	125
8.2	Monopolistik raqobat sharoitida narx va ishlab chiqarish hajmini aniqlash.	129
8.3	Oligopoliya va uning belgilari. Oligopoliya sharoitida raqobatning o'ziga xos xususiyatlari.	132
8.4	Oligopoliya sharoitida narxlarning shakllanishi. Lerner koeffitsiyenti.	134
<b>9.</b>	<b>IQTISODIY RESURSLARGA NARXLARNING SHAKLLANISHI</b>	140
9.1	Iqtisodiy resurslarga talabning shakllanish xususiyatlari	140
9.2	Mehnat iqtisodiy resurs sifatida. Ish haqi	143
9.3.	Kapital iqtisodiy resurs sifatida. Foiz	150
9.4	Yer iqtisodiy resurs sifatida. Renta	156
9.5	Tadbirkorlik iqtisodiy resurs sifatida. Foyda.	162



<b>10.</b>	<b>MAKROIQTISODIYOTGA KIRISH. MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR</b>	167
10.1	Milliy iqtisodiyot va uning tuzilishi.	167
10.2	Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari.	170
10.3.	Milliy hisobot tizimi va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar. Yalpi ichki va yalpi milliy mahsulot.	172
10.4	YAlpi milliy mahsulotni hisoblash usullari va milliy iqtisodiyotning boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari.	175
10.5	Narxlar indeksi.	181
10.6	O‘zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha yuqori o‘shish sur‘atlarining ta‘minlanishi.	183
<b>11</b>	<b>MAKROIQTISODIY MUVOZANAT</b>	185
11.1	Iqtisodiy muvozanat tushunchasi. Muvozanat turlari	185
11.2	Yalpi talab tushunchasi, yalpi talab egri chizig‘i va uning hajmiga ta‘sir qiluvchi omillar.	188
11.3	Yalpi taklif tushunchasi, yalpi taklif egri chizig‘i (klassik, oraliq - keynsian kesmalar) va uning hajmiga ta‘sir qiluvchi omillar.	191
11.4.	Yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanatlik hamda uning o‘zgarishi.	193
11.5	Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlash usullari.	198
<b>12.</b>	<b>ISTE‘MOL JAMG‘ARMA VA INVESTITSİYALAR</b>	203
12.1	Iste‘mol va jamg‘arishning iqtisodiy mazmuni va manbalari	203
12.2	Iste‘mol va jamg‘arma o‘rtasida optimal nisbat. Iste‘mol va jamg‘arishga o‘rtacha va keyingi qo‘shilgan moyillik	207
12.3	Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari. Investitsiya xajmiga ta‘sir etuvchi omillar	211
<b>13.</b>	<b>BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING IQTISODIY ROLI</b>	218
13.1	Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tushunchasi, mazmuni, maqsadi va zarurligi.	218
13.2	Iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning klassik, monetaristik, keynscha nazariyalari	221
13.3	Davlatning iqtisodiy vazifalari.	223
13.4	Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish usullari va vositalari.	225
13.5	Davlatning ijtimoiy siyosati	227

<b>14.</b>	<b>IQTISODIY O‘SISH. BIZNES- SIKLLAR.</b>	230
14.1	Real yalpi ichki mahsulot va undan iqtisodiy o‘shishni o‘lchashda foydalanish	230
14.2	Iqtisodiy o‘shish omillari	233
14.3	Iqtisodiy o‘shish nazariyalari, konsepsiyalari va modellari	235
14.4	Sikllik - iqtisodiy taraqqiyotning umumiy shakli ekanligi va uning sabablari	240
14.5	Iqtisodiy inqirozlarning turlari va ularning xususiyatlari	244
14.6	Iqtisodiy siklning fazalari	247
14.7	Jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz sabablari va oqibatlarini.	249
14.8	O‘zbekistonda inqirozli jarayonlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari va ularni bartaraf etish y o‘llari.	253
14.9	Mamlakatimizda iqtisodiy o‘shishning uzoq muddatli barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishini ta'minlash.	256
<b>15.</b>	<b>PUL, INFLYATSIYA</b>	259
15.1	Pulning kelib chiqishi va mazmuni	259
15.2	Pul konsepsiyalari	264
15.3	Pulning vazifalari	266
15.4	Inflyasiya: kelib chiqish sabablari, turlari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini	267
15.5	Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati.	273
15.6	O‘zbekistonda milliy valyuta — so‘mning muomalaga kiritilishi va uning barqarorligini mustahkamlash yo‘nalishlari	275
<b>16.</b>	<b>PUL-KREDIT SIYOSATI</b>	279
16.1	Pul muomalasi. Pul muomalasi qonunlari.	279
16.2	Pul bozorida talab va taklif. Pul agregatlari. Pul multiplekatori.	283
16.3	Pul-kredit siyosatining tamoyillari va vositalari.	287
16.4	O‘zbekistonda olib borilayotgan pul kredit siyosati	291
<b>17.</b>	<b>BANK TIZIMI</b>	295
17	Bank tizimi. Markaziy bank va uning vazifalari	295
17.2	Tijorat banklari va ularning vazifalari	300
17.3	Tijorat banklarining rentabelligi va likvidligi.	304
17.4	O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini takomillashtirish.	305

<b>18.</b>	<b>MOLIYA TIZIMI. DAVLAT BYUDJETI VA FISKAL SIYOSAT</b>	<b>308</b>
18.1	Davlatning moliyaviy tizimi	308
18.2	Davlat byudjeti tarkibi. Byudjet taqchilligi va davlat qarzi	311
18.3	Moliya siyosati tamoyillari. Davlatning byudjet siyosati konsepsiyalari	314
18.4	Soliq tizimi	316
18.5	Davlatning fiskal ( moliya – byudjet ) siyosati	320
<b>19.</b>	<b>ISHSIZLIK</b>	<b>322</b>
19.1.	Bandlik, ishsizlik va to‘liq bandlik tushunchalari. Bandlikning o‘zgarish shakli va darajasi	322
19.3	Ishsizlik darajasi va uni aniqlash. Ishsizlikning iqtisodiy va sotsial oqibatlari. Ouken qonuni	328
19.4	Ishsizlik va inflyatsiyaning bog‘liqligi. Fillips egri chizig‘i	331
<b>20.</b>	<b>DAROMADLARNING TAQSIMLANISHI, TENGSIZLIK VA KAMBAG‘ALLIK</b>	<b>333</b>
20.1	Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari	333
20.2	Daromad tengsizligi va uning sabablari. Lorens egri chizig‘i	335
20.3	Turmush darajasi. Turmush darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar	337
20.4	Kambag‘allik: mohiyati, o‘lchash usullari	339
20.5	O‘zbekistonda kambag‘allik va uni kamaytirish yo‘llari	342
<b>21</b>	<b>JAHON XO‘JALIGI VA UNING EVOLYUTSIYASI</b>	<b>346</b>
21.1	Jahon xo‘jaligining tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari, va asosiy belgilari. Xalqaro mehnat taqsimoti	346
21.2	Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakllari	350
21.3	Xalqaro iqtisodiy integratsiya	353
21.4	Jahon bozori va tashqi savdo	357
21.5	Xalqaro savdo nazariyalari	360
21.6	Xalqaro savdo siyosati	364
21.7	O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo‘shilishi va tashqi iqtisodiy faoliyati	366
<b>22</b>	<b>XALQARO VALYUTA MUNOSABATLARI VA</b>	<b>369</b>

	<b>VALYUTA KURSI.</b>	
22.1	Xalqaro valyuta munosabatlari. Jahon valyuta tizimining rivojlanishi	369
22.2	Valyuta kursu. Valyuta bozori	373
22.3	To'lov balansi va uning tarkibi	380
	<b>GLOSSARIY</b>	385
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b>	396

<b>TABLE OF CONTENTS</b>		
	<b>INTRODUCTION</b>	3
<b>1.</b>	<b>IN TO THE ECONOMY NTRODUCTIO</b>	5
1.1	What does Economics study?	5
1.2	Content of needs and their classification. The law of growth in needs	8
1.3	Reproduction and economic resources	11
1.4	Methods of cognition of Economics	15
1.5	Economic categories and laws, their classification	18
<b>2.</b>	<b>TYPES OF ECONOMIC SYSTEMS</b>	21
2.1	Socio-economic systems and their models	21
2.2	The content of the market economy and its main features	26
2.3	Circulation of resources, products and incomes in a market economy	29
2.4	Advantages and disadvantages of a market economy	33
2.5	Concept, functions and types of the market	38
2.6	Market infrastructure and its elements	40
<b>3.</b>	<b>DEMAND AND SUPPLY, MARKET BALANCE</b>	43
3.1	The concept of demand. Demand law. Factors affecting demand	43
3.2	The concept of a proposal. Supply law. Factors influencing offers	49
3.3	Market equilibrium. State regulation of prices	51
<b>4.</b>	<b>ELASTICITY</b>	57
4.1	The concept of elasticity and the specificity of its application in economics	57
4.2	Elasticity of demand and its types.	58
4.3.	Elasticity of supply	66
<b>5.</b>	<b>CONSUMER CHOICE THEORY</b>	69
5.1	Consumer preferences and utility	69
5.2	Measurement of utility. Quantitative (cardinal) and ordinal (ordinal) utility	72
5.3	Utility maximization rule. Curve of indifference. Indifference card	76

5.4	Consumer budget. Optimal consumer choice	82
<b>6.</b>	<b>PRODUCTION AND COSTS</b>	84
6.1	Factors of production: description, interdependence	84
6.2	General and final production results	86
6.3	Production efficiency and factors to increase it	89
6.4	Enterprise and its types	94
6.5	The concept of production costs and its types.	96
6.6	Production costs in the short and long term	102
<b>7.</b>	<b>PERFECT MARKET AND MONOPOLY</b>	105
7.1	Market structure. Perfect competition: description and main characteristics	105
7.2	The mechanism of the perfect market and its movement	107
7.3	Formation of prices and volume of production in a perfect competition	114
7.4	Formation of prices and production volumes under monopoly conditions	117
7.5	State Antimonopoly Policy	123
<b>8.</b>	<b>MONOPOLISTIC COMPETITION AND OLIGOPOLY.</b>	125
8.1	Monopolistic competition, its characteristics. Forms of monopolistic associations	125
8.2	Determining the price and volume of products in a monopolistic competition	129
8.3	Oligopoly and its characteristics. Features of competition in oligopolistic conditions	132
8.4	Determination of prices in oligopolistic terms. Lerner coefficient	134
<b>9.</b>	<b>FORMATION OF PRICES FOR ECONOMIC RESOURCES</b>	140
9.1	Features of the formation of demand for economic resources	140
9.2	Labor as an economic resource. Wage	143
9.3.	Capital as an economic resource. Percent	150
9.4	Land as an economic resource. Rent	156
9.5	Entrepreneurship as an economic resource. I went fishing	162

<b>10.</b>	<b>INTRODUCTION TO MACROECONOMICS. MACROECONOMIC INDICATORS</b>	167
10.1	National economy and its structure	167
10.2	Macroeconomic analysis and its functions	170
10.3.	System of National Accounts and Macroeconomic Indicators. Gross Domestic Product and Gross National Product	172
10.4	Methods for calculating the gross national product and other macroeconomic indicators of the national economy	175
10.5	Price Index	181
10.6	Ensuring high growth rates of key macroeconomic indicators in Uzbekistan	183
<b>11.</b>	<b>MACROECONOMIC BALANCE</b>	185
11.1	The concept of economic. Balance types	185
11.2	The concept of aggregate demand, the aggregate demand curve and the factors affecting its volume	188
11.3	The concept of aggregate supply, the aggregate supply curve (classical, intermediate and Keynesian intersections) and the factors influencing its volume	191
11.4.	Equilibrium between aggregate demand and aggregate supply and its change	193
11.5.	Methods for determining the level of economic equilibrium	198
<b>12.</b>	<b>CONSUMPTION, SAVINGS AND INVESTMENTS</b>	203
12.1.	Economic content and sources of consumption and accumulation	203
12.2.	Optimal balance between consumption and savings. Average and marginal propensity to consume and save	207
12.3.	Content and functions of investments. Factors affecting the volume of investments	211
<b>13.</b>	<b>ECONOMIC ROLE OF THE STATE IN REGULATION OF THE MARKET ECONOMY</b>	218
13.1	State regulation of the economy: concept, content, purpose and necessity	218
13.2	Classical, monetarist, Keynesian theory of state regulation of the economy	221

13.3	Economic functions of the state	223
13.4	Methods and means of state regulation of the economy	225
13.5	Social policy of the state	227
14.	<b>ECONOMIC GROWTH. BUSINESS CYCLES</b>	230
14.1	Real GDP and its use to measure economic growth	230
14.2	Factors of economic growth	233
14.3	Theories, concepts and models of economic growth	235
14.4	Cyclicity - as a general form of economic development	240
14.5	Types of economic crises and their characteristics	244
14.6	Phases of the economic cycle	247
14.7	Causes and consequences of the global financial and economic crisis	249
14.8	Features of manifestation of crisis processes in Uzbekistan and ways to overcome them.	253
14.9	Ensuring long-term stable rates of economic growth and balanced economic development in our country	256
15.	<b>MONEY, INFLATION</b>	259
15.1	Origin and Content of Money	259
15.2	Concepts about money	264
15.3	Functions of money	266
15.4	Inflation: causes, types, socio-economic consequences	267
15.5	Anti-inflationary policy of the state	273
15.6	Introduction of the national currency in Uzbekistan - soum and ways to strengthen its stability	275
16	<b>MONETARY POLICY</b>	279
16.1	Monetary Circulation. The laws of money circulation	279
16.2	Supply and demand in the money market. Monetary aggregates. Monetary cartoon	283
16.3	Principles and Instruments of Monetary Policy	287
16.4	Monetary Policy in Uzbekistan	291
17	<b>BANKING SYSTEM</b>	295
17.1	Banking system. Central bank and its functions	295
17.2	Commercial banks and their functions	300
17.3	Profitability and liquidity of commercial banks	304
17.4	Improvement of the banking system of the Republic of	305



	Uzbekistan	
<b>18.</b>	<b>FINANCIAL SYSTEMS. STATE BUDGET AND FISCAL POLICY</b>	308
18.1	Financial system of the state	308
18.2	The structure of the state budget. Budget deficit and public debt	311
18.3	Principles of Financial Policy. Concepts of state budgetary policy	314
18.4	Tax system	316
18.5	Fiscal policy of the state	320
<b>19.</b>	<b>UNEMPLOYMENT</b>	322
19.1.	The concepts of employment, unemployment and full employment. Form and scale of employment	322
19.3	The unemployment rate and its definition. Economic and social consequences of unemployment. Okun's Law	328
19.4	Relationship between unemployment and inflation. Phillips curve	331
<b>20.</b>	<b>DISTRIBUTION OF INCOME, INEQUALITY AND POVERTY</b>	333
20.1	Incomes of the population and sources of their formation	333
20.2	Income inequality and its causes. Lorentz curve	335
20.3	Standard of living. Basic indicators of the standard of living	337
20.4	Poverty: nature, methods of measurement	339
20.5	Poverty in Uzbekistan and ways to reduce it	342
<b>21.</b>	<b>WORLD ECONOMY AND ITS EVOLUTION</b>	346
21.1	Formation, stages of development and the main features of the world economy. International division of labor	346
21.2	Content and forms of international economic relations	350
21.3	International Economic Integration	353
21.4	World market and foreign trade	357
21.5	Theories of international trade	360
21.6	International Trade Policy	364
21.7	Accession of Uzbekistan to the world economy and its foreign economic activity	366

<b>22.</b>	<b>INTERNATIONAL EXCHANGE RELATIONS AND EXCHANGE RATE.</b>	369
22.1	International monetary relations. Development of the world monetary system	369
22.2	Exchange rate. Currency market	373
22.3	Balance of payments and its composition	380
	<b>GLOSSARY</b>	385
	<b>LITERATURE USED</b>	396

## ОГЛАВЛЕНИЕ

	<b>ВВЕДЕНИЕ</b>	3
<b>1.</b>	<b>ВВЕДЕНИЕ В ЭКОНОМИКУ</b>	5
1.1	Что изучает Экономика?	5
1.2	Содержание потребностей и их классификация. Закон роста потребностей	8
1.3	Воспроизводство и экономические ресурсы	11
1.4	Методы познания экономики	15
1.5	Экономические категории и законы, их классификация	18
<b>2.</b>	<b>ВИДЫ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ</b>	21
2.1	Социально-экономические системы и их модели	21
2.2	Содержание рыночной экономики и ее основные черты	26
2.3	Кругооборот ресурсов, продуктов и доходов в рыночной экономике	29
2.4	Преимущества и недостатки рыночной экономики	33
2.5	Понятие, функции и виды рынка	38
2.6	Рыночная инфраструктура и ее элементы	40
<b>3.</b>	<b>СПРОС И ПРЕДЛОЖЕНИЕ , РЫНОЧНОЕ РАВНОВЕСИЕ</b>	43
3.1	Понятие спроса. Закон спроса. Факторы, влияющие на спрос	43
3.2	Понятие предложения. Закон предложения. Факторы, влияющие на предложение	49
3.3	Рыночное равновесие. Государственное регулирование цен	51
<b>4.</b>	<b>ЭЛАСТИЧНОСТЬ</b>	57
4.1	Понятие эластичности и специфика ее применения в экономике.	57
4.2	Эластичность спроса и ее виды	58
4.3.	Эластичность предложения	66
<b>5.</b>	<b>ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА</b>	69
5.1	Потребительские предпочтения и полезность	69
5.2	Измерение полезности. Количественная (кардиналистская) и порядковая (ординалистская) полезность	72

5.3	Правило максимизации полезности. Кривая безразличия. Карта безразличия	76
5.4	Потребительский бюджет. Оптимальный выбор потребителя	82
<b>6.</b>	<b>ПРОИЗВОДСТВО И ИЗДЕРЖКИ</b>	84
6.1	Факторы производства: сущность, взаимозависимость	84
6.2	Общие и конечные результаты производства	86
6.3	Эффективность производства и факторы ее повышения	89
6.4	Предприятие и его виды	94
6.5	Понятие издержек производства и их виды	96
6.6	Издержек производства в краткосрочном и долгосрочном периодах	102
<b>7.</b>	<b>СОВЕРШЕННЫЙ РЫНОК И МОНОПОЛИЯ</b>	105
7.1	Структура рынка. Совершенная конкуренция: сущность и основные характеристики.	105
7.2	Механизм совершенного рынка и его движение	107
7.3	Формирование цены и объемов производства в условиях совершенной конкуренции.	114
7.4	Формирование цен и объемов производства в условиях монополии	117
7.5	Государственная антимонопольная политика	123
<b>8.</b>	<b>МОНОПОЛИСТИЧЕСКАЯ КОНКУРЕНЦИЯ И ОЛИГОПОЛИЯ</b>	125
8.1	Монополистическая конкуренция, ее характеристики. Формы монополистических объединений	125
8.2	Определение цены и объемов производства в условиях монополистической конкуренции	129
8.3	Олигополия и ее характеристики. Особенности конкуренции в условиях олигополии	132
8.4	Определение цены в условиях олигополии. Коэффициент Лернера.	134
<b>9.</b>	<b>ФОРМИРОВАНИЕ ЦЕН НА ЭКОНОМИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ.</b>	140
9.1	Особенности формирования спроса на экономические ресурсы.	140

9.2	Труд как экономический ресурс. Заработная плата.	143
9.3.	Капитал как экономический ресурс. Процент.	150
9.4	Земля как экономический ресурс.Рента.	156
9.5	Предпринимательство как экономический ресурс. Прибыль	162
<b>10.</b>	<b>ВВЕДЕНИЕ В МАКРОЭКОНОМИКУ. МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ</b>	167
10.1	Национальная экономика и ее структура	167
10.2	Макроэкономический анализ и его функции	170
10.3.	Система национальных счетов и макроэкономические показатели. Валовой внутренний продукт и валовой национальный продукт	172
10.4	Методы расчета валового национального продукта и других макроэкономических показателей национальной экономики	175
10.5	Индекс цен.	181
10.6	Обеспечение высоких темпов роста основных макроэкономических показателей в Узбекистане	183
<b>11.</b>	<b>МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИЙ РАВНОВЕСИЯ</b>	185
11.1	Понятие макроэкономического равновесия. Типы равновесия	185
11.2	Понятие совокупного спроса, кривая совокупного спроса и факторы, влияющие на его объем	188
11.3	Понятие совокупного предложения, кривая совокупного предложения (классический, промежуточный и кейнсианский отрезки) и факторы, влияющие на его объем	191
11.4.	Равновесие между совокупным спросом и совокупным предложением и его изменение.	193
11.5	Методы определения уровня макроэкономического равновесия.	198
<b>12.</b>	<b>ПОТРЕБЛЕНИЕ, СБЕРЕЖЕНИЕ И ИНВЕСТИЦИИ</b>	203
12.1	Экономическое содержание и источники потребления и накопления	203
12.2	Оптимальное соотношение между потреблением и сбережением. Средняя и предельная склонность к	207

	потреблению и сбережению	
12.3	Содержание и функции инвестиций. Факторы влияющие на объем инвестиций.	211
<b>13.</b>	<b>ЭКОНОМИЧЕСКАЯ РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В РЕГУЛИРОВАНИИ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ</b>	218
13.1	Государственное регулирование экономики: понятие, содержание, цель и необходимость	218
13.2	Классическая, монетаристская, кейнсианская теории государственного регулирования экономики	221
13.3	Экономические функции государства	223
13.4	Методы и средства государственного регулирования экономики	225
13.5	Социальная политика государства	227
<b>14.</b>	<b>ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ. БИЗНЕС ЦИКЛЫ.</b>	230
14.1	Реальный ВВП и его использование для измерения экономического роста	230
14.2	Факторы экономического роста.	233
14.3	Теории, концепции и модели экономического роста	235
14.4	Цикличность как общая форма экономического развития.	240
14.5	Типы экономических кризисов и их характеристики.	244
14.6	Фазы экономического цикла.	247
14.7	Причины и последствия мирового финансово-экономического кризиса.	249
14.8	Особенности проявления кризисных процессов в Узбекистане и пути их преодоления.	253
14.9	Обеспечение долгосрочных стабильных темпов экономического роста и сбалансированного экономического развития в нашей стране.	256
<b>15.</b>	<b>ДЕНЬГИ, ИНФЛЯЦИЯ</b>	259
15.1	Происхождение и сущность денег	259
15.2	Концепции денег	264
15.3	Функции денег	266
15.4	Инфляция:причины,виды,социально-экономические последствия	267
15.5	Антиинфляционная политика государства	273

15.6	Введение национальной валюты в Узбекистане - сума и способы обеспечения его стабильности	275
<b>16</b>	<b>ДЕНЕЖНАЯ ПОЛИТИКА</b>	279
16.1	Денежное обращение. Законы денежного обращения	279
16.2	Спрос и предложение на денежном рынке. Денежные агрегаты. Денежный мультипликатор	283
16.3	Принципы и инструменты денежно-кредитной политики	287
16.4	Денежно-кредитная политика в Узбекистане	291
<b>17.</b>	<b>БАНКОВСКАЯ СИСТЕМА</b>	295
17.1	Банковская система. Центральный банк и его функции	295
17.2	Коммерческие банки и их функции	300
17.3	Рентабельность и ликвидность коммерческих банков	304
17.4	Совершенствоване банковской системы Республики Узбекистан	305
<b>18.</b>	<b>ФИНАНСОВАЯ СИСТЕМА. ГОСУДАРСТВЕННЫЙ БЮДЖЕТ И ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА</b>	308
18.1	Финансовая система государства	308
18.2	Структура государственного бюджета. Бюджетный дефицит и государственный долг	311
18.3	Принципы финансовой политики. Концепции государственной бюджетной политики	314
18.4	Налоговая система	316
18.5	Фискальная политика государства	320
<b>19.</b>	<b>БЕЗРАБОТИЦА</b>	322
19.1.	Понятие занятости, безработицы и полной занятости. Формы и масштабы занятости	322
19.3	Уровень безработицы и его определение. Экономические и социальные последствия безработицы. Закон Оукена	328
19.4	Взаимосвязь безработицы и инфляции. Кривая Филлипса	331
<b>20.</b>	<b>РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ДОХОДОВ, НЕРАВЕНСТВО И БЕДНОСТЬ</b>	333
20.1	Доходы населения и источники их формирования.	333
20.2	Неравенство доходов и его причины. Кривая Лоренца	335

20.3	Уровень жизни. Основные показатели уровня жизни	337
20.4	Бедность: сущность, методы измерения	339
20.5	Бедность в Узбекистане и способы ее сокращения	342
<b>21.</b>	<b>МИРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ЕЕ ЭВОЛЮЦИЯ.</b>	<b>346</b>
21.1	Становление, этапы развития и основные черты мирового хозяйства. Международное разделение труда	346
21.2	Содержание и формы международных экономических отношений	350
21.3	Международная экономическая интеграция	353
21.4	Мировой рынок и внешняя торговля.	357
21.5	Теории международной торговли.	360
21.6	Международная торговая политика	364
21.7	Присоединение Узбекистана к мировой экономике и его внешнеэкономическая деятельность	366
<b>22.</b>	<b>МЕЖДУНАРОДНЫЕ ВАЛЮТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ВАЛЮТНЫЙ КУРС.</b>	<b>369</b>
22.1	Международные валютные отношения. Развитие мировой валютной системы	369
22.2	Валютный курс. Валютный рынок.	373
22.3	Платежный баланс и его структура	380
	<b>ГЛОССАРИЙ</b>	<b>385</b>
	<b>ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА</b>	<b>396</b>



**A.M.TURSUNOV**

# **IQTISODIYOT**

**Muxarrir:** Shodmonqul Salom

**Tex. Muxarrir:** Otabek Fayzullayev

Bosishga 2021 yil 5dekabrda ruxsat etildi.  
Bichimi 84/108 1/32. Bosma tabog'i 26.  
Adadi 100 dona. Bahosi shartnoma asosida

«Book Media Plus» xususiy bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent, Chilonzor tumani, Cho'ponota ko'chasi, 6-uy.